



**Ўзбек  
филологиясида  
матншунослик ва  
манбашунослик  
муаммолари**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK FILOLOGIYASIDA MATNSHUNOSLIK**  
**VA MANBASHUNOSLIK MUAMMOLARI**

mavzusidagi

**IV XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN**  
**MATERIALLARI**

**2026-yil 4-iyun**

**1-kitob**

Namangan – 2026

Mazkur to‘plamda “O‘zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari” mavzusida xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ilmiy-amaiy anjuman materiallari jamlangan. To‘plamdan respublikamiz va xorij olimlarining matnshunoslik va manbashunoslik muammolariga bag‘ishlangan maqolalari, shuningdek, yosh tadqiqotchilar, magistrant va iqtidorli talabalarning ilk tadqiqotlari ham o‘rin olgan.

***Mas’ul muharrir:***

Faridaxon KARIMOVA, filologiya fanlari doktori, dotsent

***Muharrirlar:***

Mo‘minjon Sulaymonov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sabaxon Jo‘raboyeva, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mahmuda Otaxonova, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası o‘qituvchisi

Guljahon Aliyeva, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası doktoranti

***Taqrizchilar:***

Nurboy JABBOR, filologiya fanlari doktori, professor

Nosirjon ULUQOV, filologiya fanlari doktori, professor

NamDU ilmiy-texnik kengashi yig‘ilishining 2026-yil 27-maydagi 5-sonli qaroriga muvofiq nashr etishga tavsiya qilingan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflar

**Namangan davlat universiteti rektori,  
tarix fanlar doktori, professor A.K.Kirgizbaevning  
anjuman ishtirokchilariga**

**TABRIK SO‘ZI**

***Assalomu alaykum, qadrli anjuman ishtirokchilari!  
Hurmatli mehmonlar!***

Namangan zamini – o‘nlab iste’dodli shoir-u allomalarni voyaga yetkazgan, kamolotning yuksak pog‘onalariga ko‘targan tuproq. Uning bag‘rida Asiruddin Axsikatiy, Boborahim Mashrab, Usmon Nosir, So‘fizoda, Ishoqxon Ibrat, Nodim Namongoniy, Rafiq Mo‘min, Zafar Diyor, Chustiy. Habib Sa’dulla singari ulug‘ shoir va yozuvchilar ulg‘ayib kamolga yetgan, dunyo ilm-fani, adabiyoti va madaniyati rivojiga o‘zlarining munosib ulushlarini qo‘shgan. Avvalo, ulug‘olim-u fozillar yurti bo‘lgan go‘zal Namanganga xush kelibsizlar.

Namangan davlat universitetida o‘tkazilayotgan bugungi anjuman O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligi bayrami nishonlanadigan yilda hamda Namanganda 65-Xalqaro gullar festivali davom etayotgan shukuhli lahzalarda o‘tayotganligi bilan ham qadrlidir.

Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlarimizni tiklashga, qadim tarixga ega bo‘lgan boy madaniy merosimizni o‘rganishga, tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan 35 yil ichida ulug‘ ajdodlarimizning nomlarini abadiylashtirish, ularning ma’naviy merosini o‘rganish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, keyingi 10 yilda muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoev tashabbuslari bilan mumtoz adabiyotimizni xalqimizga yanada yaqinlashtirish, bu noyob merosni ma’naviyatimizning hayotbaxsh manbaiga aylantirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar o‘zining ijobiy samarasini berayotganligi barchamizga faxr va g‘urur bag‘ishlaydi.

Bugungi anjuman Davlatimiz rahbarining 2017 yil 24 maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2995-sonli qarorini amalga



oshirish borasida tashlangan dadil qadam, desak hech bir mubolag'a bo'lmaydi.

Elimizning Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Nodira kabi o'nlab benazir shoirlari kelajak avlod uchun katta adabiy meros qoldirgan ekanlar, adabiyotshunoslik va tilshunoslik ilmi to'xtab qolmaydi. Ularning shaxsi, ijod olami, mahorat sirlarini o'rganish, tadqiq etish davom etadi. O'ylymanki, bugungi anjumanda ham shu maqsadga qaratilgan ma'ruzalar o'qiladi, o'zaro fikr almashinadi, kelgusidagi vazifalar belgilab olinadi.

Bugungi anjumanga yuborilgan maqolalar orasida xorij hamda o'zbek matnshunos va manbashunos olimlari hamda respublikamizdagi barcha oliy o'quv yurtlari tadqiqotchilari, magistr va talabalarining ham borligi, ularning tadqiqotlarida adabiy merosimizga matshunoslik va manbashunoslik ilmi nuqtai nazaridan o'ziga xos yondashuvlari mavjudligi, mazkur soha rivojida yoshlarning ham muayyan darajada o'rni borligi bizni behad mamnun qiladi.

Konferensiya ishida nafaqat o'zbek, balki Ozarbayjon, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston, Evropa kabi davlatlarning etakchi olimlari ham ishtirok etayotganliklari uning nufuzi qanchalik ulug'vor ekanligidan dalolat beradi.

Men bugun bu dargohda o'qiladigan ma'ruzalar va muhokama qilinadigan masalalar filologiya sohasida yangi tadqiqotlarning yaratilishiga turtki bo'lishiga ishonaman.

Fursatdan foydalanib, bugungi anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

**E'tiboringiz uchun rahmat!**

# O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MUAMMOLARI

---

## IS'HOQXON IBRAT ASARLARI MATNINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI

*Nurboy Jabborov,*

*ToshDO' TAU professori, filologiya fanlari doktori*

[nurboyjabborov1966@gmail.com](mailto:nurboyjabborov1966@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Is'hoqxon to'ra Ibrat adabiy-ilmiy merosining adib yashagan davr va bugungi zamon uchun qimmatini belgilovchi omillar tahlil etilgan. Adib she'riy asarlarining manbalarini, ularning qo'lyozma va nashriy nusxalarini matniy-qiyosiy o'rganish zarurati asoslangan. "Mezon uz-zamon" asarining dunyo xalqlari yozuv tarixi hamda arab yozuvi turlarini tadqiq qilishdagi o'rnini aniqlash tamoyillari aniqlangan. "Lug'ati sittati alsina" asarining yangi tayyorlangan ilmiy-izohli nashri xususiyatlari yoritilgan. "Tarixi Farg'ona" asarining yurtimiz tarixi va Qo'qon adabiy muhitini o'rganishdagi ahamiyatini tadqiq qilish yuzasidan ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** manba, matn, qo'lyozma, matbuot, qiyosiy-matniy tahlil, matn tarixi.

**Annotation:** This article analyzes the factors that determine the significance of the literary and scholarly heritage of Is'hoqxon To'ra Ibrat both in the historical context of the author's lifetime and in the present day. The study substantiates the necessity of a comparative textual analysis of the sources of the author's poetic works, including their manuscript and published versions. It identifies the methodological principles for assessing the role of the work "Mezon uz-zamon" in the study of the history of world writing systems and the varieties of the Arabic script. The specific features of the newly prepared annotated scholarly edition of "Lug'ati sittati alsina" are elucidated. Furthermore, the article advances scholarly perspectives on the significance of "Tarixi Farg'ona" in researching the history of the region and the literary environment of Kokand.

**Keywords:** source, text, manuscript, press, comparative textual analysis, textual history.

Biz mamlakatimiz tarixining yangi davriga qadam qo'ydik. Adabiyotga, ma'naviyatga bo'lgan e'tibor bugungi kunda har qachongidan ham yuksak darajaga ko'tarilayotganiga guvohmiz. Birgina Is'hoqxon Ibrat adabiy-ilmiy merosini o'rganishga ko'rsatilgan e'tibor ham buning yaqqol dalilidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va taklifi bilan Namangan shahrida vodiya yagona bo'lgan "Ibrat majmuasi" bunyod etilgani ham buni tasdiqlaydi. Majmua xiyobon, muzey, xorijiy tillarni o'rganish maktabi va Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti kabi ma'rifiy muassasalarni o'z ichiga olgani ko'p tillarni bilgan, jahonning aksar xalqlari yozuvidan xabardor bo'lgan adib ruhiga, ayniqsa, har jihatdan muvofiq. Davlatimiz rahbari buyuk adibning Ibrat taxallusini tanlashi bejiz bo'lmagani, bu ulug' siymo bugungi kunda ham barchamizga har jihatdan ibrat bo'la olishini alohida ta'kidlagani zamirida teran mazmun mujassam.

Savol tug'iladi: ulug' mutafakkir merosiga bu qadar katta e'tibor qaratilishi sababi nimada? Biz Is'hoqxon Ibrat merosining qaysi jihatlarini chuqur o'rganishimiz, o'sib kelayotgan yosh avlod qalb-u shuuriga qay bir fikrlarini teran singdirishimiz kerak? Bu benazir ijodkor siyratidagi, asarlaridagi qaysi fazilatlar bugungi zamonamiz uchun ham qadrlil va aziz? Shoir adabiy-ilmiy merosini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik aspektida tadqiq qilishning ustuvor masalalari nimalardan iborat?

**Birinchidan,** Is'hoqxon to'ra Ibrat shoir va olim, noshir va pedagog, din arbobi va islohotchi sifatida butun ilm-u zakosini, bor kuch va salohiyatini Vatan va millat taraqqiysiga munosib xizmat qilish yo'liga safarbar etdi. Shu bois uning boy adabiy-ilmiy merosi nainki mamlakatimiz, hatto uzoq va yaqin xorijda ham keng o'rganilmoqda. Shoir she'rlarining salmoqli so'zboshi bilan Turkiyada chop etilgani [Ibrat, Ankara: 2000], "Mezon uz-zamon" asarining yapon olimlari bilan

hamkorlikda nashr qilingani [Is'hoqxon to'ra, Toshkent-Tokio, 2001] ushbu fikrni tasdiqlaydi.

**Ikkinchidan,** Is'hoqxon to'ra Ibratning iste'dodi qamrovi kengligi, ilm talab qilishdagi ayricha shijoati zamonamiz yoshlari uchun chin ma'noda ibrat namunasi bo'la oladi. Uning zamondoshi Ibrohim Davronning mana bu so'zlari ham ushbu fikr dalilidir: "Is'hoqxon to'ra ulumi diniya va fanniya va adabiyada ustoz komilligi bilan butun Farg'ona va digar jihat Osiyoi vustoda inkor o'lunmas darajada bir mavqei mumtoza tutmushdur. Is'hoqxon to'ra ulumi diniyada mudarrisdur, fununi dunyaviyda biloshubha arxitektor, texnik va mexanik va fiziqliya ilminda tilifonist, tilig'rofist va ximik desak yana ozdur, chunki bu ilmlarni bilur. Is'hoqxon to'ra olim va fozil bir zoti oliy bo'lub, bu turfa fazoili insoniyaga molik... Ba'zi ixtiroti ham bordur" [Ibrohim Davron. TVG, 1908].

Darhaqiqat, Is'hoqxon to'ra millat taraqqiysi uchun zarur bo'lgan barcha ilmlarni puxta egalladi, ushbu sohalar bilan muntazam shug'ullandi. Ma'rifatni targ'ib etuvchi she'rlar ijod qildi, zamonasining o'tkir muammolariga doir publitsistik maqolalari bilan matbuotda faol qatnashdi. Tarixiy ("Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat"), ilmiy ("Jome' ul-xutut", "Lug'ati sittati alsina") asarlar yozdi. "Usuli savtiya" maktablari tashkil etib, o'qitish sohasida katta samaralarga erishdi. Litografik mashinani Orenburgdan Qo'qongacha poyezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'ongacha tuyada olib kelib, "Matbaai Is'hoqiya"ni tashkil etdi. Matbaa logotipida nur taratayotgan quyosh tasviri o'rtasiga "ilm" so'zi naqshlangani ilm-u irfon tarqatish buyuk ma'rifatparvar faoliyatining bosh mezoni bo'lganidan dalolat beradi.

Is'hoqxon to'raning bugungi yoshlar ibrat olishi zarur bo'lgan fazilatlaridan yana biri ilmga so'ngsiz rag'bat, uni egallash yo'lidagi chinakam g'ayrati va shijoatidir. "Jome' ul-xutut" asaridagi "Har bir zavvor va ahli fazl kishini ko'rsam, kayfiyat va ta'limot maollarin andin so'radim" [Ibrat, 1912: 5], degan so'zlari uning bir inson umri yetishi mahol bo'lgan ulkan ishlarni amalga oshirgani bejiz emasligidan darak beradi. Ilm olish yo'lida u hech bir mehnat-u mashaqqatdan



chekinmagan, oldiga ulug‘ maqsadlar qo‘ygan, ularni amalga oshirishga muttasil intilgan. Bu esa, o‘z navbatida, yuksak natijalarga olib kelgan.

**Uchinchidan**, bugun biz chet tillarini o‘rganish zarurati haqida ko‘p gapiramiz. Ko‘p til biladiganlarga havas bilan qaraymiz, tahsin aytamiz. Bu borada Is’hoqxon to‘ra Ibrat darajasiga erishmoq har kimga ham nasib etmasligini esa ko‘p-da o‘ylab o‘tirmaymiz. Ibrohim Davron yuqorida ta’kidlangan maqolasida bu ulug‘ mutafakkirning turk, fors, hind, rus tillarini bilgani haqida yozadi. Hindistonda ekan, Ibrat ingliz tilini ham o‘rganadi. Mutafakkir til bilish safar ahli uchun, ayniqsa, ahamiyatli ekaniga alohida urg‘u beradi. “Sayohat etdugum vaqtlarida Afg‘oniston, Hindiston va Forsiston shaharlari sayohatida... bir lison safar ahlina yuz oltun barobarinda ishladi” [Ibrat, 1912: 7], degan so‘zlari buni tasdiqlaydi.

Zamondoshlarining e’tiroficha, Is’hoqxon to‘ra Ibrat o‘zi qaysi bir fazilatga erishgan bo‘lsa, ayni fazilatlarni boshqa odamlarda ham mukammal suratda ko‘rmoq istagan. Ana shunday xayrli istak “Lug‘ati sittati alsina” (“Olti tilli lug‘at”) asarining yaratilishiga sabab bo‘lgan. Nainki o‘tgan XX asr, hatto bugungi XXI yuzyillikda ham uch-to‘rt tilli lug‘atlar tuzilgani ma’lum, biroq olti tilli lug‘at yaratilgan emas.

“Lug‘ati sittati alsina” – jahon lug‘atshunosligi tarixidagi noyob hodisa. Mazkur lug‘at o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillari leksikasi asosida tuzilgan. Lug‘atni yaratar ekan, muallif mazkur tillardagi o‘sha zamon uchun eng faol so‘zlarni tanlagan. Natijada bu lug‘at millat yoshlarining mazkur olti tilda og‘zaki muloqot uchun eng zarur so‘zlarni o‘rganishlariga keng imkoniyat yaratgan. O‘zbek leksikografiyasining bugungi kundagi rivoji uchun bu tajribadan ijodiy foydalanish katta samara bergan bo‘lar edi.

**To‘rtinchidan**, muallif tarixni o‘rganish, undan saboq olish, millatning taraqqiyoti yo‘lida foydalanish nechog‘liq muhim ekanini nainki chuqur angladi, boshqalarga anglatishda ham jidd-u jahd ko‘rsatdi. O‘zidan avvalgi tarix kitoblarida faqat xonlarning urushlari vasf etilganini ta’kidlagan Ibrat ulardan qanoat hosil qilmaydi. Mashhur “Tarixi Farg‘ona”ning yozilishi sabablarini izohlar

ekan: "...men bu tariximda mubolag'aga oshurub maqtab va aqlning kosasig'a sig'maydurgan so'zlarni olmay, ba'zi xurofiy so'zlarni yozmay, to'g'ri va aql kosasiga sig'adurgan so'zlarni oldim va ajnabiy tarixlardan ko'proq yozdim" [Ibrat, O'zFA SHI 1108: 3-4], deya ta'kidlashi sababi shunda.

"Tarixi Farg'ona"da muarrixning milliy tildagi qo'lyozmalar bilan bir qatorda V.V. Radlov, V.V. Bartold va H. Vamberi asarlaridan foydalangani tarixiy asarlar yozishda boshqa xalqlar olimlarining uslublari va yondashuv tamoyillarini ham o'zlashtirganidan darak beradi. Natijada Ibrat tarix voqeligining haqqoniy tasviri orqali millatning bir necha asrlik tanazzuli sabablarini ilmiy asosda yoritib berdi. Bundan qanday xulosalar chiqarish zarurligiga alohida e'tibor qaratdi.

Is'hoqxon Ibrat geograf olim sifatida "Tarixi Farg'ona"da Farg'ona vodiysi, undagi shahar va qishloqlarning mufassal geografik tavsifnomasini berdi. Vodiyni o'rab turgan qo'shni davlatlar, tog'lar, o'lkadan oqib o'tadigan daryolar, iqlimi, havosi, yerlari, nabotot va hayvonot dunyosi, aholisining etnik qatlami, hunarmandchiliklari, ekinlari, savdo-sotiq ishlari, yerosti qazilma boyliklari haqidagi eng muhim ma'lumotlarni yoritdi. Hatto joy nomlarining kelib chiqishi masalasiga ham diqqat qaratdi.

**Beshinchidan,** yozuvlar tarixi bo'yicha nodir mutaxassis sifatida olib borgan izlanishlari Ibratning beqiyos ilmiy-ijodiy salohiyatiga dalil bo'la oladi. Bu jihatdan uning "Jome' ul-xutut" asari alohida ahamiyatga ega. Asarda qadimgi piktografik bitiklardan ibroniy, suryoniy yozuvlarigacha, sanskrit, qadimgi finikiy yozuvlaridan yunon, lotin yozuvlarigacha, hind, arman, gruzin yozuvlaridan arab, uyg'ur yozuvlarigacha – dunyo xalqlarining jami 41 xil yozuv tizimi haqida ma'lumot berilgan. O'sha davrda Turkistonda amalda bo'lgan arab xatining suls, tavqi', rayhoni, zulf, humoyun, turra kabi shakllari to'g'risida, husnixat san'ati xususida fikrlar bildirilgan. Muallif arab xati haqida so'z yuritib, dastlab ko'fiy va nasx yozuvlari joriy bo'lib, ulardan suls xati yaratilgani, sulsdan ta'liq, bu ikkisidan nasta'liq xati yuzaga kelganini aniqlaydi. Nasta'liq 900-hijriyda eronlik Xo'ja Mir Ali Tabriziy tomonidan ixtiro qilingani, bu xat Arabistonda joriy

bo'lmagani, undan, asosan, Hindiston, Turkiston va Koshg'ar taraflarda istifoda etilgani haqida yozadi.

Musulmoncha xatning o'n yetti turida qalam yurgizgan (Ibrohim Davron ta'rifi – N.J.), dunyo xalqlari yozuvi tarixini o'rganib, “Jomi' ul-xutut”dek noyob asar yaratgan allomaning bu boradagi merosini yanada chuqurroq va mufassalroq o'rganish galdagi vazifalardandir.

**Oltinchidan**, ulug' ma'rifatparvar nazari tiyrak, dunyoqarashi keng bir ziyoli o'laroq, zamonaning jon tomirini ushlab, millatning tanazzul dardiga tashxis qo'ya bildi. Bu dardni muolaja etmoq uchun qalamini yurak qoniga botirib, “Mezon uz-zamon” asarini yaratdi. Zamondoshlarimiz millatning dardlariga darmon bo'lmoqni Is'hoqxon Ibrat singari ma'rifatparvarlardan o'rganmog'i zarur.

“Mezon uz-zamon” asari adib ijodiy merosida alohida o'rin tutadi. Asar nomiyoq e'tiborni tortadi – “Zamon tarozusi”. Bu asarida olim zamona evrilishlari va ularga millatdoshlarining munosabati masalasiga diqqat qaratadi. O'z ta'biri bilan aytganda, bu mezon ila o'z asriga baho beradi. Chunki “avvalgi zamon va keyingi zamonlarni(ng) bo'lak tarozusi bor” [Ibrat, O'zFA SHI 1108: 7].

Muallif bob o'rniga “mezon” atamasini qo'llaydi. Buning zamirida voqelikni idrok tarozisida tortish, unga munosib baho berish maqsadi mujassam ekanini sezish mumkin. Har bir mezonda muayyan masalalar tahlil etilishi ham bu fikrni tasdiqlaydi [Jabborov, 2022: 8]. Adib juz'iy so'zlar ustida o'rinsiz munozara qilib yurgan ulamo va fuzaloni Vatan va millat uchun kuyinmoqqa chaqiradi. Uning fikricha, “ittifoq va ittihad zarurligi hech kimni(ng) andishasida... Xudo amrinda ulamolardin amri ma'ruf, ag'niyodin ehson, binoi xayr-u imdod, fuqaro va umum un-nosdin harakati kasbi ilm” lozim. Taassufki, muallif fikricha, bizda bunday emas: “Ulamo va fuzalo va avom hama nafs xizmatidin bo'shamay, dunyo qilmoq, imorat, hasham, manfaati nafsiyalarin mubtalosi”. Aslida, adib ta'biricha, ziyolilar ummat va millatga xizmat qilmoqlari zarur edi.

Ikkinchi mezon millatni turli firqalarga ajralishdan qaytarish, ittifoq va ittihadga chaqirish mavzuiga bag'ishlangan. Bu mezonda adib odamlarning ittifoq bo'lib yashashlari zarurati haqidagi oyat va hadislardan iqtiboslar keltiradi, ularni

tafsir qiladi, sharhlaydi. Zamon voqealari bilan bog‘lagan holda o‘z munosabatini bildiradi.

Uchinchi mezon sudxo‘rlik, tijoratda xiyonat masalalari muolajasiga bag‘ishlangan. Bu illatlar asarda millat tanazzulining asosiy omillari sifatida talqin etilgan. “...paxta tijoratiga o‘rgangan kishilarda shariati islomiyaga muxolif uch katta gunoh muayyandur...– deb yozadi adib. – Birinchisi, tarozuda kam olmoq. Ikkinchisi, xiyonat. Uchinchisi, paxta berolmagan kishiga summasiga 55 tiyindan shtrof hisob qiladurlar. Ulamolar bo‘lsa, bu xil ishlar xususida amri bil-ma’rufdan hifz qilib, dam urmaslar. Mashoyixlar bo‘lsa, o‘z maishati joh va hashamlariga ovvora bo‘lub, jam’i mol-u mulkka banddurlar”.

To‘rtinchi mezonda ilm, badaviyat va tafakkur haqida, avlod tarbiyasi va usuli savtiya maktablarining millat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan. Beshinchi mezonda xalqimizning avvalgi harakatlari va yangi zamondagi ishlari xususida bahs qilingan. “Asrimiz ilm-u hunar, harakat asridur... – deb yozadi adib, – turmoq asri emas. G‘ofil tursa, g‘aflat uyqusidan turguncha, bozori olam o‘tub ketadur. O‘rganmoq darkor. E’tibor qilinglar, ey oqillar!”

Oltinchi mezon bid‘at va ortiqcha sarf-xarajatlarga ruju qo‘yish, fikrsizlik illatlarining muolajasi xususida. Yettinchi va sakkizinchi mezonlar libos borasidagi munozaralar haqida, odamga emas, libosga ixlos qo‘yishning, dunyoparastlikning salbiy oqibatlarini to‘g‘risida. To‘qqizinchi mezonda o‘tmish va zamon voqealari muqoyasa qilinadi, muhim xulosalar chiqariladi.

Asar matni ustidagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, uning oxiri yo‘q, tugallanmagan. Lekin shu holda ham “Mezon uz-zamon” Is’hoqxon Ibrat asarlari ichida o‘ziga xos o‘rin tutishini anglash mumkin.

**Yettinchidan,** Ibrat yashagan davrda millatni inqiroz girdobidan olib chiqish, dunyoning mutaraqqiy xalqlari darajasiga yuksaltirishdek og‘ir va murakkab vazifa kun tartibida turar edi. Buning uchun zamonaviy bilimga ega, fikri ochiq, mas’uliyatni zimmasiga ola biladigan yangi avlodni yetishtirmoq zarur edi. Maktab-maorif tizimini tubdan isloh etish orqaligina bunga erishmoq mumkin edi. Is’hoqxon Ibrat birinchilardan bo‘lib katta shijoat bilan yangi usul maktablari

tashkil etish ishiga kirishdi. O‘qitish tizimiga “usuli savtiyai tadrijiya” metodini olib kirdi. O‘z maktabini parta, stol-stul, yangi kitoblar, darsliklar, daftar, qora taxta (doska), kurrai arz (globus) singari zamonaviy o‘quv ashyolari bilan ta’minladi. Milliy ta’lim tarixida yangilik hisoblangan haftalik dars jadvalini joriy qildi.

Professor Ulug‘bek Dolimov e’tiroficha, Is’hoqxon Ibrat maktabidagi darslar “...ko‘p hollarda “Is’hoqiya bog‘i”da maxsus harakatli o‘yinlar tarzida o‘tkazilgan. 1912-yildan e’tiboran xuddi shu maktabda alohida qizlar guruhini tashkil qilgan va bu guruhga Husayn Makayevning rafiqasi Fotiha Makayevani o‘qituvchi etib tayinlagan. Is’hoqxon Ibrat zamonasining ulug‘ pedagogi sifatida bolalarni maktabdan bezdiruvchi, ularda muallimga nisbatan hurmat emas, nafrat uyg‘otuvchi tan jazosiga birinchilardan bo‘lib qarshi chiqdi. U faqat maktabda emas, oilada ham bolalarni kaltaklab tarbiyalash o‘ta noto‘g‘ri usul ekanligini alohida ta’kidlaydi” [Dolimov, 2012: 164].

Ta’lim-tarbiya sohasida kutilgan natijaga erishmoq uchun, birinchi navbatda, millatning ong-u tafakkurini o‘zgartirmoq zarur edi. Ibrat va boshqa ma’rifatparvarlarimiz o‘qish-o‘qitish sohasida joriy etgan yangiliklar milliy maktab-maorif tizimi taraqqiyotida burilish yasadi, ziyolilarning yangi avlodini yetishtirishda muhim rol o‘ynadi.

Agar charxi kajraftor Vatanimiz va millatimiz foydasi tarafiga aylanganida, sho‘rolar tuzumining qattol qatag‘on mashinasi millat ziyolilarining gullarini o‘z girdobiga tortmaganida edi, ma’rifatparvar jadidlar, shu jumladan, Is’hoqxon Ibrat orzu qilgan yuksak taraqqiyot darajasiga bundan yuz yil avval erishmog‘imiz mumkin bo‘lardi. Taassufki, mash‘um 1937-yilda butun vujudidan, ruhiyatidan ma’rifat nuri taralib turgan 75 yoshli Ibrat “qora mashina” to‘la kitoblari bilan birga olib ketildi, “millatlar turmasi”ning qurboniga aylandi. Biroq Ibrat va izdoshlarining ezgu g‘oyalarini qatl-u g‘orat qilish imkonsiz ekani ayon edi...

Tarix bergan birinchi imkoniyat samarasi o‘laroq qo‘lga kiritilgan mustaqillik Is’hoqxon to‘ra Ibrat va uning zamondoshlari ekan ma’rifat nihollariga qayta hayot bag‘ishladi. Vatan va millat ular orzu qilgan zamonlarga yetishi bilanoq ulug‘



ma'rifatparvar ajdodlarimiz xotirasi munosib qadrlana boshladi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Namanganda barpo etilgan ma'rifat majmuasi yuzlab, minglab Ibratlarni tarbiyalab yetishtirishi aniq. Bu esa, o'z navbatida, Is'hoqxon to'ra Ibrat asarlari matnini o'rganish borasida tadqiqotchilarini kutayotgan ilmiy muammolarni belgilab olish vazifasini kun tartibiga qo'yadi. Bu muammolar, bizningcha, quyidagilardan iborat:

*Birinchidan*, Is'hoqxon Ibrat asarlarining mamlakatimiz va dunyo kutubxonalari hamda qo'lyozmalar fondlarida saqlanayotgan manbalarini bir joyga to'plash, monografik tavsifini amalga oshirish, ularning manbashunoslik aspektidagi qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirish zarur. Bunda Ibrat asarlarining qo'lxat nusxalari va ijodkorning o'z nazoratida ko'chirilgan manbalariga ustuvorlik berish taqozo etiladi.

Ijodkor asarlarining ishonchli toshbosma nusxalari va o'sha davr matbuoti materiallarini izchil tadqiq qilish, shu paytgacha ilm ahliga ma'lum bo'lmagan she'rlari va publitsistik maqolalarini aniqlash, shoir she'riyatining matn tarixini aniqlash matnshunoslik uchun alohida ahamiyatga ega.

*Ikkinchidan*, "Jome' ul-xutut" asarining joriy imlodagi va asliyati faksimilesini mukammal ilmiy izohlar bilan bir jildda chop ettirish kerak. Asar manbalarining qiyosiy tahlili amalga oshirilishi, dunyo xalqlari yozuv tarixi hamda arab xati turlarini o'rganishdagi ahamiyati mufassal tadqiq qilinishi ilmiy ehtiyojdir.

*Uchinchidan*, biz buyuk olimning "Lug'ati sittati alsina" asarini joriy imloga tabdil etganmiz, matnga ilmiy izohlar tuzilgan. Ma'lumki, Is'hoqxon Ibrat Turkiston aholisiga tushunarli bo'lishi, vatandoshlari amaliy faoliyatda foydalanishi zaruratini hisobga olib, o'zbek, turk, arab, fors, hind va rus – barcha tillardagi so'zlarni bir xil – arab imlosida bergan. Biz hind tilidagi so'zlarni – hind, ruscha so'zlarni – rus, turkcha so'zlarni zamonaviy turk yozuvida transkripsiyasi bilan nashrga tayyorladik. Bundan mazkur til egalari bo'lgan ilm ahli Is'hoqxon Ibrat tuzgan lug'atning ilmiy-amaliy ahamiyatini teranroq anglashi maqsad qilindi. Ushbu asarni asliyat faksimilesi va ilmiy izohlar bilan nashr ettirish ham, shubhasiz, ibratshunoslikni yangi ma'lumotlar bilan boyitadi.

*To'rtinchidan*, "Tarixi Farg'ona" asarining Is'hoqxon Ibrat qo'li bilan ko'chirilgan mo'tabar nusxasi mavjud. Ushbu asarning ham mamlakatimiz va dunyo fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalarini qiyosiy o'rganish, matn tarixini tadqiq qilish hamda ilmiy-tanqidiy matnini amalga oshirish zaruriyatidir. Bunday tadqiqot asarning mukammal matnini yuzaga keltirish imkonini yaratishi barobarida undagi turli fanlarga doir ilmiy qarashlarni tizimli o'rganish hamda Qo'qon adabiy muhitiga doir mavjud ma'lumotlarni yangilari bilan boyitish uchun boy material beradi.

Xulosa qilib aytganda, amalga oshirilajak tadqiqotlar Is'hoqxon to'ra Ibratning benazir adabiy-ilmiy merosini to'laqonli o'rganishda muhim asos bo'ladi. Ilm va zako, g'ayrat va shijoat, ma'rifat va ziyo yo'lidagi intilishlarida millat yoshlariga qanot bag'ishlaydi. Vatan va millatga muhabbat, fidoyilik va ma'rifat bobida asrlar davomida barcha-barchaga ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Долимов, Улуғбек, Жабборов, Нурбой. "Асардурки, оламға ўлғай нишон..." // Исҳоқхон тўра Ибрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2005.
2. Долимов, Улуғбек. Миллий уйғониш педагогикаси. – Тошкент: Noshir, 2012.
3. Jabborov, Nurboy. Is'hoqxon Ibrat zakosi. /Is'hoqxon Ibrat. G'azallar, ilmiy va ma'rifiy maqolalar, tarixiy asarlar (Nashrga tayyorlovchilar: Ulug'bek Dolimov, Nurboy Jabborov). – Toshkent: Zabarjad Media, 2022.
4. Исҳоқхон тўра Ибрат. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши, изох ва луғат муаллифлари Улуғбек Долимов, Нурбой Жабборов). – Тошкент: Маънавият, 2005.
5. İshakhan İbret. Şiirlari. Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. 15. Özbek Edebiyatı. – Ankara, 2000.
6. Исҳоқхон тўра ибн Жунайдуллоҳ хўжа. Мезон уз-замон. – Тошкент-Токио, 2001.
7. "Туркистон вилоятининг газети", 1908, 56-сон.
8. Исҳоқхон Ибрат. Жомий ул-хутут. – Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912 – Б. 5.
9. Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. ЎЗР ФАШИ қўлёзмалар фонди, 11080 рақамли қўлёзма. – Б. 3-4.
10. Исҳоқхон Ибрат. Мезон уз-замон. ЎЗР ФАШИ қўлёзмалар фонди, 11618 рақамли қўлёзма.

## MATN VA TAHLIL MUAMMOLARI

**Boqijon To'xliev,**  
*filologiya fanlari doktori, professor,  
O'zR FA O'TAFI Adabiyot nazariyasi va  
adabiy aloqalar bo'limi mudiri*

**Annotatsiya:** Maqolada Nasimiy g'azali asosida matn va uning tahlili haqida so'z yuritiladi. Asosiy e'tibor matndagi intertekstuallik va uning namoyon bo'lishidagi o'ziga xosliklar haqida mulohazalarga qaratilgan. Bunda matn va uning izohi hamda sharhlari uchun Amir Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asariga tayanilgan.

**Kalit so'zlar:** Nasimiy, g'azal, tahlil, intertekstuallik, Alisher Navoiy, "Lison ut-tayr".

**Abstract:** The article discusses the text and its analysis based on Nasimi's ghazal. The main attention is paid to considerations about intertextuality in the text and the peculiarities of its manifestation. In this, the text and its explanation and comments are based on Amir Alisher Navoi's work "Lison ut-tayr".

**Key words:** Nasimi, ghazal, analysis, intertextuality, Alisher Navoi, "Lison ut-tayr".

Matn bugungi tilshunoslik va adabiyotshunoslikning eng jiddiy muammolaridan biridir. Biz mulohazalarimizni Nasimiyning bir g'azali misolida izohlashga harakat qilamiz:

*hanba kuni man uchradim ul sarvi ravona,  
Shaydo qilibon soldi mani jumla jahona.*

*Yakshanba kuni Majnun o'lib, hayroni o'ldim,  
Ko'rdim yuzin, o'xshatdim uni mohi tobona.*

*Dushanba kuni rozi-dilimni dedim oxir,  
Ul ko'zlari nargiz, o'zi gul, qoshi kamona,*

*Seshanba kuni sayyod o'lib, sayropa chiqdim,  
Men sayd o'libon, qurbon o'lam pistadahona.*

*Chorshanba kuni yor kaza keldi chaman ichra,  
Bulbul daxi ko'rdi yuzini, tushdi fig'ona.*

*Panjshanba kuni yora dedim, pandim eshitgil,  
Fosh etma bu rozi dilimi yaxshi-yomona.*

*Odina kuni ko'rdi jamolini Nasimiy,  
Ichdi labi la'lin shakarin ul qona-qona.*

### **G'azalning nasriy bayoni:**

Shanba kuni men o'sha qaddi go'zal (yor)ni uchratdim.  
U meni o'ziga shaydo qildi-yu, meni jumla jahonga afsona qildi.

Yakshanba kuni Majnun bo'lib, (uning) hayroni bo'ldim,  
yuzini ko'rib uni mohi tobonga o'xshatdim.

Dushanba kuni, nihoyat o'sha ko'zlari nargiz, o'zi gul,  
Qoshi kamonga dil rozimni aytdim,

Seshanba kuni sayyod (ovchi) bo'lib, sayr etishga chiqdim,  
O'sha pistadahonga qurbon bo'layinki (o'zim) unga ov bo'ldim.

Chorshanba kuni yor chaman ichini kezib kelib qoldi,  
Buning yuzini ko'rgan bulbul, nolayu faryod qilishga kirishdi.

Panjshanba kuni yorga: pandim eshitgin,— dedim,—

Dilimning bu yashirin sirlarini yaxshi-yomonlarga aytib yurmagin.

Nasimiy Odina kuni (uning) jamolini ko'rdi va  
labi la'lidagi shakarini ul qonib-qonib ichdi.

G'azalning mazkur shakli uni izoh va sharhlash uchun ko'plab manbalarga murojaat etishni talab qiladi. Zero, uning o'zi ham ko'plab manba va tasavvufiy qarashlar asosida shakllangan.

G'azal yetti baytdan iborat. Bu haftaning yetti kuni bilan uyg'un kelgan. Har bir kun alohida-alohida tavsiflar uchun omil bo'lgan. E'tibor berilsa, vasf shanba kunidan boshlanmoqda. Hozirgi tasavvurlardan farqli ravishda, Shrqda hafta shanba bilan boshlanib, juma bilan yakunlangan. Sharqda, jumladan, turkiy xalqlarda hafta kunlarini yaxshi va yomonga, "qutlug'" va "qutsiz"ga ajratish odatlari ancha qadimgi davrlardan beri amal qilib keladi. Jumladan, Yusuf xos Hojib o'n birinchi asrda "Bu kun qutlug'i bar, yema qutsuzi" deb yozgan edi. Mazkur g'azal ham mana shu e'tiqodning o'ziga xos ifodalari sifatida yuzaga kelgan. Har bir kunning ilohiylashtirilishi e'tiborni tortadi. Mutaxassislar Nasimiy ijodida adibning irfoniy shaxsiyati yetakchi mavqk qozonganini bejiz ta'kidlashmagan. Jumladan, Nasimiy muxlislaridan biri, olim Saodat Shixieva bu haqda alloma shoirning "adabiy shaxsiyatidan ko'ra uning tasavvufiy shaxsiyatining yetakchi o'rinda" turishini qayd etadi.

Adibning bir qarashda hafta kunlari bilan bog'liq tafsilotlar tasviriga bag'ishlangan g'azali ham ayni mana shu ruh – "tasavvufiy shaxsiyatining yetakchi o'rinda" turishi bilan e'tiborga molik.

7. **odina (juma)** voqea yakun topgan kun – **(Fano) yechim**
6. **payshanba** Voqea rivoji (Hayrat)
5. **chorshanba** Voqea rivoji (Tavhid)
4. **seshanba** Voqea rivoji (Istig'no)
3. **dushanba** Voqea rivoji (Ma'rifat)
2. **yakshanba** Voqea rivoji **(Ishq)**

## 1. **shanba** *Voqea boshlangan kun – (Talab) tugun*

Gʻazalda inson kamolotining шаклланишидаги pillapoyalar ‘ziga xos tasvirini topgan.

Endilikda “intertekstuallik” degan atama tilshunoslikda ham, adabiyotshunoslikda ham ancha faol qoʻllana boshladi. Uning sharqona shakllari haqida ham gapirish ehtiyojlari yuzaga kelmoqda. Qarangki, Nasimiyning mazkur gʻazalini toʻla tushunish, his qilish va uning adabiy-estetik jihatdan tahlil qilish uchun ayni mana shu hodisaga murojaat qilish koʻpgina qulayliklarni yaratib berishi bilan eʼtiborni tortadi.

Gap shu yerdaki, Nasimiy gʻazali – irfoniy yoʻnalishda bitilgan. U insonning maʼnaviy kamoloti haqidagi gʻoyalarning oʻziga xos adabiy-estetik ifodasidir. Shunga qaramay, uni tushunish, “qabul qilish” koʻpchilik uchun oson kechmaydi.

Hozirgi adabiyot nazariyotchilaridan biri V.E.Xalizev qayd etganidek, “Zamonaviy adabiyotshunoslikda "intertekstuallik" atamasi keng qoʻllanmoqda va oʻziga xos eʼtibor qozondi. U koʻpincha matnlararo aloqalarning umumiy toʻplamini nazarda tutadi, ular nafaqat ongsiz, avtomatik yoki oʻz-oʻzidan iqtibos keltirish, balki oldingi matnlar va adabiy faktlarga ataylab, mazmunli va baholovchi murojaatlarni ham oʻz ichiga oladi” .

Bu bir matnning boshqa bir matn asosida tasvvur qilish, tushunish va izohlash uchun ham yoʻl ochadi. Tasavvurni oydinlashtirish uchun Nasimiy gʻazali va Navoiy masnaviysidagi bandlarni yonma-yon keltiramiz:

| Насимий байтлари                                                                            | Navoiy bandlari                                                                 |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Shanba</b> kuni man uchradim ul sarvi ravona,<br>Shaydo qilibon soldi mani jumla jahona. | <b>Vodiyi avval — Talab</b> vodiysidur,<br>Boshlagʻon ul yon sharaf hodiysidur. |
| <b>Yakshanba</b> kuni Majnun oʻlib, hayroni                                                 | <b>Ishq</b> vodiysidur ondin soʻngra bil,                                       |



|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| o'ldim,<br>Ko'rdim yuzin, o'xshatdim uni mohi tobona.<br><br>Dushanba kuni rozi-dilimni dedim oxir,<br>Ul ko'zlari nargiz, o'zi gul, qoshi kamona,<br><br>Seshanba kuni sayyod o'lib, sayrona chiqdim,<br>Men sayd o'libon, qurbon o'lam pistadahona.<br><br>Chorshanba kuni yor keza keldi chaman<br>ichra,<br>Bulbul daxi ko'rdi yuzini, tushdi fig'ona.<br><br>Panjshanba kuni yora dedim, pandim eshitgil,<br>Fosh etma bu rozi dilimi yaxshi-yomona.<br><br>Odina kuni ko'rdi jamolini Nasimiy,<br>Ichdi labi la'lin shakarini ul qona-qona | Ul o't ichra bor-u yo'qni o'rtagil,<br><br>Ishq chun qildi vujudingni adam,<br><b>Ma'rifat vodiysig'a</b> urdung qadam.<br><br><b>So'ngra Istig'nog'a vodiydur vase'</b><br><br>Pastdur junbida bu charxi rafe'.<br><br><b>Vodiyi Tavhid</b> bil, ondin nari,<br>Fard bo'lmoq necha borsang ilgari.<br><br>Mundin o'tsang <b>vodiyi Hayratdurur,</b><br>Vodiyi Hayratda ko'p shiddatdurur<br><br>Borchadin so'ng vodiyi <b>Faqr Fano,</b><br>O'tmas ondin sayr ila solik yano. |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Bu hozircha juda kichkina bir tajriba, xolos. Nazarimizda, bu yo'nalishdagi ishlarga alohida urg'u berish kerak. Shunda, mumtoz adabiyotimizdagi ko'plab masala va muammolarning yechilishiga ham, badiiy asarlarimizning tahlil va talqinlaridagi aniqlik va teranlikning ham yangi dovonlaridan oshib o'tishi qulaylashadi. Bundan olimlarimiz ham, eng muhimi, mumtoz adabiyotimizning ashaddiy shaydolari, keng qamrovdagi muxlislarimiz ham faqat yutadi, xolos.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 12- т. Лисон ут-тайр.Изоҳлар билан нашрга тайёрловчи Ш.Эшонхўжаев. – Тошкент: Фан, 1996. – Б.284.
2. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б.36-37.
3. Комилов Н. Тасаввуф. Тавҳид асрори. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1999. – Б.208.
4. İmadəddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cildə. I cild. – Bakı: Lider nəşriyyat, 2004, 336 səh.
5. Имодиддин Насимий. Жононни севарман (Озарбайжон тилидан Тохир Қаххор таржимаси). – Тошкент: Билим ва интеллектуал салоҳият, 2019. –Б.24.
6. Осман Нури Топбаш. В испытании мусульманина самим собой. Тасаввуф. Перевод с турецкого Наталья Наджиоглу. – Стамбул, 1436/ 2015.
7. Саид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанг-э истилохоту таъбироти ирфони. – Техрон, 1303.
8. Хализев, В. Е. Теория литературы: Учебник. 4-е изд., испр. и доп.—М.: Высш. шк., 2004.-405 с.
9. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Тошкент: Фан, 1972. – Б.964.

## G'URBAT MOTIVLARINING BADIY TALQINLARI

***Habibulla Jo'rayev,***

*FarDU professori, filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya:** Maqolada mumtoz adabiyot tarixida vatan sog'inchi va g'urbat mavzusidagi namunalar o'rganilgan. Xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ona yurtga sog'inch va ehtiromi, g'urbat motivlari ifodasi tadqiq etilgan. Bobur garchi Navoiyning g'urbat va ayriliq haqidagi qarashlarini an'anaviy davom ettirayotgandek tuyulsa-da, ularning ijod namunalari o'rtasida muayyan farqlar ham bor. Alisher Navoiy ijodi namunalarida mumtoz she'riyatdagi an'analarga muvofiq oshiq va ma'shuq o'rtasidagi munosabatlar, ularni o'rtayotgan hijron uqubatlari haqida so'z borsa, Bobur ijodida aniq tarixiy shaxs, ya'ni Boburning o'zi lirik qahramon sifatida maydonga chiqadi. Shuningdek, konkret tarixiy shart-sharoit – muallifning haqiqatan ham ona yurtidan judo bo'lgan holda olislarda abadiy qolib ketishga majburligi, ya'ni hasbi hol xususiyatlar uning she'riyati ta'sir kuchini yanada orttiradi.

Shundan kelib chiqib, shoh va shoirning lirik hamda memuar asarlaridagi mavzuga aloqador o'rinlar tarixiy va badiiy jihatdan tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Yurt sog'inchi, adabiy ta'sir, lirik ifoda, epik bayon, g'urbat motivlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, estetik ta'sir.

**Annotation:** This article examines examples of longing for the homeland and exile in the history of classical literature. Specifically, it explores the expression of nostalgia and reverence for the motherland, as well as motifs of exile in the works of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur. Although Babur seems to traditionally continue Navoi's perspectives on exile and separation, there are notable differences between their creative works. While Alisher Navoi's works, in line with classical poetry traditions, discuss the relationship between lover and beloved and the torments of separation that consume them, Babur's works feature a specific historical figure - Babur himself - as the lyrical hero. Moreover, the specific historical circumstances - the author's forced permanent exile far from his homeland - that is, the autobiographical nature of his work, further intensify the emotional impact of his poetry.

Based on this, the relevant passages in the lyrical and memoir works of the king and poet were analyzed from both historical and artistic perspectives.

**Keywords:** Nostalgia for homeland, literary influence, lyrical expression, epic narration, motifs of exile, spiritual and moral education, aesthetic impact.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijodida g'urbat va ayriliq motivlari estetik-falsafiy jihatdan mukammal ifodalangan namunalar ko'plab uchraydi. Jumladan quyidagi ruboiysida g'ariblik tuyg'usi yuksak badiiy ifodasini topgan:

*Munlug' boshim ostidagi toshimnimu dey?*

*Tosh ustidagi g'arib boshimnimu dey?*

*Hasrat suyidin ko'zimda yoshimnimu dey?*

*O'lmakdin sa'broq maoshimnimu dey?*

Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiy ijodidagi ruboiyning mumtoz namunasi bo'lgan ushbu she'rga payravlik qilib, quyidagilarni yozadi:

*G'urbat tug'i yopqan ruhi zardimnimu dey?*

*Yo hajar chiqarg'on ohi sardimnimu dey?*

*Holing ne durur, bilurmisen dardimni,*

*Holing so'raymu, yo'qsa dardimnimu dey?*

G'urbat mavzusidagi g'oyibona mushoira ikki ulug' so'z san'atkori ijodida yana davom etadi. Hijron azoblaridan qiynalayotgan qalb, ayriliq g'amidan hasratga to'lgan ko'ngil nolalarini Navoiy shunday lirik ifodalaydi:

*Andin berikim, qoshimda yorim yo'qtur,*

*Hijronda juz nolai zorim yo'qtur.*

*Dasht uzra quyun kebi qarorim yo'qtur,*

*Sargashtaligimda ixtiyorim yo'qtur!*

Mutafakkir shoirning ta'sirchan misralari taqdir taqozosi bilan ona yurtidan, yoru diyorida abadiy ayrilgan Boburga kuchli ta'sir etib, u ham ana shu ohang, xuddi shu mavzu va shaklda quyidagi o'tli misralarini yaratadi:

*Ko'pdan berikim yoru diyorim yo'qtur,*

*Bir lahzavu bir nafas qarorim yo'qtur.*

*Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,*

*Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.*

Bobur garchi Navoiyning g'urbat va ayriliq haqidagi qarashlarini an'anaviy davom ettirayotgandek tuyulsa-da, yuqoridagi har ikki ruboiy o'rtasida muayyan farqlar bor. Alisher Navoiy ruboiysida mumtoz she'riyatdagi an'analarga muvofiq oshiq va ma'shuq o'rtasidagi munosabatlar, ularni o'rtayotgan hijron uqubatlari haqida so'z borsa, Bobur ruboiysida aniq tarixiy shaxs, ya'ni Boburning o'zi lirik qahramon sifatida maydonga chiqadi. Shuningdek, konkret tarixiy shart-sharoit – muallifning haqiqatan ham ona yurtidan judo bo'lgan holda olislarda abadiy qolib ketishga majburligi she'ning ta'sir kuchini yanada orttiradi.

Ona yurt armoni bilan sargardonlikda yashagan ulug' shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidan ayriliq haqidagi dardli misralarni yana ko'plab keltirish mumkin. Savol tug'iladi: Bobur ona yurtidan judo bo'lgachgina ana shunday g'urbat ohanglariga berilganmi?

Fikrimizcha, unday emas. Shoir murg'ak bolaligidan o'zi tug'ilgan tuproqqa kuchli mehr qo'ygan. "Boburnoma"ning Andijonga bag'ishlangan qismini yozganida muallif 12-13 yoshlarda bo'lgan. Mana, uning ona shahri haqidagi bitiklari: "...Andijondurkim – Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vofir,

mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lar." Ta'rifni shu yerda to'xtatib, qisqacha izoh beramiz. Ma'lumki, Boburshoh umrining ko'p qismini jang-jadallarda o'tkazgan. U biror o'lka, shahar yoki qal'ani zabt etishga kirishar ekan, u yerdagi "oshliq" – iqtisodiy zahiraga e'tiborni qaratadi, qaysi yurtida bo'lmasin, u yerning mevalari ta'mi haqida o'quvchiga tasavvur berish uchun ona yurtidagi biror mevaning ta'mi bilan taqqoslaydi.

Hindistonda yashaganida ona yurtidan tok qalamchalari oldirib keladi va uni parvarishlaydi, nishona mevasini ko'rib, ich-ichidan quvonadi. Ammo Andijon qovunlarini issiq o'lkalarda yetishtirib bo'lmaydi, palagi g'ovlab, gulini to'kib yuboraveradi. 1528-yili Vatanidan Agraga olib borilgan qovunni yer ekan, o'zini yig'idan to'xtata olmaydi. Do'sti Xoja Kalonga yozgan maktubida shunday yozadi: "Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay. Alalxusus, mundoq toyib va torik bo'lg'onda (may ichishni tark etganda) qovun va uzumdek mashru (shar'an halol) haz(ne'mat)ni kishi ne tavr xotirdan chiqargay. Bu fursatta bir qovun keltirib edilar, kesib yegach, g'arib ta'sir qildi. Tamom yig'lab edim" [1:216]. Maktub so'ngida esa muzaffar shoh, g'arib musofir bo'lgan muallif quyidagi dardli misralarni ilova qiladi:

*Qovun birla uzumning hajrida ko'nglumda g'am har su*

*Oqar suvning firoqidin ko'zumdin har dam oqar suv.*

Vatanga, elga muhabbat tilga muhabbat bilan chambarchas bog'liqdir. Tilni sevish bilangina cheklanib bo'lmaydi. Uni kerak bo'lganda himoya qilish, taraqqiy etishiga xizmat ko'rsatish lozim. Boburning yurtga muhabbati ona tiliga bo'lgan cheksiz ehtiromida ham ko'zga tashlanadi:

Andijon "... eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur. Elning lafzi qalam bila rosttur.

Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti (asarlari) bovujudkim, Hiriya nash'u namo topibtur, bu til biladur"[1:17]. Albatta, bu satrlarni bitayotgan o'smir Bobur Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tiliga asos solganligi, "mamlakatni yakqalam" qilganligini anglashdan hali ojiz bo'lgan. Shuning uchun

ham bolalarcha beg‘ubor iftixor bilan Navoiydek daho ijodkor o‘z asarlarini “andijonliklar tili” da yozganligini qayd etadi.

Bora-bora o‘zi ham zabardast so‘z ustasi bo‘lib yetishgach, til boyliklarini namoyon qilish, kerak bo‘lsa ona tilining kamsitilishiga qarshi kurashish zarurligini his qiladi. Til Vatanning tarkibiy qismi, millatning qiyofasini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini tushunib yetadi.

O‘zbek tilini, yuqorida aytganimizdek, xorlik burchagidan she’riyat osmoniga ko‘tarish Alisher Navoiy uchun oson bo‘lmagan. Eski o‘zbek tilini dag‘al, ijod uchun yaramaydi, deya tahqirlovchilarning aksariyati o‘zi o‘zbek bo‘laturib, fors-tojik tilida ijod qiluvchilar edi. Kamoliddin Binoiy ana shundaylar toifasidan bo‘lib, bu haqda hatto Navoiy bilan yuzma-yuz tortishishdan ham toymagan. Birgina misol: Binoiy turkman hukmdori Yoqubbek huzurida bir necha vaqt bo‘lib, qaytib kelgach, Navoiy undan Yoqubbekning yaxshi fazilatlaridan so‘zlab berishini so‘raydi. Shunda Binoiy: “Uning eng yaxshi fazilati shuki, birorta ham o‘zbekcha so‘zni og‘ziga olmas ekan”, - deya javob beradi.

Bobur shunga o‘xshash mojarolardan yaxshi xabardor bo‘lgan. Samarqand taxtiga ikkinchi bor o‘tirgan kezlari, taqdir taqozosi bilan Bobur huzuriga kelib qolgan Binoiy o‘zining qashshoq holga tushib qolganligi, yeyishga non-u, kiyishga kiyimi yo‘qligini fors-tojik tilidagi ruboiysi orqali bayon qiladi. Shunda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘ta zukkolik bilan bir vaqtlar o‘zbek tilini kamsitgan Binoiyga tanbeh berishning o‘ziga xos yo‘lini tutadi. Ya’ni uning fors-tojik tilidagi ruboiysiga o‘zbek tilida quyidagi she’r bilan javob beradi.

*Ishlar bori ko‘nglungdagidek bo‘lg‘usidur,*

*In‘om-u vazifa bori buyrulg‘usidur.*

*Ul g‘allau muhmalki deb erding berdim,*

*Muhmalg‘a bo‘y-u, g‘alladin uy to‘lg‘usidur.*

Boburning zimdan qilgan nozik ishorasini fahmlagan Binoiy, xijolat chekib, o‘z minnatdorchiligini o‘zbek tilida javob ruboiysini aytish bilan bildiradi.

Shunga o‘xshash voqea Hindistonda ham bo‘lib o‘tadi. Boburning eng yaqin do‘stlaridan biri Xoja Kalon Hindiston jaziramalariga chiday olmasdan, ruxsat



olib, G‘azniga ko‘chadi. Ketayotganida o‘zi yashagan uy devoriga fors-tojik tilida “Hindni yana ko‘rishni istasam yuzim qaro bo‘lsin” mazmunidagi misralarni yozib qoldiradi:

*Agar ba xayr-u salomat guzar zi Sind kunam,*

*Siyoh ro‘y shavam, gar havo Hind kunam.*

Bobur bu zarofatga qarshi ona tilining o‘tkir va tagma’noli xususiyatini ishga solib, quyidagi ruboiysini bitadi va Xoja Kalonga yuboradi:

*Yuz shukur de, Boburki, karim-u g‘affor*

*Berdi senga Sind-u Hind-u mulki bisyor.*

*Issiqliq‘iga gar sanga yo‘qtur toqat,*

*Sovuq yuzini ko‘ray desang G‘azni bor!*

Ota-onaga hurmat-ehtirom, xesh-aqrabolarga mehr-muhabbat ham vatanga bo‘lgan cheksiz sadoqatning tarmoqlaridir. Bobur otasi Umarshayx mirzoning yaxshi fazilatlari qatorida uning o‘ta halolligi, bironing haqidan hazar qilishi haqida ham gapirib o‘tadi. Masalan, Xitoydan kelayotgan katta karvonni Andijon hududlarida qor ko‘chkisi bosib, ikki yuz kishidan faqat ikki kishi omon qoladi. Umarshayx mirzo karvon yuklarini ehtiyot qilib saqlab, halok bo‘lganlarning qarindoshlarini toptiradi va mollarni to‘lasicha vorislarga topshiradi.

Ota sabog‘ini olgan Zahiriddin ana shunday halollikni umr bo‘yi shior qilib olgan. Ma’lumki, sarkarda Bobur o‘z qo‘shini o‘rtasida juda qattiq tartib-intizom o‘rnatgan. Xalqqa nohaq zulm qiladiganlar, talonchilarni aslo kechirmagan. Oqsaroy degan joyda mahalliy aholi vakillaridan birining bir ko‘za yog‘ini tortib olgan navkarni ayovsiz tayoqlatadi. Yom degan kentda esa sarkardadan beruxsat aholidan zo‘rlab tortib olingan buyum va jihozlarni egalariga tongga qadar qaytarishni navkarlariga qat’iyan amr qiladi. “Ertasiga, deb yozadi Bobur, - navkarlar qo‘lida nina sinig‘i-yu ip uchigacha qolmadi – bari elga qaytarib berildi”[1:314].

Onasi Qutlug‘ Nigorxonimga bo‘lgan ehtiromi ham yosh avlodga o‘rnak bo‘lsa arziydi. Ona yurtini tashlab ketayotganida xos chodirini onasiga berib, o‘zi navkarlari bilan chaylada bir necha tonglarni ottiradi. Hali Kobulni egallamay

turib, onasi vafot etganida bor puliga kichikroq bog‘ sotib oladi va onasini o‘sha yerga dafn etadi. Bu uning onasi o‘z mulkida mangu orom olishini istab amalga oshirgan ishi edi. Hindiston mamlakati zabt etilgach, Toshkent bilan Agra shaharlari bir meridianda joylashganligini hisobga olib, poytaxt uchun shu shaharni tanlaydi. Kobul Andijon bilan iqlimi yaqin bo‘lganligi, qolaversa, yurt nafasi urib turganligi uchun o‘zini shu yerga dafn qilishlarini vasiyat qiladi.

Tarixda shohlarning ulug‘ shayxlar jilovdori bo‘lganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Masalan, Shayx Sayfiddin Boxarziyni yurt hukmdori otga mindirib, jilovdorlik qilganligi haqida Alisher Navoiyning “Nasoyim-ul muhabbat” asarida hikoya qilinadi. Mir Alisherning o‘zi ham “Xamsa” asarini yozib tugatganida shoh Husayn Boyqaro uni otga mindiradi va xaloyiq ko‘z o‘ngida Hirot ko‘chalarini aylantirib chiqadi. Ammo Sharq mamlakatlari tarixida ayol kishiga ehtirom ko‘rsatib, uning jilovdori bo‘lgan shohlar uchramaydi. Bu borada birinchisi ham, oxirgisi ham Zahiriddin Muhammad Boburdir. Shoirning qizi Gulbadanbegimning yozishicha, shohning rafiqasi Mohim begim Kobuldan Hindistonga chaqirib olinganda, Bobur uni bir necha chaqirim piyoda yurib kelib, kutib oladi va malika mingan ot jilovini tutgan ko‘yi yana poytaxtga piyoda yo‘l oladi. Bu ham ulug‘ shoh va zabardast shoirning Vatan g‘urbatini birga tortayotgan ahli ayoliga, demakki, sadoqatli vatandoshiga bo‘lgan chuqur ehtiromi ramzi edi, deyish mumkin [5: 37].

Shu tariqa, biz Bobur adabiy merosini, xususan, “Boburnoma” asarini mutolaa qilish jarayonida ulug‘ hukmdor va g‘arib insonning, jahongir sarkarda hamda majruh ko‘ngil sohibining vatan sog‘inchi bilan bog‘liq iztiroblarini har qadamda dildan his qilib turamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent, 1990.
2. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Devon. – Toshkent, 1994.
3. Jalilov S. Bobur va Andijon. – Toshkent, 1993.
4. Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. – Toshkent, 1994.
5. Xondamir. Makorim-ul axloq. – Toshkent, 2018.
5. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. – Toshkent, 1959.

## QO'LYOZMADA TARIX SADOSI

**Hayitov Shavkat Ahmadovich,**  
BuxDU professori, filologiya fanlari doktori  
[shavkat61hayitov@gmail.com](mailto:shavkat61hayitov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiy “Mahbubul qulub” asarining Buxoro muzeyi xazinasida 27780 – raqami bilan saqlanayotgan qo‘lyozmasiga ilmiy tavsif berilgan. Qo‘lyozmaning (asosiy matn bilan boshlanguniga qadar) 1-2-varaqlariga turli shaxslar tomonidan har xil izoh va qaydlar yozilganligiligi aniqlanib, Buxoro xattotlik san’ati tarixiga doir muhim ma’lumotlarga o‘quvchilar e’tibori tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Mahbubul qulub”, Buxoro qo‘lyozmasi, 27780, Mirzo Abdulfattoh, Mahdixon kotib, “jannat-jannat”, 906 (1500-1501), 1318 (1900), 1359(1940), shoir, she’r, 6 bandli musaddas.

Buxoro san’at muzeyi xazinasida 27780 – raqami bilan Alisher Navoiy “Mahbubul-qulub” asarining bir nodir qo‘lyozmasi saqlanadi.

Qo‘lyozmaning tarkibi:

1. I - 77-varaqlarda “Mahbubul-qulub”.
2. 79 - 118-varaqlarda ulug‘ shoir g‘azallaridan namunalar joylashtirilgan.

Qo‘lyozma jami 119 varaqdan tashkil torgan, matn o‘lchovi: 8,5x19, qog‘ozining bichimi 15x25,5dir. Kitobning muqovasi qalin mag‘ziy (karton) bo‘lib, zangor rangli charm bilan qorlangan. Muqovaning ichki tomoniga pardozlangan rangli qog‘oz yopishtirilgan. Uning har ikkala toqasining (o‘ng va chap tomonlarining) yuqori, o‘rta, rastki qismlarida uchtdan naqshin tamg‘a mavjud. Tamg‘alarda hech qanday yozuvlar yo‘q.

Qo‘lyozmaning birinchi qismi “Bismilloh...”dan so‘ng quyidagicha boshlangan:

*Hamd angakim zotiga hamd.*

Onchakim sazovordur aytsa bo‘lmas va sano ongakim ehsoniga sano, Onchakim yeri bordur bitsa bo‘lmas [ Navoiy,1856:1].

Qo'lyozma Alisher Navoiy pandnomasining boshqa barcha qo'lyozma manbalarida kuzatilgani kabi quyidagi ta'rix bilan xotima topgan:

*Bu nomag'akim lisonim o'ldi qoyil,*

*Kilkim tili har nav' el ishiga noqil.*

*Tarixi chu «xush» lafzidin o'ldi hosil,*

*Har kim o'qusa, ilohi, o'lg'ay xushdil* [Navoiy,1856:77].

Qo'lyozma kitobning ko'chirilish tarixiga doir yozuvlar mavjud:

Dar ta'rixi yavmi dushanba, shonzdahumi shahri rajab al murahhab sana 1274 itmom yoft [Navoiy,1856:78 a]. Ushbu ta'rixni keltirishdan oldin kotib kitobni Alloh taoloning benihoyat ulug' ko'magi va inoyati natijasida ko'chirib tugatganligi uchun shukrona aytadi.

Kotib she'riyat bilan ham shug'ullangan ko'rinadi. Bizning mazkur da'vomizni dalillashda qo'lyozma kitobning 78 b-varag'iga tojik-fors tilida insho etilgan 6 bandli musaddas qo'l keladi. Alisher Navoiy «Mahbubul-qulub»da yozadi: “Andoqki, sening ham nasibangni yana birov yemas, aning ham nasibin sen yemak mumkin emas. Sening ro'zining sengadur aning qismati anga... Ulki vahshu tayr rizqig'a zomindur, senga yetkurmagaymu?!”[Navoiy,1948:71]. “Mahbubul-qulub”da tasavvuf ta'limotining ta'siri va talqini nihoyatda keng o'rin tutadi. Asardan yuqorida ko'chirganimiz parchada ham bebaho so'z gavharlari tariqatning tavakkul maqomi sharhiga xizmat qildirilgan. Buyuk mutafakkir qalamining o'tkir tig'i Tangri rizq beruvchi va eng odil taqsimotchi ekanligini unutib, aziz umrini faqat yemoq, ichmoq, kiymoq qayg'usida o'tkazadigan dunyoparastlarga qarshi qaratilgan. Kotibning quyidagi misralari ham Alisher Navoiy so'zlari bilan yakrang bo'lib, Ollohning ulug' sifatleri, jumladan Yaratuvchining roziqligidan bandalarni ogoh etadi:

*Rahmon onki jalil ast, g'afur,*

*Rahmon onki same' ast, shakur.*

*Rahmon nozili Furqon, Zabur,*

*Rahmon ro'zi dehi vahshu tuyur.*

*Rahmon, yo rahmon, yo ramazon,*

*Hast yak nomi xush ast ar-Rahmon.*

Qo'lyozma varaqlarida roygir belgilari mukammal qo'yilgan. Matn chiroyli va ravon nasta'liq xatida, qora siyohda, och sariq rangli, yurqa, shalldiroq, sifatli Qo'qon qog'oziga yozilgan.

“Mahbubul-qulub”dagi qismlar, fasllar, boblar va ularning sarlavhalari, bayt, qit'a, ruboiy, hikoyat va boshqa janrlarga tegishli atamalar, jumlar orasiga qo'yilgan uch nuqtalar qizil siyohda bitilgan. Qo'lyozmaning har sahifasida 17 yo'ldan yozuv joylashtirilgan va ikki yo'lli, alvon rangli jadval ichiga olingan.

Qo'lyozmaning 3 a, 10 b, 23 b, 33 b, 34 b, 63 a, 64 a-varaqlaridagi asosiy matndan tushib qolgan ayrim so'z va jumlar hoshiyada qayd qilingan.

Ulug' shoir g'azallaridan namunalar berilgan kitobning ikkinchi qismi:

*Ashraqt min aksi shamsil-ka'si anvorul-Xudo,*

*Yor aksin mayda ko'r, deb jomdin chiqdi sado.*

matla'li g'azal bilan boshlanadi [Navoiy, 1856:79].

Kitob “Navodir ush-shabob” devonidan joy olgan quyida matlai keltiriladigan g'azal bilan xotima topadi:

*Tiyr shomim ichrakim barqi balolar choqilur,*

*Har nafas ishq ajdahosi og'zidin o't sochilur.*

Xattot qo'lyozma ikkinchi qismining tarixini quyidagicha beradi:

Shashtumi mohi sha'bon, begohi yakshanba ba'd az g'urub, soati haftu bist daqiqa boli asr tajvil yoft.

Mazmuni: sha'bon oyining oltinchi kuni, yakshanba oqshomida kun botganidan so'ng, soat yettidan yigirma daqiqa o'tganda uchqur otning qanoti parvozdan to'xtadi.

To'plamda Alisher Havoiyning 120 ta g'azali mavjud. Matn har sahifada o'n uch yo'lli, ikki ustundan iborat bo'lib, jadval ichiga olinmagan. Fazallar maqta'idagi har bir misrani alohida qatorga olib, ustunchalarga bo'lib yozish bilan ularning bir-biridan ajralib, alohida ko'zga tashlanishi ta'minlangan.

Qo'lyozmaning (asosiy matn boshlanguniga qadar) 1-2-varaqlariga turli shaxslar tomonidan har xil izoh va qaydlar yozilgan. Ayniqsa, Buxoroning so'nggi

xattoti Mirzo Abdul Fattoh binni Mahdixon tomonidan ko‘chirilgan 4 misra she‘r alohida qiziqish uyg‘otadi. U «Tarixi vafoti Navoiy» sarlavhasi ostida 2b-varaqda yirik-yirik nastaliq xatida butun sahifa bo‘ylab qiyalatib bitilgan va pastiga kotib imzosi qo‘yilgan:

*Miri xurshedsifat Mir Alisherki, o‘*

*Raxt bar bast az in zoviyai purmehnat.*

*Soli tarixi vay az manzili o‘ pursidam,*

*Omad ovoz zi firdavski “jannat-jannat”.*

Katabahu faqir ul muznib Mirzo Abdul Fattoh binni Mahdixon kotib.

Ko‘rinadiki, ikki sana – “Mahbubul-qulub” nihoyasiga yetkazilgan hamda buyuk mutafakkirning vafoti sanasi – ta‘rix she‘rda ifodalangan. Ta‘rix moddasi «jannat-jannat»so‘zlari bo‘lib, undagi harflarning raqamdagi qimmati 906 (1500-1501) ga teng. Iymonli, odamiylikka xos axloqiy fazilatlarni o‘z ruhiga singdirgan, ko‘ngli va qo‘li bilan solih amallar qilgan kishining oxirati obod bo‘ladi, degan fikr “Mahbubul-qulub”da markaziy o‘rin tutadi. Shu jihatdan ta‘rix-she‘r ruhi “Mahbubul-qulub”ning umum g‘oyasi bilan hamohangdir.

Ta‘rix-she‘r bilan asosiy matnni muqoyasa qilganimizda xati va qog‘ozi tubdan farq qildi. Ta‘rix-she‘rdagi “jannat-jannat” so‘zlari ustiga 906 raqami yozib qo‘yilgani kabi, Mahdixon ismining yuqorisiga 1318, Abdul Fattoh nomi yoniga 1359 sanasi kichik arab raqamlari bilan bitilgan. Qayd qilingan hijriy raqamlar milodiyga aylantirilganda 1900 hamda 1940 sonlari hosil bo‘ladi. Fikrimizcha, 1900-Abdul Fattohning otasi Maxdixon kotib vafot etgan yildir. 1940 – xattot Abdul Fattoh tomonidan ta‘rix-she‘r alohida varaqqa ko‘chirilib kitobga joylashtirilgan sana hisoblanadi.

Mazkur ishora (1940) tavsif qilinayotgan “Mahbubul-qulub” nusxasining XX asrning 40-yillarigacha Fattohxon domlaning g‘oyatda boy shaxsiy kutubxonasida saqlanganligidan nishon beradi. Buxoroning bu so‘nggi xushxat kotibi qatag‘on yillarida nohaq qamoqqa olingandan so‘ng qo‘lyozma kitoblar talon-taroj bo‘lgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijodkorlar bilan uchrashuvidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2019, 9 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi, 2019. 22.10. – B. 1-2.
3. محبوب القلوب. علي شير النوائي. Бухоро санъат музейи хазинасидаги 27780-рақамли кўлёзма. Hijriy 1274(1856). – 121 b.
4. علي شير النوائي. محبوب القلوب .  
Сводный текст. – М. – Л. Изд. АН СССР. 1948. – 174 стр.
5. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. 1-jild. –Toshkent: Sharq, 2016. – 480 b.
6. Rahmon V. Mumtoz so'z sehri. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 240 b.
7. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 213 b.
8. Shamsiyev R. O'zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 1986. – 164 b.
9. Shamsiev R. Navoiy asarlari matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari: Filol. fanl. dokt. ...dis. – Toshkent, 1969. – 385 b.
10. Hakimov M. Sharq qo'lyozmalariga doir terminlarning qisqacha izohli lug'ati // Adabiy meros. 1985, №2, B.88-93.
11. Hakimov M. Sharq qo'lyozmalariga doir terminlarning qisqacha izohli lug'ati // Adabiy meros. 1984. №1. B.82-91.
12. Hakimov M. Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi. –Toshkent: Fan, 1983. – 199 b.
13. Hamidova M. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi: Fil.f.d...dis. – Toshkent: 1994.
14. Alisher Navoiy Muhokamatul-lug'atayn. Ilmiy-tanqidiy matn (Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Y.Tursunov). – Toshkent: Fan, 2021.
15. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug'ati. – Toshkent: DAVR RRESS NMU, 2013. – 495 b.

### “TARIXI MULUKI AJAM” ASARI TARJIMASINING MATN XUSUSIYATLARI

**Dilnavoz YUSUPOVA,**

*ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori*

**E-mail:** [mumtoza\\_dil@mail.ru](mailto:mumtoza_dil@mail.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Tarixi muluki Ajam” asarining XVI asrda usmonli turk tiliga Fanoiy Sheroziy tomonidan qilingan tarjimasining matn xususiyatlari xususida so‘z boradi. Maqola muallifi Fanoiy taxallusli shaxsning aslida kim bo‘lganligi bilan bog‘liq uch farazni o‘rtaga tashlaydi va asar nusxalari asosida o‘z fikrlarini dalillashga urinadi. “Tarjumayi tavorixi muluk” asarining fanga 8 nusxasi ma’lum bo‘lib, ulardan 7 tasi qo‘lyozma, bittasi matbaa nashr, ya'ni toshbosmadir. Bu nusxalarning eng qadimgisi 989/1581 yilga tegishli.



Tarjimaning asl nusxasi, ya'ni tarjimon nusxasi yetib kelmagan. Hozirgacha mavjud nusxalar tarjimon nusxasidan ko'chirilgandir.

Maqolada shuningdek, Alisher Navoiy asari matni Fanoiy tomonidan amalga oshirilgan tarjima bilan o'zaro qiyoslanib, matndagi ayrim farqli jihatlarga to'xtalib o'tilgan. Fanoiy asarni usmonli turk tiliga tarjima qilish jarayonida asliyatdagi matnni asosan saqlab qolgan. Faqat asarning boshiga kichik muqaddima ilova qilib, Allohga hamd, Payg'ambarga na'tdan so'ng asarning tarjima qilinish sababini qisqacha bayon qilgan. Tarjima matnidagi ayrim o'zgarishlar, xususan, unga ba'zi ma'lumotlarni qo'shish, ba'zan esa ayrim o'rinlarni qisqartirish bilan bog'liq o'rinlar tarjimonning o'zi yoki keyinchalik xattotlar tomonidan amalga oshirilganligi ma'lum emas.

**Kalit so'zlar:** adabiy ta'sir, tarjima, qo'lyozma nusxalar, matbaa nashr, shohlar tarixi.

**Abstract:** This article discusses the textual features of the sixteenth-century Ottoman Turkish translation of *Tarixi muluki Ajam* produced by Fanāyī Shirāzī. The author of the article puts forward three hypotheses concerning the true identity of the person using the pen name Fanāyī and attempts to substantiate these views on the basis of the extant manuscript copies of the work. Eight copies of *Tarjumayi tavorixi muluk* are currently known to scholarship: seven manuscript copies and one lithographic printed edition. The oldest of these dates back to 989/1581. The original translation manuscript, that is, the translator's own copy, has not survived. All extant copies appear to have been reproduced from the translator's original manuscript.

The article also compares the text of Alisher Navoi's work with Fanāyī's translation and examines certain textual differences between them. In translating the work into Ottoman Turkish, Fanāyī largely preserved the original text. He merely added a short introduction at the beginning of the work, where, following praise to God and eulogy to the Prophet, he briefly explained the reason for undertaking the translation. It remains unclear whether some modifications found in the translated text—particularly the addition of certain pieces of information

and, at times, the omission or abridgment of particular passages—were made by the translator himself or later introduced by copyists.

**Keywords:** literary influence, translation, manuscripts, printed edition, history of kings.

**Kirish.** Alisher Navoiy asarlarining usmonli turk tiliga tarjimalari masalasi adabiyotshunoslikda u qadar keng tadqiq etilgan emas. Hozircha Navoiyning uchta asari usmonli turk tiliga tarjima qilingani haqida ma'lumotlar bor. Bular "Majolis un-nafois" [Turk, 2010], "Farhod va Shirin" [Esir, 2014 ] hamda "Tarixi muluki Ajam" asarlaridir. "Tarixi muluki Ajam" XVI asrda Fanoiy tomonidan tarjima qilingan bo'lib, o'zbek va turk adabiyotshunosligida bu tarjima haqida ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan [Salohiy, 2006; Altun, 2020]. Mazkur tarjima adabiyotshunoslikda "Tarixi Fanoiy" (*Tarih-i Fenâyi*) yoki "Tarjumayi tavorixi muluk" (*Tercüme-i Tevârih-i Mülûk*) nomi bilan atab kelingan. Biz ushbu maqolada Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarining XVI asrda usmonli turk tiliga Fanoiy Sheroziy tomonidan qilingan tarjimasi va uning matn xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

**Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asari va uning yozilish tarixi.** "Tarixi muluki Ajam" ("Arab bo'lmagan shohlar tarixi") asari Alisher Navoiyning tarixnavislik faoliyatini ko'rsatuvchi manba bo'lib, XV asrning oxirlarida yozilgan. Aslida bu asar "Tarixi anbiyo va hukamo" bilan birga umumiy tarix kitobining bo'laklari hisoblanadi. Navoiy yashagan davr tarixshunosligi an'anasiga ko'ra, avval payg'ambarlar tarixi, so'ngra to'rt Ajam sulolalari tarixi, keyin Islom davri tarixi berilishi lozim edi. Shundan keyingina zamona tarixiga o'tilgan va Navoiy ushbu qismlardan so'ng Sulton Husayn Boyqaro tarixini yozishni niyat qilgan edi [Qayumov, 2011].

"Tarixi muluki Ajam"da Eron va Turon mulkida hukmronlik qilgan to'rt sulola: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylar tarixi hikoya qilinadi. An'anaga muvofiq, tarix Odam Ato (a.s.) davriga bog'liq ravishda talqin qilinadi. Alisher Navoiy mazkur asarda Abdulxayr Nosiriddin Abdulloh bin Umarning

“Nizom ut-tavorix”, Banokatiyning “Jome’ ut-tavorix” va “Devon un-nasab”, Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliyning “Nasihah ul-muluk”, peshdodiylar podshosi Hushangga nisbat beriluvchi “Jovidoni xirad”, Bu Ali Miskavayhning “Odob ul-arab val-furus”, Hamdulloh Mustavfiy Qazviniyning “Tarixi guzida”, Sharafiddin Ali Yazdiyga nisbat beriluvchi “Muntaxab” kabi manbalardan foydalanadi va ko‘plab ma’lumotlarni shu asarlardan olganini aytib o‘tadi. Risolada shoirlardan Abulqosim Firdavsiy va uning “Shohnoma”siga ko‘proq murojaat qilinadi. Navoiy Iskandar haqidagi qissada xamsanavislar Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviyning qarashlarini ham keltirib o‘tadi.

Asarning asosiy qismi Kayumars ta’rifi bilan ibtido topadi. So‘ngra peshdodiylar sulolasidan 11, kayoniylar sulolasidan 9 (Iskandarni ham qo‘shib hisoblaganda 10 hukmdor), ashkoniylardan sulolasidan 15, sosoniylar sulolasidan 33, jami 70 hukmdorning nomlari, ularning Tarjumayi holi, hayoti va yuritgan siyosatiga doir ma’lumotlar taqdim etiladi. Deyarli har podshoh qissasidan keyin an’anaga muvofiq “she’r”, “bayt” yoki “masnaviy” nomi ostida qissa mazmuniga uyg‘un baytlar ilova qilinadi.

Asarning xotima qismi masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, 50 baytdan iborat. Unda Navoiy bevosita Shoh G‘oziy – Sulton Husayn Boyqaroga murojaat etadi. Uning adolati va saxovatini, inson sifatidagi yuksak xulqini madh qiladi. Shohni yagona javharg qiyoslaydi, shuning uchun ham unga “Nazm ul-javohir” asarini bag‘ishlab yozganini aytadi. Aynan Husayn Boyqaro tarixini bitish niyati borligini bildiradi:

*Vale azmim emdi budurkim, Xudoy*

*Agar bo‘lsa umrumg‘a muhlatfizoy,*

*Chekib turfa tarixingga xomani,*

*Qilib nuktag‘a tez hangomani.*

Shu tariqa xotima-masnaviyning so‘nggi baytlarida Navoiy shohsiz jahonga omonlik bo‘lmasligini aytib, Husayn Boyqaroga yaxshi tilaklar bildiradi, duosini yo‘llaydi, o‘zi ham duolardan umidvor ekanini aytib, asarni yakunlaydi.

**Asarning tarjimoni Fanoiy haqida.** “Tarixi muluki Ajam” asarining tarjimoni Fanoiy haqida manbalarda deyarli ma'lumot uchramaydi. O'sha davrga oid tazkira va tarixiy asarlarda ham tarjima muallifining nomi keltirilmagan. Tarjimaning tanqidiy matnini nashrga tayyorlagan Hilal Oytun Altunning yozishicha, Kohira nusxasidagi qaydlar orasida “Mü’ellif-i in kitāb Monlā Fenāyī rahmetullāhi ‘aleyh” (Ushbu kitobning muallifi mulla Fanoiy rahmatullohi alayh) degan izoh mavjud. Shuningdek, “Monlā Fenayiy” (mulla Fanoiy) nomi Leyden universiteti kutubxonasi turk qo'lyozmalari katalogiga kiritilgan qo'lyozmaning izohida ham uchraydi [Altun,2020:27]. Muallif taxallusidan oldin keltirilgan *mulla* sifatlashi tarjimonning diniy ilmlardan yaxshi xabardor olim va tariqat sohibi bo'lganligini ko'rsatadi.

“Tarixi muluki Ajam” asari haqida ayrim ishoralar keltirilgan ikki tadqiqotda muallifning nisbasi Sheroziy sifatida ko'rsatiladi, lekin uning kimligi, boshqa tarjimalari yoki asarlari haqida ma'lumotlar keltirilmaydi [Altun, 2020: 27].

Turk olimi Sodiq Yozarning “Anadolu sahasi klâsik türk edebiyatında tercüme ve şerh geleneği” (Onado'li klassik turk adbiyotida tarjima va sharh an'anasi) nomli tadqiqotida XVI asrda, usmonlilar sultoni Uchinchi Mehmed davrida yashagan Fanoiy taxallusli tarjimon haqida ma'lumot beriladi [Yazar, 2011: 194]. To'liq ismi Xizr bin Hoji Yunus bin Imod bo'lgan bu ijodkor Faxriddin Iroqiyning “Lama'ot” asarini usmonli turk tiliga tarjima qilgan. Tarjimaning kirish qismida muallif o'zini “... ve ba'de bu müsâfir-i bî-zâd ...Hızır b. Hâcî Yûnus b. 'Îmâd el mülakkab bi-Seyyid Fenâyî Mağnisevî...” (va bu musofir Sayyid Fanoiy Mag'nisaviy taxallusli Xizr bin Hoji Yunus bin Imoddir) deb tanishtirgandan so'ng, zamona hukmdori Sulton Mehmed bin Murod (Mehmed III) va Mahmud poshoni madh etadi. Iroqiy asarining tarjima qilinish sababini izohlar ekan, o'zining ancha vaqt Shayx Ahaveynning xutbalariga ergashib, saboqlariga qatnashganini, bu majlislarda Haq oshiqlarining Lama'otni tinglash vaqtida arab va fors tillarini bilmaganlari uchun yetarlicha foyda olmayotganlarini ta'kidlaydi va buni bartaraf etish uchun asarni tarjima qilib, sultonga taqdim etish niyatida ekanligini aytadi. Muallifning forsiy tilni yaxshi bilganligi va tariqatga

mansub ekanligi uning yuqorida tilga olganimiz mulla Fanoiy bilan ayni bir shaxs bo'lishi mumkin degan farazga olib keladi.

Shu davrda yashab, Fanoiy taxallusi bilan ijod qilgan shoirlardan yana biri turk olimi A. Yıldızning “Divan Edebiyatında Fenâyî Mahlaslı Şairler” tadqiqotida keltirilgan. Aniqrog'i, ushbu tadqiqotda Fanoiy taxallusli sakkiz nafar shaxs haqida ma'lumot beriladi. Ammo ulardan faqat bittasi bevosita “Tarixi muluki Ajam” tarjima qilingan davrda yashab, faoliyat yuritgan. Fanoiy Dede (vaf.1519) taxallusli bu ijodkor Lazkiya shahri shayxi Fanoiy Dede (vaf.1504)ning o'g'li bo'lib, mavlaviya tariqatiga mansub edi. Esrar Dedening *Tezkire-i Şu'arâ-yı Mevleviyye* asarida keltirilishicha, Fanoiy Dede “Şiir ve inşâda oldukça maharetli olup vaktinde şâir-i zor-âverdir” (she'r va insho ilmida yetarlicha mahoratli bo'lib, o'z davrida fasohatli shoir – D.Y.) bo'lgan. [Dede,2000:421-424]. Tazkirada uning bir forscha va bir turkcha g'azalidan namuna keltirilgan. Ushbu shaxsning ham “Tarixi muluki Ajam” asarini ko'chirgan Fanoiy bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Shuningdek, bu davrda yashagan yana bir Fanoiy taxallusli ijodkor Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlardan biridir. U “Xamsa”ning to'rtinchi dostoni “Sab'ai sayyor”ni 1529–30 yillarda kitobat qilgan. Qo'lyozma hozirgi kunda Boku shahridagi OzFA qo'lyozmalar institutida, B 5078-raqami ostida saqlanadi. Hajmi 146 varaqdan iborat [Hakimov, 1991, 18]. Agar bu xattotning Navoiy asarlaridan xabardorligi hamda ozar turklariga aloqadorligini hisobga olsak, Navoiy asarini tarjima qilgan shaxs u bo'lishi ham mumkin degan taxmin yuzaga keladi.

Demak, ko'rinadiki, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarini XVI asrda usmonli turk tiliga tarjima qilgan Fanoiy taxallusli shaxs yuqorida tilga olganimiz uch Fanoiydan biri bo'lishi mumkin...

**Asarning nusxalari haqida.** “Tarjumayi tavorixi muluk” asari bizgacha 8 nusxada yetib kelgan bo'lib, bulardan 7 tasi qo'lyozma, bittasi matbaa nashr, ya'ni toshbosmadir [Altun, 2020: 59]. Qo'lyozma nusxalar: Kohira, Madrid, Bolonya, Gaziantep, Vena, Fotih, Chanqiri nusxalaridir. Toshbosma usulidagi nusxa 1785-yilda Vena shahrida nashr etilgan bo'lib, uning bir donasi hozirgi kunda

Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining nodir kitoblar bo'limida saqlanmoqda.

Qo'lyozma nusxalardan faqat ikkitasi, ya'ni Bolonya va Gaziantep nusxalarida ko'chirilish sanasi qayd etilgan. Asarning ko'chirilish davriga ko'ra eng qadimiysi Bolonya nusxasi bo'lib, mazkur nusxada matnning ko'chirilish sanasi 989/1581- yildir<sup>1</sup>. Gaziantep nusxasida esa 1008/1599-yil deb ko'rsatiladi. Madrid nusxasida qo'lyozmaning ko'chirilish yili qayd etilmagan, ammo matnning oxirgi sahifasi 24b tomonining pastki o'ng burchagidagi muhr ostida g'ira-shira 1055/1645 sanasini o'qish mumkin. Hilal Altunga ko'ra, Fanoiy tarjimasining asl matni, ya'ni birinchi tarjima bizgacha yetib kelmagan. Yuqoridagi nusxalar muallif tarjimasi asosida ko'chirilgan noma'lum nusxa asosida amalga oshirilgan.

Kohira va Madrid nusxalari nasxda; Fotih, Vena, Chanqiri nusxalari ta'liq; Gaziantep nusxasi arab nasx yozuvida, Bolonya nusxasi nasx (Dilorom Salohiyga ko'ra, nasta'liq) yozuvida ko'chirilgan. Barcha nusxalarda har bir sahifaga 19 satr matn joylashtirilgani holda Bolonya nusxasi 15 qatordan iborat matnni o'z ichiga oladi.

Nusxalar o'rtasidagi munosabatlarga ko'ra, kamida ikkita nusxa bizgacha yetib kelmagan yoki hanz topilmagan. Ulardan biri tarjimon nusxasidir. Tarjimon nusxasidan ko'chirilgan nusxalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh Kohira va Madrid nusxalari bo'lib, ular Chag'atoy tilidagi asl matnga til va imlo nuqtai nazaridan yaqinroqdir. Ikkinchi guruh esa noma'lum nusxadan ko'chirilgan Bolonya guruhi bo'lib, qolgan nusxalar shu nusxa asosida kitobat qilingan va ulardagi matnda Onado'li turkchasining yetakchilik qilishi kuzatiladi. [Altun, 2020: 62]. Demak, yo'qolgan nusxaning ikkinchisi Bolonya guruhiga asos bo'lgan noma'lum nusxadir. Ushbu ma'lumotlar asosida asar nusxalarini quyidagicha geneologiya qilish mumkin:

---

<sup>1</sup> Asarning ushbu nusxasi haqida ma'lumot bergan D.Salohiy negadir bu sanani melodiy 1640/41-yil deb ko'rsatadi [Salohiy, 2006].



Tarjumayi tavorixi muluk” asarining muqaddima qismida muallif mazkur asarni tarjima qilish sababini bir majlisda yig‘ilgan taniqli kishilarning iltimosi bilan izohlaydi:

“...bu faqr ehliniñ hāk-i pāyī ve fenā deştinüñ bādiye-peymāyī, yanī faķīr ü haķīr Fenāyī, bir gün Hāzret-i Mīr Alī Şīr Nevāyī’nüñ Tevārīh-i Mülūk adlu risālesini bir şāhib-devletüñ meclis-i şerīfine tuhfе ve mahfil-i münīfine hediyye arz eylemişdi. Çün ol ālī-şānuñ iltifāt nazarlarıyla müşerref olup birkaç varak müṭālaa olundukda ṭab-ı şerīflerine gāyetde maṭbūve dil-peẓīr ve nihāyetde mergūb ve bī-nazīr gelüp fevka’l-ḥadd istiḥsān ve taḥsīn buyurdılar. Ve ol meclisde ḥāzır olan aşḥābdan bazı istimāından zevk-nāk olup, ol şāhib-devletden iltimās eylediler ki bunu bir kişi Türkī üslūbı üzre imlā edüp Türkī tabīr eyleye; tā her kişi fehvāsını fehм edüp müṭāla asından mahzūz ve behre-mend ola”.

Afsuski, bunda muallif shaxslar nomi, majlis bo‘lib o‘tgan hudud va voqea sanasini keltirib o‘tmagani uchun majlisdagi taniqli kishilar, tarjimonning aniq shaxsi va tarjima amalga oshirilgan yil noma'lum bo‘lib qolmoqda.

Shu o‘rinda yana bir jihatni ta'kidlash lozim. Asarning Kohira va Madrid nusxalarida Fanoiy turk tilini (Onado‘li turkchasini) yaxshi bilmasligi, lekin ulug‘larning iltimosini yerda qoldirmaslik uchun asar tarjimasiga kirishganini g‘oyat kamtarlik bilan bayon etadi:

“Ol ḥāzret daḥī bunlaruñ iltimāsını ḳabūl ve maḳşūdını ḥuşūle mevşūl ḳilup, ol ḥizmeti yine bu bendeye ḥavāle eylediler. Faķīr daḥī bināen alā işāretihi’l-āliye, bā-vücūd-ı bizāat-i ḳalīl ve nüsha-yı alīl, henüz Türkce bilmez-iken kendüyi Türkçe bilür zum edüp... bu küstāhlığa iḳdām ve bu bī-edebāne vaṣa iltizām eyledi.



*Fuzālānuñ faẓla-i ihsānından mercū ve mütevaḳḳı dur ki, bu ḥaḳīrūñ edebsizligini mazūr ve oranī bir aybını dāmen-i āṭifetleriyle mestūr buyurup galaṭ vāḳıolan yērleri ıslāḥ eyleyeler”.*

Qizig‘i shundaki, Fanoiyning Anadolu turkchasini bilmasligi faqat Kohira guruhiga mansub nusxalarga kiritilgan, ikkinchi guruh qo‘lyozmalarda bu ma'lumot uchramaydi. Hilal Altunga ko‘ra, Fanoiy asarni ikki bosqichda tarjima qilgan. Birinchi bosqich tarjimaning Kohira va Madrid nusxalari matnini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich esa Bolonya guruhidagi nusxalar bilan bog‘liq. Ehtimol sifatida shuni aytish mumkinki, Fanoiy tarjimaning ilk variantini shaxsan o‘zi qayta ko‘rib chiqib, keyingi variantda Onado‘li turkchasini yaxshi bilmasligi bilan bog‘liq qismni olib tashlagan, matndagi chag‘atoycha imlo va til unsurlarini kamaytirishga harakat qilgan.

Hilal Altun asl matnni tarjima bilan solishtirar ekan, shunday yozadi: Madrid va Kohira nusxalarida mavjud bo‘lgan va boshqa nusxalarga kiritilmagan "Turk tilini bilmasa ham bu ishni o‘z zimmasiga oldi" iborasidan tarjimonning Onado‘lu turkchasini keyinroq o‘rgangani tushuniladi. Tarjima qilgan kitobining manba tilini qanchalik bilishi borasida hech qanday muammoning yo‘qligi Fanoiyning ona tili chig‘atoy tili bo‘lganligi va muallifning o‘zi sharqiy turklardan ekanligiga kuchli dalildir” [Altun,2020:51]. Madrid va Kohira nusxalarida boshqa nusxalarga qaraganda sharqiy turkchadan kengroq foydalanilgan. Hilal Altun tanqidiy matn uchun Kohira guruhidagi tahrir qilinmagan matnni asos qilib oladi. Chig‘atoycha manba sifatida “Tavorih-i Muluk-i Acem”ning “Fotih” nusxasidan, tarjimalar uchun esa Kohira nusxasidan foydalanadi.

Asar nomi turli nusxalarda turli nomlar bilan keltirilgan: *“Tevarih-i Muluk-i Acem”*, *Târîh-i Fenâyî* (Vena nusxasi). *«Risalat at-tavorix»* (Bolonya nusxasi), *“Tārîḥ-i Mülûk-i Nevâyî Tercüme-i Faḳîr Fenâyî”* (Fotih va Chankiri nusxalari).

**“Tarixi muluki Ajam” va “Tarjumayi tavorixi muluk” bilan bog‘liq ayrim muqoyasalar<sup>1</sup>.** Mutarjim matnni usmonli turk tiliga tarjima qilish

---

<sup>1</sup> Biz bu o‘rinda qiyos uchun “Tarixi muluki Ajam”ning L.Xalilov tayyorlagan tanqidiy matnidan foydalandik. Ayrim o‘rinlarda Fransiya Milliy kutubxonasida Surrl. turc. 316–317 raqamlari ostida (xattot Ali Hijroniy) va

jarayonida asliyatdagi matnni asosan soʻzma-soʻz oʻgirishga harakat qilgan. Biroq vaqt-vaqti bilan ayrim oʻrinlarda oʻzgarishlar ham koʻzga tashlanadi. Bular: matnga baʼzi maʼlumotlarni qoʻshish, baʼzi faktik maʼlumotlarni oʻzgartirish, baʼzan esa ayrim oʻrinlarni qisqartirish bilan bogʻliq oʻzgarishlardir. Ushbu oʻzgarishlarning baʼzilarini keltirib oʻtamiz:

- Fanoiy asarida qisqacha muqaddima mavjud boʻlib, unda Allohga hamd, Paygʻambarga naʼt va asarning tarjima qilinish sababi bayon qilinadi. Keyin “Ogʻozi kitob” sarlavhasi ostida asosiy matn boshlanadi.

- Podshohlar nomida ayrim oʻrinlarda farqlar kuzatiladi. Masalan, ashkoniylarning 14-hukmdori Navoiy asarida *Yalosh binni Yalosh* nomi bilan, Fanoiy tarjimasida esa *Fīrūz bin Erdevān* nomi bilan keltiriladi.

- Tarixiy asarlarda keltirilgan sulolalar va podshohlar bilan bogʻliq maʼlumotlar tarjimada bir oz farqli yoki qisqartirilgan holatda tarjima qilingan. Masalan, ashkoniylar sulolasiga mansub podshohlarning umumiy soni va manbalarda keltirilish oʻrnida farqlar kuzatiladi. Qiyoslang:

#### **“Tarixi muluki Ajam”da:**

*Va ashkoniylar bu muxtasarda oʻn besh kishi bitildi va «Nizomut-tavorix»da oʻn kishi (taʼkid bizniki – D.Y.) bitilibdur va Banokatinda oʻn toʻrt kishi bitilibdur va «Jomeut-tavorix»i Jaloliyda yigirma kishi va «Guzida»da Hamdullohul-mustavfi uch firqa qilib, yigirmi bir podshoh bitibdur va ani muluki tavoyifdin tutubdur.*

#### **“Tarjumayi tavorixi muluk” asarida:**

*Ve Eşkânîlerden bu muhtaşarda on bēş kişi yazıldı. Ve Nizā-mü't-Tevārîh'de on yēdi kişi (taʼkid bizniki – D.Y.) yazıldı. Ve Güzîde'de Hamdullāh Müstevfî üç firqa kılup, yigirmi bir pâdişāh yazup ve anları Mülūk-i Tavāyif tūtopdur.*

- Har bir podshoh qissasidan keyin keltirilgan she'riy parcha Navoiy asarida “she'r”, “bayt” yoki “masnaviy” nomi bilan, Fanoiy asarida esa faqat “masnaviy” nomi bilan keltirilgan. Ayrim oʻrinlarda she'riy parchalar hajmida farqlar

kuzatiladi. Xususan, Shaddod va Shadidga bag‘ishlangan qissadan keyin Navoiyda 1 bayt, tarjimada 2 baytli she'r keltirilgan. Yoki Peshdodiylar tabaqasining so‘nggi vakili Girshosbga atalgan masnaviyda 4-misra ikki asarda butunlay farq qiladi. Qiyoslang:

**Navoiyda:**

*Chu qolmas na zolim, na odil kishi.*

**Fanoiyda:**

*Yëtürdi aña da niçe dürlü gam.*

Shuningdek, asar xotimasida keltirilgan va Husayn Bayqaroga bag‘ishlangan masnaviy hajmida ham nomutanosiblik bor. Navoiy asarida masnaviy 50 baytdan iborat. Fanoiy tarjimasi esa 46 baytni o‘z ichiga oladi. Unda quyidagi to‘rt bayt tushib qolgan:

- *Muni shohlig‘ desa ermas yiroq,*  
*Ki g‘aflatdin ogohliq yaxshiroq (12-bayt).*
- *Ki oni kiyurgon zamon qoshinga,*  
*Borisin nisor ayladim boshinga (20-bayt).*
- *Valodat kunidin tutub to bu dam,*  
*Borin sharh ila aylagaymen raqam (34-bayt).*
- *Debon borchaning mulku davronini,*  
*Muayyan qilib davri poyonini (37-bayt).*

**Xulosa.** Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarining usmonli turk tiliga qilingan tarjimasini tadqiq qilish asnosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asari XVI asrda Fanoiy taxallusli shaxs tomonidan usmonli turk tiliga tarjima qilingan bo‘lib, ushbu tarjima matni fanda “Tarixi Fanoiy” (*Tarih-i Fenâyi*) yoki “Tarjumayi tavorixi muluk” (*Tercüme-i Tevârih-i Mülûk*) nomi bilan ataladi. Asarning tarjimoni mulla Fanoiy sharqiy turklardan bo‘lib, uning asl ismi, yashagan hududi hamda tavallud va vafot sanalari haqida aniq ma'lumotlar yo‘q. U fors tili va Navoiy tili (chig‘atoy turkchasi)ni yaxshi bilgan.

2. “Tarjumayi tavorixi muluk” asari bizgacha 8 nusxada yetib kelgan. Ulardan 7 tasi qo‘lyozma, bittasi matbaa nashr, ya'ni toshbosmadir. Bu nusxalarning eng qadimgisi 989/1581 yilga tegishli.

3. Tarjimaning asl nusxasi, ya'ni tarjimon nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Bizga faqat tarjimon nusxasidan ko‘chirilgan nusxalargina ma'lum. Ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh Kohira guruhi bo‘lib, ular chig‘atoy tilidagi asl matnga til va imlo nuqtai nazaridan yaqinroqdir. Ikkinchi guruh esa noma'lum nusxadan ko‘chirilgan Bolonya guruhi bo‘lib, qolgan nusxalar shu nusxa asosida kitobat qilingan va ulardagi matnda Onado‘li turkchasining yetakchilik qilishi kuzatiladi.

4. Fanoiy asarni usmonli turk tiliga tarjima qilish jarayonida asliyatdagi matnni asosan saqlab qolgan. Faqat asarning boshiga kichik muqaddima ilova qilib, Allohga hamd, Payg‘ambarga na'tdan so‘ng asarning tarjima qilinish sababini qisqacha bayon qilgan. Tarjima matnidagi ayrim o‘zgarishlar, xususan, unga ba’zi ma’lumotlarni qo‘shish, ba’zan esa ayrim o‘rinlarni qisqartirish bilan bog‘liq o‘rinlar tarjimonning o‘zi yoki keyinchalik xattotlar tomonidan amalga oshirilganligi ma'lum emas.

Umuman olganda, Navoiy asarining XVI asrda usmonli turk tiliga tarjima qilinishi buyuk mutafakkirning tarixnavislik faoliyati Usmonlilar saltanatida yuqori qiymatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. 1–2-jildlar. Mas’ul muharrir Sh. Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq. 2016. –346 b.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. Tarixi anbiyo va hukamo. Tarixi muluki Ajam. MAT.20 jildlik, 16-jild. –Toshkent: Fan. 2000.
3. Altun H.O. Tercüme-i Tevârih-i Mülûk. Nevâyî’nin Fars Hükümdarları Tarihi (İnceleme-Tenkitli Metin-Dizin). – İstanbul. 2020.
4. Dede.E.Tezkire-i Şu‘arâ-yı Mevleviyye, İnceleme-Metin (haz. İlhan Genç). –Ankara. 2000. –B.421–424.
5. Esir. H. A. Bursalı Lâmiî Çelebi’nin Ferhâd u Şîrîn’inin Ali Şîr Nevaî’nin Ferhâd u Şîrîn’i ile Mukayesesi. –TUDED.2014. C. L, S. 50. –B. 39–64.
6. Kleinmichel.S.Ali Şîr Nevâyî ve Osmanlı Şairleri (Çev. Nurettin Demir). Türk Edebiyatı Tarihi I (Ed. T. S. Halman, O. Horata ve diğerleri) ichida (s. 683–691).–İstanbul: T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları Kültür Eserleri Dizisi. 2006. – 399-b.
7. Levend. A.S. Ali Şîr Nevaî. Türk Dili ve Edebiyat Dergisi. TDK Yay. 1966. –B.173.

8. Levend. A.S. Türkiye Kitaplıklarındaki Nevâî Yazmaları. TDAY Belleten. TDK Yay. 1958.
9. Levend. A. S. Divan edebiyatı. –İstanbul. 1984.
10. Salohiy. D. Navoiy Rum diyoriga tuhfası. O‘ZAS. 2006. № 5.
11. Türk.V. Lehçeler Arası İlişkiler ve Oğuz Türkçesinde bir Nevâî Eseri. *TÜBAR*, 2010. –B. 395–408.
12. Türk. V. Türkiye’de Ali Şir Nevâyî Çalışmaları. Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi, 2021. –B. 403–442.
13. Yazar. S. Anadolu Sahası Klâsik Türk Edebiyatında Tercüme ve Şerh Geleneği. İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü (Basılmamış Doktora Tezi), İstanbul, 2011.–B. 194.
14. Yıldız. A. Divan Edebiyatında Fenâyî Mahlaslı Şairler. Cumhuriyet Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. 2003.–B.345–355.
15. Xalilov.L. Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarining tekstologik tadqiqoti. (PhD dissertatsiyasi). –Toshkent. 1975.
16. Çetindağ.Y. Ali Şir Nevâyî’nin Batı Türkçesi Divan Edebiyatına Tesiri (XVI. Yüzyıl Sonuna Kadar). Gazi Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi. – Ankara. 2002.
17. Çetindağ. Y. Ali Şir Nevâyî–Ahmet Paşa Etkileşimi ve Otuz Üç Gazel. Bursalı Şair Ahmet Paşa ve Dönemi Sempozyum Bildirileri. –Bursa: Bursa Büyükşehir Belediyesi Yayınları. 2010.
18. Erkinov.A. Navoiy ijodining xorijlik tadqiqotchilari. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2019, 2-сон. – Б.34-39.
19. Yusupova.D. Alisher Navoiy “Xamsa”sining usmonli turk adabiyotiga ta’siri. “Xamsa” poetikasi: vazn, qofiya va mazmun mushtarakligi. – Toshkent: Tamaddun. 2021.
20. Qayumov.A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar.–Toshkent: Sharq. 2011.
21. O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik, 2-jild (XV asrning ikkinchi yarmi). – Toshkent: Fan. 1977.
22. Hakimov. M. Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar. –Toshkent: Fan. 1991.

## **SO‘FIY ALLOHYOR TALQINIDA NAFS VA INSON MA’NAVIYATI MASALASI**

***Soatova Nodira Isomitdinovna,***  
*JDPU professori, filologiya fanlari doktori*

Inson ma’naviy kamoloti masalasi Sharq falsafasi va adabiyotida muhim o‘rin egallab kelgan. Ayniqsa, nafs va uni tarbiyalash muammosi mutafakkirlar diqqat markazida bo‘lgan. Nafs insonning ichki xohishlari, hirs va mayllarini ifoda etuvchi tushuncha bo‘lib, u insonni ham ezgulikka, ham yomonlikka yetaklashi mumkin. Shu sababli Sharq mutafakkirlari nafsni jilovlash va uni tarbiyalashni komil inson bo‘lishning asosiy sharti sifatida talqin qilganlar. Bugungi kunda ham nafs muammosi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Moddiy manfaatga intilish, manmanlik,

hasad va ochko'zlik kabi illatlar inson ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan nafs haqidagi ta'limotlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'fiy Allohyorning "Sabot ul-ojizin" asari o'zbek mumtoz adabiyotining ma'rifiy-axloqiy ruhda yozilgan muhim asarlaridan biri bo'lib, unda inson kamoloti, nafs tarbiyasi, taqvo, sabr va ma'naviy poklik masalalari keng yoritilgan. Asarning "Nafsi shum bayoni" qismida insonning ichki dushmani bo'lgan nafsning zararli xususiyatlari va undan qutulish yo'llari badiiy hamda irfoniy ruhda tasvirlanadi. "Nafsi shum" iborasidagi "shum" so'zi "yomon", "buzg'unchi", "ofat keltiruvchi" ma'nolarini anglatadi.

"Nafsi shum bayoni"ning asosiy g'oyasi - insonni nafs quli bo'lmaslikka chaqirish, uni ma'naviy poklanish va komillik sari yo'naltirishdir. Muallif nafsni insonning eng xavfli dushmani sifatida talqin qiladi. Asardagi baytlarda quyidagi fikrlar yetakchilik qiladi: nafs insonni egri yo'lga boshlaydi, kibr va manmanlik nafsning eng yomon ko'rinishlaridir, nafsni jilovlash uchun riyozat va taqvo zarur, inson yoshi emas, ma'naviy kamoloti bilan qadrlidir.

*Kel e kas, bo'lma aknun tobi'i nafs,*

*So'lur aqshom sabo bu gardani g'afs<sup>1</sup>.*

Ushbu baytning asosiy g'oyasi inson nafs va kibrdan voz kechib, kamtarlik va ma'naviy poklik sari intilishi kerakligiga chaqiriq. Zero, hayot o'tkinchi, inson qudrati esa muvaqqat ekan, bayt insonni nafs quli bo'lmaslikka, ma'naviy poklikka chaqiruvchi axloqiy-irfoniy mazmunga ega deyish mumkin. Ya'ni, shoir aknun (hozir, endilikda) tobei nafs (nafsga bo'ysungan, shahvat va hirs quli) insonga "Kel e kas" - "ey inson", "ey kishi" deb murojaat qilib, uni nafsga qul bo'lib yashamaslikka da'vat etmoqda. Ma'lumki, "Nafs" mumtoz adabiyotda insonni yomonlikka boshlovchi ichki xohishlar timsoli sifatida keladi. Shu bois, ijodkor insonni nafsni ammoraning (yomonlikka undovchi nafs) hukmiga kirmaslikka, unga qaram bo'lmaslikka chaqirmoqda. Ikkinchi misrada esa chuqur tashbeh va ramz bor: Bu yerda "axshom" (oqshom/kechqurun) o'lim va umrning poyonini anglatga, gardani g'afs - qalin bo'yin; bu yerda kibr, takabburlik ramzi sifatida kibrli inson,

---

<sup>1</sup> Оллоёр Сўфи. Саботул ожизийн. –Тошкент: Чўлпон, 1991. –Б.99.

sabo - vaqt, hayot sinovi yoki ilohiy ta'sir ramzi bo'lib, nafsning kibr va shahvat bilan to'lgan, mag'rur holatini ifodalaydi. Baytda inson o'lim oldida qanchalik kibru havo bilan yashagan bo'lsa ham, oxirida barchasi so'nib, yo'q bo'lishini eslatilmoqda. Ya'ni kechqurun esgan mayin sabo ham qalin bo'yinni egadi. Bu yerda "qalin bo'yin" takabbur va mag'rur inson timsoli. Demak, dunyo qudrati, mansab yoki kibr abadiy emas vaqt va hayot shamoli insonni baribir ojiz qiladi, natijada so'lur (bo'shashadi, susayadi, yo'qoladi).

*Hama toatlarning xo'biyu soft,*

*Yaqiyn bilgil - erur nafsning xilofi.*

Baytda shoir insonning haqiqiy ibodati qanday bo'lishi kerakligini irfoniylar ruhida tushuntiradi. Uning fikricha, insonning barcha yaxshi va pok amallari nafs xohishlariga qarshi kurash orqali kamol topadi. Agar inson qilayotgan ibodatlarini o'ziga oson va yoqimli tuyulsa, demak, u hali nafsning xohishidan tashqariga chiqmagan bo'lishi mumkin. Tasavvuf adabiyotida nafs bilan kurash eng katta jihod deb qaraladi. Shoir ham shu g'oyani badiiy shaklda ifoda etgan: nafsni ergashish-ruhiy tanazzul, nafsni qarshi turish ma'naviy yuksalish. "Sof toat" deb atalgan narsa aslida nafsning istaklariga qarshi kurashish, ya'ni unga "xilof" (ziddiyat) ish qilish orqali erishiladigan darajadir. Ya'ni, nafsning og'ir kelgan, uni jilovlagan taqdiridagina qilgan toating chinakam xolis sanaladi. Ikkinchi misrada asosiy g'oya ochiladi: "Haqiqiy toat - nafsni qarshi borishdir". Ya'ni, inson nafs istaklarini emas, ma'naviy va ilohiy yo'lga tanlasa, uning ibodati sof va qabul bo'ladi. Chunki nafs ko'pincha insonni kibr, hirs, shahvat, dangasalik va manmanlikka yetaklaydi. Bayt nasihat va hikmat ruhida yozilib, unda hayotiy va diniy-falsafiy xulosa mujassam bo'lib, asosiy g'oyasi - insonning eng yaxshi va pok amali nafs istaklariga qarshi turib yashashi va komillikka erishish uchun inson nafsini tarbiya qilishi lozimligi ta'kidlanish bilan birga, tasavvufdagi mashhur "Nafsning qarshi chiq, shunda g'alaba qozonasan" degan g'oyaviy qarash mavjud.

*Qo'yar kajlikka doim nafsni bad yuz,*

*Qachon o't tuz yonar, yalborsang o'ttuz.*



Baytning birinchi misrasida shoir insonni yo‘ldan ozdiradigan asosiy kuch “kajlik” - egrilik, noto‘g‘ri yo‘l, nafs bad insonni yomonlikka boshlashi badiiy shaklda ifoda etilgan. Zero, nafs haqiqatan doimo egri yo‘lga moyil bo‘ladi, demak insonni adashtiradigan, yo‘ldan ozdiradigan nafs insonni haq yo‘ldan burib, gunoh, kibr, hirs va adashish sari yetaklaydi. Ikkinchi misrada kuchli tashbeh va hikmatli qiyos keltirilgan *“Qachon o‘t tuz bilan yonganida, puflash bilan o‘char edi?”*. Bu misrada shoir nafs balosining kuchini olovga qiyos qilmoqda. Agar olov kuchli modda bilan avj olsa, uni oddiy puflash bilan o‘chirib bo‘lmaydi. Xuddi shunday, nafs illati kuchayib ketsa, uni yengish ham qiyinlashadi. O‘tning tabiyati yonish, kuyishdir; unga qancha yolvormagin, u o‘z tabiatini o‘zgartirib, tuz kabi bo‘lib qolmaydi. Xuddi shuningdek, yomon nafs ham o‘zining pastkash tabiatini shunchaki iltimos yoki yolvorish bilan o‘zgartirmaydi. Uni faqat qat’iy iroda va doimiy tarbiya (riyozat) bilan jilovlash mumkin. Bayt insonni nafsni vaqtida tarbiya qilishga chaqiruvchi chuqur hayotiy hikmatni o‘z ichiga olgan. Bayt mazmunidan ko‘rinib turibdiki, yomon nafs insonni doimo buzg‘unchilikka yetaklaydi, agar uni o‘z vaqtida jilovlamasa, keyin uni yengish juda mushkul bo‘ladi. Shuning uchun inson nafsini ertadan tarbiya qilishi va ma’naviy poklikka intilishi kerak.

*Erur nafsing dimog‘i turfa yellik,*

*Qachon ellik qilur - yalborsang ellik?*

Baytda shoir inson nafsining o‘ta mag‘rur va havoyi tabiatini tanqid qiladi. Birinchi misrada nafsni mag‘rurlik, manmanlik tajallisi sifatida “dimog‘i”, ya’ni kibr havosi turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi *“Nafs doimo havoyi va mag‘rurdir”* tarzda ifoda etilgan. Inson nafsining dimog‘i baland, u turli behuda xayollar, manmanlik va g‘urur (havo) bilan to‘la. U o‘z bilganidan qolmaydigan, “havoyi” tabiatdir. Ikkinchi misrada esa shoir ritorik savol orqali fikrni kuchaytiradi. “Sen qancha yolvorma, u qachon osonlik bilan murosaga qiladi?” deyish orqali nafsning murosaga kelmasligi ta’kidlanadi. “Ellik” bu yerda kelishuv yoki o‘rtani tan olish ma’nosida. Nafs shu qadar qaysarki, unga qancha yolvorsangiz ham, u o‘z shaxdidan qaytib, siz bilan “tengma-teng” (elli-elli)

kelishuvga bormaydi. U doim hukmronlik qilishni istaydi. Darhaqiqat, nafs insonning yaxshi niyatlariga tez bo'ysunmaydi. Uni yengish, tarbiyalash va jilovlash doimiy ma'naviy kurashni talab qiladi. Tasavvufda nafs - insonni haq yo'ldan ozdiruvchi ichki dushman sifatida talqin qilinadi. Bu baytda ham nafsning: kibrga moyilligi, havoyiligi, inson irodasiga oson bo'ysunmasligi ta'sirchan obrazlarda ko'rsatilib, nafs insonning eng qiyin jilovlanadigan dushmani ekani, uni yengish uchun sabr, iroda va ma'naviy tarbiya zarurligi ta'kidlanganib, nafsning havoyiligi, manmanligi va itoatsizligi ifoda etilgan. Shoirning fikricha, kibr insonni ma'naviy halokatga yetaklaydi.

*O'zung past aylasang - nafsing zabardast,*

*Boshing chaynab solur chun ushturi mast.*

Mazkur baytning asosiy g'oyasi inson o'z nafsini jilovlab turmasa, nafs uni halokatga yetaklashi, shuning uchun inson irodali, hushyor va ma'naviy jihatdan mustahkam bo'lishi lozimligi haqida. Baytda inson va nafs o'rtasidagi kurash juda ta'sirchan kuchli tashbeh orqali ifodalanib, nafsning xavfli va jilovsiz kuch ekanini jonli tasvirlangan. Muallif aytadiki, agar inson o'z irodasini susaytirsas, nafs undan ustun keladi *“Inson o'zingni zaif tutsang, irodangni bo'shatsa, zaiflashsa, nafsing kuchli va g'olib bo'ladi, kuchayadi”*. Ikkinchi misrada shoir *“boshing chaynab solur”* ifodasi orqali mubolag'a san'atidan foydalanib, nafsning halokatli ta'sirini kuchaytirib ko'rsatadi. Nafs *“ushturi mast”* mast, juda xavfli, jilovsiz tuyaga qiyoslangan. Sharq adabiyotida mast tuya nazoratsiz, o'zini bilmaydigan va juda xavfli kuch ramzidir. Nafs aynan shu holatga o'xshatilgan: agar uni jilovlamasang, u sening aql-idrokingni (boshingni) *“chaynab”*, ya'ni mahv etib, hayotini izdan chiqaradi. Tahlildan ayonki, mast tuya qadimda juda xavfli, boshqarib bo'lmaydigan jonivor hisoblangan. U yo'lidagi narsani ezib tashlashi mumkin. Shoir nafsni ana shu jilovsiz mast tuyaga o'xshatib, *“Nafs kuchaysa, insonni ezib tashlaydi, halokatga yetkazadi”*, deydi. Tasavvufda nafsni jilovlash ruhiy kamolotning asosiy sharti. Bu baytda insonning ma'naviy zaifligi nafsning g'alabasiga sabab bo'lishi ta'kidlanadi. Ya'ni: iroda susaysa, nafs hukmron bo'ladi, nafs hukmron bo'lsa, inson ma'nan yiqiladi. Shoir tazod san'atidan

mohirona foydalanib, insonning pastligi nafsning zabardastligiga olib kelishini badiiy shaklda ifoda etgan.

*Burung'a bodi kibr esmay burundin-*

*Burundiq sol anga, qo'pmay burundin.*

Mazkur bayt nasihat va hayotiy xulosa ruhida yozilgan bo'lib, uning asosiy g'oyasi inson kibr va nafsni ilk paydo bo'lishidanoq jilovlashi kerakligi, aks holda takabburlik insonni haq yo'ldan ozdirishi mumkinligi haqida. shoir insonni kibr va takabburlikdan ogohlantiradi. Birinchi misrada burun "nafs", "mag'rur inson" ma'nosida ham qo'llangan bo'lsa, bodi kibr, kibr shamoli, takabburlik havosi sifatida *"kibr shamoli burunga urilmasidan oldin..."* deyilishi orqali inson qalbiga mag'rurlik kirib kelishidan avval uning oldini olish lozimligi ta'kidlanadi. Ikkinchi misrada esa nafs va kibr hayvonga o'xshatilib, uni jilovlash kerakligi aytilgan *"Unga burundiq sol, toki joyidan bosh ko'tarmasin"*. Ya'ni, inson nafsini va kibrini o'z vaqtida tarbiya qilishi, aks holda u insonni boshqarib ketishi mumkin. Tasavvuf adabiyotida kibr insonni ma'naviy halokatga olib boruvchi eng katta illatlardan biri hisoblanadi. Shoir kibrning boshlanishini ham xavf deb bilsa, nafsni jilovlashni ma'naviy najot yo'li sifatida ko'rsatadi. Bu yerda "burundiq" - iroda, taqvo va nafs tarbiyasining ramzidir. Baytda "Burun" so'zi bu yerda ikki marta kelgan: birinchisi dimog' (burun), ikkinchisi - avval (burundin). Nafsingga kibr (manmanlik) shamoli kirmasidan turib... *"Burundiq sol anga"*. Burundiq - hayvonlarning (masalan, tuyaning) burniga taqiladigan halqa yoki arqon. "burundiq" (jilov) atamalarini qo'llash orqali inson ruhiyatini yovvoyi hayvonga qiyoslash, bu yerda jilovlash, nazoratga olish ma'nosida. Shuningdek, shoir tanosub san'atidan unumli foydalanganligini "burun", "burundiq", "bod" so'zlari o'rtasidagi ma'naviy va ovoz uyg'unligi baytga musiqiylik bag'ishlaganligida ko'rish mumkin. Shoir kibrga *"Qo'pmay o'rundin"*, ya'ni o'z joyidan qo'zg'almasdan, ya'ni yomon ishni boshlamasdan, boshko'tarmasin oldin unga chora ko'rish lozimligini uqtiradi.

*Riyozat bandig'a berkit ayog'in,*

*Ko'tarma boshidin taqvo tayog'in.*

Baytning asosiy g'oyasi - inson nafsini riyozat bilan tarbiya qilib, hayotida taqvoni doimiy tayanch qilib yashashi kerakligidir. Ma'lumki, ma'naviy kamolot nafsni jilovlash va taqvo bilan mustahkamlanadi, shu bois baytda shoir insonni nafsini tarbiya qilishga va taqvo yo'lidan chekinmaslikka chaqiradi. Birinchi misradagi riyozat - bu nafsni qiynash, uni shahvat va dunyoviy xohishlardan tiyish orqali tarbiyalash jarayoni. Band esa kishan yoki arqon bo'lib, ya'ni, nafsingni yomon yo'llarga yugurib ketmasligi uchun uni ibodat va sabr kishanlari bilan bog'lab qo'y degan ma'nolarni anglatadi. Demak, nafsni tarbiyalash, mashaqqat va sabr orqali o'zini poklash orqali oyog'ingni riyozat kishani bilan band berkit oyog'in, oyog'ini bog'la, jilovla deyilishi orqali inson o'z nafsini erkin qo'ymasligi, uni sabr, mehnat va tarbiya bilan jilovlashi kerakligi ta'kidlanadi. Bu yerda "oyoq" insonning xohish va harakatlari ramzi hisoblanadi. Ikkinchi misrada taqvo tayog'i, bir lahza ham bo'sh bo'lmasligi kerak, aks holda nafs yana bosh ko'taradi. Allohdan qo'rqib yashash orqali taqvo parhezkorlik tayoq, tayanch, nazorat vositasidan ko'tarmay boshidin, yoki boshidan olib tashlama, tark etma deyilmoqda. Agar nafs tarbiyadan chiqib, kibr yoki yomonlikka moyillik qilsa, uni "taqvo tayog'i" bilan Alloh oldidagi mas'uliyatni eslatib, qo'rqitib doimiy nazoratda ushla, bu tayoq inson hayotida taqvo doimiy tayanch va yo'l boshchi bo'lishi lozim. Tasavvufda riyozat nafsni poklash yo'li, taqvo ma'naviy kamolot asosi hisoblanadi. Shoir baytda insonning ichki kamoloti nafsni cheklash, taqvoga suyanish orqali yuzaga kelishini ifoda etgan. Istiora san'ati orqali nafsni jonli mavjudot, riyozatni nafsni jilovlovchi ma'naviy kishan, taqvoni tayog', insonni to'g'ri yo'lda ushlab turuvchi tayanch, tanosub san'ati orqali esa riyozat, taqvo, band, tayoq kabi so'zlar ma'naviy-axloqiy birlik hosil qilgan. Shuningdek, tadrij san'atini go'zal namunasi avval nafsni bog'lash (harakatsizlantirish), so'ngra uni tayoq bilan boshqarish (nazorat qilish) orqali tarbiyaning ikki bosqichi ko'rsatilgan.

Demak, So'fiy Allohyorning "Sabot ul-ojizin" asaridan o'rin olgan "Nafsi shum bayoni"da inson ma'naviyatini tarbiyalashga qaratilgan chuqur irfoniy-axloqiy masala qalamga olingan bo'lib, unda nafs insonning eng katta dushmani

sifatida tasvirlangan bo'lib, uni yengish uchun sabr, riyozat, taqvo va iroda zarurligi uqtirilgan. "Nafsi shum bayoni"ning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u insonni: kamtarlikka, o'zini nazorat qilishga, ma'naviy poklikka, nafs bilan kurashga chaqirib, komil inson g'oyasini targ'ib qiladi.

## KOMIL XORAZMIY VA FERUZNING USTOZ-SHOGIRDLIK MUNOSABATLARI XUSUSIDA

*G'ayipov Dilshod Qadambayevich,*  
*UrDU professori, filologiya fanlari doktori*  
[dilshod\\_gayipov@inbox.ru](mailto:dilshod_gayipov@inbox.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Komil Xorazmiy va Muhammad Rahimxon Feruzning ustoz-shogirdlik munosabatlari xususida muxtasar fikr yuritiladi. Ularning xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik faoliyatidagi o'xshash jihatlar va hamkorlikdagi ishlari tahlil etiladi. Feruz ba'zi o'rinlarda Komil adabiy an'alarini davom ettirgani tadqiq qilinadi. Komil va Feruz munosabatlaridagi ba'zi munozarali masalalarga oydinlik kiritishga harakat qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Komil, Feruz, ustoz, shogird, hamkorlik, adabiyot, san'at, madaniyat, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, an'ana, mahorat.

**Abstract:** This article briefly discusses the mentor-apprentice relationship between Kamil Khorezmi and Muhammad Rahimkhan Feruz. The similarities and collaborative work in their philanthropic, educational, and progressive activities are analyzed. In some places, Feruz continues the literary traditions of Kamil. An attempt is made to clarify some controversial issues in the relationship between Kamil and Feruz.

**Keywords:** Komil, Feruz, teacher, student, cooperation, literature, art, culture, enlightenment, progressiveness, tradition, mastery.

Xorazm adabiy muhitining yetuk namoyandalari Komil Xorazmiy (1825-1899) va Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910)ning ustoz-shogirdlik munosabatlari, hamkorligi qadim Xivada madaniyat, adabiyot va san'atni yuksak

pag'onaga ko'tarilishida asosiy vositalardan biri bo'ldi. Ma'lumki, Pahlavonniyoz Komil Said Muhammadxon davrida xon saroyida mirzalik vazifasida faoliyat yuritgan bo'lsa, Muhammad Rahimxoni soniy Feruz taxtga chiqqach, mirzaboshilik lavozimiga loyiq ko'rildi. 1873-yilda Xiva xonligi Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, Komil Xorazmiy devonbegilik mansabini egalladi. Ko'rinadiki, Komilning xon saroyida mavqeyining orta borishi Muhammad Rahimxonning hukmdorligi bilan bog'liq bo'lib, bevosita Feruzning Komilga ishonchining ramzi hamdir. Muhammad Rahimxon Feruzning ma'rifatparvar, taraqqiyparvar sifatida tanilishida Ogahiyning qanchalik xizmati bo'lsa, bizningcha, bu borada keyingi o'rinni Komil Xorazmiy egallaydi. Yana shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, ular hamkorligiga, ustoz-shogirdlik rishtalarini bog'lashlariga har ikkala siymoning iste'dod ko'lamining bir-biriga yaqinligi ham sababdir. Har ikkala ulkan shaxsiyat egalarini quyidagi jihatlar birlashtirib turadi:

1. Shoirlik.
2. Ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, xalqparvarlik.
3. Bastakorlik.
4. Musiqashunoslik.
5. Boshqaruvchilik layoqati.

Darhaqiqat, Komilda ham, Feruzda ham davlat boshqaruvi sohasida katta iqtidor bor edi. Feruz 47 yil xonlikni idora qilgan bo'lsa, Komil Xorazmiy mirzaboshi, devonbegi sifatida ko'p yillar faoliyat yuritdi. Shunchaki faoliyat yuritmadi, xalq dardi bilan yashadi. Aynan uning sa'y-harakatlari bilan 1873-yilda Ichon qal'a vayronagarchiliklardan asrab qilindi.

Ma'lumki, Muhammad Rahimxon Feruz davrida adabiyot va san'at ravnaq topdi. Kitobatchilik rivojlandi. Devon tuzish, tarix yozish, tarjima ishlari ravnaq topdi. Aynan mana shu kabi ishlarning taraqqiy etishida Feruz tashabbuskor bo'lgan bo'lsa, Komil Xorazmiy unga yaqindan ko'mak berdi. 1876-yilda Xivada ilk matbaa ish boshlashida ham Feruz asosiy vazifani bajargan bo'lsa, Komil Xorazmiy bu jarayonda ko'makchi va ijrochilardan biri bo'ldi. Ta'kidlash o'rinliki, Muhammad Rahimxon Feruz Hindiston, Arabiston, Eron, Turkiyadan savdogarlar

orqali Xorazmga ko'pgina noyob kitoblar keltirtirgan, ularni ko'p nusxalarda ko'chirtirgan. Ana shu kitoblarni xattotlik san'ati asosida ko'chirtirilishida ham Komilning alohida hissasi bor.

Feruz va Komilning taraqqiyparvarlikdagi hamkorligi yangi maktablar ochishda ham ko'rinadi. Ma'lumki, 1884-yilda Xivada birinchi jadid maktabi ochilgan. Bu maktabning faoliyat boshlashida Feruz bilan birgalikda Komil ham asosiy o'rinni egallagan.

Komil Xorazmiyning ham, Feruzning ham musiqaga qiziqishi juda baland bo'lgan. Ular musiqa sohasida katta mahoratga ega bo'lishgan. Hasanmurod qori Laffasiy xabar berishicha: "Ammo Pahlavon maxsum (Komil Xorazmiy, ta'kid bizniki) dag'i Feruzning xizmatida andog' mashqi tanbur qilib, Feruzshohni o'ziga vobastaiy shaydo qiladur. Shul munosabat bilan Feruz tanbur soziga havaskor bo'lib, Xiva mashhur go'yandalaridan Avaz dorch, Muhammad Yoqub dorch kabilarni oldirib, Pahlavonjon bilan barobar soz tanbur qildiradilar". [Laffasiy, 1992: 21]. Alaloqibat, ularning musiqaga bo'lgan mehri Xorazm maqomlarini notaga tushirilishiga zamin hozirladi. Feruzning tavsiyasi va topshirig'i bilan Komil Sankt-Peterburgdan nota yozuvini o'rganib qaytdi va qog'ozga tushirdi. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, Feruzning o'zi bastakor sifatida 13 ta mustaqil kuy yaratgan bo'lsa, Komil Xorazmiy ham bir qancha kuylar ijod qildi: "Murabbai Komil", "Peshravi Komil" kabi kuylar uning ijodiga mansub. Bu kuylar "Rost" maqomiga bog'lab yaratilgan va notaga ko'chirilgan. [Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti, 2004: 68]. Laffasiy Komilning bu ishini shunday ta'riflaydi: "...shashmaqom tanburg'a yanada qo'shimchalig' maqomi Feruzshohiy, deb bir maqomni ta'lif etadur". [Laffasiy, 1992: 21]. Bu ikkala ulug' siymo hamkorligining natijasi shu bo'ldiki, og'izdan og'izga o'tib kelayotgan Xorazm maqomlari notalashtirilib, umriboqiyiligi ta'minlandi. Bu ma'naviy meros Komil va Feruzning xizmatlari bois avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

Komil Xorazmiyni Feruzning she'riyatdagi ustozlaridan biri deyish o'rinlidir. Feruz ijodining tadqiqotchilaridan hisoblangan Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasullar: "Uning (Muhammad Rahimxonning) g'azallarini ko'rgan



Komil xonga Feruz taxallusini taklif etadi”, [Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul, 1991: 57] deb yozgan edi. Darhaqiqat, shunday. Komil Muhammad Rahimxonga nafaqat taxallus tanlashda yordam bergan, balki “Latoyif uz-zaroyif” nomli tarjima asarida Feruzning shoirlik mahoratiga ham yuksak baho bergan.

Feruz she’riy salohiyati yuksalishida Komilning o’rni ham katta, albatta. Biz har ikkala ijodkor asarlarini kuzatib, bunga amin bo’lamiz. Jumladan, Feruzning ba’zi g’azallari Komil she’rlariga o’xshash. Ularda g’oyaviy yaqinlik, shakliy o’xshashlik kuzatiladi. Bu ham ijodiy ta’sirning bir namunasi bo’la oladi. Komil yozadi:

*Xushnud bo’lg’il, ey ko’ngul, gul yuzli jononing kelur,  
Shirin lab-u, pista dahan, gulbargi xandoning kelur,*

*Bayzo jabin-u gul uzor, xurshid ruh, mehr iqtidor,  
Qotilvash-u shirin shior oshubi davroning kelur* [Komil Devon, 1975: 63].

Ko’ngilga murojaat bilan boshlangan bu g’azalda gul yuzli jononning labi, og’zi, qaddi-qomati ta’riflanadi. Shuningdek, unga qotilvash, shirin shior, oshubi davron sifatlari beriladi. Feruz Komil g’azaliga shunday o’xshatma qiladi:

*Shod o’lg’il, ey mahzun ko’ngil, bu kecha dildoring kelur,  
Shirin takallum, gulbadan, la’li shakarbororing kelur.*

*I  
Soz ayla aysh asbobini, ochgil tarab abvobini,  
Ruxsori olam tobini, ochib sevar yoring kelur* [Feruz, 1994:32].

Har ikkala g’azal ham ko’ngilga murojaat bilan boshlanadi. Yorning kelishidan shodlanish ruhi ustuvorlik qiladi. Ma’shuqaning go’zalligi ta’rif-tavsif qilinadi. Eng muhimi, har ikkala g’azalda ichki qofiyadan ham foydalanilgan. Shaklda ham, ifodada ham mutanosiblikka erishilgan. Komil Xorazmiy va Feruzning “Kelgil” radifli g’azalida ham hamohanglik seziladi. Komil yozadi:

*Bahor ayyomi bo’lmish gulshan ichra, ey sanam, kelgil,  
Ulusdin qilg’ali day shiddati ranjini kam kelgil.*

*Guli ruxsoring-u sarvi qadingning orzusida,*

*Qilur qumri-yu bulbul, tun-kun alhon-u nag'am kelgil* [Komil Devon, 1975: 119].

Feruzga Komilning yuqoridagi g'azali juda ma'qul kelgan. Shoir undan ta'sirlangan. U ham yorning kelishini bayramga, bahorning tashrifiga qiyoslaydi:

*Ochilmish gul, yeturmish bog'a ziynat, ey sanam, kelgil,  
Icharga bir nafas ahbob birla jomi jam kelgil.*

*Dame nozingni tark etgil, ko'rub ushshoq ahvolin,  
Tuzub mehr-u vafo rasmin, qilib lutf-u karam kelgil* [Feruz, 1994:64].

Komil va Feruz she'riyatida bu kabi bir-biriga o'xshash, shakl hamda ifodada, g'oya va mazmunda yaqinlik mavjud g'azallar anchagina. Biroq Feruz an'ana ta'sirida qolib ketmadi. Ustozlardan ilhomlanib, mahoratini toblantirdi.

Komil Xorazmiy Feruz g'azallariga muxammaslar ham bog'lagan. Feruzning "Kelur", "Bukun" radifli hamda "Tarahhum aylagil, ey sho'xkim, ishq ichra zoringman", "Qilib noz olding, ey mahbub, orom-u qarorimni" deb boshlanuvchi g'azallariga Komil badiiy teran muxammaslar bog'lab, iqtidorini namoyon etgan. Feruzning "Bukun" radifli g'azaliga Komil muxammasi e'tiborga molik asardir. Muxammas har ikkala shoirning fikrlari bir-birinikiga nihoyatda hamohang ekanligini ko'rsatadi. Komil bu g'azalga bejiz muxammas bog'lamagan. Chunki "Bukun" radifli g'azal Feruzning eng badiiyyati o'ziga xos g'azallaridan biri hisoblanadi. Muxammas shunday boshlanadi:

*Hijronida ko'b yig'lading vaslida, ey dil, kul bukun,  
Sol shodlig'din gunbazi gardon aro g'ul-g'ul bukun.  
Javr-u jafo oyinini tark aylabon bilkull bukun,  
Bazming'a keldi ul pari ruxsori aylab gul bukun,  
Cheksam, ne tong, o'tlug' navo ul na'vkim, bulbul bukun* [Komil, 2024: 42].

Feruz ma'shuqani ul pari deya ataydi. Uning ruxsori gul aylab bazmiga kelganini, yorni ko'rib bulbuldek o'tli navo chekkani tasvirlaydi. Ko'z oldingizda go'zal holat namoyon bo'ladi. Beixtiyor gul va bulbul timsollari esga keladi. Biroq bu o'rinda gulzor emas, bazmdagi holat tasvirlanadi. Feruzning bu baytiga Komil

shunday misralar qo'shganki, to'g'rirog'i, baytdagi mazmunga kirish manzara beruvchi yangi holatlarni nazmga solgan. Komil dilga, ko'ngilga murojaat qilar ekan, ma'shuqaning hajrida ko'p yig'lading, endi vaslida bugun kul, gunbazi gardonga, ya'ni olam gunbaziga shodlikdan shovqin sol, jabr-u jafo oyinini butkul tark qil, deya yangi fikr aytadi. Buning boisi, bazmga go'zal yorning tashrifidir. Ko'rinadiki, har ikkala ijodkor bir-birining fikrlarini mantiqiy bog'lay olgan, iste'dodini namoyon qilgan.

Feruz bazmni tasvirlar ekan, g'azalning ikkinchi baytiga zohid obrazini olib kiradi. Mumtoz adabiyotimizda odatda g'azalning maqta'sidan oldin begona bayt keltirilib, unda shoir she'r mazmuniga begona misralarni bitadi. Feruz g'azalidagi ikkinchi bayt begona baytdek tasavvur uyg'otadi. Aslida unday emas. Bu bayt birinchi baytning bevosita davomi bo'lgan rindona mazmun-mohiyat tashuvchi o'ziga xos misralardan tashkil topgan. Feruz zohidga tunda may ichmay xudbinlik izhor qilding, bu beadabliging bo'yningga tasbehingni bugun zanjir qildi, deya zohidning ikkiyuzlamachiligi haqida yozsa, Komil bu fikrlarga hamohang zohid olamda topganini boshiga salla qilganini, etagini yerda sudrab, kiyimini murdor etganini, mayxo'rlarning (rindlarning) bazmiga kelmay, o'zicha nimalardan or etganini tasvirlab, haqiqiy oshiqlik va zohidlikni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Muxammasdagi bu rindona band she'rning badiiyatini yana ham oshirgan:

*Bu olam ichra topg'oning boshingg'a dastor aylading,*

*Sudrab yer uzra domaning, jomangni murdor aylading.*

*Mayno'shlarning bazmiga kelmay nedin or aylading,*

*Tun boda ichmay, zohido, xudbinlik izhor aylading,*

*Bu beadablik bo'ynungga tasbihing etmish g'ul bukun* [Komil, 2024:42].

Komil va Feruzning mushohadalari keyingi bandlarda ham bir-birini to'ldirgan. Ma'shuqaning go'zal husni, sifatlari, ozorlari keyingi bandlarda ta'riflanadi. Har ikkala shoir bir-birlari tavsifiga mos yangi fikr aytadi. Bir so'z bilan aytganda, Komil va Feruz badiiy mahorati sabab yana ham keng mazmun-mohiyat ifoda etuvchi yangi bir asar vujudga kelgan.

Navbatdagi bandda bulbul obrazidan unumli foydalanilgan. U bulbul lirik qahramonning ma'shuqasini hali ko'rmagan. Bulbul gulshanni maskan tutgan. U gul shavqida behuda g'avg'o qilib yuribdi. Nogahonda u bulbul lirik qahramonning ma'shuqasini ko'rib qoladi. Ma'shuqaning otashin yuzini ko'rib, oshiq-u shaydoga aylanadi. Ishq o'tida o'rtanib esa vujudini kulga aylantiradi. Lirik qahramonning yori shu darajada ko'rkliki, hatto gul ishqidagi bulbul ham guldan yuz o'girib, o'zini qurbon qiladi:

*Ko'rmay jamolin, aylabon gulshanda ma'vo andalib,  
Gul shavqida ko'b ayladi behuda g'avg'o andalib,  
Nogah guli ruxsorini qilg'ach tamosho andalib,  
Ul otashin yuzni ko'rib gulshanda shaydo andalib,  
Ishqi o'tig'a o'rtanib bo'lmish vujudi kul bukun [Komil, 2024:43].*

Yuqoridagi banddagi misralar bir-biriga juda mos tushgan. Go'yo bir zanjirning halqalari. Mazmun jihatdan ham bir-birini taqozo qiladi. Voqealar ketma-ketligi ham bor. Bu esa ikki iste'dodli shoirning fikr o'zanlari bir joyda kesishganidan darak beradi.

Muxammasning so'nggi bandi chinakam ma'nodagi ishq va oshiqlikning tabiatini ifodalaydi. Oxirgi bandda Komil ishq aro shoh-u sipoh barobardur, buni mening holim ham isbotlaydi desa, Feruz esa garchi men tole'yi Feruz ila olamga shoh bo'lsam-da, lekin ul parilar yo'lboshchisi oldida qulman, deya ustozlarga munosib so'z aytadi. Bu esa ishqning go'zal va abadiy tuyg'u ekanligini isbotlovchi yorqin misralardir:

*Ne sud, bo'lsa saltanat taxti mango oromgoh,  
Bordur barobar ishq aro Komil shah o'lsun, gar sipoh,  
Bu so'zni bovar qilmasang, bordur mening holim guvoh,  
Garchi erurman tole'yi Feruz ila olamg'a shoh,  
Lek ul parilar sarvari ollidadurman qul bukun [Komil, 2024: 43].*

Komil Xorazmiy Feruzning "Bukun" radifli g'azalini behuda tanlamaganini muxammas ko'rsatib turibdi. Badiiy mahorat mahsuli bo'lgan g'azalga ustoz ijodkor go'zal va purma'no muxammas bog'lagan. Bu orqali Feruzga,

she'riyatdagi shogirdiga, yorqin iste'dodi bor ekanligini eslatganday bo'ladi. Iste'dod iste'dodni tarbiyalaydi, takomilga yetkazadi, degan fikr bejiz aytilmaganini isbotlaganday bo'ladi, nazarimizda.

Komil Xorazmiyning Feruzga bag'ishlab yozgan 4 ta qasidasi hukmdor va ijodkor Muhammad Rahimxonga berilgan munosib bahodir.

Komil Xorazmiy va Feruz munosabatlarining yomonlashuviga Komilning Chor Rossiyasiga yon bosganini ham sabab qilib ko'rsatadilar. Aslida bu yanglish fikrdir. Ba'zi adabiyotshunoslar, ayrim tarixchilar Pahlavonniyoz Komil bilan Matniyoz devonbegrni chalkashtirib yuboradilar. Ana shu chalkashliklar sabab ham yuqoridagi xatolik kelib chiqqan. Komil Xorazmiy va Matniyoz devonbegi boshqa-boshqa shaxslar ekanligini shoir, yozuvchi, dramaturg Komil Avaz o'z maqolasida isbotlab bergan [Komil Avaz, 1997:46-57].

Komil Xorazmiyning asl ismi Pahlavonniyozdir. Ko'pchilik manbalarda keltirilganidek, Muhammadniyoz emas. Ogahiy ham "Gulshani davlat" asarida Komilni Pahlavon Niyozboy deb ataydi: "Navrasfikir-u tozatab" shuarodin fazl-u hunar ahli arosinda mumtoz Pahlavon Niyozboykim, fozillar guruhi ichra taxallusi Komildur" [Ogahiy, 2019: 35]. Mulla Bekjon Rahmon va Muhammad Yusuf Devonzodalar ham 1925-yil yozilgan "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobida shunday yozadi: "Mashhur musiqashunos Abdusattor mahramning do'g'on (tug'ishgan) singlisi Avazjonni Abdulla mufti Nurboy juk o'g'lina nikohlab berganlar. Abdulla muftining mazkur Avazjon xotunidan bir o'g'il dunyoga galib, Pahlavon deb odolg'onlar" [Bekjon Rahmon, Muhammad Yusuf Devonzoda, 1998:28]. Bu fikr ham Komilning ismi Pahlavonniyoz ekanligini tasdiqlaydi. Tazkiranavis Hasanmurodqori Laffasiy "Tazkirayi shuaro" asarida shunday yozadi: "Pahlavon Niyoz devon Pahlavon mirzaboshi Abdulla oxund maxdum bo'lib, Pahlavonjon nomi bilan shuhrat topgan. Pahlavonjon sozanda va xushovoz bo'lgan. Muhammad Rahimxon o'z saroyiga chaqirtirgan va unga mirzaboshi, keyinroq esa devonbegilik amalini bergan. Xorazmning barcha savdo va boj yig'ish ishlari Pahlavon devonbegi qo'l ostida bo'lgan. Pahlavonjon she'rlar ham yozib, "Komil" taxallusi bilan mashhur bo'lgan" [Laffasiy, 1992:20]. Shu

o'rinda bir jihatni alohida ta'kidlash o'rinli, musulmon dunyosida ulug' shoir, kuragi yerga tegmagan kurashchi, mutasavvuf Pahlavon Mahmud juda e'zozlanadi. Ma'lumki, Pahlavon Mahmud maqbarasi Xivada joylashgan. Komil tug'ilgan uy Pahlavon Mahmud maqbarasiga 500 metr uzoqlikda joylashgan. Madrasa mudarrisi Abdulla oxund yangi tug'ilgan farzandiga har juma ziyoratiga oshiqadigan buyuk shoir, faylasuf Pahlavon Mahmudning ismini qo'yishi, unga nazr qilishi tabiiy edi. Ana shularni e'tiborga olib ham Komilning asl ismi Pahlavonniyoz degan xulosaga kelish o'rinli.

Rus ma'murlariga xayrixoh bo'lgan Muhammadniyoz devonbegi esa Muhammad Rahimxon I ning rus xotinidan tug'ilgan o'g'li. Hijriy 1217, melodiy 1856-yilda Sayid Muhammadxon uni amalidan tushirgan. Keyinchalik Muhammadniyoz Amirul umaro Sayid Mahmud to'raning noibi sifatida Hazoraspda devonbegilik qilgan. Kaufman Xivani egallaganida Amirul umaro Sayid Mahmud to'ra, Otajon to'ralar bilan uning oldiga borgan ham Muhammadniyoz devonbegidir, bizningcha. Ruslarga xayrixoh deya Komil Feruzga qarama-qarshi qo'yib kelinishi yuqoridagi xatolik bilan bog'liq. Tog'ri, Komil Xorazmiy ham Yevropa, xususan, rus ilm-fani, madaniyatiga xayrixoh bo'lgan. Ularga ergashish tarafdori bo'lgan. Zinhor bazinhor mustamlakachilikni yoqlamagan.

Feruz va Komil o'rtasida xafagarchilik yuz bergan vaqtlar ham bo'lgan. Jumladan, tarjima qilish uchun Komilga topshirilgan asarning muddatida tugatilmagani, keyin bu asar tarjimasini yakunlash Rojiyga topshirilgani, tarjima ham Rojiyning nomiga o'tib ketgani xususidagi voqeani, Komil va Matmurod devonbegi orasidagi kelishmovchiliklar natijasidagi Pahlavonniyozning o'rtanishlarini hisobga olmaganda, Komil va Feruz munosabatlarini yuqori darajada baholash mumkin. Yana bir haqiqatni unutmaslik kerakki, Komil hamda Feruz xalq va Vatan taqdirini doimo yuksak tutuvchi shaxslar bo'lib, ular kichik ko'ngilsizliklarni oddiy hol, deb qaraganlar. Yurt taqdiri uchun har qanday holatda ham birlashganlar, juz'iy xatoliklarni e'tiborga olmaganlar.

Xullas, Komil Xorazmiyni she'riyatda Feruzning ustozlaridan biri, deyish har tomonlama to'g'ri fikrdir. Ular maslakdosh, fikrdosh hamkorlar bo'lishgan. Adabiyot, san'at, madaniyat rivojida bir-biriga yelkadosh sifatida harakat qilishgan. Xalqparvarlikda, taraqqiyparvarlikda zamondoshlariga o'rnak bo'lishgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Laffasiy. Tazkirayi shuaro. – Urganch: Xorazm, 1992. –B.21.
2. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Darslik. –Toshkent: Ma'naviyat, 2004. –B.68.
3. Laffasiy. Tazkirayi shuaro. – Urganch: Xorazm, 1992. –B.21.
4. Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul. Feruz – shoh va shoir qismati. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. –B.57.
5. Komil. Devon. –Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. –B.63.
6. Feruz. Elga shoh-u ishqqa qul. Devon. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. –B.32.
7. Komil Xorazmiy. Musammatlar. Nashrga tayyorlovchi Sh.Nuriddinov. – Qarshi: ILM-FAN-MA'NAVIYAT, 2024.–B.42-43.
8. Komil Avaz. Xiva dilbandi Komil Xorazmiy Matniyoz devonbegimi? –Toshkent: Yozuvchi, 1997. –B.46-57.
9. Ogahiy. Gulshani davlat. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2019. –B.35.
10. Bekjon Rahmon, Muhammadyusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. – B.28.

## **KOMYOB DEVONI DEBOCHASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Karimova Farida Isakovna,**

NamDU professori v.b., filologiya fanlari doktori

e-mail: [faridakhank@mail.ru](mailto:faridakhank@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada Xorazm adabiy muhitining iste'dodli vakillaridan biri shoir va tarixchi Sayid Homid to'ra binni Sayid Muhammadxon Komyobning devoni, devonga yozilgan debocha xususida fikr yuritilgan. Devon debochasida an'analarga munosabat va o'ziga xoslik masalasi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** devon, debocha, debocha kompozitsiyasi, an'ana va o'ziga xoslik.

**Abstract:** This article examines the Divan of Sayyid Hamid Tora ibn Sayyid Muhammadkhan Komyob, a distinguished poet and historian of the Khorezm literary environment, as well as the preface (dibacha) composed for the collection. Particular attention is paid to the manifestation of literary traditions and the poet's



individual artistic approach as reflected in the *dibacha*. The study analyzes the relationship between adherence to established conventions and the emergence of distinctive authorial features within the preface.

**Keywords:** *Divan*, *dibacha* (preface), *dibacha* composition, literary tradition, originality.

Ma'lumki, Xorazm azaldan madaniyat beshigi bo'lgan zamin. U o'z bag'rida jahon ilm-fani, madaniyati va san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan o'nlab qomusiy olimlarni, shoiru allomalarni kamolga yetkazgan. Xususan, XIX va XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti har jihatdan gullab-yashnadi; mumtoz adabiyotdagi devonchilik an'analari ijodiy rivojlantirildi, adabiy tur va janrlar rivoj topdi, tarixnavislik va tarjimachilik sohasida muhim yutuqlarga erishildi. Munis, Ogahiy, Feruz, Bayoniy, Avaz O'tar kabi shoirlar ijodi buning yaqqol dalilidir. Bunda ilmiy va ijodiy muhitning har tomonlama rivoji uchun imkoniyatlar yaratib bergan Xorazm hukmdorlarining, xususan, Muhammad Rahimxon II – Feruzning alohida o'rni bor, albatta.

Xorazm adabiy muhitining iste'dodli vakili Komyob hayoti va ijodiy merosi manbalarini tadqiq etgan J.Jo'rayev shoirning ijodi o'rganilishi zarur bo'lgan manbalardan biri ekanligini takidlagan edi: "XIX va XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitining Munis, Ogahiy, Bayoniy, Avaz O'tar singari namoyandalari ijodini tadqiq etish yuzasidan adabiyotshunoslikda muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ular bilan zamondosh Asad, Oqil, Sa'diy, Komyob, Murodiy, Sultoniy, Farrux, Sodiq kabi xon oilasidan yetishib chiqqan ijodkorlar asarlarining qo'lyozmalari hanuzgacha o'rganilmagan"[Jo'rayev,2012:3].

Iste'dodli shoir va tarixchi Sayid Homid to'ra binni Sayid Muhammadxon Komyob hijriy 1276/1861-yilda Xorazmda tug'ilgan. Shoirning hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar uning devoni hamda debochasi va Hasanmurod Laffasiyning "Xeva shoirlari va adabiyotchilarining tarjimai hollari" tazkirasida uchraydi. Komyob otasi Sayid Muhammadxon vafot etgandan so'ng, amakisi Feruzning homiyligida tarbiya oladi. U yoshligidan she'riyatga havasmand bo'ldi, arab va

fors tillaridagi tarixiy asarlarni qiziqib o'rgandi. Shoir asta-sekin she'rlar yoza boshladi. Lutfiy, Navoiy, Munis, Ogahiy kabi zabardast so'z san'atkorlari ijodini mehr bilan o'qib-o'rgandi, ularning she'riyat sohasidagi badiiy mahorati qirralaridan saboq oldi. bo'ldi. Ustozlar ijodidan bahramandlik uning she'riyat olamida kamol topishiga zamin yaratdi. Shoir yashagan muhiti va maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'ziga Komyob (maqsadga erishuvchi baxtiyor) taxallusini tanladi. Uning bizgacha "Devon"i, "Tavorix-ul xavonin" ("Xonlar tarixi") va "Muntaxab ul-voqeot" ("Voqealar to'plami") nomli tarixiy asarlari, "Esdaliklar" to'plami yetib kelgan[Jo'rayev,2019:15].

Komyob Feruz asos solgan adabiy muhitning iste'dodli vakili sifatida mumtoz she'riyatning g'azal, qasida, masnaviy, mustazod, muhammas, musaddas, murabba', musamman, ruboiy, qit'a, tuyuq kabi 17 xil janrda ijod qilgan. 36 yoshida devon tuzgan bo'lib, unda shoirning 6000 misradan ziyod she'rlari o'rin olgan. Xorazm adabiy muhitidagi devonchilik an'analaridan kelib chiqqan holda shoir devonga debocha bitgan.

Komyob, asosan, o'zbek tilida ijod qilgan, lekin zullisonayn shoir sifatida forsiyda ham she'rlar yozgan. Matnshunos J.Jo'rayev devondagi she'rlarni qayta-qayta tahrir qilinganligi va bu ularning g'oyaviy-badiiy takomili uchun xizmat qilganligini alohida ta'kidlaydi. Biz buni devon debochasida ham kuzatamiz.

Alloh va payg'ambarimiz sifatlarini ko'tarinki uslubda tarif-u tavsif etish Komyob debochasiga ham xos. Debochani Alloh hamdi bilan boshlagan shoir muhim bir masalaga e'tibor qaratadi: odam barcha yaratiquklardan mukammal qilib yaratilgan. An'anaga muvofiq shoir Alloh tomonidan odamlar orasidan ba'zilar vali-yu avliyolik darajasi bilan siylangan bo'lsa, ayrimlari payg'ambar va mursallar sifatida mo'tabarlik maqomiga musharraf etilganligini ta'kidlaydi. Muhammad Mustafo (s.a.v.)ni ularning barchasidan sarbaland va arjumand etganligini e'tirof etadi:

Barcha payg'ambardin aylab arjumand,

O'z habibim debon etdi sarbaland.

Barcha mursal xalqadur, ul qoshdur,

Hotamul mursal ot anga foshdur [Komyob, №1257:2].

Aksariyat debochalarda Alloh hamdi va Rasululloh na'tidan so'ng asosiy masalalar tavsifiga o'tiladi. Komyob esa to'rt chahoryorlar va Imom Hasan, Imom Husanlar madhiga ham o'rin ajratadi.

Hamd-u na'tdan so'ng shoir "Ammo ba'd..." iborasi bilan asosiy maqsadga o'tadi, ya'ni o'zi haqida xabar berib, ijod olamiga qay tarzda kirib kelganligini batafsil bayon qiladi. Yoshlik chog'laridan "shoiri mutaqaddimlar"ning she'rlarni o'qib, ularning ma'nosini idrok qilishga intilgani, she'riyatga muhabbati tufayli zamonning fozil-u shoirlari bilan yaqin muloqotda bo'lganligini so'zlaydi. Ana shu muloqotlar jarayonida she'r yozish qonun-qoidalari, vazn masalalari to'g'risidagi bilimlari chuqurlashganligi va asta-sekin she'rlar yoza boshlaganligini aytadi. Yozgan she'rlarini shoirlar e'tiboriga havola qiladi. Ularning maslahatlari bilan she'rlarini tahrir qiladi, she'riy mahorati yuksala boradi. Uning she'riyatga mashg'ulligi Muhammad Rahimxon Feruz qulog'iga yetadi. Feruz uni huzuriga chaqirib, uning g'azallari haqidagi mulohazalarini bildiradi. Bu haqda shoir debochada shunday yozadi: "Ko'rsam, maning g'azallarimni mushohada qilib o'lturgon erkonlar. Manga nazarlari tushub iltifot yuzasidin kulib dedilarkim, yaxshi shoir bo'lgudek zehning bor erkon. O'tur deb mehribonlik qildilar. Ul vaqtda mashhur shoirlardin bir shoir bor erdi. Oni chaqir deb mahramlaridin biriga buyurdilar. Ul borib, oni kelturdi. Ul g'azallarni onga berib, dedilarkim: To'rang she'r mashq etib yurgan erkon. Bu g'azallar muning she'rlaridandur. Imtihon etib ko'rgilkim, ne tariqa erkon. Ul ba'zisin o'qub va ma'nisin imtihon etib dedikim: andak isloh bila har nechuk shoirlarning she'ridek bo'lgusidur. Ne uchunkim avvalgi mashq etkonlaridur. Andak islohga muhtojdur. Ondin so'ng ul hazrat menga dedilarkim: emdi g'azal mashq qilg'oningdin so'ng menga kelturub ko'rsat va munga ham yuborib ko'rsatgil, o'tkarib bersun deb amr qildilar"[Komyob, №1257:4-5]. Yozgan she'rlari ustida qayta ishlash orqali uning badiiy mahorati yuksala bordi, mumtoz she'riyatning g'azaldan tashqari o'nlab janrlarida ijod qildi. Yillar davomida to'plangan she'rlarini devon tarzida tartibladi. Debochada devonning tuzilishi, janrlar tarkibi, nomlanishi xususida shoir ma'lumot beradi:

“Avvalgi o‘tgon shoirlarning devonlari tariqasida hamul baytlarni devon tartib qilib yozdim. Va bir necha baytkim, avvalgi g‘azal munojotdur, andin so‘ngrog‘i g‘azalni har qaysi besh baytdindur, tamomi bayti bir vazndadur, “alif” radifdin “yo” radifigacha “Hayrat ul-abror” o‘lchovindadir. Va hamul “Hayrat ul-abror” vaznidagi aytilg‘on baytlarni devonning avvalig‘a bo‘lak etib yozdim. Va otin “Tumor ul-oshiqin”ga mavsum qildim”[ Komyob, №1257:7].

Xorazm adabiy muhiti vakillaridan biri Munis Xorazmiyning devoni avvalida, g‘azallardan oldin ijtimoiy va axloqiy-ta’limiy ruhdagi she’rlari alohida bo‘lim tarzida joylashtirilgan. Komyob ham debochada Munis mirob uslubiga amal qilib, boshqa o‘lchovdagi she’rlarini devonning avvalida alohida bo‘lim qilib joylashtirganligi va maxsus nom bilan ataganligi xususida so‘zlaydi.

Shoir o‘n sakkiz yoshdan ijod qilishni boshlaganligi va devon tuzib, unga debocha yozgan paytda o‘ttiz uch yoshda ekanligi haqida xabar beradi. Bu hijriy 1310-yil zulhijja oyining yigirmasiga to‘g‘ri keladi[ Komyob, №1257:8].

Shoir debochada devondagi she’rlarning mavzu doirasi xususida ham fikr yuritadi: “Devonimning boshdin oyoqig‘acha tamomi baytulloh ta’oloning hamd-u sitoyishi bila muzayyandur. Agarchi zohirda ishq mijozi bila murassa’ bo‘lsa ham, botinida ishqiqi haqiqiy bila muvashshah tarji’dur. Shul jihatdin atayin “Anis ul-oshiqin”g‘a loyiq va munosib ko‘rib, shul ism bila mavsum qildim”[ Komyob, №1257:11]. Shunda so‘ng “Tazkirai qo‘ng‘irot”, “Tavorixi xavonin” nomli tarix kitoblari yozganlarini ma’lum qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Komyobning O‘zR FAShI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan devonlaridagi debochalar matnlari bir-biridan farqli. Xususan, mazkur 3730-raqamli qo‘lyozmdagi masnaviy o‘rnida 1257- raqamli qo‘lyozmada qit’a kelgan, avvalgi nusxadagi matndan keyingi nusxadagi matn kattaroq va hoshiyasiga badiiy saviyasi sustroq bo‘lgan she’riy debocha yozilgan. Umuman, debochadagi shoirning qanday oilada dunyoga kelganligi, she’riyatga muhabbati, ijod jarayoni, shoirning ijodiy takomilida adabiy muhitning o‘rni, adabiy merosi, shoir devoni va uning tarkibiy tuzilishi, janr va vazn xususiyatlari kabi bir qator masalalar xususida ma’lumotlar olish mumkin. Bu esa shoir tarjimayi holini

to'liqroq o'rganishga, adabiyot tarixida tutgan o'rnini belgilashga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Komyob. Devon. O'zR FAShI, qo'lyozma, inv. № 1257.
2. Komyob. Devon. O'zR FAShI, qo'lyozma, inv. № 3730.
3. Jo'rayev J. Komyob hayoti va ijodiy merosi manbalari tadqiqi.— Toshkent: Mumtoz so'z, 2019. — 138 b.
4. Komyob. Devon. Nashrga tayyorlovchi B.Abdullayeva. — Toshkent: 2009. — 46 b.
5. Jo'rayev J. Komyob hayoti va ijodiy merosi manbalari tadqiqi: Filol. fan.bo'yicha fals. dokt.(PhD) diss. avtoref.—Toshkent, 2012. —26b.
6. Jumaxo'ja N. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XVII-XIX asrlar o'zbek she'riyati asosida): Filol. fan. d-ri... diss. — Toshkent, 1999. — 292 b.
7. Ismoilova G. Feruz davri Xorazm adabiy muhiti: Filol. fan. nomz. diss. —Toshkent, 1995. — 139 b.

#### **SAIF ZAFAR BUXORIYNING “DURRUL MAJOLISI TURKIY” TOSHBOSMASINING MAVZULARI VA MANBALARI**

**Amonova Zilola Qodirovna,**  
*BuxDU professori, filologiya fanlari doktori*  
**Boqiyev Azizbek Abdullajon o'g'li,**  
*BuxDU mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek mumtoz adabiyotidagi qissayi anbiyo xarakteridagi asarlardan biri bo'lgan “Durrul majolisi turkiy” asaridagi kamtarlik bilan bog'liq hikoyatlar tahlilga tortilgan. Mazkur asar toshbosma bo'lib, bosma nashri amalga oshirilmagan. Ushbu kitob Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat qo'lyozmalar fondida 726-inventar raqam ostida saqlanadi. Bu noyob manba 240 sahifadan iborat. Asarda payg'ambarlar qissasiga alohida ahamiyat berilgan bo'lib, Qur'oni Karimda zikri kelgan 13 payg'ambar hamda ko'plab sahobalar va ayrim shayxlar haqidagi hikoyatlardan tashkil topgan. Alohida e'tiborli jihati shundaki, asarda har bir payg'ambar haqidagi qissa alohida sarlavha ostida berilgan bo'lsa-da, ma'lum masala bayoni uchun bir hikoyatda bir necha payg'ambar haqidagi ayrim kichik voqealar ham bayon etilgan. Shuningdek, asarda didaktik hikoyatlar ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** toshbosma, Saif Zafari Buxoriy, “Durrul majolisi turkiy”, qissayi anbiyo, an'ana, payg'ambar, Qur'oni Karim, kamtarlik, badiiy mahorat, tarjima

**Annotation:** The article analyzes the stories related to humility in the work "Durrul Majolisi Turkiy", one of the works of the story of the prophets in the Uzbek classical literature. This work is a lithograph and has not been published. This book is stored in the Bukhara regional manuscript fund named after Abu Ali Ibn Sino under the inventory number 726. This unique source consists of 240 pages. The work gives special importance to the stories of the prophets, and consists of stories about 13 prophets mentioned in the Holy Quran, as well as many companions and some sheikhs. A particularly noteworthy aspect is that although the story about each prophet is given under a separate title in the work, some small stories about several prophets are also described in one story to explain a specific issue. The work also contains didactic stories.

**Keywords:** lithography, Saif Zafari Bukhari, "Durrul Majolisi Turki", story of the prophets, tradition, prophet, Holy Quran, humility, artistic skill, translation

“Durrul majolisi turkiy” musulmon adabiyotida alohida yo’nalish sifatida shakllangan “Anbiyo qissalari” yoki “Qur’oniy qissalar” turkumidagi asar hisoblanadi. Ayni xarakterdagi asarlar dastlab arab, keyin fors adabiyotida ko’plab yaratilgan. “Durrul majolisi turkiy” ham asli forsiydan tarjima ekanligini inobatga olsak, bunday asarlar turkiy xalqlar uchun ham zaruriy ehtiyojga aylangan deyish mumkin. Qolaversa, ushbu tarjima asardan oldin ham turkiy tilda Nosiriddin Rabg’uziy tomonidan “Qissayi Rabg’uziy” asarining yaratilganligi qayd etish lozim. “Durrul majolisi turkiy” asari o’z strukturasi, muallif uslubi bilan shunday asarlardan ajralib turadi. Toshbosmada an’anaviy (hamd, na’t) boblaridan keyin birinchi “Hazrati Odam alayhissalomning jasadi muboraklarining yaratmog‘ini bayonidadur” sarlavhali bobda Odam (a.s) yaratilish bilan bog’liq voqealar bayon etilgan. Mazkur qissa asardagi boshqa qissalardan hajm jihatdan ancha salmoqli bo’lib, 11 sahifani tashkil etadi. Qissa dastlab, Alloh taolloning insonni yaratmoqchi bo’lganligi va bunda arsh, kursi, samo insonni o’zlaridan yaratishlarini so’rab iltijo qilishlari bilan boshlanadi. Muallif qissada har bir mulohazalarini Qur’oniy oyat bilan asoslaydi. Shu munosabat bilan qissada

ko'plab oyatlardan iqtibos keltirilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, "Moida", "Baqara", "Naml", "Mulk" suralaridan oyatlarni aynan keltirgan. Masalan, muallif insonni yaratilishida da'vogar bo'lgan har bir ashyoni alohida keltirib, ularning odamni yaratilishidagi fikrlarini asarda qayd etish bilan qanoatlanmaydi. Balki, ayni masala bilan bog'liq oyati karimalarni iqtibos qilib, mulohazalarini asoslashga harakat qiladi. Masalan, arsh odamni o'zidan yaratishini istab, Allohning o'zi haqida Qur'onda "Arshul azim" (Buyuk arsh) deya e'tirof etmaganligini "Naml"-surasining 26 – oyatining oxirgi qismini keltirsa, kursining da'vogarligi haqida fikr yuritib, "Baqara" surasining 255-oyatini keltiradi: "Vasia kursiyyuhus samavati val ard" (Uning kursisi osmonlar-u, yerni qamragan).

Ayni zamonda osmon ham insonni o'zidan yaratilishini istab Allohga iltijo qiladi. Bunda esa iqtibos sifatida "Mulk" surasi 5-oyatining dastlabki qismi keltiriladi: "Va laqod zayyannas samaad dunya va bimasobiha" (Va darhaqiqat, Biz dunyo osmonini chiroqlar (yulduzlar) bilan ziynatlab qo'ydik).

Shunda muallif Allohning tuproq (zamin) ning shikasta holda turganini, o'zining hech bir sifatini aytib maqtanmayotganligini qayd etadi. Va ayni holatning Haq taolaga xush kelgani va yaratmoqchi bo'lgan xalifasi – odamni undan yaratishiga qaror qilganligiga urg'u beradi.

Ayni o'rinda ta'kidlash lozimki, Saif Zafar Buxoriy asarda yetti payg'ambar nomi bilan bog'liq qissani asarda mustaqil sarlavhali qissa sifatida keltirgan bo'lsa-da, shu payg'ambarlar haqidagi qissalarda boshqa payg'ambarlar bilan bog'liq kichik hikoyatlarni ham kiritgan. Jumladan, Ismoil (a.s), Ayyub (a.s), Yunus (a.s), Lut (a.s), Yaqub (a.s), Yusuf (a.s) lar bilan bog'liq hikoyatlar mavjud. Demak, asarda Qur'oni Karimda nomlari zikr etilgan 13 payg'ambar nomi keltirilgan. Odam (a.s) qissasida ham Sulaymon, Ismoil, Yusuf, Yunus (a.s)lar bilan bog'liq hikoyatlar keltirilgan. Muallif ushbu kichik hikoyatlardan mahorat bilan qissa tarkibida foydalanadiki, bu adabiyotdagi qoliplash, ya'ni hikoya ichida hikoya usulini esga soladi. Asarda Sulaymon (a.s) bilan bog'liq beshinchi bobda maxsus qissa keltirilgan, ammo Odam (a.s) qissasida insonning yaratilishida tuproqning kamtarligi bois Alloh o'z xalifasini undan yaratganligi bilan bog'liq o'rinda



kamtarlik yuksak fazilat ekanligini, Haq taolo nazdida ham kamtarlik yuksak qadrlanishini dalillash maqsadida “Sulaymon va uning uzugi” hikoyatini keltirgan: “Endi bul ham bir misoldurki va anga o'xshash so'zdurki, vaqtiki, Hazrat Sulaymon alayhissalomning qo'llarig'a xosiyatlik uzuk solmoqg'a ixtiyor qildi. Sulaymon alayhissalom qo'llarini panjalari bir- birlarig'a so'zlar qilib aytishdilarki, ibhomki bosh barmoqdur aydi: “Man hammadin kattamen, albatta, uzukni manga taqar”, derdi va yoni sabbobaki ani shahodat derlar bosh barmoqni yonidag'i aydi: “Man sizlardin sharofatlikroqdurman uzukni manga solarlar”, dedi. Vustoki o'rta panjadur ul aydi: “Men sizlarni o'rtalaringizda kattaroqdurman uzukni manga solurlar”, dedi. Kichkina panja hech so'z demadi. Bas farmon bo'ldiki: “Yo Sulaymon, uzukni kichik panjangg'a solg'il, negaki o'zini zaifroq va kichikroq bildi”. Andin so'ng, Sulaymon alayhissalom kichik panjalarig'a aydilarki: “Ey kichik panja, nechun sandin katta panjar uzukni solmoqni orzu qildilar sen na uchun dam urmading?” Kichik panja aydi: “Ey payg'ambari xudo, alar o'zlarini kattalig'ig'a havo qildilar man bechora alarni oldilarida zaif va notavonman manga na uchun solursizki?!” dedi. Va bu shikastalig'i Alloh taologa xush kelib uzukni kichik panjalarig'a soldurdi”.

Parchada qayd etilganidek, kibrga berilmaslik, o'zni kamtar tutish Alloh nazdida ham yuksak maqom egasi bo'lmoq uchun asos hisoblanadi. Shuning uchun payg'ambar (a.s) bilan bog'liq hikoyatni keltirish lozim deb topilgan. Muallif ayni masalaga ancha keng yondashadi, ya'ni yuqoridagi payg'ambar bilan bog'liq hikoyatdan so'ng, vali zotlarga tegishli hikoyatni ham keltirishni maqbul deb biladi: “Va yana bir so'zdurki, Sulton Boyazid Bistomiy quddasallohu sirrohu Haq subhanahu va taolog'a munojot qilib aydilarki: “Ey bor Xudoyo Xudovando, sani dargohingga qaysi nimarsa loyiqdurki, amr qilsang men ani qilsam bajo va dil deb”. Bas Alloh taolodin farmon bo'ldiki: “Uch nimarsa meni haridimda yo'qdur, agar sanda bo'lsa kelturgin toki man xaridor bo'lay”. Sulton Boyazid Bistomiy so'radilarki: “Xudoyo Xudovando, u uch narsa nimarsa nimadur?”. Bas, Alloh taolodin nido keldiki: “Ul uch nimarsani biri dil shikastalikdur, ikkinchisi

shuldurki tilidin har taqsirot o'tsa tavba qilmoqlikdur, uchinchisi shuldurki o'zini zaif va bechorahol bilmoqdur”.

Demak, qissada odam yaratishi lozim bo'lgan unsur tuproq ekanligi ta'kidlangan. Ammo ijodkor Haq taolo o'ziga xalifa qilmoqchi bo'lgan odamni yaratish uchun tuproqni shunchaki tanlanmaganligiga urg'u beradi. Ya'ni xoksorlik, kamtarlik fazilatlarini zaminni shunday ulug' maqomga ko'targanligini asoslash maqsadida asosiy qissa orasiga Sulaymon (a.s) va Boyazid Bistomiy hikoyatlarini kiritgan. Muallifning bundan maqsadi asarda didaktik ruhni kuchaytirish, ya'ni insonlarga o'z asli kabi kamtar, kamsuqum bo'lishiga undash ekanligi anglashiladi.

Odam (a.s) qissasida Zafar Buxoriy insonning Haq amriga buysunuvchi, Allohning amrlarini so'zsiz bajo keltiruvchi xalifa o'laroq, farishtalardan ustunligiga urg'u bergan. Ayni fikrlarini dalillash maqsadida Ibrohim va Ismoil (a.s) bilan bog'liq kichik hajmli hikoyatni keltiradi: Vaqtiki, Hazrat Ibrohim alayhissalomg'a farmon bo'ldiki: “Yo Ibrohim, o'g'lingni meni rizolig'im uchun yo'ling'a qurbonliq qilg'il”. O'shal on amru xudog'a taxir bo'lmasun deb qo'llarig'a pichoq oldilar va o'g'illarini qurbonliq joyig'a olib bordilar: “Ey o'g'lum, Xudodin amr bo'ldiki: “O'g'lingni meni rizolig'im uchun qurbonliq qilg'il”, - deb. Toki sani Xudo yo'lig'a qurbonliq qilurman”, dedilar. Ul vaqtda Hazrat Ismoil Ibrohim alayhissalomg'a aydilar: “Ey Padari Buzrukvor, amr Xudog'a taxir bo'lmasunki bir jondur necha jon bo'lsa va agar yetmish ming jon bo'lsa ham Xudoni rizolig'i uchun berdim”, - dedilar. Ul hoida Ibrohim alayhissalom Ismoil alayhissalomni bog'zilarig'a pichoq surdilar”. Mazkur hikoyani farishtalarning inson farzandlari senga buysunmaydi, yer yuzida qon to'kadi, shunday ekan ularni o'zingga nega xalifa sifatida yaratasan?, tarzidagi fikrlariga javoban keltiradi. Yana shuningdek, insonning Alloh amrlarini mahkam tutuvchi, qolaversa, o'z Rabbisidan qo'rqib gunohdan tiyilishi kabi mulohazalarni asoslash uchun yana bir kichik hikoyat, ya'ni Yusuf va Zulayho voqealarini keltiradi. Bu o'rinda ham muallif “Yusuf” surasining 23-24-oyatlari mazmuniga ishora qiladi: “Yana bir voqeadurki, ul vaqtiki Zulayho Hazrat Yusuf alayhissalomning o'z joyig'a olib kirdi va uyini yetti

eshiklarini mahkam qildi va andin so'ng Yusuf uy bo'lsa bor xilvat joyi ham bor husn va jamol ham bor. Emdi seni hargiz qo'ymasmen to mening murodimni hosil qilmasang, deb Yusuf alayhissalomg'a yopishdi, anda Yusuf alayhissalom aydilar: “Ey Zulayho, bul so'zni demagilki, Xudoyi taolo hozir va nozirdir. Xudo biladurki, men sen bilan hargiz zino qilmoqchi emasmen”, dedilar”.

Zafar Buxoriy badiiy asar talabidan kelib chiqib, nafs qutqusi va undan omon qolish masalasiga urg'u berib, asarda juda ta'sirchan badiiy ifodalarni ham keltirgan. Bu go'zal ifodalarni muallifning novatorligi sifatida baholash mumkin: “Anda Zulayho aydi: “Ey Yusuf, seni ishqingni shakari mani mahkam tutibdur, ko'p betoqat va beoromdurman. Man endi nechuk sabr qilurman”, dedi. Anda Yusuf alayhissalom aydilar: “Ey Zulayho, menga nimani ko'rding, buncha besabr, beorom bo'ling?”. Zulayho aydi: “Ey Yusuf, nechuk sabr va toqat qilurmanki, boshindag'i zulf va kokillaringni ko'rib va muftalo bo'ldum”, dedi. Anda Yusuf alayhissalom aydilar: “Ey Zulayho, soch va kokillardan nima foyda bor, avval go'rga qo'yg'onda to'kiladurg'on bir natni mo'ylaridur”, dedilar. Anda yana Zulayho aydi: “Seni ikki nargiz shahlo ko'zlaringg'a muftalo bo'ldum”. Va yana Yusuf alayhissalom aydilar: “Ey Zulayho, go'rg'a qo'yulg'onda ikki ko'zim ham badandin oqib tushib ketar”, dedilar. Anda Zulayho aydi: “Men seni shirin so'zlaringni do'st tutar men”, dedi. Va yana Yusuf alayhissalom aydilar: “Ey Zulayho, odamiki o'ldi, tiliga muhr bosilur, so'zlayonmaydur”, dedilar. Va yana Zulayho aydi: “Ey Yusuf, men seni boshingdin oyog'ingg'acha do'st tutar men”, dedi. Yusuf alayhissalom aydilar: “Ey Zulayho, go'rda odamni hamma bandi bo'g'implari biri- biridan ayrilib, judo bo'lur”, deb ko'p nasihatlar qildilar. Zulayhoni ko'nglig'a hech ta'sir qilmadi.

Asardan ma'lum bo'ladiki, Yusuf payg'ambar Haq taolo qahridan qo'rqib, rahmatidan umidvor bo'lib, uning rizoligi uchun zino qilmaydi. Muallif odam farzandlari ana shunday Allohni zohiriy ko'zlari bilan ko'rmasalar-da, xuddi ko'rib turgandek, nafslarini tiyadilar va unga ibodat qiladilar, deb farishtalardan ularning ustun ekanligi masalasiga alohida urg'u beradi. Shuning uchun ayni masala bilan bog'liq Yunus payg'ambar haqidagi qur'oniy hikoyat ham keltiriadi. Asarda bu hikoyatdagi voqealar orqali “Saffot” surasining 142-143-oyatlariga ishora qilingan:

“Va yana bu so'zni eshitingkim, Xudoni irodasi birla Yunus alayhissalomni baliq qornig'a yutdi, boz Xudoyi taolo Yunus alayhissalomg'a uch qorong'uluqni ato qildi. Birisi balig'ning ichini qorong'ulig'i, ikkinchi daryoni qorong'ulig'i, uchunchi kechani qorong'ulig'i, vaqtiki Yunus alayhissalom balig'ni qornig'a kirdilar o'shal on namozg'a qo'l bog'ladilar va tillarini Xudoni zikrig'a va tasbehig'a ochdilar”.

Zafar Buxoriy ana shu asoslarni keltirib, Alloh taoloning insonni farishtalardan ustun qilib yaratganligini ta'kidlaydi. Zero, mazkur qissa Odam (a.s)ga bag'ishlangan bo'lsa-da, boshqa nabilar va hatto, valiullohlar bilan bog'liq kichik hikoyatlarni ham qissa orasida keltiradi. Shu asosdan so'ng, farishtalarga Odam (a.s)ga sajda qilishni buyurgani, ammo shayton sajda qilmaganligi, shu bois unga la'nat tamg'asi bosilganligini qayd etadi.

Saif Zafar Buxoriyning “Durrul majolis” asari payg'ambarlar tarixiga bag'ishlangan. Ushbu asarlarda Qur'oni Karimda nomlari zikr etilgan payg'ambarlar hayotiga oid voqealar badiiy talqin etilgan. Payg'ambarlar tarixiga oid asarlar yaratish arab bo'lmagan xalqlarda arab tilida nozil qilingan Qur'oni Karim kitobini o'rganish va uning mohiyatini to'liq anglashga katta yordam bergan. Shuning uchun ayni xarakterdagi asarlar yozilgan. Aytish mumkinki, mazkur asar ham ayni ehtiyoj talabidan kelib chiqib yaratilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Amonova Z., Boqiyev A. Saif Zafari Buxoriyning “Durrul majolis” asarida shayxlar talqini // Tamaddun nuri, 2024, 10 (61).
2. Amonova Z., Boqiyev A. Saif Zafari Buxoriyning “Durrul majolis” asarida Odam (a.s) talqini // Oltin bitiklar, 2024, 2-son.
3. Boqiyev A. SAIF ZAFARI BUXORIYNING “DURRUL MAJOLISI TURKI” TOSHBOSMASINING ARXEOGRAFIYASI // BuxDU Ilmiy axborotnomasi, 2023,11-son.
4. در المجالس سيف ظفر البخاري طشقند 1329 هجري

### **MAXMUR HAYOTI VA IJODI MANBALARI**

**Hamroyeva Orzigul Jalolovna,**

*ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori*  
[arguvon87@mail.ru](mailto:arguvon87@mail.ru)

**Annotatsiya:** XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida yashab ijod etgan qo‘qonlik shoirlardan biri – Maxmur Qo‘qon adabiy muhiti ta’sirida shakllangan

ijodkorlardan biridir. Shoir ijodiy merosi, shoir she'riyatining mavzu ko'lami, obrazlar tizimi Maxmurning satirik shoir sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Maqola Maxmur hayoti va ijodi manbalari borasida to'xtalinadi.

**Kalit so'zlar:** qo'lyozma, toshbosma, devon, g'azal, hajviya, tazkira.

**Annotation:** One of the Kokand poets who lived and created in the late 18th and early 19th centuries, Maxmur, is among the writers shaped under the influence of the Kokand literary environment. The poet's creative legacy, the thematic scope of his poetry, and his system of imagery indicate that Maxmur was formed as a satirical poet. The article discusses the sources of Maxmur's life and work.

**Keywords:** manuscript, lithograph, divan (collection of poems), ghazal, satire (hajviya), tazkira (biographical anthology).

Qo'qon adabiy muhiti vakili Maxmur XVIII asr oxiri XIX asr boshlari adabiy muhitida o'z o'rniga ega shoir sifatida ma'lum. Maxmur hayoti va ijodi bo'yicha ma'lumot beruvchi bir qancha manbalar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

### **1. Maxmur "Devon"i**

### **2. Tazkiralar:**


- *Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron"*
- *Po'lotjon Qayumiyning "Tazkirayi Qayumiy"*

### **3. Maxmur haqidagi tadqiqotlar:**


#### **1. Maxmur "Devon"i.**

XVIII asr oxiri XIX asr boshlaridagi adabiy muhit, Maxmur hayoti va ijodi xususida to'g'ri va ishonchli ma'lumotlarni bera oladigan muhim manbalardan biri Maxmurning "Devon"idir. "Devon" adabiyotshunos olim, akademik Aziz Po'latovich Qayumov tomonidan topilib, ilmga ma'lum qilingan bo'lib, "Devon" tarkibidagi she'rlar shoirning Qo'qon adabiy muhiti, amaldorlarning xalqqa munosabati, xalqning amaldorlarga munosabati, saroy shoirlarining shoirlik maqomoti, Fazliy va Maxmur munosabati, ijtimoiy-iqtisodiy hayot haqida yetarlicha tasavvur bera oladi.





“Devon” qo‘lyozmasining dastlabki sahifasi



## 2. Tazkiralar:

- Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron”
- Po‘lotjon Qayumiyning “Tazkirayi Qayumiy”

**Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron”.** Maxmur hayoti va ijodiyoti borasida ikki yirik tazkirada: Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron”, Po‘lotjon Qayumiyning “Tazkirayi Qayumiy” ma’lumotlar keltiriladi. Fazliy

“Majmuat-ush-shuaro”da Maxmurning Umarxon saroyida yashagan mashhur olim va shoir Akmalning o‘g‘li ekanligi haqidagi ma’lumotlarni keltiradi, xolos. Biroq tazkirada keltirilgan she’rlarda Fazliyning Maxmurga bo‘lgan munosabati yaqqol aks etgan.



Maxmur va Fazliyning ziddiyatli munosabatlari Fazliyning “Majmuai shoiron” tazkirasi va Maxmur “Devon”i tarkibidagi she’rlarda aks etgan. Bu borada akademik Aziz Qayumov batafsil to‘xtalganlar. Aziz Qayumov ikki shoir munosabatini feodal – saroy klerikal adabiyotning vakillari bilan progressiv yo‘nalishdagi vakillar o‘rtasidagi munosabat sifatida baholaydi. Fazliyning Maxmurga nisbatan g‘arazli munosabati hukmron feodal guruhlarining Maxmurga bo‘lgan munosabatini bildiradi. Fazliy Maxmurni “yaxshilardan” past turuvchi shoir deb xarakterlaydi. Maxmurga nisbatan bo‘lgan bu haqoratli munosabat Fazliyning boshqa izohlarida ham aniq sezilib turadi. “Majmuat-ush-shuaro”da Fazliy Maxmurning “Tarog‘” radifli she’rini keltirar ekan, izohda she’r va Maxmurga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi:

*Xayoloti Maxmur be marhabost*

*Qijogo ‘y g‘aybat qalb oshnosot.*



*Nayoyad zi af'oli o' g'ayri bad,  
Buvad harchi qavli nomo' tamad.*

*Shikoyag kunad az hamin bis'yor  
Zi Maxmuriy nash'ai ko'knor.*

*Buvad she'ri on ko'sa az log'ari  
Zi oroyishi reshi sablat bari.*

*Ba zulfi suxan shona zad onchunin  
Buvad she'ri xo'bi malihash hamin.*

***Tarjimasi:***

*Maxmurning xayoloti marhamatli emas,  
Uning hajvgo'yligi g'iybat va qalloblikka yaqin,  
Harakatida yomonlikdan boshqa narsa kelmaydi.  
Barcha so'ziga ishonish mumkin emas.  
Ko'knor nash'asiga humor bo'lgani uchun,  
Bu mo'ljilikdan shikoyat qiladi.  
Bu ko'saning she'ri oriqliq,  
Hamisha soqol-mo'ydozga oro berish to'g'risida bo'ladi.  
So'z zulfiga shu ravishda tarog' chekdi  
Uning chiroyli yaxshi she'ri bundaydir.*

Bunday haqoratli izoh ketidan Maxmurning **“Tarog’”** radifli she'ri keltiriladi. Akademik Aziz Qayumov bu holatni tasodif y hol emasligini ta'kidlaydi. Fazliyning o'z to'plamiga, badiiy jihatdan bo'sh va Maxmur ijodi uchun xarakterli bo'lmagan bu she'rni kiritishdan maqsad shoir ijodini kamsitish bo'lgan. Ammo Maxmur ham bu haqoratlarga munosib javob berib kelgan. Fazliy nomiga yozilgan hajviy she'rlarida Maxmur hokim tabaqaning laganbardori – shoir Fazliyni ham o'ziga xos hajv qiladi:

*Ey siyah devroh isqotiy,  
Duzdi naqdi gunoh isqotiy.*

*Dar jahannam miyonai juhalo,  
Sadri olijanob, isqotiy.*

***Tarjimasi:***

*Ey, qora dev yo'ldan yuruchi isqotiy  
Naqd gunohning o'g'risi, isqotiy.  
Jahannamda johillar orasida,  
Bosh o'rinii olar isqotiy.*

*Isqotiy* deb o'lgan kishilarning gunohlarini marhumning mollaridan bir hissasi baravariga o'z bo'yniga oluvchi kishini ataganlar. Maxmur Fazliyni ana shunday kishi sifatida ta'riflaydi.

Maxmur **“Amakim”** radifli she'rida Fazliyning To'raqo'rg'on va Namanganda isqotiylik kasbi bilan nom chiqarganini eslatib o'tadi va uning o'lik chiqadigan joyni axtarib yurganini zaharxanda bilan hikoya qiladi:



*To'raqo'rg'on bilan Namanganda  
Xush edi mansabi ravon amakim.  
Kecha-kunlar so'rab yurar erdi,  
Murdalar jam'idan nishon amakim.  
Bo'ldi zarb-ul masal bu boisdan  
Piyri isqotiyi zamon amakim.*

Maxmurning Fazliy nomiga yozilgan **“O'lg'ay”** radifli g'azalida Maxmur bunday muttaham, noinsof, tuban va laganbardor shaxslarga o'zining nafratini yo'llaydi:

*Tavqi la'natni gardaniga osib  
Bobi zallatga nomdor o'lg'ay,  
Ikki olamda bul mazallatdin,  
Qobili qahri kirdikor o'lg'ay.*

Umuman olganda, Fazliy Namangoniyniing “Majmuai shoiron” asarida Maxmurga bo'lgan iliq munosabatidan ko'ra saroy va oddiy xalq shoirlarini bir-biridan farqlash munosabati ko'proq eks etgan.

**Po‘lotjon Qayumiyning “Tazkirayi Qayumiy” tazkirasi.** Maxmur haqida Po‘lotjon Qayumiyning “Tazkirayi Qayumiy” asarida ham ma’lumotlar uchraydi. 3 daftardan iborat “Tazkirayi Qayumiy” asari 2- va 3-daftarlarida 2 ta Maxmur shoir haqida ma’lumotlar uchraydi. Maxmur I nomi ostida keltirilgan shoirning tarjimai holi va va asarlarlari uning qo‘qonlik Maxmur ekanligini ko‘rsatadi. Po‘lotjon Qayumiy Maxmur haqida ma’lumot keltirar ekan, Maxmurni Xo‘qandlik shoir sifatida Sarmozor dahasida Shohliqmozor mahallasida tug‘ilganini ta’kidlaydi. Asli ismi Mahmud bo‘lib, Domulla Sher A’lamning o‘g‘li ekanligini keltiradi. Mudarris olimning o‘g‘li bo‘lgani bois mahdum sifatida elga tanilgani va keyinchalik **Mahmud mahdum – Maxmur mahdum** nomi bilan mashhur bo‘lganligini ma’lum qiladi. Po‘lotjon Qayumiy tazkirada Maxmurning tashqi ko‘rinishi borasida Maxmur yashagan davrdan yashagan kishilardan eshitilgan ma’lumotlarni keltiradi: *“Qoramtil, qotma, novcha ham ko‘zlari qora, chuqur yuzli, uzunroq burunli, siyrak soqolli, qisman ko‘saroq kishi ekan emish (Sarig‘ Mahdum laqabli imom Mulla Abdurahmon mirzo Xayrulloq so‘zlagan ekan)”*.



Tazkirada Maxmurning otasi va onasi haqida batafsil ma’lumot keltiriladi. Otasining fozil kishi ekanligi, onasi Beshariq bilan Tomosho qishloqning orasidagi Hafalak deb ataluvchi qishloqdan ekanligini ta’kidlaydi. Po‘lotjon Qayumiy


Maxmurning faqir shoir deb ta'riflaydi. Vafoti xususida to'xtalganda, vafotining aniq sanasi mavjud emasligini aytadi. Tazkirada Maxmur she'rlaridan parchalar keltirilar ekan, Po'lotjon Qayumiy namunalarni Fazliy tazkirasidan olingan ***“Chu Maxmur boshad suxandoni nek, Buvad arzandi Akmal valek”*** misralari bilan boshlaydi.

Tazkira muallifi shoirning ***“Aylading”*** radifli muxammasi ***Xafalak*** ta'rifiga bag'ishlangan g'azali, Maxmurning Abulqosim otaliqga yordam so'rab murojaati - hasbi hol tarzidagi ***“Vazir”*** radifli muxammasi, Umarxonga arz tarzida yozgan masnaviysini keltiradi.

**3. Maxmur haqidagi tadqiqotlar.** O'zbek adabiyotining zabardast olimi, akademik Aziz Po'latovich Qayumov Maxmur hayoti va ijodining ilmga to'g'ri talqin va taqdim qilinishida munosib hissa qo'shganlar. Aziz Qayumov tadqiqotiga qadar adabiyotshunoslarga Maxmurning faqat ***“Hapalak”*** she'ri ma'lum edi, xolos. Dehqonlarning o'sha davrdagi og'ir hayotini haqqoniy aks etdirgan shoirning o'z davrining ilg'or fikrli kishisi ekanligini ifodalagan ***“Hapalak”*** she'ri kitobxonning diqqatga sazovor bo'ldi va ko'p to'plam va xrestomatiyalarda nashr etildi. Bu she'r birinchi marta ***“Guliston”*** jurnalida bosilib chiqdi. Shundan keyin Maxmur ijodi o'zbek maktablarining adabiyot darsliklariga kiritildi va oliy o'quv yurtlari uchun tayyorlangan ***“O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”***da, ***“O'zbek poeziyasining antologiyasi”***da ham bosilib chiqdi. Bu tadqiqotlar Aziz Qayumovning Maxmur hayoti va ijodi borasida jiddiy izlanishlar olib borshiga zamin yaratdi.

Aziz Qayumov Po'latjon Qayumov va xalq shoiri Asqarali Hamroaliev (Charxiy)larning yordami bilan 1950-yilda Qo'qon shahrida shoir Maxmurning devoni topadilar. Yangi topilgan bu qo'lyozma devon Maxmurning hajviy yumoristik she'rlari, tarix va qasidalaridan iboratdir.

1951-yilda ***“O'zbek adabiyoti klassiklari kutubxonasi”*** turkumidan ***Maxmur “Tanlangan asarlari”*** Aziz Qayumov so'zboshisi bilan nashr qilindi. Ushbu mo'jazgina to'plamga shoirning 10 ta she'ri kiritilgan.



1. *Hapalak*
2. *Muxammas*
3. *Abdulkarim Fazliy Namangoniy to'g'risida*
4. *Qozi Muhammad Rajab to'g'risida hajv*
5. *Qozi Muhammad Rajab Avj tilidan aytilgan g'azal*
6. *Hoji Niyoz tuo'g'risida hajv*
7. *Hoji Niyoz tilidan aytilgan g'azal*
8. *Itboqar qozi tilidan*
9. *Dar sifati hakim Turobiy hazor xalta*
10. *Dar sifati hakim Turobiy hazor xalta budur*

Maxmur “Devon”i qo‘lyozmasining topilishi shoir haqidagi ma’lumotlarning yangilanishi, kengaytirilishi bilan bog‘liq yangi tadqiqotlarga yo‘l ochdi. Akademik Aziz Qayumov Maxmur hayoti va ijodiy merosi borasida nomzodlik dissertatsiyani himoya qildilar. Mana shu dissertatsiya 1956-yilda “O‘zbek adabiyoti tarixidan materiallar” rukni ostida **monografiya** sifatida nashr qilindi. Olim ushbu tadqiqot ishida shoir shaxsiyati va ijodiga oid ma’lumotlarni taqdim etish barobarida Maxmurning 35 she’ri matnini ham ilova qiladi:

1. *Munojot ba dargohi Qozi-ad hojot*
2. *Dar sifati qishlog‘i Hapalak ki bamahdum Maxmur taalluq yofta*
3. *Ta’rifi viloyati Qurama va az davoni Kandir guzashtan*



4. *Arzi qishlog'i Hapalak ba janobi Said Umar Sulton*
5. *Dar sifati Qosim beklarbegi*
6. *Talab kardani Maxmur az Amir Umarxon po'stin*
7. *Arz kardani Maxmur ba janobi Amir Umar Sulton*
8. *Dar hajvi xo'ja Mir Asad*
9. *Dar hajvi dumullo Atoi Ashtiy*
10. *Avsofi Qozi Muhammad Rajab Avj*
11. *G'azali Qozi Muhammad Rajab Avj dar borai xud*
12. *Avzofi Hoji Niyoz*
13. *G'azali Hoji Niyoz*
14. *Avsofi lovubol O'ratepagiy*
15. *G'azali lovubol dar borai xud*
16. *Dar sifati Hakim Turobiy hazor xilta*
17. *Dar sifati Hakim Turobiy hazor xilta budar*
18. *Dar sifati mullo Ya'qub Xo'jandiy*
19. *G'azal guftani mullo Ya'qub dar sifati xud*
20. *Avsofi mullo Ya'qub Xo'jandiy*
21. *G'azali mullo Ya'qub*
22. *Dar sifati qoziyi Xo'ja Sagbon*
23. *G'azali qoziyi Xo'ja Sagbon*
24. *Avsofi qozi Muhammad Zuhur Zargar*
25. *Dar hajvi mavlono Fazliy saromadi she'r musammo Abdulkarim*

#### *Namangoniy*

26. *Dar madhi domullo G'oyib quyuq Munshiy*
27. *Avsofi Karimqul mehtar*
28. *Avsofi egari mehtar nuhusot panoh*
29. *Takabbur*
30. *Dar hajvi Mahmud Qurama*
31. *Dar sifati Niyozcha Og'aliq*



32. *In hajv chor dar chor dar sifati Navro'z mehtar(boshi) komkor gufta shuda*

33. *Dar madhi Muhammad Sharif otaliq*

34. *Dar sifati Amir Olimxon, tarixi o'*

35. *Ta'rixi duyumi Amir Olimxon*

Keyinchalik Aziz Qayumov Maxmur she'rlarini qayta tadqiq etgan holda nashr qilidilar. Olimning bu tadqiqoti "O'zbek klassiklari kutubxonasi" rukni ostida "She'rlar" nomi bilan 1959-yilda nashr etildi.



Ushbu to'plamda Maxmurning 21 she'ri keltirilgan bo'lib, aksariyat she'rlari o'zidan oldingi nashrlarga tayanib, e'lon qilingan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Maxmur ijodiy merosi u qadar keng ko'lamli emas. Eng muhimi, shoir hayoti va ijodiy merosi xususida to'g'ri daliliy ma'lumotni bera oladigan "Devon" qo'lyozma nusxasi mavjudki, "Devon"dagi lirik meros shoir ijodiy merosining aksariyati hajviy yo'nalishdagi she'rlar ekanligi, bu lirik asarlarda jamiyatning ijtimoiy kamchiliklari hajv qilinganini kuzatish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maxmur. Devon. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi Qo'lyozmalar fondi. № 709 inventar raqamli qo'lyozma.
2. Abdulkarim Fazliy Namangoniy. Majmuai shoiron. Fan: – Toshkent. 2018.

3. Aziz Qayumov. Maxmur. O'zbek adabiyoti tarixidan materiallar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti: – Toshkent, 1956.
4. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1964, 384 bet.
5. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent, O'zbekiston, 1993 y, 192-bet.
6. Maxmur. She'rlar. O'zbek klassiklari kutubxonasi. O'zbekiston davlat badiiy adabiyoti nashriyoti: – Toshkent, 1959.
7. Maxmur. Tanlangan asarlar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti: – Toshkent, 1951.
8. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – Toshkent. O'qituvchi, 1965, 748-b.
9. Po'lotjon Qayumov. Tazkirayi Qayumiy. 3 daftar. – Toshkent, 1998.

## ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AMIR TEMUR SIYMOSI

***Olimjon Davlatov,***  
*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar*  
*instituti direktori, professor*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida Amir Temur siymosining badiiy, tarixiy va ijtimoiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Nasoyim ul-muhabbat” kabi asarlari misolida Sohibqiron obrazining davlatchilik g‘oyasi, adolat tamoyili, ma’rifatparvarlik va ma’naviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, Navoiy ijodida Amir Temur turkiy davlatchilikni mustahkamlagan, turkiy til va madaniyat taraqqiyoti uchun mustahkam asos yaratgan tarixiy shaxs sifatida talqin etilgani ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari Navoiy merosida Amir Temur siymosi nafaqat buyuk tarixiy hukmdor, balki davlatchilik an‘analari, ma’naviy kamolot va adolatli boshqaruv idealini ifoda etuvchi timsol sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, Amir Temur, temuriylar davri, davlatchilik g‘oyasi, turkiy til va madaniyat, ma’naviy meros, tarixiy obraz, ma’rifatparvarlik.

**Annotation:** This article analyzes the artistic, historical, and socio-philosophical interpretation of the image of Amir Temur in the works of Alisher Navoi. Based on Navoi’s works such as *Hayrat ul-abror*, *Farhad and Shirin*, *Muhokamat ul-lughatayn*, and *Nasayim ul-muhabbat*, the study reveals the aspects of the Sahibqiran’s image associated with the ideas of statehood, the principle of

justice, enlightenment, and spiritual values. The article also substantiates that in Navoi's writings Amir Temur is portrayed as a historical figure who strengthened Turkic statehood and created a solid foundation for the development of the Turkic language and culture. The research results demonstrate that in Navoi's intellectual legacy the image of Amir Temur appears not only as that of a great historical ruler, but also as a symbol of statehood traditions, spiritual perfection, and the ideal of just governance.

**Keywords:** Alisher Navoi, Amir Temur, Timurid era, idea of statehood, Turkic language and culture, spiritual heritage, historical image, enlightenment.

Adolat asosida qurilgan davlatning ma'naviyat sohasida o'tkazgan islohotlari iqtisodiy hayotning boshqa sohalaridan ko'ra kechroq samara beradi. Chunki odamlar tafakkuridagi o'zgarish va yangilanish tarixi vaqt va ko'nikma talab qilishi bor gap. Shu ma'noda, Sohibqiron Amir Temur davridagi ijtimoiy-madaniy yangilanish jarayoni Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy zamonlariga kelibgina o'z samarasini ochiq-ravshan ko'rsatdi, deb ta'kidlashimiz mumkin. Bu davr haqli ravishda Sharqda ikkinchi Renessans deb tan olinadi. Mirzo Bobur qayd etganidek: "Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hirot shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg'ulluqi bor edi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolg'a tegurgay".

Xuroson o'lkasi, xususan, Hirot shahrining fozil kishilar shahriga aylanishi, ayniqsa, Mir Alisher Navoiydek so'z mulkining sultoni, "kamol olami ahlining akmali" (Ahliy Sheroziy Navoiyga nisbatan qo'llagan ta'rif) bo'lishining ijtimoiy-ma'naviy asoslari buyuk Sohibqiron Amir Temur zamonida qo'yilgan edi. Buni hazrat Navoiy teran anglab, turli asarlarida o'zining samimiy munosabatini bayon etgan. Amir Temur ismi Navoiyning beshta asarida sakkiz joyda ehtirom bilan tilga olinadi. "Hayrat ul-abror"da "To'rt ulus xoni Temur Ko'ragon" (38-bob), "jahon xoni Temur Ko'ragon" (48-bob), "Farhod va Shirin" dostonida "Temurxon" (53-bob), "Muhokamat ul-lug'atayn"da "Sultoni sohibqiron Temur

Ko‘ragon” (534-bet), “Munshaot” (56-maktub) hamda “Nasoyim ul-muhabbat”da turk avliyolaridan Xoja Boyazid va Bobo Sungu zikridagi boblarda “Temurbek” nomlari bilan eslangan. Ko‘rib turganimizdek, biror joyda biz o‘rganib qolgan “amir” unvoni Sohibqironga nisbatan berilmagan. Ehtimol, bunga temuriylar davlatida amirlik unvoni siyosiy hokimiyatga ega bo‘lgan harbiy sarkardalarga berilib, ular o‘z navbatida 12 darajaga bo‘linishi sababdir.

Amir Temurning harbiy mahoratini izchil o‘rgangan Rossiya generali M. Ivaninning fikricha, «amirlarning 12 darajaga bo‘linishi, ehtimol, ularning qo‘l ostidagilarning ko‘p-kamligiga bog‘liq edi. Masalan, birinchi darajadagi amir 1000 otliqqa, ikkinchi darajadagi amir 2000 otliqqa, o‘n ikkinchi darajadagi amir 12000 va undan ko‘proq otliqqa boshchilik qilardi» [1, 133].

Albatta, bu – Sohibqironni “amir” unvoni bilan eslash noto‘g‘ri degani emas. “Temur tuzuklari” hamda boshqa mo‘tabar tarixiy manbalarda Temurning farzand va nabiralari “amirzodalar” nomi bilan eslangan. Temuriy shahzodalarning keyingi avlodlari ham «mirzo» («amirzoda»ning qisqartirilgan shakli) unvoni bilan eslanishi (masalan, Boysung‘ur Mirzo, Mirzo Bobur, Badiuzzamon Mirzo va hokazo) Sohibqironni «Amir» unvoni bilan yod etish joizligini bildiradi.

Navoiy asarlarida Amir Temur ismi zikr etilgan holatlarni o‘z mohiyat va muddaosiga ko‘ra quyidagicha tasnif etish mumkin: muayyan ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-didaktik masalalarning talqini jarayonida Amir Temurni misol keltirish; Amir Temur bilan bog‘liq rivoyat va hikoyatlar; Amir Temur hayotidan tarixiy lavhalar; turk mashoyixining Amir Temur bilan bog‘liq kechgan karomatlari.

Navoiy ikkita joyda Amir Temur ismini mashhur hukmdorlar qatorida qayd qilib o‘tadi. “Hayrat ul-abror”ning 48-bobida olamning baqosizligi, umrning o‘tkinchiligi, olam barcha uchun sinov maydoni ekanligi haqida kutilmagan tashbehlar, favqulodda istioralar bilan so‘z yuritadi [2].

Xuddi shu mavzuga “Soqiynoma”da to‘xtalib, yana shu usul – ritorik savol va talmehlar orqali o‘zining fikrini dalillashda mashhur hukmdorlar, jumladan, olam ahlini hayratga solgan Amir Temurga ham dunyo vafo qilmagani, lekin uning adolati abadiyatga daxldor ekanligini uqtiradi.

*Ham Kayumars ila Hushang qani?*  
*Ikkiga toj ila avrang qani?*  
*Qani Jamshidu Faridun oxir?*  
*Birini qo 'ydimu gardun oxir?*  
*Ne Kayoniy boru ne Sosoniy,*  
*Ne Sikandar, ne dag'i Ashkoniy.*  
*Qani xonlar xoni – Chingizxon,*  
*O'kday qaniki, erdi qoon.*  
*Qani Temur – shahi islompanoh,*  
*Ki jahon oldi chekib hayli sipoh [3, 682].*

Ushbu fiqralarda o'rta asrlarda afsonalarga qorishib ketgan, podshohliklari tillarda doston bo'lgan hukmdorlar – Faridun, Kayumars, Jamshid, Iskandarlar bilan bir qatorda turkiy hukmdorlardan Amir Temurning ismi zikr etilgan. Bu bilan Navoiy buyuk Sohibqironning shavkati va tarixda tutgan mavqei yuqorida zikri ketgan hukmdorlardan ortiq bo'lsa ortiqki, aslo kam emasligini nuktadonlik bilan qayd etib o'tgan. Shuningdek, faqat o'zga podshohlarning tarixigina emas, balki Temuriylar imperiyasi asoschisining hayoti va faoliyati ham barcha uchun ibrat va namuna maktabi bo'lishini bildirgan.

Shu sababdan u mavridi kelgan paytda boshqa asarlarida ham Amir Temur mavzusiga murojaat qilgan. Jumladan, «Majolis un-nafois» tazkirasining temuriy hukmdorlar ijodiga bag'ishlangan yettinchi majlisi Amir Temur haqidagi fiqra bilan boshlanadi. Navoiy Amir Temurni «muluk shajarlarining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongir sohibqiron, ya'ni Temur Ko'ragon», deya ta'riflab, bu tavsiflari orqali uning buyuk sulolaga asos solganligi, temuriy shahzodalar, ayniqsa, Sulton Husayn Boyqaroning yaxshi fazilatlari, jumladan, she'riyatda ta'bi nozikligi «jaddi buzurgvor»laridan meros ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Shuningdek, she'rni tushunish zavqi, ta'bi noziklik, o'z vaqtida jo'yali so'z topa bilish salohiyati she'r yoza bilishlikdan-da ustun fazilat ekanligi Sohibqiron hayotidan keltirilgan lavha orqali yanada ta'sirchanroq ifoda etilgan. «Farhod va

Shirin” dostonida esa shahzoda Abulfavoris nasihatiga bag‘ishlangan bobda ilm o‘rganishga da‘vat etib, donishmand podshohning timsoli bo‘lmish Mirzo Ulug‘bekning ilmu fanga bo‘lgan kuchli ishtiyoqiga asl sabab – Temurxon avlodidan ekanligiga nozik ishora qilib o‘tgan:

*Temurxon naslidin Sulton Ulug‘bek,  
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek...  
Rasadkim bog‘lamish – zebi jahondur,  
Jahon ichra yana bir osmondur.  
Bilib bu nav’ ilmi osmoniy  
Ki, andin yozdi “Ziji Ko‘ragoniy”.  
Qiyomatg‘a degincha ahli ayyom  
Yozarlar oning ahkomidin ahkom [4].*

Amir Temur hayotiga bog‘liq yana bir lavha “Hayrat ul-abror”ning 38-bobida o‘zining manzum ifodasini topgan. Vafo haqidagi maqolotdan keyingi hikoyat quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

Andoq eshittimki, shahi komron,  
To‘rt ulus xoni Temur Ko‘ragon [5].

Ushbu hikoyat Amir Temurning Hindistonga qilgan yurishi haqida. Hindlarning qattiq qarshilik ko‘rsatishiga qaramay, fotih jahongirga Yaratganning o‘zi madadkor bo‘lib, g‘alaba tug‘ini tutqazadi. Jang maydonida «ikki bechora yor» Temurning sipohiga duch keladi. Askarlarning biri ular tomon ot soladi. Ikki do‘st bir-birining ustiga o‘zini tashlab, «mening boshimni kes, do‘stimni omon qoldir», deb yolvoradi. Askar har ikkisining ham boshini kesmoqchi bo‘lganida, do‘stlar boshini tig‘ ostiga tutib: “oldin meni o‘ldir, men do‘stimning o‘limini ko‘rishga toqatim yo‘q”, deb iltimos qilardi.

Shu tariqa bir muddat o‘tib, to‘satdan Sohibqironning “al-omon” (omonlik, kechirim) degan buyrug‘i yetib keladi. Qatl to‘xtatiladi:

Bir-biriga kechti alar jonidin,” Shoh dag‘i kechti ulus qonidin (o‘sha asar).

Shu mazmundagi hikoyat «Saddi Iskandariy»da ham keltirilgan. Deyarli yagona syujetga ega bo‘lgan bir hikoyatni ikki jahongir nomidan keltirishda ham



hikmat bor. Ruhiy tarbiya maqsadida aytiladigan bunday hikoyatlarni mashhur tarixiy shaxslar, asotiriy timsollar, avliyo va payg‘ambarlar nomidan keltirishdan asosiy maqsad – hikoyatda aks etgan g‘oyaning ta’sir kuchini oshirib, o‘quvchi qalbining yaxshilikka moyilligini kuchaytirish bilan bir qatorda, vafo, sadoqat, do‘stlik, kechirimlilik kabi ezguliklarga sabab bo‘lgan zotlarga ehtirom hissini uyg‘otishdir.

Ikkinchidan, ikkala hikoyat ham vafo va sadoqat haqidagi fikrlarning tasdig‘ida keltirilgan. “Hayrat ul-abror”dagi hikoyatga ko‘ra, Amir Temur “al-omon” buyrug‘ini berganda sadoqatli do‘stlar boshiga tushgan kechmishdan bexabar bo‘lgan. “Saddi Iskandariy”da esa bir nuroniy zot Chingizxonning tushiga kirib, unga tanbeh beradi. Bundan xulosa chiqadiki, kechirimlilik – Amir Temurning tug‘ma fazilati bo‘lgan, Chingizxon esa adolatli podshoning asosiy xislati bo‘lmish bunday olijanob tuyg‘udan bebahra kimsa sifatida tasvirlangan. Navoiy bu bilan vafo va sadoqat din, irq va millatga bog‘liq emasligi, haqiqiy do‘stlik barcha tuyg‘u va kechinmalardan baland turishi, do‘stlik – chin insoniy fazilat ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Zayniddin Mahmud Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe’” kitobida keltirilishicha, temuriy shahzoda Mo‘min Mirzoning nohaq o‘limi Xuroson ahlining katta noroziligiga sabab bo‘lgan. Husayn Boyqaro o‘zining kechirilmas xatosini tuzatish maqsadida ushbu fitnaning sababchilaridan biri – vazir Nizomiddin Tojulumulk hamda uning oila a’zolarini o‘ldirishga buyruq beradi. Vosifiy ushbu voqea jarayonini batafsil yoritarkan, jumladan, yozadi:

“Nizomiddin Tojulumulkning ikkita fozil va donishmand o‘g‘li bo‘lardi. Ularning qo‘llarini bog‘lab, qatl maydoniga olib kelganlarida, to‘ng‘ich o‘g‘il – Kamoliddin Husayn ukasining ustiga o‘zini tashlab:

– Avval meni o‘ldiringlar, jigarimning ko‘z o‘ngimda o‘ldirilishiga qarab turishga toqatim yo‘q, – deya yolvorardi.

Ukasi ham:

– Sizning yoshingiz mendan ulug‘roq bo‘la turib chidamasangiz, men qanday chidayin, o‘tinaman, meni akamdan oldin o‘ldiringlar, – deb jallodlarga iltijo qilardi” [6, 33].

Ushbu mudhish hodisa 1498-yili avgust oyida, “Xamsa” yaralishidan o‘n uch yil keyin sodir bo‘lgan. Ayni o‘sha yillarda Navoiy o‘z asarlarining so‘nggi tahririni amalga oshirganini inobatga olsak, Chingiz haqidagi hikoyat ham shu fojealar ta’sirida qayta yozilgan, degan taxminni ilgari surish mumkin. Yana bir xulosa shuki, Navoiy yozgan ikki do‘st haqidagi rivoyat xalq orasida o‘sha paytlarda shu qadar mashhur bo‘lganki, yuqoridagi kabi qaltis vaziyatlarda odamlar shoir g‘oyasiga amal qilganlar, ya’ni rivoyatni o‘z hayotlariga ko‘chirganlar.

Amir Temurning ismi Navoiyning eng mashhur asarlaridan biri – “Muhokamat ul-lug‘atayn”da ham eslanadi. Unda donishmand shoir arab, fors va turkiy tillarning rivojlanish omillarini milliy davlatchilik masalasiga bog‘lab tushuntirishga harakat qilgan. Jumladan, turkiy tilning shakllanishi va adabiy til sifatida iste’molga kirishini Amir Temur shaxsiyati va faoliyatiga bog‘lab yozadi:

“To mulk arab va sort salotinidin turk xonlarg‘a intiqol topti, Huloguxon zamonidin sultoni sohibqiron Temur Ko‘ragon davronig‘acha turk tili bila andoq shoir paydo bo‘lmadikim, ta’rif qilg‘ucha asar zohir bo‘lmish bo‘lg‘ay. Va salotindin ham andoq nima manqul emaski, birov qoshida aytsa bo‘lg‘ay. Ammo sultoni sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh Sultonning zamonining oxirig‘acha turk tili bilan shuaro paydo bo‘ldilar”.

Navoiy bu bilan millatning madaniyati va ma’naviy olamining rivoji uchun o‘z davlatchiligiga ega bo‘lishi, ayni paytda, har bir millat o‘z davlatchiligini saqlab qolishi uchun o‘z tafakkur olamini saqlashi, ma’naviy olamning asoslaridan bo‘lmish til va adabiyotini rivojlantirishi uchun qayg‘urishi lozimligini, bu borada Amir Temur va uning avlodi o‘rnak bo‘lishini ta’kidlagan. Ushbu ma’noni boshqa bir joyda shunday nazm qilgan:

*Dahr aro turk shohi foyiqdur,*

*El aro turk lafzi loyiqdur.*

Navoiy ona tiliga g'amxo'rlik qilish davlat olib boradigan siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozimligi, ona tiliga muhabbat umummilliy ishtiyoqqa aylanishi barcha davru zamonlarda hayotiy zarurat ekanligini jondan his etib, bu muhim masalaga o'zbek davlatchiligi tarixida birinchilardan bo'lib Amir Temur va uning muhtasham sulolasi e'tibor qaratganini iftixor bilan e'tirof etgan hamda yosh temuriyzodalarni bunday xayrli ishlarning sobitqadam davomchisi bo'lishga da'vat qilgan.

Umuman, Navoiy yosh temuriy shahzodalarni doimo Sulton Husayn Boyqaro va Amir Temurdan o'rnak olishga chorlagan. Jumladan, adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov «davlat boshqaruvining dasturi» deya baholagan, valiahd Badiuzzamonga yuborilgan mashhur maktubda yosh shahzoda yo'l qo'ygan kamchiliklardan biri sifatida quyidagi dalilni keltiradi:

“Mirzoga (Husayn Boyqaro nazarda tutilmoqda – O.D.) Temurbek to'rtinchi nasabdur. Mirzo xutbada bekning otig'a, sharif ruhig'a masjidi jome'da har odina kuni duo qildururlar. Bu ishta Mirzog'a ham duodin o'zga ne kelgay. Siz nishoningiz tug'rosidin Mirzoning muborak otin chiqorursiz. Kerak Iroqdin Makka, balki Mag'ribzamingacha olsangiz bu voqea bo'lmas erdi”.

Navoiy aqidasi bo'yicha, qaysiki hukmdor Amir Temurdek zotlarni duo bilan yod etsa (ya'nikim, ehtiromini bajo keltirsa), o'zining ham obro'-e'tibori yuksalib boraveradi. Aksincha, ulug' ajdodlariga bepisand munosabatda bo'lgan, tarixdan to'g'ri saboq chiqarmagan, o'zini mutlaq hukmdor deb tasavvur etgan davlat rahbarlari saltanatining asosi mo'rt bo'lib, tanazzul topishi muqarrar.

Amir Temur shaxsiga yuksak ehtirom, unga favqulodda xislatlar nisbat berish, aziz-avliyolar darajasida e'zozlash xalqimiz orasida asriy an'ana edi. Jumladan, Amir Temur maqbarasi oldidan otliqlar buyuk Sohibqironga ehtirom yuzasidan yayov o'tishlari tarixiy manbalarda qayd qilingan. Bu shunchaki xurofot yoki qo'rquvdan hosil bo'lgan soxta hurmat emas, balki samimiyat va muhabbatga asoslangan ehtirom ifodasi, temuriylar davlati qilich bilan emas, pokiza zotlarning sidqidildan qilgan duolari barakatidan, oddiy xalqning ishonch-sadoqati tufayli barpo bo'lganining namunasi ham edi.

Sababi Amir Temur qayerga borsa, eng avvalo ilm va ma'rifat ahlining ehtiromini bajo keltirishga intilardi, soxta olimlar va riyokor shayxlarni o'ziga yaqinlashtirmasdi. Uning imonli kishini munofiqdan ajrata olishga qodir, faqat haqiqiy hukmdorlarga xos bo'lgan farosati haqida turli tarixiy voqealar, rivoyat va naqlar mavjud. Ana shunday hikoyatlardan ikkitasi "Nasoyim ul-muhabbat" asarida turk shayxlari zikrida bayon etilgan.

Jumladan, Bobo Sungu haqidagi fiqrada shunday yozilgan: "Zamon majzublaridinerinish. Andxud qasabasida bo'lur erinish. Sohibi botin kishi erinish. Ramzlarin bilganlar natija topar erinish. Temurbek Xuroson mulki azimatig'a yurug'anda (Xurosonga yurish qilganida) Andxudqa yetganda mashhurdurki, Bobo xizmatig'a borg'ondur. O'lturg'ondin so'ngra Bobo ilayida (qo'lida) bir sufrada (dasturxonda) yaxna et erkandur. Qo'yning yaxna to'shin olib, Temurbek sari otibdur. Temurbek g'oyati aqlu zakosidin debdurki, Xurosonni yer yuzining ko'ksi debdurlar. Ani Bobo bizga havola qildi, deb bu bashorat bila yurub, Xuroson mulkini olibdur".

Bobo Sungu tashqi qiyofasi devonasifat bo'lgani bilan, uning ichki olami ilohiy ishq yog'dulari ila munavvar, siyrati obod, ma'no olamidan ogoh zotlardan bo'lgan. Aksar so'zlari, qiladigan amallari ramz va ishoratlarga qorishganligi sababli, uning kashfu karomatlaridan faqat farosat sohibi bo'lgan kishilargina bahramand bo'lishgan. Yuqoridagi hikoyat esa ushbu majzub darveshning g'ayb olamiga ko'ngil ravzasi ochilganiga misol bo'lganligi bilan birga, Temurbekning zakovati, o'tkir aql sohibi ekanligiga ham dalildir.

Shuni ham aytish kerakki, Amir Temur ko'r-ko'rona e'tiqodni man qilgan. U riyokor va munofiq dindorlar, dinning asoslariga xalal yetkazuvchi buzg'unchi ta'limot asoschilari, muqaddas islom dinini turli xurofot va bid'atlar bilan bulg'amoqchi bo'lgan kimsalarni dushman tutib, ular bilan murosasiz kurash olib borgan. Mo'g'ul istibdodi davrida islom dini ham ancha zaiflashib, o'zining aslidan uzoqlashgan. Har yerda va har vaqt islom dinini qo'llab-quvvatlashga qaror bergan Sohibqiron bu masalada doimo ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lgan.

Ayniqsa, xonaqoh sohibi bo'lgan shayxlarni ziyorat etishda haqiqiy darvesh bilan riyokor shayxni ajratish uchun turli usullarni qo'llagan.

Ana shunday “sinov”lardan biri “Nasoyim ul-muhabbat”da Xoja Boyazid zikrida keltiriladi: “...Temurbek oning suhbatig'a kelibdur va kelurda ko'nglida kechurubdurki, bu erning ma'no olamidin xabari bo'lsa, bizga issiq halvo tortqoy. Ul muridlarg'a halvoni xud buyurg'on ekandur. Bek bila salomlashib ko'rishgondin so'ngra debdurki: “Avval salom, o'rtasi taom va oxiri kalom!”. Filhol halvoni tortturubdur. Bekka bu hol zohir bo'lg'ach, murid bo'lib langar yasab, ko'p avqof qilibdur”.

Amir Temurning chin so'fiylar, Haq yo'lidagi eranlarga munosabati shunday – marhamat va ixlosga yo'g'rilgan bo'lsa, soxtakor mullolar, “Shayton valiylari” (Hujviriylar ta'biri)ga shafqatsiz va qattiqqo'l bo'lgan.

Jumladan, o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan Fazlulloh Naimiy – hurufiylik ta'limoti asoschisini hamma joyda ta'qib qilib, oqibatda uning ko'rsatmasi bilan o'g'li – Mironshoh tomonidan qatl ettirilishi Amir Temurning din va mazhab sofligidagi kurashchanligi va qat'iyatlilikini ko'rsatadi. Navoiy tazkirasida keltirilgan voqea esa bu ikki zot – ulug' amir va ulug' shoirning bu boradagi qarashlari hamohangligining yana bir ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida keltirgan iqtiboslarning tahlilini umumlashtirib, xulosa chiqaradigan bo'lsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

Navoiy nazarida Amir Temur – buyuk saltanat asoschisi, nomi afsonalarga yo'g'rilgan o'tmish podshohlari bilan bo'ylasha oladigan hukmdor. Uning davlatchilik bobida qilgan ishlari, asos solgan qudratli davlati Kayumars, Jamshid, Faridun, Iskandardek olamni o'z zabtiga olgan sultonlar shavkatidan zarracha kam emas.

Amir Temur qattiqqo'l bo'lish bilan birga, kechirimlilik va bag'rikenglik uning tug'ma fazilatlaridan bo'lgan.

O'zbek tilining adabiy til maqomiga ko'tarilishi, arab va fors tillari kabi musulmon Sharqi olamida ilm va adab tili sifatida tan olingan tillar bilan bimalol bellasha olish salohiyatiga ega bo'lishi Amir Temur asos solgan davlatning olib

borgan siyosati tufayli amalga oshdi. Aynan temuriylar davridan boshlab turkiy tilda she'r aytgan shoirlar paydo bo'lishi buning tasdig'idir. Navoiy birinchilardan bo'lib temuriylarning o'zbek xalqi madaniyati rivojiga qo'shgan ushbu tarixiy xizmatlarini ilg'agan va ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Amir Temur she'r yozishga rag'bat bildirmagan bo'lsa ham, she'rni nozik tushungan va badiiy so'z qadriga yetgan. U hamisha, hamma yerda ilm-fan va adabiyotning homiysi sifatida ijodkorlarni qo'llab-quvvatlagan hamda kerakli paytda she'riyat durdonalaridan nuktadonlik bilan istifoda etgan. Bu esa temuriy hukmdorlarning tabiatidagi ma'rifatparvarlik, adabiyotsevarlik aynan ulug' ajdodlaridan meros bo'lib o'tgan fazilat ekanligiga guvohlik beradi.

Buyuk Sohibqironning jahongirlikiga muhim omil bo'lgan fazilatlardan yana biri – Xudoning aziz bandalarining ko'nglini ovlashi, ularning izzatini joyiga qo'yishi, shohning qudrati uning son-sanoqsiz jangchilarida emas, balki shod bo'lgan siniq ko'ngillarning duosi barakotidan ekanligini jondan his etishi va bunga izchillik bilan amal qilishida bo'lgan.

Amir Temur o'zidan oldin o'tgan podshohlarning qismatidan qanday xulosa chiqarib, ularning ijobiy tomonlarini o'zida tatbiq etgan bo'lsa, xuddi shu kabi adolat va haqiqatni o'ziga shior etgan. Ana shunday hayotiy haqiqatlarni Navoiy Amir Temur nomi bilan bog'lab tushuntirarkan, o'z zamondoshlari va kelajak avlod uchun ibratli o'git, insonlarning baxt-saodati uchun kurashadigan, ayniqsa, millat va mamlakat taraqqiyotiga mutasaddi shaxslarga dasturulamal bo'lishini ko'zlagan va niyatiga erishgan ham.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ivanin M. *Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur*. – Toshkent: Fan, 1994. – B.133.
2. Navoiy A. *Hayrat ul-abror* // Alisher Navoiy. *To'la asarlar to'plami*. 10 jildlik. Nashrga tayyorlovchilar: H. Sulaymonov, I. Haqqul. Mas'ul muharrir: S. Rafiddinov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 4-jild. – 682 b.
3. Navoiy A. *Hayrat ul-abror* // Alisher Navoiy. *To'la asarlar to'plami*. 10 jildlik. Nashrga tayyorlovchilar: H. Sulaymonov, I. Haqqul. Mas'ul muharrir: S. Rafiddinov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 4-jild. – 682 b.
4. Navoiy A. *Farhod va Shirin*. // Alisher Navoiy. *To'la asarlar to'plami*. 10 jildlik. Nashrga tayyorlovchilar: H. Sulaymonov, I. Haqqul. Mas'ul muharrir: S. Rafiddinov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 6-jild. – 53-bob.



5. Navoiy A. *Hayrat ul-abror*. // Alisher Navoiy. *To'la asarlar to'plami*. 10 jildlik. Nashrga tayyorlovchilar: H. Sulaymonov, I. Haqqul. Mas'ul muharrir: S. Rafiddinov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 4-jild. – 38-bob, 682 b.
6. Ayniy S. *Vosifiy va xulosayi «Badoe' ul-vaqoe'»*. – Dushanbe: Irfon, 1985. – B.33.

## **HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY SHE'RIYATI TADQIQI HAQIDA**

**Shermuhammad AMONOV,**

*ToshDO'TAU professori v.b., filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya:** O'zidan boy adabiy meros qoldirgan ma'rifatparvar shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyatini ilk manbalar asosida, o'zbek adabiyotshunosligida erishilgan so'nggi ilmiy-nazariy yutuqlarga tayanib tadqiq qilish, shu asosda ijodkor merosiga doir ayrim munozarali masalalarga oydinlik kiritish, uning lirik asarlarini matniy tadqiq etish asosida qayta baholash hal etilishi lozim bo'lgan muammolardandir. Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyatining sho'ro davridagi talqinlari, ularning nashri va shoir lirikasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tamoyillari belgilab berilib, ularning nazariy va amaliy ahamiyati haqida mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Hamza, she'riyat, matnshunoslik, jadidchilik, milliy uyg'onish, mafkura, lirika, tahlil.

**Abstract:** The poetry of the enlightener Hamza Hakimzoda Niyoz, who left behind a rich literary heritage, should be studied on the basis of primary sources and the latest scientific and theoretical achievements in Uzbek literary studies. In this regard, it is important to clarify certain controversial issues related to the writer's legacy and to re-evaluate his lyrical works based on textual analysis.

This article examines the interpretations of Hamza Hakimzoda Niyoz's poetry during the Soviet period, their publication, and defines the scientific and methodological principles for studying the poet's lyrics. It also presents reflections on their theoretical and practical significance.

**Keywords:** Hamza, poetry, textual studies, jadidism, national awakening, ideology, lyrics, analysis.

Sho‘ro davri adabiyotshunosligida Hamza Hakimzoda shaxsi va ijodi bir yoqlama talqin qilinib kelindi. U, asosan, “inqilob kuychisi”, “sho‘ro adabiyotining yalovbardori” sifatida baholanib, uning she‘riyati kommunistik mafkura mezonlari asosida tahlil etildi. Bunday yondashuv ayniqsa XX asrning 30-yillaridan boshlab kuchaydi. Natijada, Hamzaning milliy uyg‘onish g‘oyalari bilan sug‘orilgan asarlari tadqiqot doirasidan chiqarildi yoki g‘oyaviy jihatdan qayta talqin qilindi.

Mazkur davr adabiyotshunosligidagi tendensioz yondashuvlar quyidagi holatlarda namoyon bo‘ldi: 1) shoir ijodining manbaviy asoslari chuqur o‘rganilmadi; 2) she‘riy matnlar asliyatdan chetlashtirildi va turli tahrirlarga duchor etildi; 3) asarlarning mazmun-mohiyati mafkuraviy nuqtayi nazardan qayta talqin qilindi; 4) ma‘rifatparvarlik g‘oyalari jadidchilikka qarshi qo‘yilib, sun‘iy ravishda sho‘ro ideologiyasiga moslashtirildi.

Bu kabi holatlar Hamza ijodiy merosini qayta ko‘rib chiqish, uni ilk manbalar asosida xolis va kompleks tadqiq etish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi. Ayniqsa, shoir she‘riyatini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, asarlarining asliyat manbalar bilan nashr variantlarini qiyosiy o‘rganish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shunga ko‘ra, Hamza Hakimzoda lirikasini tadqiq etishda aniq va samarali nazariy-metodologik tamoyillarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, Hamza she‘riyatini tadqiq etishda quyidagi metodologik tamoyillar ustuvorlik kasb etadi:

- birinchidan, she‘riy matnlarning asliyatga muvofiqligini aniqlash;
- ikkinchidan, matn tahriri va uning turlarini (muallif, kotib, noshir tahriri) o‘rganish;
- uchinchidan, shoir lirikasining mumtoz adabiy an‘analar bilan uzviy aloqadorligini tahlil qilish;
- to‘rtinchidan, asarlarning milliy uyg‘onish g‘oyalari va istiqlol mafkurasi bilan bog‘liqligini belgilash;
- beshinchidan, diniylik va dunyoviylik munosabatini ochib berish;

- oltinchidan, asarlarning umuminsoniy va ma'rifiy-axloqiy mohiyatini tadqiq etish.

Ayniqsa, matnning asliyatga muvofiqligini aniqlash masalasi Hamza ijodini o'rganishda markaziy o'rin tutadi. Chunki shoir asarlarining mavjud barcha nashrlarida ko'plab tahrir va qisqartirishlar kuzatiladi. Jumladan, XX asrning 70–80-yillarida chop etilgan “Mukammal asarlar to'plami” hamda keyinchalik nashr etilgan “To'la asarlar to'plami”dagi she'rlar qiyosiy tahlil qilinganda, ularda jiddiy matniy o'zgarishlar mavjudligi ayon bo'ladi. Professor B.Qosimov hamza Hakimzoda asarlari nashrlari bilan bog'liq kamchiliklarga diqqat qaratgan edi. Olimning “Yangi tafakkur: izlanishlar, mashaqqatlar” maqolasida xuddi shu xususda fikr yuritilgan edi. Olim dastlab “Mukammal asarlar to'plami” sifatida tayyorlangan 4 jildlik akademik nashrga munosabat bildirib, jumladan, bunday yozadi: *“Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi”dan “birinchi bo'lim”dagi “olti dona” she'r beshtaga keltirildi. Noshirlar hech bir izohsiz “Yig'la, yig'la Turkiston, yig'la Turkiston!” she'rini tushirib qoldirdilar. “Darmon istariz” musaddas edi muxammasga aylantirildi... Berilgan besh she'rning uchtasida jami 34 satr tashlab ketildi. Bu, tomliklardan joy olgan bitta kichkina – atigi olti she'rlik to'plamcha misolida ko'ringan kamchilik. Va gap hozircha faqat “qisqartirish”, shu orqali “qaltis” joyini “silliqlash” ustida. Xo'sh, shunday holda uni “Mukammal asarlar to'plami” deb bo'larmikin?”* [5: 224].

Olimning bu fikriga “Devoni Nihoniy”dagi hamd va na't g'azallarning tushirib qoldirilgani, barcha janrlardagi she'rlardan butun boshli baytlar, bandlar qisqartirilgani, aksar so'z va jumalarning “tahrir” qilingani faktlarini qo'shsak, shoirning “Mukammal asarlar to'plami” deb nomlangan nashri talab darajasida amalga oshirilmagani ayon bo'ladi.

Ta'kidlanganidek, oradan o'n yilcha vaqt o'tgach, shoirning besh jildlik “To'la asarlar to'plami” dunyo yuzini ko'rdi. To'g'ri, bu nashrda to'rt jildlikdagi ko'plab xatolar tuzatildi, ayrim qisqargan bayt va bandlar tiklandi, “Devoni Nihoniy” ham nisbatan to'laroq chop etildi. Biroq bu nashrdagi she'rlar matni ham asliyatga muvofiq emas. Mazkur maqolada professor B.Qosimov bu nashrga quyidagicha baho beradi: “Mana, shoir asarlarining 5 tomliqi chiqdi. Bu – ikkinchi

akademik nashr. Mutasaddilardan biri matbuotda u haqda “nodir nashr” deb kafolat berdi: “...biror so‘zi yoki harfi o‘zgartirilmasdan, grammatik shakli buzilmasdan aynan berildi”. Afsuski, bunday emas”.

Olim fikrini quyidagi misollar orqali asoslaydi. “Yig‘la, Turkiston!...”ni ko‘ramiz: “Shunday kechsa holimiz, nelar bo‘lg‘usi:! deb boshlanadigan band tushib qolgan. “Mozorinda tik yotur ixvat o‘rgatgan” deya yozadi Hamza. “Firorinda (?) tik yotur...” o‘qiydilar noshirlar. ...“Darmon istariz”da “biz”– “bir”ga, “aroda ro‘zimiz”–“iroda so‘zimiz”ga, “billoh olim”–“boshqa olim”ga, “hukmi Qur‘on”–“xatmi qur‘on”ga aylangan... Shunchadan keyin ham uni so‘zi, harfi, hatto grammatik shakli o‘zgartirilmay “aynan berildi” deb bo‘ladimi?!”.

B.Qosimovning Hamza she‘riyati nashrlariga doir yuqorida keltirgan misollari shoirning bor-yo‘g‘i 6 she‘riga tegishlidir. Qo‘shimcha ravishda shuni ta’kidlash kerakki, to‘plamda g‘azal janridagi she‘rlar to‘rtlik ko‘rinishiga keltirilgan hollar, ba’zi nazmiy asarlardan butun boshli baytlar, bandlar tushirib qoldirilgan, noto‘g‘ri o‘qilib, xato tabdil qilingan o‘rinlar ham mavjud. Umuman, shoir she‘rlari asliyat va nashr variantlarida bunday nomuvofiqlik ko‘plab uchraydi.

Bunday holatlar “Devoni Nihoniy” misolida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Devondagi ayrim g‘azallarning qisqartirilishi, diniy mazmunga ega she‘rlarning tushirib qoldirilishi yoki tahrir qilinishi shoir ijodining haqiqiy qiyofasini buzib ko‘rsatgan. Shuning uchun matnshunoslik asosida qayta tiklash ishlari Hamza merosini xolis baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, Hamza lirikasining mumtoz adabiy an‘analar bilan bog‘liqligi alohida o‘rganilishi lozim. “Devoni Nihoniy” shoirning klassik she‘riyat an‘analarini chuqur o‘zlashtirganini ko‘rsatadi. Unda g‘azal, masnaviy, muxammas, musaddas kabi janrlar keng qo‘llangan bo‘lib, ularda vazn, qofiya va obrazlar tizimi an‘anaviy mezonlarga muvofiq keladi. Shu jihatdan, Hamza ijodida an‘ana va yangilik uyg‘unligi kuzatiladi.

Biroq sho‘ro davri tadqiqotlarida badiiy-estetik mezonlar e’tibordan chetda qolib, shoir ijodi ijtimoiy-mafkuraviy nuqtayi nazardan baholanib kelindi. Bu esa ko‘p hollarda noto‘g‘ri xulosalarga kelishga sabab bo‘ldi.

Hamza ijodida milliy uygʻonish gʻoyalari muhim oʻrin tutadi. Uning sheʼrlarida millatni jaholat va gʻaflatdan qutqarish, ilm va maʼrifatga chorlash, Vatan ozodligi va inson erki, sogʻlom va mustahkam eʼtiqod kabi masalalar markaziy oʻrinda turadi.

Sheʼriyat – badiiy-estetik hodisa. Tabiiyki, lirik asarda teran mazmun va goʻzal badiiy shakl uygʻunligi talab etiladi. Bu ikki komponentdan birortasi noqis boʻlsa ham, nazmiy asar mukammalligiga putur yetadi. Taʼkidlash kerakki, bu talab faqat sheʼrga emas, u haqdagi ilmiy tadqiqotga ham toʻla tegishlidir. Shu bois sheʼriy asar tahlilida urgʻuni faqat mazmunga yoki shaklga qaratish bir tomonlamalikka olib keladi. Sheʼrning asl mazmuni qolib, tendensiozlik asosida oʻzgacha talqin etilishi esa adabiyotshunoslikning tanazzuliga bois boʻladi. Hamzashunoslik ana shunday inqirozni boshdan kechirgani maʼlum. Birgina misol. R.Kamolova Hamza lirikasini tahlil etar ekan, bunday yozadi: *“Islom dini hukmron boʻlgan bir davrda, zohid xudojoʻylikni, tarkidunyochilikni targʻib qilayotgan bir sharoitda “Ey Nihoniy, rind boʻl, kibru havolarni unut” yoki:*

*Qurib domi tamaʼ zohid kibi xilvat saro boʻlma,*

*Topib rind ahlini xizmatda boʻl toki basar paydo, –  
deb jasorat bilan koʻtarilishi katta gap edi. Bu bilan Hamza har qanday soʻfiyona aqidalarga va tarkidunyochilikka qarshi chiqib, real hayot, hayotiy muhabbat va konkret goʻzallar haqida kuyladi”* [8: 116].

Aslida, Hamzaning bu satrlariga aynan shoir lirikasining mumtoz adabiy anʼanalarga munosabati tamoyili asosida yondashuv zarur edi. Zero, bu misralarda mumtoz adabiyotimiz anʼanasiga muvofiq tasavvufiy mazmun ifodalangan. Shoir hech qanday “konkret goʻzallar” haqida kuylayotgani yoki “soʻfiyona aqidalarga” qarshi chiqayotgani yoʻq, balki xilvatga yuz tutib, tamaʼ umididagi zohid kabi boʻlma, rind ahlini, yaʼni foniy dunyo muhabbatidan oxirat hayotini ustun qoʻyuvchi zotlarni top, ularning xizmatida boʻl, taʼlimini ol, qalb koʻzing ochilsin, deyapti. Hamzashunoslikdagi matnni avvaldan tayyorlangan qoliplarga solib talqin etishdek nooʻrin anʼana aksar hollarda notoʻgʻri xulosalarga olib kelgani ana shu birgina misolda ham yaqqol namoyon boʻlgan.

Hamzaning novatorligi, u she'riyatga olib kirgan o'ziga xos yangiliklar haqida R.Kamolovning fikri quyidagicha: "Shuningdek, yosh Hamza o'zbek va rus so'zlari aralashmasidan iborat she'rlar yozib, original shiru shakar yaratdi. Bu bilan novator shoir sifatida asrlarcha davom qilib kelayotgan adabiy an'anani yorib chiqqan oldi va o'ziga bo'lgan o'zbek shoirlaridan bir qadam ilgari ketdi" [8: 117]. Muallif fikrining isboti sifatida shoirning "Bolshoy" radifli va rus, o'zbek so'zlari aralash qo'llangan "To'qindim yo'lda dedim men sari ukam, guzar et" – deb boshlanuvchi g'azallarini misol qilib keltiradi.

Hamza, shubhasiz, novator shoir. Biroq uning novatorligi bunday jo'n misollarda emas, mumtoz she'riyatimiz an'alarini yangilagan, badiiyatning chinakam namunasi bo'lgan ko'plab she'rlarida namoyon bo'lgan. Yuqoridagidek yuzaki talqinlar esa faqat aks ta'sir ko'rsatishi mumkin, xolos. Binobarin, sho'ro davri hamzashunosligida yaqqol ko'zga tashlanib turadigan yana bir xususiyat shoirning yuksak saviyadagi ijod namunalari emas, balki davr ijtimoiy ruhi aks etgan she'rlari tendensioz talqin etilganida namoyon bo'ladi.

Hamza she'riyatining shakllanish jarayonlari haqida L.Qayumov bunday yozadi: "Hamza Hakimzoda ilk poetik ijodida Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi progressiv shoirlar izidan boradi. Hamzaning birinchi she'rlari yuqorida ko'rsatilgan ustozlarning ishqiy temadagi asarlariga kuchli taqlid bilan yozilgan. Keyinroq Hamza ijodida ijtimoiy tematika paydo bo'ladi" [4: 14].

Haqiqatan, "Devoni Nihoniy"dagi she'rlar mumtoz she'riyat an'alarini ruhida ijod etilgan. Hamza lirikasida ijtimoiy motivlar chindan ham keyinroq paydo bo'ldi. Lekin bu ijtimoiy motivlar, hayotining so'nggi yillaridagi ayrim she'rlarni istisno etganda, milliy uyg'onish g'oyasi bilan sug'orilgan edi.

Shuningdek, shoir ijodida diniylik va dunyoviylik munosabati ham murakkab va ko'p qirrali masala sifatida namoyon bo'ladi. Hamza bu ikki tushunchani qarama-qarshi qo'ymaydi, balki ularning uyg'unligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson kamoloti va jamiyat taraqqiyoti aynan shu muvozanatga bog'liq. Diniylik va dunyoviylik muvozanati muammosi tahlili tamoyili – nafaqat Hamza she'riyatini, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan barcha



ma'rifatparvarlar adabiy merosini tadqiq etishda alohida ahamiyatga molik metodologik masala. Ma'lumki, milliy uyg'onish harakati namoyandalari bu ikki xususiyatni – diniylik va dunyoviylikni uzviy aloqadorlikda his etgan. Ular o'z asarlarida inson kamoloti va jamiyat ravnaqi ana shu ikki omilning muvozanatiga, o'zaro uyg'unligiga bog'liq ekanini ta'kidlab, turkiy dunyoda XVII–XIX asrlarda kechgan tanazzul jarayonini ana shu muvozanat buzilishining oqibati, deb bilgan. Bunga erishmoq uchun esa, diniy va dunyoviy ilmlarni yuksak darajada egallamoq, nafaqat o'rganish, bilish, shuning barobarida, hayotga tatbiq etmoq ham zarur edi. Shu bois Hamzaning fikricha, ma'rifatsiz iymon mukammalligiga erishib bo'lmaydi. Ilmdan bebahralik musulmonlik darajasining ham noqisligini ko'rsatadi:

*Darig' tutmang ilm uchun ketsa mol-u jon,  
O'quv farzlig'i ming yo'l Qur'onda farmon,  
Ma'rifatsiz tonulmaz ahkomi iymon,  
Ilmsizga aytulmas komil musulmon.*

Sho'rolar zamonida Hamzaning dinga munosabati bir tomonlama, totalitar mafkura nuqtayi nazaridan yoritib kelindi, ya'ni shoir ateist, din dushmani sifatida talqin qilindi. Ana shunday soxta xulosalardan kelib chiqib, shoirning diniy mavzudagi she'riy va nasriy asarlari, maqolalari, hayoti va ijodiga doir diniy ruhdagi ma'lumotlar kitobxonlar e'tiboridan yashirildi. Bu hol shoirning "Mukammal" va "To'la" asarlar to'plamlari nashrida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Adabiyotshunos olim Salohiddin Mamajonovning Hamza "Mukammal asarlar to'plami" haqidagi mana bu mulohazalari ham fikrimizni tasdiqlaydi: *"Yozuvchining estetik mavqe – prinsiplarini ko'rsatuvchi ayrim parchalarning yulib tashlanishini qanday izohlash mumkin? "Qiroat kitobi"dan uch-to'rt betlab parchalar olib tashlangan. Tashlab ketilgan "Xiyonat" bobining oxirida Hamza "Emdi sadoqatni ikkinchi kitobdan boshlab o'qursiz", deydi, afsuski u bu niyatiga yeta olmagan yoki bosilmay yo'qolgan. "Salom ayting" she'ridan ham 23 misra tushirib qoldirilgan"* [2: 27].

Ta'kidlash joizki, Hamza adabiy merosini o'rganishda uni ateist, dinga qarshi ijodkor sifatida talqin etish qanchalik noto'g'ri, haqiqatga zid bo'lsa, shoirni o'ta darajada dindor qilib ko'rsatish ham o'zini oqlamaydi. *"...masalaning noxush tomoni shundaki, – deb yozadi professor O.Sharafiddinov, – ayrim hamzashunoslar xolislik va ilmiylik yo'lini tutish o'rniga yana Hamzani yangi sharoitlarga moslashtirishga harakat qilishmoqda. Men yaqinda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligida Hamza to'g'risida bir maqola o'qidim. Unda Hamzani islom dinining izchil targ'ibotchisi sifatida ko'rsatishga urinish bor. Menimcha, Hamza ijodiga bunday yondashish ham bir tomonlamalikdan boshqa narsa emas. To'g'ri, Hamza e'tiqodli musulmon bo'lgan, islom dinini yaxshi bilgan, haj qilgan odam. She'rlarida ham, albatta, uning diniy e'tiqodi qay bir darajada o'z ifodasini topgan. Lekin shunga qarab, uni dinga mukkasidan ketgan, ashaddiy xudojo'y odam sifatida yoki islomning fidoyi targ'ibotchisi sifatida ta'riflab bo'lmasa kerak... u sho'rolar paytida aytilganidek, dinga qarshi faol kurashgan ateist ham emas va hozir ayrim hamzashunoslar e'lon qilayotgandek Huvaydo va yoki Haziniy kabi diniy shoir ham bo'lmagan. U ijodining birinchi qadamlaridanoq jadid bo'lgan, uning ijodiy evolyusiyasi ham jadidchilik mafkurasi hududida sodir bo'lgan"* [3: 151-152].

Darhaqiqat, Hamza musulmon e'tiqodidagi shaxs, Vatan va millat taraqqiysini diniy va dunyoviy ma'rifat uyg'unligida ko'rgan ijodkor sifatida yashagan va ijod qilgan. Mana bu misralar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*O'qubon oyoti Qur'onu hadis qiyli qol,  
O'zga millatning taraqqiy ilmini aylab misol,  
Ko'rsatib ko'ziga yuz ming foyda, fazlu xisol,  
Xor, so'lub, qonlar yutub, tun-kun yugurub mohu sol,  
To'zigay to'zg'oq kibi bir ittifoq etsang arang* [1: 20].

Shoir yillar, oylar mobaynida tun-kun yugurub, qonlar yutib, e'tiqodimiz manbai bo'lgan Qur'on oyatlariyu hadisi sharifni, bundan tashqari, o'tmish mutafakkirlarining qiyli qolini – so'zlarini o'qib, o'zga millatlarning taraqqiy etish sabablarini tushuntirib, yuz ming foydani anglatib, arang ittifoq etsang ham,

to'zg'oq kabi to'ziydigan ahvolga kelib qolganimizdan taassuf qiladi. She'r sarlavhasi ham shundan olingan. Hamzaning alohida ta'kidlashicha, ilmsizlik, ma'rifatsizlik iymonga ham xalal yetkazadi. "Taassuf" she'rining quyidagi misralari shoirning bu haqdagi qarashlarini yorqin ifodalagani bilan alohida ajralib turadi:

*Ilm yo 'q-sa farqi kufr-u favqi iymondan na sud,  
Sun' yo 'q-sa farqi hayvon, favqi insondan na sud,  
Fikri isloh o'lmasa, bik so'zi hijrondan na sud,  
Ehtiyot avvalda yo 'q-sa so'ng pushaymondan na sud.  
Matlabing jononi tekkanda borub toshga jarang [1: 20].*

Hamzaning musulmonligi va jadidligi bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, bir-birini to'ldiradi, shoirning e'tiqodi va ijodiy maslagi haqidagi tasavvurni boyitadi. Shoirning mana bu misralarida ana shu ikki jihat mutanosiblikda ifodalanganini kuzatish mumkin:

*Bu na vahshat, na jaholat, er, qiz-u pir-u javon,  
Domi g'aflatdin xalos o'lmoqqa imkon istamas,  
Ey Nihon, bing hayf, ey insoniyat, islomiyat  
Millati xor o'lmag'in hech nomusulmon istamas,  
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida [7: 30].*

Ushbu ilmiy kuzatuvlar Hamza she'riyatini diniylik va dunyoviylik muvozanati tamoyili asosida tadqiq etish shoirning shaxs va ijodkor sifatidagi tutumini, dunyoqarashini anglashda alohida ahamiyatga molik ekanini ko'rsatadi. Bu tamoyil nafaqat Hamza ijodi, umuman, jadid adabiyotining xos xususiyatlarini tadqiq qilishda yangi ilmiy-nazariy umumlashmalarga kelish imkonini berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Hamza she'riyatini zamonaviy ilmiy talablar asosida qayta tadqiq etish, uni mafkuraviy qoliplardan xoli ravishda baholash va asl manbalarga tayanib o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu esa nafaqat shoir ijodini to'g'ri anglash, balki milliy adabiyotimiz tarixi va taraqqiyotini xolis yoritish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Isloh, 1915-yil, 1-noyabr, 20-son.
2. Мамажонов С. Барҳаёт Ҳамза. – Тошкент: Фан, 1991.
3. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004.
4. Қайумов Л. Инқилоб куйчиси. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962.
5. Қосимов Б. Ўзбек адабиёти ва адабий алоқалари тарихи. – Тошкент: Фан ва технология, 2008.
6. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1988.
7. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1988.
8. Ҳамза ҳақида мақолалар. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1960.

### MAXLAS NAMANGONIYNING “TUHFAT UL-OBIDIYN VA ANISUL-OSHIQIYN” ASARI XUSUSIDA

*Jasurbek Mahmudov,*

*O'zDJTU professori v.b., filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maxlas Namangoniyning 1910-yilda Toshkentda nashr etilgan «Tuhfat ul-obidiyn va anis ul-oshiqiyn» asari tadqiq etiladi. Asarning debochasi, nashr tarixi, nomlanish sabablari hamda tarkibiy tuzilishi tahlil qilinadi. Kitobni nashrga tayyorlagan Muhammad Obidjon Namangoniyni tomonidan yozilgan muqaddima asosida asarning yaratilish muhiti va muallif shaxsiga oid ma'lumotlar yoritiladi. Shuningdek, asarda jamlangan diniy-ma'rifiy she'rlar, na'tlar, muxammas, musaddas, musamman va boshqa she'riy janrlarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida «Tuhfat ul-obidiyn va anis ul-oshiqiyn» asari Maxlas Namangoniyni adabiy merosining muhim namunasi bo'lib, unda islomiy-ma'rifiy g'oyalar va Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga muhabbat mavzusi yetakchi o'rin tutishi aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** debocha, na't, diniy-ma'rifiy adabiyot, mumtoz adabiyot, she'riy janrlar, muxammas, musaddas, toshbosma.

**Annotation:** This article examines Maxlas Namangoniyni's work “Tuhfat ul-obidiyn va anis ul-oshiqiyn”, published in Tashkent in 1910. The study analyzes the preface, publication history, title, and structural composition of the work. Based on the introduction written by Muhammad Obidjon Namangoniyni, who

prepared the book for publication, information about the literary environment and the author's personality is highlighted. The article also explores the religious and educational poems collected in the work, including na'ts, mukhammas, musaddas, musamman, and other poetic genres. The research reveals that "Tuhfat ul-obidiyin va anis ul-oshiqiyyin" is an important example of Maxlas Namangoniyy's literary heritage, in which Islamic educational ideas and devotion to the Prophet Muhammad (peace be upon him) occupy a central place.

**Keywords:** preface, na't, religious-educational literature, classical literature, poetic genres, mukhammas, musaddas, lithographic publication.

Hijriy qamariy 1328, milodiy hisob bilan 1910 yilda Toshkentdagi V.M.Ilin nomidagi tipo-litografiyada chop etilgan Maxlas Namangoniyning asari 1 a varag'i, ya'ni unvon qismida quyidagilarni o'qiymiz: "Qavluhu Taolo: Yuhibbuhum va yuhibbunahu<sup>1</sup>. Al-hamdulillahi va minnahu. In kitob majmua', ki fayzi simot zaxirayi ma'niy va ganjinayi sanoye'i she'ri, ki dar ta'rifi U az har chi tavonam guftan bajost va dar tavsifash gavhari shahvor suftan sazost. Az qatra'oti bahri tab'i shoironi jodu zabon, a'ni Mavlono Yormuhammad Namangoniyy – mutaxallas ba-Maxlas va az lama'oti anvori xurshid taboye'i shuaroi mutaqaddimiyn, mavsum ba "Tuhfat ul-obidiyn va anis ul-oshiqiyn". Basay'i ehtimom ahqari tullob muhibbi ulamoil-kirom va do'stdori fiy fuzaloi zul-ihtirom, a'ni Mullo Muhammad Obid ibn Mullo Muhammad Qobil Oxund Namangoniyy (raqohumallohu ilaa ma'orijul-avf val-g'ufroniyy dar baldayi Toshkand va dar chopxonayi Il'in matbu' gardid. Ilohiy marg'ubi taboye'i arbobi uqul va maqbuli as'hobi fahval gardon. Omiyn. Tab' va tamsiliy muhtamamdin g'ayrig'a mamnu' o'lindi (chop etish va misol keltirish nashrga tayyorlagandan (ehtimom qiluvchidan)o'zgaga ta'qiqlanadi). Tipo-litogr. V.M. Ilina v' Tashkent'.

<sup>1</sup> Моида сурасидаги 54-оятга ишора: يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا مَنْ يَرْتَدَّ مِنْكُمْ عَنْ دِينِهِ فَسَوْفَ يَأْتِي اللَّهَ بِقَوْمٍ يُحِبُّهُمْ وَيُحِبُّونَهُ أَذِلَّةٌ عَلَى الْمُؤْمِنِينَ (54) Ey, imon keltirganlar! Sizlardan kimki dinidan qaytsa, Alloh shunday bir qavmni keltirurki, ularni Alloh sevadigan va ular ham Uni sevadigan, mo'minlarga (nisbatan) kamtar, kofirlardan esa (o'zlarini) yuqori tutuvchi, Allohning (toati) yo'lida jiddu jahd qiluvchi, malomatchining malomatidan qo'rqmaydigan bo'lurlar. Bu Allohning fazlidirki, uni O'zi xohlagan (bandalari)ga berur. Alloh (karami) keng, dono zotdir.

Har bir asarning o'z yozilish tarixi va nomlanish sababi bo'lishini F.Karimovning nomzodlik va doktorlik ishlaridagi debochalar xususida yozilgan mulohazalardan yaxshi bilamiz. Shuningdek, mazkur ilmiy tadqiqotlarda debochalar shoirning o'zi tomonidan va muxlislari tomonidan yozilishi haqidagi fikrlar mavjud bo'lib, biz ushbu kitobdagi to'liq debochani berish orqali uning qaysi turdagi debochalar qatoriga kirganini o'quvchilar hukmiga havola qilmoqchimiz. Toshbosmaning 2-sahifa (1 b varag'i)da chiroyli gulli shamsiyaning ichiga yozilgan "Bismillahir rohmanir-rohim"dan keyin esa quyidagi debocha keltirilgan: Hamdu sano ul Xalloqi jahong'a, kim xilqati koinot birla osori Zotu Sifotin paydo va huvaydo qildi. Vojib ul-vujude, kim Zotu Sifotida tanho va yaktodurlar "Laa shariyka lahu fiy zatihi va sifatihi". Va durudi noma'dud nisori borgohi podshohiy bo'lg'oyki, nubuvvat va risolat daftari aning nomi volosi birla xatm bo'ldi, sayyidul-anbiyo val-mursaliyn, rahmatul-olamiyn, Muhammad sallallohu alayhi va alayhim va sallim va ala olihi va as'habihi va atboihi ilaa yavmad-diyin.

Va ba'dahu, po'shida qolmag'ay, ki bu bandayi bemiqdor va ojiz bilo-iqtidor saropo ajzu inkisor faqiru haqir va mo'ta'rif ajzu taqsir xokipoyi ulamo va g'ulom halqayi ba go'sh, fuzaloyi xodim arbobi kamol va muhibbi as'hobi istikmol Mullo Muhammad Obidjon ibn Muhammad Qobil Oxund Namangoniy (haffazollohu fiy nahiyatal-amn val-amoniy) yoshlik ayyomlaridin biri qiblagohim tarbiyatlari birla sahhoflik peshasig'a, fil-jumla mahorat paydo qilib, yonlarida o'lturub ulamo va fuzalo abqohumulloh taolo ilaa yavmal-hisob) xizmatlarig'a va sa'yim miqdoricha sobit va rosix bo'lib, bir necha vaqt umr o'tkardim. Ba'da moyiki qiblagohim janoblariga zohir va ravshan bo'ldiki, bu peshayi sharifa va hirfayi latifaga alaa vajhul-istiqlol ishtig'ol aylasam uhdasidin chiqarman, bu ma'niyga itminon qilib hosil qilg'ondin keyin rastada ijozatlari (3-sahifa) birla do'kon tutub, hirfayi sharifa lavozimotiga iqdom aylab, naqdinayi toqatga Vohib ul-atoyo ganjinai iste'dodimga vadi'at qo'yub erdi. Janobi hazaroti ulamo va fuzalo, sig'oru kiborlari boshlariga iysor ayladim va alad-davom gulshani hamisha bahor xulqi hushdin do'kon safhasida dasta-dasta yashnab, ochilib turar erdi.



Banav'iki, tamoshoiyon tarovati rangidin gulzori kitob diydalari munavvar va mashomi jonparvaridin dimog'lari muattar bo'lub, beixtiyor tavoze'im ravoqi soyasida istirohat qilib, qolur erdilar. Bu banda har vohidlariga muomalayi dilkash maruhasi birla nasimi rohatafzo yetkurub, rohatlandurar erdim. Andak zamonda talabatul-ulum risolayi odobimdin bahravar bo'lub, kasaba mobayninda fil-jumla bozorim garm bo'lub, chamanzor korim ravnaqdor bo'ldi. Va aksar avqot azizlar va shariflar marhamat aylab diydori matla'ul-anvorlari birla go'shayi do'konimni rashkxonayi xurshid qilur erdilar. Binoan alayh kuttobi nazhatul-e'tiborim sherozaband bo'lub, manzuri nazar diydavaron bo'ldi. Alhamdulillah alaa zalika va yana ma'lum ixvon us-safo va mafhumi sohiboni zako bo'lg'ayki, Mullo Asomiddin Voiz, mashhur va marhum va ma'ruf Namangoniy, ki aqtori arz va aknofu atrofi jahong'a "Kash-shamsu fiy vasatus-samaa'" erdilar, sanayi 1325 hijriyda dorul-g'ururdin dorus-sururg'a intiqol qildilar. Ul zoti mazhari anvori ilohiy bandaga bag'oyat muhib va mushfiq erdilar, badarajayi, ki agar imkonpazir bo'lsa har kun va illo ikki kun yo uch kunda, loaqal haftada bir bor kechasi biz-zot hudrai g'aribonamga tashrif qudum muboraki luzum qilib, nihoyat behjat surur birla suhbat tutub, laoliyi obdor kalomi shirin va javohiri hikoyot rangin birla kulbayi ahzonimni rashki ganjinayi xusravon qilur erdilar. Va aksar avqot asnoyi suhbatda janobi mualloul alqob murshid va ustozlari Mavlono Yormuhammad Namangoniy Maxlasni zikr qilur erdilar va abyotlaridin o'qub suxan qilur erdilar. Banav'iyki, some'on va hoziron beixtiyor diydalaridin sirishki durdonalarini hamchun jo'ybori ravon va jarayon aylab, bul kamina ham haddin fuzun xursand va sarafroz bo'lg'ay erdim. Har qachon ul marhumning ash'orlarini o'quganda ixlosim Mahlasi marhumg'a ziyoda bo'lg'ay erdi.

Ammo ul janobning aksar umri garoniylari Foxirayi Buxoroyi sharifda va o'zga viloyatlarda sayr qilib o'tgan ekanlar. Ammo tahsili (4-sahifa) kamoloti suvariya va ma'naviya va iktisobi fazoyillari ma'danul ulum Buxoroda bo'lub, o'shal asri maymunning mamoliki Buxoroga hukmroni komil va amiri odillari janob Amiral mo'miniyn va imomi muslimiyn Amir Nasrullo marhum va mag'fur hazratlari masnadi oroy zamonlig' hollarida tamomi aholiyi Buxorog'a har hafta

Labi Havz Devonbegida iltifoti va farmoyishi shohona birla va'z va nasihat aylar ekanlar. Ul zamonda mavjud ulamo va fuzalolar va'zlarini qabul sam'ida (qulog'ida) eshitur ekanlar. Ul marhumning manqibi oliyalarini tafsili bir mustaqil kitob bo'lur.

Ammo bu debochada shul qadarg'a iktifo (kifoya qilindi) qilindi, bandaga shul qadar ma'lum bo'lub erdiki, Maxlasi marhumdin bir devoni oliy qolg'on deb, banda kamoli ixlos va e'tiqodi, ki ul janobg'a qilur erdim, justijo'yi bilonihoya (nihoyatsiz izlanishlar) birla kitoblarni mavjud qildim. Ko'rdimki, saropo g'azaliyotlari tamoman na'ti janobi risolatmaob va mahbubi Rabbul arbob va shahsuvori kavnayn va tojdori rasuli saqalayn va shofe'iy arzi A'zam va qidvayi Arabu Ajam, a'ni Rasuli Akram sallolohu alayhi vvasallam va alqobi chahoryori izom va azizoni nomdori, ki Foxirai Buxoroyi sharifda ziyoratgohi xosu avomdur. Alarning manqib va karomotlarini bayonig'a batariqayi muxammas va musaddas va tarji'band va shunga o'xshash sanoye'i she'riya birla mutazammin va g'azaliyoti oshiqona batariqi fasona ham ko'b yozilmishdur.

Al-xosil, bu kitobi manofe' kitobedurki, har kimki ma'nidin bahrasi bo'lsa, bir martaba qo'liga olsa va na'ti oliysidin bir-ikki band mutolaa qilsa, mahfuz<sup>1</sup> va masrur mahbub sog'ar visolidin oshiqu shaydo no'sh qilg'ondek bu kitobi sharifni mazomini ruhafzo va maoniyyi mashrab piyrolig'i shul g'oyatdadur, ki bedard qo'lig'a olsa, dardman bo'lur, dardmand ko'rsa, mard bo'lur. Bul kitob daryoi ishqi muhitdur, saropo zavqu shavqdur. Bul kitob bir gulistondurki, har kim bir bor bir go'shasiga qadam diyda birla tamosho qilsa, o'zga gulsitonni xoriston fahm etar va bir bahoristondur, ki har kim bir bor bahori fitrat nasimdek, xiyobon rayohin zoridin guzar qilsa boshqa bahoristonni fasli xazon mutolaa qilur, Iskandar va Xizr a.s. muning savodi xututidagi obi zulol ruhi parvaridin xabardor bo'lganlarida, obi hayot axtarib zulomot tiyraligini shiddatidin chekmas erdilar. Ore, chashma soriga na'ti xotam un-nubuvvat alayhi afzalus salovot va akmalut-tahiyot majrosidin (joriy, ya'ni oquvchisidin **5-sahifa**) joriy bo'lubdur. Har qatrasining obi hayotdin baland va mumtozdur va bir rashhasi hazoron obi zuloldin

---

<sup>1</sup> Бизнингча ушбу ўринда маҳзуз бўлиши керак. محفوظ محظوظ

oliy va sarafroz. Chunki bu xodim ul-ulamo, ruhi ravon va joni jononni bul nav' daryoi mavvoj va siroj va vahhoj ko'rdum. Fil-hol ko'nglumdin kechdiki, bu daryodin arig'lar ochmoq kerak, va bu chirog'din sham'lar ravshan qilmoq lozim, to ki toki atrofdagi zi-basoratlar chamanzori tabiatlariga ul jo'yborlardin obshorlar yetib, muravnaq va mutarro bo'lg'ay, va ofoqdagi ravshan fitratlar hujrayi siynayi bekiynalariga ul sham'lar yoqilib, zulumoti jaholatdin mubarro va muarro bo'lsalar. Binoan alayh (shunga ko'ra, shu sababdan, binobarin) bu xokbo'si utbayi ixvon us-safo, bu mahbubi saro-po marg'ubni hulliyai tab'i birla orasta va pirosta qilmoq bo'lub, sa'y ko'rguzdum va ohangi jiddu jahd tuzdum. Ajab yo'qdurki, muddao shohidi kanorimizg'a kelsa va maqsud soqiysi piyola tutsa, deb. Va yana ma'lumi zamoyiri qoyili ulul-absor va makshufi xavotir ut-tavoyif bo'lg'ay, ki "Xayrun-naas, man yanfa-un naas" (Odamlarning yaxshisi odamlarga foyda keltiruvchidir) mazmunicha bu kori tarabosorni xayriyati kofayi mardum fahmlab, iqdom ko'rguzduk. Shoyad, ki soyir birodaron va yoron ham bu hadisi sharif mazmuniga amal aylab, bizga ham naf' yetkursalar. Ya'ni ul bechora ranju farovon chekib va mehnati bekaron (?) tortib, bu ganji maxfiyni zohir qilibdur. Xudovandi karim bu dunyoda xazinayi "laa yafnaa"ga yetkursun va oxiratda Payg'ambari oxiruz zamon (a.s.v.)ning livoyi hamdlari ostida joy bersun deb, duo qilsalar, vassalom.

Va ayzan ma'lumlar bo'lg'ayki, azbaroyi bu kitobni tazyin va tamtin aylamoq uchun ba'zi shuaroyi mashohiri mutaqaddimiyn va nazmoyi ma'oriflariki, o'z zamonlarida farid va o'z asrlarida vahidi angushtnamodurlar, alarning ash'ori latifa va abyoti lazizalaridin intixob aylab, bu bandayi xokisor muhtamim (muhim) umidvor tab'i zodidin vujuda kelmish ba'zi asari ojizni bar sabilun-muvazzaj (mamzuj, ya'ni aralashgan) va hadoyo kitobning oxirig'a inzimom ayladim, toki o'zumdek dardmand va muhabbat ishtiyoq va mustamand ojizi firoq va tashna laboni bodiyai hijron va shikasta diloni alam va ahzon zavoti muhabbat shior va arbobi muvaddat osorlarg'a tuhfayi xolisanahu va ushshoqi suxtadilonu sargardonlarg'a munisi jovidona bo'lmoq umidi birla ushbu kitobg'a "Tuhfatul

obidiyn va anis ul oshiqiyn” nom qo’yuldi. Ilohiy, maqbuli taboyo’i arbobi uql aylab, safhayi ro’zg’orda mashhur et, omiyn.

Kitobning 6-sahifasidan “gulli shamsiya” ichida “Bismillahir rohmanir rohiym” bilan she’rlar boshlanadi. She’rlar asosan diniy-ma’rifiy mazmunda. Birinchi she’r muxammas janrida:

*Sipos-u hamdu behad Haqq’a, ki Zoti Qadimdandur,*

*Kimi, ki zotiga inkor etar, joyi jahimdandur.*

*Madori ikki olam Zoti Haqqdin o’zga kimdandur,*

*Kalomin avvali bilgil, “Alifu, Lomu, Mim”dandur*

*Shifoyi mo’minga “Bismillahir rohmanir rohiymdandur”.*

Barcha bandlarning akrorlanuvchi bayti Shifoyi mo’minga “Bismillahir rohmanir rohiymdandur”.

Kitobning 117 sahifada tugallangan. Oxirgi she’r G’azali digar, deb nomlangan bo’lsa ham, jadvalga olinib musaddas shaklida keltirilgan:

*Ey ba Haqqi Sayyidi kavnayn, xatmul anbiyo,*

*Sohibi me’roj ham badrud dujo, nuril hudo,*

*Maxlasim de, qilmagil sharmandayi ro’zi jazo,*

*Yo’q mani shohanshohimdek Xojayi har do’ saro,*

*Xossayi Vojib ut Taolosan, xaloyiq rahbari,*

*Rahmatan lil olamiyn, oxir zamon Payg’ambari.*

Kolofonda o’qiymiz: Tammat g’azaliyoti Mavlono Maxlas va yatluha abyoti shuaro uz-zamon, nas’alallohi an fuvaffaqnaa bi jami’is saodati. Tamat bil xoyr. Kitobdan muxammas, g’azal, muashsharlardan tashqari, “Buxoroyi Sharifda mazori foyiz ul anvori o’lan Xoja Abu Hafz Kabir sha’nida” nomli musamman, “Buxoroyi sharifda Imom Porado’z hazratlarini manoqiblari bayonida” nomli muxammaslar ham joy olgan.

Xulosa qilib aytiladigan bo’lsa, kitob debochasida aytilganidek, ko’plab she’rlari Payg’ambar s.a.v.ga na’t mazmunidagi she’rlardan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimova F. O’zbek adabiyotida debocha: Filol.fanlari nomzodi....diss. – Toshkent, 1993. – B. 14.

2. Karimova F. Sharq adabiyotida debocha va uning poetikasi; filol.fanlari d-ri....diss.– Farg‘ona, 2023. – B. 27.
3. Tuhfat ul obidiyn. Tipo-litogr. V.M. Il‘ina. Toshkent. h.q.1328/ mil.1910 y.

## BUYUK SHOIRLAR SHAXSIDAGI MUSHTARAK INSONIY FAZILATLARNING BADIY TALQINI

**Abdullayev Komiljon Abdug‘anievich,**  
NamDU dotsenti, pedagogika fanlari doktori  
E-mail: [komiljon.abdullayev.1961@mail.ru](mailto:komiljon.abdullayev.1961@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada Navoiy va Bobur shaxsidagi mushtarak insoniy fazilatlarniing badiiy talqini “Navoiy” (Oybek), “Makorim ul-axloq” (Xondamir), “Yulduzli tunlar”, Avlodlar dovoni” (P.Qodirov), “Boburiynoma” (Xayriddin Sulton), “Boburnoma” asarlaridan olingan lavhalar asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Navoiy, Bobur, “Majolis un-nafois”, “Malik ul-kalom”, Lutfiy, “Makorim ul-axloq“, “Navoiy”, “Boburnoma”, “Havoli Qutiy”, “Yulduzli tunlar”, Humoyun, masnu’ she’r, “Xamsa”, mangulik.

**Abstract:** The article analyzes, the artistic interpretation of the common human virtues embodied in the personalities Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammada Babur. The study is based on excerpts from a number of literary and historical works, including “*Navoi*” by Oybek, “*Makorim ul-akhloq*” by Khondamir, “*Yulduzli tunlar*” and “*Avlodlar dovoni*” by Pirimqul Qodirov, “*Boburiynoma*” by Khayriddin Sulton, and “*Boburnoma*”. Through these sources, the shared moral qualities, intellectual depth, and humanistic ideals reflected in the personalities of Navoi and Babur are explored and interpreted from a literary perspective.

**Key words:** Navoi, Babur, “Majolis un-nafois”, malik ul-kalom, Lutfiy, “Makorim ul-akhloq”, Navoi, “Boburnoma”, Havoli Qutiy, “Yulduzli tunlar”, Humayun, masnu poem, “Khamsa”, eternity.

Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish,

ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratishimiz uchun hamma sharoitlarni yaratamiz" [daryo.uz/k/2020/05/20/: 1], "Adabiyot masalasi – bu ma'naviyat masalasidir" [Karimov, 2009: 23], "Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi" [Karimov, 2010:3], "Kitob (bitik) – barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir" ["Edu.uz", 2020: 1].

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, yoshlar ongini yuksaltirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish, Vatanni sevish, ardoqlash, kezi kelsa, uning obro'si, osoyishtaligi, ravnaqi yo'lida jon fido eta olish xislatlarini tarbiyalashning ulkan vositalaridan biri badiiy adabiyotdir.

Buyuklik va manguqlikning betakror timsoli, yuksak iste'dod egasi, mutafakkir shoir, olim, turkiy tilda shoh asarlar bitgan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir" [Karimov, 2010: 47], – deya ta'riflagan Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hamda shoh va shoir, adabiyotshunos olim, buyuk tarixchi Ibrohim G'ofurov ta'biricha, "Bir odamda butun bir xalqning xususiyatlari jamlanishi va yuzaga chiqishi mumkin deb o'ylanaman ba'zan. Masalan, Gyote nemis xalqining, Dostoevskiy ruslarning, Shekspir inglizlarning mujassam timsoli bo'lib ko'rinadi menga. O'zbeklarning shunday odami bormi? Bor, deyman o'zimga-o'zim. U – Bobur. O'zbeklarning, qolaversa, barcha turkiy qavmlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'z shaxsida jamlashtirgan siymolardan biri" Zahiriddin Muhammad Bobur – ulug' bobolarimizning betakror shaxsi, boy adabiy merosi ma'naviy kamolotga erishish va o'zlikni anglashda bebaho xazina vazifasini o'tab kelmoqda.

Ana shu xazina sirlaridan bahramand bo'lish, o'zgalarni ham bahramand etish biz, ulug' bobolarimiz avlodlarining, muqaddas burchimizdir.



Ikki buyuk allomani bir-birisiz tasavvur etish qiyin, bizningcha. Ular shaxsi, taqdiri, ijodida ham shunday o'xshashlik va umumiylik – mushtaraklik jihatlari tasvirlangan tarixiy, ilmiy, badiiy asarlar bu hayratlarning yorqin dalilidir

1. Temuriylar (Navoiyning otasi G'iyosiddin kichkina temuriylar saroyining amaldorlaridan, Boburning otasi Umarshayx mirzo esa, temuriylar avlodidan bo'lgan (Amir Temur – Mirzo Mironshoh – Sulton Muhammad Mirzo – Sulton Abusaid Mirzo – Sulton Umarshayx Mirzo – Zahiriddin Muhammad Bobur) saroyi muhitida yuqori saviyali murabbiylardan bilim olishgan.

2. Favqulotda zehnlilik, milliy an'ana va qadriyatlar asosida tarbiyalanganlik ularning kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi, aslo.

Bo'lajak shoir 6 yoshligidayoq buyuk tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushadi va uning duosini olishga musharraf bo'ladi. Bu uchrashuvni o'zining keyinchalik yozgan “Majolis un-nafois” asarlarida shunday xotirlaydi: “Mavlononing sohibkamollik'i olam ahli qoshida musallamdur... Ittifoqo manzil alarning xonaqohi eshikida voqe' erdi... Mavlono tushgan jamoatning kayfiyatin ma'lum qilmoq uchun atfoldin birini tiladilar. Faqir alar sori borurg'a muvaffaq bo'ldum. Har nekim so'rdilar javob aytdum. Dedilarkim: bu jamoat atfolidin biz tilaganda, sen kelib biz bila oshno bo'ldung, sening uchun fотиha deb o'z fotihalarig'a musharraf qildilar” [Navoiy, 2012: 308].

Shu o'rinda yuqoridagi dalilni to'ldirish uchun “Navoiy” videofilmidagi (Oybekning shu nomli romani asosida yaratilgan) quyidagi lavhani ham eslash maqsadga muvofiq: Yosh Alisher o'z do'stlari bilan o'ynab yurib, bir mo'ysafidga duch keladilar. Ziyрак Alisher uning qo'lidagi obdastani olib, darrov suv olib kelib beradi. Donishmand mo'ysafid (bu kishi Sharofiddin Ali Yazdiy edi) duo qilib: “Sen umrboqiylikka erishgin”, – deydi. Shunda u zukkolik bilan: “Hech kim abadiy yashamaydi-ku?” – degan savoli orqali o'zining mulohazaliligini va bolalarga xos samimiyligini namoyish qiladi. Buyuk tarixchi olim o'rinli bu e'tirozga shunday javob qiladi: “Hech kim jisman abadiy yashamaydi. Lekin sen shunday bir ish qilginki, bundan xalq umrbod foydalansin”.

Bizningcha, bobomizning buyukligi, manguligi ushbu duolarning ijobati – kattaga hurmat – duoga intilishdandir deb hisoblash mumkin.

6-8 yoshlardagi yosh Zahiriddinning esa, harbiy mashqlardagi merganlik mahorati, ismi jismiga monandligi, kattalarga – otasiga hurmati, taqlidi “Yulduzli tunlar” romanida quyidagicha tasvirlangan:

“Chorbog‘ ichida o‘n ikki yoshlik Bobur mirzo chavandozlik mashqlari o‘tkazmoqda. U chorbog‘ chetidagi yalanglikdan bo‘z otni choptirib chiqdi-yu, birdan jilovni qo‘yib yubordi. Kamonga chapdastlik bilan o‘q o‘rnatdi va chopib borayotgan ot ustidan nishonga otdi. Yoy o‘qi nishon yog‘ochiga “taq” etib urilgani baralla eshitildi.

Bir to‘p otliqlar mashqni chinor soyasida turib kuzatmoqda edilar. Qora otliq Mazidbek nishonga birinchi bo‘lib yaqinlashdi. U Boburning bek atkasi – “hali balog‘atga yetmagan mirzolarga homiylik qilish uchun podshoh tomonidan tayin etiladigan mas‘ul bek” edi. Bobur otini qaytarib kelayotganda, Mazidbek unga:

– Mo‘ljalni andak balandroq olibsiz, – dedi. – Ammo zarbingiz behad yaxshi.

– Mazidbek sopiga sadaf qadalgan yoy o‘qini nishondan avaylab sug‘urib oldi-da, qanchalik chuqur botganini barmog‘i bilan o‘lchab ko‘rdi:

– Bilagingizda kuch ko‘p, amirzodam! Sherpanjasiz. Podshoh hazratlari sizni Bobur deb ataganlari bejiz emas. Bobur arabcha sher demakdir!

Bobur mirzoning navkarlari, yaroqbardor, tengdosh – ko‘kaldosh (bir onani emgan bolalar) mulozimlari ham nishon atrofida yig‘ildilar. Ular Boburning hali yosh o‘spirin ekanini, qo‘lidagi kamon bo‘yi bastiga mos qilib kichraytirib ishlanganini bilar edilar. Shuni o‘ylab, Bobur maqtovni o‘ziga olgisi kelmadi.

– Sherpanja deb otamni aytsinlar. Men ko‘rganmen, zarblari bundan o‘n hissa ortiq. Musht ursalar, eng zo‘r yigitni ham yiqiturlar.

– Kamina ham aytmoqchi edimki, amirzodamning sherpanjaliklari podshoh otangizga tortganligingizdan nishonadir!” [Qodirov, 2018: 37-38]

Bu kabi fazilatlarni oilada, bolalar bogʻchalarida va boshlangʻich sinf “Oʻqish” darslarida oʻquvchilar ongiga singdirilishi maqsadga muvofiqligini alohida taʼkidlaymiz.

3. 12 yoshlaridayoq el nazari – eʼtibori va eʼtirofiga sazovor boʻlishgan:

– Alisher 12 yoshida zamonasining “Malik ul-kalomi” – “Soʻz mulkingning sultoni” – Lutfiy oʻz isteʼdodi bilan lol qoldirgan:

“Oliy hazrat (Navoiy) yoshlari endigina toʻlib, yigitlik davri boshlangan paytlarda, bir kuni Lutfiy xizmatiga bordi. Lutfiy oʻz nozik fikrlaringizning natijalaridan yuzaga chiqqan bir gʻazalni oʻqish bilan bizni bahramand etsangiz, – deb iltimos qiladi. Ul hazrat bir gʻazal oʻqiydi, uning matlai mana shu:

Orazin yopqoch, koʻzimdin sochilur har lahza yosh,

Boʻylakim, paydo boʻlur yulduz, nihon boʻlgʻoch quyosh.

Lutfiy bu gʻazalni eshitish bilan hayrat dengiziga choʻmib, shunday deydi: “Volloh, agar muyassar boʻlsa edi, oʻzimning oʻn-oʻn ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu gʻazalga almashtirardim va bu ishning yuzaga chiqishini zoʻr muvaffaqiyat hisoblardim” [Xondamir, 2018: 43-44].

– Bobur 12 yoshida taxtga chiqadi: “Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati birlan seshanba kuni, ramazon oyining beshida, tarix sekkiz yuz toʻqson toʻqqizda Fargʻona viloyatida oʻn ikki yoshta podshoh boʻldum” [Bobur, 2002: 64].

4. Davlat arbobi boʻlishgan:

Alisher Navoiy qariyb 30 yilga yaqin turli davlat ishlari (vazir (1472-1476), Astrobod hokimi (1487-1488) ni boshqardi. Sulton Husaynning eng yaqin maslahatchisi sifatida oʻzining butun kuch-quvvatini mamlakat obodonchiligi, el farovonligi uchun sarfladi. Shaxsiy mablagʻi hisobidan Hirot va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madarasa, 52 ta rabot, 20 ta hovuz, 6 ta koʻprik va toʻgʻon, juda koʻp masjidlar bunyod etdi.

Bobur – shoh. U 12 yoshidan boshlab umrining oxirigacha urush va yurishlar, davlat va mamlakat taqdiri bilan band boʻldi. Yagona maqsadi yirik va

mustahkam markazlashgan davlat tuzishdan iborat edi. Ammo bu maqsadi o'zi tug'ilib o'sgan yurtda emas, balki ancha olisda – Hindistonda amalga oshdi.

5. G'urbatda – Vatandan uzoqda yashashgan: Navoiy – Astrobodda; Bobur – Afg'oniston, Hindistonda [Oybek, 2012: 496], [Qodirov, 2018: 568].

6. Xalqparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi yuksak g'oyalarni ulug'lashgan, targ'ib qilishgan va ularni amalga oshirishda haqiqiy shaxsiy namuna ko'rsatib, el o'rtasida obro' qozonishgan:

“Arslonqul g'isht, tosh tashib chiqayotganlarga ko'zi tushib, ish boshlaganidan ogohlandi. “Kechirgaysiz!” – deb yugurdi. Yuqoriga g'isht ko'tarib chiqqanda Arslonqul kuchli taajjubda qoldi: haligi odam qimmatbaho to'nni etaklarini beliga qistirib, yeng uchlarini shimargan holda astoydil ishlamoqda – ustalarga g'isht, ganj uzatmoqda edi. Yigit ko'z uchini qisib unga tikildi-da, yelkasini qisdi: “Katta amaldorlarga o'xshaydi-ku, ammo fe'li boshqacha ekan. Qani, shu ishlashda birpas tob berarmikan!”.

Arslonqul har gal unga zimdan bir qarab qo'yar edi. Ammo uning ishida sustlashish emas, aksincha, terlagan yuzida borgan sari ishga muhabbat, qiziqish sezdi. Nihoyat, Arslonqul chidamadi-da, o'zi bilan yonma-yon tushib boruvchi bittasini turtdi va qo'li bilan yuqoriga ishorat qildi.

– Ul janob kim bo'ldi? Juda berilib ishlayapti-da. Yo bizga o'xshash sarkardan qo'rqadimi? Xo-xox-xo.

– Voy gumroh, tanimaysanmi hali! – deb qadamini sekinlatdi u.

– Yo'q, kim?

Navoiy hazratlari-yu! Ko'pincha kelib shunday g'ayrat bilan ishlaydilar.

Arslonqul cho'chib to'xtadi: “Navoiy!” dedi u o'z-o'ziga va orqaga qayrilib, allaqanday toshqin mehr bilan ko'zlarini yuqoriga qadadi.” [Oybek, 2012: 205-206]

Bobur 1507-yil qishida o'zining kichik beklari bilan tog' yo'li orqali Hirotdan Qobulga borayotganda juda qalin qor va bo'ron hujumiga duch keladi. Ana shu qorli dovonni bir hafta davomida bosib o'tishga to'g'ri keldi. Bobur boshliq 15-20 kishi oldinda borib, tayoqlar, belkuraklar bilan qorni tepkilab yo'l

ochadilar va odamlar qadamma-qadam ilgari siljiydilar. Bu haqda, shoir “Boburnoma”da shunday yozadi: “Bir haftacha yovuq qor tepib, kunda bir shar’iy (taxminan, 3 kilometr), bir yarim shar’iydan ortiq ko’chulmas edi. Qor tepar kishi men edim, o’n-o’n besh ichki bila va yana Qosimbek edi ikki o’g’li bila...” [Bobur, 2002:192].

To’rt-besh kun shu tariqa yo’l bosib, Bobur va odamlari “Havoli Qutiy” degan g’orga yetib keladilar. Ko’pchilik odamlar g’orga darhol kiradilar. Bir qancha odamlar tashqarida qoladilar. Bobur ko’pchilik tashqarida bo’lganda mening ichkariga kirishim insofdan va vijdondan emas degan xayol bilan g’or yonida qorni kovlab o’ziga pana joy yasaydi, qor devoriga suyanib dam ola boshlaydi. Kuchli bo’ron bilan qor yog’moqda edi. Bir-ikki soatda boshida va yelkasida qalin qor yuki hosil bo’ladi. Fop ichidagilar “joy keng, hammaga yetadi” deb qayta-qayta qichqirganlaridan so’nggina ichkariga kiradi va tashqarida qolgan odamlarni ham olib kiradi. Shu kunlarda ba’zi odamlar qo’lini yoki oyog’ini sovuqqa oldiradi. Bobur esa ushbu kecha qulog’iga sovuq ta’sir qilganini keyinchalik “Boburnoma”da qayd qiladi [Bobur, 2002: 193].

7. Raqiblariga, ta’bir joiz bo’lsa, o’z dushmanlariga munosabatlari ham juda o’xshash, hayratlanarli va ibratli:

Husayn Boyqaro saroyidagi fitna va ig’volarning avj olgani, shoirning ukasi Darvesh Alining jazolanishi, Abdurahmon Jomiy, Mo’minmirzo, Sabuhiylarning o’limi kabi voqealar Navoiyni qattiq iztirobga soladi, qaddini bukadi. Buning sabablarini bilsa-da, sukut saqlaydi, sabr qiladi, adovat saqlamaydi, xiyonat qilmaydi, xatolarni tuzatishga, barcha muammolarni ijobiy yo’l bilan hal qilishga urinadi va kech bo’lsa-da o’z maqsadiga erishadiki, bu ham buyuklikning belgisidir.

Shu o’rinda “Navoiy” romanidan dalil keltirish ibratlidir: Majididdinning ig’volari fosh bo’lib, vazirlikdan chetlashtiriladi, mol-mulki musodara qilinadi. U ana shunday kunlarning birida kechasi To’g’onbek bilan gaplashdi: “Umrimdagi eng katta xato – Alisher Navoiyga dushmanligim bo’ldi. Men yigirma yildan ortiq

Alisherga qarshi harakat qildim – ne ishlar qilganim sizga ma'lum – Alisher yuragi toza odam edi.

– To'g'ri, – dedi To'g'onbek boshini quyi solib. – Alisher Navoiy tulkilikni bilmaydi. Yuragi o'bdon sof odam.

– Balli! – dedi Majiddin xo'rsinib, – Uning qahri ham, rahmi ham samimiy. Har vaqt samimiy. Ne qilaylikki, vaqt o'tdi, xatoni tuzatib bo'lmaydi” [Oybek, 2012: 408].

Shoh Bobur esa, o'zini zaharlab o'ldirmoqchi bo'lgan Malika Bayda (Ibrohim Lo'dining onasi)ni jazolamaydi, aksincha, unga muruvvat ko'rsatadi, yomonlikka yaxshilik mard kishining fazilati ekanini isbotlaydi. “Yulduzli tunlar” romanidan bu voqea quyidagicha tasvirlanadi:

“... Bizni zaharlab o'ldirmoqchi bo'lgan bu makkor xonim uchun eng og'ir jazo shuki, biz mana, tirikmiz! Bu xonimning o'zi-yu o'g'li qilolmagan ishlarni biz qilmoqdamiz!... Malika bizning bundan keyingi zafarlarimizni ham ko'rsin. Yomonlikka yaxshilik mard kishining qo'lidan kelishiga amin bo'lsin. Agar malikada vijdon bo'lsa, o'g'li qilmay ketgan ishlarni biz qilganimizni ko'rib vijdoni azoblansin. Agar vijdoni bo'lmasa, ichida faqat baxillik chayonlari bo'lsa, bu chayonlar o'zini chaqib yotaversin. Malikaga bundan o'zga jazo munosib emasdir!” [Qodirov, 2018: 527-528].

8. Navoiy “Xamsa” asari bilan mashhurlikka erishgan:

*Emas oson bu maydon ichra turmoq,*

*Nizomiy panjasiga panja urmoq.*

*Kerak sher ollida ham sher jangi,*

*Agar sher o'lmasa, bori palangi.*

Buyuk so'z san'atkori 1483-1485-yillarda yozgan 52 ming misralik “Xamsa” – o'zbek mumtoz adabiyotining cho'qqisi, ma'naviyat xazinasi, jahon adabiyotining noyob va o'lmas durdonasiga aylangan asari bilan buyuk xamsanavislar qatoridan munosib o'rin egallagan.

Bobur “Boburnoma” asari bilan shuhrat topgan:

*Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,*



*Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum.*

*Har kim bu "Vaqoe'"ni o'qir, bilgaygim,*

*Ne ranj-u ne mashaqqat-u ne g'amlar ko'rdum.*

“Boburnoma” – memuar asar. Ma'lumotlar to'g'ri va haqqoniy yozilgan ushbu asarning 68 ta nusxasi bor, 2568 ta qo'lyozmasi mavjud, 31 ta tilga tarjima qilingan, 1545 nafar kishining nomi yoritilgan, 400 taga yaqin joy nomlari tilga olingan. Jumladan, Namanganning Axsi, Koson, Pishxoron, Pop qo'rg'oni, G'azna Namangon kabi hududlar nomi va behi, noshpoti (nok, nashvati), olu-bolu (olcha, olvali) kabi mevalari nomi ham tilga olingan.

9. O'zbek adabiyotida juda kam uchraydigan masnu' she'r (“mas'nu” – arabcha san'atli, sersan'at degani. Ham gorizontal, ham vertikal tomonidan o'qish mumkin bo'lgan she'r. U murabba' (to'rtburchak), musoviyat tarafayn (ikki tomoni ham teng) degan atamalar ham bilan yuritiladi) namunasi har ikki so'z san'atkori ijodida alohida o'rin tutadi:

Navoiy:

***Dilbar** / erur / tengsiz / jahonda /,*

***Erur** / anga hamma / **xushtoru** / banda /.*

***Tengsiz** / xushtoru / **shaydosi** / manam /,*

***Jahonda** / banda / **manam** / anga /.*

Bobur:

***Yetti meni** / o'lturg'ali / **oxir** / hijron /,*

***O'lturg'ali** / qo'yima / **meni qutqar** / ey jon /.*

***Oxir** / meni qutqar / **bu firoq** / asru yomon /,*

***Hijron** / ey jon / **asru yomon** / ohu fig'on /.*

10. Ular haqida yirik nasriy asarlar yaratilgan:

– Navoiy haqida: “Navoiy” (Oybek), “Navoiy va rassom Abulxayr” (Omon Muxtor) romanlari;

– Bobur haqida “Yulduzli tunlar”, Avlodlar dovoni” (P.Qodirov), “Boburiynoma” (Xayriddin Sulton) va xorijda 30 tadan ortiq roman mavjudligi shular jumlasidandir (10 tasi “Bobur – yo'lbars” deb nomlangan).

11. Hayotlarining so‘nggi kunlarida ham yuksak insoniy fazilatlarini namoyon etadilar.

1500-yil dekabrning oxirlarida Navoiy og‘ir kasalligiga qaramay, do‘sti Husayn Boyqaroni Astroboddagi g‘alaba bilan qutlash, kutib olishga chiqadi. Sohibqiron – Husayn Boyqaroning dabdabali va ko‘rkam taxtiravoni ko‘ringan paytda Mir Alisherning boshi aylanib ketadi. Bu holatni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Xondamir shunday hikoya qiladi: ”...u zotning muborak boshi aylanib qoldi. Olijanob Amir (Navoiy) Xoja Shahobiddin Abdulloni o‘z yaqiniga chaqirib: ”Meni saqlashdan g‘ofil bo‘lmang, ahvolim o‘zgarib”, qoldi dedi. Shu paytda a‘lo hazrating qo‘lini o‘pishga yetishmoq uchun otdan tushdi. To‘satdan yetishgan kasallikning og‘irligi oxirgi chekka borib qolgani va yurishga mador qolmaganidan, mazkur amir va Mavlono Jaloliddin Qosim qo‘ltiqlariga kirib, shu yo‘sinda ilgari yurib, boshini baland darajali podsho quchog‘iga qo‘ya oldi... Ul buyuklik va dabdaba doirasining markazi ahvolda o‘zgarish ko‘rib, a‘lo hazrat g‘oyatda qayg‘uli va g‘amgin bo‘ldi. Bu yer to‘xtash o‘rni bo‘lmaganlikdan ahvol so‘rash va iltifot marosimlaridan keyin o‘tib ketdi. Shu onda bu kasal sakta (his va harakatning to‘xtab qolish kasali)ga aylanib, oliy nasabli Amirda qaytib harakat qilish va so‘zlashga majol qolmadi. Kasallik shiddati orta bormoqda edi. Natijada mazkur oyning o‘n ikkinchisida yakshanba (hozirgi yil hisobida 1501-yil 3-yanvar) kuni erta bilan boqilik naqdini ruh oluvchiga topshirdi va hayot gulshani bulbulini oliy chamanga jo‘natdi...” [Xondamir, 2018: 154-161].

Uning o‘limidan tosh yurakli, temir yurakli kishilar ham yig‘laydilar. Sulton Sohibqiron – Husayn Boyqaro uch kungacha u ahli dillar boshlig‘i Alisherning uyida motam tutib o‘tirdi. Bu xislat, albatta, do‘sti Navoiy shaxsidan o‘tgan bo‘lsa, ne ajab.

Bobur hayotining so‘nggi yillari – oila a‘zolari bilan vidolashuvi “Yulduzli tunlar” romanida juda ta’sirli ifodalangan:

Bobur (o‘g‘li Humoyunga):

– Temuriylarning ko‘pchiligi... fidoyilikni unutib... yo‘q bo‘lib ketdi. O‘g‘il otani o‘ldirdi. Og‘a iniga xiyonat qildi... Oqibatda... bari razolatning qurboni

bo'ldi... Undan ko'ra... yaxshilikning fidosi bo'lgan afzal emasmi?...Mana amming Xonzoda begim... Samarqandda meni qutqarib o'zini asoratga soldi. Bu fidoyilik meni hamisha... shunday bo'lishga undab keldi... Sen ham endi inilaringu... avlodlaringni mardlikka... fidoyilikka o'rgatgin.

... “Sendan iltimosim, – deb davom etdi Bobur. – Buni (“Vaqoi” – “Boburnoma” ni) avlodlaring ham o'qisin... Xatolarimni takror etmanglar. Yaxshi ishlarim... oz bo'lsa, ko'paytiringlar. By kitobdan nusxalar ko'chirtirib, Samarqandga... Toshkentga... Andijonga... munosib odamlarga yuborgin... Men tug'ilgan yurt bilan aloqani uzmaydilar. Shoyad men bitgan kitoblar... ikki oradagi aloqaning rishtalari bo'lsa...” [Qodirov, 2018: 560].

Xulosa qilib aytganda, tarixiy, ilmiy, badiiy asarlarda ifodalangan ulug' bobolarimiz shaxsiyatidagi bu mushtarak oliyjanob fazilatlar zamondoshlari uchun ham, uning avlodlari uchun ham, ibrat, namuna maktabi – tiriklik, buyuklik, mangulikning betakror timsoli bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 19 мартдаги видео-селектор йиғилишида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил 20 март.
2. daryo.uz/k/2020/05/20/toshkentda – adiblar – xiyoboni – ochildi – foto/
3. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.
4. Каримов И. Ватан ва халқ мангу қолади. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.
5. Каримов И. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
6. “Edu.uz” rasmiy kanali. “@ covid 19 ni engamiz”. 2020-yil 6-aprel.
7. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma – Toshkent: O'qituvchi NMIU, 2017. – B. 192, 193.
8. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси / Таҳрир ҳайъати. Қайюмов ва бошқ. Бош муҳаррир: А.Аъзамов. – Тошкент: Шарқ”, 2014. – 744 б.
9. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002. – 367 б.
10. Navoiy, Alisher. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik: 9-jild. Majolis un-nafois. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 768 b.
11. Oybek. Navoiy. Roman. – Toshkent: Sharq, 2012. – 496 b.
12. Султон Хайриддин. Бобурийнома (Матн). Маърифий роман / Х.Султон. – Тошкент: Маънавият, 2019. – 464 б.
13. Xondamir, G'iyosiddin. Makorim ul-axloq: tarixiy asar. – Toshkent: Yosnlar nashriyot uyi, 2018. – 232 b.
14. Қодиров П. Юлдузли тунлар: Бобур: Роман. – Тошкент: Ўқитувчи НМИУ, 2018. – Б. 568 б.

## NODIRA LIRIKASIDA “KO‘NGUL” OBRAZINING MATNIY-BADIIY TALQINI

**Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna,**  
*Alfraganus Universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori*  
E-mail: [s.eshonqulova@afu.uz](mailto:s.eshonqulova@afu.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shoira Nodira lirikasida ko‘ngul obrazi va tasvir mahorati tahlil ostiga olingan. Shoira lirik qahramonining ko‘nguli jonga, jonning ko‘ngulga bog‘liqligi, binobarin, jon insonning tirikligini ta‘minlasa, ko‘ngul jonning holatini belgilashi badiiy bo‘yoqlarda ifoda qilinishi tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Nodira, lirika, ko‘ngul obrazi, timsol, badiiy mahorat.

**Abstract:** This article analyzes the image of the “ko‘ngul” – heart/soul – and the art of depiction in the lyrics of the poetess Nodira. The study examines how the poet artistically expresses the connection between the lyrical hero’s ko‘ngul and the soul, as well as the soul’s dependence on the ko‘ngul. In particular, while the soul ensures human life, the ko‘ngul determines the state of the soul, and this relationship is conveyed through vivid artistic imagery.

**Keywords:** Nodira, lyric poetry, image of ko‘ngul, symbol, artistic mastery.

Ma’lumki, Sharq mumtoz she’riyati mazmun va shakl, poetik tasvir yo‘li, vosita, obrazlar olami e’tibori bilan o‘ziga xos bir she’riyatdir. Lirikaning noyob yaratig‘i, she’r Alloh inoyati – g‘ayb marhamatining tuyg‘u-ehtiros – kechinmalar, o‘y-fikr, xayollar shaklidagi betakror topilma. Shu o‘rinda aytish mumkinki, she’r zahmati kimlar uchundir adoqsiz qiynoqlar silsilasi, kimlar uchundir zavq-shavq, rag‘bat manbai bo‘lmasin, bundan qat’iy nazar, u ijodkor qalb amri va inson irodasini namoyon etadigan sirli-sehrli ko‘ngul yozuqlaridir. Shoir yoki shoira uchun bu qismat uni qiynoqlarga solsa-da, azob bersa-da, satrlar silsilasida uning joniga huzur bag‘ishlaydi:

*Ko‘ngulni xobi g‘aflatdin dame bedor qil, yo rab,*

*Oqorg‘on qo‘zlarimni mahrami diydor qil, yo rab....*

*G'azal bunyod qildi, Nodira yorig'a arz aylab,  
Ko'ngulda bog'lagan mazmunini izhor qil qil, yo rab*

*[Nodira, 1968:68-69].*

G'azal baytlaridan ko'rinib turibdiki, shoira Allohga murojaat qilish orqali qalbidagi kechinmalarini izhor qilgan. Oshiqning ko'ngulini g'aflatdan uyg'otishni Yaratgandan so'rar ekan, uning ishqida kuygan dildorning qop-qora bo'lishi kerak bo'lgan ko'zlari, yor diydoriga intizorlikdan kuta-kuta "oqorg'on"iga, shu bois uning qiynoqlari iztiroblarini Yaratgandan yori ko'ngliga solib, muhabbat tafti olovlarini qalbi hukmdoriga yetkazishni o'tinib so'ramoqda. Bu holatni tasvirlashga fusunkor so'z javhari tizmasidan iborat bo'lgan g'azal bunyod bo'lganidan, bir oz bo'lsa-da, lirik qahramon yuragi taskin topmoqda. Shu o'rinda "...qalb kechinmalari, dard va tuyg'ulari, harakat va manzaralarini tasvirlashda Navoiy nihoyatda yuqori natijalarga erishgan" [Saloxitdinova, 1993:88-104], – degan olimaning qarashlarini hech ikkilanmay Nodira ijodiga ham tadbqiq etish mumkin deb, o'ylaymiz.

Darhaqiqat, ijodkor so'zlar shodasidan o'ziga panoah istaydi, o'sha joydagina ko'ngli orom oladi yoki ozorlanadi. Ya'nikim, ko'ngul orqaligina ijodkor o'zi va o'zgalar qalbiga tashrif buyura oladi. Shoira e'tiroficha:

*Ko'ngulni qon etti furqat ibtidosidin meni,  
Jona yetkurdi sanam beintihosidin meni...*

*G'am yemoqqa jonu qon bo'lmoqqa ko'ngul qolmadi,  
Ey ajal, sof aylag'il gardun jafosidin meni [Nodira-Komila, 2001:295].*

Ya'ni shoira talqiniga ko'ra, inson qalbining taxtgohi ko'ngul bo'lib, unda neki yuz bersa, kishining hayotida ham shu holat – yaxshilik, obodlik bo'lsa, turmushi yaxshiligu farovonlik, bordi-yu buning teskarisi bo'lsa, bu ham hayotining hamma tomonlariga ta'sir etmay qo'ymaydi. Lirik qahramon qalbi yor ayrilig'idan nihoyat darajada kuygani, joni azobda qolib, hattoki endi bu g'amni ko'tarishga majoli yetmasligi, ya'nikim yorsiz, uning muhabbatsiz tanasida qon bo'lmasligi, qon bo'lmasa jon bo'lmasligini aytar ekan,

ajalga murojaat qilib, bu jafolardan o'zini qutqarishni so'ramoqda. Binobarin, *"poetik obraz shoirning fikridan ko'ra, notinch ruhi, dardli qalbiga mansub. Obraz mundariyasi hamisha ruh va qalb haqiqatini ifodalaydi"* [Haqqul, 1991:137]. Shoir g'azalidagi ushbu baytlar ham, adabiyotshunos olimning qarashlari naqadar to'g'ri ekanligini ko'rsatadi:

*Ko'ngul sirini tilg'a kelturmakim,*

*Chiqib lablaringdin bo'lur elga fosh* [Nodira-Komila, 2001:188].

G'azal matnidan ayon bo'lib turibdiki, *"...she'rxon ko'ngulida tuyg'ular tug'yonini vujudga keltiruvchi nazm durdonasiga aylanishida unda qalamga olingan ishq mavzucining ham ko'lami kengligi asos bo'ldi... hijron iztiroblarida shirin jonining o'rtanishi-yu, sog'inch hislarining asiriga aylanishini so'zda namoyon"* [Эшонкулов, 2020:16].

Sharq adabiyotida ko'ngul obrazining g'unchaga qiyoslanishini e'tirof etgan olim I.Adizova *"Uvaysiy esa unga (ko'ngulga, sharh bizniki) kutilmagan sharh bergan:*

*Ko'ngulkim, bir qushi vahshiy, ani rom etkali go'yo*

*Muhabbatdin qafas aylab, visolin dona tutmishlar.*

*Shoira ushbu baytda ko'ngulni vahshiy qushga o'xshatib, u muhabbat va visol vositasida rom etilishini ta'kidlaydi. Ko'ngulni g'unchaga o'xshatish, uning rangi va qayg'usini ifodalasa, vahshiy qushga o'xshatish esa uning tabiatini yoritadi"* [Adizova, 2020:17].

Nodira lirikasini kuzatganimizda ham, ko'ngulni bir necha o'rinda g'unchaga qiyoslaganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, shoira bir g'azalida:

*Fayzi lutfing birla ochildi ko'ngullar g'unchasi,*

*Yo bahoristoni davlat, yo gulistondurmusen?...*

*Nodira, ravshandur iqbolim chog'i vasl aro,*

*Ko'zim ichra nur yo ko'nglum aro jondurmusen?*

[Nodira, 1968:204-205].



Ma'lumki, Sharq she'riyatida ko'ngul orqali ijodkorning o'ziga va o'zgalarga murojaat qilishi an'anaviy hodisa bo'lib, ko'ngul shoiraning **"men"**i bilan barobar bo'lib, **oshiq, orif, do'st** timsolida ham kelishi mumkin. Demak, shoira g'azallaridagi ko'ngulni quyida shoiraning **"men"**i, **oshiq, orif, do'st** timsollariga bo'lish mumkin. Bayt:

*Ey ko'ngul, yor uchun jahondin kech,*

*Havasi bog'u bo'stondin kech [Nodira-Komila, 2001:98].*

Ushbu baytda, biz ko'ngulni shoiraning "men"i tarzida kelganligini ko'rishimiz mumkin. Shoira o'z qalbiga murojaat qilib, suyukli dil tortar yaqin suyanchiq kishisi uchun barcha hoyu havaslardan kechsa bo'ladi, – degan g'oyani ilgari surmoqda. Shu o'rinda hech ikkilanmay aytish mumkinki, *"Inson hayotiga xos barcha tuyg'ular, hissiyot va kechinmalar ko'ngulda tug'ilib, ko'ngulda yashaydi. Bu hislar qancha pok va musaffo bo'lsa, ko'ngul ham shuncha nurlanib, inson ma'naviy va ruhiy yuksaklikka ko'tariladi"*[Bozorova, 2002:94]. Shoira she'riyatida bu kabi o'tliq "men"ini ko'rsatuvchi yoniq misralar ko'plab uchraydi. Shunday g'azallaridan yana biri:

*Ko'zim yo'lingdadur, ey sarvi guluzorim, kel,*

*Ko'ngulda qolmadi sabru qaror, yorim, kel...*

*Qoshing qilichi-yu mujgon xadangi birla bukun,*

*Ko'ngul diyorini fath ayla, shahsuvorim, kel*

*[Nodira-Komila, 2001:238].*

Shu bilan birgalikda, "ko'ngul"da oshiq timsoli ifodalagan o'rinlarni ham uchratish mumkin:

*Ey ko'ngul, fig'oningdin tiyradur falak qasri,*

*Bu binoni vayron qil, ishq uyini obod et...*

*Nog'ah ul jahon shohi kelsa, ey ko'ngul, borg'il.*

*Shah inonini ushlab, hajr ilgidin dod et [Nodira, 1968:94].*

Darhaqiqat, oshiqning muhabbati, ohu fig'onidan falak qasri ham tebranayotgani, hech qaysi qasr yor taftidek halovat bermasligi, shuning uchun

ularning barchasidan voz kechish, faqat muhabbat dargohini o'ziga oshyon qilishlikka oshiqni chaqiradi. Oshiqqa qalbi sultoni, shohi kelsa, unga inonish, hajr azobidan qutilib, suyaganiga yetish lozimligini uqtiradi. Binobarin, ko'ngul uchun hamdam, malham topish qiyin, agar shunday inson topilsa, bu dunyo havaslaridan kechib, yor etagini tutmoq kerak, – deydi.

Shoiraning ko'pgina g'azalida qo'llangan ko'ngul "orif"lar timsolida ifodalanganini ko'rish mumkin. Ma'lumki, Ka'ba oriflar borishni maqsad qilgan, gunohlardan poklaydigan oliy bir ziyoratgohdir. Shoiralar lirik qahramoni oriflar Ka'basiga tashrif buyurib, Makka taxtini tavofi aylab, Sulaymon etmasa bo'lmasligini aytadi. Orif uchun Ka'ba hilol oy kabi muhtaram aziz ekan, o'ning yuziga jonni qurbon etish kerak, – degan qarashni oldinga suradi. Bayt:

*Ko'ngullar Ka'basin bir bir ziyorat ayladim, emdi,*

*Tavofi Makka taxti Sulaymon etmasam bo'lmas.*

*G'araz iydi visolingdur ko'ngulg'a, ey hilol abru,*

*Yuzingni oyig'a jonimni qurbon etmasam bo'lmas*

*[Nodira-Komila, 2001:179].*

Shoiraning nuqtayi nazariga ko'ra, oriflar qasri muhabbat bilan barpo bo'lgan, ularning ehtirom va sa'y-harakatlari, mehrlari bilan to'ab od, yashnab turadi. Ijodkor dunyoni makkor zoli bevafoqligini zorlanar ekan, unda oriflarning ahvoli tangligidan ozorlanadi. "Suv keltirgan xoru, ko'za sindirgan aziz" maqolining mazmun-mohiyatini vafo bilan oriflarni xursand aylamaganida ifodalab beradi. Bayt:

*Ko'nglum aylar ko'zi oldida shahodat takror,*

*Kofir ilkida o'lan zor musulmon yanglig' [Nodira-Komila, 2001:205].*

Orif barcha oldida shahodat keltirib, el-ulus uchun yonib yashasa-da, izzat ko'rmasligini "Kofir ilkida o'lan zor musulmon yanglig'" misralarda obrazli tasvirlar ekan, qaysidir ma'noda insonlarni ogohlikka, hushyorlikka chaqirib, olimu fuzalo, oriflarni sevib, ularning hurmatini joyiga qo'yish lozimligini aytadi.

Shoira ijodida ko'ngul poetik obrazi do'st timsolida ham ifodalangan o'rinlarni ko'rish mumkin. Bayt:

*Ey ko'ngul, agar senga yor vaslidur maqsad,  
Tark aylab olamni azmi ko'yi jonon et...*

*Yor yodi bu ohshom ko'nglum ichra mehmondur,  
Ey ko'zum, dame anda yosh to'kub charag'on et*

[Nodira-Komila, 2001:86].

G'azal matnidani ham ko'rinib turibdiki, shoira oshiqqa-do'stga murojaat qilib, ey ko'ngul agar sening maqsading yor vasliga yetish bo'lsa, barcha narsadan muhabbating xayoli ustun, aziz bo'lsin. Chunki sen uchun aziz muhabbating yodi bilan ekansan, xursandchilik sen bilan bo'lg'ay, uning uchun baxtiyorlik yoshlari to'ksang arziydi. Bu yoshlar hayot yo'lingni charog'on etadi, – deya xitob qiladi.

Umuman, shoira yoniq she'riyatini kuzatar ekanmiz, uning ijodida birgina ko'ngul ohorli turfa ma'nolarni anglatganini ko'ramiz. Shoira lirikasida ko'ngul obrazi lirik qahramon **“men”i, oshiq, orif, do'st** timsollari tasvirida jilvalanib, ko'ngulning Nodira she'riyatiga kirib kelishining o'ziyoq, lirik qahramonning qalb va dil iztiroblarini, ko'ngul ehtiyojlarining badiiy bo'yoqdorligini ta'minlovchi omil ekanligidan dalolat.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova I. Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi: Fil.fan.dokt. (DSc) dis. avtoref. –Toshkent, 2020. –B. 17.
2. Bozorova N. A.Navoiy g'azallarida ko'ngul obrazi(“Badoye' ul- bidoya” devoni asosida): Fil.fan.nom.dis. avtoref. –Toshkent, 2002. –B.16.
3. Nodira. Asarlar. 1-jild. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1968. – B. 68-69.
4. Nodira-Komila. Devon. –Toshkent: Xalq merosi, 2001. – B. 295.
5. Saloxitdinova D. “Badoye' ul-bidoya” devoni va badiiy san'atkorlik masalalari: Fil.fan.nom.dis. avtoref. –Samarqand, 1993. –B. 88-104.
6. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. –Toshkent, 1991. –B.137.
7. Eshonqulov H. Alisher Navoiy g'azaliyotida ishq poetikasining qiyosiy-tipologik tahlili (“Xazoyin ul-maoniy” misolida): Filol. fan. dokt. (DSc) ... diss. – Buxoro: 2020. –B.16.

## O‘ZBEK JADID ADABIYOTI VA UNING MANBALARIGA DOIR IZLANISHLAR

**To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich,**

*BuxDU professori, filologiya fanlari doktori*

[toxsanovqahramon@mail.ru](mailto:toxsanovqahramon@mail.ru)

**To‘rayeva Umriniso Rahmatovna,**

*BuxDU dotsenti, PhD*

[niso2019@mail.ru](mailto:niso2019@mail.ru)

**Annotatsiya.** Yangi o‘zbek adabiyoti milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va ozodlik g‘oyalari ilgari surgan o‘zbek adabiyotining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davr adabiyoti o‘zbek adabiyoti tarixida g‘oyat muhim o‘rin egallaydi. Jadid adabiyoti nafaqat badiiy tafakkurning yangilanishiga, balki xalqning siyosiy, ijtimoiy va madaniy ongining shakllanishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining zamonaviy taraqqiyot yo‘liga chiqishida muhim omil bo‘ldi. Bu davr adabiyoti jug‘rofik jihatdan ham avvalgi davr adabiyotidan sezilarli darajada farq qiladi. Milliy uyg‘onish davriga qadar o‘zbek adabiyoti asosan uch xonlik – Buxoro, Xiva va Qo‘qon hududlari doirasida rivojlangan bo‘lsa, jadid adabiyoti Rossiya imperiyasiga qaram Turkiston general-gubernatorligi hamda unga vassal bo‘lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlarida shakllandi. Bu siyosiy va ijtimoiy sharoit adabiy asarlarning mavzu-mundariyasi, g‘oyaviy yo‘nalishi va til xususiyatlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Jadid adabiyotida xalqni ilm-ma’rifatga chaqirish, jaholat va qoloqlikka qarshi kurashish, milliy ozodlik va taraqqiyot g‘oyalari asosiy o‘rin tutdi. Jadidchilik harakati faqat adabiyot doirasida cheklanib qolmadi. U maorif, matbuot, teatr, siyosat va madaniyat kabi ijtimoiy hayotning barcha qatlamlariga kirib bordi. Jadidlar yangi usuldagi maktablar ochish, gazeta va jurnallar nashr etish, teatr san’atini rivojlantirish orqali xalqni uyg‘otishga harakat qildilar.

**Kalit so‘zlar:** jadid, jadidchilik harakati, publististika, jadid matbuoti, ma’naviy-ma’rifiy, drama, milliy o‘zlik, zamonaviy tafakkur, milliy istiqlol g‘oyalari.

**Abstract.** Jadid literature is regarded as one of the most significant stages in Uzbek literature, promoting the ideas of national awakening, enlightenment, and freedom. The literature of this period occupies a special place in the history of Uzbek culture and played a crucial role in shaping the social and political consciousness of the people. Emerging in the late nineteenth and early twentieth centuries, the Jadid movement became an important factor in the modernization of the peoples of Turkestan. This literary period also differed geographically from earlier stages of Uzbek literature. Before the era of national awakening, Uzbek literature mainly developed within the territories of the three khanates — Bukhara, Khiva, and Kokand. However, Jadid literature was formed within the Turkestan Governor-Generalship under the Russian Empire, as well as in the vassal territories of the Emirate of Bukhara and the Khiva Khanate. These political and social conditions strongly influenced the themes, ideological content, and linguistic characteristics of literary works. The main ideas of Jadid literature included enlightening the people, combating ignorance and backwardness, and promoting national freedom and social progress. The Jadid movement was not limited solely to literature; it extended to education, journalism, theater, politics, and culture. Jadids established new-method schools, published newspapers and journals, and developed theatrical art in order to awaken national consciousness among the people.

**Keywords:** Jadid, Jadid movement, journalism, Jadid press, spiritual and educational, drama, national identity, modern thinking, ideas of national independence.

Jadid adabiyoti manbalarini o'rgangan jadidshunos olim Begali Qosimov milliy uyg'onish davri adabiyotini ikki bosqichga ajratadi:

“1. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining ilk bosqichi: manbalari va yuzaga kelishi;

2. Milliy va ijtimoiy kurashlar davri: taraqqiyoti va tugatilishi”.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Qosimov.B va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B.2.

Jadid adabiyoti mumtoz an'analarni yangi zamon talablari bilan uyg'unlashtirib, milliy o'zlikni anglashga xizmat qildi. Bu davr adabiyoti yuzaga kelishining ham o'ziga xos bir qancha sabablari mavjud. Shulardan biri, davr hayotiga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatdir. Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi natijasida xalq og'ir mustamlakachilik zulmi ostida qoldi.

Jadid adabiyoti bu o'zbek, umuman, Turkiston adabiyotida tub burilish yasagan, ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalari bilan yo'g'rilgan yangi yo'nalishdir.

Bu davr adabiyotining bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

**1. Ma'rifatparvarlik ruhi.** Jadid adabiyotining markazida "xalqni uyg'otish" g'oyasi turadi. Bu shunchaki ilmni targ'ib qilish emas, balki jamiyatni tubdan o'zgartirishga qaratilgan edi. Abdulla Avloniy asarlarini olib qaraydigan bo'lsak, ularda ilmi va tarbiyali inson jamiyatni rivojlantiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Jadidlar fikricha, jaholat – asosiy muammo, ilm bo'lsa unga qaratilgan asosiy yechim hisoblanadi. Shu sababli milliy uyg'onish davri adabiyoti asarlarida maktab, ta'lim, tarbiya masalalari doimo markazda turadi. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida keltirilgan "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"<sup>1</sup> jumllarini misol qilib keltishimiz mumkin. Bu jumla jadid adabiyotining mohiyatini juda aniq ifodalaydi. Ma'rifatparvar bu jumla orqali faqat bitta inson haqida emas, balki butun millat taqdiri haqida so'zlaydi.

**2. Real hayotni aks ettirish.** Oldingi mumtoz adabiyotda ko'proq ideal obrazlar va ramziy ifodalar ustun bo'lgan bo'lsa, jadid ma'rifatparvarlari o'z asarlarida real ijtimoiy hayotni ko'rsatishga harakat qiladilar. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asarida savodsizlik, noto'g'ri tarbiya va ijtimoiy beparvolik kabi real hayotga xos bo'lgan muammolar ochiq tasvirlanadi. Bunday ruhda yozilgan asarlar insonlarni o'ylashga, to'g'ri fikr yuritib farzandlariga mukammal tarbiya berishga undagan.

---

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B.5.



**3. Oddiy va tushunarli tilde yozilishi.** Jadidlar adabiyotni faqat ziyolilar uchun emas, balki oddiy xalq uchun ham tushunarli bo'lishi lozimligini maqsad qilganlar. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti asarlarida murakkab arabcha-forscha iboralar kamaytirildi, qisqa va aniq ifoda uslubi qo'llanildi. Bir so'z bilan aytganda, jonli xalq tiliga yaqinlashildi. Bu holat jadidlarning she'rlarida yaqqol aks etgan. Cho'lpon she'rlarida til sodda, lekin chuqur ma'noli bo'lib, keng ommaga ta'sir qilgan. Masalan, "Buzilgan o'lkaga" she'rini olaylik.

*Nima uchun yovlaringni bir zamon*

*Yo'q qilgunday temirli o'ch yo'q senda?*

*Ey, har turli qulliklarni sig'dirmagan, hur o'lka,*

*Nega sening bo'g'zingni bo'g'ib turar ko'lanka?*

Shoir bu she'r orqali Turkistonning mustamlaka davridagi ayanchli holatini tasvirlaydi. she'rda chuqur iztirob, alam va dard bilan gapiradi. U yurtining taqdiridan qayg'uradi, lekin shu bilan birga xalqning uyg'onishiga umid ham bildiradi. She'r jadid adabiyotining muhim namunalaridan biri bo'lib, milliy uyg'onish, ozodlik va ma'rifat g'oyalari yorqin aks etgan. She'r xalqni fikrlashga, o'z taqdiri uchun kurashishga da'vat etadi.

**4. Ijtimoiy tanqid kuchliligi.** Jadid adabiyoti jamiyat hayotidagi muammolarni yashirmadi, aksincha ularni ochiq tanqid qildi. Bu xususiyat davr adabiyoti uchun muhim burilishlardan biri bo'ldi. Jadid ma'rifatparvarlarining asarlarida bir qancha illatlar tanqid ostiga olindi. Bularga misol qilib, eskicha fikrlash, diniy jaholat, ya'ni ilmga qarshi tushunchalar, ayollar huquqlarining cheklanishi, ta'limsiz jamiyat kabilarni aytish mumkin. Abdurauf Fitrat asarlarida millatning orqaga qolish sabablari tahlil qilinadi va ularga qarshi yechimlar taklif etiladi.

**5. Adabiyotning amaliy maqsadga yo'naltirilishi.** Jadidlar uchun adabiyot faqat estetik zavq emas, balki jamiyatni o'zgartirish uchun bir qurol edi. Shuning uchun ham ular asarlarni shunchaki yozish bilan cheklanmadilar. Balki amaliy jihatdan ham ta'sir etishga harakat qildilar. Masalan, dramalar shunchaki

yo'zilmadi, ular sahnada ham ijro etildi. Natijada bevosita xalqning ongiga ta'sir etildi.

Jadid adabiyotining bu kabi xususiyatlari uni oddiy adabiy oqimdan ko'ra kengroq ijtimoiy-ma'naviy harakat darajasiga olib chiqdi, yangi yo'nalish va janrlar paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Jadidlar adabiyotga katta yangilik sifatida olib kirgan janrlardan biri drama hisoblanadi. Shu paytga qadar o'zbek adabiyotida sahna uchun mo'ljallangan asarlar deyarli bo'lmagan. Jadidlar bu janr orqali xalqni tez va ta'sirchan tarzda ma'rifatga chaqirishni maqsad qilganlar. Sahnaga uchun yozilgan asarlarda ijtimoiy muammolar ko'tarilgan, johillik va eskicha urf-odatlar tanqid ostiga olingan. Dramaga misol qilib, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi keltirish mumkin. Bu asar o'zbek dramaturgiyasining boshlanishi hisoblanadi. Asarda o'qimagan va tarbiyasiz o'g'il o'z otasini o'ldirishi tasvirlanadi. Bu voqea orqali muallif jaholat va tarbiyasizlik qanday fojiga olib kelishini ko'rsatadi.

Jadidchilik davri adabiyoti yuzaga kelishida bir qancha manbalarning o'rni beqiyosdir. Jadidlar o'z faoliyatlari davomida faqat she'riy va nasriy asarlar yozish, ularni ommaga ko'rsatish bilan cheklanib qolmadilar. Balki sharq mumtoz adabiyoti manbalarini ham o'rgandilar va ulardan ham ilhom oldilar. Bu kabi harakatlar ma'rifatparvar ijodkor Abrurauf Fitrat faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Fitrat o'zbek adabiyotini bir ilmiy tizimga solishga harakat qilgan ekan, folklor namunalari va eng qadimgi adabiyot yodgorliklaridan tortib o'ziga zamondosh bo'lgan adiblar ijodiga qadar izchil tartibda o'rganadi. Ana shu manbalarni o'rganish davomida ma'rifatparvar ulug' alloma Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" tarkibiga kirgan yaratilgan alohida tadqiq etib, 1927-yilda "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasi "Adabiyotimiz tarixi uchun materiallar" rukni bilan e'lon qilindi. Ushbu majmuada Fitrat devon tarkibidan o'rin olgan barcha parchalarni o'rganib, ular muayyan bir "Alp Erto'nga" dostonining qismi, o'ttizdan ortiq xalq qo'shiqlari va ikki yuzga yaqin maqol, matal va aytimlarni mazmun jihatdan tasnif qildi. Bu bilan turkiy xalqlarning eng qadimgi yodgorliklarini milliy adabiyotimiz tarixidan o'rin olishi va matnshunoslik fanining rivoji uchun harakat qildi. [ Qosimov B, 2004: 47].

“O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasida esa barcha og‘zaki va yozma manbalarni ilmiy tizimga solib, adabiyotimiz tarixini manbalar bo‘yicha yaratdi, “Qutadg‘u bilig” asaridan “Boburnoma”ga qadar barcha yozma yodgorliklarni jamlab, ular o‘zbek mumtoz adabiyotining bebaho namunalari ekanini isbotladi. “Qutadg‘u bilig” asarining Namangan nusxasini topib o‘rgangan shaxs ham aynan Abdurauf Fitrat hisoblanadi. U asarning Namangan nusxasini topib o‘rgandi va ilmiy muomalaga olib kirdi. Asarning bu nusxasi dunyoda mavjud boshqa nusxalari orasida eng mukammali ekanligini isbotlab berdi. Shu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ehtiyoji millat” maqolasida ta’kidlab o‘tgan quyidagi jumllalarini keltirish o‘rinlidir:”Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur” [ Qosimov B, 2004: 67].

Islom ma’rifatchiligi ham jadidlarga ta’sir o‘tkazmay qolmagan. Qur’on, hadis va islom olamidagi ilm-fan, adolat, tarbiya haqidagi qarashlar jadidlarning asosiy ma’naviy manbasi bo‘lib xizmat qilgan. Jadidlar dinni jaholat emas, balki taraqqiyot vositasi sifatida tushunganlar.

Milliy uyg‘onish davri hikoya va romanlarida real hayot tasviri, oddiy insonlar hayoti, tarbiyaviy va ma’rifiy ruh g‘oyalari yetakchi o‘rinni egalladi. Bu davrga xos bo‘lgan eng muhim yangiliklardan biri o‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy tomonidan ilk roman yozildi. Jadid adabiyotida nafaqat nasrda balki she’riyatda ham katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu davr she’rlari oddiy va xalqona til uslubida yozilgan, erkin fikr, milliy uyg‘onish g‘oyalari va ozodlik mavzusi yetakchilik qilgan. Jadid adabiyotiga bu kabi o‘zgarishlarni amalga oshirish orqali jamiyatni o‘zgartirishga va xalq ongini uyg‘otishga harakat qilingan. [Qosimov B, 2004: 87].

**Xulosa.** Jadid adabiyoti o‘zbek milliy uyg‘onish tarixida muhim o‘rin egallagan ma’rifatparvar adabiy harakat hisoblanadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan bu oqim xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, ilm-fan va zamonaviy taraqqiyot sari yetaklashni asosiy maqsad qilib oldi. Jadid adiblari adabiyotni faqat badiiy ijod vositasi emas, balki millat taqdirini

belgilovchi kuch sifatida ko'rdilar. Shu sababli ularning asarlarida milliy uyg'onish, erkinlik, ma'rifat va vatanparvarlik g'oyalari yetakchi o'rin egalladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurashidov, M. Jadidchilik harakati va o'zbek adabiyoti taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2012.
2. Qosimov, B. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-jild. – Toshkent: Universitet, 2010.
3. Qosimov, B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
4. Qosimov, B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Boltaboyev, H. Jadidlar. Abdurauf Fitrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022.
7. Fitrat. O'zbek adabiyoti namunalari. 1-jild – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.
8. Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 2-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.

**ALISHER NAVOIYNING “NASIM UL-XULD” QASIDASI POETIKASI**

(“Sittai zaruriya” turkumining oltinchi qasidasi tahlili)

**Bekova Nazora Jo'rayevna,**

BuxDU professori, filologiya fanlari doktori  
bekova.nazora@mail.ru

**Ibroimova Mahliyo Najmiddinovna,**

BuxDU tayanch doktoranti  
mahliyoibroimova9@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Nasim ul-xuld” qasidasi poetikasi tahlil qilindi. Mazkur qasida o'zining mavzu tanlovi, kompozitsion tuzilishi va g'oyaviy yo'nalishi jihatidan butun turkumning xulosaviy bo'g'ini hisoblanadi. Agar “Ruhul-quds” qasidasi turkumning dasturiy-muqaddimaviy asari sifatida Olloh-olam aloqadorligi konsepsiyasini bayon etsa, “Nasim ul-xuld” bu konsepsiyaning real-tarixiy mujassamlanishi sifatida Sulton Husayn Boyqaro shaxsida faqr va shohlik birikuvini badiiy tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** “Nasim ul-xuld”, faqr, darvesh, riyozat, ishq.

**Annotation:** This article analyzed the poetics of Alisher Nawai's Qasida “Nasim ul-khuld”. In terms of its subject choice, compositional structure and ideological orientation, this is the summary link of the entire series. If the “Ruhul-quds” “Qasida describes the concept of Allah-universe engagement as a

programmatic work of the series,” Nasim ul-khuld " artistically confirms the combination of faqr and Kingdom in the person of Sultan Husayn Boyqaro as a real-historical embodiment of this concept.

**Keywords:** "Nasim ul-khuld", faqr, darvesh, riyazat, ishq.

**KIRISH.** Alisher Navoiyning forsiy tildagi qasidalar majmuasi “Sittai zaruriya” (“Olti zarurat”) tarkibidagi oltinchi va yakuniy qasida “Nasim ul-xuld” (“Jannat nasimi”) deb ataladi. Mazkur qasida o‘zining mavzu tanlovi, kompozitsion tuzilishi va g‘oyaviy yo‘nalishi jihatidan butun turkumning xulosaviy bo‘g‘ini hisoblanadi. Agar “Ruhul-quds” qasidasi turkumning dasturiy-muqaddimaviy asari sifatida Olloh-olam aloqadorligi konsepsiyasini bayon etsa, “Nasim ul-xuld” bu konsepsiyaning real-tarixiy mujassamlanishi sifatida Sulton Husayn Boyqaro shaxsida faqr va shohlik birikuvini badiiy tasdiqlaydi. [Navoiy Alisher, 2002: 522]

Filologiya fanlari doktori N. J. Bekovanning ta’kidlashicha, “Nasim ul-xuld” va “Qut ul-qulub”da namoz faroizidagi olti xorij va doxil farzlar tasviriga kengroq ahamiyat berilgan [Bekova N., Koraş H., 2024:109]. Demak, qasida shariy-irfoniy ma’rifat tizimida muayyan o‘rin tutadi: u faqr-darveshlik tushunchasini ham nazariy, ham amaliy (Husayn Boyqaro timsolida) yoritadi. Shu jihatdan qasidaning 101–119-baytlari (Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlangan qism) alohida tahlilga loyiqdir.

Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “Sittai zaruriya” turkumi haqida shunday yozadi: “Bu olti qasida hamd va na’t va sano va mav’izotdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma’rifat” [Alisher Navoiy, 2000: 21]. Shoirning bu fikri “Nasim ul-xuld”ning ham tahlilida muhim metodologik nuqta hisoblanadi: qasida bir vaqtning o‘zida hamd, na’t, sano va mav’izot janrlarini birlashtirib, ularni tasavvufiy ma’rifat tilida bayon etadi.

#### MATLA’ BAYTI VA QASIDANING GNOSEOLOGIK NEGIZI

Qasidaning matla’ (boshlanma) bayti butun asarning g‘oyaviy poydevorini belgilaydi:

*Muallim ishq piri Aql shud tifli dabistonash,*

*Falak don bahri ta'dibi vay, inak, charxi gardonash.*

Ishq – muallim, keksa Aql esa uning maktabining o'quvchi bolasi bo'ldi.

Falakni uning tarbiyasi bilan mashg'ul deb bil, aylanuvchi charx ham.

Bayt tarkibidagi badiiy san'atlar tizimi

Mazkur baytda bir necha mumtoz Sharq poetik figuralari uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi:

a) Tashbih (qiyoslash) san'ati – ishq → muallim, aql → tifli dabiston (maktab bolasi), falak va charx → tarbiyalanuvchilar. Bu tashbihlar zanjiri yagona kompozitsion butunlikda berilib, qasidaning butun davomida rivojlantirilgan ishq-aql munosabatining ma'rifiy o'zagini shakllantiradi. An'anaviy “muallim-shogird” obrazi ilohiy ishqning butun olamga ta'sirini ko'rsatuvchi ramziy modelga aylantirilgan.

b) Iyhom (ko'p ma'nolilik) san'ati – “piri aql” iborasida ikki ma'no birlashadi: bir tomondan, “keksa aql”, ikkinchi tomondan, “aqlning piri” (yetakchisi). Iyhom yordamida shoir aqlning insondagi mavqeini ulug'laydi va ayni paytda uning ishq oldida ojiz ekanligini ko'rsatadi [Hojiahmedov A., 1999: 127–134].

c) Mubolag'a (haddan oshirish) san'ati – aylanuvchi charx (kosmik harakat) ham ishqning shogirdi sifatida tasvirlanishi shoirning kosmologik miqyosdagi mubolag'asidir. Bu fikr vahdat ul-vujud ta'limotidagi “Olamning butun harakat-qonuniyati ilohiy ishqning aksidir” degan g'oya bilan bog'lanadi.

d) Tanosib san'ati – baytda ta'lim-tarbiyaga oid bir qator atamalar bir-biri bilan ma'no jihatidan bog'lanib keladi: muallim, pir, tifl, dabiston, ta'dib. Bu so'zlar ma'rifiy semantik maydonni shakllantiradi.

Aql va ishq munosabatining tasavvufiy ildizi. Aqlning ishq oldida ojizligi haqidagi g'oya Sharq tasavvufida muayyan tarixga ega bo'lib, uning eng mukammal ifodasini Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma'naviy”ida topamiz [Mavlono Jaloliddin Rumi, 2010: 95–98].



Rumiy aqlning ishq oldida ikki maqomi haqida fikr yuritadi: tashqi olamni anglashda aql yetakchi, ammo ilohiy haqiqat va vahdat sirini idrok etishda u o'z qasidasini Sharq irfoniy she'riyatining yetuk an'analari silsilasiga kiritadi.

Filologiya fanlari doktori N. Komilovning izohiga ko'ra, tasavvufda aql ikki turga bo'linadi: aql-i juz'iy (qisman, dunyoviy aql) va aql-i kulliy (mutlaq, ilohiy aql). Birinchisi ishq haqiqatini anglashga qodir emas, shuning uchun u ishq oldida bola sifatida ko'rsatiladi [Komilov N., 1996:142].

Navoiy matla'da aynan aql-i juz'iyi nazarda tutgan, chunki uning "tifl" (bola) sifatida tasvirlanishi tasodifiy emas. Bola obrazi tasavvufda yangi tug'ilgan, hali olamni anglamagan, tarbiyaga muhtoj ruhni anglatadi.

S.Olimning "Ishq, oshiq va ma'shuq" monografiyasida ta'kidlanishicha, Sharq lirikasida ishq aqldan ustunligi konsepsiyasi shunchaki she'riy ramz emas, balki mukammal gnoseologik nazariyaning poetik ifodasidir: aql sabab-natija mantig'i bilan harakat qilsa, ishq bevosita anglash, vujud va kashf orqali haqiqatga yetadi [Olim S, 1992: 234–246].

Matla'ning kompozitsion vazifasi.

I. Haqqulning tadqiqotida ta'kidlashicha, Sharq qasidanavisligida matla' – butun qasidaning falsafiy-irfoniy paradigmasini belgilovchi konseptual chiziqdir. "Nasim ul-xuld"da matla' aynan shu vazifani bajaradi: ishq-aql-falak-charx zanjiri orqali shoir keyingi baytlarda ochiladigan shoh-darvesh, hokimiyat-faqr paradoksi uchun gnoseologik asos yaratadi [Haqqulov I., 1991:116–123]. Agar ishq aqldan ustun bo'lsa, demak faqr ham dunyoviy hokimiyatdan ustun bo'lishi mumkin.

Demak, matla' va madhiya qismi (Husayn Boyqaroga bag'ishlangan baytlar) o'rtasida tasodifiy bog'lanish emas, balki chuqur g'oyaviy uzviylik mavjud. Shoir avval gnoseologik haqiqatni o'rnatadi (ishq aqldan ustun), so'ngra bu haqiqatni qadr-qiyamat tizimiga ko'chiradi (faqr shohlikdan ustun), so'ngra bu tizimni real tarixiy shaxsda mujassamlantiradi (Husayn Boyqaro – darveshvasht sulton).

HUSAYN BOYQARO MADHIDA FAQR FALSAFASI (101–119-baytlar)

“Riyozat” va Yusuf timsoli (talmih san’ati)

Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlangan baytlardan biri shunday boshlanadi:

*Baloye k-az Haqat oyad, ba choi riyozat afkani, bini*

*Ba taxti Misri izzat oqibat chun mohi Kan’onash.*

Haqdan kelgan baloni riyozat o‘rniga qo‘ysang, oqibatda Kan’on oyi (Yusuf payg‘ambar) singari izzat Misrining taxtida (o‘zingni ko‘rasan).

Mazkur bayt poetik mahorat jihatidan qasidaning eng yuksak nuqtalaridan biridir. Unda talmih (tarixiy-diniy ishora) san’ati to‘liq quvvati bilan namoyon bo‘lgan: bir baytda butun Yusuf payg‘ambar qissasining (chohga tashlanish – Misrga sotilish – Misr aziziligi) badiiy konsentrati berilgan [Komilov N, 1999: 168–174].

“Mohi Kan’on” iborasi Yusuf alayhissalomning go‘zallik timsoli sifatidagi an’anaviy obraziga ishora bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida Yusufning Kan’on diyorida kelganligi va uning go‘zalligi oydek nurli ekanligini bildiradi.

Bayt yana tazod (qarama-qarshilik) san’ati asosida qurilgan: balo – izzat, choh (chuqur) – taxt (yuksaklik). Yusuf qissasidagi past-baland o‘zgarishlar – chohdan zindon, zindondan saroyga ko‘tarilish – Husayn Boyqaroning siyosiy taqdiriga ham yashirin parallellik tashkil etadi: shoh ham 1469-yilgacha taxminan 30 yil davomida sarson-sargardonlik, urushlar va siyosiy ta’qiblarni boshidan kechirib, oxir-oqibat Hirot taxtiga erishgan tarixiy shaxs edi. [Хондамир, 2013: 124–127]

Tasavvufda “riyozat” – nafs istaklarini cheklash, mashaqqatli ma’naviy mashqlar orqali ruhni poklash bosqichidir. [Hujviriyy Ali ibn Usmon., 2014: 318]

Hujviriyyning “Kashf ul-mahjub” asarida riyozat – tariqatdagi muhim maqomlardan biri sifatida ko‘rsatiladi: solik o‘zining nafsiy istaklarini chegaralab, ularni ilohiy iroda bilan almashtiradi. Navoiy “Haqdan kelgan balo”ni riyozat o‘rniga qabul qilish g‘oyasini ilgari surishi orqali Husayn Boyqaroning hokimiyat tepasidagi sinovlarini sufiy salikning ma’naviy mashqlariga tenglashtiradi. Bu yerda madhiya falsafiy-axloqiy mushohadaga aylanadi.

Shu o'rinda Navoiy poetikasining muhim xususiyati namoyon bo'ladi: u madhiya janrini sof saroy adabiyoti chegarasidan chiqarib, uni tasavvufiy ma'rifat janri darajasiga ko'taradi. Husayn Boyqaroning hokimiyatga erishishi shunchaki siyosiy g'alaba sifatida emas, balki ilohiy sinovlardan o'tib, ma'naviy yetuklikka erishish jarayoni sifatida tasvirlanadi. Bu jihatni A. Hayitmetov Navoiy madhiyalarining muhim novatorligi sifatida ko'rsatib o'tgan [Hayitmetov A., 1961:156].

Shoh va darvesh: rutba paradoksi:

*Zi shohon nest, nabvad loiqi in rutba chuz shohe,*

*Ki darveshi zi shohi bartar ast az ayni irfonash.*

Shohlardan emas, bu martaba (faqirlik) faqat shu shohga loyiqdirki, uning ma'rifati nazaridan darveshligi shohligidan ustun turadi.

Bu baytda iyhom san'ati keng qo'llangan: "shoh" so'zi bir baytning o'zida ikki xil ma'noda kelgan – dastlab shohi zohiriy (dunyoviy hukmdor), so'ngra shohi botiniy (ma'naviy hukmdor) ma'nolarida. Bu ikki ma'no orasidagi yashirin o'yin baytning poetik quvvatini ta'minlaydi va o'quvchini chuqur mushohadaga undaydi.

"Ayni irfon" iborasi tasavvufiy istilohdir: u Allohni bevosita tanish, qalb ko'zi bilan ko'rish darajasini bildiradi. Tasavvuf ilmida ilm al-yaqin (eshitib bilish), ayn al-yaqin (ko'rib bilish) va haqq al-yaqin (vositasiz tajriba qilib bilish) bosqichlari mavjud. "Ayn" – bu bilim darajasining ikkinchi, vositasiz pog'onasiga ishora qiladi. Demak, Navoiy Husayn Boyqaroga shunchaki madh emas, balki yuksak ma'rifat darajasi haqida fikr yuritmoqda.

Bayt mantiqiy paradoks asosida qurilgan: darveshlik shohlikdan ustun, ammo bu hodisa faqat shohlikni qo'lga kiritgan kishida amalga oshishi mumkin. Bu paradoksning falsafiy ildizi tasavvuf tarixidagi mashhur Ibrohim ibn Adham timsoliga borib taqaladi. Balx hukmdori Ibrohim taxtidan voz kechib darvesh bo'lgan; uning haqida Fariduddin Attor "Tazkirat ul-avliyo"da batafsil hikoya qiladi. Navoiy "shoh-darvesh" formulasi orqali ushbu sufiyona idealni eslatadi va shohga shu idealga intilish vazifasini yuklaydi.

“Darveshvasht sulton” obrazi: madhiya va nasihatning sintezi

*Shahi darveshvasht, sultoni faqr oyin, ki az Ezid,*

*Farozi taxti shohi faqru darveshast dar shonash.*

Darveshsimon shoh, faqirona yo‘l tutgan sulton – Ezid (Tangri) tomonidan shohlik taxtining yuksakligida faqr va darveshlik uning sha’niga loyiq ko‘rilgan.

Mazkur bayt qasidaning g‘oyaviy markazidir. Unda “faqr” tushunchasi shunchaki kambag‘allik emas, balki tasavvufiy istiloh sifatida qo‘llanilgan. Tasavvufda faqr – Allohga to‘liq muhtojlikni anglash, undan boshqa hech narsaga e’tiqod bog‘lamaslik holatidir. Payg‘ambarimiz s.a.v.dan keltiriladigan mashhur hadis: “Al-faqr fakhri” (“Faqr – mening faxrim”) – aynan shu tushunchani islom an’anasidagi yuksak maqomga ko‘taradi. Navoiyning bayti shu hadis-konseptga yashirin ishora qiladi – bu iqtibos san’atining mahorat bilan qo‘llangan namunasidir.

Sharqshunos akademik Ye. E. Bertels Navoiyning Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan madhiyalari haqida qayd etishicha, shoirning sultonni tasvirlashi sof saroy madhiyasi chegarasidan chiqib, axloqiy ideal nasihatiga aylanadi: shoir nafaqat shohni tavsiflaydi, balki uni shu tavsifga loyiq bo‘lishga undaydi. “Nasim ul-xuld”dagi “darveshvasht sulton” obrazi aynan shu nuqtai nazardan tahlil qilinishi lozim: bu bir vaqtning o‘zida madh va nasihat – shoh shu darajada bo‘lishi kerak.

Bu poetik usulning ildizi – Sharq qasidanavisligidagi “andarz-madh” (nasihatli madh) an’anasidir: Anvari, Xoqoniy, Salmon Sovajiy qasidalarida ham hukmdor sifatlari ideal modelga muvofiqlashtirilib tasvirlangan, shu orqali real shohga yashirin nasihat berilgan. Navoiy bu an’anani o‘z qasidalarida davom ettirgan va boyitgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bekova N., Koraş H. Alisher Navoiy qasidaları: adabiy ta’sir va novatorlik // XI Beynəlxalq Türk Dünyası Araştırmaları Simpoziumu. – Bakı, 2024. – B. 109.
2. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1961. – B. 156.
3. Haqqulov I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom NMIU, 1991. – B. 116–123
4. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999. – B. 127–134.
5. Hujviriy Ali ibn Usmon. Kashf ul-mahjub / Tarjimon va sharhlovchi N. Komilov. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014. – B. 318.
6. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. – B. 142.

7. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob: Tariqat. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom NMIU, 1999. – B. 168–174.
8. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. 1-daftar. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 95–98.
9. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 19-jild: Devoni Foni (davomi). Sittai zaruriya. Fusuli arbaa. – T.: Fan, 2002. – B. 522.
10. Navoiy Alisher. MAT. 16-jild: Muhokamat ul-lugʻatayn. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 21.
11. Olim S. Ishq, oshiq va ma'shuq. – Toshkent: Yozuvchi, 1992. – B. 234–246
12. Хондамир. Хабиб ус-сияр. 4-жилд. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 124–127.

## **XX ASRDA QO'LYOZMA MANBALARNI O'RGANISH VA TADQIQ QILISHNING YANGI YO'NALISHLARI**

**Hayitov Shavkat Ahmadovich,**  
*BuxDU professori, filologiya fanlari doktori*

**Barotova Xurshida Jalolovna,**  
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek matnshunosligining muayyan mezon va me'yorlari, talab va tamoyillari, shuningdek, eng qadimgi davrlardan hozirga qadar taraqqiy etib kelgan tarixiy ildizlari borasidagi qarashlar tahlillar asosida mufassal bayon etiladi. XX asrda qo'lyozma manbalarni o'rganish va tadqiq qilishning yangi yo'nalishlari xususida, jumladan bu davrda jadidlar qadimiy milliy yozma adabiy merosni yuksak e'zozlovchisi va tadqiqotchilaridan Vadud Mahmud, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonovlar tadqiqotlari qiyosiy tahlilga tortildi.

**Kalit so'zlar:** qo'lyozma, lug'at, manba, tilshunoslik, Abdurauf Fitrat, tadqiqot, faksimal nashr, matn, "Mahbub ul-qulub".

**Annotation:** The article presents in detail the specific criteria and norms, requirements and principles of Uzbek textual studies, as well as views on the historical roots that have developed from the most ancient times to the present. New directions in the study and research of manuscript sources in the 20th century, including the research of Vadud Mahmud, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidkhanov, who were among the great admirers and researchers of the ancient national written literary heritage of the Jadids during this period, were subjected to comparative analysis.

**Keywords:** manuscript, dictionary, source, linguistics, Abdurauf Fitrat, research, facsimile edition, text, “Mahbub ul-qulub”.

O‘zbek matnshunosligi o‘zining teran ildizlariga ega. U o‘zining muayyan mezon va me‘yorlari, talab va tamoyillari bilan eng qadimgi davrlardan hozirga qadar taraqqiy etib kelmoqda.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy so‘zlarga izoh berish uchun ko‘plab adabiy ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan manbalarni yig‘ish, tartibga solish, saralash ishlarini amalga oshirgan. Zamonaviy ilmda “Devonu lug‘otit turk” ma‘lumotlariga tayangan holda til tarixi, adabiyot tarixi hamda adabiyot nazariyasiga doir muhim tadqiqotlar yaratildi va yaratilmoqda. Mazkur dalil tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining ibtidosi matnshunoslikdan boshlanadi, degan xulosani dadil aytishga asos bo‘la oladi...

XX asrga kelib qo‘lyozma manbalarni o‘rganish va tadqiq qilishning yangi yo‘nalishlari yaratildi. Bu davrda jadidlar qadimiy milliy yozma adabiy merosni yuksak e‘zozlovchisi va tadqiqotchisi sifatida maydonga chiqdilar. Nashr ishlarining tarkibiy tuzilishi, shakl va mazmuni bilan G‘arb an‘analarining sintezi sifatida namoyon bo‘lishiga jiddiy e‘tibor qaratdilar. Ustoz Abduqodir Hayitmetov ifodasi bilan aytganda, adabiy manbaning muallif matniga ega bo‘lish yoki qo‘lyozmaning muallif matniga yaqin kela oladigan qadimiy va to‘g‘ri qo‘lyozmasini qo‘lga kiritish har bir tadqiqotchining yuksak orzusi bo‘lgan.

Vadud Mahmud, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurahmon Sa‘diy, Sadridin Ayniy, Sadr Ziyo, Hodi Zarif kabi ma‘rifatparvar ijodkorlar mumtoz adabiyot vakillari adabiy merosini xalqqa yetkazish uchun qo‘lyozma manbalar ustida astoydil ish olib boradilar. Ana shu izlanishlar, sidq bilan ishlashlar natijasida o‘zbek matnshunosligida ilmiy yo‘nalish shakllana boshlaydi. Jadid yozuvchilari tomonidan boshlangan o‘zbek adabiyoti namunalarining qiyosiy tahlili o‘zbek matnshunosligini yangi bosqichga o‘tishiga asos sifatida xizmat qildi.



Abdurauf Fitrat o'zbek mumtoz adabiyotining Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Solih, Mashrab, Turdi kabi namoyandalari asarlarini eng qadimgi qo'lyozma manbalar asosida o'rganadi. Va XX asrning 20-yillari oxirida "Eng eski turk adabiyoti namunalari", "O'zbek adabiyoti namunalari" sarlavhalari ostida kitob holida chop ettiradi. "O'zbek adabiyoti namunalari" mumtoz adabiyotimiz asarlarini topib nashrga tayyorlashda, ularning ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratishda hamda bu adabiy yodgorliklarni tipologik jihatdan organishda birlamchi adabiy manabadir" [Boltaboyev,1996:153], – deb yozadi Abdurauf Fitratning adabiyotshunoslik faoliyatiga doir maxsus tadqiqot yaratgan olim H.Boltaboyev. Olimning doktorlik dissertatsiyasidan keltirilgan iqtibos A.Fitratning serqirra matnshunoslik faoliyati haqida yorqin tasavvur hosil qiladi.

A.Fitratning "Devoni Foni" ning Buxorodan topilgan nusxasini badiiy va uslubiy jihatdan tekshirib, aniq xulosaga kelishi, "Qissai Mashrab"ning qo'lyozma manbalari ustida olib borgan jiddiy ilmiy tadqiqotlari ko'pgina matnshunos olimlarimiz tomonidan o'rganilib,yuksak baho berilgan.

O'tgan asrning 20-yillaridan ilmiylik yetakchi mezonga aylanib, o'zbek matnshunosligi alohida soha sifatida shakllana boshlagan bo'lsa, XX asrning 40-yillarida ilmiy yo'nalish sifatida chinakam rivojlanish bosqichiga kirdi. Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan katta e'tibor o'zbek matnshunosligining yorqin namoyandalarini maydonga keltirdi" [Sirojiddinov, 2015:59].

Alisher Navoiyning 500 yillik tavalludini o'tkazish munosabati bilan tuzilgan matnshunoslik komissiyasi Alisher Navoiy asarlarini xalqqa yetkazishda hamda o'zbek matnshunosligining takomillashuviga katta ta'sir ko'rsatdi. Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi oldidan o'zbek o'quvchilariga taqdim qilingan dastlabki tuhfa buyuk mutafakkir hayotining so'nggida yaratilgan "Mahbubul-qulub" pandnomasi bo'ldi. Asarning mazkur 1939-yilgi qisqartirilgan nashri matnshunos Yunus Latif tomonidan amalga oshirilgan.

Undan keyin “Muhokamatul-lug‘atayn”, “Xamsa” dostonlari va shu buyuk asarning qisqartirilgan nashri, “Xazoyinul-maoniy” yig‘ma devonidan tanlangan she‘rlar Alisher Navoiy ijodi muxlislari qo‘liga tegdi. Bu ishlarni amalga oshirishda H.Sulaymon, P.Shamsiyev, M.Hakimov, O.Usmonov, S.Mutallibov, G‘.G‘ulom, G‘.Karimov, Sadriddin Ayniy kabi o‘zbek olimlari samarali mehnat qildilar.

“Mahbubul-qulub”ning Yunus Latipov tomonidan amalga oshirilgan qisqartirilgan nashridan bir yil keyin 1940-yilda “Muhokamatul-lug‘atayn” O.Usmonov va P.Shamsiyev tomonidan tayyorlanib, lotin alifbosida chop etiladi. Akademik shoir G‘afur G‘ulom 1901-yilda Shohmurod kotib tomonidan ko‘chirilib, Toshkentda Portsev matbaasida bosilgan nusxa va qo‘lyozmalar asosida Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini nasriy bayoni bilan chop ettiradi. Shundan keyin Alisher Navoiy “Xamsa”sining “Layli va Majnun”, “Sab‘ai sayyor” dostonlari ham nasriy bayoni bilan chop etiladi. Shunisi g‘oyatda muhimki, kitob chop etilishidan oldin o‘sha paytda matnshunoslik komissiyasi ishini boshqargan Solihqori Mutallibov boshchiligidagi matnshunos olimlar guruhi tomonidan O‘zbekiston davlat xalq kutubxonasida saqlangan qadim nusxalar bilan solishtirib, tekshirib chiqilgan. Ba‘zi kamchiliklari tuzatilib, mukammal holga keltirilgan. Alisher Navoiy asarlarining bir nechtasini nashrga tayyorlagan S.Mutallibov buyuk mutafakkir hikmatli so‘z va iboralarini ommalashtirishda ham tashabbuskor bo‘lgan. S.Mutallibovdan keyin bu ish zahmatkash matnshunos olim Muhammadjon Hakimov tomonidan davom ettiriladi. Shu o‘rinda S.Mutallibovning o‘zbek matnshunosligi taraqqiyotiga qo‘shgan yana bir ulkan hissasi haqida ham mulohaza yuritishga to‘g‘ri keladi. 1959-yilda chop etilgan “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasida berilgan “Devonu lug‘otit-turk”dagi she‘rlar matni “Devon”ning o‘zbek tilidagi ilk nashri muallifi Solihqori Mutallibov tomonidan tayyorlangan. Atoqli olim qadim turkiy she‘riyat namunalarida hikoya qilingan voqea-hodisalar, ularda o‘z tajassumini topgan mavzular, ilgari surilgan g‘oyalar, sharhlangan janrlar ichki mantiqidan kelib chiqib, “Devonu lug‘otit-turk”dagi adabiy parchalarni tasnif qilgan. Matnshunos olim zakovati bilan har bir bo‘limga qo‘yilgan “Bahor haqida”, “Qish bilan Yoz tortishuvidan”, “Ov

qo'shig'i", "Bo'ri ovi haqida", "Bir jang haqida", "Nasihat", "Sevgi", "Ilm haqida", "Marsiya" kabi mo'jiz sarlavhalar yashash falsafasi, hayot saboqlari g'oyat latiflik bilan zamiriga singdirilgan adabiy parchalarning mundarijasini tashkil etadi. Badiiy matn ostida qadim turkiy so'zlarning hozirgi o'zbek tilimizdagi ma'nolari (lug'at) birma-bir, aniq va tiniq aks ettirilgan. Turkiy so'zlar "Devon"ining XX asrning 60-yillari boshida Solih Mutallibov tomonidan amalga oshirilgan o'zbek tilidagi dastlabki nashri ilm ahliga ma'lum. "Devonu lug'otit-turk" ning mazkur nashri mashaqqatli mehnat natijasi bo'lib, bugunga qadar katta ilmiy-amaliy vazifani bajardi. Uzoq yillar davomida manbashunos, qadimshunos, sharqshunos, tilshunos, folklorshunos, adabiyotshunos olimlarning "Devonu lug'otit-turk"ka bo'lgan talablarini, ehtiyojlarini qondirish yo'lida beminnat xizmat qildi. Zamonaviy ilmning bir necha sohasi mutaxassislari turli muammolarga bag'ishlangan izlanishlarida o'z mulohazalarini dalillash, masalaning "Devonu lug'otit-turk" bilan bog'liq qirralarini yoritishda asosan "Devon"ning shu nashriga murojaat qilib keldilar. Oradan yarim asrdan ko'proq vaqt o'tgach, bu qadimiy manbaning yangi nashri amalga oshirildi. Bu mas'uliyatli ishni 2016-yilda Solihqori Mutallibov nashri asosida akademik A.Rustamov, professor H.Boltaboyev va dotsent B.Isabekov amalga oshirdilar.

Xullas, yuqorida ayrimlarigina tilga olingan Alisher Navoiy asarlarining yig'ma matni va nasriy bayonlari nashrlari matnshunoslikning ilmiy-nazariy rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Biz bu o'rinda yorqin tasavvur hosil qilish uchun Alisher Navoiy "Mahbubul-qulub" asarining yig'ma matni ustida ixcham mulohaza yuritishni ma'qul ko'rdik.

Ma'lumki, zahmatkash olim A.N.Kononov "Mahbubul-qulub"ning yig'ma matnini tayyorlab, 1948-yilda nashr ettirdi. Olim tadqiqot ishiga turli davrlarda kotiblar tomonidan ko'chirilgan sakkiz qo'lyozmani jalb qilgan. Akademik A.N.Kononov "Mahbubul-qulub"ning boshqa juda ko'p nusxalarini, Buxoro litografik nashrlarini, 1289 (1872-1873) yilda chop etilgan Istanbul nusxasini ham nazardan o'tkazgan. Leningrad Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limining xazinasida V2095 raqami bilan saqlanayotgan nusxani tajribali olim o'z tadqiqoti

uchun tayanch nusxa sifatida tanlaydi. Mazkur qo'lyozmaning ko'chirilish tarixi haqida matnshunosligimizda uch xil qarash mavjud. Akademik A.N.Kononov uni XVI asrda ko'chirilgan degan taxminiy xulosaga keladi [Navoiy, 1966:7-8]. Leningraddagi sharq qo'lyozmalari xazinalarida saqlanayotgan Alisher Navoiy asarlari nusxalarining tavsifini tuzgan sharqshunos olim S.L.Volinnning ko'rsatishicha, eslatilgan kitob XVII asrning boshlarida ko'chirilgan [Navoiy, 1998:122]. Filologiya fanlari doktori M.Hamidovanning chuqur ishonchiga ko'ra esa V2095 hujjat raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma XVII asr oxirlariga taalluqli [Xamidova, 1986:25-27].

Leningrad Saltikov-Shchedrin nomli Davlat ommaviy kutubxonasi xazinasidagi 558-raqamli qo'lyozma A.N.Kononov tadqiqoti uchun yetakchi yordamchi nusxa vazifasini ado etgan. Mazkur qo'lyozma XVI asrning oxirgi choragida kotib Nazarali Fayziy tomonidan Eron Ozarbayjonining Qizilog'och sharpida Farhodxon kutubxonasi uchun ko'chirilgan. Yig'ma matnni yaratishda istifoda etilgan qolgan olti qo'lyozmadan to'rttasi Leningrad Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limining xazinasida saqlanib, ulardan biri XVIII asrda, qolgan nusxalar esa XIX asrda ko'chirilgan. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti xazinasidagi ikki qo'lyozma XIX asrning o'rtalarida kitobat qilingan. A.N.Kononov tomonidan tayyorlangan yig'ma matn bilan "Mahbubul-qulub"ning Alisher Navoiy tanlangan asarlari 13-jildidan o'rin olgan nashrini qiyosan nazardan o'tkazamiz. Joriy alifbodagi mazkur nashr O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori P.Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan. Porsoxon domla nashri bir qator fazilatlarga ega. Joriy yozuvdagi nashrda yig'ma matnda mavjud bo'lgan ko'pgina texnik va bosma xatolar bartaraf etilgan.

"Mahbubul-qulub"ning yig'ma nashridagi bosma xatolar arab alifbosidagi imlosi bir-biriga o'xshash harflar ost va ust nuqtalarining almashinib tushishi, yo'qdan bor, borda yo'q" bo'lishi, nuqtalar soni kam yoki ortib yoinki o'rni o'zgarib qolishi oqibatida yuzaga chiqqan. Matndagi bunday qusurlar aksariyat hollarda asardagi fasl, bob va tanbihlar mohiyatiga jiddiy zarar yetkazmasa-da,

o‘quvchi ruhiga salbiy ta’sir etadi. Navoiy yashagan davrning bizdan ancha uzoqlashib qolganligi, ulug‘ shoir o‘z asarlarida turkiy so‘zlar bilan birga arab-u fors lisoni imkoniyatlaridan keng foydalanganligi va har bir so‘zning purma’nolar ifodalab kelishini nazardan qochirmay ish ko‘radigan tadqiqotchi bu kabi kalimalarga duch kelganida ortiqcha kuch, mehnat va vaqt sarflashga majbur bo‘ladi. Zohiran “mayda-chuyda” ko‘pingan bu yanglishlar ba’zida satrlar mazmuniga ham o‘z hukmini o‘tkazadi. Ayrim misollarga murojaat qilaylik: “Mahbubul-qulub”ning “Dehqonlar zikrida”gi o‘ttiz birinchi fasli quyidagi jumla bilan xotima topgan: “Mundoq dehqon Odamning farzand va xalafidur, balki marzuqlar anga farzand va ul Odamiy safiydur” [Navoiy, 1966:30]. A.N.Kononov nashrida “xalafidur” so‘zi “xalqidur” deb berilgan (47). Har ikkala so‘zning ham eski yozuvimizda bir xil bitilishi, ularning talaffuzdagi tafovutiga asos bo‘luvchi “fo” va “qof” harflarining shakliiy uyg‘unligi, ajratuvchi farqning nuqtalar soni bilangina bog‘liqligi kotib yoki noshirni chalg‘itishi tabiiy. Shuningdek, aholi, kishilar guruhi, xaloyiq ma’nolarida keluvchi “xalq” matn mazmuniga zararsizday ko‘rinadi. Biroq ko‘chirilgan jumla mantiqi “xalq”ning qayd etilgan ma’nolarini ko‘tara olmaydi. Mazkur kalima ifodalaydigan paydo qilingan, vujudga keltirilgan tushunchalari ham mazmunga zid. Chunki Odam alayhissalom Parvardigor tomonidan yaratilgan (xalq qilingan)dir. Izdosh, o‘rinbosar ma’nolarini anglatadigan “xalafidur” esa fasl va jumla mazmuniga to‘la mos tushadi. Yana bir muhim jihati shundaki, “xalafidur” “Mahbubul-qulub” badiiy uslubida markaziy o‘rin tutgan saj’ mukammalligini (xalafidur-safiydur) ta’min etadi. Harf shakllarining uyg‘unligi natijasida sodir bo‘lgan shunday hodisani quyida keltiriladigan qit’ada ham kuzatish mumkin:

*Ajab sifat erur ehsonki har sharif sifat,*

*Ki kelsa jinsi bashardin anga erur doxil.*

*Javohir angla sifot oni javhariy qafasi,*

*Ki bordur anda qayu birni istasang hosil* [Navoiy, 1966:48].

Yig‘ma matnda so‘nggi misra tarkibidagi “bordur” so‘zi “nordur” deb berilgan (108). Navoiy asarlari lug‘atida “nor” so‘zining o‘t, olov; anor; ona

mamasining uchi tushunchalarini ifodalashi ko'rsatilgan [Navoiy lug'at 1972:465]. Tuya, inson tanasidagi tug'ma qizil dog' ham shunday nom ("nor") bilan yuritiladi. Ammo bu ma'nolarning birontasi ham she'r mazmuniga sira mos kelmaydi. Qit'a mantiqi "nordur"ni emas, "bordur" ni talab qiladi. "Be" harfi nuqtasining ostiga emas, ustiga tushib qolishi "be"ni yozuvda o'ziga o'xshash bo'lgan "nun"ga aylantirib qo'ygan. Yana bir misol: "Oliy himmat shahbozedur baland parvoz, behimmat sichqon sayyode yurutachi boz" (YM,111). Saxovat va himmat talqiniga bag'ishlangan 11-tanbihdan ko'chirilgan matndagi "shahboz" va "boz" so'zlari bir xil ma'noga (lochin) ega. Joriy alifbodagi nashrda "boz", "toz" (kalxat) tarzida berilgan (50). Aslida lochin ham kalxat ham yirtqich qushlar turkumiga kiradi. Biroq badiiy adabiyotda kalxat – yovuzlik va ochko'zlik timsoli, lochin – epchillik, jasorat, shijoat va yuksaklik ramzidir. Keltirilgan parchaga "lochin" ma'nosi mos tushadi. Ammo Alisher Navoiyning qarama-qarshi qutblarda turuvchi saxovatli va saxovatsiz kishini bir xil hodisa (yagona mushabbeh) vositasida tasvirlashi aqlga sig'maydi. Olijanob insonning viqorli siymosi bilan o'z nafs va tuban fe'lining quliga aylangan xasis kimsa orasidagi tafovut esa "shahboz" va "toz" so'zlari yuzlashganda ravshan ko'pinadi. Ikkala kitobdagi so'z ma'nolarining farqi xususida fikr yuritar ekanmiz, ularni belgilariga qarab ikki guruhga ajratishni ma'qul ko'rdik:

A. Ommaviy nashrga ayrim tahrir bilan kiritilgan so'zlar;

B. YMda asosiy matnda berilgan so'zlarning ommaviy nashrda yordamchi nusxalardagi o'z muvoziylari bilan almashtirilishi.

"Mahbubul-qulub" muqaddimasidan o'rin olgan quyidagi parchaga nazar soling: "Goh atqiyo masojidida alar qadami yetgan yerga yuz qo'ydim va sajda kasratidin manglayim terisin so'ydim" (7). A.N.Kononov nashrida "atqiyo" o'rnida "anqiyo" berilgan (5). Bu odatdagi bosma xatosi bo'lsa kerak, degan xulosa bilan cheklanish mumkin. Ixtiyorimizda bo'lgan "Mahbubul-qulub" qo'lyozmasida ham mazkur kalimaning "atqiyo" tarzida ko'chirilganligi shunday yakunga kelaverish asosini beradi. Biroq "atqiyo" va "anqiyo" so'zlarining mantiqan bir-birini rad qilmasligi mulohaza yuritishga chorlaydi. "Anqiyo"

arabcha soʻz boʻlib, sifatning orttirma daraja shaklidir. U - eng toza, eng pok, eng sof maʼnolariga ega [Baranov, 1970:465]. Mazkur nodir sifatlar esa taqvo ahli (“atqiy”) uchun suv va havo singari zarur. Umr boʻyi musulmonchilikning sharʼiy ruknlariga qatʼiy amal qilgan, namozda qoyim boʻlgan Hazrat Navoiy taqvodorlar mazmunini “anqiy” opqali bergan, degan faraz mana shu jihati bilan oʻz zaminiga ega. Biroq koʻchirilgan parcha tarkibida masjid, sajda soʻzlarining borligi, badiiy tasvirning aynan namoz jarayoniga yoʻnaltirilganligi, shu diniy rukn mantigʻiga uygʻun “atqiy” soʻzini taqozo etadi.

“Nomunosib noiblar zikrida”gi 3-faslda oʻrinbosarning ijtimoiy vazifasiga koʻra axloqidagi eng jirkanch illat yolgʻonchilik ekanligi taʼkidlanadi. Noibning bu illati pora olib, yolgʻon vaʼda berib turgan vaziyatida tilidan diliga koʻchadi: “Nima olurda yolgʻon anga chin oʻrniga va musulmonlarga nuqson anga din oʻrniga, yolgʻon borida anga chin demaki mahol va rishvat olurda oʻzga soʻz deb, ammo koʻnglida oʻzga xayol” (12). Yigʻma matnda mazkur parcha “xol” soʻzi bilan intiho topgan (12). “Xol”ning bizga maʼlum va lugʻatlarda yozilgan koʻplab maʼnolari matnga mos kelmasligi ayon. Agar “xe” ustidagi nuqtani bosmaxona xatosi sifatida qabul qilsak, unda bu soʻz “hol” deb oʻqiladi. “Hol” kishining ichki vaziyatiga tegishliligi jihatidan koʻchirilgan iqtibos mazmuniga mos. Biroq maʼno nozikligi bilan bu soʻz koʻngil koʻzi ravshan kishilarga nisbatan ishlatilganda joyiga tushadi. “Xayol” esa quyidagi xususiyatlariga koʻra matn mantigʻiga monand:

1. Noibning tilda boshqa soʻz deb yuragidan boshqa soʻzni oʻtkazishi “xayol” bilan ifodalanganda ishonchsiz, betayin amaldor qiyofasini tasavvur qilish osonlashadi.

2. Ogʻiz bilan aytilgan vaʼdaning puchligiga koʻngildan kechgan “xayol” dalil boʻla oladi.

3. Aslida amalda sodir boʻlmaydigan ishlar xayolda bajariladiki, yolgʻonni chin oʻrnida koʻruvchi noib niqobini yoritishda “xayol” yashirin-ramziy maʼnolari bilan muallif gʻoyaviy niyatining amalga oshishiga koʻmak beradi.



4. Shaytoniy hirslar ummoniga g'arq bo'lgan jinoyatkor kimsaninig ko'ngli hech qachon "hol"ga oshno bo'lmaydi. Qabih vujudda fosid "xayol"lar uya qo'yadi.

5. "Hol", "mahol"ga faqat harfi raviydagina mos; xayol esa ham raviyda, ham vaznda (mahol-xayol) muvofiq bo'lib, to'liq saj' (saj'i mutavoziy) hosil qiladi.

Asarning hajman katta tanbihlaridan biri shunday jumla bilan xotima topgan: "Bechora ul mazlumkim, bu zulmkashlarga giriftor va bu sitam andishalarga farmonbardor bo'lgay, bular jafosin bu jafokash jonidin so'r va sitamlari jarohatlarin majruh bag'ri zaxmidin ko'r" (49-50). Avvalo, aytish joiz, "zulmkash" so'zini "i" bilan yozish, "andishalarga" kalimasidagi ko'plik qo'shimchasidan oldin keluvchi "a"dan voz kechish darkor. Undan keyin joriy yozuvdagi nashrdan keltirilgan bu parcha qusurlardan qutuladi. Ko'chirganimiz iqtibosda asosiy bahstalar so'z "so'r"dir. U yig'ma matnda "javr" shaklida berilgan (110). Shaki nuqtai nazaridan qaralsa, "javr" "xat suvratiga" husn qo'shadi. Ya'ni "j" lik so'zlar (jafosin, jafokash, jonidin...) ishtirokida uyushtirilgan tavzi' go'zalligini ta'minlashda "javr"ning ham hissasi bor. Ammo lafzdoshlikning fikr ifodasi uchun xizmat qilishi va yana bu o'rinda bir so'zning tavzi' davrasidan chiqishi bilan ko'chirilgan iqtibos shakliga zarar yetmay, aksincha, surat va ma'no undan foyda ko'rishi "javr" o'rnida "so'r" o'qilganda namoyon bo'ladi. 10-tanbihda muallif zamon ahlining zulmparvar va andishasiz, yuzsiz va uyatsizligidan shikoyat qiladi. Keltirilgan parcha davron xayli bevafoqligidan ulug' jafolar ko'rgan, boshdan oyoq jabr-u sitamlar alangasida yongan olijanob qalb sohibi ruhiy holatlari badiiy ifodasining yakunidir. Tanbih xulosasida Navoiy jafokorlar jabridan g'am-g'ussaga to'lgan yurakning armonlarini so'z bilan ifodalab bo'lmasligi, uni o'sha zulmparvarlar tuzog'iga ilingan, jafoning temir qafaslarida qiynalganlarning jonidan so'rash, jabrning jarohatlarini jarohatlilarning yuragidagi yaralardan ko'rish lozimligini uqtiradi. Shuning uchun ham "so'r" o'rnida "javr" qo'llanilganda ulug' adib fikrlari mavhumlashib qoladi. Matnda "javr" ifodalaydigan ma'no undan oldinroq kelgan

shu soʻzning maʼnodoshi (“jafosin”) orqali maʼlum boʻlganligi uchun oʻrinsiz takror yuz beradi, sajʼlangan qatorlar orasida ishlatilgan tinish belgisi (vergul)ning oʻrni oʻzgaradi. Eng achinarlisi, gʻoyaviy-badiiy maqsadni yuzaga chiqarishda kamarbasta boʻlgan toʻliq sajʼning bir qanoti sinadi (soʻr-koʻr).

“Mahbubul-qulub” 1966-yilgi chopida yana bir tahrir 110-tanbihning dastlabki jumlasida nazarga tashlanadi: “Yaxshidan yomonlar ham yomonligʻ tamaʻ tutmas; yaxshi yomonlarga ham yaxshiligʻni unutmas” (YM,155). Porso Shamsiyev matndagi “tamaʻ”ni “koʻz” soʻzi bilan almashtirib (79), maʼnoga aniqlik kiritgan. Tamaʻ hirsga tegishli tuygʻu boʻlganligi uchun istak, intilish, talpinish kabi xususiyatlar uning tabiatini belgilaydi. Biroq hech bir inson farzandi hech qachon oʻziga yomonlik istab intilmaydi. Shuning uchun ham koʻchirilgan iqtibos magʻziga “tamaʻ” singmaydi, hayot mantiqiga zid keladi. “Koʻz” esa oʻzidan keyingi “tutmas” bilan birgalikda “kutmas” maʼnosini ifodalaydi.

Filologiya fanlari doktori P.Shamsiyev “Mahbubul-qulub” yigʻma matnidagi koʻpgina noaniq va matn mazmuniga toʻla mos tushmaydigan soʻzlarni asarning boshqa nusxalaridagi kalimalar bilan almashtiradi.

Alisher Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matnlarining yaratilishi oʻzbek matnshunosligi ilmiy-nazariy taraqqiyotining eng yuqori bosqichini boshlab berdi. S.Mutallibov 1944-yili “Hayratul-abror”ning tanqidiy matni” mavzusida nomzodlik, P.Shamsiyev 1952-yilda “Alisher Navoiyning “Sabʻai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matni va uni tuzish prinsiplari “ mavzusida nomzodlik, 1970-yili “Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy teksti va uni tayyorlash prinsiplari” mavzusida doktorlik, H.Sulaymonov 1961-yili “Alisher Navoiy lirikasining tekstologik oʻrganilishi”, S.Gʻaniyeva 1956-yilda “Majolis un-nafois”ning III va IV majlislari ilmiy-tanqidiy matni va adabiy tahlili” mavzuida nomzodlik, L.Xalilov 1975-yili “Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarining tekstologik tadqiqi” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydilar.

XX asrning 20-yillaridan oʻzbek matnshunosligi sifat jihatidan yana yangi bosqichga koʻtarildi. Badiiy asarlarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish, badiiy matnga tanqidiy munosabatda boʻlish, oʻzbek matnshunosligini jahon matnshunosligi

talablari maqomiga ko'tarishga intilish bilan jadid ijodkorlari o'zbek matnshunosligining yangi bosqichi poydevoriga tamal toshini qo'ydilar.

XX asrning 40-yillariga kelib o'zbek matnshunoslarining yangi avlodi tarix sahnasiga chiqdi. Mazkur davr matnshunosligining o'ziga xos, yangi milliy zaminda shakllanishi va taraqqiy qilishiga Hazrat Alisher Navoiyning 500 yillik tavallud sanasi turtki bo'ldi. Badiiy matning yig'ma-qiyosiy, ilmiy-ommabop, ilmiy-tanqidiy shakllari yaratila boshladi. Mazkur jarayon Istiqlol davriga qadar davom etib, Alisher Navoiy asarlarining matniy tadqiqatlari natijasida o'zbek matnshunosligida matn tuzishning qat'iy prinsiplari ishlab chiqildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Баранов С.К. Арабско–русский словарь /в двух книгах/, кн. 1. – М.: изд. Советская энциклопедия, 1970. – 600 с.
2. Баранов Х. К. Арабско-русский словарь /в двух книгах/, кн. 2. – М.: изд. Советская энциклопедия, 1970. – 582 с.
3. Boltaboyev N. XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Fitartning ilmiy merosi. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 1966. –270 b.
4. محبوب القلوب. علي شير النوائي. Бухоро санъат музейи хазинасидаги 27780-рақамли кўлёзма. – 121 в.
5. علي شير النوائي. محبوب القلوب  
Сводный текст. – М. – Л. Изд. АН СССР. 1948. – 174 стр.
6. Навоий А. Асарлар. 15 томлик, 13-том. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1966. – 244 б.
7. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. – 304 б.
8. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 784 б.
9. Sirojiddinov Sh. Umarova S. O'zbek matnshunosligi qirralari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 122 b.
10. Ҳамидова М. “Маҳбубул-қулуб” илмий-танқидий текстини тузиш учун жалб қилинган кўлёмалар //Адабий мерос, 1986, 3-сон. –Б.25-27.

#### **ALISHER NAVOIY ASARLARIGA MUNOSABAT: BRITANNICA.COM., HAMID DABASHI, PAUL SMITH QARASHLARI ASOSIDA**

**Sulaymonov Mo'minjon Yusubjonovich,**

*NamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

[msulaymon62@gmail.com](mailto:msulaymon62@gmail.com) 93 705 25 55

**Xoldorova Gulnoza Husniddinovna,**

*FarDU tayanch doktoranti*

[gulnozaholdarova7@gmail.com](mailto:gulnozaholdarova7@gmail.com) 99 978 05 22

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodiga nisbatan xorijiy adabiyotshunoslarning qarashlari tahlil qilinadi. Xususan, Britannica.com manbalari, Hamid Dabashi hamda Paul Smith fikrlari asosida Navoiyning turkiy adabiyot, tasavvuf va jahon madaniyatidagi oʻrni yoritiladi. Mualliflarning ilmiy yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** Alisher Navoiy, Britannica com, Hamid Dabashi, Paul Smith, tasavvuf, turkiy adabiyot, jahon adabiyoti, adabiy meros, qiyosiy tahlil.

**Annotation:** This article analyzes the views of foreign literary scholars on the works of Alisher Navoiy. In particular, the study examines the opinions presented in Britannica.com sources, as well as the perspectives of Hamid Dabashi and Paul Smith, highlighting Navoiy's place in Turkic literature, Sufism, and world culture. The authors' scholarly approaches are comparatively analyzed.

**Keywords:** Alisher Navoiy, Britannica.com, Hamid Dabashi, Paul Smith, Sufism, Turkic literature, world literature, literary heritage, comparative analysis.

Jahon adabiyotida Alisher Navoiy ijodini oʻrganish qariyb olti yuz yillik tarixga ega boʻlib, bu davr mobaynida Sharq va Gʻarb mamlakatlarida navoiyshunoslikka doir koʻplab asarlar yaratildi hamda ulugʻ shoir va mutafakkir ilmiy-ijodiy merosining jahon madaniyati tarixidagi oʻrni baholandi[Sultonov, 2023:3].

Hozir maʼlum masala boʻyicha biror maʼlumot yoki izoh toʻplamoqchi boʻlsak, albatta, internet sahifalariga yuzlanamiz. Biz eng ommaviy saytlarda Navoiy haqida berilgan maʼlumotlarga eʼtibor qaratib, bugun jahon adabiyotshunosligida Alisher Navoiy haqida qanday qarashlar ustuvor, adib ijodi qay darajada yoritilmoqda kabi masalalar bilan qiziqdik. Foydalanuvchilarning salmogʻi jihatidan anchayin keng qamrovga ega britannica.com saytida shu Alisher Navoiy asarlariga munosabat masalalarini tahlil qilamiz:

Navai's was the most active and influential literary figure among those writing in [Turkic languages](#) under the Timurids, and in his works he raised Chagatai to a very high artistic level. He showed his greatest originality in his *masnawis*,

where his new [conception](#) of plot caused him to abandon the [genre's](#) traditional narrative style and to embark on a [novel](#) theory of [mimesis](#). His *Khamseh* demonstrates his centrality to the Chagatai literary tradition. It consists of a set of five *masnawis*: *Khayrat ul-abrār* (1483; "The Best of the Righteous"), *Farhād u Shīrīn* (1484; "Farhād and Shīrīn"), *Leylī u Majnūn* (1484; "Leylī and Majnūn"), *Seb 'a-i seyyāra* (1484; "The Seven Planets"), and *Sedd-i Iskandarī* (1485; "The Wall of Alexander"). The *masnawi Lisān ul-tayr* (1498; "The Language of the Birds"), an [adaptation](#) of *Manteq al-ṭeyr* (*The Conference of the Birds*) by the Persian poet [Farīd al-Dīn 'Attār](#), is a similarly important work. Navā'ī was also able to incorporate the theoretical and institutional [Sufism](#) that dominated the Timurid age into his literary [aesthetic](#), creating abstract yet emotionally expressive *ghazals* and *robā'iyāt*. His other writings include works on prosody, as well as a *tezkiye* (literary dictionary), *Majālis-i nefa'īs* (1491; "The [Exquisite](#) Assemblies") [britannica com., 2024: 9].

Tarjimasi: "Navoiy temuriylar davrida turkiy tillarda ijod qilganlar orasida eng faol va nufuzli adabiy arbob bo'lib, o'z asarlarida chig'atoy tilini yuksak badiiy darajaga ko'targan. Navoiy ijodining o'ziga xosligi, ayniqsa, uning masnaviylarida yaqqol bo'y ko'rsatdi. Bu o'rinda uning yangi syujet tushunchasi janrning an'anaviy hikoya uslubidan voz kechib, mimesis[1]ning yangi nazariyasiga kirishishiga sabab bo'ldi. Uning "Xamsa"si chig'atoy adabiy an'alarida markaziy o'rin tutganini ko'rsatadi. U besh masnaviydan iborat: "Hayrat ul-abror" (1483; "Solihlarning eng yaxshisi"), "Farhod va Shirin" (1484; "Farhod va Shirin"), "Layli va Majnun" (1484), "Sab'ayi sayyor" (1484; "Yetti sayyora") va Saddi Iskandariy (1485; "Iskandar devori"). Fors shoiri Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" ("Qush nutqi") asariga javoban "Lison ut-tayr" (1498; "Qush tili") masnaviyi ham xuddi shunday muhim asardir. Navoiy temuriylar davrida hukmronlik qilgan nazariy va amaliy so'fiylikni ham o'z adabiy estetikasiga singdira oldi, mavhum[2], ammo hissiy jihatdan ifodali g'azal va ruboiyotlar yaratdi. Uning boshqa asarlari orasida prosodiya[3]ga oid asarlar, shuningdek, tazkira (adabiy lug'at), "Majolis un-nafois" (1491; "Nafis majlislar") bor".

Tarjimada e'tibor qaratishimiz shart bo'lgan jihatlarni raqamlar bilan ko'rsatdik. 1-jumlada gap bebaho "Beshlik" haqida borar ekan, Navoiy "Xamsa"sining o'ziga xosligini jahon miqyosidagi e'tirofi deb tushunish o'rinli, Navoiy masnaviylarga yangi syujet tushunchasini olib kirganligi haqida e'tirof borligi bizni quvontiradi, ammo jumlaning davomida Navoiyning mazkur asarlari mimesisning bir ko'rinishi deya qayd etilgani e'tirozga sabab bo'ladi. Bu Sharqda mavjud an'anaviylik prinsipini noto'g'ri tushunishdan kelib chiqqan xulosa. Bunga tarixiy asoslarimiz ham bor.

2-jumlaga e'tibor qaratsak, Navoiyning g'azal va ruboiylaridagi mavhumlik haqida fikr bor. Bu aslida shoir lirikasidagi ilohiy ishq sirlari haqidagi e'tirof bo'lishi kerak.

3-jumlada prosodiyaga oid asarlar deya "Majolis un-nafois" tazkirasi qayd etilgan. Bizningcha, tazkiraga nisbatan ishlatilgan ikki munosabat ham, adabiy lug'at termini ham o'zini oqlamaydi.

"The Oxford History of Historical Writing" tadqiqoti butun dunyo bo'ylab tarixda yashagan yozuvchilar haqida ma'lumot beruvchi besh jildlik, hammualliflar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Insoniyatning adabiy o'tmishini saqlash, tiklash va hikoya qilishga urinishlarining xronologik tarixi bo'lib, turli global an'analarga va ularni G'arb yozuvchilari, tarixshunoslari bilan taqqoslash nuqtalariga katta e'tibor beradi. Har bir jild ma'lum bir davrni o'z ichiga oladi, davrlashtirish tushunchalarining haddan tashqari imtiyozlaridan qochishga harakat qilinadi va jildlar asta-sekin qisqaroq xronologik oraliqlarni qamrab oladi, keyingi jildlarning kengroq geografik diapazoni va o'n to'qqizinchi yildan boshlab butun dunyo bo'ylab tarixiy faollikning keskin o'sishini aks ettiradi. Asar butun dunyoni keng qamrovli vaqt oralig'ida aks ettira olgan yozma adabiyot tarixi bo'yicha birinchi jamoaviy ilmiy tadqiqotdir hamdir.

Mazkur tadqiqotda ham Alisher Navoiy ijodiga urg'u berilib, u turkiy adabiyotda naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida qayd etilgan. Asarda yana quyidagi muhim ma'lumotlar bor: "...*biographies on individuals only started to appear in larger numbers during the late fifteenth century under the Timurid*

*dynasty, such as Khvandamir's glorification of his patron, the Timurid poet and statesman Mir Ali Shir Navai*" [Chase, 2019: 275].

Tarjimasi: ma'lum bir shaxslar haqidagi tarjimayi hol xarakteridagi asarlar faqat XV asrning oxirlarida temuriylar sulolasi davrida ko'p shakllana boshlagan, masalan, Xondamir o'z homiysi, temuriylar shoiri va davlat arbobi Mir Alisherni ulug'lagan.

Fikrlarda Xondamirning "Makorim ul-axloq" asariga ishora qilingani aniq. Lekin hozircha Xondamirgacha mavjud bo'lgan an'ananing mazkur qomusiy asarga kiritilgani yoki kiritilmagani haqida aniq ma'lumotga ega emasmiz.

"The World of persian literary humanism" kitobi Sharq adabiyoti ixlosmandi Hamid Dabashi tomonidan yozilgan bo'lib, u dunyoda Eron tarixi va madaniyati bo'yicha eng bilimdon olimlardan biri sanaladi. Pennsilvania universiteti professori Firoozeh Kashani-Sabetning ta'kidlashicha, uning ijodiy va jozibali hikoyasi o'quvchini katta geografik kenglik va mohirona tahlilga ega adabiy voqeligi bilan hayratga soladi.

Dabashi klassik fors adabiyoti haqida boy va xilma-xil ma'lumotlarni taqdim etadi. Dunyoning buyuk dostonlaridan biri bo'lgan "Shohnoma" yoki "Shohlar kitobi"ning XI asr shoiri Firdavsiy kabi so'z sarkardalari qatorida so'fiy lirik shoirlar Hofiz va Rumi, Sa'diy nomlarini eslaydi. U fors adabiyotining ta'limiy, tarbiyaviy jihatlarini yoritarkan, bevosita mazmun mundariyasi Islom dini bilan bog'lanishini asoslab beradi. Alisher Navoiy ijodini esa shu tarmoqning bir bo'lagi sifatida talqin etadi [Dabashi, 2022:165].

Fikrimizcha, mazkur asar tadqiqotimiz uchun juda foydali bo'lib, Navoiy ijodining tarixiy, asl o'zanlari haqida muayyan fikrlar va o'rinli mulohazalar bera oladi. Hamid Dabashi Navoiyning zullisonaynlik mahoratini olqishlab yozadi: "in his (Nava'i's) own poetic and literary capabilities and wrote both in his native Chagatai Turkish and also in Persian,... (tarjimasi: she'riy va adabiy imkoniyatlariga ko'ra o'zining ona tili – chag'atoy turkiysida ham, fors tilida ham erkin ijod qilgan)" [Dabashi, 2022:165].



Bu qaydlar buyuk bobobimizga xos noyob iste'dodning jahon miqyosida yana bir marta e'tirof etilishidir. Dennis Deyli tomonidan esa Alisher Navoiyning 21 g'azali o'zbek tilidan inglizchaga tarjima qilinib, kitob shaklida chop etilgan. Ijodkor o'z imkoniyatidan foydalanib, tarjima jarayonida g'azallar badiiyatini, sof go'zalligini saqlab qolishga uringan. [Jabborov, 2016: 65]

N.Normurodovanning "Alisher Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimalari haqida", A.Erkinovning Navoiyning Mashhadiy bilan so'nggi adabiy hamkorligi: Amerikadagi 1500-yili ko'chirilgan noyob qo'lyozma [Erkinov, 2023: 62]maqolalarida ham xorijdagi navoiyshunoslik yutuqlari haqida so'z boradi.

Alisher Navoiy asarlarini so'fiy adabiyot bilan bog'lab o'rgangan yana bir olim Paul Smithdir. Uning turkiy adabiyotga qiziqishi, ayniqsa, tasavvuf adabiyotiga o'zgacha e'tibori bevosita 10 dan ortiq asarlarning yaratilishiga zamin hozirladi. Tadqiqotchi Alisher Navoiy asarlarini tasavvuf adabiyotining yuksak namunasi sifatida bilib, chuqur tadqiq etadi. Uning "Divan of Alisher Navoi "Universal Man": Sufi Master poet, Politician..." nomli asarining kirish qismida Alisher Navoiyning serqirra faoliyatiga alohida urg'u beriladi. Uning turkiy adabiyot olamidagi o'rni, bundan tashqari har sohada barkamol, yetuk shaxs ekanligi ta'kidlanadi. Navoiyning mohir siyosatchi, tilshunos, olim, rassom, san'at homiysi, arxitektorlik qobiliyatlariga ega ekanligi va o'z davrining komil insoni darajasiga ko'tarilganligi Paul Smith tomonidan misollar bilan yoritib berilgan.

Alisher Navoiy asarlariga xorijlik tadqiqotchilarning qiziqishi yildan yilga ortib borganligi tufayli mazkur soha yangidan yangi tadqiqotlar bilan boyiyotgani quvonarli hol. Navoiyshunos olim Aftondil Erkinov "Istiqlol davri navoiyshunosligi" to'plami 19-jildining "Xorijiy navoiyshunoslikka oid qaydlar" qismida Navoiy ijodining Kanada, Vengriya, Fransiya, Germaniya, Turkiya kabi davlatlarda keng miqyosda o'rganilayotganligi haqida bir necha ilmiy dalillarni keltiradi.

Adib ifodalagan umumbashariy qadriyatlarning jahon miqyosida o'rganilishi, asarlarining e'lon qilinishi Navoiy siymosi bilan birga o'zbek xalqiga nisbatan ehtirom ifodasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dabashi H. The World of Persian Literary Humanism. – Harvard: University Press, 2022. – P. 165.
2. Daly D. Twenty-one Ghazals Alisher Navoiy. – United states: Cerneva Barva Press, 2016. – 65 p.
3. Erkinov A. Navoiyning Mashhadiy bilan so‘nggi adabiy hamkorligi: Amerikadagi 1500-yili ko‘chirilgan noyob qo‘lyozma // Alisher Navoiy va XXI asr uluslararo konfrans materallari. – Toshkent, 2023. – B. 62.
4. Эркинов А. Истиқлол даври навоийшунослиги. 19-жилд // Хорижий навоийшуносликка оид қайдлар. – Toshkent, 2022. – B. 315-325.
5. Normurodova N. Alisher Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimalari haqida // Alisher Navoiy va XXI asr uluslararo konfrans materallari. – Toshkent, 2023. – B.62.
6. Sultanov T. Alisher Navoiy va ozarbayjon adabiyoti: tarixiy ildizlar, an‘analar, vorisiylik (Kishvari va Sodiqiy asarlari misolida). [<https://diss.natlib.uz/tanishish/7502ef4b-fcc8-4283-96e2-43e42d0dec4c>. 3-bet.
7. Chase R., Sarah F. The Oxford History of Historical. – Oxford: University Press. – P. 275.
8. URL: <https://www.britannica.com/art/Chagatai-literature#ref970666>

### ADABIYOTDA ILMI BALOG‘ATNING O‘RNI

**Abdullaev Muhammad Hamzayevich,**

*O‘zDJTU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

*Email: muhammadxonxamzayev@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada arab adabiyoti va tilshunosligining muhim bo‘limi sanalgan balog‘at ilmining mazmuni, asosiy bo‘limlari va uning tarixiy hamda nazariy ahamiyati yoritiladi. Unda balog‘atning nutqni mazmunan ravon, usluban ta’sirchan va mantiqan mukammal qilishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, balog‘at qoidalarining adabiy matnlarni talqin qilish va notiqlik san’atidagi o‘rni ilmiy-ommabop shaklda izohlanadi. Maqola balog‘at borasida yozilgan benazir asarlar va ularning mualliflari haqida ham ma’lumot beradi.

**Kalit so‘zlar:** Balog‘at, bayon, ma’oniy, bade’, bayt, sharh, ma’no, so‘z, holat.

**Abstract:** This article explores the content, major branches, and historical-theoretical significance of Balāghah, a key discipline within Arabic linguistics. It analyzes the role of Balāghah in achieving semantic fluency, stylistic effectiveness, and logical coherence in speech. The article also explains, in a popular-scientific

manner, the importance of Balāghah principles in interpreting literary texts and enhancing the art of oratory. Additionally, it provides information about the exceptional classical works written on Balāghah and their authors.

**Keywords:** balagha, bayan, ma‘ani, badī‘, verse, commentary, meaning, word, context.

Ma‘lumki, har qanday ilmni chuqur o‘lashtirmagunimizcha uning mohiyatini his qila olmaymiz. Mohiyatini anglatadigan manbalaridan biri esa tildir. Til qancha keng imkoniyatlarga ega bo‘lsa, inson ham undan shunchalik ko‘p foydalana oladi. Imkoniyat eshigi cheksiz bo‘lgan tillardan biri esa, shubhasiz, arab tilidir. Arab tilining o‘ziga xosliklari, xususiyatlarini kashf qilish bevosita balog‘at ilmiga bog‘liqdir. Bu fan nafaqat nasriy, balki nazmiy asarlarni ham o‘rganadi. Shuningdek, balog‘at bir fan emas, balki uchta ma‘oniy المعاني, bayon البيان va bade’ البديع ilmlarining jamlanmasidir. Bu fan haqida ma‘lumotlar ilk bor to‘qqizinchi asrda Abu Ubaydaning “Majoz al-Qur‘on - مجاز القرآن” nomli asarida uchraydi<sup>1</sup>. Bu fanda yozilgan dastlabki asarlar savol-javob yoki kichik maqola shaklida bo‘lgan. Mashhur arab adibi Johiz (780-869) esa o‘zining “Al-bayon va at-tabayyun - البيان والتبيين” kitobida bu fanga doir o‘zining qarashlarini aytib o‘tgan. So‘ng Abu Bakr ibn Durayd(837-933), Abu Hilol Askariy(920-1005) kabi namoyondalar ham bu fanga ta‘alluqli asarlar yozishgan, ammo ularning kitobi bu fanni to‘la qonli qamrab olmagan. Bu ilm xususida mustaqil kitob yozgan ilk alloma hijriy uchinchi asrda yashagan Ibn al-Mo‘taz bo‘lib, o‘zining “Al-Bade’ - البديع” kitobida balog‘at ilmlari haqida so‘z yurgizadi. Ammo u kitobida balog‘at ilmi atamalarini ishlatmagan, shuning uchun ham bu kishini balog‘at ilmi asoschisi deya olmaymiz. Balog‘at ilmi qoidalari va atamaları asoschisi sifatida Abdulqohir Jurjoniyy(1009-1078) e’tirof etiladi. U o‘zining “Daloil al-e‘joz - دلائل الإعجاز”, hamda “Asror al-balog‘a - أسرار البلاغة” kitoblarida ma‘oniy va bayon ilmlarini mustaqil fanlarga bo‘lib, mavzulashtirib chiqdi. Qisqacha qilib aytganda, bu fanning rivojlanish bosqichi quyidagicha bo‘ladi:

---

<sup>1</sup> Ahmad Hasan Zayat. Tarix al-adab al-arobiy – Damashq: Rovai al-kutub, 2023. – B. 502.

1. Ilk mulohazalarning paydo bo'lishi.
2. Boshqa ilmlarning ichida rivojlanishi.
3. Alohida fan sifatida ajralib chiqishi.
4. Mavzulashtirilgan, to'la-to'kis bir fanga aylanishi.

Bu fanga tegishli ilk mulohazalar johiliyat davrida paydo bo'la boshlagan. O'sha davrda shoirlar Ukoz bozorida yig'ilib she'rxonlik qilishgan. Eng yaxshi, go'zal va nafis she'r aytuvchi shoirlar keyinchalik hakam vazifasini bajarib, boshqalarning she'rini tanqid qila olgan. Ana shunday hakamlardan biri Nabig'a Zubyoniy bo'lib, bir kuni odatdagidek shoirlar bilan suhbatlashib o'tirganida mashhur shoira Xonsa keladi, hamda akasi Soxr haqida she'r aytadi. Shunda Nabig'o uni maqtab "Ayollar ichida sendek shoira yo'q",- deydi. Xonsa: "Balki erkaklar ichida ham yo'q",- deya sha'nini yuksaltiradi, ammo buni Hassan ibn Sobit eshitib qoladida, "Qasamki, men sendan ham, otangdan ham, bobolaringdan ham yaxshiroq she'r aytaman",- deydi va ushbu baytni aytadi:

وأسيافا يقطرن من نجدة دما لنا الجففات الغرّ يلمعن بالضحى

Ma'nosi:

*Sahar vaqti yarqiraydi idishlarimiz,*

*Yordam uchun qon yog'dirar qilichlarimiz.*<sup>1</sup>

Buni eshitgan Nabig'o Zubyoniy baytni balog'iy jihatdan tahlil qiladi va ilk balog'iy mulohazalarni aytadi: "Sen yaxshi shoirsan, ammo "idishlar" so'zini "جففات" ko'pligida emas "جفان" shaklida keltirish afzalroq bo'lardi. Negaki sen aytgan ko'plik ozlikka dalolat qiladi. Undan keyin sen "yarqiraydi" deb aytding, "porlaydi" deganing durustroq edi. Sen "qon yog'dirar" deding, lekin bu qon kam ekanligiga dalolat qiladi, faxrlanish uchun "qon oqizar" deyish yaxshi bo'lar edi".

Shu yo'sinda bir baytdagi kamchiliklarni topib, tahlil qiladi. Bu esa, o'sha davrda ham bu ilm haqida tushunchalar borligini, ammo hali ilm bo'lib shakllanmaganini ko'rsatadi.

Islom dini kelib, arablar katta yerlarni fath etishgach esa, o'z-o'zidan arab tilini rivojlantirish, qonun-qoida o'rnatishga ehtiyoj o'sib bordi. Hijriy birinchi asrda nahv, keyinchalik sarf fanlari paydo bo'ldi. Ayni nahv fani bilan birgalikda

<sup>1</sup> Ibrohim Muhammad. Tarix al-balog'a – Madina: Ummul Quro, 2019. – B. 9.

ma'oniylar fani ham rivojlandi. Ammo bu davrda balog'at fanlari mustaqil bo'lmadi, balki boshqa fanlar zimnida rivojlandi.

Ummaviylar davriga kelib balog'at degan tushuncha "qisqalik" degan ma'noni anglatdi. Ya'ni gap qisqa, lo'nda bo'lishi uning balog'atini belgilab beradi. Abbosiylar davriga kelib madaniyat, she'r va nazm rivojlanishi bilan balog'at ilmi ham rivojlandi. Arab tili ulamolari ham qismlarga bo'linib, kimdir nahv va sarfga, kimdir adabiyotga, kimdir esa tilshunoslik masalariga e'tibor qaratdi. Abdulqohir Jurjoniylar balog'at ilmi asoslariga oid ikki kitob yozdi. "Daloil al-e'joz - دلائل الإعجاز", hamda "Asror al-balog'a - أسرار البلاغة" kitoblari bu fanga asos vazifasini o'tadi. Undan keyingi balog'atchi olimlar Zamaxshariy, Faxriddin Roziy Abdulqohir aytgan so'zdan boshqa so'z deymadi.

Jurjoniylardan keyin kelgan mashhur olimlardan biri, shubhasiz, Abu Ya'qub Yusuf Sakkokiy(1160-1229) edi. Asli xorazmlik bu olim arab tili ilmlarini qamrab olgan "Miftah al-ulum - مفتاح العلوم" nomli kitob yozgan. Bu kitob sarf, nahv, aruz, lug'at, qofiya ilmlari bilan birgalikda ma'oniylar va bayon ilmlarini ham qamrab olgan.<sup>1</sup> Asar turli fanlarga ko'ra bir necha qismlarga bo'lingan, balog'at ilmi bu asarning uchinchi qismidan joy olgan va benihoya mashhurdir. Muhammad Qazviniylar(1268-1338) esa aynan mana shu uchinchi qismga kichik xulosa "تلخيص المفتاح" yozgan. Keyinchalik bu xulosasiga o'zi sharh yozib "Izoh fi ulum al-balog'a - الإيضاح في علوم البلاغة" deya nomlagan. Shu bilan buyuk olim Sakkokiy zamonaviylar balog'at ilmiga poydevor vazifasini o'tagan va o'tab kelayotgan kitobni yozib qoldiradi.

Imom Qazviniylarning xulosa kitobiga keyinchalik Bahouddin Subkiylar(1319-1372), Sa'duddin Taftazoniylar(1322-1390) kabi yetuk olimlar ham sharh bitishgan. Xususan, Bahouddin Subkiylarning "Arus al-afroh - عروس الأفراح" asari balog'at ulamolari nazdida yuksak baholanadi, hamda Taftazoniylarning "Mutavval - المطول" va "Muxtasar al-ma'oniylar" kitoblari uchun muhim manba bo'lib xizmat qildi. Bu ulamolardan keyin yozilgan asarlar faqatgina ularga taqlid qila oldi xolos. Shu sababli ham asrlar mobaynida yuqorida eslab o'tilgan kitoblar dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

<sup>1</sup> Abu Ya'qub Sakkokiy. Miftah al-ulum – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1987. – B. 7.

O'tgan asrlardagi ulamolardan ta'sirlanib, ularning yo'lini davom ettirgan, asarlarini tushunishga oson qilib bergan, yangi asr ulamolaridan Ahmad Hoshimiy "Javohir al-balog'a", Mustaf o Sodi q Rofe'iy "E'joz al- Qur'on va balag'ot an-nabaviyya", Horun Abduroziq "Husn as-siyag'o fi funun al-balog'a", Ali Jorim va Mustaf o Amin "al-Balog'ot al-vodiha", Doktor Abdulaziz Atiq "Ilm al-bayon", "Ilm al-ma'oni y", "Ilm al-bade'", Hifni y Nosif va do'stlari "Durus al-balog'o", Muhammad Anvar Badaxshoni y "al-Balog'ot as-sofiya", Ahmad Qollash "Taysir al-balog'o", hamda Doktor Fozil Somirroiyning bir necha kitoblarini misol qilish mumkin. Bu fanga doir nafaqat kitoblar, maqolalar balki she'ri y yo'sinda yozilgan manzumalar ham mavjud, jumladan: Ibn Shihna "Miat al- ma'oni y", Abdurahmon Axdori y "Javhar al-maknun" kabi takrorlanmas ilmi y meros qoldirishgan.

Bu fanning ahamiyati haqida juda ko'plab ulamolar so'z bitishgan. Xususan, Qur'oni Karimning nozik ma'nolari va mo'jizakorligi, Nabi y (s.a.v)ning yuksak ma'noda aytgan so'zlari, arab tilida yozilgan she'rlar, qasidalar, hikmatli gaplarni tahlil qilib, tadqiq qiladigan ayni shu ilmdir. Aql bu ilmni chuqur o'rganib borar ekan, qalbning sezgirli gi yanada yuksaladi. Bunga misol uchun bir baytni ko'rishimiz mumkin:

فلما (كلّ متني) كلمتني طرقت الباب حتى (كلّ متني)  
فقلت أيا (أسما عيل صبري) صبراً إسماعيل(فقلت لي أيا

Ma'nosi: Eshikni yelkam charchaguncha taqillatdim,

Yelkam charchagach menga so'z boshladi,

Dediki, ey Ismoil sabr qilgin,

Dedimki, ey Asmo sabrim tugadi.<sup>1</sup>

Ko'rinib turibdiki, ushbu baytda jinos orqali chiroyli musiqiy ohang vujudga kelgan. Bu kabi misollarni cheksiz keltirish mumkin. Undan tashqari, bu ilm arab tilida go'zal, ravon, dadil va eng muhimi tushunarli gapirishiga ko'maklashadi. Shu sababli ham Abdulqohir Jurjoni y: "So'zlarning yig'ilishi bizga ma'no hosil etmaydi, balki ular ma'noga munosib tartiblashishi zarur",- degan. Yusuf Sakkoki y esa: "Holat taqazosiga ko'ra gap aytish balog'atdir",- degan. Zamaxshari y esa

<sup>1</sup> <https://allghtu-alrbytu.quora.com> sayti.

“Kashshof” nomli tafsir kitoblarining muqaddimasida bu ilm haqida shunday deydi: “Agar faqih barcha zamonning fatvolarini o‘rganib chiqqan bo‘lsa, yoki kalom ilmi mutaxassisi qolgan barcha ulamolarni yenggan bo‘lsa, yoki roviy ham dunyodagi barcha qissalarni yodlasa, yoki voiz ham eng yaxshi voiz bo‘lsa, yoki nahvchi eng kuchli olim bo‘lsa, yoki tilshunos eng kuchli lug‘atchi bo‘lsa ham, ularning hech biri Qur’oni Karim ma’nolari, haqiqatlarini bayon qilish uchun talabgor bo‘lolmaydi, faqatgina balog‘at fanini puxta bilgan kishi bundan mustasno”.<sup>1</sup>

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Hasan Zayat. Tarix al-adab al-arobiy – Damashq: Rovai al-kutub, 2023. – B. 502.
2. Ibrohim Muhammad. Tarix al-balog‘a – Madina: Ummul Quro, 2019. – B. 9.
3. Abu Ya‘qub Sakkokiy. Miftah al-ulum – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1987. – B. 7.
4. <https://allghtu-alrbytu.quora.com> sayti.
5. Mahmud Zamaxshariy. Kashshof. – J: 1. – Riyod: Maktaba abeykon, 1998. – B. 96.
6. دروس البلاغة. حنفى ناعف، سلطان محمد، 1338 م.

### XORAZMDA DEVONCHILIK AN‘ANASI

**Umarova Sohiba Zakirovna,**

*ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi, PhD*

E-pochta: [sohibahon@mail.ru](mailto:sohibahon@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ma‘lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonning ko‘plab shaharlari: Toshkent, Namangan, Kogon kabi joylarida toshbosma matbaalar faoliyat boshlagan. A.Murodov Xorazm xattotlik maktabi haqida yozarkan, “Xorazm O‘rta Osiyoning eng qadimiy madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lsa ham xattotlik san‘atida faqat XVIII asrning boshlaridagina mustaqil maktab sifatida shakllandi deyish mumkin. Ayniqsa, XIX kelganda Muhammad Rahim I va Muhammad Rahim II zamonasida Xorazm xattotlik maktabi keng taraqqiy etib, xattotlik bilan bir qatorda, u yerda kitobat ishlari ham keng rivoj topadi”[Murodov,1971: 48], deb ta’kidlaydi. Xiva litografiyasi o‘zining tashqi ko‘rinishi, aynan devonlariga solingan rasmlari bilan ajralib turgan. Feruz davrida

<sup>1</sup> Mahmud Zamaxshariy. Kashshof. – J: 1. – Riyod: Maktaba abeykon, 1998. – B. 96.



kitobat qilingan va toshbosma nusxalarda ko‘paytirilgan devonlar o‘zining kitobat holati, tashqi bezagi bilan ham ajralib turadi.

**Kalit so‘zlar:** sohibi devonlar, Sultoniylar, Asadlar, G‘oziy, Sa‘diy, debocha.

Muhammad Rahimxon soniy – Feruz tomonidan Erondan O‘rta Osiyoga olib kelingan bosmaxonada tayyorlangan kitoblar xonning maqsadi, xohishi va didini ham aks ettiradi. Bu davr devonlari toshbosma manbalarida ahamiyat kasb etuvchi rasmlar, xususan, toj rasmi yoki qizil gul rasmining kiritilishi xonning nazorati ostida tayyorlanganligiga ishoradir. Muhammad Rahimxon II – Feruz davrida ko‘chirilgan devonlar bo‘toqdagi barglari bilan chizilgan bir dona qizil gul rasmi bilan bezatilgan bo‘lib, bunday kitoblar shohning nazari tushgan yoki homiyligida tuzilganligini bildiradi. Zero, qizil gul tasviri unvonlarga qo‘yiladigan ornament sifatida toshbosma devonlarda bosilgan. Jumladan, O‘zR FA SHI Asosiy fondida saqlanayotgan 569 inv. raqamli toshbosma bir nechta devonlar majmuasi bo‘lib, unda “Devoni Sultoniylar” matni tugagandan so‘ng alohida varaqda va kitob oxirida yarim dumaloq shaklidagi ramkaga chiroyli gul rasmi solinganini ko‘ramiz. Bundan tashqari shu fondga 3049 inv. raqamli “Devonlar majmuasi”da ham kitobning oxirida gullar rasmi bosilgan. Aytish kerakki, ayni shu toj shakli chizma shakllari Xiva xonlari dahmasidagi qabrlar chetiga solingan rasmlar bilan bir xilligi Xorazm devonlari kitobatining o‘ziga xos ko‘rinishini namoyon etadi.

Afsuski, adabiyotshunos N.Shodmonov ta’kidlaganidek, “Sho‘ro davrida o‘tmishdagi hukmdorlarga va dinga aloqador har qanday ijodkor asarlari “feodal-klerikal” yoki “saroy adabiyoti” tamg‘asi bilan o‘rganish doirasidan chiqarib tashlangan edi. Bunday sharoitda saroyga aloqador har qanday yuksak badiiy saviyadagi asarlar ham aktuallashtirishdan qolib ketishi mumkin edi”**[Shodmonov, 2009:9]**. O‘zbek adabiyoti tarixining ajralmas qismi bo‘lgan Xorazm adabiy muhitiga bo‘lgan “Feodal-saroy adabiyotining tipik ko‘rinishi Xiva saroyida, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II hukmronligi yillarida maydonga keldi. Muhammad Rahimxon II o‘zidan ilgari o‘tgan Sharq feodal hukmronlariga ergashib, o‘z saroyida adabiy harakat yaratishga intildi. U saroyiga ko‘plab shoirlarni to‘plab,

ularga o'zi boshchilik qildi va Feruz taxallusi bilan she'rlar yozdi. Feruz bu harakati bilan saroy adabiyotining g'oyaviy va badiiy asoslariga o'zi bevosita rahbarlik qilishga tirishdi, uni saroy zavqi va kayfiyatiga mos bo'lgan tomonga yo'lladi"[Karimov, 1975: 70], kabi bir tomonlama yondashuvlar an'ana va qadriyatlarni davom ettirish maqsadida bo'lgan yirik Xorazm adabiy muhiti va devonchiligining asl qiyofasini haqqoniy ko'rsatib berishda to'siq bo'ldi.

Devon tartib berish yoki sohibi devon bo'lish ijodkordan katta mas'uliyat va mahorat talab etar ekan, birgina ijodkorning o'zi butun lirik merosini jamlab, bir yoki bir necha devon tuzishi mumkin. Agar Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, hozirgacha shoirning fanga ma'lum bo'lgan devonlari orasida "Ilk devon", "Devoni Foniyy" va "Oqquyunli muxlislar devoni" maxsus nomlanmagan, lekin shoirning qolgan devonlari nomlangan. Shartli ravishda shoirning o'zi tomonidan nomlangan devonlarini "rasmiy devonlar" deb oladigan bo'lsak, Xorazm adabiy muhitida rasmiy, ya'ni ma'lum nom bilan atalgan bir qancha devonlar tuzilgan. Jumladan, Shermuhammad Munis Xorazmiy devonidan boshlab kuzatadigan bo'lsak, "Munis o'z she'rlarini to'plab, birinchi marta 1804 yili kichik devon tuzadi. Undan keyin yozilgan she'rlarini ham qo'shib, 1815 yili 8446 baytdan iborat to'liq devon tuzib, unga "Munis ul-ushshoq" deb nom beradi" [Munis, 1980:5].

Munis, Ogahiy devonlari xususida adabiyotshunos Nusratullo Jumaxo'ja shunday yozadi: "O'zbek mumtoz adabiyotida Munis ijodidan navoiyona tartibda devon tuzish va uni maxsus nomlash an'anasining ikkinchi umri boshlangan. Ogahiy "Ta'viz ul-oshiqin" devonini tuzib, bu an'anani yanada yuksak pog'onaga ko'tardi. "Ta'viz ul-oshiqin" rasmiy devon tuzish qonun-qoidolari va an'anasiga qat'iy amal qilingani, janriy tarkibining boyligi, mazmun-mundarijasining keng va teranligi, barkamol badiiyati jihatidan Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"sidan keyingi eng mukammal devondir" [Jumaxo'ja, 1995:27].

Xorazm devonchiligida Ahmadjon Tabibiy "beshta she'riy devon tartib berib, ularni alohida nomlagan. Jumladan, uning "Tuhfatu-s-sulton", "Munisu-l-ushshoq", "Hayratu-l-ushshoq" devonlari turkiy tildagi lirik asarlardan tarkib

topgan bo'lsa, "Mir'otu-l-ishq" va "Mahzaru-l-ishtiyoq" devonlarida shoirning fors-tojik tilidagi she'riy asarlari jamlangan"i [Amanov,2023:39] noyob hodisadir.

Avar O'tar lirik she'rlari bir nechta devonga jamlangan bo'lib, ulardan bittasi "Saodat ul-iqbol" deb maxsus nomlangan.

Sayyid Homid to'ra Komyobning "Tumor ul-oshiqin" devoni Xorazm adabiy muhitida yaratilgan rasmiy devonlardan biri bo'ladi.

Ba'zan shoir devonini maxsus nomlamasdan "Devoni Feruz", "Devoni Komil", "Devoni Sultoni", "Devoni Sa'diy", "Devoni G'oziy", "Devoni Asad", "Devoni Xodim" tarzida ko'rsatishni lozim topadi. Bunday devonlarning norasmiy deyilishiga sabab, boshqa devonlardan maxsus nomlanishi bilan ajralmasligi bo'ladi. Xorazm devonlarida bunday devonlar ko'plab kuzatiladi.

Devon tartib berishda unga yozilgan debocha muallif ijodiy biografiyasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda "...shoir hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar, davr hukmdori madhi, shoirning o'z ustozlariga bo'lgan muhabbati, devon mundarijasi bilan tanishtirish kabi qator masalalar debocha kompozitsiyasida muhim o'rin egallaydi"[Karimova,1993:14]. Xorazm devonchiligida maxsus debocha berilgan va maxsus debocha bo'lmagan devonlar mavjud. Munis devoni debochasini bir necha qo'lyozmalari orqali tadqiq etgan F.Karimova shunday yozadi: "Munis debochasi an'anaviy hamd-u na't bilan boshlanib, o'ziga xos xotima bilan yakunlanadi. Matn bayoni davomida shoir o'zi haqida ma'lumot berib, maktab va madrasada o'qigan yoshlik yillari haqida xabar beradi. Shuningdek, devondagi she'rlarning qay tarzda dunyoga kelganligi, ularning umumiy mavzui haqida ma'lumot beriladi. Devonlarning yaratilish tarixi bayon qilinadi. Ma'lum bo'lishicha, Munis o'zida devon tuzish fikrining bo'lmaganligi, Muhammad Rahimning akasi – amir Qutlug'murod inoqning taklifi bilan devon tartib berganligini ta'kidlaydi. Shundan so'ng Munis devonning she'riy mundarijasini beradi. Debochalardagi an'anaviy elementlardan biri – o'z she'rlaridagi sah-v-u xatolar uchun kitobxondan uzr so'rash bilan debocha o'ziga xos tarzda yakunlanadi" [Karimova, 1993:185].

Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonidagi “debochasi an’anaviy sharqona uslubda yozilgan bo’lib, ko’p jihatlari bilan Navoiy debochalari uslubiga hamohangdir” [Karimova, 1993:190]. Bu hamohanglik Ogahiy debochasida arabiy, forsiy murakkab jumlalarning ko’p ishlatilishi, ta’rifu-tavsifning ko’p berilishi kabi holatlarda ko’proq ko’zga tashlanadi.

Albatta, debochasi yozilgan devonlar orqali qimmatli ma’lumotlar: shoir hayotiga oid qaydlar, shoir yashagan davridagi adabiy muhit yoki shoir ijodiga yo’nalish olish mumkin bo’ladi. Ahmadjon Tabibiyning devonlari uchun yozilgan debochalar uning biografiyasi, hayoti va ijodini o’rganish uchun muhim manba bo’lgan [Amanov, 2023: 33.] va matnshunos Sh.Amanov tomonidan Tabibiy devonlari debochalari matni maxsus tadqiq etiladi.

N.Qobulov xorazmlik shoir Faqiriy hayoti va ijodi haqida so’z yuritarkan shunday yozadi: “Shoir “Devoni Faqiriy Xorazmiy”ning debochasida shoir g’azallari “har bir sabab ila aytilib erdi” deb ta’kidlaydi. Yana unda: “Yorudo’stlaridan har vohidi g’azal buyursalar to’xtolmayin bitib berib... bir necha zamonlar mashg’ulotimiz ash’or va ahvolotimiz do’stlarg’a izhor bo’lib bu sifatda umr o’tkarduk... g’azoliyotga monand nav’-nav’ abyotlar bitkarduk”[ Qobulov, 1998:3]. Demak, devon debochasidan shoirning hayoti, ba’zi she’rlarining yozilish tarixini bilish mumkin mumkin. “Devoni Faqiriy” debochasi F.Karimova ishlarida keng o’rganilgan [Karimova , 1993:190].

Sayyid Homid to’ra Komyob devoni “Tumor ul-oshiqin” deb nomlanadi va shoir tomonidan debocha yozilgan. Komyob devoni debochasini yozishda Munis, Ogahiy devonlaridagi debochanavislik an’anasini davom ettirishga harakat etganligi ko’rinadi. Komyob devoni debochasida hamd, na’t, choryorlar zikri, Muhammad Rahimxon soniyning qo’llab-quvvatlashi bilan she’rlariga tartib berilgani va devon tuzilgani haqida shunday qaydlarni o’qiymiz: “Andin so’ng aytqon g’azallarimni jam’ qilib, *alif* radifidin to *yo* radifg’a borg’uncha tartib etib, oning izig’a qasoyid va masnaviy va mustazod va muxammas va musaddas va murabba’ va musamman va tarkibband va tarji’band va ruboiyot va muqattaot va tuyug’ va muammo va chiston va tavorix aytib erdim, avvalg’i aytqan shoirlarning

devonlari tariqasida hamul baytlarni devon tartib qilib yozdim va bir necha baytkim, avvalg'i g'azali munojotdur, ondin so'ngg'i g'azalni har qaysi besh baytdindur tamomisi bir vazndadur, alif radifdin yo radifg'acha "Hayrat ul-abror" o'lchovidadur, hamul "Hayrat ul-abror" vaznidag'i aytilg'on baytlarni devonning avvalig'a bo'lak etib yozdim va otin "Tumor ul-oshiqin" g'a mavsum qildim. Va bu debochani aytqonimdin so'ng debocha tariqasida nazm etib, ketig'a yozdim va avvalg'i aytilg'on g'azallarimni arosidin isloh g'a muhtoj bo'lsa ham, oni g'azallar arosidin ixroj qilmoq g'a ko'zim qiymay, Munis mirobni hamul baytig'a amal qilib devon tartib qilg'onda arosig'a yozdim. Ruboiy:

*Gulshanda gul o'lsa ham xor o'lg'usidur,*

*Bexor gul alafkibi bo'lg'usidur.*

Necha yaxshilar majmu'ida bir necha yamon bo'lsa, ne g'am bo'lg'usidir. Va g'azal mashqi ibtidosin ixtiro etganimda o'n sakkiz yoshda erdim. Va sanai hijriya ming yuz to'qson beshda erdi, bors yilinda...". [Sayyid Homid to'ra Komyob, 2018:13-14]. Komyob debochasida she'rlari janrlari tartibi, ularning saralanishi haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi.

Biz e'tibor qaratgan debochalardan biri, O'zR FA SHI Asosiy fondida 8950 inv. raqami bilan saqlanayotgan "Haft shuaro" majmuasining 28<sup>a</sup>-31<sup>b</sup>-varaqlarida "Devoni Sultoniyy"dan avval berilgan debocha bo'ldi. Ushbu debocha bugungi kungacha to'liq tabdil etilmagan. I.Xajiyeva "Haft shuaro"ning ushbu debochasi xususida shunday fikrni bildiradi: "Debocha shakli va mazmuni majmuaning ayrim o'ziga xos jihatlarini kuzatishga imkon beradi. Avvalo, debocha an'anaviy usuldan farqli ravishda asarning boshida emas, Sultoniyy she'rlari oldida berilgan bo'lib, uch sahifadan iborat. Mazmuniga ko'ra, u ikki qismdan tashkil topgan: birinchi qism Feruzni madh etishga, ikkinchi qismi esa Sultoniyy ijodi ta'rifiga bag'ishlangan. Nasriy bayondan tashqari, unda 96 she'riy misra bo'lib, uning 42 tasi Feruz, 54 tasi Sultoniyy haqidadir" [Xajiyeva, 2008:37].

I.Xadjiyeva "Haft shuaro" majmuasi dastlab Sultoniyy asarlari asosida shakllanib, keyinchalik unga Feruz tavsiyasi bilan boshqa shahzodalar she'rlari ham qo'shilganini taxmin qilish mumkin, degan fikrga keladi. Haqiqatan, "Haft shuaro"

majmuasidagi debocha Sultoniyl devonining debochasi bo'lib, Bayoniyl bu haqda "ishorati oliyl sudur toptikim, ul ash'or va g'azallarni jam' qilib, debocha yosab murattab etgayman" [Bayoniyl, 2008: Haft shuaro. № 8950. 28<sup>b</sup>-v.] deb yozadi. Biz I.Xajiyeva tomonidan bildirilgan "Sultoniyl ijodiga Feruz va Bayoniylning bunchalik katta e'tibori tasodifiyl emas. Bunda Sultoniyl Feruzga eng yaqin va ardoqli nevara bo'lgani, unga Feruz ham, Bayoniyl ham ustozlik qilgani, Sultoniyl she'rlari ma'qul va salmoqdor bo'lib, ularni devon qilishni bobosi maslahat bergani kabi omillar hal qiluvchi rol o'ynagan ko'rinadi" [Xajiyeva, 2008: 40], – degan fikrlariga qo'shilamiz, chunki boshqa shahzodalarning devonlari uchun maxsus debocha yozilmagani yoki manbalariga qaraganda Sultoniyl devoni qo'lyozma va toshbosma nusxalari ko'proq uchrashi, bayoz, majmualarda Sultoniyl she'rlari deyarli har doim berilishi kabi holatlarda yuqoridagi mulohaza tasdig'ini ko'ramiz.

"Devoni Sultoniyl"ning debochasi Bayoniyl tomonidan mumtoz an'analarga to'la amal qilingan holda yozilgan va shunday boshlanadi: "Bismillahir rohmanir rohiym. Hamdi avval suxan ofaring'akim, qudrati komilasi bila so'z poyasin baland etib, ma'ni ahlin xirad payvandlarga dilpisand etdi. Va shuaro fasohat bayonning gulsitoni ta'blarin balog'at jo'yboridin sarshor etib, maoniyl oyoti hikmat va asrori ma'rifatning latif va xushguvor suvlarin ul guruh Haq hijdahning tillarining anhoridin some'larining ko'ngullarining bo'stonlarig'a ravon qildi. Tokim maqomi qurbning toliblari tariqi ma'rifatda ishqu muhabbatning shohrohg'a pay eltib, maqsadi asliylarig'a vosil bo'lg'aylar".

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – Toshkent: Fan, 1971. – B.48.
2. Shodmonov N. "Shohidu-l-iqbol" – adabiy manba. – Toshkent: Fan, 2009. – B.9.
3. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Uchinchi kitob. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – B.70.
4. Munis. Saylanma. Nashrga tayyorlovchi Yu.Yusupov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – B.5.
5. Jumaxo'ja N. Feruz madaniyat va san'at homiysi. – Toshkent: Fan, 1995. – B.27.
6. Amanov Sh. Ahmad Tabibiy turkiyl devonlari qo'lyozmalarining qiyosiy-matniyl tadqiqi: Filol.fanlari d-ri....diss. – Toshkent, 2023. – B. 39.

7. Karimova F. O'zbek adabiyotida debocha: Filol.fanlari nomzodi....diss. – Toshkent, 1993. – B.14.
8. Karimova F. O'zbek adabiyotida debocha: Filol.fanlari nomzodi....diss. – Toshkent, 1993. – B.185.
9. Amanov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo'lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi: Filol.fanlari d-ri....diss. – Toshkent, 2023.
10. Qobulov N. Xorazm adabiy muhiti. K.1.– Urganch: Xorazm, 1998. – B.3.
11. Karimova F. O'zbek adabiyotida debocha: Filol.fanlari nomzodi....diss. – Toshkent, 1993.
12. Sayyid Homid to'ra Komyob. Devon. Nashrga tayyor.va so'zboshi mual. J.Jo'rayev. – Toshkent: Fan, 2018. – B.13-14.
13. Xajiyeva I. "Haft shuaro" majmuasining Xorazm adabiy muhitidagi o'rni: Filol.fanlari nomzodi....diss. – Toshkent, 2008.– B.37.
14. Bayoniy. Haft shuaro. O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondi. Inv. № 8950. 28<sup>b</sup>-varaq.
15. Xajiyeva I. "Haft shuaro" majmuasining Xorazm adabiy muhitidagi o'rni: Filol.fanlari nomzodi....diss. – Toshkent, 2008.– B. 40.

## **MUMTOZ MATNNI TUSHUNISHDA GERMENEVTIK METODNING AHAMIYATI**

**Tojiboyeva Ozoda Tohirovna,**  
*ToshDO'TAU dotsenti, PhD*

**Annotatsiya:** Mumtoz matnni tushunish va tushuntirishda hermenevtika metodining imkoniyatlari katta bo'lib, aynan Sharq adabiyoti bu metod uchun keng ko'lamli tadqiqot obyekti bo'la oladi. Metodning Alisher Navoiy asarlariga qo'llanishi matn ostidagi ma'nolar sirini ochish va kitobxonga anglatishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada mumtoz matnni tushunishda hermenevtik metodning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** matn, ilmiy metod, hermenevtika, tushunish, tushuntirish.

**Abstract:** The possibilities of the hermeneutic method in understanding and interpreting classical texts are extensive, and Eastern literature, in particular, may serve as a broad field of research for this method. The application of the method to the works of Alisher Navoiy contributes to revealing the hidden meanings embedded in the text and conveying them to the reader. This article provides information on the significance of the hermeneutic method in the comprehension of classical texts.



**Keywords:** text, scientific method, hermeneutics, understanding, interpretation.

Adabiyotshunoslikda faol qo'llanuvchi – talqin atamasi tabdil yoki nasriy bayonga nisbatan keng qamrovli bo'lib, ma'no ko'lamiga ko'ra asosni turli kirralari bilan aks ettirishga urinadi. Atamaning lotincha muqobili – interpretatsiyaning dastlabki vaqtlardagi vazifasi “biror asarning mazmunini zamondoshlarga moslab aslidagiday qayta yaratib berishga qaratilgan faoliyatni ifodalagan” bo'lsa [Yo'ldoshev, Yo'ldosheva, 2016:323], bugun uning vazifa doirasi ancha kengaygan. Talqinning mazmuniy vazifasidan bir asarni ilmiy tadqiq qilish, tanqidiy tahlil qilish va hokazo ko'p tarmoqli vazifasi yetakchilik qiladi. Talqin ko'proq matn mazmunini tushuntirishga qaratilgan jarayonlarni anglatib, istalgan masofada, keng doirada harakatlana oladi.

Tabdil nasriy bayonga nisbatan keng va umumiyroq ma'noga ega. Tabdil arabcha “badal” so'zidan yasalgan bo'lib, *evaz, ayirboshlash, o'zgarish, o'zgartirish, almashtirish* ma'nolarini anglatadi. So'zning lug'aviy ma'nosida “o'zgartirilgan” ma'nosi yetakchilik qiladi. Agar “Xamsa” va uning nasriy bayonlariga nisbatan tabdil atamasini qo'llasak, nazm – nasrga, baytlar – oddiy jumlalarga, murakkab so'zlar – sodda muqobillariga almashtirilgan, matn tarkibi, bayon uslubi o'zgarib, ma'nosi saqlanayotgan matnni tushunamiz. Hozirda tabdil so'zini joriy alifbodagi mumtoz matnni soddalashtirib, qayta yaratilgan matnga qo'llash shartli tusga kirgan (Navoiyning nasriy asarlari tabdillari, “Boburnoma” tabdili kabi). Yana arab alifbosidagi matnni joriy alifboga aylantirishga ham tabdil deyilmoqda. Shu ma'noda arab alifbosidagi she'riy matnni o'z davri kitobxoni uchun yana arab alifbosida nasriylashtirib berishni **tabdil** deb ataganimizda *aslidan o'zgartirilgan* matnni tushunamiz.

Germenevtikada jarayonni anglatuvchi *tushunish, tushuntirish, interpretatsiya, destruksiya, dekonstruksiya, rekonstruksiya*; germenevtik doirani tashkil qiluvchi *matn, ma'no, til, semiotika* tushunchalarini “Xamsa”ning nasriy bayonlariga tatbiq qilib ko'ramiz. Talqinga nisbatan vazifasi o'zgacharoq bo'lgan

nasriy bayon to'lig'icha ushbu metodologiyaning hamma o'lchovlariga mos kelavermaydi, shunga ko'ra ayrim yaqin keluvchi qirralarini ko'rsatish mumkin.

Dastlabki murakkablik germenevtik doirani tashkil etuvchi matn va mazmundan boshlanadi. Doiraning markazida doston matni, so'ng undan anglashiladigan ma'no, mazmun turadi. "Xamsa" yengil qabul qilinuvchi sodda matn emas. Undagi til xususiyatlari, diniy-tasavvufiy tushunchalar zamiridagi haqiqat, badiiy san'atlar qobig'ida berilgan bir so'zning bir necha ma'no qirralarini anglab yetishdagi murakkablik oqibatida germenevtik jarayon boshlanadi.

"Xamsa"ni tushunish – kitobxon tomonidan kutilgan istak va ehtiyoj. Tushunish jarayondagi mutolaadan keyingi urinish bo'lib, kitobxon tomonidan bo'lishi kutiladi. Kitobxon matnni mutolaa qilishni boshlaydi va birinchi galda unda bugun adabiy tilda iste'molda bo'lmagan qadim turkiy so'z birikmalari, arab, fors-tojik tilidagi so'zlarga ro'baro' bo'ladi va qo'shimcha yordamga ehtiyoj sezadi. Har safar lug'at izlab, istab o'tirish kitobxonni toliqtirib qo'yadi. Matndagi shakliy go'zallikdan tashqari ma'no go'zalligini anglashga, chuqurroq kirishga oqizlik qiladi. Nasriy bayon xuddi shu doirada ehtiyoj hosilasi sifatida matnni qulay va soddalashtirish bilan yuzaga chiqadi. Nasriy bayon ko'proq germenevtik doirada harakatlanadi, bayon qiluvchining ish jarayoni matn ustida kechadi.

Navoiyning badiiy mahorati, e'tiqodi, mavzu va g'oyalar olami, tasavvufiy mazmun va hokazolarni kengroq yoyib, tushuntirib berish nasriy bayon qiluvchining vazifasiga kirmaydi, ayni damda bu ma'no qirralarini uning o'zi tushunishi muhimroq. Bu o'rinda umumiylikdagi tushunish yakkalikka o'tadi va yakkalikdagi tushunish umumiylik uchun xizmat qiladi. Tushuntirish jarayonini asliyat bilan kitobxon o'rtasidagi vositachi shaxs boshqaradi. Qiyin so'zlar ustida ishlab, matn va mazmun mutanosibligi uchun kurashadi. Muallif izmidan, asliyatdagi mazmun qolipidan chiqib ketmagan matn tayyor holicha kitobxon hukmiga havola etiladi. Tushuntirish bu jarayonda talqinga nisbatan asliyatga yaqinroq o'rinda turadi. Nasriy bayon matn qolipidan chiqib ketmaslik bilan cheklanadi, ya'ni matndan tahlillar, talqinlar o'sib chiqmaydi va baholash, talqin qilish kitobxonning ixtiyorida qoladi, asliyatga yaqin muallif "men"i bilan yolg'iz

suhbatga kirishadi. Talqindagi butun va qism tushunchasiga qiyosan solishtirsak, nasriy bayon butun bilan ishlaydi va unga asar yaxlitligini ta'minlash yuklatiladi.

Tushunishga bo'lgan harakat germenevtik jarayon boshlanganini ko'rsatadi – kitobxon doiradan yuqoriga harakatlanadi. Bu jarayondagi tushunish barcha kitobxonlar uddasidan chiquvchi vazifa bo'lmagani uchun tushunish tushuntiruvchi orqali o'tib boradi. Nasriy bayon tushunishni xohlagan kitobxon uchun tushunish sari yo'l ochadigan vosita bo'lsa-da, to'lig'icha tushuntirishga qaratilmagan. U sharh va izohga nisbatan ma'noni bir karra o'zida saqlaydi. Tushuntirishni to'liq ko'zlagan germenevtik jarayon ob'ektni butun qirralari bilan kashf etishga intiladi, kitobxon anglashi lozim bo'lgan haqiqatlarni ochib boradi, izohlaydi, sharhlaydi. Matn zamiridagi mazmunni yuzaga chiqaradi. Nasriy bayon undan farqli ravishda asliyat matnini kitobxon yashayotgan muhit, til, davrga mos holda qayta tiklab, nisbatan murakkab so'zlarni sodda so'zlarga aylantirib boradi. Kitobxon talqin qilishi lozim bo'lgan izohlar, tahlillar, tasavvurlar sari yo'l ochadi. Sharh, izohlarda ilmiylik mezoni ustunlik qilsa, nasriy bayon badiiylik ichra harakatlanadi. Asliyatdan chiqib ketmaslik uchun intiladi ("nazmda raqib, nasrda qul" iborasiga muvofiq). Shuning uchun nasriy talqin, nasriy tabdil tushunchalariga nisbatan nasriy bayon atamasi xususiyoq va aniqroq. U badiiy asar materiali bo'lgan matn ustida ishlaydi, lug'at bilan ish ko'radi. Bu jarayonda tushuntirishning kuchi bayon qiluvchining qanchalik tushungani va asliyatdagi ma'noni beruvchi matnni qay darajada tiklay olishida ko'rinadi.

Badiiy asar va kitobxon o'rtasidagi vositachi shaxs – retsepiyentga ko'p narsa bog'liq. Muqaddas kitob Qur'oni karimni tafsir qiluvchi mufasssirdan talab qilinadigan axloqiy sifat va diniy bilimlar zaxirasi kabi Navoiy dostonlarini tushuntirishga bel bog'lagan nasriy bayon talabgorlaridan ham yetarli bilimlar zaxirasi talab etiladi. Xususan, N.Komilov "ming yillar mobaynida shakllangan tasavvur-tushunchalar, xalq ongida saqlanib kelayotgan afsona va rivoyatlar negizida yaratilgan tashbeh-istioralarni; shoir yashagan davrning keng ilmiy ziyolisiga mo'ljallangan tagdor kinoya-ramzlarni chuqur fahmlaydigan nuklasanj,

nuktadon kishigina Navoiy baytlarining mazmunini to‘la anglab, bizga tushuntirib bera oladi” [Komilov, 2005:286], – deydilar.

Germenevtik jaryondagi talqin tushunchasining nasriy bayondan vazifasi o‘zgacharoq va bu tushuncha tadqiqotlarda tugal o‘z yechimini topgan. *Destruksiya* jarayonida talqinchi asar yaratilgan davrga ko‘chib o‘tadi. Sababi davr va dunyoqarashlardagi tafovutlar “ko‘chib o‘tish”ni taqozo etadi. Xuddi shu tushuncha bo‘yicha germenevtikada ikki xil qarash mavjud: o‘sha davr, asarning o‘z davridagi anglatgan ma’nosini tiklash uchun ko‘chib o‘tish shart deyilsa, ikkinchi jihati matnni har bir davr yangidan kashf etadi, o‘z davridan turib, o‘zgacha nigoh bilan ham qarash mumkin, deb hisoblashadi. “Xamsa” matnini anglash va anglatish yo‘lida destruksiya jarayonining har ikki ko‘rinishidan foydalaniladi. Bu o‘rinda nasriy bayon ijodkorining “ko‘chib o‘tishi” ijobiy natija beradi. Navoiyning so‘zdagi fikrini, ruhiyatini ilg‘ash, singib ketish va yuzaga olib chiqishda matnga ko‘chib kirgan bayon muallifining ishigina asliyatga yaqin bo‘ladi (bu holatni rol ijro etayotgan aktyor qahramon ruhiyatini bera olishiga qiyoslash mumkin). Kitobxon asarni yangidan kashf etishi uchun ham bayon qiluvchi shoirning matn ortidan ufurib turgan qalb haroratining so‘zdagi ifodasini tiklab berishi lozim.

*Rekonstruksiya* jarayonidagi qayta tiklash vazifasi ham nasriy bayon yaratishga aynan muvofiq keladi. Bunda bayonchi doston matni va mazmunini nasriy ko‘rinishda qayta tiklash yo‘lida mehnat qiladi. Nisbatan murakkab so‘zlarni bugungi muqobillariga almashtirishda uning tarixan anglatgan ma’nosi va adabiy qimmatini, sofligini ta’minlashga harakat qiladi.

Germenevtikadagi kognitiv bilish bosqichi bilishga qaratilgan har qanday usuldan foydalanishni ma’qullaydi.

Sharh, izoh, tafsir, ta’vil kabi atamalar mumtoz asarlar matnini yaxlit va maydalab tushuntiruvchi usullar sirasini tashkil etadi. Ularning eng faoli sharhlash va izohlash usuli bo‘lib, har ikkisi mustaqil faoliyat xarakteriga ega. Sharh va izohlar Navoiy dostonlariga yozilgan har bir ilmiy maqola, lug‘at, nasriy bayon, turli tahlil va talqinlarda muayyan darajada mavjud. She’riy asarni sharhlashda

butun matn nazarda tutilmaydi, qismning butunga munosabati aniqlanadi. Olingan ikki misra yoki parchaning ma'nosini sharhlash, mohiyatni ochish hamda parchaning butunni anglab yetishdagi yetakchi mazmuni nazarda tutiladi.

Nasriy bayon asliyatni butun holda to'liq nasrda ifoda etishni nazarda tutsa, sharh ma'noni ayrim olingan parcha misolida xiyla kengroq yoritish imkoniyatiga ega. Nasriy bayonda so'zlarni qo'llashda tenglik qoidasiga amal qilinsa, sharhda so'z muqobili emas, ma'no muqobili asosida undan ko'p va kengroq so'z qo'llash mumkin. Sharhda so'zlar miqdori ko'paysa-da mohiyat ochilishi kerak. Izoh ham vazifasiga ko'ra nasriy bayondan farqlanadi. Izoh butun matnni emas, bir so'zni yoki bir jumlaning tushuntiradi (maqolning izohi, so'zning izohi kabi). Sharh va izohning har ikkida mohiyat va hodisa maqsadi ustuvorlik qiladi. Shoir nima demoqchi, nega shunday, u nimani ko'zlagan, qanday ma'no kelib chiqadi kabi muallif anglatmoqchi bo'lgan ma'no yoki bugun uning qaysi jihatlari kerak va nimaga xizmat qiladi, kitobxonga qanday ta'sir ko'rsatadi kabi turfa qirralarini ochishga qaratiladi. Sharh va izohning matnni yoritishdagi funksiyasidan nasriy bayon qilishda foydalanish o'z samarasini beradi.

Nasriy bayonlarda ifoda usuli vazifasiga ko'ra o'zaro farqlanadi: bayonchilik usuli, sharhlash usuli, izohlash usuli. Ba'zida ularning bir matn ichida aralash qo'llanishi kuzatiladi. "Xamsa"ning 1939-1940-yillardan keyingi nasriy bayonlari ifoda usuliga ko'ra izohlash, sharhlash usuli asosida yaratilgan. Izohlovchi bayonlarda murakkab so'zlar o'rniga kitobxonga tanish muqobili qo'llanilib, satrma-satr bajariladi. Izoh so'zining bunday bayon turiga qo'llanishida tushunilishi qiyin, murakkab so'zlar sodda muqobillari yordamida izohlanyapti, degan ma'noni anglash mumkin. Misralardagi jumla sig'imiga qayta tiklanayotgan jumla sig'imi muvofiq kelishi nazarda tutiladi. Bunday bayon usuli matnni asliyatiga yaqin holda yetkazib berishda katta ahamiyatga ega. Dastlabki izohlovchi bayonlarda asl matn bilan baqamti berilgandagina ma'no anglashilgani uchun keyingi ishlarda takomillashtirilgan.

1970-78-yillardagi bayonlar sharhlash usulida yaratilgan. Bayon mualliflari orttirilgan jummalarda Navoiy ko'zda tutgan barcha ma'no qirralarini berishga

intilganlar. Mazmun ochilgunga qadar sharh davom etgan. Misralardagi ayrim atoqli otlar, joy va shaxs nomlari, ishora qilingan ashyo va jismlarning tarixan anglatgan ma'nosini bugungi kitobxon yaxshi tushunmasligini ta'kidlagan N.Komilov bayonda izoh va sharhlarni berib borish zarurligini uqtiradi: "Izoh va sharhning ko'payishidan qo'rqmasa ham bo'ladi, chunki kitobxonga Navoiy ma'nolarini tushunish muhim, maqsad dostonlarning ifoda-obrazlarini saqlab qolib nasrlashtirish ekan, bundan boshqa chora yo'q. Hozircha hoshiyada va matn ichida keltirilgan tushuntirishlar yetarli emas. Juda ko'p arabcha-forscha so'zlar, maxsus istilohlar, bir necha ma'noli iboralar izohlanmay qolib ketgan" [Komilov 2005, 291]. Bu holat doston matni tagqatlamidagi ma'no ko'lamining chuqurligi sabab nasriy bayon yaratishda tayaniladigan prinsiplarning o'zgarib turishida ko'rinadi. Dostonlar to'liq sharhlansa (A.Qayumov sharhlari singari), kitobxon yanada tezroq tushunadi. Biroq nasriy bayon o'z vazifasidan chiqib ketadi, degan hadik ham bunga yo'l qo'ymasligi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, germeneytik metodni har bir badiiy asarga qo'llash samarali natija beradi. Davrlar o'tishi bilan adabiyotshunos ushbu metodni qo'llashiga to'g'ri keladi, matn esa har doim yangi talqinlarga yo'l ochaveradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995.
2. Комилов Н. Таржимами ё талқин? (Хамсанинг насрий баёни хусусида) / Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005.
3. Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983.
4. Қаяумов А. Асарлар. VIII-жилд. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.

### **MIRZO OLIM DEVONANING "RAVZAI ASROR" ASARINING NUSXALARI**

***Jumayeva Dilnoza Tursunpo'latovna,***

*O'zDSMI dotsenti, PhD*

[\*jumayevadilnoza603@gmail.com\*](mailto:jumayevadilnoza603@gmail.com)

*ORCID-0009-0004-8799-258X*

**Annotatsiya:** Matn tarixini o'rganishga zamin tayyorlash uchun, birinchi navbatda, qo'lyozmaning ilmiy-monografik tavsifini amalga oshirish talab etiladi. Shunga ko'ra, "Yusuf va Zulayxo" turkumidagi dostonlar qo'lyozmalarini ilmiy

tavsif etishga harakat qilamiz. Ushbu maqolada Mirzo Olim Devonaning “Ravzai asror” asarining nusxalari ilmiy tavsif qilingan.

**Kalit soʻzlar:** nusxa, paygʻambar, qoʻlyozma, asr, jild, noyob, misra, doston.

**Abstract:** To prepare the ground for studying the history of the text, it is first of all necessary to carry out a scientific and monographic description of the manuscript. Accordingly, we will try to scientifically describe the manuscripts of the epics of the “Yusuf and Zulaykho” series. In this article, the copies of Mirzo Alim Devona’s “Ravzai asror” are scientifically described.

**Keywords:** copy, prophet, manuscript, century, volume, unique, verse, epic.

Koʻp asrlardan buyon anʼanaviy mavzular bilan birga sayyor syujet xarakteridagi asarlar ham tarix sahnasida muhim rol oʻynab kelmoqda. Bu holat, ayniqsa, Sharq mamlakatlari soʻz sanʼati tarixida yanada yorqinroq koʻrinadi. Bu yerda gap “Yusuf va Zulayho” qissasi haqida borar ekan, uning Sharq adabiyotining nodir asari sifatida qadr topgani ham koʻplab variantlarning vujudga kelishiga sabab boʻldi.

Asos eʼtibori bilan diniy manbalarga tayanuvchi Yusuf alayhissalom qissasi keyinchalik turkiy adabiyotning ulugʻ vakillari diqqatini ham oʻziga jalb etdi. Ushbu mavzu turli formada nasriy va nazmiy yoʻl bilan ishlanib, yuzlab badiiy asarlar yaratildi. Salohiyatli ijodkorlar qurʼoniy mavzuni oʻz mahoratidan kelib chiqib yanada boyitdilar. Ular tomonidan shoh asarlar yaratildi. Ajdodlar qoldirgan ana shu buyuk madaniy meros maʼnaviyatimizning unutilmas boyligidir. Yana shuni qayd etish lozimki, “Qurʼoniy mavzularning jahon va, alalxusus, oʻzbek adabiyotiga singib oʻtishi faqat diniy nuqtai nazardangina iborat boʻlib qolmay, balki Sharq adabiyotining biz uchun mavhum qirralarini oydinlashtirib, turli adabiy mavzularning sarchashmalarini ochgan va hozirgi zamon oʻzbek adabiyotining islom adabiyoti bilan shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga ham madad bergan”[Sanayev, 2009:60].

Qoʻlyozma manbalarni oʻrganish muayyan badiiy asarni oʻrganishning dastlabki va muhim bosqichi. Qoʻlyozmani ilmiy tekshirish, manbashunoslik



jihatidan baholash matn tarixini tadqiq qilishda alohida ahamiyatga ega. Manbaning to‘laqonli tahlilisiz badiiy obidaning qimmatini aniqlash imkonsizdir. Matnshunos Nurboy Jabborov fikricha: “...adabiyotimizning har bir yirik namoyandasi ijodi misolida muhim nazariy muammo sanalgan *matn tarixi* masalasi jiddiy tadqiq etilishi zarur. Busiz matnshunoslik rivojini tasavvur ham etib bo‘lmaydi”[Jabborov, 2016:99]. Rus matnshunosi D.S.Lixachev matn tarixini o‘rganishning ahamiyatini quyidagicha ta’kidlaydi: “*Matn tarixi* tushunchasi muayyan asarning barcha masalalarini qamrab oladi. Asarga aloqador hamma masalalarni faqat to‘liq (yoki imkon darajasida to‘liq) o‘rganishgina bizga asar matni tarixini tom ma’noda kashf etish imkonini beradi”[ Lixachev,2001:90]. Matn tarixini o‘rganishga zamin tayyorlash uchun, birinchi navbatda, qo‘lyozmaning ilmiy-monografik tavsifini amalga oshirish talab etiladi. Shunga ko‘ra, “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar qo‘lyozmalarini ilmiy tavsif etishga harakat qilamiz.

**Mirzo Olim Devonaning “Ravzai asror” asari.** “Ravzai asror” qissasining ikki nusxasi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ular O‘zbekiston RFA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida 1799 va 1338 raqamlari ostida saqlanmoqda. 1799 raqamli qo‘lyozma matni nasta’liq xatida och sariq rangli yupqa qo‘qon qog‘oziga oddiygina bitilgan. Qo‘lyozma 211 varaq (422 sahifa)dan iborat bo‘lib, o‘lchami 13x20 sm hajmda. Kitobning hoshiyalarida qo‘shimcha, tuzatishlar mavjud. Qo‘lyozma boshidagi dastlabki olti varaqda har xil yozuvlar mavjud, sahifalar raqam bilan belgilanmagan. Doston matni ana shu olti varaqdan keyingi 1-b sahifadan boshlanib, 211-sahifada kitobning tamom bo‘lganligi qayd etilgan yozuv va bir bayt she’r bilan yakunlangan. Har bir sahifada o‘n bir qatorda yigirma ikki misra, ya’ni o‘n bir bayt ikki ustunda ixcham holda joylashtirilgan. Sarlavhalar ko‘k (1-37-v), binafsha (42-v), qizil (46 – 208-v) siyoh bilan yozilgan. Qo‘lyozmaning ikki varag‘i ochiq qoldirilgan. Navbatdagi so‘nggi varaqda esa kotib tomonidan bitilgan o‘sha davrga oid yozuv mavjud. Qo‘lyozma kotibi va ko‘chirilgan yili noma’lum. Ammo ilmiy ta’rifda aytilganidek, XIX asrning

ikkinchi yarimi boshlarida, ya'ni qo'lyozma yozilgan 1278 (1861-62) yilda kitobat qilingan, degan xulosaga kelish mumkin.

Tarixda ma'rifatparvar amir deb ulug'langan Sayyid Amir Abduahadxonning g'amxo'rligi tufayli yana bir xayrli ish amalga oshirilgan. Iste'dodli shoir Olim Devonaning 1861-62 yilda yozilgan "Ravzai asror" musavvadasida oradan qirq ikki yil o'tgandan keyin ana shu Amirning homiyligida zeb-ziynatlangan nodir nusxada qo'shimcha o'zgarishlar bilan qayta kitobat qilingan. Bu 1338-raqamli noyob qo'lyozmadir.

1338-raqamli qo'lyozma qattiq karton bilan muqovalangan, o'yma naqshlar bilan zeb-ziynat berilgan. Kitob chiroyli qilib bezatilgan, yaxshi saqlangan. Qo'lyozma 212 varaq (424 sahifa)dan iborat, o'lchami 13x20sm. Hajmda bo'lib, go'zal naqshli muqovaga ega. Kitob sahifalari oltin va har xil rangli chiziqlar bilan hoshiyalangan bo'lib, matn qo'qon qog'oziga chiroyli qilib chizilib jadvalga olingan maxsus joyga ikki ustunda qora siyohda nasta'liq xatida chiroyli qilib bitilgan. Har bir sahifada o'n bir qatorda yigirma ikki misra, ya'ni o'n bir bayt ikki ustunda chiroyli va ixcham qilib joylashtirilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Doston matni 1-b sahifadan boshlanib, 212-a sahifada kolofon bilan yakunlangan. Qo'lyozma benihoya sifatli darajada kunt va ixlos bilan ko'chirilgan. Kitob bilim qamrovi keng o'ta savodli bo'lgan. Shu bois xatolarga yo'l qo'yilmagan, hoshiyalarda tuzatishlar ko'zga tashlanmaydi. Qo'lyozma hijriy 1322 (milodiy 1904) yilning rabi ul-avval (may) oyining 15 (29) yakshanba kuni ko'chirilib kitobat qilingan. Kotibning nomi ko'rsatilmagan.

"O'zbekiston RFA Sharq qo'lyozmalari to'plami"ning VII jildidagi Olim Devona to'g'risidagi ilmiy ta'rifda chalkashlik mavjud. B.Valixo'jayev ta'kidlaganidek, dostondagi "nazm nizomig'a" iborasini "nazmi Nizomiyg'a" tarzida noto'g'ri o'qish sababli "Ozarbayjon adabiyoti tarixi" va boshqa ko'pgina asarlarda ham Nizomiyning "Yusuf va Zulayho" qissasini nazmga kiritgani to'g'risida hech qanday ma'lumot berilmagani holda Olim Devona o'z qissasi uchun Nizomiy qalamiga taalluqli "Yusuf va Zulayho"ni asos qilib oldi, deyilishi noto'ridir.

Bundan tashqari, ana shu noto'g'ri ta'rifga asoslangan boshqa bir manba "O'zbek Qomusi"ning VIII jildidagi Olim Devona to'g'risidagi ma'lumotda ham chalkashlik mavjud. Manbada Olim Devona Kalomiy taxallusli o'zbek shoiri, deb ko'rsatilgan. Vaholanki, shoir o'zining "Ravzai asror" dostonining ikki nusxasida ham, Alisher Navoiyning g'azaliga bog'lagan muxammaslarida ham o'z taxallusini Olim Devona shaklida ifodalagan. Uning Kalomiy taxallusi bilan asar yozganligini isbotlaydigan manba bizga noma'lum. "Ravzai asror"ning kolofonidagi "Bu dostoni hasan og'ozu sharaf anjom itmomi borgohi nozim ilhom nizom kalomi partavi bila orosta bo'lg'ondin so'ng kitobati itmomidin ham xotirjamlik hosil bo'ldi" jumlasidagi "kalomi" so'zini "Kalomiy" shaklida o'qib, Olim Devonaning taxallusi Kalomiy bo'lgan, degan yanglish xulosaga kelingan ko'rinadi. Shuningdek yana shu manba – "O'zbek Qomusi"da "Olim Devonaning yirik asari "Yusuf va Zulayxo" (1862) dostonidir, deyilgan. Shoir o'z dostonining ikkala qo'lyozma nusxasida ham o'z dostonini "Ravzai asror" deb ataganligini yozgan. Olim Devona dostonining "Yusuf va Zulayho" deb atalganligini isbotlaydigan asos yo'q.

"O'z RFA Sharq qo'lyozmalari to'plami"ning VII jildidagi "Yusuf va Zulayxo" qissasini nizomiyga nisbat berilganligi va Olim Devona ana shu qissaga asoslanib o'z asarini yozgan, degan yanglish xulosaga tayanish oqibatida mana shunday noto'g'ri ma'lumot berilgan bo'lishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sanayev I. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Zarafshon vodiysi adabiy muhiti. – Toshkent: Tafakkur, 2009. – B.60.
2. Jabborov N. O'zbek matnshunosligining dolzarb muammolari / "Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining yangilanish tamoyillari" mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – B. 99.
3. Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2001. – С. 90.

# ƏFQANISTANDA NƏVAİŞÜNASLIQ MƏNBƏLƏRİNİN TƏDQIQI PROBLEMLƏRİ

(Azizullah Aralın eyni adlı monoqrafiyası müstəvisində)

**Aysun Telman qızı Cəbrailova**


AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu  
“Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələri”

şöbəsinin kiçik elmi işçisi

e-mail: azerozbekturkmen@mail.ru

**Annotatsiya:** Məqalədə böyük özbək şairi, mütəfəkkir və dövlət xadimi Əlişir Nəvainin zəngin ədəbi irsinin regional kontekstdə öyrənilməsi məsələləri təhlil olunur. Tədqiqatın əsas obyektini Əzizullah Aralın müəllifi olduğu və professor Almaz Ülvi Binnətova tərəfindən Azərbaycan dilinə tərcümə edilən “Əfqanıstanda Nəvaişünaslıq (mənbələrin təsviri və təhlili)” adlı fundamental monoqrafiya təşkil edir. Məqalədə sistemli, struktur-funksional və müqayisəli-tarixi metodlardan istifadə edilərək, sözügedən əsərin arxitektonikası, mənbə bazası və elmi əhəmiyyəti xronoloji ardıcılıqla işıqlandırılır. Araşdırmada Əfqanıstan mühitində nəvaişünaslığın formalaşmasında dövrü mətbuatın, xüsusilə “Yulduz” qəzetinin rolu, arxiv sənədləri, fotomateriallar və memarlıq abidələrinə dair elmi göstəricilər qruplaşdırılaraq şərh edilir. Həmçinin, kitabın idrakı funksionallığını artıran elmi-köməkçi aparatın, habelə çoxsaylı antroponim və əsər adlarının biblioqrafik əhəmiyyəti elmi dövriyyəyə daxil edilir. Təhlillərin yekunu olaraq belə bir qənaətə gəlinir ki, regional nəvaişünaslıq mənbələrinin milli elmi mühitə transfer edilməsi ortaq türk intibah mədəniyyətinin multidissiplinar kontekstdə və daha obyektiv öyrənilməsinə, eləcə də Azərbaycan-Özbəkistan ədəbi-mədəni əlaqələrinin strateji inkişafına mühüm töhfə verir.

**Açar sözlər:** Əlişir Nəvai, Azizullah Aral, Almaz Ülvi Binnətova, Əfqanıstanda nəvaişünaslıq, özbək ədəbiyyatı, mənbəşünaslıq, biblioqrafiya, türk ədəbi əlaqələri.



**Giriş:** Əlişir Nəvai (1441-1501) türk-islam mədəniyyətinin və klassik poeziya ənənələrinin inkişaf

dinamikasında müstəsna mövqeyə sahib böyük özbək şairi və dahi mütəfəkkirdir. Onun zəngin ədəbi irsi təkcə mənsub olduğu dövrlə məhdudlaşmamış, sonrakı yüzilliklərdə də geniş bir coğrafiyada türk xalqlarının ədəbi-mədəni mühitinin formalaşmasına fundamental təsir göstərmişdir. Nəvainin yaradıcılığı türk xalqları poeziyasında poetik üslubun, fəlsəfi dərinliyin və milli özünödərək ideyalarının təkamülündə mühüm bir mərhələ kimi qiymətləndirilir: “Böyük özbək şairi, dilçi, ədəbiyyatşünas, xəttat, bəstəkar, dövlət xadimi Əmir Əlişir Nəvai öz yaradıcılıq qüdrəti ilə tarixi bir səddi cəsarətlə aşaraq türk ədəbi dil inqilabçısı kimi ədəbiyyat tarixində yeni cığır açdı” [2:36].

**Əsas hissə:** Müasir humanitar elmdə Nəvai irsinin multidissiplinar kontekstdə öyrənilməsinə maraq aktuallığını qorumaqdadır. Bu xüsusda, “Əfqanıstanda Nəvaişünaslıq (mənbələrin təsviri və təhlili)” adlı kitab Əlişir Nəvai ədəbi irsinin Əfqanıstandakı tədqiqat tarixinə həsr olunmuş mühüm monoqrafik araşdırmadır. Müəllif sistemli və struktur-funksional təhlil metodlarına əsaslanaraq, mövcud elmi tədqiqatlar və nəşrlər fonunda nəvaişünaslıq sahəsinin formalaşma mərhələlərini ümumiləşdirmiş və fundamental bir mənbə ərsəyə gətirmişdir. Sözügedən monoqrafik tədqiqatda Əlişir Nəvainin həyatı və yaradıcılıq fəaliyyəti Əfqanıstandakı nəvaişünaslıq mənbələrinin retrospektiv təhlili əsasında geniş oxucu kütləsinə təqdim olunur.

“Əfqanıstanda Nəvaişünaslıq (mənbələrin təsviri və təhlili)” monoqrafiyasının struktur-semantik quruluşunu aşağıdakı şəkildə qruplaşdırmaq mümkündür:

- \* Türk dünyasının Nəvai sevgisi;
- \* Nəvaişünaslığın mühüm aspekti;
- \* I Fəsil. Əfqanıstanda özbək ədəbiyyatı mənbələri;
- \* II Fəsil. Əfqanıstanda nəvaişünaslıq mənbələri;
- \* III Fəsil. Nəvaişünaslığın elmi-ənənəvi axtarış mənbələri;
- \* Əlavələr;
- \* Köməkçi göstəricilər.

Əsərin konseptual mahiyyəti barədə tərcüməçi qeyd edir: “Birinci fəsildə xalqın şifahi yaradıcılığı və yazılı ədəbiyyat nümunələri kontekstində Əfqanıstanda özbək ədəbiyyatının təməl mənbələri müəyyən edilir. İkinci fəsildə Əfqanıstanda nəvəişünaslıq istiqamətində aparılan elmi tədqiqatlar, nəşrlər, Nəvaini anma mərasimləri və ona həsr olunmuş elmi seminar və konfranslar bu sahənin əsas bilgi qaynaqları kimi təqdim edilir. Üçüncü fəsil isə dövrü mətbuatda yer alan materiallar və bədii əsərlərdə Nəvai irsinə olan münasibət əsasında elmi-ənənəvi nəvəişünaslıq mənbələrinin ümumiləşdirilməsinə həsr olunur” [1:4].

Monoqrafiyada özbək, Azərbaycan, ingilis və digər dillərdə nəşr olunmuş ənənəvi (çap), eləcə də elektron resurslardan geniş istifadə edilmişdir. Bu əsərin beynəlxalq elmi mühitin nailiyyətlərindən bəhrələnməklə inteqrativ xarakterdə qələmə alındığını nümayiş etdirir. İstinad olunan mənbələr bazasını Əlişir Nəvai irsi ilə bağlı metodik əhəmiyyət daşıyan normativ-hüquqi sənədlər, elmi-nəzəri ədəbiyyat, ensiklopediya və lüğətlər, həmçinin almanax, toplu və nüfuzlu jurnal məqalələri təşkil edir. Kitabın elmi aparat tərkibi müasir istinad standartlarına tam uyğun şəkildə tərtib olunmuşdur.

Ümumilikdə üç fəsil, nəticə və geniş struktur rəngarəngliyinə malik əlavələr hissəsi daxil olmaqla 282 səhifədən ibarət olan monoqrafiyanın hər bir fəsli daxili məntiqi ardıcılıqla yarımbölmələrə ayrılmış, araşdırılan mövzu əhatəli və sistemli şəkildə işıqlandırılmışdır. Kitab oxucuda tədqiqatın obyektinə barədə ilkin elmi təsəvvür formalaşdırmaq məqsədilə propedevtik xarakter daşıyan “Türk dünyasının Nəvai sevgisi” və “Nəvəişünaslığın mühüm aspekti” başlıqlı giriş xarakterli yazılarla açılır.

Tərcüməçinin “Türk dünyasının Nəvai sevgisi” başlıqlı giriş sözündə Azərbaycanda, Özbəkistanda və Türkiyədə nəvəişünaslıq elminin kifayət qədər araşdırıldığı qeyd olunur və bu tədqiqat arealının “Əfqanıstanda nəvəişünaslıq” istiqaməti üzrə genişləndirilməsinin elmi məqsədəuyğunluğu vurğulanır: “Əfqanıstanda nəvəişünaslıq” monoqrafiyasını nə üçün Azərbaycan dilinə çevirib kitab kimi nəşr etmək istəyində və ya ehtiyacında olduq? Eyni zamanda, nəvəişünaslıq elminin tədqiq tarixi Əfqanıstanda nə zamana təsadüf edir? Maraqlandıığımız bu sualların cavabını qarşımızdakı kitabda – faktlarla zəngin elmi



mənbədə öyrənmək mümkündür...” [1:3]. Bununla yanaşı, akademik Şöhrət Siracəddinov tərəfindən qələmə alınmış “Nəvaişünaslığın mühüm aspekti” adlı ön sözdə tədqiqat prosesində həyata keçirilən elmi-nəzəri və praktiki işlərin ümumi mənzərəsi şərh edilmişdir. Nəvai irsinin Əfqanıstandakı təkamül mərhələləri dövrü mətbuat (qəzet və jurnallar), konfrans materialları, arxiv sənədləri və fotomateriallar əsasında retrospektiv şəkildə izlənilmişdir. Kitabda istifadə olunmuş mənbələrin struktur klasifikasiyası xüsusi qrafik diaqram vasitəsilə ümumiləşdirilmişdir.

Əsərdə dövrü mətbuat materiallarının, xüsusilə “Yulduz” nəşrinin materiallarının təhlilinə geniş yer ayrılmışdır. Monoqrafiyada “Yulduz” həftəliyinin ilk sayında dərc olunmuş Əmir Əlişir Nəvainin aşağıdakı iki beytinin təqdim edilməsi kitabın ideya-bədii məzmununu zənginləşdirən mühüm elementlərdəndir.

Birincisi, dünyaşümul mütəfəkkirin humanizm ideyalarını ehtiva edən beytidir:

*İnsan isən, insan kimi yaşa,  
Xalqın dərini çəkməyən insana bənzəmə.*

İkincisi isə analogi xəttə malik, dərin fəlsəfi-ictimai məna kəsb edən poetik nümunədir:

*Əkinçi gecə-gündüz çəmənə baxmasa,  
Ağac quruyar, meyvə yerinə quru odun verər [1:127].*

Nəvaişünaslığın formalaşma və inkişaf prosesinin elmi xronologiyasını izləməyə imkan verən bu növ dövrü mətbuat materialları monoqrafiyada mühüm biblioqrafik mənbə qismində çıxış edir.

Kitabın “Əlavələr” bölməsində yer alan “Nəvaişünaslıq mənbəyi kimi fotolar” və “Əfqanıstan” başlıqlı yarım bölmələrdəki fotomateriallar əsərin faktoloji bazasını vizual xarakterdə gücləndirir. Bundan əlavə, Əlişir Nəvainin birbaşa təşəbbüsü və himayəsi ilə Əfqanıstan ərazisində inşa edilmiş, onun adı ilə bağlanan memarlıq abidələri, habelə mütəfəkkirin Əfqanıstandakı yeganə heykəli, qəbri və məqbərəsi haqqında vizual sənədlər təqdim olunur. Sözügedən bölmədə, həmçinin şairin



“Xəmsə”sinin Əfqanıstandakı nəşr tarixləri və onun zəngin irsinə dair çap olunmuş əsərlərin qısa biblioqrafik göstəricilərini əks etdirən sistemli cədvəllər yer almışdır.

Monoqrafiyada tərcüməçinin orijinal mənbədən fərqli olaraq tərtib etdiyi elmi-köməkçi aparat və göstəricilər tədqiqatın funksionallığını artıran əsas göstəricilərdəndir. Belə ki, Azərbaycan və özbək dillərində 400-dən çox şəxs adını (antroponim) və 250-dən çox əsər adını ehtiva edən köməkçi göstəricilərin mövcudluğu nəvəişünaslıq problemləri ilə məşğul olan tədqiqatçılar və oxucular üçün zəruri informasiyanın operativ şəkildə tapılmasına xidmət edir.

Monoqrafiyanın son hissəsində tərcüməçinin 2016-cı ildə Əfqanıstana etdiyi səfər təəssüratlarını, elmi araşdırmalarını, müsahibələrini və yol qeydlərini özündə birləşdirən “Nəvai sirr-sehrinə bülənd Əfqanıstanda 6 gün” başlıqlı publisistik-elmi oçerki əlavə informasiya mənbəyi kimi təqdim olunmuşdur. Müəllif öz təəssüratlarında qeyd edir: “Bu romantik-reallıq içində rəngbərəng daşların üstündə Nəvainin əlinin hənirtisini duydum, bəzəkli ornamentlər üzərində Nəvai sığalını sezdim. Orada bu Cami haqqında eşitdiyim hekayətin gerçəkliyi haqqında indi bu yazı üzərində işlərkən ensiklopediyalar arasında başqa bir şey aramadım” [1:265].

Yazıçı-publisist, nəvəişünas alim Almaz Ülvü Binnətova özünün 40 illik elmi fəaliyyətinin 30 ilə yaxın illərini həm də özbək ədəbiyyatının Azərbaycanda tədqiqi və təbliği işinə həsr etmişdir. Almaz Ülvü üçün Nəvai yaradıcılığı iki qardaş ölkənin ədəbi-mədəni əlaqələrinin tarixi təməli olmaqla yanaşı, bu münasibətlərin müasir mərhələdə daha da möhkəmlənməsində çıxış edən mühüm mədəni dominantdır: “Nəvai deyincə, 30 illik elmi-yaradıcı fəaliyyətimdə baş əydiyim, ədəbi şəxsiyyətinə və irsinə tükənməz sevgi bəslədiyim, Türk ədəbi dilinin yaradıcısı, XV əsr ədəbi intibahın əsas sütunu, əməlləri ilə xalq ehtiramını qazanmış tarixi dövlət xadimi, filosof, sufi mütəfəkkir, türkcə yazılmış ilk “Xəmsə”nin müəllifini xatırlayıram” [3:267].

Kitab filologiya elmləri doktoru Aftandil Erkinovun əsərin müəllifi – Əzizullah Aralın (Azizullah Aral) elmi-bioqrafik portretini əks etdirən qısa yazısı ilə yekunlaşır.

**Nəticə:** Məqalənin ümumi nəticəsi olaraq belə bir elmi qənaətə gəlmək mümkündür ki, beynəlxalq humanitar mühitdən tərcümə edilərək milli elmi müstəviyə transfer olunan bu qəbil əsərlər, yeni konseptual biliklərin integrasiyası və milli nəvəşünaslığın zənginləşməsi baxımından müstəsna əhəmiyyət kəsb edən qiymətli mənbələrdir.

**Ədəbiyyat:**

1. Azizullah. A. Əfqanıstanda nəvəşünaslıq (mənbələrin təsviri və təhlili). – Bakı, Füyuzat.2026.
2. Binnətova. A. Ü. Əlişir Nəvəsinin əsri və nəsr: Elmi-filoloji və dini-təsəvvüfi əsərləri (Təkrar nəşr). –Bakı, Elm və təhsil. 2023.
3. Binnətova. A. Ü. Özbək ədəbiyyatı: Ədəbi portret cizgiləri, araşdırmalar, müsahibələr, yol qeydləri. –Bakı, Elm və təhsil. 2016.

## **KOMIK FOLKLOR JANRLARINING TADQIQ ETILISH TARIXI VA NAZARIY QARASHLAR**

**Xolbutayev G‘ayratbek Oybek o‘g‘li**

*Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti, PhD*

[gayratbek19912705@gmail.com](mailto:gayratbek19912705@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos yo‘nalishi bo‘lgan komik folklor janrlarining nazariy va amaliy masalalari tahlil qilinadi. Muallif komik folklor tarkibiga kiruvchi latifa, askiya, lof va hazil kabi janrlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bergan. Tadqiqotda jahon va o‘zbek folklorshunosligida komik janrlarni o‘rganishning strukturalistik, funksionalistik, psixoanalitik va sotsiologik yondashuvlari qiyosiy o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** komik folklor, latifa, askiya, lof, hazil, hozirjavoblik.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and practical issues of comic folklore genres as a specific direction of oral folk art. The author highlights the distinctive features of genres such as anecdotes (latifa), askiya, lof (exaggeration), and jokes. The study provides a comparative analysis of structuralist, functionalist, psychoanalytic, and sociological approaches to studying comic genres in world and Uzbek folkloristics. Furthermore, the role of quick-wittedness in the askiya genre and the historical development stages of anecdotes are described.

**Keywords:** comic folklore, anecdote, joke, praise, humor, responsibility

Komik folklor janrlari – insoniyatning ma’naviy olamida muhim o‘rin egallagan, hajv, kulgi va kinoya orqali ijtimoiy voqelikni tanqid qiluvchi, inson tabiatidagi illatlarni fosh etuvchi, ayni paytda, kishilarga xush kayfiyat ulashuvchi bebaho merosdir. Kulgi qadimgi davrlarda ham odamlarga yaxshi kayfiyat unashish, ularni yangi marralar sari yetaklovchi ko‘zga ko‘rinmas ma’naviy vosita vazifasini bajargan. Kishilik jamiyatining biror bir davri yo‘qki, kulgiga asoslangan og‘zaki yoki yozma adabiy janrlar, hazillardan foydalanilmagan bo‘lsa. Shuning uchun uzoq o‘tmishda yashagan ajdodlarimiz komik folklor janrlaridan keng foydalanishganlar va ularni keyingi avlodga qoldirishning turli yo‘llarini izlab topishgan. Jahon folklorshunosligida komik folklor janrlarini o‘rganish uzoq tarixga ega bo‘lib, bu sohada turli nazariy yondashuvlar shakllangan.

Komik folklor – xalq og‘zaki ijodining kulgili, hajviy va kinoyali asarlarini o‘z ichiga olgan keng qamrovli tushunchadir. Ushbu janrlar ijtimoiy hayotdagi nomuvofiqliklarni, inson xarakteridagi illatlarni kulgi ostiga olish orqali kishilarni tarbiyalash, jamiyatni sog‘lomlashtirish vazifasini bajaradi. Komik folklorga quyidagi janrlar kiradi:

Hazillar: qisqa, kulgili hikoyalar yoki voqealar.

Latifalar: ma’lum bir shaxs yoki voqeaga bag‘ishlangan o‘tkir, og‘zaki hajviy hikoyalar.

Qo‘shiq: kulgili, hajviy mazmundagi qo‘shiqlar (chastushka).

Matallar va topishmoqlar: kulgili, kinoyali mazmundagi matallar va topishmoqlar.

Askiya: so‘z o‘yini va hazil-mutoyibaga asoslangan og‘zaki badiiy ijod.

Lof: O‘ta mubolag‘aga asoslangan kichik hajmli og‘zaki hikoyalar.

Komik folklorni o‘rganish tarixi XIX asrga borib taqaladi. Dastlabki tadqiqotlar asosan komik folklor namunalarini to‘plash va nashr etish bilan cheklangan. Keyinchalik, folklorshunoslar komik folklorning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini o‘rgana boshladilar. Fanda komik folklor namunalarini tadqiq etishga

bir necha ilmiy yondoshuv kuzatiladi. Shundan ilmiy yonloshuvlardan biri strukturalistik yondoshuv sanaladi.

Bu yondashuvga ko'ra, komik folklor asarlari ma'lum bir strukturaviy qonuniyatlarga asoslanadi. Klod Levi-Strossning tadqiqotida garchi to'g'ridan to'g'ri latifalar yoki loflar tahlil qilinmasa-da, mif strukturasi va timsollar tahlillarida yumor va komik holatga xos belgilar tahlili ko'zga tashlanadi [3:591]. Amerikalik folklorshunos Allan Dandes bevosita yumor va latifalar tadqiqida strukturalistik va psixoanalitik uslublardan foydalandi. Olim hazillarning tuzilishi, ularning madaniy vazifalarini tahlil qilgandi [8:279]. Eston adabiyotshunosi professor Yuriy Mixaylovich Lotman hazillar va yumoristik janrlarning strukturalistik tahlilini amalga oshirdi [11:384]. Olim badiiy asar matnining struktural tahlilida komik xarakterdagi matnlarni ham tahlilga tortadi. Olim "Yumoristik matnda tinglovchiga yetkaziladigan ma'lumot har bir tinglovchining mulohaza qilishiga ko'ra turlicha ma'no kashf etishi mumkin. Bu komik matnning tili, unda qo'llanilgan so'zlarning san'at darajasiga bog'liq"-degan qarashni olg'a suradi [11:33].

Komik folklor janrlarini tadqiq etishdagi yana bir ilmiy yondoshuv funksionalistik yondashuvdir. Bu yondashuv komik folklorning jamiyatdagi vazifasini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Taniqli chex olimi Yan Mukarjovskiy san'at asarini ijtimoiy muloqot belgisi sifatida ko'rgan. Uning "estetik funksiya" tushunchasi san'atning jamiyatdagi rolini norma va undan chetlanish o'rtasidagi bog'liqlik orqali belgilab bergan [13].

Odamlarga kulgi va yaxshi kayfiyat bag'ishlovchi og'zaki ijod namunalarini ilmiy tadqiq etishning yana bir muhim yo'nalishi bunday folklor asarlariga psixoanalitik yondashuv sanaladi. Bu yondashuv komik folklorning inson ruhiyatiga ta'sirini o'rganadi. Zigmund Freyd o'zining "Hazil va uni ongsizlikka munosabati" asari bilan bu yo'nalishga asos soldi [2]. XIX asr oxirlarida amalga oshirilgan mazkur tadqiqot XX asrning boshida ommalasha boshladi. Shundan keyin komik folklor janrlari nafaqat bekorchi ijrochilarning vaqt o'tkazishlari

uchun ijro etiladigan janr, balki inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim ma'naviy vosita sifatida ham o'rganilishi lozim ekanligi kun tartibidan joy oldi.

Yevrova va G'arb tadqiqotchilari og'zaki komik janrlarni ijtimoiy hayotning tartib lashtirishga yordam beruvchi ijtimoiy muammolarni tadqid qilish omili sifatida qaray boshladi. Natijada komik folklor janrlarini o'rganuvchilar bu janrlarga sotsiologik nuqtai nazardan yondashuv zarurligi isbotladilar. Sotsiologik yondashuv vakillari komik folklorning ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'rgandi. Mixail Baxtinning "Fransua Rable va uning o'ziga xos olami"ga bag'ishlangan tadqiqoti bu yo'nalishning muhim namunasidir [4:83]. M.Baxtinning fikricha, "Karnaval tipidagi bayramlar va ular bilan bog'liq kulgili harakatlar yoki marosimlar o'rta asr odamiy hayotida katta o'rin egallagan. To'g'ri ma'noda karnavallardan tashqari, ularning ko'p kunlik va murakkab ko'cha harakatlari hamda yurishlari fonida maxsus "ahmoqlar festivallari" va "eshaklar festivali", "Pasxa kulgisi" singari bayramlar nishonlanadi. Bundan tashqari, deyarli har bir cherkov bayramining o'ziga xos, an'ana bilan muqaddaslashgan kulgi tomoni bor edi. Bu "Ma'bad festivallar" odatda ochiq o'yin-kulgi, ularning boy va turli yarmarkalari bilan birga tashkil etilgan [4:2].

Kulgiga asoslangan folklor janrlarini o'rganishda keyingi ilmiy yondoshuv poststrukturalistik yondashuv maydonga keldi. Bu yondashuv komik folklorning ma'nosi doimiy ravishda o'zgarib turishini ta'kidlaydi. Jak Derridaning "Grammatologiya haqida" asari bu yondashuvning nazariy asoslarini belgilab bergan. J.Derrida kulgiga grammatologik yondoshuv asosida uni til domenatlari sifatida baholashni taklif qiladi [8:85].

Komik folklor janrlariga nazariy jihatdan turlicha yondashish mumkin. Ularning har biri komik folklorning muayyan jihatlarini yoritib berishga xizmat qiladi. Latifalarning jahon folklorshunosligida o'rganilish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, latifalar dastlab G'arbda antik davrda latifalarni o'rganishga qiziqish paydo bo'ldi. Bu davrda xalq latifalarini to'plash va ommalashtirish ishlari amalga oshirildi. A.Petuxovning ma'lumotiga ko'ra, kishilik jamiyati tarixida hozircha birinchi latifalar to'plami noma'lum to'plovchi tomonidan kitob holida

tartib berilgan “Philogelos” (“Kulgi ishqibozlari”) qadimgi grek tilida bo‘lib, 265 ta o‘sha zamon latifalarini qamrab olgan [15]. 1769-yilda N.G.Kurganov tomonidan chop ettirilgan «Rossiyskaya universalnaya grammatika. Vseobshcheye pismosloviye» kitobida ham latifalardan namunalar keltiriladi [8:424]. P.A.Vyazamskiy qadimiy latifalarni so‘z san’atining oliy namunalari sifatida o‘z kompozitsiyasi va uslubiga egaligini alohida qayd etadi [5:300]. Olim: “Qadimdan bizda og‘zaki adabiyot bo‘lgan va hozir ham mavjud. Afsuski qadimgi og‘zaki asarlar yozib olinmagan. Zukko va hozirjavob latifa ijrochilari xalq orasida hozirgacha mavjud. Afsuski, so‘z an’atining o‘ziga xos bo‘lgan bu turi tanazzul yoqasida” [5:29],-deb latifalarning yo‘qolib ketish xavfini e‘lon qiladi. Latifalarni poetik janr sifatida tadqiq etgan Ukrain folklorshunosi A.P.Peltser o‘z tadqiqotida rus og‘zaki ijodida latifalarning paydo bo‘lishida ertaklarning o‘rni borasidagi dastlabki jiddiy ilmiy nazariy xulosalarni ommalashtirdi [11:118]. A.P.Peltser syujet va personajlar talqinida ertakka xos uslub yetakchilik qilishini birinchi bo‘lib aniqlagan olimlardan bo‘ldi. A.P.Peltserning nazariy qarashlarini qo‘llab quvvatlagan zamondoshi N.F.Sumsov latifalarni har qanday folklor janridan o‘sib chiqishi mumkinligi, latifalar o‘zining komik belgilari bilan istalgan adabiy janrlarda transformatsiyalashuvi mumkinligini tadqiq etdi [15:315]. Taniqli folklorshunos A.A.Potebnya esa, latifalarni folklorning turli yondosh janrlari bilan taqqoslash, xususan, naqlar bilan qiyosiy o‘rganish asnosida latifa janrining tarixiy asoslarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarini olib bordi [14]. A.A.Potebnya tadqiqotidan keyin yevropalik olimlar o‘rtasida latifalarni fundamental tadqiq etish, anekdot – latifalarning ertaklardan o‘sib chiqqan janr ekanligi borasidagi nazariya ommalasha boshladi. Viktor Shklovskiy [1], V.Persovlar [12:41-43] latifalarning poetikasi va strukturasi borasida yangi tadqiqotlar olib bordi. Bu olimlar latifalarning funksional xususiyatlari, ijtimoiy vazifasi, badiiyatida ijtimoiy muammolarning poetik talqini masalalarini o‘rgandilar. Ular latifalarni ijtimoiy hayotdagi muammolarni kulgi ostiga oluvchi, inson axloqiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi so‘z san’ati namunasi ekanligini turli rakurslarda tushuntirishga erishdilar.

Kulgiga asoslangan folklor janrlaridan askiyalar o'zbek folklori namunasi sifatida XX asr o'rtalarida o'rganildi. Askiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni so'z o'yinlari, hazil-mutoyiba, mushoira va badiiy san'atlar orqali komik effekt yaratish usullari olimlar diqqat markazida bo'ldi.

Darhaqiqat askiyada ijrochilar tarafma taraf bo'lib, ikki guruhga ajralishadilar va ular o'zaro so'z o'yini qilib muayyan mavzu doirasida fikr kurashi olib borishga asoslangan bahsni namoyish etadilar. Askiya ijrochilarining professional tayyorgarlikka egaligi, aniqrog'i ularning tug'ma so'zga chechanlik iste'dodi sohibi bo'lishi bu janr namunalarining yaratilishi va ijrosida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirjavoblik askiyachiga xos bo'lgan muhim talablardan biridir. Negaki, askiya mavzusi kutilmaganda maydonga chiqadigan mavzu. Birinchi askiyachi kulgi qo'zg'ash uchun skrip sifatida tanlagan mavzuni qolgan askiya ijrochilari mantiqiy izchillikda davom ettirishi lozim. Mazkur talab ijrochidan hozirjavoblikni talab etadi. "Hozirjavoblik – askiyaning eng muhim sharti, chunki biror taraf o'z vaqtida ma'noli va ustun javob qaytara olmasa (fikrlar musobaqasida to'xtash, uzilish - pauza bo'lsa) kulkinning avji to'xtaydi, demak, raqib fikrining oqimiga kuchsizlik alomati sezilib qoladi. Hozirjavoblik og'izga kelgan gapni gapiraverish emas, albatta, balki bu fikr, zehn, idrok hozirjavobligidir. R.Muxammadiyev to'g'ri ta'kidlaganidek, hozirjavoblikda fikrning mantiqiy, izchil rivojlanishi, tanlangan mavzu ustida fikrlash, tafakkur va zehnni ishlatish, idrok etish, tez fahmlash, faraz va tasavvur qilish tezligi va o'tkirligi o'z ifodasini topishi lozim. Bundan tashqari, raqib tomonidan tashlangan so'z luqmasiga undan ko'ra ustinroq va manadiyroq, obrazliroq, mubolag'aliroq qilib javob qaytarish ham hozirjavoblikka xos belgilardan sanalib, ijrochining san'atkorona mahoratini belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi.

Askiya va latifa, loflarning og'zaki tarzda maydonga kelishi, shakllanishi va tadrijiy takomili o'z navbatida yozuvning shakllanishi oqibatida paydo bo'lgan yozma adabiyot va individual ijodga samarali ta'sir ko'rsatgan. Bu jarayon yozma adabiyotda satirik va yumoristik asarlarning maydonga kelishiga zamin hozirlagan.



Xullas, kulguga asoslangan folklor janrlari jahon fanida dastlab og‘zaki badiiy ijodiyot namunasi, badiiy tafakkur mahsuli sifati qaralib, izchil to‘plash va ommalashtirish jarayonini boshidan kechirdi. Bu esa komik folklore namunalariga qayta hayot bag‘ishladi.

XX asr boslariga kelib Yevropa olimlari sotsiologik, psixologik va falsafiy nuqtai nazardan kulgiga asoslangan folklor namunalarini o‘rgana boshladilar. XX asrning o‘rtalaridan boshlab, o‘zbek va rus folklorshunoslari xalq orasida og‘zaki yaratilib, og‘zaki tarzda avloddan avlodga o‘tib kelayotgan komik (latifa, askiya, qiziqchilik hikoyalari yoki hazillar) janrlarni tabiatini aniqlash, badiiy xususiyatlarini tadqiq etishga e’tibor qarata boshladilar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сюжет как явление стиля. Петроград, ОПОЯЗ, 1921.
2. Freud, S. Jokes and their relation to the unconscious (J. Strachey, Trans.). – New York: W.W.Norton. 1960. (Original work published 1905)
3. Lévi-Strauss, C. (1949). Les Structures élémentaires de la parenté. Paris: Mouton. – P. 591.
4. Бахтин М. М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – М.; Художественная литература, 1965. – С.2
5. Вяземский П.А. Записная книжка П.А.Вяземского: [ирония, юмор, сатира] / П. А. Вяземский авт. введ. и сост. С. Н. Искюль; ред. В. И. Важенко. – Санкт-Петербург: Политехника, 1999. - 300 с.
6. Дандес А. Фольклор: семиотика или психоанализ. – М.: Восточная литература, 2003. – 279 с.
7. Жак Деррида. О грамматологии. Перевод с французского Наталии Автономовой. – Москва: Издательство "Ad Margilem", 2000.– С.85.
8. Курганов Н.Г. Российская универсальная грамматика, или Всеобщее писмословие, предлагающее легчайший способ основательного учения русскому языку с семью присовокуплениями разных учебных и полезно-забавных вещей. - [1-е изд.]. – СПб., 1769. – 424 с.
9. Лотман Ю. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970.– 384 с.
10. Мукаржовский Я. Структуральная поэтика / пер. с чеш., вступ. ст. Ю. М. Лотмана, коммент. Ю. М. Лотмана, О. М. Малевича. М.: Языки русской культуры, 1996.
11. Пельтцер А. П. Происхождение анекдотов в русской народной словесности // Сборник харьковского историкофилологического общества. – Харьков. – 1899. – Т. 11. – С. 57–118.
12. Перцов В. Анекдот: Опыт социологического анализа // Новый Леф. – 1927. – № 2. – С.41–43.
13. Петухова А. [Наука об анекдоте – Наука /https://www.kommersant.ru](https://www.kommersant.ru)
14. Потебня А.А. Из лекций по теории словесности. – 3-е изд. – Харьков, 1930.
15. Сумцов Н.Ф. Разыскания в области анекдотической литературы. Анекдоты о глупцах // Сборник харьковского историкофилологического общества. – Харьков. – 1899. – Т. 11. – С. 118 – 315.

## QO'LYOZMALARDAGI TAMALLUK (MULKCHILIK) QAYDLARI XUSUSIDA

**Sulaymonova Xulkar Mo'minjonovna,**

*ToshDO'TAU doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*  
[sulaymonovahulkar17@gmail.com](mailto:sulaymonovahulkar17@gmail.com)

**Annotatsiya.** Yozma manba(qo'lyozma va toshbosma)larda uchraydigan hoshiyaviy qaydlar, muallif yoki kotibning asosiy matndan tashqaridagi yozuvlari, o'quvchilar yoki kitobxonlar qaydlari, mulkchilik belgilari yoki kitob tasarrufiga oid boshqa ma'lumotlar manbashunoslik ilmida *tamalluk*, *waqf*, *favoid*, *ijoza*, *samo'*, *qiroat*, *xidmat* qaydlari kabi atamalar bilan izohlanadi.

Ushbu maqolada mulkchilik yoki mulkdorlik qaydi – tamalluk haqida fikr yuritilgan. Keltirilgan misollar Abu Bakr Xorazmiy(935-993)ning رسائل الخوارزمي (Xorazmiy maktublari) asari qo'lyozma nusxalaridan olingan.

**Kalit so'zlar:** qo'lyozma, qo'lyozma biografiyasiga oid belgilar, tamalluk qaydlari, mulkchilik belgilari, Abu Bakr Xorazmiy, رسائل الخوارزمي (Xorazmiy maktublari) asari.

**Abstract.** Marginal notes encountered in written sources (manuscripts and lithographic editions), writings of the author or scribe outside the main text, notes left by readers or book users, ownership marks, and other information related to the possession of books are explained in source studies through such terms as *tamalluk* (ownership notes), *waqf*, *fawā'id*, *ijāza*, *samā'*, *qirā'a*, and *khidma* records.

This article discusses *tamalluk* records, that is, ownership or proprietorship notes. The examples presented in the article are taken from manuscript copies of Abu Bakr al-Khwarizmi's (935–993) work *Rasā'il al-Khwarizmi* (“The Letters of al-Khwarizmi”).

**Keywords:** manuscript, manuscript biographical marks, tamalluk records, ownership marks, Abu Bakr al-Khwarizmi, *Rasā'il al-Khwarizmi* (“The Letters of al-Khwarizmi”).

Sharq qo'lyozmalari muayyan asarning matni emas, balki o'sha nusxa ko'chirilgan va ilmiy iste'foda etilgan muhitning ham tarixiy namunasi

hisoblanadi. Matnshunoslikda biror matn tarixini o'rganishda u aks etgan qo'lyozmadagi kichik bir yozuv yoki belgi ham muhim ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Shu ma'noda, dunyo manbashunoslik va matnshunoslik ilmida jadal rivojlanib borayotgan **qo'lyozma biografiyasi** (manuscript biography) [bu haqida qarang: Olly Akkerman. Leiden: Brill, 2023.] tushunchasi va nazariyasi katta ahamiyatga ega. Bu nazariyaga ko'ra zamonaviy kodikologiya va manbashunoslikda qo'lyozmaning faqat matni emas, balki uning "hayot yo'li", ya'ni yaratilishi, ko'chirilishi, egalari almashinuvi, vaqf qilinishi, o'qilishi va turli hududlar bo'ylab tarqalishini o'rganish – **qo'lyozma biografiyasini** tiklash hisoblanadi. Mazkur yondashuv qo'lyozmani turg'un matn holatidan ijtimoiy va madaniy muhit bilan uzviy bog'liq bo'lgan harakatlanuvchi ma'naviy obyekt darajasiga olib chiqadi. Bunda *tamalluk*, *muhr*, *vaqf*, *favaid*, *ijaza*, *samaa'* va *qira'a* kabi qaydlar qo'lyozmaning biografik tarixini tiklashda muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Tamalluk (تملك) [An-nai'm, 2003:796.] arab tilidagi "malaka" (ملك) o'zagidan hosil bo'lib, "egalik qilish", "olish", "erishish" ma'nolarini anglatadi. Qo'lyozmalardagi tamalluk qaydlari asarning biror shaxs mulkida bo'lganini ko'rsatuvchi yozuvlardir.

Adam Gacek<sup>1</sup> o'zining "*Arabic Manuscripts: A Vademecum for Readers*" asarida qo'lyozmalardagi mulkchilik qaydlari (ownership statements) qo'lyozmaning provenansi ya'ni uning egalik va tarixiy harakatini aniqlashda muhim manba ekanini ta'kidlaydi. Olimning qayd etishicha, tamalluk va boshqa egalik belgilarini nafaqat kolofonlarda, balki matn boshida, forzatlarda, ijoza, samo' va muqobala qaydlarida ham uchratish mumkin. Shuningdek, bunday qaydlar qo'lyozmaning kimga tegishli bo'lgani, qaysi kutubxona yoki ilmiy muhitda muomalada bo'lganini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, zarhal va nafis bezatilgan qo'lyozmalarda tamalluk qaydlarining medalyon va ornamental

---

<sup>1</sup> Adam Gacek (1946–2022) – kelib chiqishi polyak bo'lgan kanadalik sharqshunos, arab qo'lyozmashunosligi, kodikologiya va paleografiya bo'yicha yirik mutaxassis. U McGill universiteti Islomshunoslik institutida faoliyat yuritgan hamda arab qo'lyozmalarining tavsifi, terminologiyasi va kelib chiqishiga oid ilmiy tadqiqotlar muallifi. Uning "*Arabic Manuscripts: A Vademecum for Readers*" (Arab qo'lyozmalari: tadqiqotchilar uchun qo'llanma) (Leiden–Boston: Brill, 2009) asari sharq qo'lyozmashunosligiga oid terminlar, qo'lyozma elementlari va kodikologik belgilarni izohlovchi muhim ilmiy qo'llanmalardan biridir.

shakllarda berilishi sharq kitobat san'atining muhim xususiyatlaridan biri sifatida baholanadi.[ Adam Gacek, 2009: 173-174].


Tamalluk qaydlari odatda bunday formulalar bilan boshlanadi:

«ملك العبد الفقير إلى الله» yoki: «هذا الكتاب ملك فلان بن فلان».

Tamalluk qaydlari ko'p hollarda qo'lyozmaning dastlabki sahifalarida, asar nomining yon yoki pastki qismlarida, oddiy yozuv yoki dumaloq shakldagi egalik muhri ichiga yozilgan matn ko'rinishida uchraydi.

Quyidagi rasmda “Rasā'ilu-l-Xorazmiy”ning Madina shahridagi Mahmudiyya kutubxonasida saqlanuvchi AB020793-raqamli qo'lyozmasidagi tamalluk qaydi tasvirlangan:

1- rasm



Unda yozilishicha bu nusxani ko'chirgan kotib Ahmad ibn Nasriddin al-Baqoiyning mulki bo'lgan. Xuddi shu sahifadagi doirasimon egalik muhrida esa boshqa mulkdorlarning ismi zikr etilgan.

2- rasm






Rasmdagi tamalluk qaydida yozilishicha, bu Hoji Mustafo Sidqiy (Alloh uni mag‘firat qilsin) ning mulkidir.

Ayni shu sahifadagi avvalgi ikki egalik qaydining davomida (ya’ni ulardan pastroqda) yana bir tamalluk qaydi mavjud.

3-rasm



Bunda mazkur qo‘lyozmaga 1183 hijriy yilda Abdulboqiy Arslonzoda egalik qilgani haqidagi qayd yozilgan.

Shunday qilib, Majma‘ al-Malik Abdulaziz li-l-Maktabāt al-Vaqfiyya fondi(Saudiya Arabistoni)da AB020793 raqami ostida saqlanayotgan “Rasā’ilu-l-Xorazmiy” qo‘lyozmasidagi tamalluk qaydlari mazkur nusxaning tarixiy harakati va mulkchilik bosqichlarini tiklashda muhim ma’lumotlarni taqdim etadi.

Qo'lyozmadagi dastlabki tamalluk qaydidan ko'rinadiki, nusxa uni ko'chirgan kotib Ahmad ibn Nasriddin al-Baqoiy tasarrufida bo'lgan. Demak, kotib bir tomondan "Rasā'il" asarining yangi nusxasini ko'chirib, uni ilmiy muomalaga kiritgan bo'lsa, boshqa tomondan ushbu moddiy obyektning mulkchilik tarixi(provenansi)ga ham asos solgan. Keyingi davrlarda esa qo'lyozmaning turli shaxslar qo'liga o'tishi Hoji Mustafo Sidqiy hamda Abdulboqiy Arslonzoda kabi mulkdorlarning tamalluk yozuvlari orqali izchil qayd etib borilgan. Mazkur qaydlar qo'lyozmaning bir necha kishilar tasarrufida bo'lganini ko'rsatadi. Qo'lyozmada tamalluk qaydlaridan keyin uchraydigan vaqf muhrlari esa uning xususiy egalik doirasidan chiqib, jamoaviy ilmiy muassasa tasarrufiga o'tganini bildiradi. Ya'ni avval xususiy mulk sifatida boshqarilgan qo'lyozma, endi faqat ilmiy-ta'limiy yo'lda foydalanish mumkin bo'lgan vaqf mulki maqomini olgan.

Tamalluk qaydlarining muhim jihatlaridan biri shundaki, ular orqali qo'lyozmaning geografik harakatini aniqlash mumkin bo'ladi. Masalan, ayrim nusxalarda turkcha uslubdagi muhrlarning mavjudligi qo'lyozmaning Usmonli ilmiy muhitida faol iste'foda etilganini ko'rsatsa, Hijoz hududidagi nusxalarda uchraydigan vaqf va egalik qaydlari esa asarning Arabiston yarimorolida ham ilmiy muomalada bo'lganini tasdiqlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bahl C. D. *Mobile Manuscripts: Arabic Learning and the Transregional Book Culture in the Early Modern Western Indian Ocean*. Cambridge: Cambridge University Press, 2025.
2. Coleman J., Cruse M., Smith K. A. (eds.). *The Social Life of Illumination: Manuscripts, Images, and Communities in the Late Middle Ages*. Turnhout: Brepols, 2013.
3. Gacek A. *Arabic Manuscripts: A Vademecum for Readers*. Leiden–Boston: Brill, 2009.
4. Nosirov O. va boshqalar. *An-Na'im. Arabcha-o'zbekcha lug'at*. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003.
5. *Social Codicology. The Multiple Lives of Manuscripts in Muslim Societies* / ed. Olly Akkerman. Leiden: Brill, 2023.
6. Zhitomirsky-Geffet M. va boshqalar. "Toward an Ontopedia for Historical Hebrew Manuscripts". *Frontiers in Digital Humanities*, 2016.
7. رقم الحفظ: AB020793. رسائل الخوارزمي. مجمع الملك عبد العزيز للمكتبات الوقفية.

## AHMED MAHMUD HÂZÎNÎ VE HÂFİZ ŞÎRAZÎ

**Cesurbek Mahmudov,**

Üzbekistan Milli Üniversitesi dotsenti,  
filoloji bilim doktoru

**Nefise Yusupova,**

Üzbekistan Milli Üniversitesi büyük öğretmeni

Agar on turki Sheroziy ba dast orad dili moro,  
Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo  
(*Şamsuddin Hâfizi Şirâzî*)

**Rezyume:** Makalede ömrünün çok kısmını Osmanlılar hükümlanlığı döneminde Türkiyede geçiren Ahmet Mahmut Hâzînî'nin<sup>1</sup> farsça-tacikçe edebiyatı'nın büyük temsilcisi olan Şemsiddin Muhammed Hâfiz Şirâzî'ye yazan tatabbûları hakkında yorumlar yapılır. Üzbek edebiyatında tahmis, tazmin, tatabbû gibi türlerde icat kılan şairlerimizin arasında kendi üretkenliği ile öne çıkan edipler çoktur.

Yesevi tarikatı'nın büyük temsilcisi olan Ahmed Mahmud Hâzînî'nin bu tatabbûları güzel bir şekilde yazıldı, yani Hâfiz Şirâzî'yin meşhur gazeli seçilip, onun türki Şirâzî kısmını türki Buharî, türki Hîsarî, türki Urgencî ifadelerini kullanan ve onun içine yeni fikirler kattı. Neticede gazel resmen Hâfiz'e benzerse de, terkibi kısmı ayrı - ayrı eser halinde oluşturuldu.

**Anahtar sözler:** tatabbû, nezire, taşbih, Ahmed Mahmud Hâzînî, Hâfiz Şirâzî, tesavvuf edebiyatı, Osmanlı devleti.

**Resume:** The article discusses the works of Ahmet Mahmut Hâzînî, a prominent figure in the Yesevi sect during the Ottoman era in Turkey, in comparison to Şemsiddin Muhammed Hâfiz Şirâzî, a renowned representative of Persian-Tajik literature. It highlights the poets in Uzbek literature who introduced genres like tahmis, tezis, and tatabbû, with a focus on the tatabbûs of Ahmed Mahmud Hâzînî. These tatabbûs elegantly incorporate elements from Hâfiz Şirâzî's famous ghazal, utilizing Turkish language variations such as Türki Buharî, Türki

<sup>1</sup> İbrahim Kunt. Hazini ve divanı (inceleme-metin), 785 s. Danışman: Prof.Dr. Adnan Karaismailoğlu. Selçuk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2002.

<sup>1</sup> Hasan, Nadirhan. Ahmed Mahmud Hâzînî (hayatı ve icatı). – Taşkent: Bilgi, 2001. – B.6.



Hîsari, and Türki Urgencî, while also introducing new concepts. Despite the formal resemblance to Hâfîz's ghazal, the resulting composition emerges as a distinct piece of work.

**Keywords:** tatabbü, verse, resemblance, Ahmed Mahmud Hâzînî, Hâfîz Şîrâzî, Sufi literature, Türki Buhârî, Türki Hîsari, and Türki Urgencî

**GİRİŞ.** Bildiğimiz gibi, Alî Şîr Nevâyî “Dîvanî Fanî” eserinde tatabbü’den çok kullandı. Bu eseri basmaya hazırlayan ve yorumlar yazarı olmuş meşhur Nevâyîcî alim, Uluslararası Ahmed Yesevi ödülü sahibi Seyfiddin Rafiddinov (Seyfiddin Seyfulla) uygulamada şöyle yazıyor: “Tatabbü – manası birşeyin peşinden düşmek, izinden takip etmek anlamında gelir. Edebiyatçılık’ta birer şiirden etkilenip, ondaki vezin, kafiye (redif olsa onu da) saklayarak eser yazmak, bazen şiirleri benzetme, cevabiya, nazire de denilir. Nevâyî kıtalarından birisinde tevazelle şöyle söyler:

Tatabbo‘ kardani Foni dar ash’or,  
Na az da’voya ne az xudnamoist.  
Chu arbobi suxan sohibdilonand,  
Murodash az dari dilho gadoist.

Yani, Fanî ‘yî (İran şairleri) şiirleriye tatabbü yazmasından amacı birer-bir dava veya kendini göstermek için değildir. Bu söz ustaları merifet ahlıdırlar, muradı gönüller kapısından gedalıktır.”

Dolayısıyla alim, Hacı Hâfîz Şîrâzî hakkında detaylıca bilgiler vermiş olan “Şemsiddin Muhammed (1321, Şîraz – 1389, şu şehir) büyük bir İran şairidir. Ondan bir divan kalmıştır. Hâfîz şiirlerinde aşkın mecazi ve aşkın hakikatını renkli tarif ve tevsifleri mevcuttur. Özellikle, şair mecaz yolu ile hakikat sırlarından bahsetmiştir. Mevzu’nun farklılığı, onlardaki bediyyat’ın nihayetle ülkenliğinden Hâfîz şiirleri kendi zamanında çok şöhret kazandı, sonraki dönem şiiriyetine de faydalı bir etkisini gösterdi. XVII yüzyıldan başla Batı edebiyatına de kendi tesirini gösterir. Goethe’nin Hâfîz’ten mülhem olarak “Batı ve Doğu divanı” nı icat edilmesi onun Batı tefekkür dünyasına tesir ettiğı bunun bir kanıtıdır. Nevâyî Hâfîz

gazellerideki üstalığı çok takdir etti. “Dîvanı Fanî” da Hâfîz gazelleride 211 tatabbü mevcuttur. Söylemek gerekki, Nevâyî Hâfîz gazellerinden tasavvufî mezmunda olanlarını almıştır.” Bugünkü makale’nin nesnesi olan Ahmed Mahmud Hâzînî tatabbüları da aynı dini tasavvufî mezmundadır. Zira, XVI yüzyılında Osmanlı Türkiyede yaşayan Yesevi tarikatı’nın şeyhi ve şairidir. Hâzînî dîvanı’nı Türk araştırmacısı – İbrahim Kunt tetkik etmiştir.

Hâfîz Şîrâzî’nin “Meğer gönlümü şad eylerse o şerazlık türk cananı” matlasıyla başlanan meşhur gazeli ve onun ilginç tarihi herkese malumdur. Cümleden, biz bugün söz etmek olan nazire – benzetme gazellerinden birisi Yesevi şeyhi Ahmed Mahmud Hâzînî’in farsça – tacikçe dillerinde yazılan divanıda verilmiştir.

Ahmed Mahmud Hâzînî Alî Şîr Nevâyî tarafından “Turkistan mülkünün şeyh ul- meşaihi” diye tarif edilen Ahmed Yesevi okulunun büyük temsilcilerinden biri olarak, XVI yüzyılında Maverâünnehir’in Hîsarî Şadman bölgesinde doğdu. Yesevicilik alim Nadırhan Hasan’ın verdiği bilgilerine dayanarak, Sultan Ahmed Hâzînî asıl bugünkü Kaşkaderya’nın Hîsar bölgesinde, muhtemelen 1533 yılında doğdu. “Cevahir ul – ebrar” eseri girişinde Hâzînî kendisi’nin tam adını “Sultan Ahmed ibn Mevlana Mahmud ibn Sultan ibn Hâce Şah al- Kurâyîşî summal – İskenderi –ul – Hîsarî al- Maverâünnehiri aş – Şahir ba Hâzînî” diye yazdı. M.F Köprülü kendisi’nin “Türk edebiyatında birinci mutasavvıflar” eserinde Hâzînî’in “Turkistanlık türkilerden” olduğunu kaydetti. Dolayısıyla, yetenekli şair olarak tanılan Ahmed Mahmud Hâzînî farsça – tacikçe dillerinde Dîvan oluşturduğu ve onun kopyası Türkiyede saklandığı N.Hasanov tarafından açıklanmıştır. Bu noktada daha birşeyi söylemek önemlidir, kaynaklara göre Nakşibend’iyye ve Yesevilik tarikatları’nın büyük temsilcisi, nazariyâtçisi ve terğibcisi olan Sultan Ahmed Hâzînî al – Hîsarî, kendi eserlerinde zamandaşı, tasavvuf tarihinde Mahdumî Ê’zêm, İmam al – Kâsânî, Hâceği, Hâceği Kâsânî adları ile iz kaldıran Hâceği Sayyid Ahmedhace ibn Sayyid Celaliddin Kâsânî’nin ifade eden fikirlerine geniş bir yorumlar da yazmıştır. Bildiğimiz gibi, Hâzînî 1567-68 yıllarında hac seferine çıkıp, sonra ömrünün sonuna kadar Osmanlılar devletine ait büyük şehir ve bölgeleride (Suriye,

Kahire,İstanbul) yaşayan ve oralarda Mahdumî Ê'zêm fikirlerini ileri sürdü. Hâzînî dîvan'ın “elif” redifli gazelleri gösterilen ön beşinci gazeliden yirmi üçüncü gazeliye kadar Hâfîz Şîrâzî'in meşhur “Meğer o türki Şîrâzî ...” diye başlanan meşhur gazeliye tatabbü şeklinde yazılmıştır. Bize malumki, Hacı Şemsiddin Muhammed bin Muhammed bin Muhammed Hâfîz Şîrâzî (muht.1326-27 1378-90 yıllar) farsça – tacikçe edebiyatı'nın göze görünen meşhur temsilcilerinden sanılır. Onun çeşit, güzel gazelleri kendi zamanında ve sonraki yüzyıllarında dilden –dile taşınmıştır. Hâfîz Şîrâzî şiirlerinde mülhem olarak birçok türk şairler de onun gazellerine tatabbü ve nazireler bağlantıları edebiyat tarihinden malumdur. “Gar on sho'xi Buxoroi” diye başlanan gazel Ahmed Mahmud Hâzînî dîvan'ın yirmi ikinci numarasında gösterilen. Bu gazel Hâfîz Şîrâzî'in meşhur gazeliye tatabbü şeklinde bitilen eserdir. Gazel aynı Hâfîz gazeli gibi aruz'un hazacı musammai salim şeklinde yazılan (mefa'iliun, mefa'iliun, mefa'iliun, mefa'iliun). Şair bu gazelide Buharalık bir güzeli tarif ve tevsif ederken talmeh sanatından kullanarak, birçok büyük temsilcileri ve çeşitli yerleri hatırlar:

Gar on sho'xi Buxoroi navozad xotiri moro,

Ba ji'di zangiash baxshim Shomu Hindu, dunyoro.

(İzah: Meğer Buharalık güzel neşemizi arttırsa, kara zülfüne Şamu Hindu dünyayı devir ettirerdik).

Bu noktada beytte gelen Şam coğrafi terimine bakarsak, “Lugatnamai Dexxudo” da okuruz: “Şam – bir memlekti'n adı olarak, eskiden Ürdün, Suriye, Lübnan ve Filistin devletlerini barındı. Onun böyle adlandırılmışı ve yerleşen (coğrafi) yeri tarihi hakkında sözlük bilimciler, coğrafiyeciler ve tarihçiler türlü fikirler söyleyenlerki, onları kısa bir şekilde açıklarız: “Tâc ul- urus” yazıcısı onun adlandırılması hususunda şöyle yazar: kible'nin sol tarafında yerleştiği sebebiyle ya da kanon yiğitleri iki taraflı yola denk gelip, ondan sol tarafını seçip vardıkları için yahut Som ibn Nuh alayhisselam'a dair olan bölge olduğu için böyle ad verilmiştir. Aslında bu kelime Som olan ama sonra “S” herfi “Ş” herfine değişti diye fikir bildirdi. Lakin bu bakımı tarihçiler'in çoğunluğu yanlış diye bilirler, zira onlara

göre Som'ın oralara kadar adım atmayan ve bile görmeyen iken. Yani o temelini koymayan şehre onun adını verilmesi yanlış fikir diye sanırlar.

Başka bir bakımdan, bu bölge'nin toprağı beyaz, kırmızı ve siyah renkli olduğu için de “şomot” yani noktalar denilir. Kısacası, yukarıdaki fikirlerden birincisini itibar'a aldılar. “Anjuman oro” ve “Onandroj” sözlükleri'nin yazıcıları bu yerin eski adı Suriye yerleri (Arozi Suriye) olduğu hakkındaki fikrini ileri sürediler. Bu bölge bugünkü günümüzde de Suriye diye sanılır ve sürüyani dili bu yerlik ahaliye mensuptur. “Mocam ul-buldan” yazıcısı “Şam” kelimesi aslında “al – ayad aş – şumi”, yani “sol el” kelimesinden hasil olduğu ihtimalden uzak değil”, diye yazar.

Lakin bu mevzuda onun kıblaya nispeten sol tarafta yerleştiği hesabı alınmıştır. Bu durum ise yanlış sayılır. Çünkü kıbla için sağ ve sol taraflar olmaz(yani her taraf aynıdır). Eski farsça kaynaklarında onu “Şamin” deyilip, araplar onu kısaltıp Şom diye söyledikleri vurgulanıyor. “Akrâb ul- mâvorîd” yazıcısı şöyle yazar: “ Onun manası noktalı yer denilir, yani beyaz, kırmızı ve siyah lekeleri olan yer denilir. O yüzden “şomma” kelimesinden hasil olup “şomot” terimi nokta manasını verir. Beytte aşık Buharalık bir dilberin (habaşa benzer) kara zülfü için aşık evvela Şamı, sonra Hindiyi daha sonra bütün bir alemini hediye etmesini söyler. Yukarıdaki izahlerden birisinde, Şam memleketi Nuh peygamber'in üç oğlundan birileri – Som ibn Nuh alayhisselam keşfedildiği yer olduğu itiraf edildi. Bu açıdan bakıldığında eğer Hind mülkü'nün Nuh peygamber'in daha bir oğlu Hom evladları'nın yeri olan diye düşünsek, işte o zaman beytte “Buhara güzeli'nin kara zülfü'ne her iki millet vekilleri yerleşen yerleri hediye ederdim” denilen mezmun ortaya çıkar. Zira, Alî Şîr Nevâyî “Mühakemetül- Lugateyn” eserinde aktarıldığı gibi Nuh Peygamber'in Abul – hind – hindiler'in babası denilen oğlu Hom'u Hind mülkü'nevarıp yerleşedi.

ندانسته حریف نکتدان قیمت خالاش

که ملک چند از دنیای دون آورده سودارا

Nadonista harifi nuktadon qiymati xolash,

Ki mulke chand az dunyoi dun ovarda savdoro.

(İzah: İncecik manaları bile anlayabilen söhbetdaşım onun bütün dünyayı yağma etme hali'nin kıymetini nereden bilsin). Bununla şair herşeyin mahiyetini bilen bilgi adamlar bile güzel yar'ın hali kıymetini anlayabilmez, denir.

بخارا آسمان از ملك خويان مه سيما  
زمينش از هواداري فيروز آوردي بيضا را  
Buxoro osmoni az malakxuyoni, mah siymo,  
Zaminash az havodori feruz, ovardi bayzora.

(İzah: Buhara gökyüzü melek gibi ay ta'lat, meleklerle dolu bir gökyüzüdür. Yeri temizlikte Bayzo – beyaz akşam beyaz taştan bile üstündür. Havası ise firuze gibi bem – beyaz.)

Che fayzi Xoja Sa'du Chor Bakri bikri u yobi,  
Yaqin don yofti fayzi Baqi'vu ham Musalloro.

(İzah: Hacı Sa'd feyziyü, Çar Bekir'in nezaketin'den güya Baki ve Musallo feyzini bulduğun gibi olacaksın). Bu sıradaki yer isimleri de izahtaleptir. Baki – bu Medinedeki Efendimiz Mediniye'ye hicret ettiklerinden sonra onların tevsiyeleri ile şu mezar'a birincilerden olarak gömülen kişi – Üsman bin Mazundur.

Dolayısıyla, Uhud cenkide vefat kılanlar Peygamberi'mizin İbrahim adlı oğulları'n mezarı oradadır. Daha sonra Medinedeki yahudiler Hissi Kavkab adlı mezar'a gömülen Üsman bin Affon'ın kabrı da Muaviye tarafından geniştirilen Baki mezarı'na taşınılır. Kısacası, Baki mezarı ilk feyzli mekan gibi değerlendirilir. İkinci kelime “Musallo” birkaç anlamda gelir. Aslında “musallo” – namaz kılan yer, seccade , “buryo yada namat” ten yapılan seccade anlamındadır. Mesala, “Orası (Buhara) dan sofralar, pek iyi bir teridden yapılan halılar, seccadeler yayılır (Hudud – ul –alem).” Dolayısıyla, makamı Musallo denilen deyim varki, onun anlamı İbrahim alayhisselam'ın namaz kılan yerleri (Bayt ul-me'murdeki dergah) olarak değerlidir. Yer adı olarak Şiraz şehrindeki bir eğlenceli mekan olup, Hâfız Şirâzî'nin mezarı da aynı yerdedir. Yazar, ayette bahsedilen Buhara'daki Hacı Sa'd ve Çor Bekir türbelerinin faziletlerini temsilci bu iki temiz evin faziletleriyle bir tutmaktadır.

Malohat dar Buxoro ju, sayohat dar Samarqandiy,

Latofat dar Hisor ju, dar u gulgashti sahroro.

(İzah: Buharadan melahatı, Semerkant'tan seyahati, Hîsar'dan ise ondaki çöllerin'in diyarları sebab letafetı gözle. Şair bununla Buhara'nın harika insanların küçüklüğünü ve nezaketini, Semerkant'ın eşsiz anıtlarını ve Hîsar dağlarının kucağındaki çiçek bahçelerini ve çöllerini kastediyordu.

Fazoi Juyboru fayzi bo'stoni Bahouddin.

Bo'vad hasrat fizo har xotiri firdavs ma'voro.

(Cöybor nehrinin temiz havası ve mesken olan Bahovuddin Nakşibend şehrinin zarafeti, Fîrdevs Cenneti'ni düşünen ve özleyenleri her zaman kışkandırır).Şair bununla birlikte, Buhara'daki Cöybor nehri hemde Hz. Bahauddin Nakşibend'in külliyelerine olan ilginin cennetin kıyısında yürüyenleri bile kışkandıracağını söylüyor.

Haziniy tobakay dar Rum bini orzumandi,

Bako'n dar diydai jon to'tiyo xoki Buxororo.

Ey Hâzînî, rüyanı ne zamana kadar Rum'da (Türkiye) göreceksin ve orada diye bileceksin? Kalbinizi ve ruhunuzu Buhara'nın korunmasına adayın. Ancak o zaman gerçek hayalinize ulaşacağınızı söylüyor, Şair kendi kendine, hayalini başka ülkelerde ne kadar arayacaksınız, dedi. Sonuçta asıl rüyanızın kaynağı Buhara'dadır, denilen izah ortaya çıkar. Zira, Şairin bir yerde belirttiği gibi amacına giden yolda pek çok yeri gezmiştir. İşte asıl Kaşkadarya'nın Hîsarî Şadman şehrinden olan ve Yesevi mezhebinin müridi sayılan Ahmed Mahmud Hâzînî bu denemeleriyle onun en güçlü şairlerden biri olduğunu göstermiştir. Hâzînî'nin kitabının 23 numarasında verilen gazel şöyle başlıyor:

Agar on turki Urganjiy xaridoriy kunad moro,

Ba chini sunbulash baxshim Yovardiyu Yag'voro.

(Eğer Urgençli türk güzeli gönlümüzün müşterisi olsaydı,sünbül saçının topuzuna Yovardu Yağ'va'yu verirdik). İkinci beytte geçen yabancı Yavard ve Yağ'va gibi yabancı yer adlarını araştırıp kaynaklara döndüğümüzde şu bilgilere rastladık. “Lugati Onandroj”, “Anjuman oroi Nasîrî” eserlerinde Yovardi'nin ilk yer adı hakkında şu bilgiler verilmişti:“**Ёварди ёхуд Ёваркандий** –Ahar şehrinin



orta kısmı etraflarından biridir. Ahar Bokhtardan 17.000 metre güneyinde yer almıştır.

Ahar'da 310 kişi yaşıyor. Nüfusun ana içme suyu kaynak suyudur. Ahar – Azerbaycan'da büyük nehre sahip bir bölgedir. Azerbaycan'da Karadağ civarında yerleşmiştir. Hacı Şemsiddin Cüveyniy, Ahar olarak bilinen bu nehrin kenarında idam edildi.

Orada birkaç şeyhler'in mezarları var. (Sözlük Onandroj, Anjuman Oroj Nasiri). Ayrıca Yakut Hâmâvî'nin “Mô'cêm ul-buldan” adlı eserinde Ahar hakkında şöyle denilir: “Erdebil ve Tebriz şehirleri arasında yer alan, Azerbaycan'ın müreffeh ve mübarek bir şehridir.”İkinci sırada yer alan “Yağva” adı sözlüklerde bulunmaz. Bize göre Yağva aslında Yağma olmalıdır, yani Yağma (يغما) Arap alfabesiyle yazıldığında katip tarafından yanlışlıkla Yağva (يغوا) olarak yazılmıştır. Yani “mim” ve “alif” harflerinin ayrılması sonucu Yağma kelimesi Yağva şeklinde yazılmıştır.

Bunu dikkate alırsak buradaki mekanın orijinal adı Yağmodur. “Lügatnamai Dehhudo”de bu yerin adı şu şekilde geçmektedir: “Yağma, Türkistan'daki bir şehir'in güzelliği ve çekiciliğiyle ünlü bir şehrin adıdır. Bu şehirden pek çok erdemler geldiler. Ayrıca halkı her şeyi yağmalayarak adından söz ettirdi. Bu nedenle şairlerin dilinde Yağma buti, Yagma höbleri (güzel) gibi ifadelerle anılır. Onun doğusunda Tağazguz ilçesi, güneyinde ise Kapı nehrinden gelen Holandgun deresi geçer. Batı kısmında Halakh bölgesi yerleşir. Burası öyle bir ilçe ki, tarım yapılmıyor, ekim yapılmıyor, tohum ekilmiyor. Bartuj, Khair Makki köyleri de mevcuttur.

Kaşgar, Yağma ile Tibet arasındaki sınır bölgesinde yer alır ve Harkhiz, Chin (Çin) ve Ağraj Arat dağları Yağma ilçesinin ortasından geçer (“Hudud ul-Âlem eserine dayanmaktadır).

Havayi xittai Xorazm diljustu jonparvar,

Magar abfosi ruh afzo dar-u monda Masihero.

(Harezim bölgesinin havası insanın içini ve yüreğini ısıtıyor. Belki de havasına İsa Mesih'in canlandırıcı nefesi yerleşmiştir).

Chi Najmiddin Kubravu, chi Hubbiyi Xojaiy akbar,  
Ki fayzi har yake afruxta dunyoro va uqbaro.

(İzah: Necmeddin Kübrani'nin veya Er Hubbi Hocani'nin şöretini anlatayım mı - her birinin dünyayı ve ahireti aydınlatan lütfu nasıl tarif edebilir?).

Necmuddin Kubro'nun Harezim'de gençlik merkezli örneğini genişleten evliyalardan biri olduğu bilinmektedir. Tazkirelere göre, asıl Hiveli olan ancak o dönemin merkez şehri Eski Urgenç'te çalışan Necmuddin Kubra'nın yanına bir grup hivalıklar gelerek, “Bizi kılavuzsuz bıraktınız (lidersiz)” dediler, bize bir rehber'e ihtiyacımız var” dediğinde müridi Pîr Yâr Velî (Pehlivan Mahmud'un babası)nı Hive'ye gönderir. Ayrılmadan önce müridine, yakında doğacak çocuğu Mahmud'un kehanetini verdi. Bununla birlikte aslında Pehlivan Mahmud'un aynı zamanda koruyucu yetiştiren bir pir olan Şeyh Valiytaroş'un ruhlarından eğitim almış bir kişi olduğunu, Kubro'nun “nefes oğlu” olduğunu söyleyebiliriz. Bu duruma tasavvufta Ūveysîlik denir. İkinci şahıs olan Er Hubbi rivayetlerde iki şekilde yorumlanır: biri onun Harezim'in bir başka ünlü azizi Hakim'in oğlu olduğunu söylerken, diğerleri onun nehirlerde ve denizlerde insanlara yardım eden Harezimli uzun boylu bir aziz olduğunu söyler.

Pariruyoni Urganjiy hama ganji zi mahbubiy,  
Guhar sanjonu dur juyon az-on luluyi loloro

(Urgenç'in tüm güzel yüzleri bir aşk hazinesidir. Mücevherlerin kıymetini ve hayatın eşsizliğini onlarda bulabilirsiniz. İnci ve mercan gibidirler).

Fig'on az dilbaroni shux chashmi rindi Urganjiy,  
Ki omuzand zi ishon turku tozon rasmi yag'moro.

(Urgençli o güzel, gözleri suzuk dilberler'in yüzünden ahtırki, onlardan türki araplar yağma –yağmalamak adetini öğrenirler.)

Buvad bazmi Xorazmiy az pariruyoni jahonoro,  
Chirog'i bazmishon bin ohi barq afroz shaydoro.

(Harezim bayramı, dünyayı süsleyen periler sayesinde güzelleşecek. Onların parti ışıkları, şimşekleri bile çılgınlığından iç geçirecek. Yani Harezim bayramı, periler sayesinde şimşekleri bile hayrete düşürecek).

Kenari obi Omu va labi keshtash g'animat don,  
Kay xohi bar davri anhorı jannat in tamannoro.

(İzah: Cennette de olsa nehir kenarında oturmak arzunuz varsa Amüdarya su kıyısının ve nehir yürüyüşünün tadını çıkarın). Dört nehrin gökten başladığını söylüyorlar. Bunlardan biri Ceyhun - Amüdarya'dır.

Xusho yo huri jismaniy Xorazmiy aysh varzidan,  
Madeh az dast, ey saqiy maqomi jannatosoro.

(İzah: Harezim hürlüklerinin devresi ne kadar güzeldir! Ey aziz, böyle cennetlik rahatlığı kaybetme).

زهي اخلاس مهرويان مهر انگيز ارگنجي  
حزيني چند ميجوئ سمرقند و بخارا را

Zihi ixlosi mahruyani mehrangizi Urganjiy

Haziniy chand mejuiy Samarqandu Buxororo

(İzah: Gençlik sevgisini telkin eden ay yüzlülerin şefkatli sevgisi ne kadar güzeldir. Eyy Hazini, Semerkant ve Buhara'dan böyle bir iltifatı daha ne kadar arayacaksınız?) Yukarıda Ahmed Mahmud Hâzînî'nin sadece iki tatabbu' gazelini inceledik. Ancak şairin divanında aynı gazel için 15 beyt yazılmıştır. İlerleyen süreçte edebiyat bilimleri bölümüyle işbirliği yaparak şairin diğer gazellerini de incelemeyi ve araştırmayı belgiledik. Sonuç olarak Ahmed Mahmud Hâzînî'nin divanında 15 numaradan 23 numaraya kadar sıralanan bu tatabbular de, çok anlamlı ile hemde talme sanatıyla çok sayıda yer ve ismi zikretmeleri açısından değerlidir. Ayrıca birinci gazelin içeriğinden Hâzînî 'nin Yeseviye tarikatı dışında Hâceğen-Nakşibendiyye tarikatına olan ilgisinin yüksek olduğunu anlayabiliriz. O sebab Ahmed Mahmud Hâzînî'nin iki tarikat'a mensup bir şeyh olan diyen sonucumuzu açıklarız. Böyle bir durum, yani şeyhlerin aynı anda iki veya üç tarikata mensup olması, tasavvuf tarihinde, özellikle Orta Asya ve Türkiye şeyhleri arasında çoğunluktadır.

#### Edebiyatlar:

1. N.Hasanov, Ahmed Mahmud Hâzînî (hayatı ve icatı). – Toshkent: Bilim, 2001-104 sayfa.
2. Hâfiz Şîrâzî Aşk mücevheri (gazeller, mektupnâme, tercibend, kıtalar, rübayiler). – Toshkent: Sark,2006. – 224s.

3. Alî Şîr Nevâyî. Mükemmel eserler toplamı. T.18,19,20. Dîvanî Fânî/yayına hazırlayan ve mes'ûl editör Seyfiddin Refiddinov. –Toshkent: Bilim, 2002.
4. Dîvanî Emîr Nizâmîddîn Alî Şîr Nevâyî “Fânî”. –Tahran: Asatir, 1375 h.ş/1996m.

## SHARQ ADABIY TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA QUR'ONI KARIMNING AHAMIYATI

**Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o'g'li**

*Farg'ona davlat universiteti, PhD*

E-mail: [sayidolimovjavoxir@gmail.com](mailto:sayidolimovjavoxir@gmail.com)

**Annotatsiya:** mazkur maqolada Sharq adabiy tafakkurining shakllanishida, ilk uyg'onish davrining yuzga kelishida muhim ro'l o'ynagan islom dinining kirib kelishi va islom dinining muqaddas kitobi hisoblagan “Qur'on karim”ning adabiyotga ta'siri hamda Qur'onda keltirilgan tushunchalarning qanday qilib badiiy adabiyotga ko'chganligi, bu ko'chish qanday amalga oshganligi haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ilk uyg'onish davri, Sharq adabiyoti, Qur'on, badiiy san'atlar, majoz.

Ilk uyg'onish davrining yuzaga kelishining birinchi omili yakka xudolikka asoslangan islom dinining keng yududlarga yoyilishi edi. Katta hududlarga yoyilgan islom mazkur hududlarda yashovchi barcha xalqlarni yagona mafkura asosida birlashtirdi. Ungacha bo'lgan davrda turli e'tiqodiy qarshlarning mavjudligi, xususan, buddaviylik, moniylik, zardushtiylik, majusiylik va boshqa qator e'tiqodiy qarshlar siyosiy jarayonni murakkablashtirish bilan bir qatorda adabiyotning rivojlanishiga ham ma'lum darajada to'siq bo'layotgan edi. Katta hududlarda yashovchi xalqlar turli e'tiqodiy qarshlarga mansubligi uchun ular o'rtasida turli xil tushunmovchiliklar yuzaga kelar edi, bunday tushunmovchiliklar yuqorida aytib o'tilganiday madaniy hayot, xususan, adabiyot rivojiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmas edi. Natijada adabiyot tor doirada bilan, ya'ni mazkur xalqlar qaysi hududlarda yashasa va qaysi e'tiqodiy qarashlarga tayansalar o'sha yerdagi ijtimoiy hayotni aks ettirganligi uchun tor hududlarda cheklanib qoldi. Bunday cheklanishning asosi esa turli e'tiqodiy qarashlarning muqaddas

kitoblardagi tushunchalarning ayrim jihatlari bilan bir biriga zid kelishida edi. Shuning uchun ham islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karim e'tiqodiy qarashlarni mustahkamlash barobarida turkiy adabiyotning yangi bosqichga ko'tarilishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. "Qur'oniy mavzularning jahon va xususan o'zbek adabiyotiga singib ketishini o'rganish faqat diniy nuqtai nazardangina ibratil bo'lib qolmay, balki Sharq adabiyotining, xususan o'zbek adabiyotining ham biz uchun mavhum qirralarini oydinlashtirib, hozirgi o'zbek adabiyotining shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga ham madad beradi" [1.3]. Buning asosiy sababi esa ilk uyg'onish davridan boshlab turkiy adabiyot ildizlar Qur'ondan oziqlangan holda rivojlanib brogan. Dastlabki davrda qur'oniy mavzular to'g'ridan to'g'ri bayon etilgan bo'lsa keyinchalik tasavvuf adabiyotining shakllanishi va rivojlanishi natijasida majoz orqali bayon etilgan. Misol uchun turkiy adabiyotning dastlabki yirik hajimli manbalaridan bir sifatida e'tirof etiladgina "Qutadug'u blik" asarida muallif yuqorida aytib o'tilganiday majoz orqali emas to'g'ridan to'g'ri badiiy vositalar asosida berilganligini ko'rishimiz mumkin:

Sen yaratilgan eding, yaratilgan esa o'ladi,

Yaratilgan o'ladi, yaratgan esa qoladi.

Qur'oni karimning 112-surasi (Ixlos surasi 3 oyat)da esa quyidagi jummalarni ko'rishimiz mumkin: "...u tug'magan va tug'ilmagan"

Qur'oni Alloh tomonidan nozil qilingan to'rt ilohiy kitobning so'nggisi. "Qur'on (arabcha – o'qimoq, qiroat qilmoq) – musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Vahiy orqali Muhammad (s.a.v.)ga 610-632-yillar davomida nozil qilingan Allohning kalomi (Kalomulloh). Qur'on "Kitob" (yozuv), "Furqon" (haq bilan botilning orasini ayiruvchi), "Zikr" (eslatma), "Tanzil" (nozil qilingan) kabi nomlar bilan atalib, "Nur" (yorug'lik), "Hudo" (hidoyat), "Muborak" (barokotli), "Mubin" (ochiq ravshan), "Bushro" (xushxabar), "Aziz" (e'zozlanuvchi), "Majid" (ulug'), "Bashir" (bashorat beruvchi), "Nazir" (ogohlantiruvchi) kabi so'zlar bilan sifatlangan. Islom olamida Qur'on "mushaf" nomi bilan ham mashhur. Allomalar Qur'onning 30 xil nomi va sifatlarini sanab o'tganlar [2.619].

Islom dinining keng hudularga yoyilishi natijasida yagona mafkura asosida birlashgan xalqlar adabiyoti milliy koloritni saqlab qolgan bo'lsa ham mazmun-mohiyati jihatdan mushtaraklikni yuzaga keltirgan. Mazkur adabiyot **“Sharq adabiyot” yoki “Musulmon adabiyot”** deb yuritila boshlangan. Shuning uchun ham olimlar agiogarafik adabiyot haqida fikr bildirib, bu adabiyotni uchga bo'ladilar. **Birinchisi buddaviy agiogarfiyasi. Ikkinchisi nasroniy agiogarfiyasi. Uchinchi Sharq (musulmon) agiografiyasi.** Buning asosiy sababi esa islom dinining muqaddas kitobi “Qur'on” hisoblanadi. Umumiy jihatdan olib qaraganda uch agiografik adabiyotning shakllanishida mazkur e'tiqodiy qarashlarning muqaddas kitoblari muhim ro'l o'ygan. Buddaviy agiografiyasida “Tripitaka”, nasroniy agiografiyasida “Injil”, Sharq agiografiyasida esa “Qur'on” muhim ahamiyatga ega. Shu sababli Sharq poetik tafakkurining shakllanishda Qur'on alohida ahamiyatga ega. “Qur'on oyatlari zamiriga jo etilgan va qadimgi zamon xalqlarining tarixidan hikoya qiluvchi ibratomuz qissalar mazmun va mohiyat jihatidan ahamiyatga molikdir. Ular nafaqat oddiy xalqlar hatto, qalam ahlining, xususan, shoirlarning ilhom manbayi bo'lib xizmat qilib kelgan” [3:3].

Qur'on Sharq adabiyotidagi ko'plan janrlar hamda badiiy san'atlarning mukammal namunasi sifatida e'tirof etiladi. Misol tariqasida ayrim janrlar va badiiy san'atalarga qisqacha to'xtalib o'tsak:

**Qissa janri:** Sharq adabiyotida keng tarqalgan janr hisoblanib Qur'oni karimning Yusuf surasi 111-oyatida shunday jumlar keltiriladi “Darhaqiqat ularning **qissalarida** aql egalari uchun (katta) ibrat bordur” [**Manba:** Qur'ondan keltirilgan misollar “Қуръони Карим маънолар таржимаси. Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Ислом университети, 2004” dan olindi]. “Qissaning bu oliy ko'rinishi barcha zamon qissalari uchun namuna vazifasini o'tashi mumkin. Inson badiiy tafakkuri ilohiy manbadan oziqlanadi. Insonga ato etilgan ilohiy ilhom uni ilohiy haqiqatlar sari yetaklaydi. Qissa janri spetsifikatsiyasiga nazar tashlar ekanmiz, aynan ilohiy mohiyatga yaqinlashib kelgan qissalar janrning yorqin namunasi sifatida ko'zga tashlanishini kuzatamiz”[4:208]. Shu sababli ham milliy uyg'onish davri adabiyotigacha yirik hajimli nasriy asarlar qissa nomi ostida atalib



kelingan. Yangi davr adabiyotida esa qissa mazmun va shakl jihatidan romandan keyingi janr sifatida e'tirof etilsa ham, yozma adabiyotda ham xalq og'zaki ijodida ham o'z mavqeyini yo'qotgan emas. Hattoki xalq kitoblarining nomlanishida "qissa" so'zini ko'rishimiz mumkin ("Qissai Mashrab").

**Tazkira janri:** Sharq adabiyotida anchayin keng tarqalgan janr hisoblanib, tazkirada ma'lum bir shaxsning hayoti va faoliyati qisqa shaklda, ya'ni eng muhim jihatlari yoritib beriladi. Qur'onda 25 ta payg'ambarning nomi zikr qilingan bo'lib, nomlari zikr qilingan payg'ambarlarning hayoti batafsil emas, aksincha eng muhim jihatlari bayon qilingan.

**Iyjoz badiiy san'ati:** mazkur badiiy san'atda kam so'z qo'llab ko'p ma'noga erishish tushuniladi. Qur'on ilohiy kitob bo'lganligi sababli unda keltirilgan har bir harf, har bir so'z, har bir jumla, har bir oyat va har bir sura o'zida katta ma'noni tashigan. Keyinchalik ijodkorlar aynan shu uslubda o'z asarlariga zeb berishga intilganlar.

**Saj badiiy san'ati:** lug'aviy jihatdan qumri, bulbul, to'ti kabi qushlar tovushuning bir-biriga quyililib ketishini bildiradi Mazkur san'at turida ayrim so'zlarning yo jumlalarning vazn jihatidan yoki qofiya jihatdan o'zaro teng kelib qolish mumkin. Shu sababli bu badiiy san'at "nasri musajja" deb ham ataladi.

Mazkur ro'yxatda yana ko'plab janrlar va badiiy san'atlarni keltirish mumkin. lekin fikrimizni shu joyda muxtasar qilishni ma'qul ko'rdik. Umumiy jihatdan olib qaralganda Qur'on va hadislarining badiiy adabiyotda akslanishi adabiyotning naqadar keng qamrovli ekanligini hamda estetik ta'sir ko'rsatuvchi vosita ekanligini namoyon etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. X.Кароматов. Куръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент. Фан, 1993. – Б.3.
2. Ислом энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018. – В. 619.
3. Куръон қиссалари: Пайғамбарлар қиссалари. Таржимон: Абдуқаҳҳор Шоший. – Тошкент: CredoPrint Group, 2023. – Б. 3
4. Қозихўжаев А. Қисса жанри хусусида // XX аср ўзбек адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, 2012 – Б. 208.

# **“HAYRAT UL-ABROR” VA “GULSHAN UL-ANVOR” DOSTONLARIDAGI HAMD VA MUNOJOTLARNING MATN XUSUSIYATLARI**

**Diyora ABDUJALILOVA,**  
*ToshDO‘TAU o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" va Yahyobey Toshlijalining "Gulshan ul-anvor" dostonlaridagi an'anaviy kirish boblari – basmala, hamd va munojotlar – qiyosiy tahlil qilinadi. Toshlijali dostonida Navoiy ta'siri, xususan basmala bobini uch qismga kengaytirish an'anasi yaqqol namoyon bo'lishi ko'rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** Xamsachilik, qiyosiy adabiyotshunoslik, basmala bobi, an'anaviy boblar, Alisher Navoiy, Yahyobey Toshlijali, "Hayrat ul-abror", "Gulshan ul-anvor", kitobat san'ati, muqaddima.

**Annotation.** The article provides a comparative analysis of traditional introductory chapters – basmala, hamd, and munajat – in Alisher Navoi's "Hayrat ul-abror" and Yahyabey Tashlijali's "Gulshan ul-anvar". It demonstrates the evident influence of Navoi's tradition on Tashlijali's work, particularly the expansion of the basmala chapter into three separate sections.

**Key words:** Khamsa tradition, comparative literary studies, basmala chapter, traditional introductory chapters, Alisher Navoi, Yahyabey Tashlijali, "Hayrat ul-abror", "Gulshan ul-anvar", calligraphic art, prologue.

**Kirish.** Jahon adabiyotshunosligida Nizomiy Ganjaviyning “Panj ganj” asari ta’sirida vujudga kelgan xamsalarni o‘zaro qiyoslab o‘rganish bilan bog‘liq ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Turli davr va adabiy muhitlarda yaratilgan javobiya dostonlarni ular mansub bo‘lgan madaniyat vakillari o‘z xalqlari badiiy tafakkurining bir qismi sifatida o‘rganmoqdalar va tadqiq etmoqdalar. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni xamsachilik talablari asosida va beshlik tarkibida yaratilgan ilk turkiy doston bo‘lib, forsigo‘y ijodkorlar: Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy asarlari ta’sirida yozilgan. Usmonli turk adabiyotining yirik vakili Yahyobey Toshlijali (XVI asr)

“Xamsa”sida esa Nizomiy asaridan ko‘ra ko‘proq Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy beshliklariga ergashish kuzatiladi. Bu, asosan, dostonlarning mavzu doirasi, obrazlar tizimi, uslub va badiiyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Toshlijali “Xamsa”sining ilk dostoni bo‘lmish “Gulshan ul-anvor”da o‘zbek shoiri dostonidan ijodiy ta’sirlanganlikni kuzatish qiyin emas. Biz ushbu maqolamizda har ikki dostondagi kirish biblarining matn xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

**Dostonlardagi an’anaviy boblar tavsifi.** Dostonlardagi an’anaviy boblarning qiyosiy tahlili ikki ijodkor g‘oyaviy va badiiy niyatining mohiyatini anglashda muhim o‘rin tutadi. Zero, “Xamsa” dostonlaridagi muqaddimalar voqelikka shunchaki an’anaviy kirish bo‘lmay, balki dostonlar mundarijasi uchun ochqich vazifasini ham o‘taydi. Shu ma’noda muqaddimalarda keltirilgan fikrlarga alohida e’tibor berish dostonlar tagzaminida yashiringan ramziy ma’nolarni ochishga yordam beradi”<sup>1</sup>.

“Hayrat ul-abror” dostoni muqaddimasi 21 bobdan iborat bo‘lib, bu doston umumiy hajmining uchdan biri demakdir. Bu tasodifiy emas albatta, chunki beshlikning ilk dostoni “Hayrat ul-abror”ga yozilgan kirish bevosita “Xamsa”ga ham kirish vazifasini o‘tamog‘i, turkiy adabiyotda birinchilardan bo‘lib beshlik yozishga kirishgan o‘zbek shoirning g‘oyaviy niyatini kitobxonga yetkazib bermog‘i lozim edi. Navoiy muqaddimasi basmala bobi, hamd, 4 munojot, 5 na’t, ustozlar madhi, so‘z ta’rifi, zamona hukmdori maqtovi, ko‘ngil ta’rifi, uch hayrat ta’rifi, Xoja Bahouddin va Xo‘ja Ubaydulloh Ahror madhini o‘z ichiga oladi.

**“Hayrat ul-abror”da basmala bobi.** Dostonning birinchi bobi “Bismillahir rohmanir rohim” (“Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman”) oyatining shoirona talqiniga bag‘ishlanganligi uchun “basmala bobi” deb ataladi. Ushbu bob bilan bog‘liq nazariy talqinlar o‘zbek adabiyotshunoslari: A.Rustamiy, H.Karomatov, R.Vohidov, M.Muhiddinov, M.Imomnazarov, O.Davlatov, A.Malikovlarning tadqiqotlarida keltirilgan<sup>2</sup>. Bu bob nainki “Hayrat ul-abror”

<sup>1</sup> Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Tamaddun, 2016.

<sup>2</sup> А.Рустамий. Бисмиллоҳнинг маъноси. – Тошкент: Фан, 1999; Кароматов Х. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил): Филол.фан.док.дисс. ... автореф. – Тошкент, 1999; Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро, 1994; Имомназаров М. Навоийшуносликка кириш. – Тошкент, 2015.

dostoni uchun, balki umuman, “Xamsa” uchun ham kirish vazifasini o‘taydi, chunki keyingi dostonlarda bu ilohiy jumla uchramaydi.

Umuman, salaflarda “Xamsa”ni “bismilloh” oyati bilan boshlash an‘ana tusiga kirgan bo‘lib, Nizomiydan boshlab barcha xamsanavislar o‘z so‘zlarini ana shu oyat bilan boshlaganlar. Faqat Jomiy va Navoiyga kelibgina bu bob mustaqil basmala bobiga aylandi, ya’ni ushbu bob to‘lig‘icha “bismilloh” oyati asosida qurildi. Navoiy to‘g‘ri yo‘lni tanlab, hidoyat topganlarni “ahli qabul”, gumrohlik yo‘liga kirib, zalolatga uchraganlarni “ahli rad” deb ataydi.

“Bismillah”ning har bir harfi rad etuvchilarga tahdid, xavf-xatarga aylanadi: “Bo” (ب) Robbisidan ibo qilishga chorlaydi, “Yo” (ی) esa ularga keladigan balolardan ogoh etadi. “Sin” (س)dan “mim” (م)ga o‘tishda esa kuydiruvchi yel-shamol bor. “Mim” (م) yo‘l boshida og‘zidan o‘t sochib yotgan ilon, uch “alif” (ا), uch “Lom” (ل) olti tomondan, ya’ni o‘ng-chap, old-orqa, quyi va yuqori tarafdan rad ahlini – mardudlarni qamrab olgan. Ammo “Bismillah”ni qabul etganlar, “vahdat maxzani” tomon dunyo vodiysini kesib o‘tar ekanlar, “Bismillah” saodat mujdasiga aylanadi. “Bo” (ب) si jannat bashorati, shamrasi ayni yo‘lga kirishga chorlaydi. “Sin” (س)i omonlik yo‘lining zinasi, saodat yuzi aks etgan oyna; “Mim” (م) maqsad manziliga yo‘l ochadi, nafaqat maqsad manziliga yo‘l ochadi, balki maqsad manzilidagi sarchashma – buloq; “Alif” (ا) lar jon aro joylashgan bo‘lib, jon shabistoni – qorong‘uligini yorituvchi shamdir; “Lom” (ل) lari zarar bayrog‘i, bu zarar bayrog‘ini zafar havosi – shamoli hilpiratadi...

Ko‘ringanidek, “Bismilloh”ning tavsifi “ahli rad” uchun Allohning jaloliy sifatlaridan xabar bersa, ikkinchi qismidagi “ahli qabul” jamoliy sifatlarning fayzidan bahramand bo‘lishini dalolat qiladi. Zero, “ahli rad” Alloh taoloning qahriga, “ahli qabul” esa Allohning lutfiga erishadi. Navoiyga ko‘ra, Alloh lutfi va

---

Муҳиддинов М.Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005; Давлатов О. Алишер Навоий шеърлярида Куръон оятлари ва ҳадисларининг бадиий талкини: Филол.фан.бўйича фал.док.дисс. ... автореф. – Самарқанд, 2017; Маликов А. Алишер Навоий: “Хайрат ул-аброр” (Матн, шарх, насрий баён, луғат) / Биринчи китоб: муқаддима. – Тошкент: Tamaddun, 2021.

qahrini ikki mehmonxona deya tamsil qilish mumkin. Ahli rad va ahli qabul bu ikki mehmonxonani to'ldiradi<sup>1</sup>:

*Hikmati ul qahr aro, bu lutf aro,  
Ushbuki to'lg'ay ikki mehmonsaro,  
To agar o't solsa jaloliyati  
Lutf ila urg'ay suv jamoliyati.*

Navoiyning bunday uslubni qo'llashi, ya'ni birinchi jaloliy, keyin jamoliy sifatlardan so'z yuritishi Qur'onning bir qancha sura va oyatlaridagi so'z uslubini eslatadi. Qur'onda birinchi mushriklarga beriladigan jazo, so'ngra solih bandalarga va'da qilingan mukofotlar haqida xabar beruvchi oyat va suralarni ko'p uchratish mumkin<sup>2</sup>.

**“Gulshan ul-anvor”da an'anaviy boblar.** Yahyobey Toshlijali dostonining 832 baytdan iborat muqaddimasi esa uchta basmala, uchta hamd, uchta munojot hamda biri Me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan uchta na't, Sulton Sulaymonga bag'ishlangan madh, asarning yozilish sabablari, Shayx Muhammad Dede madhi, Imom A'zam hikoyasi, “Xamsa” sohibining uzri kabi boblarni o'z ichiga oladi.

Dostondagi an'anaviy boblarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

| №   | Bob nomi         | Hajmi   |
|-----|------------------|---------|
| 1.  | Birinchi basmala | 52 bayt |
| 2.  | Ikkinchi basmala | 38 bayt |
| 3.  | Uchinchi basmala | 31 bayt |
| 4.  | Avvalgi hamd     | 70 bayt |
| 5.  | Ikkinchi hamd    | 42 bayt |
| 6.  | Uchinchi hamd    | 46 bayt |
| 7.  | Birinchi munojot | 37 bayt |
| 8.  | Ikkinchi munojot | 41 bayt |
| 9.  | Uchinchi munojot | 41 bayt |
| 10. | Nasihah (tanbeh) | 7 bayt  |
| 11. | Hikoyat          | 21 bayt |
| 12. | Birinchi na't    | 41 bayt |
| 13. | Ikkinchi na't    | 54 bayt |

<sup>1</sup> Маликов А.Алишер Навоий: “Хайрат ул-аброр” (Матн, шарх, насрий баён, луғат) / Биринчи китоб: муқаддима. – Тошкент: Tamaddun, 2021. – Б. 21.

<sup>2</sup> Давлатов О. Алишер Навоий шеърларида Қуръон оятлари ва ҳадислар; Маънолар хазинаси / Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги: 30 жилдлик, 28-жилд. – Тошкент: Tamaddun, 2021. – Б.42.

|      |                                     |          |
|------|-------------------------------------|----------|
| 14.  | Uchinchi na't (Me'roj tuni ta'rifi) | 72 bayt  |
| 15.  | Sulton Sulaymon madhi               | 52 bayt  |
| 16.  | Asarning yozilish sababi            | 48 bayt  |
| 17.  | Shayx Muhammad dede madhi           | 31 bayt  |
| 18.  | Imom A'zam hikoyasi                 | 34 bayt  |
| 19.  | "Xamsa" sohibining uzri             | 65 bayt  |
| Jami |                                     | 832 bayt |

Kuzatilganidek, Toshlijali dostonining dastlabki uch bobi "basmala"ga bag'ishlangan. Boshqacha aytganda, unda "bismilloh" oyatining kitobat san'ati asosidagi talqini 3 ta bobda alohida-alohida davom etadi. Yahyobey Toshlijali "Gulshan ul-anvor" dostonini quyidagi bayt bilan boshlaydi:

*Bismillahir rahmanir rahim*

*Kafle-i ilmi alim ü hakim<sup>1</sup>*

(Mazmuni: Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman. Ilmni, olimni va hokimni o'z kafolatiga olguvchi Zot)

Dostondagi "sin" harfi bilan bog'liq talqinga e'tibor qaratsak, uning Navoiy talqini bilan hamohanglik kasb etayotganini kuzatishimiz mumkin. Navoiyda:

*"Sin"i salomat yo 'lining ziynasi,*

*Balki saodat yuzi oyinasi<sup>2</sup>.*

Toshlijalida:

*"Ba"si beka alemi ser-defteri*

*"Sin"i selamet ilinün serveri<sup>3</sup>.*

Har ikkala ijodkorda basmalaning o'zi va uni tashkil etuvchi harflar va motivlar bilan bog'liq o'xshashliklar ham talaygina. Bobda "ho" saxovat eshigining halqasiga, "ro"lari jazba yetgan solikka, "nun" harfi kavsar suvi to'lgan qadahga o'xshatiladi. Toshlijali "nun"ning nuqtasini Ka'baning Hajar ul-avsdad toshiga qiyoslaydi. Shu tariqa shoir ikkinchi va uchinchi basmalada ham go'zal o'xshatishlar bilan davom etadi.

<sup>1</sup> Taşlıcalı Yahyâ Bey. Gülsen-i Envâr. Karşılaştırmalı metin. Hazırlayan Ayşe Sağlam. – Ankara, 2016. – S. 65.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Мукамал асарлар тўплами. 20-жилдлик. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 13.

<sup>3</sup> Taşlıcalı Yahyâ Bey. Gülsen-i Envâr. Karşılaştırmalı metin. Hazırlayan Ayşe Sağlam. – Ankara, 2016. – S. 72.



Ikkinchi basmala:

*Bismillahir rahmanir rahim*

*Serv-i gülistan-ı kelam-ı kadim<sup>1</sup>.*

Uchinchi basmala:

*Bismillahir rahmanir rahim*

*Sünbül-i gülzar-ı kelam-ı kadim<sup>2</sup>*

baytlari bilan boshlanadi.

Dostonning ikkinchi bobidan boshlab Alisher Navoiy “Xamsa”si, xususan, “Hayrat ul-abror”ga o‘xshash yana bir o‘ziga xos jihatga duch kelamiz. Ma’lumki, Navoiygacha yozilgan “Xamsa”larda boblarga alohida sarlavha qo‘yilmagan. Alisher Navoiy esa “Hayrat ul-abror”ning ikkinchi bobidan boshlab saj’ning go‘zal namunasi bo‘lmish jumlar orqali bobning umumiy mazmun-mohiyatini ochib beruvchi nasriy sarlavhalardan foydalanadi. U sarlavhalar tuzishda hamisha ham bir xil andozadan kelib chiqmaydi: zarur paytlarda murakkab shakllarni qo‘llaydi, ba’zi o‘rinlarda esa oddiy ifoda usullaridan foydalanish bilan cheklanadi. Shu kabi holatni “Gulshan ul-anvor” dostonida ham uchratamiz. Masalan, dostonning yozilish sabablari bilan bog‘liq bob sarlavhasi quyidagicha: “Ahbar-ı ahyar-ı ulu’l-elbab ve izhar-ı i’ tizar-ı sahibü’l-kitab”. Aynan shu bobda Navoiyga quyidagicha ta’rif beriladi:

*Mir Nevayi gül-i bi-hardur*

*Hamsesi bir nafe-i tatardur.*

*Sözleridür işk odunun sarsarı*

*Her biri bahr-ı gazelün gevheri*

*Gerçi sakil oldı dili zer gibi*

*Kıymetiniün kesreti gevher gibi.*

*Vasf idemem ʔat-ı hiredmendini*

*Ayn-ı acem görmedi manendini<sup>3</sup>.*

<sup>1</sup> Taşlıcalı Yahyâ Bey. Yukarıdaki eser. – S. 69.

<sup>2</sup> Taşlıcalı Yahyâ Bey. Yukarıdaki eser. – S. 72.

<sup>3</sup> Taşlıcalı Yahyâ Bey. Gülsen-i Envâr. Karşılaştırmalı metin. Hazırlayan Ayşe Sağlam. – Ankara, 2016. – S. 119.

(Mazmuni: Mir Navoiy tikansiz guldur. “Xamsa”si nofai totor, ya’ni mushki anbardir. So’zlari ishq otashining bo’roni bo’lib, Har biri g’azal dengizining gavharidir. Garchi shakli zar kabi bo’lsa-da, uning qiymati gavhar kabidir. Uning donishmandlik zotini vasf etolmayman. Ajam o’lkalari bunday zotni ko’rmagan).

“Hayrat ul-abror”ning ikkinchi bobi Xoliq, ya’ni Alloh hamdiga bag’ishlanadi. Mazkur bobda shoir hamma narsani yaratgan Xoliqning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o’simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini bir-biriga bog’lab harakatlantirib turishini cheksiz hayrat bilan tasvirlaydi.

Alloh hamdi “Gulshan ul-anvor”ning 4-6-boblaridan o’rin olgan. Birinchi hamdda koinot va insonning yaratilishi haqida so’z boradi. Ikkinchi hamdda esa shoir o’quvchini Allohning qudrati haqida tafakkur qilishga undaydi. Unga ko’ra, to’rt fasl almashinuvi o’z-o’zidan sodir bo’lmaydi, ularning barchasi Allohning irodasi bilandir:

*Fa’sl-ı bahārı kereminden nişan*

*Vakt-i şitāsı eleminden beyān.*

*Vaşfini itmekde lisān-ı ricāl*

*Berg-i gül ü lāle gibi oldı lāl<sup>1</sup>*

(Mazmuni: Bahor fasli karamidan nishona, qish esa g’azabidan nishon.

Vasfini qilishga til ojiz, lola gul kabi lol qoladi).

Yahyobey Toshlijali uchinchisi hamdda Allohning jamoli haqida so’z yuritadi. Unga ko’ra, sevgi, muhabbat faqat ilohiy va Allohga bo’lsagina go’zaldur. Alloh insonlarni mehr bilan yaratgan. U kimni istasa aziz qilishi, kimni istasa pastroq darajaga tushirishi mumkin:

*Āşıkınıñ āşıkıdur zül-celāl*

*Tālibinüñ talibidur la-yezal.*

*İsteyeni isteyen Allāh”dur*

*İşkı vişālüne anuñ rāhdur.<sup>2</sup>*

<sup>1</sup> Taşlıcalı Yahyâ Bey. Yukarıdaki eser. – S.82

<sup>2</sup> Taşlıcalı Yahyâ Bey. Yukarıdaki eser. – S. 82.

(Mazmuni: Oshiqlarning oshig'idir Zul Jalol, Toliblarning talabidir Loyazol. Istaganlarning istagani Allohdir, yo'l Uning Ishqi visoligadir).

**“Hayrat ul-abror”da munojotlar.** “Hayrat ul-abror” dostonining 3-6-boblari (to‘rt bob) munojotlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi munojotda Alloh taoloning Bir-u Borligi, jamiyki maxluqot unga sano aytsalar ham, uning hamdini ado etolmasliklari, Haq taolo o‘z Zotiga mazhar – ko‘zgu yaratish maqsadida olamni yo‘qdan bor qilgani haqida so‘z yuritiladi. Olamning go‘zalligi va mukammal yaratilganligini vashf etish orqali mutafakkir shoir Parvardigori olamning benazir yaratuvchi ekanligini chin e’tiqod sohiblariga xos bo‘lgan jo‘shqinlik bilan vashf etadi. Shu bilan birga, Borliqni yaratishdan asosiy maqsad, olamning hikmati va gultoji, koinotning mohiyati inson ekanligini alohida iftixor va shukronalik bilan qayd qilib o‘tadi:

*Ganjing aro naqd farovon edi,*

*Lek boridin g‘araz inson edi.<sup>1</sup>*

Navoiyning yozishicha, faqat inson Allohning ilm-u hikmatiga oshno qilingan (“Qilding ani orifi ul ma’rifat”), faqat odamga ma’rifat ganji ishonib topshirilgan <sup>2</sup>.

Ikkinchi munojotda esa Alloh olamdagi jamiyki mavjudotning yaralish va foniylikka yuz tutish jarayoni davomida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan jamiyki voqea va hodisalarni o‘z ilmi, irodasi va qudrati bilan tasarruf etishi, azaliylik va abadiylik faqat Xudoga xos ekanligi, haqiqiy iloh faqat Alloh taoloning O‘zi bo‘lib, olamdagi jamiyki mavjudot faqat Unga sajda va itoat qilishlari lozimligini bayon etib, o‘z iltijolarida ilohiy g‘azabdan qo‘rqib, rahmatidan umidvor holda yashayotganini, imon gavharidan ayru qoldirmaslikni yolvorib so‘raydi:

*Yo Rab, agar yetsam o‘shul kunga jazm*

*Yoki burun aylasam ul yonga azm,*

*Ul nafas imon manga hamroh qil,*

*Ko‘nglum aro mahvi sivalloh qil.<sup>3</sup>*

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Мукаммал асарлар тўплами. 20-жилдлик. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 21.

<sup>2</sup> Муҳиддинов М. Кўнгил ҳайратлари. – Тошкент: Tamaddun, 2021. – Б. 30.

Uchinchi munojotda olam ahlining qiyomat kunidagi ahvoli tasvirga tortilib, o'sha kuni oxirzamon payg'ambari – Muhammad Mustafo (s.a.v.) Haq taolo izni bilan musulmon ummatini shafolat qilishi, Navoiy ham bu shafolatdan umidvor ekanligi haqida so'z yuritiladi. To'rtinchi munojotda esa Alloh taoloning karami kengligi, jamiyki bandalariga mehribon va rahmli ekanligi haqida so'z yuritiladi. Navoiy talqini bo'yicha:

*Har kishi osiy-u gunahkorroq,  
Afv ila rahmatqa sazovorroq.<sup>1</sup>*

**“Gulshan ul-anvor”da munojotlar.** “Gulshan ul-anvor” dostonining 7-9-boblari munojotlardan iborat. Dastlabki munojotda shoir o'ziga va boshqa insonlarga Yaratganning rahmatini tilaydi. O'zini cheksiz gunohkor sanagan shoir ibodatleri yetarli bo'lmasa-da, Allohning marhamatidan umid uzmasliganini aytadi. O'zi va boshqalarning gunohlarini kechirishini so'raydi, oxirat saodati uchun Allohga yolvoradi. Uning birgina orzusi ilohiy ishq bilan yashamoq va Alloh jamoliga erishmoq ekanini bayon qiladi.

Ikkinchi munojotda Allohning azamati va qudratini bayon etar ekan, bunda ham faqat o'zi uchun emas, balki butun insonlar uchun duo qiladi. Allohdan gunohlarini kechirilishini yolvorib so'raydi:

*Dide-i cān tālib-i nur-ı cemāl  
Bende vü āzāde esir-i viśāl  
Niçeleri ehl-i necāt eyledüñ  
Az amele çok hasenāt eyledüñ  
Hātırumı hayr işe meyyāl kıl  
Kalbümi kālallāh ile kāl kıl.<sup>2</sup>*

(Mazmuni: Ruhning ko'zi go'zallik nurini qidiradi

Men ittifoq asiriman, ham ozod, ham kamtar

Najotkorlar orasida ko'plarni yaratding

Kichkina mehnatga ko'p xayrli ishlar qilding

<sup>3</sup> Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Мукаммал асарлар тўплами. 20-жилдлик. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.25.

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Ўша жойда.

<sup>2</sup> Taşlıcalı Yahyâ Bey. Gülsen-i Envâr. Karşılaştırmalı metin. Hazırlayan Ayşe Sağlam. – Ankara, 2016. – S.89.

Qalbimni yaxshilikka moyil qil

Qalbimni Xudoning kalomi bilan band qil.)

Uchinchi munajat valiy zotlarning Allohga qanday ibodat qilishlari bilan bog'liq baytlarni o'z ichiga oladi. Shoir ushbu munajotda ham Allohdan yordam so'rab yolvoradi.

**Xulosa.** Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Toshlijalining “Gulshan ul-anvor” dostoni esa 4 fasl, 98 bob, 2914 baytdan iborat. Navoiy dostonida muqaddima 21 bobni, Toshlijali dostonida esa 19 bobni o'z ichiga oladi. Nizomiydan boshlab “Xamsa”ni “Bismilloh” oyati bilan boshlash an'ana tusiga kirgan bo'lib, Nizomiydan so'ng barcha xamsanavislar o'z asarlarini ana shu oyat bilan boshlaganlar. Faqat Jomiy va Navoiyga kelibgina bu bob mustaqil basmala bobiga aylanadi, ya'ni birinchi bob to'lig'icha “bismilloh” oyati asosiga quriladi. Navoiy kitobat san'ati vositasida bu oyatdagi har bir harf ahli rad uchun qo'rqinch va dahshatga, ahli qabul uchun esa jannatning bashoratiga aylanishini yuksak badiiy mahorat bilan bayon qiladi. Toshlijali dostonida Navoiy boshlab bergan bu usul yanada rivojlantirilib, dostonning dastlabki uch bobi “basmala”ga bag'ishlanadi. Boshqacha aytganda, unda “bismilloh” oyatining kitobat san'ati asosidagi talqini 3 ta bobda alohida-alohida davom etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 13.
2. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро, 1994.
3. Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадий талқини: Филол. фан. бўйича фал. док. дисс. ... автореф. – Самарқанд, 2017.
4. Имомназаров М. Навоийшуносликка кириш. – Тошкент, 2015.
5. Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил). Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1999.
6. Маликов А. Алишер Навоий: “Ҳайрат ул-аброр” (Матн, шарҳ, насрий баён, луғат) / Биринчи китоб: муқаддима. – Тошкент: Tamaddun, 2021.
7. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005.
8. Рустамий А. Бисмиллоҳнинг маъноси. – Тошкент: Фан, 1999.
9. Taşlıcalı Yahyâ Bey. Gülsen-i Envâr. Karşılaştırmalı metin. Hazırlayan Ayşe Sağlam. – Ankara, 2016. – S. 65.
10. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Tamaddun, 2016.

## ALISHER NAVOIY IJODI NATAN MALLAYEV TALQINIDA

**Temirova Anora Cho‘yan qizi,**  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*  
*mustaqil tadqiqotchisi*  
[anoratemirova071@gmail.com](mailto:anoratemirova071@gmail.com),

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Natan Mallayevning 1973-yilda “Adabiy meros” jurnalining 93-102-sahifalarida nashr qilingan “Navoiy asarlaridagi etnografik ma’lumotlar” maqolasi tadqiq etilgan. Navoiyshunos olim, Alisher Navoiy merosidagi etnografik hujjat va ma’lumotlarni keng va atroflicha tadqiq etish barobarida o‘tgan asrning 70-yillarida fanning navbatdagi muhim muammolaridan biri Navoiy hamda xalq og‘zaki ijodi masalasini tadqiq etganligi o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** navoiyshunoslik, xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek folklori, etnografik, g‘azal, doston, xalq afsonalari, o‘zbek xalqining etnik taraqqiyoti.

**Abstract:** This article examines Natan Mallayev's article “Ethnographic data in the works of Navoiy”, published in the journal “Literary Heritage” in 1973 on pages 93-102. Along with the extensive and detailed study of ethnographic documents and data in the heritage of Alisher Navoiy, the Navoi scholar also discusses one of the first articles that shed light on one of the most important problems of science in the 1970s: Navoiy and folk oral literature.

**Keywords:** Navoi studies, folkoral literature, Uzbek folklore, ethnographic, ghazal, epic, folk legends, ethnic development of the Uzbek people.

O‘zbek xalqining jahon xalqlari orasida tutgan o‘rni, insoniyat tamaddunlariga qo‘shgan munosib hissasi, avvalo, xalq og‘zaki ijodi namunalari misolida yaqqol ko‘rinadi. O‘zbek folklorini yozib olish, nashr qilish, tadqiq etish ishlari o‘tgan asr avvallaridan boshlangan. O‘tgan asr 60-yillarning o‘rtalaridan e’tiboran Natan Mallayev buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodini o‘rganish va shu yo‘lda shogirdlar tayyorlashga ham jiddiy e’tibor berdi:

olim Navoiy asarlarining 15 jildlik o'zbekcha, 10 jildlik ruscha nashrlarini tayyorlash va chop ettirishda faol qatnashdi. O'zbekiston Davlat adabiyot muzeyini tashkil qilishda Hamid Sulaymonga yaqindan ko'maklashdi [Mallayev, 2015:6].

Olim N.Mallayev, Alisher Navoiy merosidagi etnografik hujjat va ma'lumotlarni keng va atroflicha tadqiq etish barobarida o'tgan asrning 70-yillarida fanning navbatdagi muhim muammolaridan biri Alidher Navoiy hamda xalq og'zaki ijodi masalasini ochib bergan [Hakimov, 1979:15]. Olimning tadqiqotlari dastlab, Alisher Navoiy merosi uning xalq og'zaki ijodi bilan aloqasi haqidagi qator maqolalarning yozilishiga sabab bo'ldi. N.Mallayev uzoq yillar davomida hozirgi, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetida faoliyat olib borib, ushbu maskanning qator ilmiy asarlar to'plamlarida maqolalari nashr qilingan. Xususan, "Alisher Navoiy xalq poetik ijodiyotida", "Farhod va Shirin xalq afsonasi va ertaklarida", "Navoiy asarlaridagi etnografik ma'lumotlar", "Farhod va Shirin"ning Umar Boqiy tomonidan ishlangan xalq kitobi varianti kabi maqolalari.

Alisher Navoiy merosi, filologik tadqiqot bilan shug'ullanuvchilar balki, tarixchi, etnograf, sotsiolog, iqtisodchi va boshqa soha olimlari uchun ham boy manbadir. Badiiy obidalar boshqa manbalar qamrab olmagan fakt va ma'lumotlarni zamonlarga boqiy qoldirishi, tarixning ochiq sahifalarini to'ldirishi mumkin. Alisher Navoiy merosi ham shunday.

N.Mallayevning "Navoiy asarlaridagi etnografik ma'lumotlar" maqolasi 1973-yilda "Adabiy meros" jurnalining 93-102-sahifalarida nashr qilingan. Adabiyotshunos o'z maqolasida xalq yozuvchisi bo'lish uchun, vatanga muhabbat qo'yib, shu bilan bir qatorda o'z xalqini yaxshi bilishi u bilan yaqindan bog'lanishi zarurligi haqida fikr yuritadi. N. Mallayevning "Navoiy asarlaridagi etnografik ma'lumotlar" maqolasida Navoiy lirikasi hamda nasriy asarlaridagi 45 ga yaqin g'azallardan baytlar, asarlardan parchalarni tahlil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, olim bir maqolani yozish uchun o'ndan ortiq manbalarga murojaat qilganki, "G'aroyib us-sig'ar" (12 o'rinda), "Navodir ush-shabob" (10 o'rinda), "Badoye ul-vasat" (6 o'rinda), "Favoyid ul-kibar" (7 o'rinda), "Devoni foniy" (1 o'rinda),



Asarlar 13-tom (2 o‘rinda), “Xamsa” (6 o‘rinda) parchalarni keltirgan. Bizning olib borgan tekshirishimiz shuni ko‘rsatadiki, N. Mallayev mazkur maqolasida 67 bayt (134 misra)ni o‘z fikrlarini asoslashda tahririga tortgan. Olimning ilmiy salohiyati asl matnga tayanishi, ilmiy nazariy xulosalarni chiqarishda asosli dalillarini keltirishi yosh tadqiqotchilar uchun ibrat namunasi hisoblanadi.

Shuningdek, N.Mallayevning qator maqolalarida ham Alisher Navoiy asarlaridagi etnografik lavhalar, “Xamsa” dostonlarining xalq variantlari, Navoiy haqidagi kitobiy hikoyatlar va xalq afsonalari haqida so‘z yuritiladi.

Olim “Alisher Navoiy she‘riyatini realistik mohiyatga ega deb hisoblash bilan bir qatorda, Maqsud Shayxzoda hamda Abduqodir Hayitmetov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida Navoiy she‘riyatining realistik tendensiyalari haqida diqqatga sazovor kuzatish va xulosalar bor”, [Mallayev, 1973:102] degan ma‘lumotlarni maqolada keltiradi.

N.Mallayev o‘z maqolasida Alisher Navoiyning bolalik olami, ularning tabiati va xislati, odati va mashg‘ulotini sinchkovlik bilan tadrijiy kuzatadi. Natijada bolalar dunyosini xilma-xil ifodalovchi Alisher Navoiyning baytlarini tahlilga tortadi. Ayni paytda, bolalarga xos samimiylik, soddalik, pokizalikni o‘z qahramonlariga ko‘chiradi. Bunday g‘azallardagi sinchkovlik orqali tahlil qilish adabiyotshunos olimning mahoratini ko‘rsatadi.

Adabiyotshunos ma‘lumotiga ko‘ra “Saddi Iskandariy” dostonining o‘ziyoq XV asr harbiy qurollari, liboslari va urush taktikasi hamda strategiyasi haqida keng tasavvur beradi. Bu jihatdan xususan dostonning XXVII bobi, Doro bilan Iskandarning jang tasviri diqqatga sazovordir

N.Mallayev “Navoiy asarlaridagi etnografik ma‘lumotlar” maqolasida Alisher Navoiy merosidagi o‘zbek xalqining etnik taraqqiyotini o‘rganish jarayonida uning asarlaridagi o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarni tashkil etgan o‘nlab urug‘lar, ularning yuz tuzilishi, kiyim-kechagi, urf-odati va boshqalarga doir qiziqarli ma‘lumotlarni tahlilga olgan.

“Barlos”, “arlot”, “tarxon”, “qiyot” va “qo‘ng‘irot” kabi urug‘ zodagonlari siyosiy va harbiy lavozimlarda salmoqli o‘rin tutgan, bu urug‘lar imtiyozli urug‘lar

sanalgan. Bu haqida olim, “Vaqfiya” asaridan quyidagi parchani keltiradi: “...chun zamonning azimush shon sodot va fuzalosi va davronning karimul-xulq quzot va ulamosi va temuriy najod shahzodalar va “barlosiy” nihod ozodlar va “arlotiy” ismlik sadrinshinlar va “tarxoniy” rasmlik ayshguzinlar va “qiyot” nasabliq mutaayyinlar va “qo‘ng‘irot” hasablik mutakamminlar va “uyg‘uriy” sifot baxshilar va “uyg‘ur” chargalik yaxshilar va “cho‘li”lik biyobonida jon siporliq qilg‘on jondorlar va “boyrilik” ayyomida xizmatgarchilik qilg‘on jonsiporlar va “jaloyir” g‘avg‘osi va “qavchin” alolasi mavjud erdi va har mavjudqa bir maqsud va podshohona inoyat har qaysig‘a bir munosib mansab bila sarbaland va xisravona tarbiyat har birisini muvofiq amal shug‘lig‘a payvand qildilar” Adabiyotshunos N. Mallayev Navoiy asarida zikr etilgan bu urug‘lardan tashqari “sulduz”, “qipchoq”, “og‘ar”, “bilgut”, “o‘zbek” va boshqa urug‘lar nomini tilga olingani haqida ma’lumot beradi. Bular etnogenez, etnografiya va etnonimika jihatidan, shubhasiz, juda ahamiyatlidir. Muhimi shundaki, adabiyotshunos olim, Alisher Navoiyni bu urug‘larning barchasiga teng-barobar qaraganini quyidagi jummlalar orqali ifodalaydi:

Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,

Muayyan turk ulusi xud meningdur.

Ushbu keltirilgan bayt orqali N. Mallayev Alisher Navoiyning turkona hayotni, turkiy so‘zni, turkiy kuyni, turkona rasm-odatlarini sevib, ardoqlaganini ma’lum qiladi.

Adabiyotshunos olim tadqiqotlarida, Alisher Navoiyning “turk” so‘zini keng va tor ma’noda, umuman turkiy xalq va elatlarga nisbatan, shu bilan birga, bir turkiy xalq (o‘zbek xalqi) ga nisbatan ishlatgani haqida ma’lumot mavjud. Alisher Navoiy uyg‘ur, turkman va boshqa turkiy xalqlarni alohida o‘z nomi bilan atagan. N. Mallayev Navoiy davridagi hozirgi o‘zbeklar haqida fikr yuritir ekan, uning asosini tashkil etgan Movarounnahr va Xuroson o‘zbeklari “turk” nomi bilan atalgani sababli, “o‘zbek” esa shu xalqning katta bir urug‘i bo‘lgani, Alisher Navoiy “o‘zbek” (“o‘zbek”) urug‘iga o‘zini juda yaqin tutgani, uning nomini tilga

olar ekan, alohida faxr va muhabbat bilan soʻzlagani haqidagi maʼlumotlarni Navoiyning quyidagi misralar orqali isbotlaydi:

Shoh-u toju xilatikim, men tamosho qilgali,  
Oʻzbakim boshida qalpoq, egnida shirdogʻi bas.

Adabiyotshunos maqolasida Navoiyning turli urugʻlar qiyofasi, shakl-shamoyili, kiyim-kechagi, rasm-rusumlari haqida qimmatli maʼlumotlar mavjud. Navoiy tasviri asosida maʼlum etnik guruhning tipologik qiyofasi, shakl-shamoyilini, kiyim-kechagini toʻla tasavvur etib, uning portretini chizish mumkinligi, shu bilan birga, Navoiy misralari asosida kiyim-kechaklarning turi, ularning nomi, bezak asboblari, pardozlash vositalari va boshqalar haqida anchagina maʼlumot olish, tasavvurni boyitish mumkinligi haqida soʻz yuritadi.

Navoiy portret tasvirida koʻpincha qad-qomat, koʻz, qosh, qovoq, ogʻiz, soch, xol va boshqalarni oladi, goʻzallik mezonini belgilaydi: qad-qomat tuz, tik; koʻz qora (shahlo yoki qiymoch); qosh qayrilma; qovoq keng; ogʻiz kichik; soch qora va uzun; xol qora. Tasvirda Alisher Navoiy xilma-xil badiiy vositalarga murojaat etib, rang-barang obrazlar yaratgan. Adabiyotshunos Alisher Navoiyning asarlarini tahlil qilar ekan, Navoiyning koʻp hollarda, qahramonlarining qaysi el va yurtga mansubligidan qatʼi nazar, ularning qiyofasi va kiyim-kechagi, bezagini oʻz muhiti va mahalliy sharoitiga yaqinlashtirib tasvirlaganini “Layli va Majnun” dostoni orqali ochib bergan. Olim fikricha, usma, surma, upa-elik, nil chekish va boshqalar pardozning asosiy vositalari boʻlgan.

N.Mallayev oʻz maqolasida Alisher Navoiyning liboslar turi va rangi-tusi haqidagi maʼlumotlarini ham ilmiy-maʼrifiy ahamiyatga molik deb hisoblaydi. Bu “Navodir ush-shabob” dostonidagi quyidagi misralar orqali namoyon boʻladi:

Oʻzbaki gulnori toʻndin kuydum, ammo oʻlturur,  
Lemun terlik aning ostidakim jonon kiyar

Adabiyotshunos fikricha, shunday misollar asosida XV asr Navoiy davri libos xillari, ularning mavsumiy turlari, materiali, rangi, bichimi va boshqalar haqida keng tasavvur hosil qilish mumkin. Navoiy tasvirlagan ayrim libos turlari hozirga qadar ham mavjud. Bundan tashqari, Navoiyning libos va bezak-pardoz

haqidagi ma'lumotlari XV asrning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, hunarmandchiligi, ichki va tashqi savdosini o'rganish jihatidan ham qimmatlidir. Olim N. Mallayevning "Navoiy asarlaridagi etnografik ma'lumotlar" maqolasida Navoiyning sariq kasal yara-qon bilan og'rigani, bu haqida Navoiy o'z asarlarida bir necha bor ta'kidlagani, chekkan azob-uqubatidan qattiq shikoyat haqida zaruriy ma'lumot mavjud. Navoiy sariq kasali haqida bot-bot so'zlagani, bu xastalikka qarshi xalq qo'llaydigan chora-tadbir, rasm-rusumlarni bayon etgan. Ushbu qimmatli ma'lumotlarni aniqlashda olimning o'tkir zehn sohibi ekanligi diqqatga sazovordir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Navoiyshunos olim N. Mallayev "Navoiy asarlaridagi etnografik ma'lumotlar" maqolasida Alisher Navoiy merosidagi etnografik hujjat va ma'lumotlarni keng va atroflicha tadqiq etgan. O'zbek xalqining etnik taraqqiyotini o'rganish jarayonida uning asarlaridagi o'zbek va boshqa turkiy xalqlarni tashkil etgan o'nlab urug'larning etnografiyasini o'rgangan. Navoiy asarlaridagi qahramonlarning urf-odati, yuz tuzilishi, kiyim-kechagi, bolalar olami, habiy qurol-aslahalar, xalq tabobati, xalq marosimlari, rasm-rusum va udumiga oid zaruriy ma'lumotlar haqida fikr yuritgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ҳақимов М. Алишер Навоий лирикаси ва халқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.15.
2. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015. – 384 б.
3. Маллаев Н. Алишер Навоий халқ поэтик ижодиётида. – Низомий номли Тошкент ДПИ илмий асарлари 99-китоб. – Тошкент, 1972. – Б.46-72.
4. Маллаев Н. Фарҳод ва Ширин халқ афсонаси ва эртақларида. – Низомий номли Тошкент ДПИ илмий асарлари 99-китоб. – Б. 164-174.
5. Маллаев Н. Навоий асарларидаги этнографик маълумотлар. – Адабий мерос. 3-сон. – Тошкент, 1973. – Б.93-102.
6. Маллаев Н. "Фарҳод ва Ширин"нинг Умар Боқий томонидан ишланган халқ китоби варианти. – Адабий мерос. 3-сон. – Б.135-147.

#### **HOFIZ XORAZMIY VA ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDAGI POETIK MUSHTARAKLIK**

**Sodaliyeva Sayyora Oqiljon qizi,**  
*FarDU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy gʻazaliyoti oʻrtasidagi poetik mushtaraklik qiyosiy-tipologik asosda tadqiq etilgan. Tadqiqotda ikki shoir gʻazallaridagi sabo, koʻz, zulf, gul, visol, hijron kabi anʻanaviy obraz va motivlarning badiiy-estetik talqini tahlil qilinadi. Shuningdek, oshiq va maʼshuq munosabatlari, tasavvufiy motivlar hamda sheʼriy sanʼatlarning qoʻllanishidagi umumiylik va farqli jihatlar yoritilgan. Tadqiqot natijasida Hofiz Xorazmiy poetikasining Navoiy badiiy tafakkuri shakllanishidagi muhim manbalardan biri boʻlishi mumkinligi haqidagi ilmiy qarashlar asoslandi. Maqolada turkiy gʻazalchilikdagi poetik davomiylik va adabiy anʼana masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

**Kalit soʻzlar:** Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, gʻazal, poetika, sabo obrazi, zulf obrazi, tasavvuf, hijron, visol, turkiy adabiyot, qiyosiy tahlil, mumtoz sheʼriyat.

**Annotation:** This article comparatively examines the poetic commonalities between the ghazals of Hofiz Xorazmiy and Alisher Navoiy on a comparative-typological basis. The study analyzes the artistic and aesthetic interpretation of traditional images and motifs such as sabo (morning breeze), eyes, curls, flowers, union, and separation in the poetry of both authors. In addition, the article highlights similarities and differences in the depiction of lover-beloved relationships, Sufi motifs, and poetic devices. The research findings suggest that Hofiz Xorazmiy's poetics may have served as one of the important literary and aesthetic sources in the formation of Navoiy's artistic thinking. Special attention is paid to the issues of poetic continuity and literary tradition in Turkic ghazal poetry.

**Keywords:** Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoi, ghazal, poetics, sabo image, curl image, Sufism, separation, union, Turkic literature, comparative analysis, classical poetry.

Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixida Alisher Navoiy ijodining shakllanish manbalari masalasi adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Koʻplab tadqiqotlarda Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy hamda Gadoiy ijodi,

ayniqsa, ularning g‘azallari Navoiy uchun muhim adabiy maktab vazifasini bajargani ta’kidlangan. Biroq Navoiy poetikasining shakllanishida ayrim ijodkorlarning ta’siri yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ana shunday siymolardan biri Hofiz Xorazmiydir.

Adabiyotshunos olim Y.Is’hoqov Hofiz Xorazmiy va Navoiy o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasiga ehtiyotkorona yondashib, “Navoiy bu shoir merosidan bexabar bo‘lsa kerak” degan fikrni ilgari surgan bo‘lsa, filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Sulaymonov bir qator maqolalarida bu ikki ijodkorning badiiy mushtarakligini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Shuningdek, filologiya fanlari doktori, professor Habibulla Jo‘rayev o‘z tadqiqotlarida Navoiy ijodiga ta’sir ko‘rsatgan, ammo adabiy ta’sir doirasida kam tilga olingan ijodkorlar qatorida Yusuf Xos Hojib, Xorazmiy hamda Hofiz Xorazmiy nomlarini qayd etadi. [Jo‘rayev, 2004: 7].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – Hofiz Xorazmiy ijodining Alisher Navoiy badiiy tafakkuriga ta’siri, xususan, ikki shoir g‘azaliyotidagi mushtarak poetik unsurlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda obrazlar tizimi, she’riy san’atlar, badiiy tafakkur va an’anaviy motivlarning o‘zaro uyg‘unligi masalalari tahlil qilinadi.

Hofiz Xorazmiy ijodini o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligida nisbatan kech boshlangan bo‘lsa-da, keyingi davrlarda bu yo‘nalishda muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Shoir devonining uzoq vaqt ilmiy muomaladan chetda qolishi, qo‘lyozma nusxalarining kamligi hamda tarixiy manbalarda yetarli ma’lumotlarning uchramasligi Hofiz Xorazmiy hayoti va adabiy merosini tadqiq etishni murakkablashtirgan omillardan biri bo‘ldi. Shunga qaramay, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shoir merosini o‘rganishga qiziqish kuchaydi va uning turkiy g‘azalchilik taraqqiyotidagi o‘rni haqida ilmiy qarashlar shakllandi.

Hofiz Xorazmiy Navoiygacha bo‘lgan davrda mukammal devon tartib qilgan eng yirik turkiy shoirlardan biri bo‘lishiga qaramay, Alisher Navoiy uning nomi yoki ijodi haqida bevosita ma’lumot qoldirmagan. Shoirning Xorazmda tug‘ilib, Sherroz adabiy muhiti bilan bog‘lanishi, devonining Hindistondan topilishi

hamda o‘z davrining muhim manbalari – “Funun ul-balog‘a”, “Majolis un-nafois” va “Nasoyim ul-muhabbat”da tilga olinmaganligi uning ijodiy taqdiridagi muhim va hanuz to‘liq yechilmagan masalalardan biridir. Bu holat esa Hofiz Xorazmiy merosini yangi ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi. [Sulaymonov, 1996: 4] Hofiz Xorazmiy hayoti va ijodi haqidagi dastlabki ilmiy ma’lumotlar professor Hamid Sulaymon tomonidan “Devon”ning birinchi kitobiga yozilgan “So‘z boshi”da bayon etildi. Olim ushbu tadqiqotida shoir tarjimai holi, devonining tarkibi hamda uning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi mavqeyiga oid muhim kuzatishlarni ilgari suradi. Hamid Sulaymon Hofiz Xorazmiyni Navoiygacha bo‘lgan turkiy she’riyatning yirik vakillaridan biri sifatida baholab, uning adabiy merosi keyingi davr o‘zbek she’riyati taraqqiyotida muhim o‘rin tutganini ta’kidlaydi. Shoir ijodini maxsus va tizimli ravishda o‘rgangan olimlardan biri filologiya fanlari nomzodi M.Sulaymonovdir. Olimning “Hofiz Xorazmiy va o‘zbek lirik she’riyatining rivoji” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi Hofiz Xorazmiy poetikasini monografik asosda tahlil qilgan dastlabki ilmiy ishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda shoir g‘azallarining poetik xususiyatlari, obrazlar tizimi, badiiy san’atlardan foydalanish mahorati hamda turkiy she’riyat taraqqiyotidagi o‘rni atroflicha yoritilgan. Ayniqsa, olim Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodi o‘rtasidagi ayrim poetik mushtarakliklarga e’tibor qaratib, bu ikki ijodkorning badiiy tafakkuridagi umumiy jihatlar haqida muhim ilmiy mulohazalar bildiradi. [Sulaymonov, 1996: 4]. Filologiya fanlari doktori Najmiddin Komilov tadqiqotlarida ham Hofiz Xorazmiy ijodining badiiy-estetik mohiyatiga oid qimmatli fikrlar uchraydi. Olimning mumtoz poetika va tasavvufiy tafakkurga bag‘ishlangan ilmiy qarashlari Hofiz Xorazmiy g‘azallaridagi ramziy obrazlar, majoziy ifodalar hamda tasavvufiy motivlarni anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, shoir lirikasidagi ilohiy ishq talqini, oshiq-ma’shuq munosabatlari va ruhiy kechinmalarning poetik ifodasi mumtoz sharq she’riyati an’analari bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilinadi. [Komilov, 1988: 6]. Hofiz Xorazmiy devonining to‘liq holda nashr qilinishi shoir ijodini o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. Turkiyalik olim Rajab Toparli



tomonidan 1998-yilda Anqarada amalga oshirilgan ushbu nashrga qo‘lyozmaning faksimile nusxasi ham ilova qilingan bo‘lib, bu manbashunoslik nuqtayi nazaridan katta ahamiyat kasb etdi. Mazkur nashr Hofiz Xorazmiy g‘azallarining matniiy xususiyatlarini o‘rganish, qiyosiy tadqiqotlar olib borish hamda shoir poetikasini chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratdi. [Toparli, 1998:3]. XXI asrda ham Hofiz Xorazmiy ijodiga bo‘lgan ilmiy qiziqish davom etdi. Jumladan, filologiya fanlari nomzodi J.Jo‘rayev tomonidan shoirning yagona marsiyasi tadqiq etilib, ilmiy muomalaga kiritildi. Tojikistonlik olim A.Xudoydodov esa tojik va o‘zbek adabiy aloqalari haqidagi tadqiqotlarida Hofiz Xorazmiy ijodining fors-tojik adabiyoti bilan bog‘liq jihatlariga e‘tibor qaratadi. Bu tadqiqotlar shoir ijodining faqat turkiy adabiyot doirasidagina emas, balki umumsharq adabiy muhiti bilan aloqador holda shakllanganini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada avvalgi tadqiqotlardan farqli ravishda Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy g‘azallari qiyosiy-tipologik asosda o‘rganiladi. Tadqiqotda ikki shoir ijodidagi an‘anaviy obrazlarning talqini, oshiq va ma’shuq konsepsiyasi, she’riy san’atlar hamda tasavvufiy motivlarning poetik ifodasi o‘zaro qiyoslanib, ular orasidagi badiiy-estetik mushtaraklikni aniqlashga e‘tibor qaratiladi.

Mazkur tadqiqotda Hofiz Xorazmiy hamda Alisher Navoiy g‘azallaridagi poetik mushtaraklikni aniqlash maqsadida *qiyosiy-tipologik*, *tarixiy-qiyosiy* hamda *poetik* tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ikki shoir g‘azallaridagi obrazlar tizimi, tasavvufiy motivlar, badiiy san’atlar, radif va qofiya xususiyatlari o‘zaro qiyosiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini mumtoz poetika, intertekstual aloqadorlik hamda turkiy g‘azalchilik an‘analari haqidagi ilmiy qarashlar tashkil etadi. Xususan, Hofiz Xorazmiy lirikasining poetik xususiyatlarini aniqlashda tekstologik va poetik tahlil usullariga murojaat qilindi. Shoir devonidagi an‘anaviy obrazlarning talqini Alisher Navoiy g‘azallari bilan qiyosiy ravishda o‘rganilib, ularning badiiy-estetik yaqinligi va farqli jihatlari aniqlashga harakat qilindi. Tadqiqot davomida Hamid Sulaymon, M.Sulaymonov, Najmiddin Komilov, Habibulla Jo‘rayev kabi olimlarning ilmiy qarashlari metodologik manba sifatida xizmat qildi. Shuningdek, Hofiz Xorazmiy

devonining Rajab To'parli tomonidan nashr etilgan matni asosiy manbalardan biri sifatida foydalanildi.

Maqolada g'azallarni tahlil qilishda intertekstual yondashuv asosida poetik o'xshashliklar, an'anaviy timsollar va she'riy ifoda vositalarining badiiy funksiyasi ochib berishga e'tibor qaratildi. Shu orqali Hofiz Xorazmiy ijodining Navoiy poetik tafakkuriga ta'siri hamda turkiy g'azalchilik taraqqiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritishga harakat qilindi.

Hofiz Xorazmiyning:

*Eturgil, ey sabo, mandin payome,*

*Taqi jonong'a ayg'il xush kalome*

misralari bilan boshlanuvchi g'azali hamda Alisher Navoiyning:

*Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg'a ayt,*

*Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt*

bayti bilan boshlanuvchi g'azali o'rtasida muhim poetik mushtaraklik kuzatiladi. Har ikki g'azalda "sabo" obrazi oshiqning ichki kechinmalarini ma'shuqqa yetkazuvchi vosita sifatida markaziy poetik funksiyani bajaradi. Mumtoz sharq she'riyatida sabo ko'pincha oshiq va yor o'rtasidagi ramziy elchi sifatida talqin qilinsa, mazkur g'azallarda ham shu an'ana davom ettirilgan. Hofiz Xorazmiy g'azalida oshiq sabodan o'z "payom"ini ma'shuqqa yetkazishni so'raydi. G'azal davomida hijron azobi oshiqning ruhiy va jismoniy holati orqali mubolag'ali tarzda ifodalanadi:

*Kim ul oshiq firoq o'tig'a kuyub,*

*Aliftak rost qadi bo'ldi lome.*

Mazkur baytda hijron azobi oshiq qaddining "lom" harfiga o'xshab bukilishi orqali badiiylashtiriladi. Arab alifbosidagi "alif"ning tik, "lom"ning esa egik shakli asosida yaratilgan ushbu tasvir mumtoz poetik tafakkurning yorqin namunasi hisoblanadi. Shoir hijronni nafaqat ruhiy, balki jismoniy yemirilish darajasida talqin qiladi. Navoiy g'azalida ham oshiqning iztirobi markaziy o'rinda turadi. Ayniqsa:

*Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt*

misrasida oshiqning cheksiz armoni va hijron iztirobi kuchli hissiy-emotsional ruhda ifodalanadi. Navoiyda ham sabo oshiqning holatini ma'shuqqa yetkazuvchi poetik vositaga aylanadi. Biroq Navoiy poetikasida hijron motivi yanada falsafiy va irfoniy mazmun bilan boyitilganligi kuzatiladi.

Har ikki g'azalda:

- sabo – ma'naviy vositachi;
- oshiq – hijronda kuyuvchi timsol;
- yor – mutlaq go'zallik egasi;
- visol – eng oliy orzu

sifatida poetik tizim hosil qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Hofiz Xorazmiy va Navoiy g'azallaridagi sabo obrazi hamda hijron motivi o'rtasidagi yaqinlik tasodifiy emas. Bu holat turkiy g'azalchilikdagi uzviy poetik an'ana mavjudligini hamda Navoiy poetikasining shakllanishida undan oldingi turkiy adabiy muhit muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

Hofiz Xorazmiyning:

*Vasling bila, nigoro, bizga payom qilg'il,*

*Qadg'uni oshiqingg'a bir dam harom qilg'il*

misralari bilan boshlanuvchi g'azali hamda Alisher Navoiyning mashhur:

*Qaro ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il,*

*Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il*

bayti bilan boshlanuvchi g'azali o'rtasida muhim poetik mushtarakliklar kuzatiladi. Har ikki g'azalda ham oshiq ruhiyati, ma'shuq husnining ilohiylashtirilgan tasviri hamda ishqning ruhiy-ma'naviy mohiyati markaziy poetik masala sifatida namoyon bo'ladi. Hofiz Xorazmiy g'azalida oshiqning asosiy istagi ma'shuq visoliga yetishish bilan bog'liq. Shoir "payom", "vasl", "salom", "ehson" kabi so'zlar orqali oshiqning ruhiy ehtiyojini badiiylashtiradi. Ayniqsa:

*Dilman tama' salomung man benavo hamisha,*

*Husnung zakoti, ey jon, gah-gah salom qilg'il*

baytida ma'shuqning oddiy salomi ham oshiq uchun ilohiy ne'mat darajasiga ko'tariladi. "Husnung zakoti" birikmasi tasavvufiy-estetik ma'noga ega bo'lib, yor

husni ilohiy boylik, oshiq esa ma'naviy faqir timsolida talqin qilinadi. Navoiy g'azalida ham oshiqning ma'shuqqa mutlaq bog'liqligi kuchli poetik ifoda topgan:

*Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.*

Mazkur misrada oshiq ma'shuqni ko'z qorachig'iga qiyoslaydi. Mumtoz poetik tafakkurda "ko'z qarosi" eng aziz va qimmatli tushunchalarni ifodalovchi ramziy birlik hisoblanadi. Demak, Navoiy oshiq ruhiyatidagi mutlaq sadoqat va ma'naviy qaramlikni chuqur psixologik asosda ochib beradi. Har ikki g'azalda ko'z obrazi markaziy poetik vositalardan biri sifatida qo'llangan. Hofiz Xorazmiy:

*Husnung sharobi uchun ko'zumni jom etibman*

deya ko'zni "jom"ga qiyoslaydi. Bu yerda oshiq ko'zi ilohiy husn sharobini qabul qiluvchi vositaga aylanadi. Navoiyda esa ko'z qalb va ruhiyat markazi sifatida tasvirlanadi. Qiyosiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, har ikki shoirida ko'z obrazi oddiy tashqi unsur emas, balki ishqning ma'naviy-idrokiy ramzi vazifasini bajaradi. Shuningdek, ikki g'azalda ma'shuqning zulf obrazi ham mushtarak poetik ma'noda qo'llangan. Hofiz Xorazmiy:

*Xolingni dona aylab, zulfungni dom qilg'il*

deya zulfni oshiq qalbini tutuvchi "dom" sifatida tasvirlaydi. Navoiy esa:

*Sochingni boshtin-ayoq chin ila shikan qilg'il*

misrasi orqali zulfning murakkab va maftunkor poetik mohiyatini ochadi.

Mumtoz she'riyatda zulf:

- asorat,
- ilohiy sir,
- oshiqning ruhiy bog'liqligi

ramzi sifatida talqin qilinadi. Har ikki shoir poetikasida ham ayni poetik an'ana davom ettirilgan. Gul va bog' obrazlari ham g'azallar orasidagi mushtarak poetik tizimni yuzaga chiqaradi. Navoiyning:

*Yuzung guliga ko'ngul ravzasin yasa gulshan*

misrasida yor husni gul obrazida ifodalansa, Hofiz Xorazmiy poetikasida ham ma'shuq husni gul, oy va sharob singari estetik timsollar bilan tasvirlanadi. Bu esa mumtoz turkiy g'azalchilikdagi umumiy poetik tafakkur mavjudligini

ko'rsatadi. Tahlillar natijasida Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy g'azallari o'rtasida obrazlar tizimi, tasavvufiy motivlar hamda badiiy ifoda vositalari jihatidan yaqinlik mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa:

- ko'z,
- zulf,
- gul,
- visol,
- oshiq qulligi

kabi poetik unsurlar har ikki ijodkorda o'xshash estetik vazifani bajaradi. Biroq Navoiy poetikasida ushbu obrazlar yanada falsafiy-irfoniy mazmun bilan boyitilgani kuzatiladi. Qiyosiy-tipologik tahlillar Hofiz Xorazmiy ijodi Navoiy poetik tafakkurining shakllanishida muhim adabiy-estetik manbalardan biri bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu holat Navoiy poetikasining nafaqat forsiy adabiyot, balki undan oldingi turkiy g'azalchilik an'analari bilan ham uzviy bog'liq holda shakllanganini tasdiqlaydi.

Olib borilgan qiyosiy-tipologik tahlillar Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy g'azaliyoti o'rtasida muhim poetik mushtaraklik mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida har ikki shoir ijodida sabo, ko'z, zulf, gul, visol, hijron kabi an'anaviy poetik obrazlarning o'xshash badiiy-estetik vazifani bajarishi aniqlandi. Ayniqsa, oshiq ruhiyatining tasviri, ma'shuq husnining ilohiylashtirilishi hamda tasavvufiy motivlarning poetik ifodasi ikki ijodkor badiiy tafakkuridagi yaqinlikni ko'rsatadi. Hofiz Xorazmiy g'azallarida qo'llangan ayrim obrazlar va poetik modellar keyinchalik Navoiy poetikasida yanada takomillashgan holda namoyon bo'lganligi kuzatildi. Biroq bu holatni to'g'ridan-to'g'ri taqlid yoki ko'chirish sifatida emas, balki turkiy mumtoz adabiyotdagi uzviy poetik an'ana va badiiy davomiylik sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar natijasida Hofiz Xorazmiy ijodi Navoiy badiiy tafakkurining shakllanishida muhim adabiy-estetik manbalardan biri bo'lishi mumkinligi haqidagi ilmiy qarashlar muayyan darajada asoslandi. Shu bilan birga, Hofiz Xorazmiy poetikasining Navoiy ijodi bilan bog'liq jihatlarini yanada kengroq

matniy-qiyosiy asosda tadqiq etish kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: Fan, 1988.
2. Hofiz Xorazmiy. Devon. Nashrga tayyorlovchi Hamid Sulaymon. – Toshkent: Fan, 1981.
3. Rajab To'parli. Hafiz Harezmî Divanı. – Ankara, 1998.
4. M.Sulaymonov. Хофиз Хоразмий ва ўзбек лирик шеърятининг ривожі: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 24 б.
5. Hamid Sulaymon. So'z boshi // Hofiz Xorazmiy. Devon. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 3–18.
6. Najmiddin Komilov. Bu qadimiy san'at. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
7. Habibulla Jo'rayev. Navoiy poetikasi va adabiy ta'sir masalalari. – Toshkent: Fan, 2004.
8. Jaloliddin Jo'rayev. O'zbek adabiyotidagi ilk marsiya // Hofiz Xorazmiy. Marsiya. – [Xurshid Davron kutubxonasi](#), 2017.
9. A.Xudoydodov. Tojik va o'zbek adabiy aloqalari. – Dushanbe, 2012.
10. Y.Is'hoqov. Navoiy poetik tafakkuri masalalari. – Toshkent: Fan, 1990.
11. [Tafakkur — “Qaro ko‘zum” g‘azali matni](#)

**BADR CHOCHIY DEVONINING POKISTONDA SAQLANAYOTGAN  
QO'LYOZMA NUSXALARI**

**Fazliddin Muhammadrajabov,**

*ToshDShU tayanch doktoranti*

*Email: [fmd94@mail.ru](mailto:fmd94@mail.ru)*

*ORCID ID: 0000-0002-8904-7491*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola XIV asr forsiyzabon mumtoz adabiyot vakillaridan biri Badr Chochiy devonining Pokiston hududida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida Islomobod, Lahor, Karachi, Peshovar, Kvetta, Navshahra, Chiniot va boshqa shaharlardagi kutubxona hamda qo'lyozma fondlarida mavjud nusxalar aniqlanib, ularning matnshunoslik xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada har bir qo'lyozmaning inventar raqami, kitobat sanasi, kotib ismi, hajmi, xat turi, matn tarkibi, boshlanish va yakun baytlari asosida ilmiy tavsifi berilgan. Bundan tashqari, ayrim nusxalarda uchraydigan hoshiya qaydlari, sharhlar, lug'aviy izohlar, muhr va mulkiy yozuvlar ham alohida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida Pokiston hududidagi turli qo'lyozma fondlarida Badr Chochiy devonining jami 32 ta nusxasi mavjudligi aniqlangan. Ularning aksariyati XVIII–XIX asrlarda ko'chirilgan bo'lsa-da, bir qator nusxalar matnning

qadimiyroq va to'liqroq shaklini saqlab qolganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Lahor va Islomobod kutubxonalarida saqlanayotgan nusxalar son va mazmun jihatidan muhim ilmiy manba sifatida ajralib turadi. Maqolada qo'lyozmalar o'rtasidagi farqli jihatlar, matn tarkibi va devonning tarqalish geografiyasi ham batafsil yoritilgan.

Tadqiqot natijalari Badr Chochiy adabiy merosining Pokiston hududida keng tarqalganini yaqqol ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'rganilgan qo'lyozmalar shoir devonining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash, matn tarixini tiklash va forsiy mumtoz adabiyot qo'lyozma an'analarini chuqur o'rganishda ishonchli manba bo'lib xizmat qilishi tasdiqlangan.

**Kalit so'zlar:** Badr Chochiy, Choch, devon, qo'lyozma nusxalari, qo'lyozma fondlari, tavsif, matnshunoslik.

**Abstract.** This article is devoted to the study of manuscript copies of the Diwan of Badr Chachi — one of the prominent representatives of 14th-century Persian classical literature — preserved on the territory of Pakistan. Within the framework of the research, copies held in libraries and manuscript collections of Islamabad, Lahore, Karachi, Peshawar, Quetta, Nowshera, Chiniot, and other cities were identified and their textological characteristics thoroughly analyzed. The article provides a scholarly description of each manuscript based on its inventory number, date of transcription, scribe's name, volume, script type, textual composition, as well as opening and closing verses. In addition, marginal notes, commentaries, lexical glosses, seals, and ownership inscriptions found in certain copies have been examined separately.

The research has established that a total of 32 manuscript copies of the Diwan of Badr Chachi are preserved in various manuscript collections across Pakistan. Although the majority were transcribed in the 18th–19th centuries, a number of copies are of particular significance as they have retained earlier and more complete forms of the text. The copies held in the libraries of Lahore and Islamabad stand out especially as important scholarly sources in terms of both quantity and content. The article also provides a detailed account of the



distinguishing features among the manuscripts, their textual composition, and the geographical spread of the Diwan.

The findings of the research clearly demonstrate that the literary legacy of Badr Chachi was widely disseminated across the territory of Pakistan. Furthermore, it has been confirmed that the manuscripts under study serve as reliable sources for preparing a critical edition of the poet's Diwan, reconstructing its textual history, and conducting in-depth research into the manuscript traditions of Persian classical literature.

**Keywords:** Badr Chochi, Choch, divan, manuscript copies, manuscript collections, description, textual studies.

**Kirish.** Movarounnahr zamini Sharq tamadduni va mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ko'plab zabardast ijodkorlarni yetishtirib bergan. Ushbu hududda shakllangan ilmiy-adabiy muhit natijasida forsiy va turkiy adabiyotning yirik namoyandalari voyaga yetgan. Ularning ayrimlari o'z ona yurtida faoliyat yuritgan bo'lsa, ayrimlari tarixiy-siyosiy sharoitlar ta'sirida boshqa mamlakatlarga hijrat qilib, o'sha yerlarning adabiy va madaniy hayotida muhim o'rin egallaganlar. Ana shunday ijodkorlardan biri XIV asrning mashhur qasidanavisi Badr Chochiydir.

Badr Chochiy hijriy-qamariy VIII asr (milodiy XIV asr) shoirlaridan bo'lib, uning taxallusidagi "Chochiy" nisbasidan tug'ilib voyaga yetgan joyi qadimgi Choch, ya'ni hozirgi Toshkent shahri ekanligi ma'lum bo'ladi. Choch Movarounnahrning qadimiy ilmiy-madaniy markazlaridan biri bo'lib, ko'plab olim va adiblarni yetishtirib bergan. Ammo Badr Chochiyning bolalik davri, oilasi va dastlabki tahsili haqida manbalarda deyarli ma'lumot uchramaydi. Shoirning hayoti haqidagi ma'lumotlar asosan tazkiralar, tarixiy manbalar va uning devonidagi ayrim baytlar orqali tiklanadi.

Badr Chochiy yashagan davr Movarounnahr tarixidagi murakkab siyosiy jarayonlar bilan xarakterlanadi. Mo'g'ullar istilosidan keyingi beqarorlik, iqtisodiy tanazzul va ijtimoiy notinchlik natijasida ko'plab ilm ahllari va ijodkorlar boshqa

hududlarga ko'chishga majbur bo'lganlar. Ayniqsa, Hindiston o'sha davrda nisbatan xavfsiz va ilm-fan ahliga e'tibor kuchli bo'lgan hududlardan biri edi. Ana shunday siyosiy va madaniy muhit Badr Chochiyning ham Hindistonga hijrat qilishiga sabab bo'lgan.

Badr Chochiy ijodida qasida janri alohida o'rin tutadi. Shoirning qasidalarida nafaqat madhiyaviy ruh, balki falsafiy mushohada, murakkab badiiy san'atlar va chuqur ramziy ifodalar ham muhim o'rin egallaydi. Shu sababli keyingi asrlarda Badr Chochiy devoniga bir necha sharhlar yozilgan.

Badr Chochiyning she'rlaridan uning nafaqat shoir, balki diniy-ilmiy faoliyat bilan ham shug'ullanganini bilish mumkin. Ayrim baytlarda u o'zini imom, mudarris, muftiy va voiz sifatida tasvirlaydi. Bu esa uning diniy ilmlar bo'yicha ham yetuk bilim egasi bo'lganidan dalolat beradi.

Badr Chochiy merosi asosan uning devoni orqali bizgacha yetib kelgan. Turli manbalarda devondagi baytlar soni ikki mingdan olti minggacha deb ko'rsatiladi. Hozirgi kunda ma'lum qo'lyozma nusxalari asosida devon tarkibida ikki mingdan ortiq bayt mavjudligi aniqlangan. Ayrim sharhlar va qo'shimcha manbalarni hisobga olganda esa bu son yanada ortadi. Shoir o'z devonini hijriy-qamariy 745-yilda tartib berganini she'rlaridan birida abjad hisobi orqali qayd etgan.

Badr Chochiy devonining qo'lyozma nusxalari bugungi kunda O'zbekiston, Hindiston, Pokiston, Eron va boshqa mamlakatlarning qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda. Ushbu nusxalar shoir ijodining tarqalish geografiyasi, matn tarixi va qo'lyozma an'alarini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Quyida Badr Chochiy devonining Pokistonda saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari haqida batafsilroq ma'lumot beriladi.

**Asosiy qism.** Pokistonning poytaxti Islomobod shahrida joylashgan Ganjbaxsh kutubxonasida Badr Chochiy devonining beshta qo'lyozma nusxasi saqlanadi<sup>1</sup>. Mazkur besh qo'lyozma haqida "Pokiston umumiy katalogi"<sup>2</sup>da ham ma'lumotlar berilgan.

---

<sup>1</sup> Ganjbaxsh kutubxonasi qo'lyozma nusxalar katalogi, 3-jild, – B.284.

Birinchi nusxa mazkur kutubxonada – 3284 – inventar raqam ostida saqlanadi. Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1144-yil jumod us-soniy oyining 10-kuni (milodiy: 1732-yil 10-dekabr), Muhammad Jomiy Miyonulloh-ul-Husayn o'g'li tomonidan kitobat qilingan. Qo'lyozma 123 sahifadan iborat bo'lib, chiroyli nasta'liq xatida yozilgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

بحر سخاوت ترا قله قبه حباب  
از سر اوج موج ، این هفت محیط برتر است

Qo'lyozmaning boshidan ba'zi varaqlari tushib qolgan. Matn tarkibida tushunishga qiyin bo'lgan so'zlar, ular joylashgan satr yonida izohlab ketilgan. Mazkur nusxa shoirning faqat qasidalaridan tashkil topgan.

Ikkinchi nusxa – 7252 – inventar raqam ostida saqlanadi. Mazkur nusxa hijriy-qamariy 1085-yil ramazon oyining 15-kuni (milodiy: 1674-yil 17-dekabr) Javhar taxallusli kotib tomonidan kitobat qilingan. Nusxa 131 sahifadan iborat bo'lib, chiroyli nasta'liq xatida yozilgan. quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Quyidagi bayt bilan nihoyalanadi:

خسروم فخر زمان خواند ، ولی ، هست مرا  
لقب آن ماه که در نیمه ماه است تمام

Mazkur qo'lyozmaning sahifalari uch chiziqli jadval bilan hoshiyalangan va devon asosiy matni ana shu jadval ichida berilgan.

Uchinchi nusxa – 1339 – inventar raqam ostida ostida saqlanadi. Mazkur nusxa hijriy-qamariy 1140-yil shavvol oyida (milodiy: 1728-yil may-iyun oylari) kitobat qilingan. Chiroyli nasta'liq xatida yozilgan bo'lib, 118 sahifadan iborat. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جانرا رهبر است

Pokiston umumiy katalogida berilgan ma'lumotga ko'ra, Ganjboxsh kutubxonasida 389-raqam ostida mazkur qo'lyozmaning mikrofilmi ham

<sup>2</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – Б.406-407.

saqlanadi. Ushbu devon nusxasi ham faqat hamd va madhga bag'ishlangan qasidalardan tashkil topgan.

To'rtinchi nusxa – 13571/1 – raqam ostida saqlanadi. Mazkur qo'lyozma majmua bo'lib, ikki asardan tashkil topgan. Unda Badr Chochiy devoni qo'lyozmaning boshida birinchi o'rinda va undan so'ng shoir qasidalarining so'zligi kelgan. Ikkinchi asar shoir qasidalarining izohli lug'ati hisoblanib, Muhammad Hodiy Ali tomonidan tuzilgan va bu lug'at keyinchalik shoir devoni bilan birga nashr ham qilingan. Mazkur qo'lyozma tarkibidagi devon tasviri bizda mavjud.

Qo'lyozma hijriy-qamariy XIII asrda (milodiy XVIII-XIX asrlarda) kitobat qilingan. Qo'lyozma tarkibida shoir devoni 102 varaqdan (204 sahifadan) iborat bo'lib, chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan. Har bir sahifada shoir she'rlari ikki ustun qilib 11 qatordan berilgan.

Qo'lyozmada devon quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جانرا رهبر است

Quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

طال شوقی الی محبتکم  
ایها الغائبون عن نظری  
روز و شب مونسم خیال شماست  
فاسئلوا عن خیالکم خبری

Mazmuni: “Ey ko'zimdan uzoqda bo'lgan azizlar, sizlarning muhabbatingizga bo'lgan sog'inchim cho'zildi. Kecha-yu kunduz meni ovutuvchi sizlar haqingizdagi xayoldir. Bas, o'sha xayolingizdan (hol-ahvolim haqida) biror xabar so'rang.”

Mazkur mulamma' devon tarkibida kelayotgan bo'lsa ham, mazmun va uslub jihatdan Badr Chochiyga tegishli deb bo'lmaydi, katta ehtimol bilan asarni ko'chirgan kotib tomonidan yozilgan.

Mazkur qo'lyozma devon shoirning qasida va qit'alaridan tashkil topgan bo'lib, ular tartib bilan emas, aralash tarzda kelgan. Devonda sarlavhalar qizil

siyoh bilan ajratib yozilgan. Asosiy matn, ikki ustun va hatto sarlavhalar ham ikki qizil chiziqli jadvallar bilan ajratilgan. Hoshiyalarda, ustunlar orasida va ba'zan satrlar orasida izoh va qaydlar mavjud. Sahifalar raqami ko'k rangli siyohda (fikrimizcha ko'k ruchkada) yozilgan. Mazkur nusxada ikki turdagi kutubxona muhri mavjud. Har ikkisi ham ko'k rangda bo'lib, biri qo'lyozma raqami yozilgan doira shaklidagi muhr va ikkinchisi to'rtburchak shakldagi muhrdir.

Beshinchi nusxa –7756 – raqam ostida saqlanadi. Mazkur nusxaning tasviri bizda mavjud. Ushbu qo'lyozma hijriy qamariy XII asrda (milodiy: XVII-XVIII asrlar) kitobat qilingan. Qo'lyozma 29 varaq 58 sahifadan iborat bo'lib, pishiq nasta'liq xatida yozilgan. Har bir sahifada shoir sh'arlari ikki ustun qilib 17 qatordan berilgan.

Qo'lyozma shoirning faqat qasidalaridan tashkil topgan bo'lib, quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جانرا رهبر است

Quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

توئی که از گفت آزگدا توانگر شد  
توئی که بر درت ایام پیر برنا شد

Qo'lyozma oxiridan ayrim qismlari tushib qolgan. Sarlavhalar qizil siyohda ajratib ko'chirilgan. Sahifa hoshiyalarida juda ko'p izoh va qaydlar mavjud. Saqlanish holati o'rtacha bo'lib, qisman hasharotlar zarar yetkazgan.

Pokistonning Islomobod shahridagi Pokiston Milliy Arxivi Muftiy Fazl Azim Behirudiy kutubxonasida Badr Chochiy devonining ikkita qo'lyozma nusxasi saqlanadi<sup>1</sup>. Har ikki nusxa ham kutubxonaning adabiyot bo'limida bo'lib, birinchi nusxa – 143 – raqam ostida va ikkinchi nusxa – 20 – raqam ostida saqlanadi. Quyida mazkur ikki nusxa haqida ma'lumot beramiz.

143-nusxa. Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1088-yil sha'bon oyining 22-kuni (milodiy: 1677-yil 7-oktabr) Xon Muhammad ibn Shoh Muhammad ismli kotib tomonidan ko'chirilgan. Qo'lyozma kolofonida quyidagicha matn kelgan:

<sup>1</sup> Pokiston Milliy Arxivi forsiy qo'lyozma nusxalar katalogi, Islomobod (Muftiy Fazl Azim Behirudiy kutubxonasi), – B.158.

"این نسخه دیوان بدر چاچی به دستخط فقیر الحقیق اضعف عباد الله (محو شده و به جای آن: )  
خان محمد ابن شاه محمد ساکن موضع... (ناخوانا) عمله پرگنه بتاله خالصه شریفه تحریر یافت فی التاریخ  
۲۲ شهر شعبان سنه ۲ جلوس والا مطابق سنه هجری ۱۰۸۸ بوقت پیشین"

Mazmuni: "Ushbu nusxa — Badr Chochiy devoni — ojiz va zaif banda  
(so'ngra o'chirilgan, o'rniga: ) Xon Muhammad ibn Shoh Muhammad, ....da  
(o'qib bo'lmaydi) yashovchi tomonidan, Batalah xolis va sharifa parganasida  
qarashli joyda, hijriy 1088-yil sha'bon oyining 22-kuni, oliy hazratning taxtga  
chiqishining 2-yili, peshin vaqtida yozib tamomlandi."

Bundan ushbu qo'lyozma kotibi Xon Muhammad ibn Shoh Muhammad,  
ko'chirilgan joyi Batalah parganasi, ko'chirilgan sanasi yuqorida aytilganidek  
hijriy-qamariy 1088-yil sha'bon oyining 22-kuni (07.10.1677) ekanligi ma'lum  
bo'ladi.

Ushbu nusxa boshqa nusxalardan farqli ravishda quyidagi misra bilan  
boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم بر در است

Qo'lyozma 64 varaqdan iborat bo'lib, nasta'liq xatida yozilgan. Sahifalar  
hoshiyasida yozuv va izohlar mavjud. Shuningdek, qo'lyozmada uch xil turdagi  
muhr mavjud bo'lib, ularning tavsifi quyidagicha:

1-muhr: Kitobning xotima qismida "Hafizulloh 1151" yozuvli muhr, Mas'ud  
ismli shaxsning qo'l yozuvi ham bor.

2-muhr: Xotimada kotib muhri sifatida "Xon Muhammad, kamtarin  
bandalardan, otasi Shoh Muhammadning fazli bilan izzatli bo'lsin, 1088" yozuvli  
muhr;

3-muhr: Xotimada "Muhammad A'zam, dargoh bandasi, 25-kun" yozuvli  
muhr.

20-nusxa. Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1158-yil safar oyining 16-kuni  
(milodiy: 1745-yil 18-mart) Muhammad Azim Qodiriy ismli kotib tomonidan  
ko'chirilgan. Qo'lyozma nasta'liq xatida yozilgan bo'lib, 72 varaqdan iborat.  
Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

چهره زیبای انسان را به پرکار قدر  
در شبستان عدم گاه از ازل صورت گراست

Qo'lyozma boshidan ba'zi varaqlari tushib qolgan va noqisdir.

Pokistonning Islomobod shahrida joylashgan Qoid A'zam universiteti fondiga qarashli Pir Husomiddin Roshidiy kutubxonasida inventar raqamsiz Badr Chochiy devonining bir nusxasi saqlanadi<sup>1</sup>. Ushbu qo'lyozmaning ko'chirilgan sanasi ma'lum emas. Qo'lyozma chiroyli nasta'liq xatida yozilgan bo'lib, 174 sahifadan iborat. Har bir sahifada shoir she'rlari 17 qatordan joylashtirilgan. Devon faqat qasidalaridan tashkil topgan bo'lib, quyidagicha hamd qismi bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان که عالم پرور است

Mazkur qo'lyozmaning avvalgi egasi Muhammad Olim Faqir ismli shaxs bo'lgan. Keyinchalik Pokistonlik mashhur olim, professor Ravshan Orobegim tomonidan tekshirilgan va kataloglashtirilgan.

Pokistonning Peshovar shahrida joylashgan Rikord Ofis kutubxonasida 70-inventar raqam bilan Badr Chochiy devonining qo'lyozma nusxasi saqlanadi<sup>2</sup>. Mazkur qo'lyozma katta ehtimol bilan hijriy-qamariy 1154-yil rabi'ul-avval oyining 5-kuni (milodiy: 26.06.1741) ko'chirilgan. Qo'lyozma 198 sahifadan iborat bo'lib, unda Badr Chochiy devoni quyidagi misra bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است

Mazkur nusxa katalogda berilgan ma'lumotga ko'ra birinchi marta Seyyed Hasan Mujtabo Razavi ismli shaxs tomonidan tavsiflangan.

Pokistonning Faysalobod viloyati Chiniot shahrida joylashgan Chishti Sulaymon kutubxonasida inventar raqamsiz Badr Chochiy devonining bir qo'lyozma nusxasi saqlanadi<sup>3</sup>. Mazkur qo'lyozma hijriy-qamariy 1192-yil (milodiy: 1778-yil) Safdar Husayn ismli kotib tomonidan kitobat qilingan. Qo'lyozma 123 sahifadan iborat bo'lib, shikasta nasta'liq xatida ko'chirilgan va quyidagi misra bilan boshlandi:

حمد آن سلطان عالم را، که عالم پرور است

<sup>1</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.405.

<sup>2</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.405-406.

<sup>3</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.407.



Qo'lyozma haqida ma'lumot beruvchi katalogda ushbu qo'lyozma birinchi marta Naim Axtar Majdadi ismli shaxs tomonidan tavsiflangani haqida ma'lumot keltirilgan.

Pokistonning Panjob provinsiyasi Sargodha shahrida joylashgan Shahobiddin kutubxonasida inventar raqamsiz Badr Chochiy devonining yana bir qo'lyozma nusxasi saqlanadi<sup>1</sup>. Mazkur qo'lyozma hijriy-qamariy 1210-yil (milodiy: 1795-yil) Seyyed Anvar ibn Seyyed Mahmud shoh ismli kotib tomonidan chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan. Qo'lyozma 200 sahifadan iborat bo'lib, quyidagicha boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را، که عالم پرور است

Mazkur qo'lyozma haqida ma'lumot beruvchi katalogda berilgan ma'lumotga ko'ra, ushbu nusxa Muhammad Nazir Ronjho ismli shaxs tomonidan o'qib tavsiflangan.

Pokistonning Karachi shahrida joylashgan Pokiston milliy muzeyi kutubxonasida Badr Chochiy devonining ikki qo'lyozma nusxasi saqlanadi. Birinchu nusxa – N.M.1970-175 inventar raqam ostida va ikkinchi nusxa – N.M.1971-256 inventar raqam ostida saqlanadi. Quyida ushbu nusxalar haqida batafsilroq ma'lumot beramiz.

N.M.1970-175 – nusxa<sup>2</sup>. Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1205-yilning rajab oyida (milodiy: 1791-yil fevral-mart oylari) Mir Muhammad Ali, taxallusi "Oshiq" bo'lgan kotib tomonidan kitobat qilingan. Kitobat qilingan joy ma'lum emas. Qo'lyozma 29 varaqdan iborat bo'lib, chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan. Qo'lyozma boshidan ba'zi varaqlari tushib qolgan va quyidagi bayt bilan boshlanadi:

گرفت دست بر در برون گریخت اجل  
ازان دیار که عدل تو کار فرما شد

Ushbu qo'lyozma shoirning faqat qasida va qit'alaridan tashkil topgan. Qo'lyozma Muhammad Ashraf ismli shaxs tomonidan tavsiflangan va shular asosida katalogda qo'lyozma haqida ma'lumotlar keltiriladi.

<sup>1</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.406.

<sup>2</sup> Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar katalogi, 3-jild, – B.194.

N.M.1971-256 – nusxa<sup>1</sup>. Mazkur nusxa taxminan hijriy-qamariy XI asrda (milodiy: XVI-XVII asrlar) kitobat qilingan bo‘lib, devonning mavjud qo‘lyozma nusxalari ichida qadimiyyog‘i hisoblanadi. Qo‘lyozma 200 sahifadan iborat. Nasta’liq xatida ko‘chirilgan va faqat qasidalaridan tashkil topgan.

Mazkur qo‘lyozma Nagarkut qal’asining fathi haqida xabar beruvchi qasida bilan boshlanadi va uning birinchi bayti quyidagichadir:

چو پادشاه جهانگیر عالم بالا  
بفرد خانه سرد وزیر شد تنها

Bular haqida Pokiston umumiy katalogining 7-jildi 406-betida ham ma’lumotlar keltirilgan.

Pokistonning Kvetta shahrida joylashgan Balujiston milliy muzeyi kutubxonasida Badr Chochiy devonining bir nusxasi mavjud bo‘lib, kutubxonada ushbu nusxa 13-inventar raqam ostida saqlanadi<sup>2</sup>. Mazkur nusxa o’sha davr hukmdori taxtga o’tirganining 35-yili ya’ni hijriy-qamariy 1102-yil (milodiy: 1690/1691-yil) kitobat qilingan. Qo‘lyozma 126 sahifadan iborat bo‘lib, sahifa o‘lchami 18x30sm va har bir sahifada shoir she’rlari 17 qatordan joylashtirilgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Quyidagi bayt bilan nihoyalandi:

خسروم فخرزمان خواند ولی هست مرا  
لقب ان ماه که در نیمه ی ماه است تمام

Mazkur qo‘lyozma nusxasi tadqiqidan, kotib ushbu nusxani mazkur asarning boshqa qo‘lyozma nusxalari bilan solishtirib, ulardagi qo‘shimcha ma’lumotlarni hoshiyalarda qayd etgani ma’lum bo‘ladi. Ushbu hoshiyalar va ilovalar nihoyatda qimmatli hamda noyob ma’lumotlar sirasiga kiradi. Kitob matnida imlo xatolari uchramaydi, matn juda chiroyli nasta’liq xatida va aniq ko‘chirilgan. Afsuski, qo‘lyozmaning pastki hoshiyalari eskirganligi sababli yemirilgan va ayrim joylari tushib qolgan.

<sup>1</sup> Pokiston milliy muzeyi forsiy qo‘lyozma nusxalar katalogi, Karachi, – B.86.

<sup>2</sup> Balujiston milliy muzeyi forsiy qo‘lyozma nusxalar katalogi, Kvetta, Pokiston, – B.244.

Pokistonning Gujarat shahrida joylashgan Muhammad Sharif Navshohiy kutubxonasida (Olamgir saroyi, Dehli) inventar raqamsiz Badr Chochiy devonining bir qo'lyozma nusxasi saqlanadi<sup>1</sup>. Ushbu qo'lyozma hijriy-qamariy 1099-yil rabi'ul-avval oyining 26-sanasida (milodiy: 12.01.1688) dushanba kuni, hazrat Navshoh Ganjbaxshning muridlaridan bo'lgan Muhammad Muhsin ismli kotib tomonidan kitobat qilingan. Ushbu qo'lyozma 137 sahifadan iborat bo'lib, pishiq nasta'liq xatida yozilgan. Qo'lyozma shoir devoni quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایما، انس و جان را رهبر است

Qo'lyozmada asar kotibi Muhammad Muhsin bu asarni o'z o'g'li Abdulhodiy uchun ko'chirgani qayd etilgan. Asar oxirida "Muhsin butun qalbi bilan payg'ambar avlodlarining qulidir" yozuvi tushirilgan muhr bosilgan. Hoshiyada qayd va izohlar mavjud bo'lib, ularning muallifi Seyyed Orif Navshohiy hisoblanadi. Seyyed Orif Navshohiy Navshohiya tariqati olimlaridan bo'lib, ko'plab qo'lyozmalarni tadqiq etgan va ularda hoshiyaviy izohlar qoldirgan. Bu holat asarning keyinchalik o'rganilgan yoki tahrir qilingan nusxa ekanligidan dalolat beradi.

Badr Chochiy devonining yana bir qo'lyozma nusxasi Pokistonning Lahor shahrida joylashgan Panjob umumiy kutubxonasida (Panjab public library) mavjud bo'lib, ushbu qo'lyozma kutubxonada 99-871 – inventar raqam ostida saqlanadi<sup>2</sup>. Qo'lyozma hijriy-qamariy XIII asr boshlarida (milodiy: XVIII asr oxiri) kitobat qilingan. 63 varaqdan iborat va har bir sahifada shoir she'rlari 13 qatordan joylashtirilgan. Qo'lyozma nasta'liq xatida ko'chirilgan bo'lib, quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رحمت است

Mazkur qo'lyozma shoirning faqat qasidalaridan tashkil topgan. Qo'lyozma haqida Panjob umumiy kutubxonasida saqlanuvchi qo'lyozma nusxalar bo'yicha

<sup>1</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.405.

<sup>2</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.406.

yozilgan “Abbosiyy” katalogida (1-jild, 490-bet), shuningdek, bu katalog asosida Pokiston forsiy qo‘lyozma nusxalar umumiy katalogida ham ma’lumotlar berilgan.

Pokistonning Lahor shahrida joylashgan yana bir mashhur kutubxona Panjob universiteti kutubxonasida Badr Chochiy devonining 12 ta qo‘lyozma nusxasi saqlanadi. Bular haqida quyida batafsilroq ma’lumot beramiz.

Birinchi nusxa – kutubxonada Pi VI 321A 2753 inventar raqam ostida saqlanadi<sup>1</sup>. Ushbu nusxaning tasviri bizda mavjud. Qo‘lyozma kollofonida quyidagicha matn kelgan:

"تمام شد قصاید و دیوان بدر چاچ بتاریخ پانزدهم شهر جماد الاول سنه 14 از جلوس محمد شاه  
پادشاه غازی خلد الله ملکه و سلطانه کاتب سید عبدالواحد"

Mazmuni: “Badri Chochning qasidalari va devoni podshoh Muhammad Shoh G‘oziy (Xudo uning mulki va saltanatini abadiy qilsin) hukmronligining o‘n to‘rtinchi yili, jumodul-avval oyining o‘n beshinchi sanasida tugallandi. Kotib — Sayyid Abdulvohid.”

Kollofonda kelgan ushbu matnga ko‘ra qo‘lyozma Boburiylar sulolasining 13-imperatori Muhammad shoh Rangila (1719-1748) hukmronligi davrida hijriy-qamariy 1145-yil jumodul-avval oyining 15-kuni (milodiy 06.10.1733) Sayyid Abdulvohid ismli kotib tomonidan kitobat qilingan. Lekin, qo‘lyozmaning birinchi sahifasida quyidagi matn ham mavjud:

"این نسخه متبرکه دیوان بدر چاچ من تصنیف بدرالدین چاچی در ملک احقر العباد فیض محمد  
قادری است. تحریر در تاریخ ۱۵ شوال ۱۲۲۰"

Mazmuni: “Bu muborak nusxa — “Badr Choch” devoni bo‘lib, Badriddin Chochiy tomonidan tasnif etilgan, va u faqir bandalarning eng ojizi, Fayz Muhammad Qodiriy mulkidir. Kitobat sanasi — (hijriy-qamariy) 1220-yil shavvol oyining 15-kuni (milodiy: 27.12.1805).”

Ehtimol, bu matnda ko‘rsatilgan sana ushbu devon tahrir qilingan, unga izoh va qaydlar yozilgan vaqtni ifodalab kelayotgan bo‘lishi mumkin.

Mazkur qo‘lyozma 94 varaqdan iborat va har bir sahifada shoir she‘rlari 17 qatordan joylashtirilgan. Chiroyli ingichka nasta’liq xatida yozilgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

<sup>1</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo‘lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – Б.407.

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

مرا که فخر الزمان خواند شاه اسلام  
لقب مگوی بجز بلبل شکر گفتار

Mazkur nusxa ko‘plab hoshiya yozuvlari va izohlar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, hattoki ayrim hoshiyalar alohida qog‘oz bo‘laklariga yozilib, nusxaga yopishtirilgan. Hoshiya yozuvlari jihatidan bu nusxa nihoyatda noodatiy hisoblanadi. Oxirgi sahifalarda yozuvlar yozilgan siyohlar namlik sababli boshqa sahifaga o‘tib ketgan. Natijada matnni o‘qish juda qiyinlashgan. Kollofon ham bundan mustasno emas.

Qo‘lyozmadagi muhrlar o‘chib ketgan, shuning uchun “Fayz Muhammad Qodiriy” so‘zlarini o‘qish juda qiyin. Birinchi varaqning orqa sahifasida jami yettita muhr mavjud bo‘lgan, biroq ularning barchasi deyarli o‘chgan.

Mazkur nusxa ilgari Roy Sohib Pandit Vazir Chand Tarkhaning kutubxonasiga tegishli bo‘lgan bo‘lib, nusxada uning kutubxona muhrlari mavjud. Roy Sohib Pandit Vazir Chand Tarkha XIX asrda Hindistonning Panjob mintaqasida yashagan mashhur kitob to‘plovchi va olim bo‘lgan. Uning kutubxonasida ko‘plab forsiy qo‘lyozmalar saqlangan.

Mazkur qo‘lyozmada hoshiyalarning ko‘pligi va qo‘shimcha qog‘ozlarning yopishtirilganligi qo‘lyozmaning aktiv o‘rganilgan yoki tahrir qilingan ilmiy nusxa ekanini ko‘rsatadi. Asardagi mavjud muhrlar qo‘lyozmaning ko‘p qo‘llardan o‘tganini bildiradi.

Bu nusxa haqida Abdulloh katalogida<sup>1</sup> va bu asosda Pokiston umumiy katalogida ham ma’lumotlar berilgan.

Ikkinchi nusxa – kutubxonanning Ozar bo‘limida O-399/7614 – raqam ostida saqlanadi<sup>2</sup>. Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1257-yil zilqa’da oyining 12-kuni (milodiy: 03.01.1841) Barnukriy Kashmiriy ismli kotib tomonidan kitobat

<sup>1</sup> Panjob universiteti “Abdulloh” qo‘lyozma nusxalar katalogi, 2-jild, – B.368.

<sup>2</sup> Lahor Panjob universiteti kutubxonasi forsiy qo‘lyozma nusxalar katalogi, Ozar bo‘limi, – B.112.

qilingan. Qo'lyozma 157 sahifadan iborat bo'lib, nasta'liq xatida yozilgan va shoir she'rlari har bir sahifada 13 qatordan berilgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Asar Lala Kudamal Jio buyrug'i bilan ko'chirilgan. Sarlavhalar va alohida belgilar shingarf (qizil) siyoh bilan yozilgan.

Uchinchi nusxa – mazkur kutubxonaning Ozar bo'limida O-400 – inventar raqam bilan saqlanadi<sup>1</sup>. Mazkur qo'lyozma hijriy-qamariy 1256-yil (milodiy: 1840/1841-yil) hanafiy mazhabidan, Chishtiylari tariqatiga mansub, vatani Banur bo'lgan Shayx Sami'ulloh Foruqiylari ismli kotib tomonidan kitobat qilingan. Qo'lyozma 96 sahifadan iborat bo'lib, nasta'liq xatida yozilgan va har bir sahifada shoir she'rlari 17 qatordan joylashtirilgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Mazkur qo'lyozmada "Sami'ulloh" (ya'ni nusxa kotibi) yozuvi tushirilgan muhr ham mavjud.

To'rtinchi nusxa – 6333/12 – inventar raqam bilan saqlanadi<sup>2</sup>. Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1266-yil (milodiy: 1849/1850-yil) kitobat qilingan. Mazkur qo'lyozma nusxa asarlar majmuasi bo'lib, unda Badr Chochiy devoni o'n ikkinchi o'rinda, sakkiz varaqda, 106-113- varaqlarda kelgan. Bu sakkiz varaq shoirning faqat qasidalaridan tashkil topgan.

Beshinchi nusxa – kutubxonaning Shironiy bo'limida 6333/9 – raqam ostida saqlanadi<sup>3</sup>. Bu nusxa ham asarlar majmuasi bo'lib, unda Badr Chochiy devoni to'qqizinchi o'rinda kelgan. Qo'lyozma hijriy-qamariy 1266-yil rajab oyining 13-kuni (milodiy: 31.05.1850) kitobat qilingan bo'lib, unda Badr Chochiy devoni faqat qasidalaridan tashkil topgan.

Mazkur nusxa haqida Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogida<sup>4</sup> ham ma'lumot berilgan.

<sup>1</sup> Lahor Panjob universiteti kutubxonasi forsiy qo'lyozma nusxalar katalogi, Ozar bo'limi, – B.113.

<sup>2</sup> Lahor Panjob universiteti kutubxonasi forsiy qo'lyozma nusxalar katalogi, 1-jild, – B.147.

<sup>3</sup> Lahor Panjob universiteti kutubxonasi Shironiy qo'lyozma nusxalar katalogi, 1-jild, – B.54.

<sup>4</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B. 407..

Oltinchi nusxa – kutubxonaning Ozar bo‘limida O 450/7364 inventar raqam ostida saqlanadi. Mazkur nusxa hijriy-qamariy 1279-yil ramazon oyining 28-kuni (milodiy: 16.03.1863) Nuriddin ismli kotib tomonidan kitobat qilingan. Bu qo‘lyozma asarlar majmuasi bo‘lib, unda Badr Chochiy devoni 43-128 varaqlarda kelgan. Undan so‘ng “Hamrozi gulshani roz” (Sizlar bog‘ining sirdoshi) asari ko‘chirilgan. Badr Chochiy devoni qo‘lyozmada jami 86 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada shoir she‘rlari 13 qatordan berilgan. Juda chiroyli nasta‘liq xatida yozilgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Mazkur qo‘lyozma haqida Panjob universiteti kutubxonasi Ozar bo‘limida saqlanuvchi forsiy qo‘lyozma nusxalar katalogida ma‘lumotlar berilgan.

Yettinchi nusxa – kutubxonaning Shironiy bo‘limida 2412/1150/5 inventar raqam ostida saqlanadi<sup>1</sup>. Qo‘lyozma hijriy-qamariy 1206-yil zulhijja oyining 6-kuni (milodiy 31-iyul 1792-yil) Muhammad A‘zim bin Maxdum Abdulkarim ismli kotib tomonidan kitobat qilingan. Mazkur nusxa ham asarlar majmuasi bo‘lib, unda Badr Chochiy devoni beshinchi o‘rinda kelgan va faqat qasidalaridan iborat. Qo‘lyozma haqida Pokiston forsiy qo‘lyozma nusxalar umumiy katalogida<sup>2</sup> ma‘lumot berilgan.

Sakkizinchi nusxa – kutubxonaning Shironiy bo‘limida 90/3095 – raqam ostida saqlanadi<sup>3</sup>. Mazkur nusxa hijriy-qamariy 1139-yil rabi‘us-soniy oyida (milodiy: 1728-yil, dekabr oyi) Xoja Bahouddin muridlaridan bo‘lgan G‘ulom Sarvar ismli kotib tomonidan kitobat qilingan. Qo‘lyozma 86 varaqdan iborat bo‘lib, faqat qasidalaridan tashkil topgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Pokiston forsiy qo‘lyozma nusxalar umumiy katalogida<sup>4</sup> berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, ushbu nusxa Panjob universiteti kutubxonasida SPi VI 28A 3095 inventar raqam ostida keladi.

<sup>1</sup> Lahor Panjob universiteti kutubxonasi Shironiy qo‘lyozma nusxalar katalogi, 1-jild, – B.55.

<sup>2</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo‘lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B. 407.

<sup>3</sup> Lahor Panjob universiteti kutubxonasi Shironiy qo‘lyozma nusxalar katalogi, 1-jild, – B.54.

<sup>4</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo‘lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.406.



To‘qqizinchi nusxa – kutubxonaning Shironiy bo‘limida 4120/1068 inventar raqam bilan saqlanadi<sup>1</sup>. Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1095-yil sha‘bon oyining 30-kuni (milodiy: 03.08.1684) Monak Dos bin Fath Chand ismli kotib tomonidan kitobat qilingan. Qo‘lyozma 65 varaqdan iborat bo‘lib, faqat qasidalardan tashkil topgan va quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Pokiston forsiy qo‘lyozma nusxalar umumiy katalogida<sup>2</sup> berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu nusxa Panjob universiteti kutubxonasida SPi VI 28/4120 inventar raqam ostida keladi.

O‘ninchi nusxa – kutubxonaning Shironiy bo‘limida 3520/2/496 raqam ostida saqlanadi. Mazkur nusxa hijriy-qamariy XII asrda (miodiy: XVII-XVIII asrlar) kitobat qilingan. Faqat qasidalardan tashkil topgan. Ushbu qo‘lyozmada Pokiston forsiy qo‘lyozma nusxalar umumiy katalogida<sup>3</sup> berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, hijriy-qamariy 1200-yil sanasi bilan muhr mavjud.

O‘n birinchi nusxa – kutubxonada Pi VI 321 – inventar raqam ostida saqlanadi<sup>4</sup>. Mazkur qo‘lyozma hijriy-qamariy XIII asrda (milodiy: XVIII-XIX asrlar) kitobat qilingan bo‘lib, uyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Qo‘lyozmada kotib tomonidan yozilgan kollofon mavjud, biroq nusxa termit zarari tufayli juda yomon shikastlangan. Kotib nomining tarkibida faqat “Gurjiy” so‘zi saqlanib qolgan. Mirzo Xusravbek Gurjiyning yozishicha, qo‘lyozma 18 safar sanasida tugallangan, biroq kitobat qilingan yil raqamini ham termitlar yemirib yuborgan, faqat “???” shaklida noaniq raqamlar qolgan. Xusrovbek Gurjiy, katta ehtimol bilan, “Mahakk-i Xusraviy” asarining muallifi bilan bir shaxs bo‘lishi mumkin.

<sup>1</sup> Lahor Panjob universiteti kutubxonasi Shironiy qo‘lyozma nusxalar katalogi, 1-jild, – B. 54.

<sup>2</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo‘lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.406.

<sup>3</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo‘lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.407.

<sup>4</sup> Lahor Panjob universiteti kutubxonasi forsiy qo‘lyozma nusxalar katalogi, 2-jild, 1– B.65.

O'n ikkinchi nusxa – kutubxonaning Ozar bo'limida O-102/7342 – inventar raqam ostida saqlanadi<sup>1</sup>. Mazkur nusxa hijriy-qamariy XIV asrda (milodiy: XIX-XX asrlar) Afzal Ali ismli shaxs tomonidan kitobat qilingan. Qo'lyozma 138 varaqdan iborat bo'lib, shoir she'rlari har bir sahifada 13-15 qatordan joylashtirilgan. Chiroyli nasta'liq xatida yozilgan va quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Qo'lyozma e'tibor va aniqlik bilan ko'chirilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilib, matndan ajratib ko'rsatilgan. Hoshiyalarda esa tushunilishi murakkab bo'lgan so'z va baytlarga izohlar hamda qo'shimcha qaydlar keltirilgan.

Pokistonning Jahoniyon (Multan atrofi) shahri, Chek 114 hududida joylashgan Asad Nizomiy nomli Maktabatul-Jamol kutubxonasida inventar raqamsiz Badr Chochiy devonining bir nusxasi saqlanadi<sup>2</sup>. Mazkur nusxa hijriy-qamariy 1235-yil (milodiy: 1819-1820-yillar) kitobat qilingan. Qo'lyozma 139 sahifadan iborat bo'lib, pishiq nasta'liq xatida yozilgan va quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Naim Axtar Mujaddadiyning xabar berishicha, kotib ushbu qo'lyozmani Majid Hasanga bag'ishlab ko'chirgan.

Pokistonning Navshahra shahrida joylashgan Rahimiya kutubxonasida 1596 – inventar raqam sotida Badr Chochiy devonining bir nusxasi saqlanadi<sup>3</sup>. Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1300-yil jumodul-soniy oyining 10-kuni (milodiy: 25.04.1883) Muhammadshoh G'oziy ismli kotib tomonidan kitobat qilingan. Qo'lyozma 124 sahifadan iborat bo'lib, nasta'liq xatida ko'chirilgan va quyidagi bayt bilan boshlanadi:

بحر سخاوت ترا قله قبه حباب  
از سر اوج موج این هفت محیط برتر است

<sup>1</sup> Lahor Panjob universiteti kutubxonasi forsiy qo'lyozma nusxalar katalogi, Ozar bo'limi, – B. 112.

<sup>2</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.407.

<sup>3</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.407.

Mazkur qo'lyozma devon shoirning faqat qasidalaridan tashkil topgan. Pokiston umumiy katalogida ushbu qo'lyozma haqida Sajjod Husayn Kozimiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ma'lumot keltirilgan.

Pokistonning Navshahra shahrida joylashgan Hoshimiy kutubxonasida ham inventar raqamsiz Badr Chochiy devonining bir nusxasi saqlanadi<sup>1</sup>. Mazkur nusxa hijriy-qamariy 1228-yil ramazon oyining 21-kuni (milodiy: 28.09.1813) Madadali bin Vali Muhammad ismli kotib tomonidan kitobat qilingan. Qo'lyozma 123 sahifadan iborat bo'lib, chiroyli nasta'liq xatida yozilgan va quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است  
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Pokiston umumiy katalogida ushbu qo'lyozma haqida Rizvona Sahar xonim tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ma'lumot keltirilgan.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, Pokiston hududidagi kutubxonalar va qo'lyozma fondlarida Badr Chochiy devonining jami 32 ta qo'lyozma nusxasi mavjudligi aniqlandi (1-jadvalga qarang). Mazkur nusxalardan uchta qo'lyozmaning elektron tasviri bizda mavjud bo'lib, ulardan bevosita ilmiy tahlil jarayonida foydalanildi.

Qo'lyozma nusxalar eng ko'p saqlanayotgan shaharlar sifatida Lahor (13 ta nusxa) va Islomobod (9 ta nusxa) ajralib turadi. Jumladan, Islomobod shahrida saqlanayotgan qo'lyozmalarning 8 tasi kitob shaklida, 1 tasi esa mikrofilm ko'rinishida ekanligi qayd etildi. Umumiy nusxalar orasida 4 tasi asarlar majmuasi tarkibida, qolgan 28 tasi esa mustaqil kitob holida faqat Badr Chochiy devonidan iborat.

Aniqlangan qo'lyozma nusxalarning 6 tasi inventar raqamsiz bo'lib, turli kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda. Eng qadimiy nusxalar sirasiga Islomobod shahridagi Ganjbxsh kutubxonasida saqlanuvchi 7252-inventar raqamli qo'lyozma (1674-yil) hamda Karachi shahridagi Pokiston Milliy muzeyi kutubxonasida saqlanuvchi N.M.1971-256-inventar raqamli qo'lyozma (taxminan XVI–XVII asrlar) kiradi. Shu bilan birga, Ali Muhammad Getifuro'z tomonidan

<sup>1</sup> Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi, 7-jild, – B.408.

tilga olingan Lahor shahridagi Panjob universiteti kutubxonasida saqlanayotgan va XVII asrning birinchi yarmiga mansub deb ko'rsatilgan nusxa mazkur tadqiqot doirasida aniqlanmadi.

Ixtiyorimizda elektron tasviri mavjud bo'lgan nusxalar orasida eng katta hajmga ega qo'lyozma — Lahor shahridagi Panjob universiteti kutubxonasida saqlanuvchi Pi VI 321A 2753-inventar raqamli qo'lyozma bo'lib, u taxminan 3200 baytni o'z ichiga oladi. Biroq katalog ma'lumotlariga ko'ra, mazkur kutubxonaning Ozar bo'limida saqlanayotgan O-102/7342-inventar raqamli qo'lyozma hajman yanada mukammal bo'lib, unda qariyb 3800 bayt jamlangan. Quyida qo'lyozmalarning tavsifi bilan bog'liq jadval keltirilgan:

| Qo'lyozma nusxalar |           |                                                                              |                 |                   |                      |
|--------------------|-----------|------------------------------------------------------------------------------|-----------------|-------------------|----------------------|
| T/r                | Shahar    | Kutubxona                                                                    | Inventar raqami | Kitobat sanasi    | Sahifasi             |
| 1.                 | Islomobod | Ganjbxsh kutubxonasi                                                         | 3284            | 10.12.1732        | 123 sahifa           |
| 2.                 | Islomobod | Ganjbxsh kutubxonasi                                                         | 7252            | 17.12.1674        | 131 sahifa           |
| 3.                 | Islomobod | Ganjbxsh kutubxonasi                                                         | 1339            | 1728-yil          | 118 sahifa           |
| 4.                 | Islomobod | Ganjbxsh kutubxonasi                                                         | Mikrofilm 389   |                   |                      |
| 5.                 | Islomobod | Ganjbxsh kutubxonasi                                                         | 13571/1         | XVIII-XIX asrlar  | 102 varaq (11 satr)  |
| 6.                 | Islomobod | Ganjbxsh kutubxonasi                                                         | 7756            | XVII-XVIII asrlar | 29 varaq (17 satr)   |
| 7.                 | Islomobod | Pokiston Milliy Arxivi Muftiy Fazl Azim Behirudiy kutubxonasi                | 143             | 07.10.1677        | 64 varaq             |
| 8.                 | Islomobod | Pokiston Milliy Arxivi Muftiy Fazl Azim Behirudiy kutubxonasi                | 20              | 18.03.1745        | 72 varaq             |
| 9.                 | Islomobod | Qoid A'zam universiteti fondiga qarashli Pir Husomiddin Roshidiy kutubxonasi | raqamsiz        |                   | 174 sahifa (17 satr) |
| 10.                | Peshovar  | Rikord Ofis kutubxonasi                                                      | 70              | 26.06.1741        | 198 sahifa           |
| 11.                | Chiniot   | Chishti Sulaymon kutubxonasi                                                 | raqamsiz        | 1778-yil          | 123 sahifa           |
| 12.                | Sargodha  | Shahobiddin kutubxonasi                                                      | raqamsiz        | 1795-yil          | 200 sahifa           |
| 13.                | Karachi   | Pokiston milliy muzeyi kutubxonasi                                           | N.M.1970-175    | 1791-yil          | 29 varaq             |
| 14.                | Karachi   | Pokiston milliy muzeyi kutubxonasi                                           | N.M.1971-256    | XVI-XVII asrlar   | 200 sahifa           |
| 15.                | Kvetta    | Balujiston milliy muzeyi kutubxonasi                                         | 13              | 1690/1691-yil     | 126 sahifa (17 satr) |
| 16.                | Gujarat   | Muhammad Sharif                                                              | raqamsiz        | 12.01.1688        | 137 sahifa           |

|     |           |                                                 |                 |                   |                        |
|-----|-----------|-------------------------------------------------|-----------------|-------------------|------------------------|
|     |           | Navshohiy kutubxonasi                           |                 |                   |                        |
| 17. | Lahor     | Panjob umumiy kutubxonasi                       | 99-871          | XVIII asr oxiri   | 63 varaq (13 satr)     |
| 18. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | Pi VI 321A 2753 | 06.10.1733        | 94 varaq (17 satr)     |
| 19. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | O-399/7614      | 03.01.1841        | 157 sahifa (13 satr)   |
| 20. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | O-400           | 1840/1841-yil     | 96 sahifa (17 satr)    |
| 21. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | 6333/12         | 1849/1850-yil     | 8 varaq                |
| 22. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | 6333/9          | 31.05.1850        |                        |
| 23. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | O 450/7364      | 16.03.1863        | 86 varaq (13 satr)     |
| 24. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | 2412/1150/5     | 31.07.1792        |                        |
| 25. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | SPi VI 28A 3095 | 1728-yil          | 86 varaq               |
| 26. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | SPi VI 28/4120  | 03.08.1684        | 65 varaq               |
| 27. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | 3520/2/496      | XVII-XVIII asrlar |                        |
| 28. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | Pi VI 321       | XVIII-XIX asrlar  |                        |
| 29. | Lahor     | Panjob universiteti kutubxonasi                 | O-102/7342      | XIX-XX asrlar     | 138 varaq (13-15 satr) |
| 30. | Jahoniyon | Asad Nizomiy nomli Maktabatul-Jamol kutubxonasi | raqamsiz        | 1819/20-yil       | 139 sahifa             |
| 31. | Navshahra | Rahimiya kutubxonasi                            | 1596            | 25.04.1883        | 124 sahifa             |
| 32. | Navshahra | Hoshimiy kutubxonasi                            | raqamsiz        | 28.09.1813        | 123 sahifa             |

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. دکتر ذبیح الله صفا. (1369). تاریخ ادبیات در ایران. ج 3. بخش دوم. تهران: کیهان.
2. دکتر علی محمد گیتی فروز. (1387). دیوان بدر چاچی. تهران: فرشیه.
3. Ganjbaxsh kutubxonasi qo'lyozma nusxalar katalogi. 3-jild. – B. 284-bet.
4. Ahmad Munzaviy. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar umumiy katalogi. 7-jild. – B.408.
5. Pokiston Milliy Arxivi forsiy qo'lyozma nusxalar katalogi, Islomobod. – B. 112
6. Pokiston forsiy qo'lyozma nusxalar katalogi. 3-jild. – B.408.
7. Pokiston milliy muzeyi forsiy qo'lyozma nusxalar katalogi. Karachi.
8. Balujiston milliy muzeyi forsiy qo'lyozma nusxalar katalogi. Kvetta. Pokiston.
9. Panjob universiteti “Abdulloh” qo'lyozma nusxalar katalogi. 2-jild. 1– B.65
10. Lahor Panjob universiteti kutubxonasi forsiy qo'lyozma nusxalar katalogi. Ozar bo'limi. – B.112.
11. Lahor Panjob universiteti kutubxonasi Shironiy qo'lyozma nusxalar katalogi. 1-jild.– B.65.

## BOBORAHIM MASHRAB BADIYYATIDA “MABDAYI NUR” POETIK KONSEPSIYASI

**Nishonova Xurshida Yusufjanovna,**

*O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Maqolada Boborahim Mashrabning “Mabdayi nur” (“Nurning boshlanishi”) asari badiiy-falsafiy jihatdan tahlil etiladi. Unda “nur” timsolining semantik qatlamlari, asosiy janr shakllari (masnaviy, g‘azal, mustazod) va poetik san’atlarning (tazod, talmeh, takror, murojaat) qo‘llanish xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, asarning Jaloliddin Rumi “Masnaviy”si bilan genetik aloqasi, mualliflik masalasiga oid ilmiy bahslar va “Mabdayi nur”ning o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Boborahim Mashrab, “Mabdayi nur”, tasavvuf, nur konsepsiyasi, g‘azal, mustazod, tazod, talmeh, Rumi.

**Kirish.** Boborahim Mashrab (1640–1711) – o‘zbek va turkiy xalqlar adabiyotida o‘ziga xos jo‘shqin, isyonkor va xalqchil she‘rlari bilan tanilgan mutasavvif shoir. Uning “Mabdayi nur” (“Nurning boshlanishi” yoki “Nur manbai”) asari ijodiy merosining markaziy o‘rinlaridan birini egallaydi. Ushbu matn uzoq vaqt mualliflik masalasida ilmiy tortishuvlarga sabab bo‘lgan, biroq keyingi manbashunoslik tekshiruvlari (Fitrat, 1926; Zokirov, 1966; Abdullaev, 1985) uning Boborahim Mashrab qalamiga mansubligini dalillar bilan isbotlagan.

Asar, avvalo, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”si ta’sirida yozilgani bilan ahamiyatlidir. Muqaddima qismida Rumiyning “Bishnav az ney chun hikoyat mekunad” bayti erkin tarjima va sharh qilinib, falsafiy-tasavvufiy zamin yaratilgan. Mashrab bu yo‘l bilan o‘zining g‘oyaviy izdoshligini va an’anaga sodiqligini ochiq ifodalaydi. Asarda vahdat al-vujud, insonning ilohiy asldan ayrilishi va unga qaytish istagi, nafs tarbiyasi, dunyodan kechish, tavoze va sabr kabi mavzular aks etgan. “Nur” timsoli orqali qalbda saqlanuvchi ilohiy zarra, haqiqat va ma’rifat anglashiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ushbu asarning she'riy tarkibi, ayniqsa g'azal va mustazodlari adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tizimli o'rganilmagan. Maqsad – “Mabdayi nur”dagi tasavvufiy mazmun, badiiy shakl, poetik uslub va janr xususiyatlarini hamda uning forsiy-turkiy adabiy an'analar bilan aloqasini ochish. Vazifalar: asarning tarkibiy-janriy tuzilishini aniqlash; “nur” konseptining semantik qatlamlarini belgilash; badiiy san'atlar tizimini tahlil etish; Rumiylar “Masnaviy”si bilan intertekstual bog'lanishni ko'rsatish; asarning mumtoz adabiyotdagi o'rnini baholash.

**Metodologiya.** Manba sifatida “Mabdayi nur: Saylanma (g'azallar va mustazodlar)” (Toshkent: “Fan”, 1994) nashri tanlandi. Qo'lyozma va tazkira manbalari, Fitrat, Zokirov, Abdullaev kabi olimlarning tadqiqotlari, shuningdek zamonaviy maqolalar (Badriddinova, 2024; Ruzmatzoda, 2019) bilan ishlandi.

Tadqiqotda tavsifiy-analitik, qiyosiy-tipologik, germeneytik va tekstologik usullar qo'llanildi. “Nur” konseptining ma'no maydoni konseptual tahlil asosida yoritildi. She'riy matnlar poetik (metrik va stilistik) jihatdan o'rganildi. Iqtiboslar lingvopoetik talqin qilindi. Natijalarning ishonchliligi manbalarning ilmiy tanlovi va metodologik izchillik bilan ta'minlandi.

**Natijalar.** “Mabdayi nur” 176 ta diniy-axloqiy hikoyat, 30 ta pandnoma parchasi, 35 ta g'azal, 2 ta o'zbek va 1 ta arab mustazodidan tashkil topgan. G'azal va mustazodlarda lirik kechinmalar, ishq, hijron va vasl manzaralari aks etgan. Asardagi “nur” leksemasi jami 47 marotaba besh semantik qatlamda qo'llangan: ilohiy manba, imon-ma'rifat nuri, payg'ambar va avliyolar nuri, asar nomi va ruhiy poklanish. “Zulmat”, “hijob”, “g'aflat” kabi qarama-qarshi tushunchalar bilan birga berilgan.

Badiiy san'atlardan tazod 25 marotaba, talmeh 30 marta, takror 40 marta, murojaat 35 martadan ortiq qo'llanilgan. Mashrab an'anaviy ramzlarni (ney, sham, parvona, gul) yangicha va ba'zan ochiq-oydin talqin etgan. Masalan: “Nay vujudi orifiy billohdur”.

“Mabdayi nur”da Rumiylarning g'oyalari va uslubi izchil davom ettirilgan, biroq turkiy tilda, xalqchil va qalandariy ruhda qayta talqin qilingan. Matnda



muallifga oid ishoralar (Namanganlik, Mashrab taxallusi, Ofoqxo'jaga bag'ishlash) asarning Mashrab qalamiga mansubligini tasdiqlaydi.

**Muhokama.** Mashrab g'azallarida markaziy o'rin ilohiy muhabbat ("ishq")ga tegishli. Bu mavzu soddaligi va ba'zan qo'pol ifoda bilan berilgan bo'lsa-da, poetik vositalarning yuksak mahorati saqlangan. "Azaldin men dili g'amgin xaloyiq xaylini sevdim" misrasida isyonkor ruhiyat yaqqol seziladi. O'lim va fano motivlari orqali o'zining "nur" manbaiga qaytish istagi ifodalangan.

Mashrab ramzlar tizimi an'anaviy (bulbul, gul, ney, sham, parvona) bo'lsa-da, ularga yangicha, ba'zan o'ziga xos qalandariy talqin beradi. Ney – an'anaviy ayriliq timsolidan "vujudi orifiy billoh" darajasiga ko'tariladi. "Sham'ni oldiga san parvona bo'lmangmi" misralari fidoyilikni aks ettiradi.

Asarning didaktik qismida kanoat, halollik, ilm va ma'rifatga da'vat, g'urur va takabburlikka qarshi keskin tanqid mavjud. "Yokungni tashla yo'lga befarosat korvondin qoch" – nodonlik va g'aflatdan uzoqlashishga chorlov. "Tabarruk ahliga zinhor salom alik demay o'tgil" misralarida ikkiyuzlamachilik fosh etilgan.

Mashrab poetikasida savol-javob, murojaat va undovlar muhim o'rin egallaydi. "Odam mulkiga kelding san, kumilmoq emdi sunnatdur" – o'lim muqarrarliligi va unga tayyor turish haqidagi pand-nasihati. Tazod va talmeh san'atlari keng qo'llangan. "Dunyoning mulkini obodligi tagida xarobi bor" misrasida dunyoviy saltanatning o'tkinchiligi ifodalangan. Qur'on qissalari va anbiyolar (Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad, Ali, Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham)ga tez-tez murojaat qilinadi.

Mustazodlar janri Mashrab ijodida alohida o'rin tutadi. Ushbu janrda u o'zbek mumtoz she'riyatining eng sarmahsul vakili hisoblanadi. Mustazodlardagi qisqa va uzun misralar almashinuvi, murojaat va undovlar ("Ey mahi jahonim", "Ey qaddi niholim", "Ey ruhi ravonim") lirik qahramonning kechinmasiga hayajon bag'ishlaydi.

"Kurmakka seni tun kechalar uyg'onadurmen, ey mohi jahonim... Ishq tig'i bila kesgali boshim havas etdim yo'lingga nigorim" – ushbu misralarda Mansur Hallojga ishora orqali ishq yo'lida fido bo'lish tayyorligi ifodalangan.

“Mabdayi nur”da dunyo va oxirat, fano va baqo, zohir va botin o‘zaro zid qo‘yilgan, biroq ularning birligi asosiy masala hisoblanadi. “Agar gavhar talab Mashrabdursan bel bog‘la himmatga” – gavhar (ma‘rifat)ni qidirishning o‘zi ulug‘ martabadir.

Asardagi isyonkor ruh rasmiy din peshvolari, amaldorlar va ikkiyuzlamachilarni ochiq tanqid qilishda namoyon bo‘ladi. “Kishi kaji yo‘lga ketsa, gar qo‘lingdan kelsa qaytargin” – bu yolg‘on va zulm yo‘liga qo‘shilmaslikka, haqiqat va adolat tarafida turishga da‘vatdir.

Tarixiy-genetik nuqtai nazardan, “Mabdayi nur” o‘zidan oldingi yirik tasavvufiy an‘ananing davomchisi. Rumiylar “Masnaviy”si bilan birga, Kubroviylar va Naqshbandiya ta‘limotidagi “nur” va “qalb” masalalari unga manba bo‘lgan. Mashrab bu an‘analarni xalq tilida, soddalik va jo‘shqinlik bilan ifodalagan. Uning she‘rlaridagi takrorlar, murojaatlar, buyruq gaplar xalq dostonchiligi va og‘zaki she‘riyatga yaqin turadi.

Bugungi kunda asarning ahamiyati nafaqat tarixiy-adabiy qimmatida, balki undagi ma‘rifat, haqiqat, kamtarlik va bag‘rikenglikka da‘vat etuvchi g‘oyalarning zamondoshlik jihatidadir. “Nafasi boricha urg‘in dastu po, shoyad qutulg‘aysan” – mardlik va matonatga undovchi satrlar. “Kishi oluda r‘olarga dilini bermasun hargiz” – hushyorlikka chorlov.

Mashrab she‘riyatida tasavvufiy maqomlar (tavoze, sabr, rizo, tavba, fano) aniq talqin etilgan. “Qazo‘ga rozi bo‘lgonlarni san boshtin aylagin” – rozi va sabr maqomining aksi. “Qalb”, “ruh”, “sir” kabi latifalar orqali inson ichki dunyosi tahlil qilingan.

Asar xalq orasida keng tarqalgan, she‘rlari ko‘plab qo‘shiqlarga aylangan. Aforistik ifodalar (“Qanoat abruyi ikki dunyodur”) alohida hikmat sifatida yodlangan. So‘z boyligida forsiy va arabiy so‘zlar bilan birga sof o‘zbekcha, qarluq-chigil va uyg‘ur lahjalariga oid birliklar uchraydi. “Tariqat”, “ma‘rifat”, “haqiqat”, “shariat” terminlari muayyan semantik yukni ifodalaydi.

Vazn jihatidan asosan ramali musaddasi maqsur (mafʼulun mafʼulun mafʼulun) va hazaji musaddas (mafoʼilun mafoʼilun mafoʼilun) bahrlari qoʻllangan. Mustazodlardagi jarli vazn xalq ashulalari va maqom yoʻllari bilan bogʻlanadi.

Asarning badiiy tuzilmasida takror (olmoshlar va soʻroq soʻzlar), buyruq feʼllari (“qani”, “kel”, “qil”, “tut”) pand-nasihat uslubining taʼsir kuchini oshiradi. Qahramonlar tipologiyasi: oshiq (tolib), maʼshuq (Haq), raqib (nafs, shayton), murshid (pir).

**Xulosa.** Boborahim Mashrabning “Mabdayi nur” asari mumtoz oʻzbek adabiyotining yirik namunalaridan biri boʻlib, unda tasavvufiy-falsafiy fikr, xalqchilik, shoirona joʻshqinlik va pandnomaviy yoʻnalish uygʻunlashgan. Asarda inson ruhining oʻz asli – nur manbaiga qaytish istagi, nafs va dunyoviy vasvasalarga qarshi kurash, tavoze va sabr orqali kamolotga erishish gʻoyasi aks etgan. Mashrab uslubi soddaligi, ohangdorligi va taʼsirchanligi bilan ajralib turadi. Asar keyingi davr adabiyotiga kuchli taʼsir koʻrsatgan va hozir ham maʼnaviy tarbiya, badiiy zavq manbai sifatida ahamiyatini yoʻqotmagan. Qoʻlyozma nusxalarni qiyosiy tekstologik oʻrganish va sheʼrlarning ilmiy sharhini yaratish dolzarb vazifadir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boborahim Mashrab. Mabdayi nur: Saylanma (gʻazallar va mustazodlar) / Nashrga tayyorlovchilar: G. Niyozov, Q. Ahmedov; Masʼul muharrirlar: H. Muhammadxoʻja oʻgʻli, I. Abdullaev, M. Hasanii. – Toshkent: Fan, 1994. – 35 b.
2. Abdullaev I. Mashrab ijodining falsafiy asoslari // Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 1985. – № 4. – B. 3–9.
3. Badriddinova N. S. Boborahim Mashrabning “Mabdai nur” asaridagi tasavvufiy tushunchalarning falsafiy tahlili: falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2024. – 54 b.
4. Fitrat A. Mashrab // Oʻzbek adabiyoti tarixi masalalari. – Samarqand: Samarqand davlat nashriyoti, 1926. – B. 45–67.
5. Gʻulom Gʻ. Ikki Mashrab // Qizil Oʻzbekiston gazetasi. 1959, 12 iyul. – № 156. – B. 3.
6. Muhammadxoʻja oʻgʻli H. Boborahim Mashrab hayoti va ijodiga oid yangi maʼlumotlar // Sharq yulduzi jurnali. – Toshkent, 1992. – № 8. – B. 178–184.
7. Ruzmatzoda K. Mabdayi Nur is an Important Source of Research Sufian Teaching in Islam Central Asia Period of XVII–XVIII Centuries // Theoretical & Applied Science. – Philadelphia (USA), 2019. – Vol. 80, No. 12. – P. 45–49. DOI: 10.15863/TAS.2019.12.80.8
8. Vyatkin V. V. Fargʻonalik mistik shoir – devonai Mashrab // Professor A. E. Shmidt sharafiga bagʻishlangan ilmiy toʻplam / Pod red. V. V. Bartolda. – Toshkent: Oʻrta Osiyo davlat nashriyoti, 1926. – B. 112–119.

9. Zokirov M. Boborahim Mashrab: hayoti va ijodi / Mas'ul muharrir: I. Abdullaev. – Toshkent: Fan, 1966. – 152 b.
10. Zokirov M. Mashrab g'azallarining badiiy xususiyatlari // O'zbek tilining uslubi va badiiy nutq masalalari. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 88–102.
11. Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy (6 jildli). – Tehron, 1925. – 1-jild. – B. 1–25.
12. Qur'oni Karim. Nur surasi (35-oyat), “Inno fatahno”, “Subhanallazi isro” suralari.
13. Pirmat Setoriy. Qissai Mashrab / Nashrga tayyorlovchi: H. Razzoqov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. – 48 b.
14. Namonjoniy M. Tazkiratul-avliyo (qo'lyozma). – O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondi, inv. № 9876. – 148 varaq.
15. Bog'istoniy I. Tazkirayi qalandaron (toshbosma). – Qozon, 1908. – 82 b.
16. Samarqandiy M. (Badeho Maleho). Muzakkir ul-ashob (qo'lyozma). – O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondi, inv. № 456. – 210 varaq.
17. Hakimxon. Muntahab ut-tavorix (toshbosma). – Qozon, 1905. – 156 b.
18. Shamsiev P. Mashrab va uning adabiy merosi // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. – Toshkent, 1958. – № 3. – B. 35–42.

## NAVOIY G'AZALIYOTIDA O'XSHATISHGA ASOSLANGAN SHE'RIY SAN'ATLAR XUSUSIDA

**Xoshimova Gavharoy Xayrullo qizi,**

*NamDU tayanch doktoranti*

**E-mail:** [xoshimovagavharoy0@gmail.com](mailto:xoshimovagavharoy0@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning g'azallarida qo'llangan o'xshatishga asoslangan she'riy san'atlar – tashbeh, isti'ora, kinoya va tamsilning lingvopoetik tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi besh yuzdan ziyod g'azaldan 120 ta namuna tanlab olinib, o'xshatish san'atlari tarkibiy-funksional jihatdan o'rganilgan. Natijada Navoiy g'azaliyotida isti'oraning hukmron o'rin egallashi, tabiat obrazlari – gul, sham, parvona, bulbul timsollarining ruhiy-falsafiy ma'nolar bilan boyitilib qo'llanishi, o'xshatishning lirik subyekt va ma'shuqa munosabatini ifodalashda asosiy vosita ekanligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Navoiy, g'azal, tashbeh, isti'ora, o'xshatish, she'riy san'at, poetika, lirik obraz.

**Abstract.** This article presents a linguopoetic analysis of simile-based poetic devices – tashbeh (simile), isti'ora (metaphor), kinoya (allusion) and tamsil (allegory) – as employed in Alisher Navoi's ghazals. Drawing on 120 selected ghazals from the “Khazayin ul-Maoniy” corpus of over five hundred poems, the

study examines these devices in terms of their structural and functional characteristics. The findings reveal that metaphor (*isti'ora*) occupies a dominant position, that nature-derived images – flower, candle, moth, nightingale – are imbued with spiritual and philosophical meanings, and that simile functions as the primary means of expressing the relationship between the lyrical subject and the beloved.

**Keywords:** Navoi, ghazal, tashbeh, *isti'ora*, simile, poetic device, poetics, lyrical image.

**KIRISH.** Alisher Navoiy (1441–1501) – o‘zbek adabiyotining ulkan namoyandasi va klassik she‘riyatning tengsiz ustasi sifatida sharq poetikasida tashbeh (o‘xshatish) san‘atini yangi darajaga ko‘targan ijodkordir. Uning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiruvchi to‘rt devon – “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoye ul-vasat” va “Favoyid ul-kibar” – o‘zbek g‘azaliyoti tarixidagi badiiy yuksaklikning beqiyos namunasi hisoblanadi.

She‘riy san‘atlar, xususan, o‘xshatishga asoslangan tashbeh, *isti'ora*, kinoya va tamsil klassik sharq poetikasi tizimining poydevori sifatida tan olingan. Arab-fors poetika ilmida Ibn Muta'zdan boshlab (IX asr) Rashididdin Vatvot (XII asr), Shams Qays ar-Roziy (XIII asr) va Navoiyning o‘z she‘riyat nazariyasi asari “Mezon ul-avzon” (1492) gacha bu san‘atlar tizimli o‘rganib kelingan.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida Navoiy poetikasi keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, o‘xshatishga asoslangan san‘atlar g‘azaliyot kontekstida yaxlit, tizimli tahlilga kam tortilgan. Mavjud ishlar ko‘proq alohida tropdagi o‘xshatish holatlarini tavsiflash bilan cheklangan [Qodirov, 2018; Xoliqov, 2020]. Shu bois ushbu maqolada Navoiy g‘azallarida o‘xshatish san‘atlarining lingvopoetik tizimi yaxlit holda o‘rganiladi.

Navoiy g‘azaliyotida o‘xshatishga asoslangan she‘riy san‘atlar butun badiiy tizimning asosini tashkil etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tashbeh, *isti'ora*, kinoya va tamsil – bu to‘rt san‘at turi Navoiy g‘azallarida bir-biridan uzilgan bezak vositalari emas, balki yaxlit poetik tizimning o‘zaro bog‘liq qismlari sifatida

namoyon bo‘ladi. Ularning orasida isti'ora keskin ustunlik qiladi va Navoiy lirik tafakkurining asosiy quroliga aylanadi.

Tashbeh – mushabba bih (o‘xshatilayotgan narsa), mushabba (o‘xshatiluvchi), vaj ush-shabah (o‘xshatish belgisi) va adat ut-tashbeh (o‘xshatish yo‘l-belgisi) kabi to‘rt tarkibiy qismdan iborat klassik o‘xshatish san’atidir. Navoiy g‘azallarida tashbehning ustuvor modeli tashbeh bil-kof – “kabi”, “yanglig” yuklamalari orqali qurilgan to‘liq o‘xshatish – hisoblanadi. Bu model lirik ifodaga ravshanlik va ishonchlilik baxsh etadi.

Tashbeh semantikasi tabiat va kosmik obrazlar olamiga mustahkam tayanadi: gul, oy, quyosh, shamol kabi timsollap asosiy o‘xshatish zanjirini hosil qiladi. Ikkinchi darajada moddiy dunyo buyumlari — sham, oyna, shisha, durr — kelsa, inson tana-holat tasvirlari uchinchi qatlamni tashkil etadi. Bu ierarxiya Navoiy poetik tafakkurida tabiat bilan ruhiy dunyo orasidagi analogiyaning markaziy tashkilovchi prinsip ekanligini isbotlaydi.

***Za’fdin bukim yiqilmishmen qilurmen poybus,***

***Sarvdek ollimda qaddingning xayolin turg‘uzub***

Keltirilgan baytda mushabba (o‘xshatiluvchi) – ma’shuqaning qaddi, mushabba bih – sarv daraxti, vaj ush-shabah – tikligi va ulug‘vorligi, adat – “dek” qo‘shimchasi. To‘rtta tarkibiy qism aniq ifodalangani bu baytni murakkab (muqayyad) tashbehning namunaviy ko‘rinishi darajasiga ko‘taradi. Sarv daraxti obrazi o‘zbek va fors she’riyatida ulug‘vorlikning muqim timsoliga aylanib ulgurmagan edi – Navoiy uni ma’shuqa qaddi bilan qo‘shib, bu obrazga shaxsiy va lirik nafas beradi.

Isti’ora — tashbehning qisqartirilgan va yuqori badiiy to‘yinganlikka ega shakli bo‘lib, unda mushabba yoki mushabba bih tilga olinmay, faqat biri kontekst vositasida anglatiladi. Navoiy g‘azaliyotida isti'ora barcha o‘xshatish san’atlari ichida yaqqol hukmronlik qiladi. Isti’oraning ikki turi bir xil faollik bilan ishlatiladi: isti’ora musarriha (aniq metafora) va isti’ora makniya (yashirin metafora) – ikkalasi ham Navoiy badiiy tizimida o‘ziga xos funksional yuklarni bajaradi.

Navoiy isti'oralarida “olov” semantik arxetipi eng mahsuldor maydonni tashkil etadi: sham (yorug‘lik va so‘nmas intilish), parvona (ishq va fido) hamda atash (dard-alam) obrazlari bir-biri bilan semantik birlik hosil qilib, g‘azaldan g‘azalga o‘tib yuradi. Bu Attor va Rumiyan boshlanadigan parvona-sham allegoriyasining Navoiy qo‘lida o‘zbekona ruh va shaxsiy lirik ovoz bilan boyitilib qayta yaratilganini ko‘rsatadi.

*Otashin ruxsori kuydurma elni asrukim,*

*Sham' yuz parvonani o'rtar, o'zi ham o'rtanur*

Bu baytda “sham” va “parvona” obrazlari isti'ora musarriha sifatida ishlatilgan: “sham” – ma’shuqa, “parvona” – oshiq, “o‘t” – dard-alam. Ikki obrazning parallelizmga asoslanib kelishi isti'oraning baytdagi simmetrik tuzilishini yaratadi. Shoir bu yo‘l bilan olov yonasida turuvchi ikkala jandonning – sham va parvonaning – bir xil kuyishini tasvirlaydi; zotan, ishqda kimning qurboni ko‘proq – degan savol o‘zining javobi bilan birga yashirinadi.

Kinoya – so‘zning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosidan chetlab, yashirin ma’noni ko‘zda tutadigan san’atdir. Navoiy g‘azallarida kinoyaning asosiy funksiyasi ma’shuqa sifatlarini bevosita nomlamasdan ulug‘lashdir – bu esa Navoiy lirik “men”ining ma’shuqa oldidagi ojizligi va hayratini ifodalaydigan yashirin tilga aylanadi. Masalan, “ko‘zlaring – baliq” kinoyasi ma’shuqaning ko‘z o‘qlarining yurakni ovlaydigan kuchini anglatadi, ayni paytda bevosita ta’rif aytilmagan holda ko‘proq narsani aytib beradi.

Tamsil Navoiy g‘azaliyotida tasavvuf falsafasining eng teran jihatlarini ifodalashning asosiy quroliga aylanadi. Bulbul va gul – ruh va haqiqat orasidagi azaliy intilishning ramzi; mast va mayhona – oshiq ruhning ilohiy sevgi o‘tida erishiga ishora; may – ma’rifat nurining to‘lib-toshgan belgisi. Bu tamsillar Navoiyning tasavvufiy g‘azallarida ikki qatlamli ma’no tizimi yaratadi: zohiriy qatlam – ishq va tabiat manzarasi, botiniy qatlam – ruhning Haqqa intilishi. Ikkala qatlam o‘quvchi ongida bir vaqtning o‘zida faollashadi.

*Sensizin ko‘nglum tong ermas bo‘lsa jannatdin malul,*

*Ne ajab bulbulg‘a guldin ayru bo‘stondin malol.*



Bu baytda “bulbul” – ruhiy izlovchi (oshiq), “gul” – mutlaq haqiqat (Iloh yoki ma'shuqa). Tamsil ko'p qatlamli semantik tuzilish yaratar ekan, baytning zohiriy ma'nosi (tabiat manzarasi) va botiniy ma'nosi (ruhiy izlanish) bir-birini boyitib, ikki qatlamli badiiy obraz hosil qiladi.

Navoiy g'azaliyotida o'xshatish san'atlari – alohida-alohida bezak vositasi emas, balki lirik dunyoqarashni yaxlit ifodalovchi poetik tizim sifatida ishlaydi. Bu tizimning markazida isti'oraning hukmronligi turadi.

Navoiy isti'oralarida tabiat-ruh analogiyasi tamoyilining asosiy tashkilovchi prinsip bo'lishi (o'xshatish namunalarning asosiy qismi tabiat obrazlariga asoslanishi) tasavvuf falsafasining poetik tafakkurga o'tishi sifatida talqin qilinishi mumkin. Aynan shu jihatdan Navoiy poetikasi Jaloliddin Rumiy va Farididdin Attorning tabiat-ruh analogiyasi an'anasini o'zbek she'riyati ruhiga singdirgan holda o'ziga xos yaratuvchilik qilganligi yaqqol ko'rinadi [Hamroyev, 2021].

Tashbeh va isti'ora orasidagi munosabat Navoiy ijodida qiziqarli bir xususiyat namoyish etadi: ko'p holda bir baytda ular birgalikda keladi — tashbeh baytning birinchi misrasida asosiy o'xshatishni belgilab qo'ysa, isti'ora ikkinchi misrada uni yanada chuqurlashtiradi yoki qayta kashf etadi. Bu “o'xshatish progressiyasi” Navoiy she'riy uslubining o'ziga xos xususiyati sifatida ilmiy muomalaga kiritilishi lozim.

Kinoya va tamsilning nisbatan kam uchrashi ulug' shoirning badiiy ifodaning bevositaroq (lekin yashirin ma'no yuklangan) shakllarini afzal ko'rishini anglatmaydi; balki bu o'xshatish turlari mazmunli ishlatilgan o'rinlarda alohida semantik yukni ko'taradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahmadi.R. Metaphorical structures in Hafiz's ghazals: A cognitive approach. *Journal of Persian Literature Studies*, 2016. 14(2). –P. 45–68.
2. Dehqon. A. Rumi's allegorical system in Masnavi. *Iranian Studies Quarterly*, 2019.52(3).–P. 112–134.
3. Hamroyev B. O'zbek klassik she'riyatida tasavvuf va tabiat obrazlari // O'zbek tili va adabiyoti, 2021,4-son. – B.22-31.
4. Koshifiy H. Badoe' us-sanoe'. –Toshkent: Fan,1961.
5. Navoiy A. Xazoyin ul-maoniy.1–4 jildlar. – Toshkent: Fan,1987.
6. Navoiy A. Mezon ul-avzon. –Toshkent: Fan,1966.
7. Qodirov P. Alisher Navoiy g'azallarida badiiy san'atlar. –Toshkent: Akademnashr, 2018.

8. Qayumov A. O'zbek adabiyoti tarixi.4-jild. –Toshkent: Fan, 2015.  
9. Shams Qays ar-Roziy. Al-Mujam fi maoyir ash'or al-ajam. –Tehron: Suxan, 2012.  
10. Xoliqov S. Navoiy she'riyatida tashbeh va isti'ora: qiyosiy tahlil. –Toshkent: Sharqshunoslik, 2020. –B 58–72.

## HAMIDJON HOMIDIY – NAVOIYSHUNOS

**Rohatoy Sheraliyeva**  
*NamDU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada serqirra adabiyotshunos olim Hamidjon Hamidovning ilmiy izlanishlari hamda Firdavsiyning “Shohnoma” asarini o'rganish barobarida mutafakkir shoir Alisher Navoiyning ijodiga mehr-muhabbat bilan qarashi, asarlarida yuksak e'tirof etishi ko'rsatilgan. Ustozning navoiyshunosh olim sifatida uning asarlarini mukammal o'rgangani bois, “Ajdodlar sabog'i – aql qayrog'i”, “Mashriqzamin – hikmat bo'stoni” kabi kitoblarning yaratilishi fikrimizning dalilidir. Ushbu durdona ma'naviyatning ilk ildizlari bilan sug'orilgan kitoblarni varaqlar ekanmiz, mashriqzamin diyorida yashab o'tgan ajdodlarimizning o'zidan qoldirgan sermazmun hikmatlariga borib, aks sado berishi haqiqatdir.

**Kalit so'zlar:** Firdavsiy, “Shohnoma”, siymo, ilmparvar, serqirra pedagog, yirik olim, Sharq adabiyoti, “Muhokamat ul-lug'atayn”, “masnaviyda ustodi fan”, “Faroyib us-sig'ar”, she'riyat maydonining bahodiri, Alisher Navoiy, hikmatli so'zlar, komil, mashriqzamin, ajdodlarimiz, rizo, ixlos, riyoat.

**Abstract:** This article shows the scientific research of the versatile literary scholar Hamidjon Hamidov and the study of Firdawsi's "Shahnama" and the way the thinker poet Alisher Navoi treated his work with love and high recognition in his works. Since the master, as a Navoi scholar, thoroughly studied his works, the creation of the books "Ajdodlar sabogi - aql kayrogi", "Mashriqzamin - hikmat bo'stoni" is evidence of our idea. As we leaf through these masterpieces, we see that the first roots of our spirituality go back to the rich wisdom left by our ancestors who lived in the land of the East and resonate with them.

**Keywords:** Firdawsi, "Shahnama" figure, scholar, erudite, educator, great scholar, Eastern literature, "Muhokamat ul – lug'atayn", "master of science in

masnavi", "Faroyib us – sig‘ar", hero of the poetry field, Alisher Navoi, wise words, perfect, eastern land, our ancestors, consent, sincerity, discipline.

Professor Hamidjon Homidov bir umrlik sermazmun hayotini adabiyotshunoslik fanining rivojiga bag‘ishlagan serqirra olimlardan biridir. Ustozning mohir pedagog va yirik olim sifatida yoshlarni tarbiyalash va ularni ilm-fanga yetaklash sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. Olimning ilmiy tadqiqotlarining aksariyati Sharq xalqlari adabiyotining bahstlab va yetarli o‘rganilmagan muammolariga bag‘shlangani bilan ajralib turishi ham ustozning qomusiy bilimlar egasi ekanidan dalolat beradi. Kamtarin, ochiq ko‘ngil, insonlarga yaxshilikni ravo ko‘rishi, mehribonligi ustozning yuksak fazilatlaridan biridir.

Hamidjon Homidiy Sharq adabiyotining ulkan siymolaridan biri Firdavsiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlari: Firdavsiy an‘analarining o‘zbek mumtoz adabiyotidagi jilvalarini kuzatishga yo‘naltirilgan yirik ilmiy risolalari, Firdavsiy va hazrat Navoiy ijodini o‘zaro adabiy aloqalar asosida qiyosiy tahlil qiluvchi o‘nlab ilmiy maqolalari, dissertasiya ishi olim ijodining ikki qardosh millat adabiyoti va ma‘naviyatini tutashtiruvchi ulkan daryoga qiyoslash imkonini beradi.

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy Firdavsiy ijodiga mehr-muhabbat bilan qarab, o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “masnaviyda ustodi fan” deb atagani, “Faroyib us-sig‘ar” dostonida esa unga “she‘riyat maydonining bahodiri “, - deb yuqori baho bergani ta‘kidlanadi.

Hamidjon Homidiyning “Ajdodlar sabog‘i – aql qayrog‘i” (1998) nomli kitobini varaqlaganimizda: dunyo madaniyatining beshigi bo‘lgan Sharqda ijtimoiy tuzumning qaysi bosqichi bo‘lmasin shaxsni har tomonlama kamol toptirish muammosi yetakchi o‘rinni egallab kelganini ko‘ramiz. Islom dini vujudga kelgan kundan boshlab fikrlovchi, komil, yaratuvchi, bezarar insonni tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ygan. Sahovat, halimlik, kechiruvchanlik, rizo, sabr, ixlos, riyozat, zakot berish, ro‘za tutish kabi qarz-u farz tarbiyaning o‘ziga xos usullaridir.

Buni hazrat Navoiydan eshiting: “Bu toifa anga kushish qilurkim, andog‘i, yemak, ichmakdin bo‘g‘uzga savm buyurg‘aylar jamei a‘zolarga o‘z qilur fe‘llaridin ro‘za buyurg‘aylar: ko‘zga nomashru‘ nimaga boqardin, quloqqa nomashru‘ un eshiturdin va ayoqqa nomashru‘ qadam urmog‘din, ilikka nomashru‘ nima (nohalol) tegmagidin va alohazo jomei a‘zog‘a bu dastur bila. Va bovujudi bu suubatlar barchadin sa‘broq ko‘ngul ro‘zasidurki, haq subhonahu va taolodin o‘zga hech nima xotirg‘a kechmakdur va ro‘zani doimiy ko‘ngilga buyururlar”.

Zakot, yetim – yesirlarga xayr – sadaqa berish, yaxshilik qilganga yaxshilik bilan javob berish, kattaga hurmat, kichikka izzat ko‘rsatish, shirin til bo‘lish kabi fazilatlar ko‘rsatiladi. Olijanob, kamtar bo‘lgan bu toifa odamlar qila olmaydigan sehr – karomatlarga ega bo‘lganlar. Ular bunga uzoq vaqt bilim olish, mashq qilish, riyozat chekish orqali erishganlar. Ko‘rmagan narsasini his qilib aytib berish, hayvon va o‘simliklar tilini tushunish, suv ustida yurish, yomg‘ir yog‘dirmoq, shamol estirmoq, biyobonlarda yo‘ldan adashganlarga yo‘l ko‘rsatmoq, ularning “havoriqi odot va karomatlari” dan hisoblanadi. Bu toifalar ta‘limoti islomdan ruh va oziq olgan tasavvuf deb ataladi. Unga mansub buzruklar avliyolar, so‘filar, deb yuritiladi. Ularning mo‘tabar shoirlaridan biri:”Dil ba yoru dast bakor”(dilda xudo bo‘lsun, qo‘l ish bilan bo‘lsun). Bunday ulug‘ insonlar haqida “Sharh ul - qulub”, “Kashf ul - asror”, “Mag‘rifat ul - nafs”, “Taboqat us - so‘fiya” nomli kitoblarda rivoyat va hikoyat juda ko‘p.

Abdulloh Ansoriy (XI asr), Farididdin Attor (XII asr), Yusuf Hamadoniy (XIII asr), Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy hamda Muhammad Ya‘qub Yorkandiy (XIX asr) kabi ulug‘ adiblar ham avliyo va asfiyo zikrida qimmatli meros qoldirganlar.

XIX asrda yashab ijod qilgan nosir, shoir va mutarjim, fan olamiga hali ma‘lum bo‘lmagan mutafakkir Muhammad Siddiq Rushdiyning “Tazkirat ul – avliyai turkiy” kitobi ham ana shu afsonaviy qobiliyat va salohiyat egalari to‘g‘risidagi ulkan yodgorliklardan biridir. Mazkur qo‘lyozma shayx Boyazid Bostomiy haqida bo‘lib, uning fe‘l – atvori, zamonasida tutgan o‘rni va u haqidagi hikoyat, rivoyat va xotiralar bilan birga hayoti to‘g‘risidagi axloqiy, estetik

mushohadalarga boy hikmatli soʻzlarini keltiradi. Tazkirada uning qaysi yili tugʻilib, qachon vafot etganligi va boshqa biografik maʼlumotlar yoʻq. Bunga aniqlik kiritishga toʻgʻri keladi.

Alisher Navoiy oʻzinng “Nasoyim ul – muhabbat fi shamoyim ul - futuvvat” tazkirasida Boyazid haqida ayrim maʼlumotlar beradi. Unda aytilishicha, shayxning toʻliq ismi Abuyazid ibni Isodir. U VIII asrning oxirgi choragida Bostom shahrida zardoʻshtiy eʼtiqodidagi koxin oilasida dunyoga kelgan. Xijriy 261(melodiy 857) yili ona shahrida vafot etgan. Makka, Hamadon shaharlarida taʼlim olgan. Abu Hafz, Yahʼyo Mooz hamda Shaqiq Balxiy kabi zamonasining ulugʻlari suhbatida boʻlib, tasavvufning “tayfuriya” mazhabini yaratgan, “fano va baqo” taʼlimotiga asos solgan. U koʻplab ilmiy asarlar muallifidir. Muhammad Siddiq zikriga koʻra uning xislatlari: haqgoʻy, toʻgʻri soʻz, insonparvar, chidamli, sabrli, jismonan chiniquqan va shu bilan birga ota – onani hurmat qilish, doimo xizmatida turishni barcha fazilatlardan ustun qoʻyganligini aytadi. Ilmni boylik orttirish, zulm oʻtkazish vositasiga aylantirishga qarshi qoʻyib, xiyonat qilish, ozor berishni gunoh hisoblaydi, oʻzi bunga amal qiladi. Yana uning ruhshunos ekanligini ham taʼkidlaydi. Bostomiy haqida tazkiralardagina emas, sheʼriy asarlarda ham turli rivoyat va hikoyatlar yaratildi.

Alisher Navoiy “Xamsa” asarida buyuk faylasuf insonning yorqin obrazini yaratgan: “Oriflik – Xudoning tanimakdir, xudoni tanimak – fikr qilmoq, toʻla koʻngilda boʻlmoqdir”,- deydi Boyazid. Bu avvalo faylasufning oʻzi haqidagi fikrdir.

Ha, mashriqzamin – hikmat boʻstoni, oriflar sultoni – Boyazid Bostomiy ana shu boʻstonning barhayot bogʻbonlaridan biridir. Mashriqzamin diyorida yetuk, ilimli, moʻtabar bobolarimiz yashab, oʻzlaridan ulkan maʼnaviy meros qoldirganlar. Ana shu buloqdan bir chashma olgan uztoz bugungi maʼnaviy kamolotimizni rivoji uchun dasturul amal yoʻlini ochib berishga intilganlari tahsinga loyiq ish.

Ustozning mazkur kitobi Sharq mutafakkirlarining hayoti va ijodiy merosi haqida fikr va mulohazalarga boy boʻlib, kelajagimiz egalari hisoblangan yosh

avlodni ajdodlarimiz merosiga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga chinakam mehr ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Hamidjon Homidiy va Mahmud Hasaniyning “Mashriqzamin - hikmat bo’stoni” (to’ldirilgan ikkinchi nashri, 2008 yil) nomli kitobida barcha ilm ahli namoyandalari hikmatlaridan, mualliflar va manbalar haqida muxtasar ma’lumotlar, lug‘at hamda izohlar keltirilgan. Hikmat bo’stonidan bahra olgan kitobxon dur – u, gavhar egasi bo’lishi tabiiy. Hikmatlardan keltiramiz.

*Bir kuni Buqrotidan:*

- *Odobli bilan odobsizning o’rtasidagi farq qanday? – deb so’radilar.*  
- *Gapiradigan hayvon bilan gapirmaydigan hayvon orasidagi farq kabi, - deb javob berdi Buqrot.*

*“Favoqih al - julaso”.*

*Degul inson desang ani ne ajab,*

*Bo’lmasa qirq yasharda aqlu adab.*

*Sayfi Saroyi.*

Yuksak ma’naviyatning shakllanishi ajdodlarimizning pand - nasihatlarini ildizlaridan bahra oladi. Yuqoridagi keltirilgan hikmatlarda o’z aksini topgan.

Zehniy, Yusuf Xos Hojib, Almaiy, Muiniddin Juvayniy, Sayfi Saroyi, Abu Nasr Farobiy, Xoja Samandar Termiziy, Oraziy, Abdulla Avloniy, Koshifiy, Haydar Xorazmiy, Tolibiy, Mahmud Qoshg’ariy, Motrudiy, Farididdin Attor, Roqim, Abu Rayhon Beruniy, Nizomiy Ganjaviy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy kabi allomalarning pand – nasihatlarini, hikmatlari, hadis va otalar so’zi o’rin olgan. 27 mavzu asosida berilgan. Alisher Navoiyning turli mavzulardagi hikmatlaridan 107 tasi mavzular asosida keltirilgan. Hamidjon Hamidov barcha allomalarimiz qatorida hazrat Navoiy ijodini ham puxta bilgan navoiyshunos olimlardan biridir. Navoiy asarlaridan jamlangan hikmatlar esa boy ma’naviyatimizning durdonalaridandir.

1. “Odob, ta’lim – tarbiya, iste’dod foydalari hamda beodoblikdan yetadigan zarari”: 3 ta hikmat .

*Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u bu barokatdin umrbod bahramand bo'ladi. (4 –bet)*

2. “Olim, ilm, kitob, qalam, ustoz, kasb – hunar, yaxshi fazilatlar”: 12 ta hikmat.

*Kishikim qilsa olimlarga ta'zim,*

*Andoqki qilur payg'ambarga ta'zim. (18 – bet)*

3. “Ota – ona, oila, qarindosh va qo'shnilar”: 1 ta hikmat.

*Boshni fido qilg'il ato boshig'a,*

*Jismni qil sadqa ano qoshig'a.*

*Tun – kunningga aylagali nurfosh,*

*Birisin oy angla, birisin quyosh. (44 –bet)*

5. “Do'st, do'stlik qoidalari, do'stu – dushmani farqlay bilish”: 3 ta hikmat.

*Kimniki aylay der ersang mahraming,*

*Ko'p sinamay aylamagil hamdaming. (77 – bet)*

6. Aql, aqlning fazilatlar, donolikning foydasi hamda nodonlikning zarari”: 5 ta hikmat.

*Nechaki xirad ichra bo'lsa kami,*

*Yilondin yamonroq emas odami. (100 – bet)*

7. “Xalq, Vatan, safar, sayohat, yoshlik, yigitlik, keksalik”: 3 ta hikmat.

*Odamiy ersang, demagil odami,*

*Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami. (122 – bet)*

10. “Xushxulqlik, shirinso'zlik, rahm – shavqat, muryvvatning foydasi, minnatning zarari”: 2 ta hikmat.

*Yomon so'zki kelib jong'a urg'ay,*

*Ki jondin ham o'tub imong'a urg'ay. (160 – bet)*

11. “Va'da, va'daga vafo, hayo, iffat va kamtarlik”: 3ta hikmat.

*Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q. (179 – bet)*

12. “Yaxshilik, yomonlik, to'g'rilik va egrilik”: 9 ta hikmat.

*Ki har kim ayon etsa yaxshi qiliq,*



*Yetar yaxshilikdin onga yaxshiliq. (186 – bet)*

13. “So‘z, so‘zlash qoidasi, o‘ylab gapirish, tilni tiyish, sukut bayonida”:  
27 ta hikmat .

*Imkoni bor har bir yaxshilik – so‘z orqalidir. (198 – bet)*

14. “Izzat, obro‘, ulug‘lik, qadr – qimmat, buyuklik, amal, baxt - saodat”:  
1 ta hikmat.

*Kimki, ulug‘roq anga xizmat kerak,*

*Kimki, kichikroq anga shafqat kerak. (225 – bet)*

16. “Sabr, chidam, qanoat, umid bayonida”: 1 ta hikmat.

*Sabr bila bog‘liq ish ochilur,*

*Ishda oshiqqan ko‘p toyilur. (247 – bet)*

17. “Takabburlik, xudbinlik, g‘araz, riyo, kamtarlik, tamagirlik”: 2 ta  
hikmat.

*Odam o‘lg‘on zebi zohirdin emas,*

*Kimki andin faxr etar, odam emas. (261 – bet)*

18. “Pandu – nasihatga quloq tutish va maslahatlashib ish ko‘rish”: 1 ta  
hikmat.

*Nosihi sodiq erurki beg‘araz,*

*Bil anga olamda topilmas evaz. (264 – bet)*

19. “Baxillik, badnafslilik, ochko‘zlik, hasad, xasislik”: 2 ta hikmat.

*Izzat bermas, naqdu diram borligi,*

*Kim bo‘ldi tama‘din kishining xorligi. (291 – bet)*

20. “Saxovat, himmat, oliyjanoblik, hadya, shodlik haqida”: 2 ta hikmat.

*Birovkim anga himmat o‘ldi baland,*

*Erur odam ahli aro arjumand. (301 – bet)*

21. “Oz va ko‘p yeyish qoidalari, ichkilik, salomatlik, tabiblar”: 5 ta hikmat.

*Ko‘p demak birla bo‘lmag‘il nodon,*

*Ko‘p yemak birla bo‘lmag‘il hayvon. (306 – bet)*

22. “Uylanish, er – xotin, yaxshi ayollar xususida”: 3 ta hikmat.

*Aylar ishingga chu bo‘lur dastras,*

*Vaqtidin o'tkarma ani bir nafas. (320 – bet)*

23. “Sir saqlash va tilni tiya bilish”: 1 ta hikmat.

*Agarchi til saqlamoq ko'ngulga og'irdur, ammo*

*So'zni sochib yubormoq boshga ofatdur. (333 – bet)*

24. “G'iybat, tuhmat, bo'hton, o'g'rilik, omonatga xiyonat xususida”: 4 ta hikmat.

*Har kishiningki so'zi yolg'on,*

*Aylama bovar necha kim chin desa. (340 – bet)*

25. “Adolat, haqiqat, insof, xato, gumon, shoshqaloqlik, o'ylab ish qilish haqida”: 6 ta hikmat.

*Aql ila olam yuzin obod qil,*

*Xulq ila olam elini shod qil. (350 – bet)*

26. “Sarfu – xarajat, isrof, tejamkorlik, g'azab, jahl, araz, pushaymonlik”: 4 ta hikmat.

*Jahl ahli bila kimgaki ulfat bo'lg'ay,*

*Ul ulfati ichra yuz ming ofat bo'lg'ay. (375 – bet)*

27. “Go'zallik, halol mehnat, rizq – ro'z, yalqovlik haqida”: 7 ta hikmat.

*Boqmasa dehqon chamanin tuni kun,*

*Naxli tarin angla qurug'on o'tun. (395 – bet)*

Hikmatlar, pand – nasihatlarining tili juda tushunarli bo'lganligi bois, o'quvchi tezda mazmun mohiyatini uqib oladi. Muallifning sodda va ravon tarzda kitobni kitobxonlarga taqdim qilishi yuksak iste'dod talab qiladi. Ikki xalq, ikki adabiyot rishtalarini bog'lab, ma'naviyat durdonalarini terish olimning ilmparvar ekanligidir.

“Mualliflar va manbalar haqida muxtasar ma'lumot”(407-bet) larning kiritilishi tahsinga sazovor. Hikmatlari va pand – nasihatlari o'rin olgan mualliflar haqida tola ma'lumotlar bor. Lug'at va izohlarning qayd etilishi kitobxonni fikr - mulohazalarini yanada boyitish uchun xizmat qiladi.

Zero, Navoiy hikmatlaridagi insoniy fazilatlarning barchasini o'zida jam qila olgan ustozning ilm yo'lidagi izlanishlari boqiydir. Hazrat Navoiy ishbu hikmatlarida ulug'laganidek :

*Sabr garchi kishiga ranj afzun aylar,  
Oxir kishi folini humoyun aylar,  
Sabring nechakim ko'ngulni mahzun aylar,  
Ham sabr seni zafarg'a maqrun aylar.*

Ya'ni: Sabr garchi kishining mashaqqatini ziyoda qilsa ham, oxir – oqibat uning kelajagini baxtli qiladi, har qancha ko'nglingga xush kelmasa ham, seni zafarga muyassar etadi.

*Yana: Oz – oz o'rganib dono bo'lur,  
Qatra – qatra yig'ilib daryo bo'lur.  
Yana: Yigitlikda yig' ilmning maxzani,  
Qarilig' chog'i sarf qilg'il ani.*

Hikmatlarda chuqur ma'no bor. Yoshlikdan sabrli, qanoatli, ilmni qadrlab, dono va zukko bo'lgan, ilm yo'llarini serqirra ijod bilan hamohang tarzda bog'lay bilgan ustoz Hamidjon Homidovni "ilmparvar, komil inson" deya olamiz. Chunki, domlanning ijod yo'li ham, hayot yo'li ham biz yoshlarga o'rnak bo'lish uchun arzigulik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Собитлик. (тўплам)/ тўплаб, нашрга тайёрловчи М. Сулаймонов; масъул муҳаррир А. О. Умаров. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – Б.26-30.
2. Ҳомидий Ҳамиджон. Фирдавсий ва ўзбек адабиёти: мақолалар, тадқиқотлар, мушоҳада ва мулоҳаза / Ҳ. Ҳомидий; муҳаррир, Ш. Қурбон; расм Ш. Одилов. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2012. – Б.14.
3. Ҳомидов Ҳ. Аждодлар сабоғи – ақл қайроғи. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашр. 1998. – Б.112.
4. Машриқзамин – ҳикмат бўстони: Ҳикматлар хазинаси. Тарж., тўпловчи ҳамда изоҳ муаллифлари: Ҳ. Ҳомидий ва Маҳмуд Ҳасаний. – Тошкент: Шарқ, 2008 – 464 б.
5. Навоий Алишер. Ҳикматлар / Нашрга тайёрловчилар: С. Муталлибов, Э. Очиллов. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б.141.

# AHMAD AL-MUAMMOIYNING “RISOLAYI MUAMMO” ASARIDA MUAMMO JANRINING MANTIQIY VA SEMIOTIK XUSUSIYATLARI

**Esanova Dilnoza Alisher qizi,**

*O‘zMU taynch doktoranti*

[ORCID 0009-0002-7428-6657](https://orcid.org/0009-0002-7428-6657)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Ahmad al-Muammoiyning “Risolayi Muammo” asari misolida muammo janrining nazariy asoslari, mantiqiy-algoritmik tuzilishi va semiotik xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda muammoning shunchaki she’riy san’at emas, balki grafema, fonema va abjad tizimiga asoslangan murakkab intellektual tizim ekanligi isbotlanadi. Ahmad al-Muammoiy yaratgan to‘rt bosqichli ilmiy model yoritib berilgan.

**Abstract:** In this article, the theoretical foundations, logical-algorithmic structure, and semiotic characteristics of the muamma genre are researched through Ahmad al-Muammoiy's work “Risolayi Muammo”. The study proves that muamma is not just a poetic art, but a complex intellectual system based on grapheme, phoneme, and the abjad system. The four-stage scientific model created by Ahmad al-Muammoiy is highlighted.

**Kalit so‘zlar:** muammo, semiotika, mantiq, abjad, Ahmad al-Muammoiy, poetika, harfiy amallar, grafema, algoritmlash, Risolayi Muammo.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida o‘zining boy madaniy-ma’naviy merosini qayta tiklash, qadimiy yozma manbalarni fundamental tadqiq etish va ularni jahon ilm-fani hamjamiyatiga munosib taqdim etish yo‘lida tizimli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Bugungi kunda uchinchi Renessans poydevorini barpo etish strategik maqsad qilib qo‘yilgan bir sharoitda, ajdodlarimizning intellektual salohiyatini namoyon etuvchi qo‘lyozma asarlarni zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida o‘rganish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida milliy qadriyatlarni yanada yuksaltirish, ma’naviy merosimizni chuqur o‘rganish va uni

yosh avlod tarbiyasiga tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur strategik hujjat adabiyotshunoslik va matnshunoslik sohasi oldiga Sharqning nodir janrlari va ulardagi yashirin mantiqiy tizimlarni ochib berish masalasini qo'ydi. Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 10-fevraldagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-126-sonli qarori (oldingi PQ-2995 qarorining mantiqiy davomi sifatida) qo'lyozma asarlarni nafaqat muzey ashyosi, balki ulkan ilmiy salohiyat manbai sifatida tadqiq etishga huquqiy va ilmiy zamin yaratdi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash doirasida Ahmad al-Muammoiyning "Risolayi Muammo" kabi asarlarini tadqiq etish, ulardagi mantiqiy-matematik algoritmlarni o'rganish filologiya fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Sharq mumtoz poetikasida muammo janri shunchaki she'riy topishmoq emas, balki tilshunoslik, mantiq, hisob va ilmi abjadning sintezlashgan oliy ko'rinishidir. Bu janr o'rta asrlar Sharq intellektual muhitida kishining zakovatini, diqqatini va tahliliy tafakkurini sinovchi o'ziga xos "mantiqiy poligon" vazifasini o'tagan. Ahmad al-Muammoiy o'z risolasida ushbu janrni an'anaviy lirik doiradan olib chiqib, uni qat'iy nazariy qoidalar, tasniflar va metodik bosqichlarga ajratgan birinchi turkiy nazariyotchi hisoblanadi. Maqolada mazkur risola misolida muammoning semiotik tabiati — belgi, harf va ma'no munosabatlari hamda uning mantiqiy-algoritmik tuzilishi ilk bor yaxlit tizim sifatida tahlil qilinadi.

Muammo janrining kelib chiqishi bo'yicha yagona nazariya yo'q. Aksincha, arablar uni ilmiy-mantiqiy harf o'yini, forslar tasavvufiy-ma'naviy ramz, turklar poetik-intellektual san'at darajasiga ko'targan; Shu jihatdan muammo – yagona adabiy jarayonga mansub emas, balki Sharqning uch buyuk madaniy maktabining sintezidan vujudga kelgan noyob janrdir. Muammo nazariyasi turli davrlarda turlicha sharhlangan bo'lsa-da, eng mukammal tasnif Ahmad al-Muammoiyning "Risolayi Muammo" asaridadir. Unda muammo to'rt turga bo'linadi: tahsiliy muammo – boshlang'ich, soddaroq muammo; harfiy ishoralar; takmiliy muammo – murakkab, ko'p ishorali, abjad faol qo'llanadi; tas'hiliy muammo – xatoli muammoni to'g'rilashga doir ilmiy mashq; tazyiliy muammo – eng murakkab,

ustoz-shogird sinovi; Sharq manbalarida muammo uch asosiy bosqichda takomillashgan: arab bosqichi (VIII–X asr) – Halil ibn Ahmad va harf ilmi an’analari; fors bosqichi (XI–XIV asr) – Unsuriy, Farruxiy, Sa’diy, Hofiz ijodida yuksalish; turkiy bosqich (XIV–XVI asr) – Lutfiy, Navoiy, Atoiy, Bobur davrida milliy ruhning kirib kelishi.

Jaloliddin Jo’rayev ushbu jarayonni quyidagicha tushuntiradi: “Fors she’riyatidagi muammo an’anasi turkiy adabiyotga ko’chganida, harfiy o’yinlar bilan bir qatorda milliy obrazlar, o’ziga xos lisoniy belgilarning kirib kelishi yangi bosqichni yuzaga chiqardi”.

Ahmad al-Muammoiy muammoni shunchaki she’riy o’yin emas, balki aniq hisob va mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan intellektual mashq sifatida taqdim etadi. Uning nazariyasida muammo yechish jarayoni o’ziga xos algoritmni tashkil etadi. Bu jarayon matndagi harfiy ishoralarni aniqlash, ularni abjad qiymatlariga o’tkazish va yakunda yashirin ismni sintez qilish bosqichlarini o’z ichiga oladi [Esanova,2025:495] Muammoiy muammo o’rganish uchun to’rt bosqichli ilmiy modelni taklif etadi: **Tahsiliy muammo** - boshlang’ich bosqich, sodda harfiy ishoralar; **Takmiliy muammo**- murakkab, abjad faol qo’llaniladigan tizim; **Tas’hiliy muammo** - xatoli muammolarni to’g’rilashga doir mashqlar; **Tazyiliy muammo** - eng yuqori, ustoz-shogird sinovi darajasi [Esanova, 2025:916-918]. Muammoiy semiotikasida harf - asosiy belgi (signifiant) bo’lib, uning yashirin ma’nosi (signifié) faqat mantiqiy amallar yordamida ochiladi. Muallif harflarni “jism”, ularning nuqta va harakatlarini esa “ruh” deb ataydi. Bu modelda harf shakli moddiy tashuvchi (jism), nuqta esa ma’noni o’zgartiruvchi ichki element (ruh) vazifasini bajaradi [Esanova,2025:531-535].“Risolayi Muammo”da sakkizta fundamental amal batafsil sharhlangan. Ayniqsa, **hazf** (tushirib qoldirish) va **ziyoda** (qo’shish) amallari orqali so’zning grafik va semantik qiyofasi o’zgartiriladi. Masalan, “nur” so’zining abjad qiymati 256 ga teng. Undan “re” (200) harfini hazf qilish orqali qolgan 56 qiymati yangi bir ismning kodi bo’lishi mumkin [Esanova, 2025:102].

Ahmad Muammoiy bu falsafani poetik tizimga aylantiradi. Harfshunoslik Sharq falsafasining eng qadimiy qatlamlaridan biri. Ibn Arabiy, Sadridin Qunaviy, Attor va Jomiy harfni kosmik belgilar tizimi sifatida ko'rgan. Muammoiy aynan shu maktabning davomchisi bo'lgan. Ahmad Muammoiy "Risolayi Muammo" asarining eng katta qimmatini shundaki, u nafaqat muammo san'atining nazariy asoslarini bayon qiladi, balki amaliy misollar orqali uning ichki mexanizmlarini ham ko'rsatib beradi. Qo'lyozmada keltirilgan muammolar ko'pincha harf, nuqta, shakl, abjad va tasavvufiy ramzlar asosida qurilgan bo'lib, bu janrning Sharq poetik tafakkuridagi murakkabligiga guvohlik beradi. Quyida qo'lyozmadan tiklangan asl matn parchalarini ilmiy izohi bilan beramiz: 1) Harf-nuqta asosidagi muammo: Risolada uchraydigan eng mashhur muammolardan biri shunday boshlanadi: "نقطة تحت حرف، بها قوام الاسم", "Bir harf ostidagi bitta nuqta – ismning tik turishidir"[“Risolayi Muammo” tabdil 4-varaq] Bu misolda muallif “ب” harfini nazarda tutadi. Chunki arab alifbosida faqat shu harf ostida bitta nuqta mavjud. Muammoiy bu nuqtani ruhi ma'no, asl haqiqat, matnning markaziy siri sifatida talqin qiladi. Bu bayon Jomiy nazariyasi bilan to'liq mos keladi: “اللفظ قشرٌ” “والمعنى لبٌ”, “So‘z – qobiq, ma'no – mag'izdir.”, “Nuqta” – mag'iz, “harf” – qobiqdir. Muammoiy esa bundan besh asr avval harf va nuqtada aynan shu mexanizm ishlashini ko'rsatgan. Risolada bir sahifada doira (halqa) shaklida joylashtirilgan muammo bor (9–10 varaqlar atrofida). Asl arabcha matndan tiklangan mazmun quyidagicha: “دائرة لا مدخل لها، فيها اسمٌ مستورٌ”, “Kirishi yo'q bir doira – ichida yashirin ism bor”. Bu muammo “ه” (ha) harfiga ishora qiladi, chunki u shaklan kichik doiraga o'xshaydi.

Tasavvufda doira – vahdaniyat, abadiylik, osmoniy takror timsoli.

Ahmad Muammoiy: shaklni → ramzga, ramzni → ishoraga, ishorani → ma'noga aylantiradi. Bu usul Navoiy g'azallarida uchraydigan ramziy tasvir bilan uyg'un: “Dahri doira ichra pinhon sirlar yotar...”[“Risolayi Muammo” tabdil 4-varaq] . Bu o'rin yana bir bor ko'rsatadi: Muammoiy – Navoiy maktabining murakkab ramziylik tafakkurini davom ettirgan. Risoladagi ko'plab muammolarda muallif yashirin ismni topish uchun sonli (abjad) hisobni qo'llaydi.



Ahmad al-Muammoiyning “Risolayi Muammo” asari oʻrta asrlar intellektual tafakkurining choʻqqisi hisoblanadi. Muammo janri Ahmad al-Muammoiy talqinida aniq matematik-mantiqiy algoritmlarga boʻysunuvchi tizimdir. “Risolayi Muammo” asarida qoʻllanilgan “harf va nuqta” munosabati zamonaviy semiotika va grafemika fanlari uchun tarixiy manba boʻlib xizmat qiladi. Muammoiy turkiy muammo nazariyasini tizimlashtirib, uni Jomiy va Navoiy anʼanalari bilan uygʻunlashtirgan holda yangi bosqichga koʻtardi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Esanova D.A. Ahmad al-Muammoiyning “Risolayi Muammo” asarining matnshunoslik tadqiqi: Filol. fan. boʻyicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2025. – 160 b.
2. Jomiy Abdurahmon. Risolayi muammoyi manzum. – Toshkent: Fan, 1990. – 84 b.
3. Joʻrayev J.O. Sharq mumtoz poetikasida muammo janri va uning oʻrganilish masalalari. – Toshkent: Mumtoz soʻz, 2020. – 210 b.
4. Köprülü F. Türk edebiyatı tarihi. – Ankara: Akçağ Yayınları, 2003. – 450 s.
5. Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. MAT. 20 jildlik. 13-jild. – Toshkent: Fan, 2003.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son qarori.

## **HUSAYNIY SHEʼRIYATINING MAVZU MUNDARIJASI**

**Husnigul Joʻrayeva Boʻriyevna,**

*ToshDOʻTAU doktoranti, PhD*

[husnigul1984@gmail.com](mailto:husnigul1984@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Husayniyning oshiqona mavzudagi sheʼrlari tahlilga tortilgan. Shoir gʻazaliyotining obrazlar tizimi, mavzu koʻlami, poetik tasvir vositalari xususida soʻz yuritilgan. Husayniy ijodiy faoliyati lirik sheʼrlar yozish bilan boshlangan. Uning ayrim sheʼrlari zamonasining olim va fozillari tomonidan tazkira va yodnomalarga kiritilgan. Husayniyning sheʼriyati mazmunan rang-barang, badiiy yuksak lirikadir. Husayn Boyqaro zamonasining juda murakkab siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy sharoitida, qizgʻin kurashlar va buxronlar ichida ijod qilganki, uning sheʼrlari “Devoni Sulton Husayn Boyqaro”ga kiritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Devon, qoʻlyozma, kotib, poetika, anʼana, mahorat.

**Abstract:** The article analyzes Husayniy's lyrical poems on the theme of love. It discusses the system of images in the poet's ghazals, the scope of themes, and the characteristics of poetic expressive devices. Husayniy's creative activity began with writing lyrical poems. Some of his poems were included in tazkiras and memoirs by the scholars and intellectuals of his time. Husayniy's poetry is rich in content and represents highly artistic lyricism. Husayn Bayqara created his works during a very complex political, social, and economic period marked by intense struggles and crises, and his poems were included in "Devoni Sulton Husayn Boyqaro".

**Key words:** divan, manuscript, scribe, poetics, tradition, mastery.

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasida Husayniyning g'azallariga quyidagicha ta'rif beradi: "Har oshiqona matla bila dard ahli jonig'a shu'lai fano yoqilg'ay va har dardmandona bayt bila ishq ahli ko'nglig'a barqi balo chaqilg'ay" [Alisher Navoiy, 1997:167]. Navoiy sharhlaridan Husayniy devonida oshiqona mavzudagi g'azallar salmoq jihatidan ko'pligi ma'lum bo'ladi.

Husayniy g'azallarining yetakchi mavzusi an'anaviy muhabbat mavzusidir. Shoir devonining nashriy va qo'lyozma nusxalarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda asosan majoziy ishq tasviriga bag'ishlangan g'azallar jamlanganligini ko'ramiz. Sulton Husaynning o'zi ham majoziy ishq to'g'risidagi fikrlarini quyidagicha bayon etadi:

Qani bir mahvash, anga so'zu gudozimni desam,  
Qani bir mushfiqki, bir dam anga rozimni desam.  
Anglag'aylarkim, haqiqat sirridin xoli emas,  
El aro kayfiyati ishq majozimni desam.

Husayniy oshiqona g'azallarida lirik qahramonning vafo hamda sadoqat, e'tiqod va sabot xususida ma'shuqaga murojaati, uning ta'rifi, vasfi tasvirlangan. Nogahoniy his-tuyg'ular o'ziga xos nafislikda, bokira tarzda Husayniyvor ifodalangan. Husayniy ishqiy g'azallariga xos muhim xususiyatlardan biri **oshiqona, dardmandona** kayfiyatning ustunligi bo'lsa, ayni paytda,

ma'shuqaning vasliga umidvor bo'lish, hijron azobida o'rtanish, podshohona kinoya, gilamandlik, rashkning ustunligi aniq seziladi.

Alisher Navoiyning Husayniy ijodiga daxldor adabiy-tanqidiy qarashlarini tekshirgan H.Qudratullayev bir o'rinda Alisher Navoiy "Husayniy g'azallaridagi matla'ni tahlil qilar ekan, ko'pincha, matla'dagi mazmunning bayoni bilan cheklanadi" deb yozsa, boshqa bir o'rinda Navoiyning Husayniy ijodidagi "mazmunan past baytlarni ustun baytlardan aniq ajratib baholagani"ga [Qudratullayev,1991:40] ishora qiladi. Aslida H.Qudratullayevning mazkur mulohazalariga tanqidiy yondashish talab etiladi.

Birinchidan, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasini 1490-1491, 1497-1498-yillarda tuzgan. Tazkiraning ilk nusxasida Husayniyning 82 ta g'azali matla' va baytlari sharhlangan. H.Qudratullayev tazkiraning ana shu dastlabki redaksiyasidan foydalangan. Alisher Navoiy sakkizinchi majlis debochasida Husayn Boyqaroning "xo'b ash'ori va marg'ub abyoti bag'oyat ko'p"ligini ta'kidlaydi. Biroq, Husayniy tomonidan "Devon" tuzilgan bo'lsa-da, ulug' shoir tazkira janri talabidan kelib chiqib, Husayniyning ma'lum g'azallari (82 ta) matla, baytlarini tahlilga tortgan. Bu holni Alisher Navoiy quyidagicha izohlaydi: "Ul jumladin, tayammun va tabarruk uchun bir necha matla va bayt sabt qililur va ul daryodin bir necha gavhar kitobatning qaro ipiga tortilur (va billohit-tavfiq)" [Alisher Navoiy, 1948: 137].

Ikkinchidan, Navoiy talqinlariga diqqat qilinsa, ulug' shoir tomonidan Husayniyning ishqiy g'azallari bir necha mavzularga ajratilgani ma'lum bo'ladi. Misol uchun, *"Mahbubning mufrit iltifotidin behol bo'lub behudona ul iltifotni izhor qilur ma'nida"*, *"Hajr barqidin shabistong'a o't tushganining ifshosi"*, *"Elga noz kulkusi bila tirguzmakdin hikoyat"*, *"O'z niyozi va badxo'y yori nozi sharhida"*, *"Oshiqona kinoyat bila husn ahlig'a elni shaydo qilur ma'nida"*, *"O'z niyozi va nozanining istig'nosi izhorida"*, *"Yorning o'zgalarga iltifotidin gilamandlig'i va ko'ngli muxotab qilib ko'ngli oromidin shikoyat"*, *"Ishq dog'idin shukr izhori va hajr dog'idin shikoyat"*. A.Hayitmetov Alisher Navoiyning tematik tahlilga hamda she'riy mahorat masalalariga munosabatini o'rganar ekan,

Husayniy ishqiy gʻazallarining mavzusi xususidagi Navoiy qarashlarini quyidagicha izohlaydi: “Navoiygacha yaratilgan poetikaga doir ishlarning hech birida sheʼrning mavzusi bu qadar keng izohlanmagan. Biroq Navoiy Husayniy sheʼrlarini tahlil qilar ekan, ularni ideallashtirmaydi, ulardagi mavzuning anʼanaviy xarakterini chuqur ochib bergan holda, gʻoyaviy tahlilga chuqur kirishmaydi. Anʼanaviy mavzu, anʼanaviy timsol va tasviriy vositalar u davrlarda Husayniy sheʼriyatidagina emas, boshqa oʻzbek, fors-tojik shoirlari devonlariga ham xos edi” [Hayitmetov, 1996: 83]. Bertelsning quyidagi fikrlari A.Hayitmetovning mulohazalarini quvvatlaydi: “Sulton Husaynning gʻazallari mohiyatan oʻsha davr uchun xarakterli boʻlgan ramziy – ishqiy gʻazallardir. Bu – goʻzallikning, shuningdek, mahbubning hijron azoblari, achchiq hasratlari kabilar tasviri, ular bu janr uchun zarur boʻlgan joʻshqinlik bilan sugʻorilgan” [Bertels, 2015:89].

Sulton Husaynning zamondoshi Atoulloh Husayniy “**Gʻazal**”ga shunday taʼrif bergan edi: “**Gʻazal** – lugʻatta xotunlar bila suhbat qurmoqni sevmaktur, istilohta maʼshuq jamolining zikri va ishqu muhabbat ahvolining zikridur” [Atoulloh Husayniy, 1981:271]. Sevguvchi qalb iztiroblari, yor goʻzalliklari, ayriliq azoblari, yetishuv shodliklari, yorning iltifoti yoki iltifotsizligi, agʻyor, ularga nisbatan qahr-u gʻazab, rashk, sevgi yoʻlidagi fidokorlik, bevafoqlikdan hasrat va shunga oʻxshash tuygʻularni ifodolovchi sheʼrlar oshiqona sheʼrlardir [Qayumov, 2022:169].

Husayniyning ishqiy gʻazallarida oshiqning yoriga iltijosi, undan sadoqat, muruvvat, vafo, lutf istashi ruhiy holatning eng nozik qirralari inkishof etgan:

Ul pari koʻngli meni devonagʻa moyil emas,  
Yo mening ovora koʻnglum ishqigʻa qobil emas.  
Berding, ey Majnun, mening rasvoligʻim koʻrganda pand,  
Bilmadingmu borchal el xush ahlida oqil emas.  
Notavon jismimda har yondin koʻrungan dogʻ aro,  
Anda hijron dogʻidin yuzdin biri dohil emas.  
Tundi bodi hajr esib, jismim sovurdi koʻyidin,  
Yoʻqsa, quyundek oʻtarga anda mustaʼjil emas.

Xatti naqshi xotirimdin tig' ila daf' o'lmadi,  
Vah, ne xatdurkim, necha butg'an sayi zoyil emas.  
Ishqdin qildim yana toatni, vahkim, bilmadim,  
Kim, qazo o'qig'a taqvo javshani hoyil emas.  
Chun Husayniydur gadoying, husndin bergil zakot,  
Ey malohat maxzani, ul siym olur, soyil emas [Shoh va shoir,1995:64].

Yetti baytdan iborat ushbu g'azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. "Emas" so'zi radif bo'lib kelgan. "Moyil", "qobil", "oqil", "dohil", "musta'jil", "zoyil", "hoyil", "soyil" so'zlari qofiyani tashkil etadi. G'azalda lirik qahramonning ruhiy holati, visolga umidvorligi nihoyatda dardli tasvirlangan. Oshiq o'z ma'shuqasining muhabbatiga erishishni orzu qiladi. Uning ko'ngli shubha ichida qolgan. G'azal matlasida betakror parivashning oshiq muhabbatiga moyil emasligi, oshiqni bu ishqqa "qobil-munosib emasman" degan xulosaga olib kelgan. Husayniy ma'shuqani pariga, oshiq holatini devonaga o'xshatib, lirik qahramonlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Natijada tazod san'atiga xos ta'sirchan badiiy timsollar yaratilgan. Ishq yo'lida devonaga aylangan oshiq holatini ko'rib, hatto oshiqlarning sarvari Majnun unga pand-nasihat qiladi. Lirik qahramonga Majnunning pandlari ta'sir qilmaydi. Chunki u ishq tufayli o'zligidan ayrilgan. Oshiqning butun tanasi dog'larga to'lib toshgan. U visolga shunchalik umidvorki, tanasidagi dog'lar hijron dog'larining yuzdan biriga arzimaydi. Oshiq uchun eng azobli uqubat hijron bo'lib, uning ko'nglini azoblaydi. Oshiq holatining mubolag'ali tasviri dog', jism, hijron so'zlari bilan uyg'unlashib, mubolag'a va tanosib san'atlarini qo'llash imkonini bergan. G'azalda baytma-bayt oshiq iztirobi chuqurlashib, ruhiy holatining manzarasi yaqqol tasvirlanadi. Xususan, hajr shamolining kuch bilan esmog'i va oshiqning behol jismini yor ko'chasidan itqitib tashlagani manzarasi ko'z oldimizda jonli gavdalanadi. Ishq yo'lida barcha azoblarni boshidan o'tkazgan oshiqda na sabr, na toqat qoldi. Ammo, yor visoliga umidvorlik lirik qahramonni taqvo yo'liga boshlaydi. Lekin ishq shunday buyuk qudratki, oshiqning toat-ibodatlari kor qilmaydi. G'azal maqtasida oshiq beqiyos husn (boylik) egasi bo'lgan mahbubaga murojaat etib, uning husnidan zakot

olishni istaydi. Oshiq nazdida sevikli yori shunchalik mukammalki, barcha xazina unda yashirin. Shu bois, ma'shuqa ishq yo'lida oshiq uchun zakot berishi lozim. Oshiq ishqda qanchalik sobitqadam bo'lmasin, o'z izzat-nafsini yerga urmaydi. G'azalda oshiqona ruh va kechinmalar ustuvorlik qiladi. Akademik A.Qayumov Husayniyning mazkur g'azali haqida o'ziga xos fikr bildirgan edi: "Ko'rinadiki, yetti baytli bir g'azalda Husayniy butun boshli sevgi dostonini yaratgan" [Qayumov, 8-b].

"Devoni Sulton Husayn Boyqaro"dagi ayrim g'azallarni o'qir ekanmiz, "ishq dostoni"ni yaratishga bel bog'lagan Husayniy siymosini ko'ramiz.

### **69-g'azal:**

Holatim Farhodu Majnun qissasig'a o'xshamas,  
Kim, erur ishq ichra muhlik dostonim o'zga nav'.

### **132-g'azal:**

Dostoni dard o'qur erdi Husayniy, ishq aro  
Emdi ishqu dardidin xalq ichradur yuz doston.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ishqni uch qismga ajratar ekan, ikkinchi turiga shunday ta'rif beradi: "Ikkinchi qismi xavoss ishqidurkim, xavoss ul ishqqa mansubdirilar. Ul pok ko'zni pok nazar bila pok yuzg'a solmoqdur va pok ko'ngil ul pok yuz oshubidin qo'zg'almoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqni pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq" [Alisher Navoiy,1998:66]. Demak, Husayniy Sharq she'riyati an'analariga sodiq qolib turkona g'azallarida majoziy sevgini ulug'laydi, ishqqa samimiy munosabatda bo'ladi. Husayniy lirikasida ishq oshiq uchun o'zini anglash yo'li. U haqiqiy ishqqa yetish uchun hoyu havaslardan, rohatdan voz kechadi. Oshiq ishqda shu darajada komilki, Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Vomiq, Uzro singari boshdan oyoq poklikka yo'g'rilgan alohida fazilat egalari, xoslar ishqidan uning ishq oshib tushgan.

Majoziy ishqni insonlarning bir-biriga muhabbati deb tushunilsa, voqelikka bu masalani tadbiq etganda bir murakkablik vujudga keladi. Ya'ni insoniy muhabbat hayotda doimo beg'araz bo'lavermasligi ma'lum bo'lib, bu endi oshiqning ma'naviy saviyasi bilan bog'liq edi [Imomnazarov, 2010:26]. Husayniy

lirik qahramonni ishq yo'lida sobitqadam. U hamisha kelajakka ishonch bilan qaraydi, visolga yetishidan umidvor bo'ladi, yorining maktubi, nim tabassumi Iso nafasi sharofatiga ega:

O'qug'ach mazmunini jonsiz tanimg'a berdi ruh,

O'ylakim, Iso damidin oyati ummul-kitob.

Budur ummidi, Husayniyningki, yetgay vasliga,

Haq nasib etkay ani, vallohu a'lam bissavob.

Husayniy talqinida ishq shoh-u gadoga birday. U gadoni shoh, shohni darveshga aylantirishi aniq gap. Shoh ishq yo'lida tojini nisor etsa, chin oshiq jonini fido qiladi. Husayniy she'riyatidagi "majoz tariqi" ilohiy ishq bilan uyg'unlashib ketgan. Fikrimizning isboti Husayniy talqinlarida aniq ko'rinadi:

Chun haqiqat nuri ul oraz tajalliysindadur,

Ne haqiqat, ulki oning ishqini o'ynar majoz.

"Ishqi ilohiy" va "ishqi majoziy" – "Ularning birinchisi Allohga muhabbat, ya'ni "ishqi ilohiy" ma'nosida bo'lib, haq vasliga intilish, faqat uning hayoti bilan yashashni bildirsa, ikkinchisi - insonlarning bir-biriga va foni dunyo ashyolariga bo'lgan ishq sifatida talqin etiladi va ko'p hollarda biri ikkinchisiga zid qo'yiladi" [Imomnazarov, 2010:23-24].

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da Husayniy she'riyatini baholar ekan, "umid ulkim, ul hazratning tariqida har nima majoziy bo'lsa, haqiqatg'a mubaddal bo'lg'ay" [Alisher Navoiy, 1948: 148-149], deb ta'rif etadi. Adabiyotshunoslikda "majoz tariqi"ga shunday ta'rif berilgan: "Bu hodisaning mohiyati shunda ediki, unda insonning oliy haqiqatga, Haqqa, Borliqning mohiyatiga munosabati uning o'zga insonlarga, atrof-voqelik, mavjud jamiyatga munosabati bilan uyg'unlik hosil qiladi" [Imomnazarov, 2010:28].

Demak, Husayniy g'azaliyoti asosan, majoziy muhabbat mavzusiga bag'ishlangan bo'lsa-da, A. Qayumov ta'kidlaganidek, "shoir bu mavzuni ilohiy muhabbatdan ajratib olmaydi. Ayniqsa uni ishq haqiqiyga qarshi qo'ymaydi. Husayniy ishq haqiqiy bilan majoziy sevgini bir-biri bilan bog'laydi. Ularning birdamligini ko'rsatishga intiladi. Chunki go'zallik butun dunyoda, yoki koinotda



bo‘lmasin, inson husni chiroyi va go‘zalligida bo‘lmasin o‘sha ilohiy go‘zallikning jilva, in’ikosi, ko‘rinishlaridan iboratdir” [Qayumov A].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн учинчи том. – Тошкент: Фан, 1997.
2. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Нашрга тайёрловчилар: Ойбек ва П.Шамсиев. – Тошкент: Ўзбекистон Давлат нашриёти, 1948.
3. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1998.
4. Атоуллоҳ Хусайний. Бадойиъус-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
5. Бертельс Е. Э. Султон Хусайн. Навоий. Таржимон. И.К. Мирзаев. – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2015.
6. Имомназаров И. Минтақа адабиёти ривожда тасаввуфнинг ўрни. Бадий адабиётда тасаввуфий тимсоллар. – Тошкент, 2010.
7. Қаюмов А. Нодир саҳифалар.Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. 1- жилд. – Тошкент: TAMADDUN, 2022. – Б.169. (Б.348).
8. Қаюмов А. Девони Султон Хусайн Мирзо Бойқаро. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетида жойлашган “Академик Азиз Қаюмов музейи”нинг “Навоий ва Бобур” архив папкасида сақланади.
9. Қудратуллаев Ҳ. Навоийнинг адабий-эстетик олами. –Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.
10. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1996.
11. Шоҳ ва шоир. Хусайн Бойқаро. Рисола. Девон. – Тошкент: Шарқ, 1995. – Б. 64.

#### **“TURKIY ME’ROJNOMA” TOSHBOSMASIDA ME’ROJ VOQEASINING MATNIY TADQIQI**

**Latipova Saodat A’zamovna,**

*BuxDU tayanch doktoranti*

*E-mail: [saodatlatipova43@mail.com](mailto:saodatlatipova43@mail.com)*

**Annotatsiya:** Me’roj islom dinidagi muhim voqelardan biri bo‘lib, Payg‘ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamning Makkadan Quddusga va u yerdan samoga ko‘tarilish voqeasidir. Mazkur maqolada Me’roj kechasi bilan bog‘liq ilmiy va badiiy mushohadalar beriladi. Shuningdek, Buxoro adabiyot va san’at muzeyi fondida saqlanayotgan “Me’rojnoma turkiy” asaridagi ayrim qismlarning joriy yozuvdagi tabdili va tahlili keltiriladi. Qolaversa, mumtoz adabiyotda yaratilgan ayrim me’rojnoma, hadislar hamda Me’roj hodisasi keltirilgan ba’zi asarlar haqidagi ma’lumotlarga ham o‘rin ajratiladi.

**Kalit soʻzlar:** Qurʼoni Karim, hadislar, Meʼroj kechasi, Meʼrojn timer, “Meʼrojn timer turkiy”, jannat va doʻzax, farishtalar.

**Abstract :** This article provides scientific and artistic observations related to the night of Miraj. It also presents the translation and analysis of some parts of the work "Me'rajn timer Turki" stored in the collection of the Bukhara Museum of Literature and Art in the current writing. In addition, it also reflects some expressions about some mi'rajn timer, hadiths and some works in classical literature that mention the event of Miraj. At the same time, it also discusses the circumstances of our Prophet's separation from his parents in his youth.

**Key words:** Holy Quran, hadiths, Night of Ascension, Mirajn timer, "Turkish Mirajn timer", heaven and hell, angels

Meʼroj voqeasi islom tarixida eng ulugʻ va moʻjizaviy hodisalardan biri boʻlib, u Paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v) hayotlarida sodir boʻlgan buyuk ilohiy safar hisoblanadi. Bu voqea musulmonlar eʼtiqodida Allohning qudrati va Paygʻambarimizning ulugʻ martabasini yaqqol namoyon etuvchi muhim hodisadir. Meʼroj haqida islom adabiyotida turli manbalarda bir qancha maʼlumotlar keltiriladi

Imom Buxoriy va Abu Muslimdagi rivoyatlarning mushtarak tomonlariga koʻra voqea quyidagicha sodir boʻlgan: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam Ka'bada boʻlganlarida bir kechada Hijo yoki Xotim degan joyda ba'zi rivoyatlarda uxlab yotganlarida yoki uyqu va hushyorlik orasidagi holatda Jabroil keldi. Koʻksini ochib, zamzam bilan yuvib, iymon va hikmatga toʻldirib yopdi. Uni Buroq degan otga mindirib, Baytul Maqdisga olib bordi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Masjidul-Aqsoda ikki rakat namoz oʻqib, tashqariga chiqqanlarida, Jabroil alayhissalom biriga sut, ikkinchisiga sharob toʻldirilgan ikkita idish keltirdilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sut toʻla idishni tanlaganlarida, Jabroil alayhissalom unga: “Sen tabiatni tanlading”, dedi. Keyin uni olib, dunyo osmoniga koʻtardi. Osmonlarning har birida u Odam Ato, Iso, Yusuf, Idris, Horun va Muso paygʻambarlar bilan uchrashdi. Nihoyat Baytul Maʼmur joylashgan

yettinchi osmonda Hazrati Ibrohim sallollohu alayhi vasallam bilan uchrashdi. Sidrat ul-Muntaha degan joyga yetib kelganlarida, kotib farishtalarning qalam tirnashini eshitib, Allohning huzuriga kirdi. Bu yerda Alloh taolo ellik vaqt namozni farz qildi. Qaytganlarida Hazrati Muso alayhissalom ummatiga ellik vaqt namoz ortiqcha bo'lishini aytib, Alloh taolodan uni yengil qilishini so'rashni maslahat berdilar. Namoz besh vaqt namozga kamaytirilgunga qadar Hazrati Payg'ambar alayhi vasallamning ilohiy huzurga da'vati va Muso alayhissalom bilan suhbat davom etdi[I.Buxoriy,1991:58]. Bir rivoyatga ko'ra, Payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallamga "Baqara" surasining so'nggi oyatlari ko'tarilganlarida nozil bo'lgan va Allohga shirk keltirmaganlarning mag'firat qilinishi haqida xushxabar berilgan [Imomi A'zam.2014:79]. Biroq ba'zi oyatlarning alohida nozil bo'lishi Qur'on Jabroil tomonidan nozil qilinganiga zid bo'lishi va bunday rivoyatlarni oyatlarning fazilati bilan bog'lash kerakligi ta'kidlangan.

Buxoro adabiy muhitida yaratilgan "Me'rojnoma" asarida ham me'roj hodisasi o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Bu asar hozirgi kunda Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi huzuridagi "Hujjatlar" fondida 23497/ 11 inventar raqami ostida saqlanadi. Asar 47 sahifadan iborat. "Turkiy me'rojnoma"da Me'roj hodisasi asarning 4-sahifasidan boshlanadi. Shu sahifadan so'ng aynan Me'roj bilan bog'liq voqealar tafsiloti beriladi:

Ba'ni Isroil o'g'li erdi Dovud  
Muhammad erdilar mahbubi ma'bud  
Ani o'g'li jahon olgan Sulaymon  
Muhammad erdilarkim xos rahmon  
Masihulloh otondi ibni Maryam  
Muhammad barchadin erdi mukarram  
Muhammadga inoyat qildi Me'roj  
O'shal tunda boshig'a qo'yuldi toj  
Tushi ersin vahiy ogah edilar  
Alarga to'rt malak hamroh edilar  
Biri Jabroil va Mikoil erdi

Biri Azroil va Isrofil erdi  
Buroq kelturdilar tun uyqusinda  
Muhammad erdi ummat qayg'usinda  
Kirib Jabroil ul dam qildi bedor  
Dedi Haq ko'rsatur bul kecha diydor

Asarda Muhammad sallolohu alayhi vasallamning Me'rojga ko'tarilish hodisalari shu tarzda boshlanadi. Me'rojga ko'tarilishlarida to'rt malak hamrohlik qilganligi aytiladi. Ular: Jabroil, Mikoil, Azroil, Isrofil alayhissalom ul muborak zotni uyqudan uyg'otib Buroq otga mindirib, Masjid-ul Aqsoga olib boradi.

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida ham Rasulolloh alayhi vasallamning Me'rojga ko'tarilish hodisalari bayoni keltirilgan. 4-bob me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan. Unda payg'ambarimizning hu- zurlariga "Ruhu-l-amin" (Jabroil farishta) kelib, Yaratganning xabarini yetkazgani va Rasuli akramning Buroq otini minib, Alloh huzuriga ko'tarilganliklari, oradagi yetmish qavat parda ko'tarilib, bor-yo'q to'siqlar bartaraf bo'lganligi, payg'ambarimiz Allohdan ummatlarining gunohini so'raganliklari va Alloh o'z habibining barcha istaklarini qabul qilgani haqida fikr yuritiladi [A.Qayumov,1991:4]. Ko'rinadiki, har ikkala asarda ham Buroq tasviri va ul muborak zotning osmonga ko'tarilish tasvirlari aynan bir xil keltirilgan.

Payg'ambar alayhi vasallam u yerda barcha payg'ambarlar bilan uchrashib, ular bilan birga so'rashib, namoz o'qiydilar. Falakda turli farishtalar kezib yurar edi. Muhammad alayhi vasallam ular bilan so'rashib, suhbatlashadilar. Hatto ular bilan birgalikda namoz o'qiydilar. So'ngra boshqa payg'ambarlar bilan vidolashib, falak osmoni uzra sayrni boshlaydilar. U yerda ul muborak zot turli farishtalar bilan birgalikda Jannat va Do'zax (Behisht va Saqar)ni ham ko'radilar. Payg'ambar sallolohu alayhi vasallam jannat ahlining ahvolidan xursand bo'lsalar, jahannamda azob chekuvchilarning holatidan qayg'uradilar. Ul zotning ko'kda ilk qadam qo'yishlari shunday tasvir bilan boshlanadi ( Maqomi arshga maqdamini qo'ydi) . U yerda muqaddas joylarga qadam qo'yadilar. Shu bilan birgalikda,

“makondan makonsizlikka (lomakon)ga, ya’ni dunyoviy hayotdan chekinib, Rafrafga minib Allohning huzuriga borganliklari aytiladi:

Hamma mursal nabiyning anda yurdi  
Alar birla suroshib hol surdi  
Alar birla namozining o’qidi  
Vido aytdi qanot osimonig’a qo’ydi  
O’shal damda chiqib ko’rdi falakni  
Samo uzra to’la turluk malakni  
Behishtu va ham Saqarni anda ko’rdi  
Farah qildi alar munglug’ni ko’rdi  
Maqomi arshga maqdamin qo’ydi  
Ki ko’rdi anda joyi muhtaramni  
Makonidin lomakonga sayr qildi  
Yana Rafraf minib Hazratga bordi

“Turkiy Me’rojnoma”da Me’roj tasviri dastlabki sahih hadislarga monand keladi. Ya’ni unda payg’ambar sallollohu alayhi vasallam dastlab Masjid-ul Aqsoga borib namoz o’qiydilar. Rasuli Akram va Alloh taolo orasidagi masofa juda yaqin bo’ladi. Asarda Allohga nisbatan “Shohi Lavlo” atamasi qo’llanilgan.

Salom aydi anga vojib taolo  
Alik oldi o’shal dam Shohi Lavlo.

Alloh bilan so’zlashish jarayonida Rasuli Akram inson yaxshi ko’rgan kishisiga tuhfa bilan borishini aytib, ul zot ham o’z hollariga loyiq tuhfa bilan keldim deb aytadilar.

Rasul aytdi ayo Xalloqi boriy  
Keltur tuhfa bilan yorig’a yo Rabbiy  
Keturdim man ham o’z holima loyiq  
Keyingi sahifada esa shu tuhfa rasuli Akramning Ollohga qilgan kichik arzlari ekani ko’rilishi mumkin.

Qodir angla so‘zim tahaffum senga keltumisham,  
Anglasinki hech yo‘q bisotimda nima keltumisham,

Xohlagay-xohlamagay deb ozg'ina keltumisham

Xohishing bo'lsa borib yonib yana keltumisham

Boshima tushgan mashaqqatdin kulluhui keltumisham.

Muhammad (s.a.v.) Rabi'ul avval oyining o'n ikkinchi sanasida, milodiy 571-yil aprel oyida dushanba kuni dunyoga keldilar. Otalari Quraysh aslzodalaridan, xulqi go'zal, ko'rkam va omonatdor bo'lgan Abdulloh ibn Abdulmuttalibdur. Onalari Omina binti Vahbdur.

Rasuli Akram ham otalaridan, ham onalaridan erta yetim qoladilar. Bu yetimlik dardi og'irligini, yetimlar har damda ota-onalarini xotirlashlarini, ular erta-yu kech kunlarini g'am- g'ussa bilan o'tkazishlarini, ba'zi nobakorlar yetim molini yeb yuborishdan ham tonmasliklarini aytib o'tdi. Me'roj tuni Rasuli Akram ana shunday Haqqa nido qildi. Haq taolo esa bandasining dardlarini eshitdi.

Ey Xudoyo, hech o'g'lon otasi o'lmasin

Ustiga mendek bo'lub yana onasi o'lmasin

Qayga borurni bilmay ko'chalarda yurmasin

Hech odamni bolasini bu ko'yga solmasin

Xizimatingga bu erur tahaffum mana keltumisham

Man qiyos oldim o'zimdin kim yetimlar holini

O'tkarur g'am-g'ussa birlan muncha mohi solini

Kinga tushsa yeb yuborurlar yetimlar molini

Hech kimarsa o'ylamas yetimlarning ubolini

Shu tariqa Rasuli Akram Haq qoshida yetimlar ahvolidan arz qildilar. Rasuli akram bu holni bayon qilganlaridan so'ng Haq Taolo yana ul muborak zotdan savol so'radi.

Boz Tangri taolo Rasuli Akram sollallohu alayhi vasallamdin savol so'ragani turur

Yana so'rdi payg'ambardin Xudoyim

Dedi, ey sayyidi har dur saroyim,

Bu tuhfa bir erur ayg'in uchini

Bu yerda sarf qilgun ko'ngil ko'chini

Bayon ayla alarni ham biloyin  
Anga loyiq tadoriklar qiloyin  
G'ubori qolmasin ko'ngulda zarra  
Borini arz ayla sharra-sharra  
Dedi: "Yo Rab, adab saqlab turibman  
Vagar na ayg'ali sayrab turibman".  
Dedi Haq: " So'zlagil anglab turibman,  
Agarchi noravodir man beroyin.  
Ki mezbon uyida mehmon azizdur  
Amal qilsin kishi sohib tamizdur  
Bu kun nima so'z aytsang ko'tarurman  
Seni har ne deganing o'tkarurman.

Alloh taoloning Rasuli bilan bo'lgan suhbat haqida juda ko'p o'rinlarda yozilgan. "Turkiy Me'rojnoma"da ham ushbu o'rinlar ma'lum nasriy sarlavhalar bilan ajratilib berilgan. Alloh taolo ul muborak zotga ko'ngillarida ne bo'lsa so'rashliklarini, ularni barini muhayyo qilishini aytib o'tadi. Rasuli Akram esa odob saqlab turganliklari haqida to'xtaladilar. Shu o'rinda Alloh taoloning gapi o'quvchi e'tiborini tortadi:

"Ki mezbon uyida mehmon azizdir". Bundan ko'rinadiki, Tangri taolo Rasuli Akramning bu kechada nima so'rasalar ham muhayyo qiladi.

Me'rojga oid ko'pgina manbalarda Muhammad sallolohu alayhi vasallam Alloh huzuriga borganlarida besh vaqt namoizning farz qilingani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Alloh taolo shu Me'roj tunida, Payg'ambarimizga va ham aning ummatlariga ellik vaqt namoz farz qildi. Qaytishlarida Muso alayhissalom yo'liqib, «Ey Muhammad, buni ummatlaring ko'tarolmaydilar. Qayt, Rabbingdin so'ragil, buni yengillatsin», deb u joydin yondirdilar (qaytardilar). Payg'ambarimiz dargohga kelib, yengillik talab qilgan edilar, besh namoz tushirildi. Muso alayhissalom yana so'rog'il, tushirsin, ummating bunga ham toqat qilolmaydi, dedilar. Shundoq bo'lib, necha qaytadin borib keldilar. Eng oxirida besh namozga qaror topdi. Tangri taolo aytdi: — Ey Muhammad, bir kecha-kunduzda



ummatlaringga besh vaqt namoz qildim. Har namozga o‘n namoz savobini berdim, u besh vaqt namozni — ellik vaqt namoz o‘rnida qabul qildim. Ey Muhammad! Ummatlaringdan har kishi bir yaxshi ish qilmoqqa qasd qilsa, agar uni qila olmasa ham, shu yaxshilik savobini berdim. Agar qasd qilmish yaxshilikni qilib, bitursa, har biriga o‘n barobar savob yozdirdim. Yomonlik ishni qilishga niyat qilsalar, ammo uni qilib, yuzaga chiqarmasalar, yomon niyatlari uchun hech gunoh yozdirmadim. Agar u qilgan yomon niyatlarini amalga oshirsalar, birga-bir gunoh yozdirdim, - dedi. So‘ngra Payg‘ambarimiz bu ishlarga rozilik bildirib qaytdilar. Yo‘lda yana Muso alayhissalom yo‘liqib: “Ey Muhammad, bu besh vaqt namoz ham ummatlaringga og‘irdur. Bundan ham yengilroq qilish chorasini ko‘rgil”, – dedilar. Payg‘ambarimiz yana borishga hayo qilganliklaridan bu ishga jur‘at qilmadilar. Qiyomatgacha shu besh vaqt namoz ummatlariga farz bo‘lib qoldi. Endi bu ulug‘ safarda Alloh taoloning qudrat-kamoliga hujjat bo‘lgudek ne ishlarni ko‘rdilarkim, barchalaridin eng ulug‘rog‘i – shu kechada Jabbori A‘zamning jamoli pokiga musharraf bo‘lishlaridur. Bu ersa boshqa hech bir payg‘ambarga berilmagan eng ulug‘ karomat edi. Shuning uchun Rasulullohga berilgan hisobsiz mo‘jizalarning eng ulug‘rog‘i Me’roj mo‘jizasidir [A.Sog‘uniy,1997:51].

“Turkiy Me’rojnoma”ning Me’roj qismi boshqa manbalardan farqlanadi. Unda, asosan, Rasuli akramning Alloh taolo bilan suhbat bayon etilib, unda ul muborak zot Tangri taologa munojot qiladilar.

Qodir angla so‘zim tahaffum senga keltumisham,  
Anglasinki hech yo‘q bisotimda nima keltumisham,  
Xohlagay-xohlamagay deb ozg‘ina keltumisham  
Xohishing bo‘lsa borib yonib yana keltumisham  
Boshima tushgan mashaqqatdin kulluhu keltumisham.  
Ey Karimo, aytayin tug‘qonda ul otam qani,  
Siynasiga jo qilib emchak berur onam qani,  
Qo‘llariga ko‘torib olib desa bolam qani?  
Koshki biri ketib qolsa, biri ul ham qani?  
Bu yatimlikdin yana ko‘ksim yara keltumisham.

Bu yatimlikda yana kuykon kimarsa bormikan?

Ham yatimliqg'a taqobil hech nimarsa bormikan?

Ikki dunyoni g'ami bundog' nimarsa bormikan?

Yetimlik ahvolidan shikoyat bilan boshlangan suhbat shu tarzda davom etadi. Ko'rinadiki, ul muborak zot ham bu darddan aziyat chekadilar, yuraklari qiynaladi. Otasiz va onasiz yashash ul zotga og'ir tuyuladi. Muhammad sollalohu alayhi vasallam ota- onalaridan yolg'iz tug'ilgan, to'ng'ich farzanddir. Chunki Rasuli Akramning otalari Abdulloh Shomga safarga ketayotgan paytlarida, Madinada vafot etganlar. Unda u kishining yoshlari o'ttizga ham yetmagan edi. Otarlaridan shu tariqa ajrab qoladilar. Payg'ambarimiz zamonlarida shaharlik arablar yangi tug'ilgan chaqaloqlarni sahrolik badaviy arab ayollarga emizishga berar edilar. Payg'ambarimizni Halima ismli ayol emizishga oladi. Halima bolaga mehri tushib qolib, undan keladigan barokatlarni sezib, bolani Ominadan o'n-o'n besh yoshgacha tarbiyalashni so'raydi. Omina ayolga rahmi kelib bolani Halimaga beradi.

Onalari Omina bir kun farzandlariga otasini qabrini ziyorat qildirish maqsadida Madina safariga chiqadilar. Bu safarda Ummu Ayman degan Abdullohdin meros qolgan cho'rilar hamroh edi. Bir necha kun yo'l yurishib, salomat Madinaga yetishdilar. Makka shahri bilan Madina oralig'i tuya yurishida o'n-o'n ikki kunlik yo'ldur. Tog'a qabilasi ichida bir necha kun mehmonlikda bo'lishdi. Maqsad o'talgandin so'ngra yana Makkaga qaytdilar. Makka va Madina shaharlari orasidagi Abvo degan joyga kelganida onalari Ominada betoblik paydo bo'ldi va shu joyda ajal yetib, endigina besh yoshga kirgan farzandlarini dodaklari (cho'rilar) Ummu Aymanga topshirib, yosh juvonlik holda vafot etdi [A.Sog'unliy,1997:8-9]. Ko'rinadiki, yosh Rasul onalaridan ham ajrab, amakilari Abu Tolib qo'lga qoladilar. Amakilari ul zotni xuddi o'z farzandlariday katta qiladi. Biroq ota va ona dardi Rasuli akramni bir lahza ham chetlab o'tmaydi, yetimlik azobini tortadilar.

Men yetimin har ne taqdiriga tanbeh keltumisham

Dunyoda ko'rsang, yetimlar barchadin munglug' erur

Xor o'lur yetim agarchi sajralik tug'lug' erur  
Hazrating'a hasratimni ozg'ina keltumisham  
Ul yetim bulgan kimarsa angla Payg'ambar erdi  
Ul dam yetimlik dardini me'roj tuni Haqqa dedi  
Bu yetimlik sharbatini ichdi odam sayyidi  
Sen bilan menga bu ishni ibrat olsun deb aytdi  
Men qazosig'a rizo bermakka tan keltumisham  
Mundayin arzin dedi Me'roj tuni Haqqa Rasul  
Alqissa  
Rasul me'roj tuni bu arzin aytdi  
Xudo lomakon ham tahsin aytdi  
Dedi Olloh seni o'z nurimdin yaratdim  
Vale naslingni Odamdin yaratdim  
Shafi u Muznibin qo'ydim otingni  
Senga o'tdim gunohi ummatingni.

“Nuri Muhammadiya”ga ko'ra, Alloh taolo barcha olamlarni yaratishdan avval bir nur yaratgan. U Muhammad nuri bo'lib, shu nur tufayli olamni yaratadi. “Turkiy Me'rojnoma”da aynan shu jihatga to'xtalib o'tadi. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida ham bu haqida ma'lumot bor. Asarning 3-bobida: Payg'ambar Rasuli akram madhi – na'ni o'z ichiga oladi. Bobda Navoiy “Nuri Muhammadiya” haqida fikr yuritarkan, bu nur olam yaratilishidan ham ilgari mavjud bo'lganligini, Odam Atodan Shis payg'ambarga va shu orqali ko'plab nasllarga o'tib, Rasuli Akramning otalari Abdullohga yetib kelganligi va nihoyat uning farzandi chehrasida payg'ambarlik nuri sifatida zohir bo'lganligini yozadi [A.Qayumov,1991:5].

Xudoyim qildi ul dam mehmonlig'  
Senga aylay ziyofat mehmonlig'  
Qilay ro'zi jazo sayri dori mahshar  
Senga yana ham bor mahshar  
Suvora sen bo'lursan, el piyoda

Jami anbiyolar o'ngu so'lda

Oni kunda jami avliyolar

Islom ta'limotida mahshar kuni, ya'ni qiyomatda dunyo tugagach insonlar hammasi bir joyda to'planadi. Alloh taolo bularni so'roq qiladi. Asarda bu voqealarga ham ishora berib ketiladi. Unda Rasuli Akram barchaga suvora (otliq, ot-ulovga mingan holda) bo'lishlari, qolgan payg'ambarlar esa u zotning o'ng va so'l tomonlarida borishlari aytib o'tiladi.

Alar keyinida jumlayi ulamolar

Xate ozodni sanchib boshiga

Yig'ilur jumlayi osiylar qoshiga

O'shal yerda tilagin, men beroyin

Arosat ichida xushnud qiloyin

Xudoyingdin bilursan rozi anda

Keling ko'pdur dili bu yerda manda

Qilurman suyi jannati ishorat

Kirursan boshlayubon osiy ummat

Yururlar ko'tarib anda lavongni?

Ko'rorsan ul zamon lutfi Xudongni

Qilursan anda jannat ichra javlon

Payg'ambarning ortidan esa barcha olim-u ulamolar yuradilar, barcha gunohkorlar uning oldiga yig'iladilar. Alloh taolo o'sha yerda nima tilasa berishini va qiyomatda Alloh taolodan rozi bo'lishini aytadi. Yana Allohning marhamati shunda ediki, U zot bandalarning gunohlaridan o'tib, jannatga ishora qilib o'tadi, osiy bandalar gunohlaridan poklanib jannatga yo'l oladilar. U yerda martabasi ko'tarilib, Allohning lutfini ko'rishini o'z rasuliga aytib o'tadi.

Muallif esa fikrlarni davom ettirib Alloh va uning rasuli o'rtasida yana qancha kishi bilmas so'zlar borligini va bir qancha va'dalar berilganini aytib o'tadi hamda Allohning keng marhamatidan umid qilib, Undan umidsiz qilmasligini, O'zidan umidvorligini aytib "Turkiy me'rojnoma"ning "Me'rojnoma" qismini yakun yasaydi.

Yana ul yerda necha so'zlar erdi  
Kishi bilmas na turluk va'da qildi.  
Bu kamtarni, yo karimo, qilma noumid  
Sening keng rahmatingdin aylar umid  
Tammat bil xayr, bil xayr.

Xulosa. Ushbu asar orqali Me'roj hodisasi, samoda payg'ambarimizning Alloh bilan uchrashganliklari, payg'ambarlar, farishtalar haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda Rasuli Akramning yoshlik yillaridagi kechmishlari haqida ham ma'lumot olishimiz mumkin. Asarning "Me'roj noma" qismida Me'roj kechasi bilan bog'liq ana shunday fikrlar bayon etilgan. Ushbu bo'lim orqali muallif o'quvchiga me'roj kechasi bilan birgalikda, Allohdan hech vaqt umidsiz bo'lmaslik haqida ham aytib o'tadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov A. E'tiqod durdonalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B.72 .
2. Axtam Ahmedov. "Muorijun-nubuvvat" asari tarixiy manba sifatida. "International scientific – practical online conference" jurnali, 2020. – 28-29-may. – 870 b.
3. Imom Buxoriy. Al jome as- sahih. I jild. – Toshkent: Qomuslar, 1991. – B. 58.
4. Imomi A'zam Abu Hanifa. Musnad. – Toshkent: Hilol, 2014. – B.79 .
5. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). Tahrir hay'ati: A.Qayumov va boshq. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.
6. Me'rojnoma turkiy. Buxoro adabiyot va san'at muzeyi. – Toshkent: G'ulomiya. 1914. Inv.23497/11
7. Sog'uniy Alixonto'ra. Tarixi Muhammadiy. – Toshkent: Movarounnahr, 1997. – B.51 .
8. Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun. 2019. – B.174.
9. Turdiyev Jahongir Zafariddin o'g'li Turkiy tildagi me'rojnoma larning qiyosiy-matniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. – Toshkent: 2022. – B.13.
10. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimai va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti matbaa birlashmasi. 2012. – B.187
11. O'zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning qisqacha tarixlari va ahli baytlari. 11.12.2017. [www.islamonline.uz](http://www.islamonline.uz)

## **IBROHIM HAQQULOVIY TADQIQOTLARIDA BOBORAHIM MASHRAB IJODIGA MUNOSABAT**

**Tolibova Farida Farhodovna,**

*Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti*  
[tolibovafarida290@gmail.com](mailto:tolibovafarida290@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Ibrohim Haqqulovning Boborahim Mashrab ijodiga doir ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Unda olimning Mashrab she'riyatini tasavvufiy-irfoniy nuqtayi nazardan talqin etish usuli, shoir ijodidagi ilohiy ishq, ruhiy hurriyat, qalandarlik va haqiqatparastlik masalalariga munosabati yoritilgan. Shuningdek, maqolada Mashrab she'rlaridagi ramziy obrazlar hamda Alisher Navoiy an'analari bilan bog'liq jihatlar misollar asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Boborahim Mashrab, Ibrohim Haqqulov, tasavvuf, irfon, qalandarlik, ilohiy ishq, nafs, ruhiy hurriyat, mumtoz adabiyot, talqin.

**Annotation :** This article analyzes Ibrahim Haqqulov's scholarly views on the works of Boborahim Mashrab. It highlights the scholar's interpretation of Mashrab's poetry from a mystical and spiritual perspective, as well as his views on divine love, spiritual freedom, qalandar philosophy, and the idea of truth in the poet's works. The article also examines symbolic images in Mashrab's poetry and their connection with the literary traditions of Alisher Navoi through textual examples.

**Keywords:** Boborahim Mashrab, Ibrahim Haqqulov, Sufism, mysticism, qalandar philosophy, divine love, nafs, spiritual freedom, classical literature, interpretation.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Boborahim Mashrab o'ziga xos ijodiy uslubi va qalandarona hayot tarzi bilan ajralib turadi. Shoir hayoti davomida xalq orasida katta hurmat qozongan bo'lib, u haqda ko'plab rivoyat va tazkiralari yaratilgan. Mashrab shaxsi va ijodi haqidagi muhim manbalardan biri Pirmat Setoriy tuzgan "Qissayi Mashrab" asaridir. Ushbu manbada shoirning hayoti, insoniy fazilatlari va ijodiy qiyofasi batafsil yoritilgan.

Mashrab ijodi yuzasidan Abdurauf Fitrat, Izzat Sulton, Vohid Zohidov, G'afur G'ulom, A. Hayitmetov kabi olimlar tadqiqot olib borganlar. Jumladan, Fitrat mashrabshunoslikning dastlabki tadqiqotchilaridan biri sifatida "Mashrab" nomli salmoqli ilmiy asar yaratdi. Tadqiqot uch qismdan iborat bo'lib, unda avvalo shoirning hayoti, tug'ilgan joyi, sayohatlari va vafoti haqidagi manbalar tahlil

qilinadi. Keyingi qismda esa Mashrabning qalandarlik yo‘li, qalandarlikning mohiyati hamda uning shakllanish bosqichlari ilmiy asosda yoritiladi. Asarning so‘nggi qismida esa shoir ijodi badiiy va til xususiyatlari nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Fitrat Mashrab she‘riyatining tiliga baho berar ekan, unda g‘arb turkchasi unsurlari ham sezilishini ta’kidlaydi. Bu esa shoir ijodining keng adabiy-madaniy aloqalar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

“G‘arb turkchasini ham

Mashrab tilida ko‘zga ko‘rinarlik ta’siri bor:

Bu g‘ussadin o‘lsam, boshima ohim alamdir,

Mashrab o‘zingni solma necha turli jafog’a,

Bas, jandani kiydim, o‘zimi darbadar ettim,

Arzi dilima etmak uchun zor solibman,

Hay-hay na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat. [Abdurauf Fitrat, 2000:101]

Mustaqillik yillarida esa shoir merosiga xolisona yondashuv kuchaydi. Ayniqsa, Ibrohim Haqqul, Najmiddin Komilov va N. Jumaxo‘ja tadqiqotlarida Mashrabning tasavvufiy qarashlari, falsafiy dunyoqarashi va ruhiy olami chuqur tahlil qilindi.

Shu o‘rinda bir jihatni alohida ta’kidlash joizki, Ibrohim Haqqulov mumtoz adabiyotni tasavvuf va irfon asosida tadqiq qilgan, asarlardagi yashirin ma’no va ruhiy qatlamlarni teran tahlil qilishi bilan boshqa tadqiqotchilardan ajralib turuvchi olimdir. Bundan tashqari, Ibrohim Haqqulov mumtoz ijodkorlar merosiga yangicha ilmiy va falsafiy nigoh bilan yondashgan adabiyotshunosdir. Ayniqsa, uning Boborahim Mashrab ijodiga doir qarashlari shoir shaxsiyati va badiiy-estetik dunyosini yangicha anglashga xizmat qiladi. Olim Mashrabni oddiy qalandar shoir emas, balki ruhiy ozodlik, ilohiy ishq va haqiqat uchun kurash timsoli sifatida talqin etadi.

Dunyo Mashrab ruhiy o‘zligi, ma’naviy olami qarshisida juda kichrayadi. U shoir nazdida shunchaki qo‘l siltab, tepib ketaveradigan narsaga aylanadi. Mashrab o‘tar dunyoda har kim o‘zicha bir nimaga muhtalo bo‘lib, rohat-farog‘atini fido



aylashini afsus bilan tilga oladi. O'tkinchi dunyoning nayranglari qarshisida tik tura olishdek chinakkam kuch topish kerakligi bot-bot ta'kidlaydi. Ahmad Yugnakiy bejizga: "Dunyo avraydigan ilondir, uni yuvosh, yumshoq deb o'ylasang, ichi achchiq ichimlik kabi og'udir",-deya yozmagan.

Bu dunyo avrog'ich ilon kabidir

Boshlab borar joyi jarning labidir

Bu dunyo zohirdan arslonday yuvvosh

Gozal ko'ringaydir, nur sochar quyosh [ Ahmad Yugnakiy, 2002:25].

Mashrab ijodida ham bu kabi fikrlar go'zal misralarda jilvalanadi.

Dunyo sorig'a bir kelibon g'amzada kettim,

Bir lahza dam olmay, turubon lahzada kettim [Mashrab Boborahim, 2004: 232].

Ibrohim Haqqulov esa Mashrabni qalandarlik ruhiyatining yirik vakili sifatida baholaydi. Olimning ta'kidlashicha, Mashrab uchun dunyo boyligi, mansab va shuhrat emas, balki ruhiy ozodlik va Haq ishq muhim hisoblangan. Ko'pgina tadqiqotlarda Haqqulov Mashrabning qalandarlik mohiyatini ochib berar ekan, uning dunyo havasidan voz kechib, ichki poklik va ma'naviy komillikka intilganini qayd etadi. Olimning fikricha, Mashrabdagi "isyon" oddiy norozilik emas, balki ilohiy haqiqat, chinakkam ishqni izlash natijasidir. Shoirning:

Yorsiz va bodasiz Makka bormoq nimadir

Qolgan ul Ibrohimdan eski do'konni na qilay

Uraymu boshima sakkiz behishtu do'zaxin

Bo'lmasa vasl manga, ikki jahonni na qilay [Ibrohim Haqqul,1991:184]

mazmunidagi qarashlari insonning komilligi ruhiy iztirob va qalb uyg'oqligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Ibrohim Haqqulov talqinlarida Mashrab she'riyati tashqi ma'nodan ko'ra botiniy-irfoniy mazmun bilan qimmatli ekanligi olim tomonidan alohida ta'kidlanadi. Yuqoridagi misralarda ham tasavvufiy qarash mujassam. Bu yerda "yor" – Haq, ilohiy muhabbat timsoli, "boda" esa ilohiy ishq mastligi ma'nosida qo'llangan. Mashrab nazarida qalbida ishq va ma'rifat

bo‘lmagan insonning Makka safari oddiy tashqi amal bo‘lib qoladi. Shoir Ka‘bani “Ibrohimdan qolgan eski do‘kon” deya ramziy ifodalar ekan, shaklparastlikni emas, qalb uyg‘oqligini ulug‘laydi. Haqqulovning ta‘kidlashicha, Mashrab tasavvufidagi eng muhim haqiqat – Haqni qalb bilan topishdir.

Keyingi misralarda esa shoirning ishq falsafasi yanada keskinlashadi. Unda Mashrab uchun jannat ham, do‘zax ham asosiy maqsad emasligi anglashiladi. Tasavvufda chin oshiq uchun yagona orzu – vasl, ya’ni Haqqa yetishishdir. Agar ilohiy visol bo‘lmasa, na bu dunyo va na oxiratning qadr-qimmati qoladi. Ibrohim Haqqulov bunday misralarni Mashrab ruhiyatidagi cheksiz ishq, isyonkorlik va ruhiy hurriyatning ifodasi sifatida baholaydi. Shoir tashqi diniy qo‘rquv yoki mukofotni emas, mutlaq Haqiqatni istaydi. Olimning qayd etishicha, Mashrab jamiyatdagi riyo, munofiqlik va soxta taqvodorlikka qarshi chiqqan. Shu sababli uning she‘rlarida keskin ruh, achchiq kinoya va haqiqat uchun kurash kayfiyati kuchli seziladi. Ibrohim Haqqulov mumtoz adabiyotni o‘rganishda o‘ziga xos ilmiy uslub yaratgan olimdir. U mumtoz asarlarni oddiy tarixiy yoki adabiy matn sifatida emas, balki inson ruhiyati va tafakkurini aks ettiruvchi ma’naviy hodisa sifatida tahlil qiladi. Olim, ayniqsa, tasavvufiy timsollar, irfoniy ma’nolar va ramziy obrazlarni ochib berishga alohida e’tibor qaratadi. Haqqulov Mashrab she‘rlaridagi asosiy “ishq”, “may”, “qalandar”, “darvesh”, “Haq” kabi tushunchalarning tashqi emas, ichki-irfoniy ma’nolarini sharhlaydi. Bu esa Mashrab ijodining falsafiy qatlamlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Olimning tadqiqotlarida badiiylik va ilmiylik uyg‘unlashadi. Shu bois uning asarlari nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki o‘quvchini ruhiy mushohadaga ham chorlaydi. Ibrohim Haqqulov Mashrab ijodining markazida “haqiqat” tushunchasi turishini alohida ta‘kidlaydi. Olim nazarida Mashrab uchun insonning tashqi amalidan ko‘ra qalb pokligi muhimroqdir. Shu sababli shoir rasmiy diniy taassub va soxta zohidlikni keskin tanqid qiladi. Mashrabning: “Zohid seni yuz haj ila bir ko‘ngli buzuq, Yaxshiroq erur”, mazmunidagi qarashlari sharhlanadi. Bu satrlar orqali shoir inson qalbi va samimiyatini barcha tashqi amallardan ustun qo‘yadi. Haqqulov ana shu jihatlarni tasavvufning eng muhim mohiyati sifatida izohlaydi. Avvalgi tadqiqotlarda Mashrab

ko‘proq afsonaviy qalandar yoki xalq shoiri sifatida talqin etilgan bo‘lsa, Ibrohim Haqqulov uning falsafiy va irfoniy dunyosini ochishga harakat qiladi. Olim Mashrabni ruhiy ozodlik kuychisi, ilohiy ishq oshig‘i, haqiqat izlovchi mutafakkir, isyonkor shoir sifatida talqin etadi.

Mashrab ijodiyoti bilan yaqindan tanish bo‘lgan olim M. Zokirov shoirning dastlabki ijod olamiga qo‘ygan qadami mistik tasavvufga asoslanganligi so‘zlab, shoirning ishq kuyida majzubona raqsiga tushib, qaynagan hislariga erk beradi, o‘zini “ramuziy ishq “baxsh etganini ochiq so‘zlaydi. Biroq mistik so‘fizm ta‘siri ayrim bir aniq faktlarga qaraganda u qadar uzoq vaqt davom etmaganligi haqiqatga yaqindir. Ya‘ni mistik so‘fiylikning rasmiy aqidalarini (masjidga kirib sajda qilish, ro‘za tutish va shunga o‘xshash rasm-rusumlarni) shoir keyinchalik tan olmagan [Zokirov, 1984:63].

Mashrab ijodini kuzatar ekanmiz, shoir Alisher Navoiy adabiy merosi va tasavvufiy qarashlari bilan yaqindan tanish bo‘lganiga amin bo‘lamiz. Ayniqsa, uning she‘rlarida uchraydigan “nafs iti” obrazi bu jihatni yaqqol tasdiqlaydi. Tasavvuf adabiyotida nafs insonni Haq yo‘lidan chalg‘ituvchi, uni tubanlikka yetaklovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Shu sababli mumtoz ijodkorlar nafsni ko‘pincha yirtqich yoki itoatsiz hayvon obrazida tasvirlaydilar. Alisher Navoiy:

Nafs itin qilsang zabun,

Olamda yo‘q sendek shujo,

deya insonning eng katta g‘alabasi o‘z nafs ustidan hukmron bo‘lish ekanini ta‘kidlaydi. Navoiy talqinida nafs – insonning ichki dushmani, uni yengish esa haqiqiy jasoratdir. Mashrab ijodida ham ayni shu ruh davom etadi. Shoir nafsni inson qalbini egallovchi, uni ilohiy haqiqatdan uzoqlashtiruvchi kuch sifatida ko‘rsatadi. Mashrabning qalandarona dunyoqarashi va tasavvufiy qarashlarida nafsga qarshi kurash ruhiy komillikning asosiy sharti hisoblanadi. Shu jihatdan uning she‘rlari Navoiy an‘analarining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Boborahim Mashrab o‘zbek mumtoz she‘riyatiga yangi ruh va o‘ziga xos ijodiy nafas olib kirgan ulkan san‘atkordir. Mashrab she‘riyati o‘zining samimiyligi va hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Bu she‘riyat

haqiqiy shoir shaxsi va qismatini mukammal bir tarzda namoyon etishi bilan ham e'tiborga molikdir. Undagi mazmun kishilar baxtli umr kechirishni targ'ib va tashviq qiladi. Qalblardagi dardlarga malham bo'ladi. Millonlab odamlarni ezgullik tomon chorladi va chorlamoqda. Ibrohim Haqqulovning Boborahim Mashrab haqidagi tadqiqotlari esa mashrabshunoslik rivojida muhim o'rin tutadi. Olim Mashrab ijodini tasavvuf, qalandarlik va ruhiy hurriyat bilan bog'liq holda chuqur tahlil qilgan. Uning ilmiy qarashlari orqali Mashrabning murakkab ruhiy dunyosi, falsafiy tafakkuri va haqiqatparast shaxsiyati yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Haqqulov tadqiqotlari mumtoz adabiyotimizni zamonaviy ilmiy tafakkur asosida o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2 жилд. Илмий асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2000.
2. Ahmad Yugnakiy. Hibbat ul-haqoyiq (Bahrom G'oyib tarjimasi). – Тошкент, 2002.
3. Mashrab, Boborahim. Dilim daryoyi nurdur. Tanlangan she'rlar. – Тошкент: ASN, 2004.
4. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent, 1991.
5. Zokirov. M.Erk va ma'rifat kuychilari. – Toshkent, 1984.
6. Zulahyo.R. Ibrohim Haqqul haqiqati. – Toshkent: Dizayn-print, 2023.

### **AHMAD TABIBIY VA UNING “VOMIQ VA AZRO” DOSTONI**

**Ma'murjon MAMAYUSUPOV,**  
*ToshDO'TAU mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** Sharq mumtoz adabiyotida ishqiy-epik dostonlar alohida o'rin egallaydi. “Vomiq va Azro” ana shunday asarlar sirasiga kirib, u asrlar davomida turli ijodkorlar tomonidan qayta ishlangan, boyitilgan va keng tarqalgan syujetlardan biridir. Mazkur maqolada Sharq mumtoz adabiyotining yirik ishqiy-epik yodgorliklaridan biri bo'lgan “Vomiq va Azro” dostoni hamda uning Ahmad Tabibiy tomonidan yaratilgan mukammal varianti ilmiy tahlil qilinadi. Unda dostonning tarixiy kelib chiqishi, turli mualliflar tomonidan yaratilgan versiyalari, o'zbek va boshqa sharq adabiyotlaridagi o'rni, syujet tuzilishi, obrazlar tizimi

hamda g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yoritiladi. Asarda muhabbat, sadoqat, adolat va insoniy kamolot g'oyalari asosiy o'rin tutishi ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Vomiq va Azro, Ahmad Tabibiy, Sharq adabiyoti, ishqiy doston, syujet, obraz, Xorazm adabiy muhiti.

**Abstract:** In Eastern classical literature, romantic-epic poems occupy a special place. "Vomik and Azro" is one such work and has, over the centuries, been revised, enriched, and widely circulated by various authors. This article provides a scholarly analysis of the poem "Vomik and Azro," one of the significant romantic-epic monuments of Eastern classical literature, as well as its refined version created by Ahmad Tabibi. It examines the historical origin of the poem, its versions produced by different authors, its place in Uzbek and other Eastern literatures, its plot structure, system of characters, and its ideological and artistic features. The work highlights that the main ideas emphasized in the poem are love, loyalty, justice, and human perfection.

**Key words:** Vamik and Azra, Ahmad Tabibi, Eastern literature, romantic epic, plot, character, Khorezm literary tradition.

Sharq mumtoz adabiyotida ishqiy-epik dostonlar alohida o'rin egallaydi. "Vomiq va Azro" ana shunday asarlar sirasiga kirib, u asrlar davomida turli ijodkorlar tomonidan qayta ishlangan, boyitilgan va keng tarqalgan syujetlardan biridir. Bu doston "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Yusuf va Zulayho", "Tohir va Zuhro" kabi mashhur asarlar bilan bir qatorda turadi.

Dostonning muhim jihati shundaki, u nafaqat sevgi hikoyasini, balki jamiyat, adolat, insoniy munosabatlar va ma'naviy kamolot masalalarini ham o'zida mujassam etadi. Shu sababli u Sharq va G'arb sharqshunos olimlari tomonidan ham o'rganilgan.

"Vomiq va Azro" syujeti juda qadimiy ildizlarga ega. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida ushbu rivoyat haqida ma'lumot beradi. Unga ko'ra, Amir Abdullo ibn Tohirga bu doston haqida yozilgan kitob hadya qilingan, ammo u diniy sabablarga ko'ra uni rad etib, yo'q qilishga buyurgan.

Bu holat dostonning o'sha davrda ham bahsli va murakkab mavzu bo'lganini ko'rsatadi. Dastlabki yozma nusxalar yo'q qilingan bo'lsa-da, syujet xalq og'zaki ijodi orqali yashab kelgan.

XI asrda Firdavsiy zamondoshi bo'lgan Unsuriy tomonidan "Vomiq va Azro" dostoni yozilgan. Bu asar to'liq saqlanmagan, ammo uning 316 baytlik parchasi aniqlangan.

"Vomiq va Azro" dostonining yozma adabiyotdagi ilk namunalari haqida turli qarashlar mavjud. Ana shunday qarashlardan biri – bu doston ishq-muhabbat mavzuyidagi yunon eposlaridan bo'lib, uni IX asrda Sahl ibn Horun (hij. 215/mel./830) nasriy yo'lda arab tiliga o'g'irgan. Keyinchalik bu tarjima bilan Abu Rayhon Beruniy, Fasihi Jurjoniylar ham shug'ullanganlar [Валихўжаев, 1974: 82].

Fors adabiyotidagi "Vomiq va Azro" dostonining muallifi Abulqosim Hasan Unsuriy ekani ma'lum. "Vomiq va Azro" dostoni XI asrda Unsuriy tomonidan yangidan qayta ishlangan. Unsuriy Firdavsiy zamondoshi bo'lib, o'z davrining yirik adiblaridan biri hisoblanadi. Biroq Unsuriyning bu dostoni to'liq holda bizgacha yetib kelmagan, faqat ayrim parchalarigina saqlanib qolgan. Sharqshunos olim Muhammad Shafi' tomonidan Kembrijda o'tkazilgan xalqaro kongressda ushbu parchalar haqida ma'lumot berilgan. Ma'lum bo'lishicha, saqlangan qism 316 baytdan iborat bo'lib, dostonning o'rta qismiga tegishlidir [Ғанихўжаев, 1978: 56-57].

XVI asrda esa "Vomiq va Azro" dostonini Lomeiy ham yozadi. Manbalarda Lomeiy bu asarni turk tiliga tarjima qilgani, umuman, bu mavzuda 13 ta asar yozilgani aytiladi. Bu asarning yana bir qo'lyozma nusxasi 1833-yilda sharqshunos olim Y.Hammer tomonidan topilib, Vena kutubxonasiga topshirilgan [Ғанихўжаев, 1978:58].

Ta'kidlash kerakki, turkiy adabiyotdagi "Vomiq va Azro" syujeti dastlab arab adabiyotida shakllangan bo'lib, keyinchalik fors adabiyotiga o'tgan. Aynan fors adabiyotida, xususan, Unsuriy tomonidan yaratilgan dostonning forsiy varianti keyingi mualliflar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Lomeiy Chalabiy ushbu

an'anani davom ettirib, asarni Usmonli adabiy muhiti talablariga moslab qayta yozgan. Lomeiy asarida asosan, Vomiq va Azroning pok va samimiy muhabbati yetakchi o'rin tutadi. Ular o'rtasidagi sevgi jamiyat va taqdir sinovlari bilan to'qnash keladi. Shuningdek, Lomeiy asarida muhabbat insonni ruhiy kamolotga yetaklovchi kuch ekanligi, unda ilohiy ishq ramziy tarzda ifodalangani tasvirlanadi.

Bu doston turkiy xalqlar adabiyotida ishqiy-didaktik dostonlar rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. U nafaqat saroy adabiyotida, balki xalq og'zaki ijodida ham qayta ishlangan. Jumladan, uyg'ur shoiri Abdurahim Nizoriy ham "Muhabbat dostonlari" to'plamiga "Vomiq va Azro" dostonini kiritgan. Tadqiqotchilarga ko'ra, bu asar tarjima emas, balki uyg'ur tilida yaratilgan original variant hisoblanadi [Ғанихўжаев, 1968: 10]. Garchi bu doston turli mualliflar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, uning turkiy (o'zbek) tilidagi variantlari to'liq tadqiq etilgani yo'q.

"Vomiq va Azro" dostoni Xorazmda ham nasriy va she'riy yo'lda Mag'furxo'ja Xorazmiy va Ahmad Tabibiylar tomonidan qayta yozilgan. Adabiyotshunos F.G'anixo'jayevning ma'lumot berishicha, dostonning Xorazm variantlari uchun Zohir Kirmoniy tomonidan yozilgan variant asos bo'lgan. XVIII asr fors adabiyoti vakili Zohir Kirmoniy ham "Vomiq va Azro" dostonini yozgan. Muallif asarining o'ziga xosligi Kirmoniy dostonida xalq og'zaki ijodiga xos afsonalardan ijodiy foydalanganidir. Shoir afsonani tarix bilan, ishqiy sarguzashtlarni davrning ijtimoiy masalalari bilan bog'laydi. Kirmoniyning dostoni fors tilida nasr yo'lida yozilgan bo'lib, bu asar 1880, 1853, va 1901-yillarda kotiblar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan [Ғанихўжаев, 1978:59].

O'zbek adabiyotida "Vomiq va Azro" syujeti bir necha bor qayta ishlangan. Xorazm adabiy muhitida Mag'furxo'ja Sa'diy Hasan Xorazmiy ushbu asarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu tarjima sodda, xalqona va badiiy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lgani uchun keng tarqalgan. XIX asr Xorazm adabiy hayotida tarjima an'anasi kuchli bo'lib, ko'plab fors-tojik asarlari o'zbek tiliga o'girilgan. "Vomiq va Azro" ham shular jumlasidan bo'lib, bir necha marta qayta ko'chirilgan va keng ommalashgan.



Uyg‘ur shoiri Abdurahim Nizoriy “Muhabbat dostonlari” to‘plamiga “Vomiq va Azro”ni kiritgan. Bu variant xalq orasida keng tarqalgan syujet asosida yaratilgan mustaqil ijodiy talqin hisoblanadi. Tadqiqotchilar bu variantni tarjima emas, balki xalq syujeti asosida yaratilgan original asar, deb baholaydilar.

“Vomiq va Azro” dostonining yana bir varianti Tabibiy tomonidan yaratilgan. Bu asar 1910-yilda yozilgan bo‘lib, 81 bob va taxminan 16 ming misradan oshiqroq. Tabibiy bu dostonni bir yil davomida yaratgan. Asarda Navoiy an‘analari, klassik masnaviy uslubi va xalqona ifoda uyg‘unlashgan. Tabibiy dostonida tashbeh, mubolag‘a, monolog va dialog, peyzaj, xalq maqollari va hikmatli so‘zlar, lirik chekinish kabi badiiy vositalar keng qo‘llanilgan.

Tabibiyning “Vomiq va Azro” dostoni F.G‘anixo‘jayev tomonidan nashrga tayyorlangan. Ta’kidlash kerakki, olim asarni tabdil qilishda juda katta va mashaqqatli mehnatni amalga oshirgan. Shunday bo‘lsa-da, uning nashrida ayrim kamchiliklar kuzatiladi. Masalan, tegishli lug‘atlar, ilmiy izohlar asosida, shuningdek, doston nusxalari o‘zaro qiyosan tabdil etilganda nashrning qimmatini oshgan bo‘lardi. Qolaversa, sobiq tuzumga xos asarlarning an‘anaviy kirish qimlari tushib qolish holati bu nashrda ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, F.G‘anixo‘jayev tomonidan amalga oshirilgan nashr:

*“bu suxandonlarga ma‘zurat bila bir necha so‘z demak va alardin  
aybpo‘shlik va islohpob‘shlik istamak*

*Yo‘nub jaxd ila tinmay nugi xoma,  
Tilarman yozg‘ali ishq ichra noma.*

*Yaqin bilgum va lekin beshak-u rayb,  
Erur boshdin oyog‘im nuqs ila ayb.*

*Na menda so‘z demakka bir fasohat,  
Fasohat yo‘qki, nazm etmakka jur‘at.*

*Vale ma‘murlig‘ uzrini qo‘ldim,  
Qilurg‘a nazm fikrin moyil o‘ldim.*

*Madad emdi umid aylab xudodin,  
Tilab himmatni shohi avliyodin.*

*Tanimda toki jonim bor yugurgum,  
Nekim qismat esa ollimda ko'rgum.*

*Suxandonlardin ammo subh ila shom,  
Zamiring'a bu matlab bordurur kom*" [Ғанихўжаев, 1968: 65] – shaklida boshlanadi. Dostonning asliyati esa quyagicha boshlangan:

*Bismillohir-rahmonir-Rahim  
Sanov-u hamd ul jon ofaring'a,  
Ki zoti keldi shoyon ofaring'a.*

*Ikki harf ila bo'lg'och nukta payro,  
Qilurg'a hikmat osorin huvaydo.*

*To'quz aflokni chekdi rafe' ul,  
Bori yer yuzini yoydi vase' ul.*

*Yaratdi nujum sayyor-u savobit,  
Qilib Xoliqlig'in har ishda sobit.*

*Samolar borini tutdi muallaq,  
Tamomi yerni tashkilin mutabbaq*".

O'zFAShI Asosiy fond.ida saqlanayotgan 1243, 2057-raqamli qo'yozmalarning 1<sup>b</sup>-sahifasidan Ahmad Tabibiyning "Vomiq va Azro" dostoni jami 46 baytlik hamd hamddan so'ng, munojot, payg'ambarimiz (s.a.v.)ga na't, Me'roj tuni bayoni, chahoriyorlar ta'rifi kabi dostonning ma'rifiy-badiiy qimmatini ko'rsatuvchi kirish bilan boshlanadi. Qolaversa, dostonning xotimasidan ham ancha qism nashrga kirmay qolgan.

Xulosa qilib aytganda, “Vomiq va Azro” dostoni Sharq mumtoz adabiyotining muhim yodgorliklaridan biridir. Tabibiy varianti esa bu syujetning eng mukammal va to‘liq badiiy shakli hisoblanadi. Doston nafaqat ishqiy asar, balki ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega adabiy yodgorlik sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, ushbu dostonni avvalo, zamonaviy matnshunoslik va adabiy manbashunoslik tamoyillari asosida asliyotga mos nashrini amalga oshirish, so‘ng adabiyotshunoslik mezonlariga tayanib, badiiy qimmatini ochib berish dolzarb vazifalardandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidagi 3461, 3460/IV, 1243, 2057 raqamli qo‘lyozmalar.
2. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo‘lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. – Toshkent: Bookmany print. 2023. – 253 b.
3. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974. – 150 б.  
– Ғанихўжаев Ф. Танланган асарлар. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1968. – 230 б.
4. Ғанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – 80 б.

### **LUTFIY TURKIY DEVONINING QO‘LYOZMA NUSXALARI ARO MATN TAHRIRI (Parij nusxasi hamda 5024-I inventar raqamli qo‘lyoma nusxalar asosida)**

**Madina Bobomurodova Olimjon qizi,**  
*Qarshi davlat universiteti magistranti*  
E-mail: [hasanmadin19.21@gmail.com](mailto:hasanmadin19.21@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Lutfiyning turkiy “Devon”I ikki qo‘lyozma nusxasi tahlil maydoniga tortilgan bo‘lib, ushbu qo‘lyozmalarning orasidagi ba’zi matniy tafovutlar aniqlandi. Yuzaga kelgan farqlar asosli dalillar asosida tahlil qilindi. Bu kabi matniy tafovutlar bir qancha va ularni matnshunoslik asosida tadqiq etib, eng to‘g‘ri muqobilini, variantini aniqlash bizning kun tartibimizdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Lutfiy, devon, matnshunoslik, manbashunoslik, tafovut, qo‘lyozma nusxa.

**Annotation:** In this article, two manuscript copies of Lutfi's Turkic "Devan" are brought into the scope of analysis, identifying certain textual discrepancies between them. The resulting differences are analyzed based on substantiated evidence. Given that such textual variations are numerous, researching them through the lens of textual studies (textology) to determine the most accurate.

**Key words:** Lutfi, devan, textology, source studies, discrepancy, manuscript copy.

Matn tahriri qo'lyozma nusxalar orasida mukammal asl matnni tasniflashga hamda muallifning o'zi yozgan asarlarni mukammallashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy jarayon hisoblanadi. Matn tahriri bir necha turlarga bo'linadi:

- G'oyaviy tahrir;
- Uslubiy tahrir;
- Asardagi faktlarni kengaytirishga qaratilgan tahrir;
- Bir necha turni o'zida mujassam etgan tahrir.

Tahrir jaroyinida biz muallif tahriri, muharrir tahrirlariga duch kelamiz. Badiiy va ilmiy tahrirlarda uslub jihatdan ayrim g'alizliklarni bartaraf etib, matnni sayqallash ishlarini olib boradi. Mumtoz adabiyotda esa muharrir bevosita yozma yodgorliklar bilan bevosita tadqiqot ishini olib boradi. Bu jarayonda tadqiqotchining tadqiqot obyekti qo'lyozma nusxalar, chop etilgan nashrlar asosiy adabiy manba vazifasini bajaradi.

Bir necha qo'lyozmalar muqoyasa qilinayotganda o'sha qo'lyozmaning yozilgan davri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, muallif yashagan davrga yaqinroq, yani o'sha yuz yillikda ko'chirilgan nusxa bo'lsa, ushbu nusxa asl nusxa sifatida qaralishi mumkin, aksincha bir necha asrlardan keyin xattot tomonidan ko'chirilgan matnlar nisbatan to'g'ri bo'lishi haqiqatga yaqindir. Biz matnshunos sifatida har bir davrda ko'chirilgan nusxalarni biri to'g'ri, biri noto'g'ri deya olmaymiz, bizning vazifamiz yuzaga kelgan farqli tafovutlarni aniqlab, ularni ilmiy dalillar asosida jamoatchilikka ochiqlashdir.

Mazkur maqolada ikki qo‘lyozma nusxa asosida quyidagi matniy tafovutlar aniqlandi:

- Parij Milliy kutubxonasida 981- inventar raqami ostida saqlanuvchi Lutfiy devoni qo‘lyozma nusxasi;
- Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Lutfiy devonining 5024-I inventar raqamli qo‘lyozma nusxasi.

Bizning qo‘limizdagi ikki tayanch nusxani muhokama maydoniga tortib, matniy tafovutlarni aniqlaymiz. Yuzaga kelgan muhokamali xilma-xillikni ilmiy dalillar asosida aniqlab o‘tamiz. Ikki devon ham shoir Lutfiyning devoni, biroq ikkisi ikki kotib tomonidan ko‘chirilgan, negaki tahlil va tadqiq jarayonida yozilish uslubi, harflarning shakllari va qo‘shimchalarning qo‘shilish tartibi turlicha. Chunonchi, “*Suratingni, ey pari, kim ko‘rsa qilg‘ay jon fido...*” misrasi bila boshlanuvchi g‘azalining ayrim baytlarida so‘zlar, jumalarning nomuvofiqlik holatlari kuzatilgan: *Intiho yo‘qmu balog‘a desam, aytur ko‘zlaring...* bu shakl Parij nusxasida keltirilgan bo‘lsa, “*Intiho yo‘qmu desam husnunga, aytur ko‘zlaring...*” bu ko‘rinish 5024- inventar raqamli qo‘lyozmada aks etgan.

“Devoni Lutfiy”ning 3<sup>a</sup>-betida keltirilgan “*Ul oyki fitna bo‘ldi ko‘ngil qoshu ko‘ziga...*” deb boshlanuvchi g‘azalida ham qator matniy tafovutlarni aniqladik, quyida ular bilan tanishib chiqamiz. Uchinchi bayti birinchi misrasida keltirilgan “gultek” so‘zi qo‘limizdagi ikkinchi nusxada “guldek” shaklda berilgan. Bu yerdagi turlichalik kotibning yozish ulubiga xosdir. Ikki kotibning ko‘chirgan matnlari to‘g‘ridir. Bu yerda grammatik, semantik jihatdan xatoga yo‘l qo‘yilmagan. Bundan tashqari birinchi qo‘lyozma nusxamizda:

كلتيك كولار جيراين بير كون يولوقماديم

آی لارده بير هم اوجراماديم يخشى كوزيكا

*Guldek kular chiroyina bir kun yo‘luqmadim,*

*Oylarda bir ham uchramadim yaxshi ko‘ziga.* [PN:3<sup>a-b</sup>]

baytdagi “chiroyina” jiraين so‘zi o‘rnida ikkinchi nusxada “zamonida” zامانيدا so‘zi keltirilgan:

كل ديك كلار زمانيدا بير كون يولوقماديم

آی لارده بیر هم اوجرامادیم یخشی کوزیکا

*Guldek kular zamonida bir kun yo 'luqmadim,*

*Oylarda bir ham uchramadim yaxshi ko 'ziga.*[5024 IR:3<sup>a</sup>]

Mazkur tafovut baytning ma'nosiga ta'sir o'tkazgan. Chunonchi, birinchi misrada yorning kular chiroyiga, ya'ni ochiq husniga urg'u berilayotgan bo'lsa, keyingi o'rinda esa yorning kayfiyatiga – hushchaqchaq paytiga fokus qaratilmoqda. Bir xil bayt, ammo turlicha mazmun hosil bo'lmoqda. Ikkalasidan qay birini to'g'ri deb topish uchun bizga asl matn kerak bo'ladi. Muxtasar qilib aytganda, har ikki variant ham birdek to'g'ri. Biroq bu ikki qo'lyozma nusxaning yozilish davriga e'tibor berib, ko'chirgan kotibning usulidan kelib chiqib xulosa qilinsa, aniq ilmiy tanqidiy xulosa kelib chiqadi.

Parij nusxasining 4<sup>a</sup>-betida berilgan g'azal matni bilan 5024 I.R. qo'lyozma nusxasining 5-sahifasida keltirilgan g'azal muqoyasa qilib o'rganilganda ba'zi matniy tafovutlar yuzaga keldi. Birinchi qo'lyozma nusxada maqta'ning birinchi misrasida مسكين “*misikin*” [PN:3<sup>b</sup>] so'zi qo'llanilgan, ikkinchi qo'lyozmada bo'lsa, مونكلوغ “*munqlug*” [5024:5<sup>b</sup>] so'zi keltirilgan. O'zbek tili izohli lug'atiga ko'ra “*misikin*” so'zining lug'aviy ma'nosi *bechora, baxtsiz* degani. Uning baytda qo'llanilishi “*Agar senga savobu olqishu duo kerak bo'lsa, bechora Lutfiyni o'tinchnomasini o'qigin*”, degan ma'no tashiydi. Endi “*munqlug*” so'zining ma'nosiga to'xtalsak, ushbu so'z “*g'amgin*”, “*mahzun*” kabi ma'nolarni anglatadi: “*Agar senga savobu olqishu duo kerak bo'lsa, mahzun Lutfiyni o'tinchnomasini o'qigin*”. Lekin bir jihat ham bor “*misikin*” so'zining “*tushkun*”, “*munqli*” kabi ma'nolarini ham hisobga olsak, har ikki qo'lyozmadagi so'zlar bir xil ma'no anglatmoqda. Shu boisdan, semantik jihatdan tahlil qilinganda she'rning mazmuniga putur yetkazgan emas. Qolaversa, vazniga ham ta'sir qilmaydi, har ikki so'z ham yopiq bo'g'in bo'lganligi uchun cho'ziq hijo sanaladi. Xulosa qilib aytganda, mazkur tafovut matnshunoslik hamda manbashunoslik tamoyillariga ko'ra kotibning yozgan davriga borib taqaladi. Chunki har ikki variantda ham g'azalning asl mazmuniga putur yetmagan.

Lutfiy devonning Parij nusxasida keltirilgan yana bir gʻazalni tahlilga tortganimizda baʼzi matniy tafovutlar kuzatildi. Ularni matnshunoslik va manbashunoslik tamoyillari asosida qiyoslaganimizda xato kamchiliklar yaqqol koʻzga tashlanmoqda. Chunonchi, 5<sup>b</sup>-varagʻidan oʻrin olgan “*Suratingni, ey pari, kim koʻrsa qilgʻay jon fido...*” misrasi bila boshlanuvchi gʻazal matlaʼsining birinchi misrasida jumlaning turlichaligiga guvoh boʻldik:

صورتینکنی ای پری کیم کورسه قیلغای جان فدا

[PN:5<sup>b</sup>]سیرتینک غا خود قیلور البت فریشته اقتیدا

*Suratingni, ey pari, kim koʻrsa, qilgʻay jon fido,*

*Siyratinggʻa xud qilur, albat, farishta iqtido.*

Yuqoridagi baytning 5024- I.R. qoʻlyozmada quyidagicha keltirilgan:

صورتینکنی کیم کی کوردی قیلدی جانا جان فدا

[5024 IR:6<sup>b</sup>]سیرتینکغه خود قیلور الیب فریشته اقتیدا

*Suratingni kimki koʻrdi, qildi jono, jon fido,*

*Siyratinggʻa xud qilur olib farishta iqtido.*

Koʻrib turganingizdek, bitta gʻazalning qoʻlyozmalarda turlicha variantda kelmoqda. bu vaziyatda birini xato, birini toʻgʻri deyish mushkul, albatta. Negaki, ikkisi ham bir xil maʼno ifodalab kelmoqda. har ikkisida ham yorning jamoliga oshiq oʻz jonini fido qilishini aytmoqda. Biroq jumlar har xil qurilgan, mazmun esa bir xil. Bu yerda shoir nazarda tutayotgan fikr oʻz oʻrnida ifodalangan. Ikkinchi misradagi matniy tafovut eʼtiborga molik. Birinchi nusxada “*albat*” soʻzi qoʻllanilgan boʻlsa, ikkinchi misrada “*olib*” leksemasi keltirilgan. Lugʻaviy maʼnosi bir-biriga yaqin boʻlmagan soʻzlar matnning semantik qurilishiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazgan. 5024- I.R. qoʻlyozmada kelgan soʻz gʻazalning taʼsirchanligini, shoir aytmoqchi boʻlgan fikrning darajasini tushirgan. Lutfiyning nima demoqchiligini oʻquvchiga yetkazib bera olmagan.

Mazkur gʻazalning uchinchi baytida ham matniy tafovut yuzaga kelmoqda:

[PN:5<sup>b</sup>]انتها یوقمو بلاغه دیسام ایتور کوزلارینک

*Intiho yoʻqmu balogʻa desam, aytur koʻzlaring...*

Ushbu misraning ikkinchi qoʻlyozmada kelishiga eʼtibor qaratamiz:



[5024 IR:7<sup>b</sup>] انتھا یوقمو دیسام حسنونکا ایتور کوزلارینک

*Intiho yo 'qmu desam husnunga, aytur ko 'zlaring...*

Ikki xil so'zlar turlicha ma'no anglatmoqda. Birinchi nusxadagi misrada shoir yoridan “Bu baloning oxiri yo'qmi?” deya so'romoqda, yorning ko'zlari oshiqqa qarata: “Sen qayerdasan, endi men baloni boshlamoqdaman” javob qiladi. Ikkinchi nusxada lirik qahramon yorning husnidan so'ramoqda, ko'zlari javob qilmoqda. Ushbu tafovutlar orasidan eng ma'quli Parij nusxasida qo'llanilgan variant hisoblanadi, chunki biz baytni mazmunini chiqarish uchun avvalgi va keyingi misralarni ham inobatga olamiz. Ikkinchi misrada “baloning endi boshlangani” aytilganligi sababli “husn” so'zining o'rniga “balo” so'zini to'g'ri deb qabul qilsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Lirik meros matnida kuzatiladigan leksik-sintaktik o'zgarishlarni shunchaki xattotlik xatosi sifatida baholash masalaning mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Negaki. mazkur qo'lyozma nusxalardan tashqari bir qancha qo'lyozma nusxalari ham bor, qolaversa, bayoz, antologiya, xrestomatiyalar tarkibiga ham shoir she'rlaridan namunalar kiritilgan. Ushbularga asoslanib yuzaga kelgan farqlar davrga oid bo'lishi ham mumkin. So'z va jumla tahriri muammosini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, Parij nusxasi va 5024- inventar raqamli manba o'rtasidagi farqlar asosan kotiblarning shevaga xos yondashuvi deb hisoblasak, mubolag'a bo'lmaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan matniy tafovutlar shoir asarlarining tanqidiy matnini yaratishda leksik birliklarni to'g'ri tanlash va matnga oid ma'noni aniqlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Misralar tahriri ustida olib borilgan kuzatishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, qo'lyozma nusxalar orasidagi farqlar ko'pincha she'riy vazn talablari yoki matnning mantiqiy izchilligini saqlash ehtiyoji bilan izohlanadi. Ba'zi o'rinlarda misralarning o'rin almashishi, butunlay yangi satr bilan almashtirilishi yoki aynan o'sha misralarning, baytning tushib qolishi kotibning muayyan baytni tushunish darajasi hamda uning badiiy didi bilan bevosita bog'liqdir. Misralar orasidagi matniy tafovutlarni tizimlashtirishga muvaffaq bo'lindi. Ushbu o'zgarishlarni qiyosiy tahlil qilish orqali Lutfiy ijodiga xos bo'lgan lirik kompozitsiyaning asl holatini aniqlashga erishildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. اداگ\_ناويد\_يفطل\_ناويد. Source gallica.bnf.fr / Bibliothèque nationale de France.
2. Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. Inv. №5024-I
3. Эркинов А. Матншунослик ва манбашунослик асослари. –Тошкент, 2019. –Б.77.
4. Ахмадхўжаев Э. Лутфийнинг янги топилган фардлари. Адабий мерос, 1976,6-сон. – Б.34-42
5. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011. –346 б.
6. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Adabiyot, 2021. – 254 б.

## AHMAD TABIBIY CHISTONLARINING QO'LYOZMA VARIANTLARI VA MATN MUAMMOLARI

**Elbekova Shalola Narboy qizi,**  
*Qarshi davlat universiteti magistranti*  
*E-mail: elbekovashalola@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Ahmad Tabibiy chistonlarining matnshunoslik jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir chistonlarining nashrda berilgan uchta namunasi asosida ularning ehtimoliy qo'lyozma variantlari va matn muammolari ko'rib chiqiladi. Chiston matnlaridagi arxaik leksika, ramziy tasvir va badiiy obrazlarning o'qilishi masalasiga e'tibor qaratiladi. Nashr matnida uchraydigan soddalashtirish va talqin farqlari aniqlanadi. Shuningdek, chiston janriga xos savol-javob tuzilishi va mantiqiy izchillikning matn barqarorligiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijasida Ahmad Tabibiy chistonlarini ilmiy nashrga tayyorlashda matnshunoslik tamoyillarini qo'llash zarurligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** Ahmad Tabibiy, chiston, matnshunoslik, qo'lyozma variant, mumtoz adabiyot.

**Abstract:** This article analyzes the textual aspects of Ahmad Tabibi's chistans. The study examines their possible manuscript variants and textual problems based on three examples of the poet's chistans given in the publication. Attention is paid to the issue of archaic lexis, symbolic images, and the readability of artistic images in the chistan texts. Simplifications and differences in interpretation found in the published text are identified. The impact of the question-answer structure and logical consistency specific to the chistan genre on

the stability of the text is also highlighted. The study substantiates the need to apply textual principles in preparing Ahmad Tabibi's chistans for scientific publication.

**Keywords:** Ahmad Tabibi, chistan, textual studies, manuscript variant, classical literature.

Chiston Sharq xalqlari og‘zaki va yozma adabiyotida qadimdan shakllangan badiiy janrlardan biri hisoblanadi. Ushbu janrning paydo bo‘lishi inson tafakkurining obrazli fikrlashga intilishi, narsa-hodisalarni yashirin va ramziy ifodalar orqali anglatishga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog‘liqdir. Chiston atamasi fors-tojik adabiy muhitida keng qo‘llanib, “yashirilgan ma’no”, “topishmoqli she’r” mazmunlarini anglatadi. Xalq orasida ikkinchi nomi “lug‘z” shaklida ham qo‘llanadi. Janr dastlab xalq og‘zaki ijodi tarkibida yuzaga kelib, keyinchalik yozma adabiyotga ko‘chgan hamda mumtoz she’riyatda mustaqil poetik shakl sifatida rivojlangan. Sharq mumtoz adabiyotida chistonlar aqliy mushohada, badiiy mahorat va so‘z san’atining muhim namunasi sifatida qadrlangan. Chistonlar xalq og‘zaki ijodidagi topishmoqlarning badiiy sayqallangan ko‘rinishidir. Ular asosan ikki xil usulda yoziladi:

1. Oddiy chistonlar – narsalarning belgilarini tasvirlash orqali;
2. Abjad hisobiga asoslangan – bunda narsaning nomi abjad hisobi (harflarning raqamli qiymati) orqali topiladi.

R.Orzibekov “Lirikada kichik janrlar” kitobida chiston haqida to‘xtalib, o‘zbek adabiyotida dastlabki chiston Alisher Navoiy tomonidan yaratilganini ta’kidlaydi: “...o‘zbek xalq og‘zaki ijodida Navoiygacha ham topishmoq usulidagi namunalar bo‘lsa ham, lekin yozma adabiyot vakillari ijodida hozircha chiston she’rlar uchramaydi. Alisher Navoiy o‘zbek klassik shoirlari orasida birinchilardan bo‘lib chiston aytishga kirishdi va uning yozma adabiyotdagi o‘rnini qonuniylashtirdi”, [Orzibekov, 1976:151] deb yozgan edi.

Turkiy adabiyotda ham chiston janri o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy davridan boshlab chiston yozish an’anasi

yanada rivojlanib, keyingi davr ijodkorlari tomonidan davom ettirilgan. Chistonlarda tashbeh, istiora, kinoya, tajnis kabi badiiy san'atlarning faol qo'llanishi janrning poetik imkoniyatlarini kengaytirgan. Shu bilan birga, chistonlar til tarixi, xalqona tafakkur, obrazlar tizimi hamda adabiy-estetik qarashlarni o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.


O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Ahmad Tabibiy ijodida ham chiston janri alohida o'rin tutadi. Shoirning chistonlari badiiy mukammalligi, ramziy ifodalarga boyligi va til xususiyatlari bilan diqqatni tortadi. Ayniqsa, uning chistonlarida xalqona obrazlar bilan mumtoz poetika unsurlarining uyg'unlashuvi kuzatiladi. Biroq adib chistonlarining bizgacha yetib kelgan qo'lyozma nusxalari o'rtasida ayrim farqlar mavjud bo'lib, bu holat matnshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tadqiqotni talab etadi. Shu sababli, Ahmad Tabibiy chistonlarining qo'lyozma variantlarini qiyosiy o'rganish, matniy tafovutlarni aniqlash va ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa muallif matniga yaqin ilmiy-tanqidiy matnni tiklash, shoir uslubini aniqlash hamda mumtoz merosni haqqoniy talqin etishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada Ahmad Tabibiy chistonlarining qo'lyozma variantlari matnshunoslik tamoyillari asosida o'rganilib, ulardagi tekstologik muammolar, variantlar va kotibiy o'zgarishlar qiyosiy-tahliliy jihatdan tadqiq etiladi. Shuningdek, chistonlarning badiiy va til xususiyatlari asosida muallif matniga yaqin variantlarni aniqlash masalalariga e'tibor qaratiladi.

Tabibiyning bizgacha yetib kelgan 3 ta chistoni qo'lyozmalarda hamda nashrda mavjud bo'lib ular bir-biridan butunlay farq qiladigan mavzularda bitilgan. Ya'ni: "sham", "mexanik soat" va "fayz" so'zlariga bag'ishlangan. Chistonlar 1122 raqamli manbada hamda 927/II manbada ko'chirilgan bo'lib, ularning yozuv uslubi, ko'rinishi, matnning satrlarda joylashuvi bir – biridan tamoman farq qiladi. Chunki bu qo'lyozmalarni ko'chirgan xattotlar turlichadir. 1122 manbani Mulla Muhammad Yusuf ibn Muhammad Yoqub Devon taxallusi Xarrot ko'chirgan. 927/II manbani esa Mulla Boltaniyoz taxallusi Nodimi valadi usta Qurbonniyoz ko'chirgan. Shu nuqtayi nazardan variantlilik yuzaga kelishi tabiiy hol. 1122 da


yozuv qiya shaklda maxsus jadval shaklidagi ustunlarga nastaliq xatida, qora siyohda yozilgan bo'lsa, 927 da matn sahifa bo'ylab to'g'ri joylashgan hamda har sahifa so'ngida poygir keltirilgan.

#### 1122 raqamli manba chistonlar



[Qo'lyozma, 1122:68]

#### 927/II raqamli qo'lyozmada chistonlar



[Qo'lyozma, 927:356]

#### Ahmad Tabibiy chistonlarida badiiy topqirlik va ramziylik:

Tabibiy chistonlarida badiiy topqirlik ramziy tasvir va yashirin ma'no uyg'unligida namoyon bo'ladi. Shoir chiston javobini ochiq ifodalash o'rniga, uni mubolag'a, tashbeh, timsol va abjad hisobi vositasida berib, asarning intellektual-estetik qimmatini oshiradi. Bu esa chistonlarning nafaqat poetik, balki ma'rifiy ahamiyatini ham kuchaytiradi.

*Ul na qushdurkim, boshi sakson, qanoti o'n bo'lib,*

*Lek kelmishdur oyoq ti'dodi sakkiz yuz ongo.*

*Oshyoni keldi oriflar zamiri aksari,*



*Qilg'usi parvoz ondin har taraf subh-u maso.  
 Har qayu manzilg'a ul qo'nsa tarab hosil bo'lub,  
 Manzil ahli topg'usidur shodlig' beintiho.  
 Qaysi maskan uzrakim, ul qilmamish parvoz hech,  
 Juz kudurat hosil o'lmasdur onga olam aro.  
 Har kishiga bo'lmamishdur ul jahon ichra nasib,  
 To muyassar qilmag'uncha fazli lutf ila Xudo.*

Ushbu chistonda Ahmad Tabibiyning badiiy topqirligi sonlar va ramziy tasvirlar orqali namoyon bo'lgan. Shoir qush obrazini yaratarkan, uning “boshi sakson”, “qanoti o'n”, “oyog'i sakkiz yuz” ekanini aytadi. Bu yerda mazkur birliklar arab alifbosidagi harflarning abjad hisobidagi qiymatlariga ishora qilyapti. Chistonning asosiy badiiy qimmat ham ana shu mubolag'ali va sirli raqamlar vositasida o'quvchini mushohadaga undashidadir. Shoir “qush” timsoli orqali ma'lum bir tushuncha yoki predmetni yashiradi. Undagi sonlarning nomutanosibliigi chiston janriga xos topqirlikni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, “oshyoni keldi oriflar zamiri aksari” misrasi mazkur timsolning ma'naviy-ma'rifiy mazmun kasb etishini anglatadi. Ya'ni, bu “qush” oddiy mavjudot emas, balki ilm, tafakkur yoki hikmat bilan bog'liq ramziy obraz sifatida talqin qilinadi.

Endi chistonning javobi masalasiga to'xtalsak: bu yerda shunday qushki uning boshi 80 bo'lib, bu qiymat abjadda “ف (fa)” harfini ifodalaydi. Ikkinchi harfdagi “qanoti o'n” so'zi 10 sonini va abjadda “ی (yo)” harfini, “oyog'i sakkiz yuz” birikmasi esa 800 sonini va “ض (zod)” harfini anglatadi. Mazkur harflar birikishidan “FAYZ” so'zi hosil bo'ladi. Demak javob FAYZ.

*Ul na dilbarkim, qaddi mavzun bo'lub,*

*Bor erur boshdin oyog'i siymtan.....* misralari bilan boshlanadigan chistonda “sham” timsoli yoritilgan bo'lib, Ahmad Tabibiy bu chistonda shamni go'zal inson obraziga qiyoslab, kuchli ramziylik va badiiy topqirlik yaratgan. Chistonning deyarli barcha misralari shamning tashqi ko'rinishi va vazifasini majoziy tasvir orqali ochib beradi. Masalan:

– “*qaddi mavzun*”, “*siymtan*” – shamning oppoq va nozik gavdasiga ishora;

- *“boshda zarrin toj”* – sham alangasi oltin tojga o‘xshatilgan;
- *“har majolis ichra aylar vatan”* – sham barcha bazm va majlislarning bezagi ekanini bildiradi;
- *“lam’ayi ruxsoridin ko‘zlar yorub”* – sham yorug‘lik taratadi, ko‘zni ravshan qiladi;
- *“yo‘qlig‘idin tiyralik yetgusidur”* – sham bo‘lmasa qorong‘ilik bo‘lishi tabiiy. Ayniqsa, quyidagi misrada mumtoz adabiyotga xos nozik timsol ishlatilgan: *“Oshiq o‘lmishdur onga parvonadek”*, bu yerda parvona va sham obrazi orqali an’anaviy oshiq-ma’shuq timsoli yuzaga kelgan. Parvona sham atrofida aylanishi mumtoz she’riyatda oshiqning ma’shuqqa fido bo‘lish ramzi hisoblanadi.

Tabibiy chistonlarida badiiy topqirlik predmetning tashqi belgilarini insoniy sifatlar bilan uyg‘unlashtirish orqali yuzaga chiqadi. “Sham” haqidagi chistonda shoir shamni go‘zal dilbar qiyofasida tasvirlab, unga “qaddi mavzun”, “siymtan”, “zarrin toj” kabi poetik sifatlarni nisbat beradi. Natijada, oddiy maishiy buyum ramziy-majoziy obraz darajasiga ko‘tarilib, chistonning estetik ta’sirchanligi kuchayadi.

Ahmad Tabibiy mumtoz an’analar davomchisi o‘laroq ilg‘or fikrlovchi, zamon bilan hamnafas ijod qiluvchi shoir ham edi. Bu fikrni o‘sha davr uchun texnik yangilik hisoblangan mexanik soat haqida yozgan chistoni bilan dalillash mumkin. Ushbu chiston 9 bayt hajmda yozilgan bo‘lib, soatning xususiyatlari ramziy hamda yashirin tarzda badiiylashtirib ifodalangan.

*Ul na shakli xubkim, tasviri kelmish mustadir,*

*Lek ichida borho bo‘lmish namoyon iztirob....* [Amonov, 2025:187]

Ahmad Tabibiy ushbu chistonda soatni murakkab va ramziy tasvirlar orqali ifodalab, kuchli badiiy topqirlik yaratgan. Shoir predmet nomini yashirib, uning shakli, harakati, ovozi va vazifasini poetik belgilar vositasida ochib boradi. Natijada chiston o‘quvchini tafakkur yuritishga undovchi intellektual asarga aylanadi. Chistonning dastlabki misrasida:

*“Ul na shakli xubkim, tasviri kelmish mustadir”*, - deya soatning yumaloq shakliga ishora qilinadi. “Mustadir” — doira shaklidagi narsa degani. Bu tasvir



orqali soat osmon gumbaziga o'xshatiladi. Keyingi misralarda esa uning ichki mexanizmi poetiklashtiriladi: ***“Lek ichida borho bo‘lmish namoyon iztirob”***, - bu yerda soat ichidagi doimiy harakat va mexanik tebranish “iztirob” so‘zi bilan ifodalangan. Oddiy mexanik jarayon ruhiy kechinma darajasiga ko‘tarilib, predmet jonlantiriladi.

Shoir soatning chiqargan tovushini ham badiiylashtiradi: ***“Gar quloq solsang onga masmu’ o‘lur ovozi raqs”***, - soatning “tik-tik” ovozi raqsga qiyos qilinadi. Ayniqsa, ***“bir vazn ila bo‘lmishdur hisob”*** misrasi uning harakati aniq tartib va o‘lchov asosida ekanini anglatadi. Bu yerda vaqt va ritm uyg‘unligi poetik timsolga aylangan. Shoir soatni koinot modeli sifatida tasvirlaydi. Soat chetlari osmon gumbaziga, uning o‘n ikki bo‘lagi esa burjlarga qiyoslanadi. ***“Mehr-u mahdek ro‘z-u shab sayron”*** iborasi esa soat millarining quyosh va oy singari harakat qilishiga ishora qiladi. Shu tariqa oddiy buyum kosmik ramz darajasiga ko‘tariladi. Chistonning: ***“Vaqt bilmakni tilab boqsang onga har zamon”*** - misrasi soatning asosiy vazifasini ochadi. Ammo shoir bu vazifani ham bevosita emas, poetik yo‘l bilan ifodalaydi. ***“Savti xush”*** orqali soat bongining insonlarga vaqtni bildirib turishi nazarda tutilgan. Tabibiy bu chistonda oddiy soatni falsafiy va kosmik ma’nolar bilan boyitib, uni vaqt, harakat va koinot tartibining ramziga aylantirgan.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Tabibiy chistonlarida badiiy topqirlik va ramziylik yetakchi poetik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir chistonlarida oddiy buyumlar (sham, soat va ramziy obrazlar) metaforik kengayish orqali yuksak badiiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Ularda abjad hisobi, tashbeh, istiora va mubolag‘a kabi poetik vositalar uyg‘unlashib, asarning matniy, badiiy qiymatini oshiradi. Natijada chistonlar nafaqat topishmoq, balki ma’rifiy va falsafiy tafakkurni rivojlantiruvchi badiiy matn sifatida namoyon bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. Asosiy fond, 1122/ 927.
2. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Bookmany print, 2025.
3. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. – Toshkent, 1976.
4. Natan Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.

5. Rahmonov N. Mumtoz adabiyot poetikasi. – Toshkent: Universitet, 2008.
6. Yo‘ldoshev Q. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
7. Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyotida ramziylik va majoz. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2015.
8. Karimov U. Chiston janri va uning poetik xususiyatlari // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2020.

## **BOBUR G‘AZALI MATNIY TADQIQI**

**Shermamatova Shohista Baxtiyor qizi,**

*Qarshi davlat universiteti magistranti*

*E-mail: [shohistashermamatova466@gmail.com](mailto:shohistashermamatova466@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur devoni qo‘lyozmalarining deyarli barchasida birinchi g‘azal bo‘lib kelgan “Topmadim” radifli g‘azali matniy tadqiq etilgan. G‘azalning yozilish tarixi, uning qo‘lyozmalarda birinchi g‘azal sifatida berilishi sababi keltirilgan. “Devon” qo‘lyozmalari va nashrlari qiyosan o‘rganilib, matniy tafovutlar tahlil etilgan, muhim xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so‘zlar:** devon, g‘azal, qo‘lyozma, nashr, qiyosiy tadqiq, matniy tafovut.

**Annotation:** The text of the first ghazal in almost all of the manuscripts of Zahiriddin Muhammad Babur's divan, “Topmadim”, is studied in the article. The history of the writing of the ghazal, the reason why it is given as the first ghazal in the manuscripts is given. Devonian manuscripts and publications were comparatively studied, textual differences were analyzed, and important conclusions were drawn.

**Keywords:** divan, ghazal, manuscript, comparative study, textual difference.

Hazrat Navoiyning munosib izdoshi, qilich va qalam sohibi bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosi har doim ilm ahli e’tiborida bo‘lib kelgan. Shoirning bizgacha yetib kelgan she’rlari 400 ga yaqin bo‘lib, shulardan 119 tasi g‘azal, 231 tasi ruboiydir. Bobur lirikasining asosiy janrlari g‘azal, ruboiy

va tuyuq hisoblanib, shoir masnaviy, qit'a, muammo, fard kabi janrlarda ham ijod qilgan.

Bobur Mirzo devoni ko'plab olimlar tomonidan o'rganilib, bir necha bor nashr etilgan. Xususan, 1993-yilda adabiyotshunos olim Saidbek Hasan tomonidan shoir devonining Parij qo'lyozma nusxasi "Mahrami asror topmadim" nomi bilan joriy yozuvda nashr qilingan. Bu nashr shoir ijodini o'rganishda muhim qadam bo'ldi. Ma'lumki, Bobur ijodi xorijlik olimlar tomonidan ham o'rganilib kelinmoqda. 1983-tilda afg'onistonlik olim Shafiqa Yorqin tomonidan Bobur she'rlari an'anaviy devon shaklida tartibga keltirilib nashr etildi. Bu nashr yurtimizda shoir devonining 1994-yil va 1996-yillarda amalga oshirilgan nashrlariga asos bo'lib xizmat qildi.

Maqolamizda Bobur Mirzoning "Topmadim" radifli g'azalini qo'lyozma nusxalar va nashrlar asosida matniy tadqiq etdik. Ushbu g'azalning yozilish tarixi "Boburnoma"ning "To'qqiz yuz yettinchi (1501-1502) yil voqealari"da keltirilgan bo'lib, "undagi misralar shoirning shu davrdagi ruhiy holatini ma'lum darajada aks ettiradi" [Bobur,1996:8]. Asarning 1501-1502-yillar voqealariga nazar tashlasak, Samarqandni ikkinchi bor qo'ldan boy berish alami, yaqin insonlar xiyonati, Toshkent hokimi bo'lgan bobosining so'zida turmasligi, unga bo'lgan e'tiborsiz munosabatiga guvoh bo'lamiz. Bular esa Bobur qalbini junbushga keltirmasligi, dard, alam bo'lib qog'ozga to'kilmasligi mumkin emas edi.

Ushbu g'azal Bobur devoni qo'lyozma nusxalarining deyarli barchasida, xususan, maqolamizda tahlilga tortgan 1230 (Parij, Milliy kutubxona), 3743 (Istanbul universiteti kutubxonasi), 332 (Istanbul shahar kutubxonasi) raqamli qo'lyozmalarda ham birinchi g'azal sifatida keltirilgan. Buning sababi sifatida "Boburnoma"da bayon qilingan quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

"Ul g'azalekim, tugattim, ushbu kun, ushbu yurtta tugattim. Ul tugangan g'azal budur:

*Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,*

*Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.*

Bu gʻazal yetti bayt turur. Mundin soʻng har gʻazalkim, tutandi, oʻshul tartib bila-oʻq bitildi”.

Bobur Mirzo taʼkidlaganidek, “Topmadim” radifli gʻazali uning birinchi tugallangan gʻazali hisoblanadi. Demak, shoir bu gʻazalgacha ham sheʼrlar ijod qilgan. Buning isboti sifatida “Boburnoma”ning yuqorida keltirilgan yil voqealarigacha boʻlgan qismida keltirilgan baytlar va ayrim ruboiylarni keltirishimiz mumkin [Bobur, 2024: 116, 123, 140, 141, 142]. Bobur Mirzoning oʻzi ham asarda quyidagi fikrlarni bayon qilgan: “Ul fursatlarda birar, ikkirar bayt aytur edim. Vale gʻazal tugatmaydur edim” [Bobur, 2024:123]. Maʼlumki, Bobur sheʼrlarini anʼanaviy devon qoidalari asosida tartibga keltirishga ulgurmagan. Qoʻlyozma nusxalarning barchasi shoirning qoralama nusxasidan koʻchirilgan. Shu boisdan deyarli barcha nusxalarda ushbu gʻazal ilk gʻazal boʻlib kelgan. Adabiyotshunos olim Abdurashid Abdugʻafurov esa shoir devonining 1994-yildagi nashriga yozgan kirish soʻzida quyidagi fikrlarni keltirgan:

“Boburnoma”da shoirning oʻzi birinchi tugal gʻazalini 18-19-yoshlarida, yaʼni hijriy 907 (milodiy 1501-1502) yillarda yaratganligini qayd etib, uning matlaʼ baytini keltiradi.

...Ammo uning shoir sifatidagi ijodiy faoliyatini xuddi shu yil va har jihatdan yetuk shu gʻazaldan boshlash, bizningcha, toʻgʻri boʻlmaydi. U oʻz ijodiy faoliyatini ancha avval boshlagan va 1500-yillarga keliboq shoir sifatida shuhrat tuta boshlagan, deb hisoblaymiz” [Bobur,1994:4]. Biz ham professor A.Abdugʻafurov keltirgan fikrlarni toʻla maʼqullaymiz.

Yuqorida koʻrib oʻtganimizdek, Boburning oʻzi gʻazal hajmini 7 bayt deb keltiradi. Lekin bizga maʼlum qoʻlyozma nusxalarda gʻazal hajmi 6 baytdan iborat. “Boburnoma”ni London va Qozon bosma nusxalari asosida nashrga tayyorlagan matnshunos olim Porso Shamsiyev esa asar matnida gʻazalni Qozon nusxasiga tayangan holda 7 bayt sifatida berib, London nusxasida 6 bayt deb berilganligini havolada keltiradi. “Boburnoma”ning 2008-yilda amalga oshirilgan nashrida ham gʻazal 6 baytdan iboratligi aytilgan [Bobur,2008:88]. Bundan koʻrinadiki,

“Topmadim” radifli g‘azali hajmi 6 bayt bo‘lib, 7 bayt deb berilishi kotib tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolik bo‘lishi mumkin.

G‘azal matnida esa birinchi bayt matniy tafovutlardan xoli bo‘lib, ikkinchi baytning 1-misrasida kelgan “jonimdek”, “jonni”, “dilafor” va beshinchi baytning 1-va 2-misralarida kelgan “eshigiga” so‘zlarida quyidagi farqlar kuzatiladi:

|                           |                                     |
|---------------------------|-------------------------------------|
| №3743 raqamli qo‘lyozma   | jonimdek, jonni, dilafor, eshigiga  |
| №332 raqamli qo‘lyozma    | jonimdek, jonni, dilafor, eshigiga  |
| №1230 raqamli qo‘lyozma   | jonimdek, jon(i), dilafor, eshigiga |
| 1976-yil, Toshkent nashri | jonimdek, joni, dilafor, eshigiga   |
| 1983-yil, Kobul nashri    | jonimdek, jonni, dilafor, eshigiga  |
| 1993-yil, Toshkent nashri | jonimdin, jonni, dilafor, eshigiga  |
| 1994-yil, Toshkent nashri | jonimdek, jonni, dilafor, eshigiga  |
| 1996-yil, Toshkent nashri | jonimdek, jonni, dilafor, eshikiga  |

Ikkinchi bayt:

*Jonimdek o‘zga jonni dilafor ko‘rmadim,*

*Ko‘nglum kibi ko‘ngulni giriftor topmadim [Bobur: 1994: 37].*

“Jonimdek” so‘zi tarkibidagi -dek o‘xshatish-qiyoslash qo‘shimchasi “Devon”ning 1993-yildagi nashridagina -din shaklida berilgan. Bu nashr Parij qo‘lyozma nusxasi asosida amalga oshirilgan bo‘lib, qo‘lyozmada ham bu qo‘shimcha -dek shaklida kelgan. “O‘zbek adabiy tili tarixi” darslik kitobida, “Boburnoma”ning tilida chiqish kelishigi -din, -tin qo‘shimchalari bilan yasalganligi keltirilgan [Tursunov, O‘rinov, Aliyev, 1995:144]. Qo‘shimchani -din shaklida qo‘llash bayt mazmuniga ham ta’sir qiladi. Shu jihatdan -dek qo‘shimchasini qo‘llanilishi tarafdorimiz.

“Jonni” so‘zi faqat Parij qo‘lyozmasida “jon(i)” va 1976-yil nashrida “joni” shaklida berilgan. Mazmun talabi so‘zni “jonni” shaklida qo‘llashni talab etadi. Shu bilan birga vazn talabi ham buni taqozo etadi.. Ushbu g‘azal aruzning rajazi musammani makbuli marfu’ vaznida yozilgandir. Taqte’si:

-- V - / V - - / V - - / - V - /

5-bayt:

*Bori boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,*

*Nechaki borib eshigiga bor topmadim [Bobur, 1994:38].*

“Eshigiga” soʻzi birgina 1996-yil nashrida “eshikiga” tarzida kelgan. Nastaʼliq xatida kof va gof harflari bir shakl bilan ifodalangani bu farqni yuzaga keltirgan. Bu farq mazmunga taʼsir qilmaydi. Lekin “Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini”ning “Asos va qoʻshimchalar imlosi” qismida: “k, q undoshi bilan tugagan koʻp boʻgʻinli soʻzlarga... egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda k undoshi g undoshiga, q undoshi gʻ undoshiga aylanadi va shunday yoziladi” [<http://lex.uz/docs/-1625271> Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida ].

Xulosa qilganda, Bobur “Topmadim” radifli gʻazalining matniy tadqiqi yuzasidan olib borgan izlanishimiz gʻazalning matniy tafovutlardan xoli toʻliq variantini yaratish yoʻlida boʻlib, shoir devonining kelgusida amalga oshiriladigan mukammal nashrlariga oʻz hissamizni qoʻshishga qaratilgandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bobur Z.M. Devon. Inv.№3743. Istanbul universiteti kutubxonasi.
2. Bobur Z.M. Devon. Inv.№332. Istanbul shahar kutubxonasi.
3. Bobur Z.M. Devon. Inv.№1230. Parij, Milliy kutubxona.
4. Bobur Z.M. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi V.Rahmonov, N.Hotamov. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1976. – B.85.
5. Bobur Z.M. Devon. Nashrga tayyorlovchi Sh.Yorqin. –Kobul, 1983.
6. Bobur Z.M. Mahrami asror topmadim. Parij devoni nusxasi. Sheʼrlar. Nashrga tayyorlovchi S.Hasan. –Toshkent: Yozuvchi, 1993. – B.78.
7. Bobur Z.M. Devon. Nashrga tayyorlovchi A.Abdugʻafurov.–Toshkent: Fan, 1994. – B.142.
8. Bobur Z.M. Nazm durdonalari. Nashrga tayyorlovchi H.Muhammadxoʻja oʻgʻli. Sharq: 1996. -200 b.
9. Bobur Z.M. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi V.Rahmonov, K.Mullaxoʻjayeva. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2008. – B.287.
10. Bobur Z.M. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev. –Toshkent: Global books, 2024. – B.605.
11. Tursunov U., Oʻrinboyev B., Aliyev A. Oʻzbek adabiy tili tarixi. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. – B.260.
12. <http://lex.uz/docs/-1625271> Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida.

## NAVOIY IJODIGA TEMURIYLAR MADANIYATINING TA'SIRI

**Siddiqova Umidaxon Soxibjon qizi,**

*NamDU mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodining shakllanishi va takomilida Temuriylar davri madaniy muhitining o'rni tadqiq etiladi. Xususan, Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilik sohalarida yuz bergan yuksalishning Navoiy dunyoqarashi hamda badiiy tafakkuriga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Abulqosim Bobur, Abu Sa'id Mirzo va Husayn Boyqaro davrlarida vujudga kelgan madaniy-ma'rifiy muhitning Navoiy ijodiy faoliyatidagi ahamiyati tarixiy va adabiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijasida Temuriylar davri madaniyati Navoiyning yuksak badiiy merosi shakllanishining muhim omillaridan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, Temuriylar, madaniy muhit, Husayn Boyqaro, Mirzo Ulug'bek, Hirot, temuriylar renessansi, adabiy muhit, ilm-fan, badiiy tafakkur.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tub burilishlar yuz bergan, ilm-fan va badiiy tafakkur yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan tarixiy davr sifatida e'tirof etiladi. Mazkur davrda davlat boshqaruvi tizimi bilan bir qatorda, ma'naviy-ma'rifiy sohalarining rivojiga ham alohida e'tibor qaratilgani natijasida o'ziga xos madaniy muhit shakllandi. Ayniqsa, saroy atrofida jamlangan olimlar, shoirlar va san'atkorlar faoliyati ilmiy va adabiy jarayonlarning izchil rivojlanishini ta'minladi. Bunday muhit nafaqat davr madaniyatining umumiy yo'nalishini belgilab berdi, balki yirik ijodkorlarning shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Bu jihat adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov tadqiqotlarida ham ilmiy asoslangan holda yoritilgan: "Amir Temurdan so'ng davlat ikkiga bo'linib, Xurosonda uning o'g'li Shohruh 1409-1447- yillar orasida, Movarounnahrda uning nabirasi Ulug'bek 1409-1449- yillarda hukmronlik qilgan bo'lsalar-da, bu ikki mamlakat hududidagi ilmiy-



madaniy aloqalarga putur etmadi. Bu davrda, ya'ni temuriylar hukmronlik qilgan yillarda qaysi ijodkor o'ziga qaysi mamlakat yoki shaharni qulay deb bilsa, o'sha erda yashab ijod qildi"[1:3-4]. Bu qarash Hamidulla Karomatov tadqiqotlarida ham deyarli mushtarak mazmunda davom ettiriladi. "XV asrning birinchi yarmidan o'zbek adabiyoti gurkirab rivojlana boshladi. Amir Temurdan so'ng davlatning ikkiga bo'linishi ilmiy-mada-niy, adabiy ishlarning taraqqiy etishiga, bu ikki mamlakat o'rtasidagi adabiy-madaniy aloqalarga putur etkazmadi. Bu davrda qaysi ijodkor o'ziga qaysi mamlakat yoki shaharni qulay deb bilsa, o'sha erda yashab ijod qilar edi"[4:168].

Ushbu davr madaniy muhitining yuksakligi tarixiy manbalarda ham o'z ifodasini topgan. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida bu davr haqida quyidagi fikrlar keltiriladi: "Sulton Husayn mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiriy shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg'ullug'i bor edi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolg'a tegurgay"[3:159-160].

Yuqoridagi daliliy ma'lumotlar Temuriylar davridagi madaniy muhitning faqat siyosiy barqarorlik mahsuli emas, balki ilm va ijod ahliga yaratilgan erkin muhit natijasi ekanini ko'rsatadi. Bizningcha, aynan shu omil Temuriylar davrida adabiyot, tarixnavislik, me'morchilik va tasavvuf tafakkurining yuksak bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratgan. Chunki ijodkorning muayyan hudud bilan chegaralanib qolmasdan, o'ziga qulay bo'lgan ilmiy-adabiy markazda faoliyat yuritishi madaniy almashinuvni kuchaytirgan. Natijada Hirot, Samarqand va Movarounnahr hududlari o'zaro mushtarak ma'naviy makon sifatida shakllangan. Shu ma'noda, Elmira Gyul tomonidan qayd etilgan fikrlar Amir Temur shaxsining jahon tarixidagi o'rni hamda Samarqandning xalqaro madaniy markaz sifatidagi mavqeini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi: "Amir Temur boshlab bergan xayrli ishlarni uning avlodlari muvaffaqiyatli davom ettiradilar. Natijada XV asr sivilizatsiya tarixiga oltin sahifalar bilan yozilgan davrga aylanadi. Sulolaning hukmronlik qilgan yillari haqli ravishda "Temuriylar Renessansi"

degan munosib ta'rifni oladi, chunki Sharqda hech qachon me'morchilik va san'at bunchalik ta'sirchan mazmun kasb etmagan edi"[11:34].

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, inson kamolotida muhitning o'рни nihoyatda muhimdir. Chunki "muhit tirik organizmning yashash sharoiti, tirik organizmlar hayotini belgilovchi omildir"[12:33]. Mazkur qarashdan ko'rinadiki, insonning dunyoqarashi, tafakkuri va ma'naviy shakllanishida u yashagan ijtimoiy-madaniy muhit hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, Temuriylar davrida yuzaga kelgan ana shunday rivojlangan ilmiy-adabiy muhit Alisher Navoiy singari buyuk mutafakkirlarning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Alisher Navoiyning ilmiy va ijodiy faoliyati shakllanishida u voyaga yetgan oilaviy muhit, temuriylar saroyiga yaqin bo'lgan ma'rifiy davrlar hamda ilm-fan va adabiyot taraqqiy etgan madaniy muhit muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, uning bolalik davridan boshlab siyosiy va adabiy muhit vakillari orasida ulg'aygani, zamonasining yetuk hukmdorlari va ziyolilari bilan muloqotda bo'lgani Navoiy tafakkurining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shu jihatdan qaraganda, Navoiyning kamoloti individual iste'dod mahsuli bo'lish bilan birga, rivojlangan ijtimoiy-madaniy muhit natijasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu haqda quyidagi tarixiy ma'lumot diqqatga sazovordir: "Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441- yil 9- fevral kuni Xirotda, Amir Temurning kenja o'g'li Shohrux Mirzo hukmronlik qilayotgan davrda, temuriylar xonadoniga yaqin bo'lgan amaldor G'iyosiddin Kichkinaning oilasida tavallud topgan. Bo'lg'usi shoirning otasi Xuroson hokimi Mironshoh Mirzoning nabirasi Sulton Abusaid va Shohrux Mirzoning nabirasi Abulqosim Boburning xizmatida bo'lgan, bir muddat Sabzavor hokimligiga ham tayinlangan. Alisherning bobosi, ya'ni onasining otasi Shayx Abusaid Chang esa bo'lg'usi hukmdor Husayn Mirzoning bobosi Mirzo Boyqaroning amiri bo'lgan. Alisher va uning ukasi Darveshali Husaynga emakdosh (ko'kaldosh) bo'lib, bu ularni qarindoshlik rishtalari bilan bog'lagan. Alisher va Husayn birga savod chiqarishgan"[10: 59].

Mazkur tarixiy ma'lumotlardan ko'rinadiki, Navoiy yashagan muhitda ilm, siyosat va adabiyot o'zaro uyg'un holda taraqqiy etgan. Bizningcha, ana shu

omillar Navoiyning dunyoqarashi, ilmiy salohiyati hamda badiiy tafakkurining shakllanishida asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, uning yoshligidan temuriy shahzodalar va saroy muhitiga yaqin holda tarbiya topgani keyinchalik davlat va jamiyat masalalariga keng nigoh bilan yondashuvchi mutafakkir sifatida kamol topishiga zamin yaratgan.

G'iyosiddin Xondamir keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, yosh Alisher Navoiy iste'dodi dastlab adabiy muhitning yirik vakillari tomonidan juda erta e'tirof etilgan. Xususan, Mavlono Lutfiyning Navoiy ijodiga bildirgan munosabati uning badiiy tafakkuri oddiy mashq bosqichidan ancha yuqori darajada shakllanganini ko'rsatadi. Manbada tasvirlanishicha, Lutfiy yosh Navoiydan yangi yozgan g'azallaridan o'qib berishni so'raydi.

"Ul Hazrat matla'i quyidagicha bo'lgan bir g'azalni o'qib berdi.

She'r:

Orazin yopqoch ko 'zumdin sochilur har lahza yosh,

Bo 'ylakim, pay do bo 'luryulduz nihon bo 'lg 'och quyosh.

Janobi Mavlaviy bu ajoyib g'azalni eshitib, hayrat dengiziga g'arq bo'ldi va uning tiliga shunday so'zlar keldi:

– Xudoga qasam ichib aytamanki, agar iloji bo'lganida edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming baytdan iborat bo'lgan turkiy va forsiy g'azallarimni birgina ushbu g'azalga almashtirgan va ushbu ayriboshlash natijasini katta muvaffaqiyat, deb hisoblagan bo'lardim" [13:43–44]. Bu holat bir tomondan Navoiy iste'dodining adabiy davralarda qiziqish uyg'otganini anglatga, ikkinchi tomondan, uning ijodi ustoz adiblar nazariga tushganini tasdiqlaydi. Bizningcha, ushbu voqea Temuriylar davridagi adabiy-estetik muhitning o'ziga xos xususiyatini ham yoritadi. Chunki bu davrda iste'dod egalarini yoshligidanoq qo'llab-quvvatlash, ularni ilm va ijod majlislariga jalb etish an'anasi mavjud edi. Aynan shunday muhit Navoiy kabi ijodkorning shakllanishida muhim omil bo'lgan. Lutfiyning e'tirofi esa Navoiyning turkiy she'riyatdagi kelajakdagi buyuk mavqeiga berilgan dastlabki baholardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Abusaid Mirzo hukmronligi davri Alisher Navoiy hayotida siyosiy bosim va ma'naviy izlanishlar uyg'unlashgan murakkab tarixiy bosqich sifatida namoyon bo'ladi. Temuriy shahzodalar o'rtasidagi ichki kurashlar, ayniqsa Husayn Boyqaro tarafdorlariga nisbatan keskin munosabatning kuchayishi Navoiy taqdiriga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Shoir yoshligidan Husayn Boyqaro bilan yaqin do'st va hamfikir bo'lgani sababli Abu Said Mirzo saroyida unga nisbatan ishonchsizlik kayfiyati yuzaga keladi. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida shunday deydi: "Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki musohibi edi. Yoshligida Husayn mirzo bila maktabda ekandurlar. Xislatlari ko'p ekandur. Bilmon, ne jurm bila Sulton Abu Said mirzo Hiridin ixroj qildi. Samarqandg'a bordi. Necha yil kim Samarqandda erdi, Ahmad Hojibek murrabbiy va muqavviy edi. Alisherbekning mijozi nozukluk bila mashhurdur. El nazokatini davlatning g'ururidin tasavvur qilur edilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jiballiy ekandur. Samarqandda ham ushmundoq nozuk mijoz ekandur"[3:153]. Yuqoridagi tarixiy ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, Navoiy Hirotdan uzoqlashib, Samarqandda yashash va ilm olishga majbur bo'ladi. Ushbu davrdagi siyosiy keskinlik Navoiyning oilasiga ham og'ir ta'sir ko'rsatadi. Manbalarda shoirning tog'alari Husayn Boyqaro tarafdorlari sifatida gumon qilinib, Abu Said tomonidan qatl ettirilgani qayd etiladi. Bu voqealar Navoiy qalbida adolat va zulm masalasiga nisbatan chuqur ruhiy iz qoldirgan. Keyinchalik uning asarlarida adolatli hukmdor obrazi, insonparvarlik va sadoqat g'oyalarining kuchli ifodalanishida aynan shu tarixiy tajribalar muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan. Bu holat shoirning siyosiy jihatdan chekinishi bo'lsa-da, uning ilmiy va ma'naviy kamoloti uchun muhim bosqich vazifasini bajardi.

XV asr Samarqandi hali-hanuz Mirzo Ulug'bek asos solgan ilmiy muhitning ta'sirida yashayotgan edi. Ulug'bek bunyod etgan rasadxona, madrasa va ilmiy an'analar Movarounnahr tafakkurining eng yirik markazlaridan biri sifatida shuhrat qozongan edi. Navoiy Samarqandda bo'lgan davrida ana shu ilmiy meros bilan yaqindan tanishadi. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bekning "Ziji Ko'ragoniy" asari va rasadxona faoliyati shoir tafakkurida katta taassurot uyg'otganini sezish mumkin.

Chunki Navoiy keyinchalik ilm va tafakkurni davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qiladi. Ulug‘bek rasadxonasida mujassam bo‘lgan ilmiy muhit Sharq uyg‘onish davrining timsoli sifatida Navoiy qarashlariga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Samarqanddagi hayot davomida Navoiy mashhur faqih va mudarrislar davrasida bo‘lib, o‘zining ilmiy-badiiy tafakkurini boyitdi. Fazlulloh Abulays Samarqandiy kabi olimlar bilan muloqoti uning dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Shu bois Samarqand davri shoir hayotida oddiy musofirlik emas, balki tafakkur va ma’rifat maktabi sifatida namoyon bo‘ladi.

“1469-yilda Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o‘tirgach, uzoq yillar Alisher Navoiy Hirotga chaqirtirgan. Shundan boshlab, umrining oxirigacha, ya’ni 30 yillik vaqt davomida Husayn Boyqaro bilan do‘stlikda yashagan. Shaharlarning obod bo‘lishiga, mamlakatda iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo‘shgan, ammo shoir ushbu lavozimni uzoq davom ettirmagan. 1472-yilda Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni harbiy ishlar bo‘yicha boshqaruvchi va aholi bilan ishlovchi katta lavozimga tayinlagan. Alisher Navoiyga berilgan amir (mir) unvoni o‘z mansabidan ketgandan so‘ng ham saqlanib qolgan”[10:60].

Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Hirot shahri yirik madaniy markazga aylanishi natijasida adabiy hayotda sezilarli jonlanish yuz berdi. Bu esa Navoiyga o‘z badiiy-estetik qarashlarini erkin ifoda etish, tarixiy shaxslar obrazini mukammal badiiy talqin qilish imkonini berdi.

Alisher Navoiy ijodini jahon adabiy tafakkuri mezonlari asosida baholash masalasi bugungi navoiyshunoslikning muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shoir asarlarining asrlar davomida o‘z badiiy va ma’naviy qimmatini yo‘qotmay kelayotgani, avvalo, undagi umuminsoniy g‘oyalarning yuksak darajada ifodalanganligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, “Xamsa” dostonlari hamda lirik merosida inson sha’ni, adolat, komillik, mehr-oqibat va jamiyat ravnaqi bilan bog‘liq qarashlarning markaziy o‘rin egallashi Navoiyni Sharq mumtoz adabiyotining tor doirasidan olib chiqib, umumjahon madaniy tafakkuri bilan bog‘laydi. Shu jihatdan qaralganda, Navoiy ijodi faqat muayyan tarixiy davr

mahsuli emas, balki insoniyatning ma'naviy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi badiiy-ma'rifiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

“Boburnoma”dagi ma'lumotlar Alisher Navoiyning benazir ijodkor sifatidagi qiyofasini namoyon etib, uning turkiy adabiyot xazinasini boyitgan ulkan badiiy merosiga guvohlik beradi. Bobur tomonidan bildirilgan mulohazalar shoir ijodining ko'lam va adabiy-estetik qimmatini yorituvchi muhim manba sifatida e'tiborga loyiqdir: “Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytibturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, besh “Xamsa” javobida, yana bir “Mantiq ut-tayr” vaznida “Lison ut-tayr” otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: “G'aroyib us-sig'ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoye' ul-vasat”, “Favoyid ul-kibar” otliq. Yaxshi ruboiyyoti ham bor. Yana ba'zi musannafoti borkim, bu mazkur bo'lg'onlarg'a boqa pastroq voqe' bo'lubtur. Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay”[3:153-154]. “Boburnoma”da keltirilgan ma'lumotlar Alisher Navoiyning nihoyatda sermahsul va qomusiy salohiyatga ega ijodkor bo'lganini ko'rsatadi. Bobur guvohligiga ko'ra, Navoiy turkiy tilda yuksak badiiy saviyadagi ko'plab asarlar yaratishga muvaffaq bo'lgan, xususan, besh dostonni o'z ichiga olgan “Xamsa”, “Lison ut-tayr”, to'rt devon hamda qator nasriy va ilmiy-badiiy asarlar muallifi sifatida e'tirof etilgan. Bu esa shoirning nafaqat o'z davri adabiy jarayonida, balki butun turkiy xalqlar madaniy-ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin tutganini tasdiqlaydi.

Navoiy insonni jamiyatning markaziy qadriyati sifatida talqin etar ekan, har qanday ijtimoiy yoki siyosiy munosabat mezon sifatida ham inson manfaatini ilgari suradi. Shu sababli ham uning doston va g'azallarida xalq dardi, adolatli boshqaruv, ilm-ma'rifat, axloqiy poklik singari masalalar birgina davr ehtiyojidan kelib chiqmagan, balki kengroq ma'naviy-falsafiy mazmun kasb etgan. Bu esa Navoiyning badiiy tafakkuri diniy, axloqiy va insonparvarlik qarashlarini o'zaro uyg'unlashtira olgan ijodkor ekanini ko'rsatadi.

Bu qarash Sharq tasavvufiy tafakkuri bilan uyg'un holda rivojlangan bo'lsa-da, unda ijtimoiy tenglik va insoniy hurmat tamoyillari ham kuchli seziladi. Shu

sababli Navoiy oddiy xalq vakillariga murojaat etar ekan, ularni kamsitmaslik, insoniy qadr-qimmatni saqlash va har bir shaxsga ma'naviy mavjudot sifatida qarash g'oyasini ilgari suradi. Ayniqsa, "Hayrat ul-abror" dostonidagi pand-nasihat xarakteridagi baytlar shoirning inson sha'niga bo'lgan munosabatini ochib beruvchi muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi.

Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi misolida kuzatiladigan yuksak badiiy tafakkur ham ana shu ilmiy-madaniy integratsiyaning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Demak, Temuriylar davridagi madaniy muhitni baholashda uni faqat tarixiy-siyosiy hodisa sifatida emas, balki Sharq uyg'onishining muhim ma'naviy bosqichi sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

"Navoiyning asarlariga kelganda shuni ham alohida ta'kidlab aytish kerakki, u hech bir asarini biron sinf yoki ijtimoiy tabaqa uchun, o'sha ijtimoiy guruh manfaatini ko'zlab yozmagan" [1:35].

Shah olsa dog'i qilsun toji torak,  
Qul olsa ham anga bo'lsun muborak.  
Anga ishq ahlini qil orzumand,  
Aning birla alarni ham barumand[6:307].

"Farhod va Shirin" dostonidan olingan ushbu baytda Alisher Navoiy o'z asarining barcha tabaqa vakillari uchun birdek foydali va manzur bo'lishini tilaydi. Shoir "shoh" va "qul" obrazlarini qarama-qarshi qo'yish orqali jamiyatdagi oliy va quyi tabaqalarni nazarda tutadi. "Shoh olsa dog'i qilsun toji torak" misrasida asar podshoh qo'liga tushsa, unga davlat va sharaf olib kelsin, degan ezgu tilak ifodalanadi. "Toji torak" iborasi yuksak martaba, saltanat va sharaf ramzi hisoblanadi. Ikkinchi misrada esa: "Qul olsa ham anga bo'lsun muborak" deyilishi orqali oddiy insonlar ham bu asardan ma'naviy manfaat topsin, undan bahramand bo'lsin, degan insonparvar g'oya ilgari suriladi. Navoiy shu tariqa asarning qimmatini insonning mansabi yoki ijtimoiy mavqeiga bog'liq emasligini ta'kidlaydi.

Keyingi baytda shoir:

"Anga ishq ahlini qil orzumand,  
Aning birla alarni ham barumand",



deya asarni, avvalo, ishq ahli – ma’naviy kamolot va go’zallik izlovchilarga manzur etishni so‘raydi. “Barumand” so‘zi “bahramand”, “foyda topgan” ma’nolarini bildiradi. Demak, Navoiy asar inson qalbini poklaydigan, ruhiy oziq beradigan ma’naviy manba bo‘lishini istaydi.

Baytlarning umumiy mazmunida Navoiyning insonparvarlik qarashlari, barchaga teng munosabat, ma’naviy komillik va ishqni ulug‘lash g‘oyalari mujassamdir. Sharq mutafakkirlariga xos insonparvarlik an’analari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Islohot – islohot uchun emas, avvalo, inson uchun”[5:21] tamoyilida ham seziladi. Ushbu mezon zamonaviy davlat boshqaruvi va ijtimoiy taraqqiyot konsepsiyasining markaziy g‘oyalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi

Xususan, Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan adolatli jamiyat, xalq manfaatiga xizmat qiluvchi hukmdor va inson qadrini ulug‘lash g‘oyalari bilan mazkur qarash o‘rtasida ma’naviy yaqinlik mavjud. Chunki Navoiy ham davlat boshqaruvida xalq manfaatini ustuvor deb bilgan va hukmdorning asl vazifasi insonlarni rozi qilish hamda jamiyatda adolatni qaror toptirish ekanini ta’kidlagan.

Alisher Navoiy ijodining shakllanishi va yuksak badiiy-estetik darajaga ko‘tarilishida temuriylar davrida vujudga kelgan ilmiy-ma’rifiy va madaniy muhit hal qiluvchi omillardan biri bo‘ldi. Mazkur muhit ijodkorning nafaqat adabiy iste’dodini rivojlantirish, balki uning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va ma’naviy qarashlarini shakllantirish uchun ham mustahkam zamin yaratdi. Navoiy hayot yo‘lining turli bosqichlari – Hirotdagi saroy muhiti, Samarqanddagi ilmiy-ma’rifiy davra hamda Husayn Boyqaro davridagi madaniy yuksalish jarayonlari shoir tafakkurining tobora takomillashib borishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, Temuriylar davrida ilm-fan, adabiyot, tarixnavislik va san’atning o‘zaro uyg‘un rivojlanishi Navoiy ijodida komil inson, adolatli jamiyat, ma’rifatparvar davlat va yuksak axloq tamoyillarining chuqur badiiy talqin etilishiga imkon berdi. Shu bois Navoiy merosini faqat individual dahoning mahsuli sifatida emas, balki Sharq Uyg‘onish davrining yuksak madaniy-ma’naviy tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda baholash ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Demak, Temuriylar davri madaniyati Alisher Navoiyning ijodiy kamolotini ta'minlagan tarixiy-madaniy asos bo'libgina qolmay, uning asarlarida mujassam bo'lgan umuminsoniy g'oyalarning shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Natijada Navoiy ijodi o'z davri chegaralaridan chiqib, turkiy xalqlar ma'naviy tafakkuri hamda jahon adabiy merosining ajralmas qismiga aylangan ulkan ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдуқодир Ҳайитметов. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 208 б.
2. Абдуқодир Ҳайитметов. Темурийлар даври ўзбек адабиёти (тадқиқотлар, мақолалар, лавҳалар). – Тошкент: Фан, 1996. – 272 б.
3. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – 368 b.
4. Кароматов Х. Амир Тему́р жаҳон тарихида. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 168 б.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
6. Navoiy A. To'la asarlar to'plami. 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011. – 812 b.
7. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. // Mukammal asarlar to'plami. 10 jildlik. – Toshkent: Fan, 2011.
8. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy // Mukammal asarlar to'plami. 10 jildlik. – Toshkent: Fan, 2011.
9. Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror // Mukammal asarlar to'plami. 10 jildlik. – Toshkent: Fan, 2011.
10. Ўзбекистон маданий мероси. Алишер Навоий асарлари XV–XVI асрлар китобат санъати дурдоналарида. – Тошкент: Silk Road Media, East Star Media, 2020. – 5-жилд.
11. O'zbekiston madaniy merosi. Temuriylar madaniy merosi O'zbekiston to'plamlarida / F.F. Abduxolliqov, E. Gyul va boshqalar. – Toshkent: Zamon-Press-Info, 2025.
12. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2010. – 332 b.
13. Xondamir, G'iyosiddin. Makorim ul-axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 232 b.

### **Bâbü rnâme Eserindeki Dağ İmgesi**

Kırgızistan-Türkiye Manas Üniversitesi  
Edebiyat Fakültesi Türkoloji Bölümü Öğrencisi  
Züleyha GÜMÜŞLER  
zgumusler42@gmail.com, +996990190231

**Özet.** Türk edebiyatında önemli bir yere sahip olan Bâbü rname eserinde Bâbü r, sadece hatıra yazmamış bölgenin coğrafyasını da anlamamızı sağlamıştır. Bu doğrultuda, dağ imgesi ve dağlarda yaşadığı olaylara karşı Babür'ün iç dünyasını onun bakış açısıyla ele aldık.

**Kilit Sözcükler.** Bâbü r, Bâbü rname, Dağ, Dağ Geçidi, Savaş, Galibiyet, Hasret.

**Resume.** In the Baburnama, a work of great significance in Turkic literature, Babur did not merely record his memoirs; he also illuminated the geography of the region. Accordingly, we have examined Babur's inner world in relation to the imagery of mountains and the events he experienced in these terrains, through his own perspective.

**Key words.** Babur, The Baburnama, Mountain, Mountain Pass, Battle, Victory, Longing.

Türkçe yazılan şiirlerde Ali Şir Nevai'den sonraki en iyi şair olarak kabul edilen ve asıl adı Zahîrûddîn Muhammed olan Bâbü'r Şah aynı zamanda Türk Edebiyatı'nda ilk anı kitabı olan Bâbü'r-nâme'nin de yazarıdır. Bâbü'r bu eserinde yaptığı savaşların ve yaşadığı zorlukların yanında bulunduğu şehirlerin coğrafi güzelliklerine de geniş yer vermiştir. Makalemize geçmeden hayatından ve eserlerinden kısaca bahsetmek doğru olacaktır.

6 Muharrem 888'de (14 Şubat 1483) Fergana'da doğdu. Babası Timur'un torunlarından Fergana hâkimi Ömer Şeyh, annesi Cengiz'in torunlarından Yûnus Han'ın kızı Kutluğ Nigâr Hanım'dır. Bâbü'r'ün çocukluğu hakkında fazla bilgi yoktur. Annesiyle birlikte Endican Kalesi'nde otururken babasının bir kaza sonucu ölümü üzerine 5 Ramazan 899'da (9 Haziran 1494) henüz on iki yaşında iken Fergana hükümdarı oldu [Akün, Ömer Faruk, 1991: 4 Öncesinde devlet yönetimine dair eğitiminin yanında bir çok alanda iyi eğitim aldığını Bâbü'r-nâme eserini ve hayatını okuduğumuzda anlayabiliyoruz. Almış olduğu eğitim ile birlikte yanındaki kişilere ve onların deneyimlerine değer verdiğini de yine hatıratında görüyoruz. Hayatını at üstünde geçirmiş, askerlerinden aşağı kalmayan savaş becerileri ve kendisini sakınmadan savaşlarda saf aldığını, bunun yanında bilime olan ilgisini ve yukarıda da bahsettiğimiz gibi şiir sanatında çok iyi yerlere geldiğini de eserlerinden anlayabiliyoruz. Öyleki Haydar Mirza Duğlat'ın "Onu, Türkçe şiirlerinde ancak Ali Şir Nevai geçirdi." [Pırlanta, İsmail, 2016: 10/10] yorumu bize eserlerinin Türk Edebiyatındaki yerini anlamamızda yardımcı oluyor.

İnsanlarına değer verir, halkının bir çatı altında yaşamasını ister ve kendi olumsuz yönlerini de bilir, bunları anlatmaktan da kaçınmazdı. Dünyanın

güzelliklerinden faydalanmayı, eğlenceyi, doğayı, şiiri, müziği sever, bununla birlikte başarılarını Allah'ın lütfu kabul eder ve kibirlenmezdi. Adil bir padişah olmaya çalışır, halka zulüm edenlere acımaz ve ceza vermekten de kaçınmazdı. [Bâbü, 2000: 226].

Eserleri; Tahta geçtiği tarihten itibaren yazdığı ve yaşadıklarını anı türünde anlattığı Bâbü, arûzun özelliklerine ve türlerine ayrıca örnekli açıklamalara yer verdiği Risâle-i Arûz, oğulları olan Humayûn ve Kâmrân'a nasihat için kaleme aldığı ve Hanefî fikhî konusunda yazdığı Mübeyyen Der Fikh, tasavvufî içeriği, münzeviliği olumlaması bakımından Bâbü'nün dünya görüşünü yorumlamamız konusunda bizlere bazı ipuçları sunacak [Akyol, Ercan, 2014: 32 olan Risâle-i Vâlidîyye Tercümesi ve hemen hepsi Çağatayca şiirlerden oluşan ve alışılmış dîvânlardan farklı bir şekilde hazırlanmış divanıdır [Yücel, Bilal, 1995: 19].

Bâbü, üzerine ülkemizde bir çok çalışma yapılmış olsa da bugün hâlâ bu çalışmaların yeterli olduğu söylenemez. Bu çalışmalardan bazıları; Prof.Dr. Bilal Yücel'in doktora tezi - Bâbü Divânı ( Gramer-Metin-Sözlük-Tıpkıbasım), Dr. Ercan Akyol'un yüksek lisans tezi - Bâbü: Bir Birey Olarak Bâbü ve Yeni Bir Nasihatnâme Türü, Prof.Dr. İsmail Pırlanta'nın Bozok Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi'nde yayınlanan Babür Şah'ın Hayatı ve Kişiliği makalesi, Murat Doğan'ın Gazi Muhammed Zahirreddin Babür Şah'ın (1483-1530) Hatıratı Babür-nâme'de Yer Alan Gastronomi Unsurlarının Değerlendirilmesi başlıklı makalesi, Prof. Dr. Hüseyin Baydemir'in Bâbü, de Folklorik ve Etnografik Unsurlar başlıklı makalesi, Dr. Sinan İlhan'ın Türk ve İslam Tarihinde Bir Sayfa: Bâbü, de Hazaralar makalesi, Bilal Koç'un Türk Devleti'nde Akıl: Kutadgu Bilig ve Babür-nâme makalesi, Prof. Dr. M. Turgut Berbercan'ın Türk Dili ve Kültürü Açısından Baburname'de Avcılık makalesi, Muhittin Gümüş'ün Bâbü'nün Edebî Tür Açısından Özellikleri adlı makalesi ve adını anmadığımız onlarca eser, en önemlisi de Prof. Dr. Reşit Rahmeti Arat'ın Baburnâme (Babur'un Hatıratı) adıyla yayınlanan üç ciltlik çevirisidir.

### **Bâbü, de Dağ İmgesi**

Bâbüer eserinde etrafındaki adamlarına, düşmanlarına, ailesine, yaşadığı ve gördüğü her yerin coğrafik özelliklerine, insanların yaşayış tarzlarına, iyi ve kötü yanlarına yer verip galibiyetlerinin yanında yenilgilerini de yazmakta ve bir padişah olmasına rağmen hatalarını yazmaktan çekinmemektedir. Bu durum eserin hem tarihi aydınlatmasını sağlamakta hem de duygulu ve etkili anlatımı ile edebi değerini arttırmaktadır. Aynı zamanda dönemi anlamak ve bir devletin kuruluşundaki ayrıntıları yakalamak için oldukça donanımlı bir kaynak ortaya çıkarmaktadır. Bâbüernâme’de Bâbüer’ün bakış açısı eşliğinde bir imparatorluğun kurucusunun iç dünyasında onu nelerin etkilediğini ona eşlik ederek, yakından görmüş oluyoruz.

Bâbüer çok iyi bir gözlemci olarak etrafındaki her şeyi ayrıntılarıyla betimlemekte yeri geldiğinde duygularını bu şekilde ifade etmektedir. Onun etkili anlatımı okuyucuyu roman okuyormuş gibi sahneleri gözünde canlandırmaya itmekte ve aynı duyguları yaşamaya şevk etmektedir. Bâbüer’ün büyüdüğü ve ayak bastığı bir çok yerde dağ olması, onu hem bu dağların güzelliklerini hem de bu dağlardaki zorlu yolculuklarını anlatmaya itmektedir. Bu anlatıları dağlarda kimlerin yaşadığından, yetişen meyve sebzelere hatta kaynağı oldukları akarsulara kadar ayrıntılandırıyor. Özellikle, okuyucu kendini, dağların güzelliklerini anlattığı kısımlarda o dağların eteklerindeki bahçelerde gezip tepelerinden manzaraları izlemekte ve zorlu kışlarda yaşadığı zorlukları onunla yaşamakta bulur.

Oş Şehri’ndeki kısımda “Bera-Kûh ismini taşıyan bu dağın tepesinde, Sultan Mahmud Han bir köşk yaptırmıştır. Bu köşkten biraz aşağıda ve bu dağın çıkıntılı ve dik bir yerinde, 902 (1496 -1497) senesinde, ben de bir ayvanlı köşk yaptırđım. Gerçi o köşk bundan yüksek ise de, benimki daha güzel bir mevkidedir; bütün şehir ve mahalleler ayak altındadır.” [Bâbüer, 2000: 4-5]<sup>6</sup> ifadelerinden ve devamındaki anlatıdan Bâbüer’ün bu dağda bulunup etrafı izlemekten keyif aldığı anlaşılmaktadır. Öyleki, yazısının devamında dağın eteklerinde uyuya kalanlara nehirden su döküldüğünü gözlemlediğini anlıyoruz. [Bâbüer, 2000: 5]<sup>7</sup> Hindistan ile ilgili kısma başlarken kuzeydeki dağlarından, bu dağlardan çıkan derelerden ve etrafındaki halktan ayrıntılı bir şekilde bahsetmektedir [Bâbüer, 2000: 438-440].

Biz burada sadece iki örnek verdik ama eserde sözü geçen her şehrin ayrıntılı anlatımı bulunmaktadır. Tabii dağları sadece güzellikleri ile tasvirlememektedir.

Semarkand'dan ayrılmak zorunda kaldığında yaşadığı zorluklar ve yolculuk yine dağlarda ve geçitlerde geçmektedir. O zamandaki durumunu, çaresizliğini ve vatana özlemini “Biz şehir ve vilâyetten mahrumduk; gidecek ve kalacak yerimiz belli değildi.” [Bâbü, 2000: 122] sözleriyle etkili bir biçimde belirtmektedir. Küçük yaşta tahta oturmuş ve mücadeleyi bırakmamış bir padişah için bu cümleyi kurmak oldukça zordur. Devamında yazılan “Dar ve uçurumlu yollarda, sarp geçitlerde birçok at ve deve kaldı. Üç dört gün sonra, Sere-Tağ (Sirv-Tağ) geçidine vardık. Geçit, amma nasıl bir geçit. Hiç bir yerde böyle yüksek ve dar bir geçit görülmemiştir ve hiç bir vakit böyle dar ve uçurumlu yollarda yürünmemiştir.” [Bâbü, 2000: 123] sözleri dağlarda geçirdiği zorlu yolculuklara bir örnek olmakla birlikte sonrasında da bu sıkıntılı halin devam ettiği, ayrıca beklenen yardımların yetersiz ve kötü bir şekilde ulaştığı görülmektedir. Bu duruma yazdığı beyitin çevirisi şöyledir: “Ey gönül, dünya halkından kim iyilik görmüştür; kendisinden iyi olmayandan, iyilik bekleme.” [Bâbü, 2000: 124]. Kurulan cümleler ve yazılan beyitten anlıyoruz ki, yaşanan zorlukların üzerine dağdaki geçit Bâbü’ü oldukça zorlamış, üzerine gelen bu samimiyetsiz yardım onda karamsarlığa neden olmuştur.

Babür gittiği yerlerde dağları yürüyerek gezmeyi sever ve özellikle Dıhket'te yalın ayak gezmeyi sevdiğinden bahsederdi. Bu yalın ayak gezilerinin sıklığını “Yalın ayak gezmekten ayaklarım o hâle gelmişti ki, dağ ve taşı farketmezdi.” [Bâbü, 2000: 145] cümlesi anlatmaktadır. Ayakları artık dağların bir parçasıdır ve yalın ayak gezmek onlar için yorucu ya da yıpratıcı olmamaktadır. O artık dağlarla bütünleşmiştir. Dahası, bu kadar sıkıntılara rağmen geçtiği bir dağlıkta, âdete uyarak, bir çeşmenin taşına “İşittim ki, iyi huylu Cemşid bir çeşmenin başındaki bir taş: “Bu çeşmede, bizden evvel, birçok insanlar nefes aldılar; sonra, göz açıp kapayıncaya kadar, göçüp gittiler. Yiğitlik ve kuvvetle dünyayı zapt ettik; fakat beraber mezara götüremedik” [Bâbü, 2000: 148] anlamındaki beyitleri yazdırmıştır. Bu beyitler kim olduğunu unutmadığını ve bir kul olarak hiçbir şeyi

olmadan dünyadan gideceğini hatırında tuttuğunu göstermektedir. Tabii bu dağları keyifle ve manzaralarını izlerken ya da düşüncelerini toplamak için gezmekle, oradan oraya sürüklenirmişcesine göç halinde gezmek çok farklı durumlardır ve Bâbüre buna içerlediğini de kalemiyle hissettirmektedir.

Kendini halkından üstün görmeyen ve suçluları cezalandıran, halkının acıları karşısında derin empati duyan Bâbüre Herat'tan Kâbil'e dönerken Zirrin Geçidi'nde ağır tipi ve birikmiş olan yoğun kara rağmen halkının önünde ilerleyip, yolun açılmasını bekleyen olmayarak yolu açmıştır. Derin uçurumlu, böyle bir havadan kimsenin gitmediği yolun devamında Havâl-Kuti Mağarası'na gelindiğinde, içeride yeterince yer olmadığı için, mağaranın dışında karı kazıp içinde geceyi geçirmiştir. Öyleki, o yolda bazı insanları, atları ve develeri arkada bırakmışlardı ve sonraki gece soğuktan dolayı bazı adamlarının el, ayak gibi uzuvları donmuştur. Gece devam eden tipiye rağmen dışarıda kalan Bâbüre düşüncelerini eserinde “Bütün halk karda ve tipide iken, ben sıcak yerde ve istirahatla ve bütün halk burada ızdırıp ve meşakkatte iken, ben orada uykuda ve refahta bulunursam, bu insaniyetten uzak bir hareket ve halka karşı lâkaytlık olur; ne gibi ızdırıp ve meşakkat olursa, ben de göreyim ve halk nasıl tahammül edip duruyorsa, ben de durayım” [Bâbüre, 2000: 304] olarak ifade etmekte ve Farsça bir atasözünü dile getirmektedir: Dostlarla beraber ölüm, düğündür. Tabii ki bir insan için zorda kalan halkı görünce kendini onlardan ayırmaması ve onların derdine ortak olması beklenmektedir. Söz konusu olan kişinin bir padişah olduğunu ve peşinden gelenlerin onun halkı olduğunu düşündüğümüzde, onun bu duyguları unutmuş olması da bizi şaşırtmazdı.

Dağları çok seven ve çektiği eziyetlerin bir kısmı dağda geçmesine rağmen Bâbüre, Makam Dağı'nın yakınındaki güzel ve havadar bir tepede bulunan, hayırsız birinin mezarını söktürmüş ve dağı düşürüldüğü bu kötü durumdan kurtarmıştır.[Bâbüre, 2000: 352]

Hindistan'da bulunduğu dönemde Rânâ-Senga ile etrafı dağlık olan bir arazide yapılan muharebede asker korkmuştur ve düşman cesur, korkusuz anlatılmıştır. Askerin korkusunun dışında Bâbüre de saldırıyı şu anlama gelen mısralarla



anlatmaktadır: “Eshâb-ı fil gibi, zelil hindular. fillere mağrûr oldular. Hepsi de, ecel gecesi gibi, mekrûh ve uğursuz, geceden daha siyah ve yıldızdan daha çoktular. Hepsi ateş gibi idiler; fakat kinlerinden, duman gibi, başlarını mâvi semâyâya kaldırmışlardı. Sağdan ve soldan, atlı ve piyâde, binlerce karınca gibi, saldırdılar.” [Bâbü, 2000: 512] Bu mısralar Bâbü’nün içindeki coşkuyu ve düşmana duyduğu nefreti aynı anda göstermektedir. Sonrasında gelen galibiyet Bâbü’e gazi ünvanını vermiştir ve kaleminden şu beyit dökülmüştür: “İslam uğrunda çölde âvâre oldum, kâfirler ile hep çarpıştım; kendimi şehit etmeye azmetmişim; Tanrı’ya şükür ki, gâzi oldum.”[Bâbü, 2000: 523] Bâbü artık tövbe etmiştir ve içkiyi bırakmıştır. Bundan sonra gaza düşüncesi daha ön plandadır. Çendîrî Dağı’nı alırkenki anlatılarında düşmanın kendi kadınlarını öldürerek savaşması onu şaşırtmıştır ama kâfirlerin cezalandırmış. [Bâbü, 2000: 523]

Sonuç olarak, Babür’ün dağlara olan yaklaşımı; hem özel hayatı hem hükümdarlık felsefesi hem de düşünce dünyasıyla iç içedir. Dağlar onun için kah bir keyif mekanı kah ağır bir imtihan alanı kah bir tefekkür durağı olmuştur.

### KAYNAKÇA

1. Akün, Ömer Faruk. Bâbü. // İslâm Ansiklopedisi. – İstanbul: TDV Yay., 1991. – C. 4. – s. 395-396.
2. Pırlanta, İsmail. Bâbü Şah’ın Hayatı ve Kişiliği. // Bozok Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. – Yozgat, 2016. – C. 10. – № 10. – s. 242.
3. Bâbü. Bâbü’nâme. – İstanbul/Ankara: T.C. Kültür Bakanlığı, 2000. – 3. Baskı. – s. 226.
4. Akyol, Ercan. Bâbü’nâme: Bir Birey Olarak Bâbü ve Yeni Bir Nasihatnâme Türü. // İ.D. Bilkent Üniversitesi. – Ankara, 2014. – Yüksek Lisans Tezi. – s. 32.
5. Yücel, Bilal. Bâbü Divânı (Gramer-Metin-Sözlük-Tıpkıbasım). // Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu Atatürk Kültür Merkezi Yayını. – Ankara, 1995. – Sayı: 81 (Hükümdar Divânları Dizisi, Sayı: 1). – s. 19.
6. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 4-5.
7. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 5.
8. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 438-439-440.
9. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 122.
10. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 123.
11. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 124.
12. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 145.
13. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 148.
14. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 304.
15. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 352.
16. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 512.
17. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 523.
18. Bâbü. Bâbü’nâme // T.C. Kültür Bakanlığı. – Ankara, 2000. – 3. Baskı. – s. 539.

## BOBUR IJODIDA DINIY-MA'RIFIY QARASHLAR IFODASI

**Maxmudova Nargiza Shokirovna,**

*FarDU tadqiqotchisi, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning diniy-ma'rifiy va falsafiy qarashlari uning she'riy hamda tarixiy merosi asosida tahlil qilinadi. Xususan, "Boburnoma" va Bobur she'riyatida islomiy qadriyatlar, tasavvufiy qarashlar, tavhid, taqvo, tavakkul, sabr, adolat va axloqiy poklik masalalarining badiiy ifodasi yoritiladi. Shuningdek, Boburning Qur'on oyatlari va hadis ilmlariga bo'lgan munosabati, Allohga bo'lgan e'tiqodi, duo, tush va ilohiy inoyat haqidagi qarashlari ilmiy asosda ochib beriladi. Maqolada Boburning diniy tafakkuri va uning o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rni tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Islomiy qadriyatlar, tasavvuf, tavhid, taqvo, tavakkul, duo, tush motivi, axloqiy poklik, mumtoz adabiyot.

**Annotation:** This article analyzes the religious, educational, and philosophical views of Zahiriddin Muhammad Babur based on his poetic and historical heritage. In particular, the artistic expression of Islamic values, Sufi ideas, monotheism, piety, trust in God, patience, justice, and moral purity in "Baburnama" and Babur's poetry is examined. The study also reveals Babur's attitude toward the Qur'an and Hadith sciences, his faith in Allah, and his views on prayer, dreams, and divine grace. Furthermore, the article discusses Babur's religious thinking and his significant role in Uzbek classical literature.

**Keywords:** Babur, Baburnama, Islamic values, Sufism, monotheism, piety, trust in God, prayer, dream motif, moral purity, classical literature.

Bobur nafaqat Markaziy Osiyo tarixida buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida, balki o'z davrining yuksak diniy-ma'rifiy tafakkur egasi sifatida ham muhim o'rin tutadi. Uning diniy qarashlari asosan "Boburnoma" asari hamda boshqa ilmiy-adabiy merosi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur manbalarda

Boburning islom diniga sodiqligi, Qur'on va hadis ilmlariga bo'lgan hurmati, shuningdek, tasavvufiy qarashlarga yaqinligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

So'nggi ilmiy tadqiqotlar Boburning diniy dunyoqarashi faqatgina shariat qonunlariga amal qilish bilan cheklanmaganini, balki so'fiylik, ma'naviy komillik va madaniy bag'rikenglik tamoyillarini ham o'zida mujassam etganini ko'rsatadi. U Movarounnahr va Hindistonda o'z saltanatini barpo etish bilan birga, o'z ijodi orqali ham islomiy qadriyatlarni targ'ib qilgan. Boburning asarlarida axloqiy poklik, taqvo, ilohiy muhabbat va inson kamoloti masalalari alohida o'rin egallaydi.

Bobur turkiy va forsiy tillarda yozgan she'rlarida ham islomiy mavzularni keng yoritgan. Uning g'azallari va ruboiylarida tavhid (yagona Allohga e'tiqod), taqvo, tavakkul, dunyoning foniyligi va oxirat haqidagi o'ylar aks etgan.

Boburning ko'plab she'rlarida Alloh taologa bo'lgan muhabbat tasvirlanadi. U tasavvufiy ruhda yozilgan g'azallarida inson qalbi va Yaratganga bo'lgan qurb haqida fikr yuritadi. Masalan:

*Ne bois ersa vasl yo'lida hijron, sabr qildim,*

*Tavakkul aylabon anga yetmakka umidim bor. [Bo'riy, 2021:159].*

Ushbu misralarda Bobur sabrlik va tavakkul orqali Unga ya'ni Allohga yaqinlashish, yetishish maqsadini ilgari suradi.

Dunyoviy hayotning o'tkinchiligi islomning asosiy tushunchalaridan biridir. Bobur ham dunyoning vaqtinchalik ekanligi va insonning abadiy hayot uchun tayyorgarlik ko'rishi kerakligini o'z she'rlarida eslatadi. Masalan:

*Jahon anduhidin bo'lsa g'amgin,*

*Ko'ngul solma anga, bo'l sabr qilmish. [Bo'riy, 2021:171].*

Bu satrlarda esa sabr va taqvo inson hayotining asosiy yo'l boshchisi bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Shoir islomiy g'oyalar asosida quyidagi ruboiyni yozadi:

*Yo qahr-u g'azab birla eni tufroq qil,*

*Yo bahri inoyatingda mustag'roq qil.*

*Yo Rab, sengadir yuzum qaro, gar oq qil,*

*Har nav'i sening rizong erur, andoq qil. [Boʻryp, 2021:309]*

Ruboiyda qoʻllangan nido, tazod sanʼatlari, mohirlik bilan tanlangan qofiya va radiflar shoirning fikr va his-tuygʻularini yorqin ifodalashga xizmat qilgan.

Bobur shoir sifatida adolat va axloqiy poklikni ulugʻlagan. Uning sheʼrlarida zolim hukmdorlarga tanqid, xalq manfaatini himoya qilish va islomiy axloq normalariga rioya qilish haqida soʻz boradi. U shoh boʻlishiga qaramay, kibr va manmanlikdan uzoq boʻlishga chaqirgan.

Uning eng mashhur asarlaridan boʻlgan “Boburnoma” faqat tarixiy va biografik asar boʻlib qolmay, balki islomiy qarashlar bilan boyitilgan falsafiy meros hamdir. Unda Bobur Allohni, Qurʼon oyatlari, paygʻambarlar hayoti va islomiy qadriyatlarni tez-tez eslatib oʻtadi.

Bobur oʻz hayotida duch kelgan sinovlarni Allohning irodasi deb qabul qilgan. Masalan, u taxtdan tushib, uzoq yillar sarson boʻlganda ham sabr va tavakkul bilan harakat qilgan. “Boburnoma”da bu holat quyidagicha tasvirlanadi:

*“Alloh ne desa oʻsha boʻlur, banda faqat tavakkul qilur”. [Boʻryp, 2002:230].*

“Boburnoma”da Allohga ishonish, axloqiy fazilatlar, sabr, rostgoʻylik, adolat va sadoqat kabi islomiy qadriyatlar ulugʻlangan. Bobur oʻzining harbiy yurishlari davomida ham islomiy axloq qoidalariga rioya qilishga harakat qilgan. Boburshunos olim M. Olimov “Boburnoma”da “Alloh” tushunchasini ifodalash uchun barcha muhim oʻrinlarda – Tengri, eng muhim tantanavor voqealar bayonida – Tengri taolo, oddiy inson uchun ham zarur boʻlgan inoyatlar tasvirida – Xudoy, haq-nohaqlik masalasi qoʻzgʻaladigan oʻrinlarda – Haq, mutlaqo kutilmagan omadlar bayonida – gʻayb, ne-ne daʼvosi bilan muxoliflar bosh egib kelganda va tabiat moʻjizalar koʻrsatganda – Qodir, gap taqdirning inoyat va karamiga borib taqalganda faqat bir oʻrinda va sheʼriy matnda – Karim-u gʻaffor soʻzlari ishlatilgan” ligini taʼkidlaydi. [ОЛИМОВ, 2002:52].

Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy va tarixiy merosi islomiy jihatdan boy va mazmunlidir. Shoir shaxsiy hayotida ham, davlat boshqaruvida ham islomiy qadriyatlarni ustuvor deb bilgan. Uning sheʼriyatida tavhid, taqvo, dunyoning foniyligi va adolat singari mavzular yetakchi oʻrinni egallagan.

“Boburnoma” esa islomiy tafakkurning muhim manbalaridan biri bo‘lib, unda muallifning e’tiqodi va dunyoqarashini aks ettiradi.

Boburning hayotida g‘aroyib hodisalar juda ham ko‘p bo‘lgan. U duoning kuchi tufayli o‘limdan qutilib qoladi. “Boburnoma” asarida 1506-1507 yil voqealarini shunday izohlaydi, to‘s-to‘palon paytida Do‘st Saripuliy bilan Ahmad Yusuf qilich yalong‘ochlab yaqin kelib, Boburga tashlanadi, shunda Bobur duo o‘qib turgani uchun (aslida Allohning karami edi) shikast yetmaydi. “Men sovuqqa va qorga ko‘milganimdanmu, meni tanimadi, yo urush iztirobidanmu edi, yalang boshumga qilich soldi, Tangri inoyati edi, sari mo‘l kor qilmadi”. [Боғъ, 2002:150].

*Agar tig‘i olam bichiband zi choy,*

*Naburrod rage to naxohat Xudoy.*

(Ma’nosi: Agar olam tig‘i o‘z joyidan qo‘zg‘alsa, Xudo xohlamasa, biror torni ham qirqolmaydi).

Men bu duoni o‘qib edim, aning xosiyatidin ediki, Tangri taolo bu muzarratni daf‘ qildi va bu muta’vajjih bo‘lg‘on baloni raf‘ qildi, ul duo budir: “Bismillahir rahmonir-rahim. Allohumma anta Robbiy, laa ilaha illa anta, alayka tavakkaltu va anta robbul arshil azim. Maashsillohu kaana va maa lam yasha’ lam yakun. Va laa havla vala quvvata illa billahil aliyyil azim. Va inalloha alla kulli shay’in qodir. Va inalloha qod ahata bikulli shay’in ilman va alaa kulli shay’in adadan.

Allohumma inni auzubika min sharri nafsi va min sharri g‘oyri va min sharri kulli dabbatin, ...innaka robbul arshil azim”. [Боғъ, 2002:150].

Tarjimasi: “...Ey Parvardigor! Meni hamma yomonliklardan O‘zing saqlagin. Sen haqiqatda ulkan Arshning sohibidursan”.

Bobur “Boburnoma” asarida tush mavzusiga bir necha bor to‘xtalib o‘tadi. Tush haqida “Qur’oni Karim”da ham oyatlar keltirilgan. “Yusuf” surasining boshidan oxirigacha Yusuf alayhissalom to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ushbu surada mazkur payg‘ambar hayotida muhim ahamiyat kasb etgan tush masalasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Asarda Bobur tushini shunday tasvirlaydi: “Dushmanni g‘aflat uyqusida bosish uchun yana Asfidak qo‘rg‘onidan bosh chiqarmay kutish boshlandi. Ammo shunday so‘lg‘in kuz oqshomlarining birida qiziq voqea bo‘ladi. Bobur mirzoning har oqshom atrofiga yaqinlarini to‘plab, u yoq-buyoqdan suhbatlashib o‘tirish odati bor edi. Lekin gap har gal baribir Samarqandni olishga kelib taqalardi. Mana shunday qizg‘in suhbatlarning birida Bobur mirzo: “Keling, aytingkim, Tangri rost keltursa, Samarqandni qachon olg‘aymiz?” – degan savolni o‘rtaga tashladi. Hamma jimib qoldi. Birozdan so‘ng davradagilarning biri: “Yozda olg‘aybiz!”, ikkinchisi: “Bir oy-qirq kunda!”, boshqasi: “Yigirma kunda olg‘aybiz!” degan gap qildi. Davrada o‘tirganlar ichida suxandonlikdan ko‘ra qilich chopqillashga moyil, kamgap No‘yon Ko‘kaltosh bo‘lsa aytdikim: “O‘n to‘rt kunda olurbiz!” Davradagilar: “Nega aynan o‘n to‘rt kunda, Ko‘kaltosh, ayting?” – deb No‘yon Ko‘kaltosh ustidan kuldilar. Bobur mirzo ham boshqalardan ko‘ra birmuncha ortiq mehr qo‘ygan bu sodiq navkarining so‘zini eshitib, miyig‘ida kulib qo‘ydi. Faqat ichida “koshki” degan gap, yuragini achishtirib g‘imirladi”.

Boburmirzo o‘sha kecha g‘alati tush ko‘radi. Bu haqda “Boburnoma”da shunday yozilgan: “Tush ko‘rarmankim, hazrati Xoja Ubaydulloh kelmishlar, men istiqbollari g‘a chiqmishmen. Xoja kelib o‘lturdilar. Xojaning olig‘a g‘olibo betakallufroq dasturxon solmishlar. Bu jihattin hazrat xotirig‘a nima kelmish. Mullo Bobo mening sari boqib ishorat qiladur. Men ham imo bila dedimkim: “Mendin emastur. Dastorxon solg‘uchi taqsir qilibtur?”. Xoja fahm qilib, bu uzr masmu’ tushti. Qo‘ptilar. Uzata chiqdim. Ushbu uyning dolonida o‘ng qo‘lumdin yo so‘l qo‘lumdan tutib, andoq ko‘tardilarkim, bir oyog‘im erdin qo‘pti. Turkiy dedilarkim: “Shayx maslahat berdi”. O‘shul necha kunda Samarqandni oldim...” Bobur mirzo No‘yon Ko‘kaltosh so‘zini ham eslab yozadi: “Tangri rost kelturdi, rost o‘n to‘rt kunda Samarqandni olduk”. [Боёв, 2002:79].

“Boburnoma”dan keltirilgan parchada Bobur mirzoning Xoja Ahror Valiyga bo‘lgan botiniy bir hurmat va ixlosni zohir etuvchi bir alomat bor. Tarixda Xojani ne-ne faxrli nomlar bilan atashmagan. Agar Jomiy uni “Ka‘bai maqsud” deb bilgan

bo'lsa, Hazrat Alisher Navoiy uni "Tariqat qutbi" deb e'tirof etsa, Bobur mirzo bu parchada xojani "Mullo Bobo" deb ataydiki, bu soddadillik bilan aytilgan nomda juda ulkan mehr yashiringanini sezmasdan iloj yo'q.

Bobur o'z ijodida Qur'on oyatlari va hadis mazmunidan samarali foydalangan holda, insonni komillikka, halollikka va adolatga chorlaydi. Shoirning duo, tush va ilohiy inoyat bilan bog'liq qarashlari uning Allohga bo'lgan mustahkam ishonchi va tasavvufiy tafakkurini namoyon etadi. Shu jihatdan Bobur merosi nafaqat tarixiy va badiiy, balki diniy-falsafiy ahamiyatga ham ega bo'lib, bugungi kunda ham o'z ilmiy va ma'naviy qimmatini saqlab qolmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Куллиёт. 1-жилд. Девон. –Тошкент: Zilol buloq, 2021.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Асарлар (Нашрга тайёрловчилар П.Шамсиев, С.Мирзаев).3 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1965.
4. Жалилов Б. Мумтоз адабиётда диний-маърифий мавзулар. – Тошкент: Фан, 2010.
5. Олимов М. "Бобурнома"да Аллоҳ исмлари ва сифатлари талқини. – Тошкент: Фан, 2002.

### **"TAZKIRAYI QAYYUMIY"DA AYOL IJODKORLAR ZIKRI**

**Yusufaliyeva Muhabbat Akramjon qizi,**

*ToshDO 'TAU talabasi*

[yusufaliyevamuhabbat@gmail.com](mailto:yusufaliyevamuhabbat@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada "Tazkirayi Qayyumiyy" asarida keltirilgan ayol ijodkorlar faoliyati tahlil qilinadi. Unda Mahzuna, Uvaysiy, Nozik, Muazzam, Nozima, Xoniy va Layli kabi shoiralarning hayoti, ijodi hamda adabiy merosi yoritilgan. Tazkira orqali ayollarning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni, ma'rifati va iste'dodi namoyon etiladi. Shuningdek, ularning oilaviy muhiti, ijodiy faoliyati va asarlaridan namunalar asosida ayol ijodkorlarning o'zbek adabiyotidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada tazkira janrining ilmiy va tarixiy qiymati ham asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** Tazkira, ayol ijodkorlar, o'zbek adabiyoti, shoira, adabiy meros.



**Annotation.** This article analyzes the activities of women writers mentioned in “Tazkirayi Qayyumiy.” It highlights the lives, creativity, and literary heritage of poets such as Mahzuna, Uvaysiy, Nozik, Muazzam, Nozima, Khoniy, and Layli. Through the tazkira, the role of women in social and spiritual life, as well as their education and talent, is revealed. The study also examines their family background, creative work, and selected writings, emphasizing the significance of women writers in Uzbek literature and the historical and scholarly value of the tazkira genre.

**Keywords:** Tazkira, women writers, Uzbek literature, poetess, literary heritage.

Sharq xalqlari adabiyoti va madaniyati tarixida tazkira janri nafaqat ijodkorlar tarjimai holini aniqlovchi manba, balki davrning ijtimoiy-ma’naviy manzarasini aks ettiruvchi hamdir. Tazkiralarda erkak ijodkorlar bilan birgalikda ayol ijodkorlarning ham keltirilishi, o’sha davrdagi ayollarning nechog‘lik ma’rifatli va salohiyatli bo‘lganligini ko‘rsatadi. Xususan, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida 4 ta: Mehriy, Bediliy, Ofoqbegim Jaloyir va Bibichai Munajjima kabi orifa ayollarga berilgan yuksak ta’rif berilishi yoki Faxri Hiraviyning “Javohir ul-ajoyib” asarida 31 nafar ayol shoiralarning keltirilishi bilan ahamiyatlidir.

Jahon adabiyotida XV asrgacha bo‘lgan davrda ayol shoirlar haqida ma’lumot kam. Borlari ham ko‘proq shoirlik bilan emas, balki davlat boshqaruvi bilan tasavvuf bilan yoki qaysidir tarixiy shaxsning onasi, ayoli, singlisi yoki qarindoshi sifatida esga olinadi. Bu hodisa bir tomondan ayollarning o’sha davrlardagi ijtimoiy mavqei bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan ular tomondan yaratilgan monumental asarlarning yo‘qligi bilan izohlansa kerak [To‘ychiyeva, 2021:3].

Tashqaridan qaraganda, musulmon ayollarining erki cheklangandek ko‘ringan. Lekin aslida mamlakat va millatning ichki hayotida ularning o‘rni nihoyatda katta bo‘lgan. Sharq ayollari tafakkur qamrovi keng, kitobxonlik

darajasi yuksak va ijtimoiy taraqqiyotda faolligi bilan ajralib turgan[Adizova, 2024:18].

XX asr tazkiranavisligining eng yorqin namunalaridan biri bo'lgan "Tazkirayi Qayyumiy" asarida ham bir nechta ayol ijodkorlarining keltirilishiga guvoh bo'lamiz: *Mahzuna, Uvaysiy, Nozik, Muazzam, Nozima, Xoniy va Layli* kabilar.

Tazkiraning birinchi jildi, ikkinchi daftarida 54-tartib raqami bilan *Mahzuna* ijodiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Diniy ruhda tarbiyalangani holda ash'orlarida Xoja Ahmad Yassaviyga emas, Alisher Navoiyga ergashmish shoiradir. Adabiy sohada Navoiy, Jomiylardan bahralanmish ekani ko'rinadur. Mullo Fazliyning aytuvicha shoira o'ziga munosib kelmagan bir nodon kishiga turmushga chiqqani, o'zining bu to'g'rida baxtsizligi va dilxun ekani bilan mushaira anglatgani "Majmuot ush-shuaro"da ko'rsatiladur. Shoiraning Fazliy bilan mushoirasi ajoyib bo'lub fazlu kamolotidan xabar beradur".

**Fazliy:**

Yuz ofarin so'zingga lubo lubob ko'rmay,

Arzi jamol etarmu oina ob ko'rmay.

**Mahzuna:**

Kimdan chiqar bu so'zlar bag'rim kabob ko'rmay,

Ganj o'lmag'ay muayyas holin xarob ko'rmay [Qayumov, 1999:157].

Shu bilan birgalikda shoira *Uvaysiy* haqida tazkirada quyidagicha zikr etiladi: "Bu shoira Marg'ilon shaharidan bo'lub, XIX asrning boshlarida Ho'qand shaharida nash'u namu etmishdur. Marg'ilon kekxa shoir Fazliyning qizidur. Adabiy sohaga otasi tortmishdur. Bir ikki yildan so'ngra shoiraligi bilan shuhratlandi va ovoza xonning haram saroyiga ma'lum bo'lgach, Mohlar oyim o'z huzuriga qabul etdi va unga mushfiqlik etib haramda o'ziga munosib bir o'run ko'rsatdi"[Qayumov,1999:161]. Uvaysiy odob va ta'limda ham yagona ekanligi, saroyda Umarxonni ko'rganida o'zini panaga olishida yaqqol ko'rinadi. Tazkira muallifi ayrim manbalarda Uvaysiyga nisbatan Jahon ismi qo'llanilib, Fazliy bilan bo'lgan aytishuvda haqoratli so'zni qo'llagani sababli saroydan quvilgani haqidagi ma'lumotlar asossiz ekanini qayd etib o'tadi: "Uvaysiyning nomi Jahon bo'lmay,

boshqa Jahon nomli boshqa bir xotun bo'lgandur. Bu boshqa shoiradur. Saroydan bir yo'l bilan haydalgani bor bo'lsada, bugungacha sababi ochiq ko'rsatilmagandur"[Qayumov,1999:162].

Po'lotjon Domulla Qayyumiy shoira **Nozik** ijodiga to'xtalganda biror bir tazkirada ham u haqida ma'lumot topa olmaganini qayd etadi. Faqatgina otasidan qolgan bir qo'lyozma bayozda, Sadriddin Ayniyning kitoblarida va "Tuhfat ul-ahbob" asarlaridan birmuncha ma'lumotlar topganini yozadi va ijodidan muxammaslar keltiradi:

Ey ofati zamona barnoyi sho'x shang,  
Ey dilraboyi mahvashi kofiri farang  
Oina ast ro'yi tu hargiz nadiyda zang  
Harchand agar buvad dili tu saxttar zi sang  
Oshiqlaringga vojib gohi nigoh aylasang(Qayumov,1999:167-169].

Ya'ni:

Ey zamonaning ofati bo'lgan sho'x, go'zal yor!  
Ey dilni rom etuvchi, go'yo g'arb go'zallaridek maftunkor mahbuba!  
Sening yuzing oynadek toza, unda hech qachon nuqson bo'lmagan.  
Garchi sening yuraging toshdan ham qattiq bo'lsa ham,  
Oshiqlaringga ba'zan bir nazar tashlashing kerak.

O'n olti yoshida turmushga chiqib, faqir hayot kechirgan, uzoq yillar farzand dog'ida sinalgan, qariganda ko'zlari ko'r bo'lib qolib, oyoqlari ham shol bo'lgan shoira **Muazzam** haqida tazkiradan quyidagi ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin: "Nomi Muazzamxondur. O'zining bir she'rida ko'rsatishicha, nomiga ma'no xilofida vazn birligida "azoblangan" ma'nosi bo'lmish. "Muazzam" deb taxallus etmish. Otasining adabiyotga muhib ekanligining qiziga ta'siri bo'lmishdur. Boshqa otasi qiziga ishqiy g'azallar yozishni man etmish esa ham, akasi himoya etmishdur.

Muazzam bir qalandarman jahonda hech nishonim yo'q,  
Nishon deb sahfga chekdim raqam xatti ravonimni"

(Qayumov,1999:570,571].

Yana iste'dodli shoiralardan biri **Layli** bo'lib, o'z davrida nafaqat ijodi balki matbuotdagi faoliyati bilan ham ajralib turgan. Layli asli Ashxobod shahridan bo'lsa ham ma'lum vaqt Qo'qon shahrida yashab ijod qilgan. Shoiraning ijodidan bizgacha yetib kelgan muhim asarlardan biri - 19 baytdan iborat "Tabriknoma" she'ridir. Ushbu she'r o'z davrida "Sadoi Farg'ona" gazetasida chop etilgan. Ushbu ayol ijodkor haqida "Tazkirayi Qayyumiy" asarining 3-jild, 5-daftarida 290-tartib raqami ostida ma'lumotlar keltirilgan.

Tazkiraning 5-daftarida keltirilgan ziyoli oilaga mansub va adabiyotimiz uchun unchalik ham ma'lum bo'lmagan shoira **Nozima** haqida ham anchayin qimmatli ma'lumotlar keltirilgan: "XIX asr oxirlarida dunyoga kelgan... boshda eski usuldagi qizlar maktabida o'qub savod chiqarmish. So'ngra ma'rifatparvar otasi qizining adabiy sohaga o'qishga yordam etmishdur. Tojik tilining o'rganmish. Forsiy adabiyotdan Sa'diy va Hofizning eski maktabidayoq o'qimish edi. "Shuhrat", "Turkiston viloyatining gazetasi", "Taraqqiyot" kabi gazetalarda shoiraning she'rlari bosilib chiqqan (Qayumov,1999:573].

P. Qayumov tazkiraga ayol ijodkorlarni kiritish jarayonida o'zi bilan zamondosh va hali ham hayot bo'lgan Mirza Abdulloning qizi **Xoniyni** ham kiritib o'tadi: "Bu satrlarni yozish vaqtimiz bo'lgan 1958-yilda shoira 79 yoshinda hayotdur. G'oyat soliha, fozila, olima, muhtarama bir ayoldur". Shoiraning oilasi ham adabiyotga ixlos qo'ygan kishilar bo'lganligi, uning yozgan g'azal, muxammas, devonga o'xshash xotira daftarlari mashhur ekanligi tazkirada qayd etiladi.

"Tazkirayi Qayyumiy" asarida keltirilgan ayol ijodkorlar haqidagi ma'lumotlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Shoiralarning qachon va qayerda tug'ilgani haqidagi ma'lumotlarning keltirilishi;
2. Ayollarning oilaviy holati haqidagi ma'lumotlarning aks etishi;
3. Shoiralar ijodidan namunalar keltirilishi;
4. Zamondoshlarining va tazkira asarlarida ayol ijodkorlarga berilgan ta'rif va bahoning keltirilishi;

5. Shoiralarning qo‘lyozmalari va bizgacha yetib kelgan devonlari haqidagi ma‘lumotlarning aks etishi.

“Tazkirayi Qayyumiy” asarida keltirilgan ayol ijodkorlar obrazi o‘ziga xos badiiy va ma‘naviy jihatlari bilan ajralib turadi. Ushbu shoirlar nafaqat ijodiy salohiyati, balki hayotiy tajribasi, va ichki kechinmalari orqali ham alohida e‘tiborga loyiqdir. Ayol ijodkorlar ijodida ko‘proq ishqiy, ruhiy va ijtimoiy mavzular yetakchilik qiladi. Ularning she‘rlarida insoniy tuyg‘ular, sadoqat, hijron, dard va iztirob nozik ifoda etiladi. Ayniqsa, Mahzuna va Muazzam, Uvaysiy kabi shoiralarning hayot yo‘li va ijodida shaxsiy kechinmalar chuqur aks etganini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, ayol shoirlar ijodida ma‘rifatga intilish, ilmga muhabbat va adabiyotga sadoqat alohida o‘rin egallaydi. Ularning aksariyati oilaviy muhit ta‘sirida shakllangan bo‘lib, otalari yoki yaqinlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Bu esa ularning adabiy maydonga kirib kelishida muhim rol o‘ynagan. “Tazkirayi Qayyumiy”da ayol ijodkorlarga berilgan ta‘rif va baholar ham ularning jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Ular nafaqat shoirlar, balki ziyoli, fozila va ma‘rifatli ayollar sifatida e‘tirof etiladi. Shu jihatdan, mazkur tazkirada ayol ijodkorlar obrazi o‘zbek adabiyotida ayol shaxsining yuksak darajada tasvirlanganini namoyon etadi.

Ushbu tazkira orqali o‘tmishda yashab ijod qilgan shoiralarning hayoti, ijodi, ijtimoiy mavqei hamda ma‘naviy olami haqida qimmatli ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Mazkur mavzu bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Chunki ayol ijodkorlar merosini o‘rganish orqali milliy adabiyotimiz tarixidagi muhim bo‘shliqlar to‘ldiriladi, ularning nomi va ijodi keng jamoatchilikka yetkaziladi. Shu bois, “Tazkirayi Qayyumiy”da zikr etilgan ayol ijodkorlar hayoti va ijodini chuqur o‘rganish, ularning asarlarini ilmiy tahlil qilish hamda adabiy merosini targ‘ib etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adizova I. Tazkiralarda shoirlar ijodining talqini // O‘zbekiston til va madaniyat, 2024. № 2 (2). – B. 4-20.
2. Қаюмов П. Тазкираи Қаюмий: 1- жилд / Нашрга тайёрловчи А. Қаюмов. – Тошкент: ЎзРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1999. – 720 б.

3. Қаюмов П. Тазкираи Қаюмий. 2-жилд. – Тошкент: ЎзРФА Қўлёзмалар институти, 1999.
4. Қаюмов П. Тазкираи Қаюмий. 3-жилд. – Тошкент: ЎзРФА Қўлёзмалар институти, 1999.
5. Qobilova Z., Ahmadaliyev L. “O‘zbek adabiyoti namuna daftari” tazkirasida Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi // Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari: Xalqaro konferensiya materiallari (№ 70). – Toshkent: Yashil yaproq, 2025. – B. 209–216.
6. Туйчиева О. Тазкираларда ижодкор аёллар. – Тошкент: Nodirabegim, 2021. – Б.168.

# MATN VA MANBALARNING TIL XUSUSIYATLARI

---

## “MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA QO‘LLANGAN FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA USLUBIY JIOLARI

*Uluqov Nosirjon,*

*NamDU professori, filologiya fanlari doktori*

Adabiyotshunoslar e’tirof etganlaridek, “Mehrobdan chayon” o‘zbek adabiyoti tarixidagi eng mashhur va maftunkor romanlardan biridir. Abdulla Qodiriy ma’naviyatidan sizib chiqqan bu totli chashma hozirga qadar tashna qalblarga orom bag‘ishlab keladi. Horg‘in ruhlarga yengillik, g‘amgin ko‘ngillarga surur va mahzun dillarga zavq ulashadi.<sup>1</sup>

Umuman olganda, “Mehrobdan chayon” romani g‘oyaviy mazmun jihatidan ham, badiiy mahorat jihatidan ham baquvvat, go‘zal asar.<sup>2</sup>

Mashhur adabiyotshunos olim Umarali Normatov ta’biri bilan aytganda, “Mehrobdan chayon” hayot haqiqatini “orttirmay va kamaytirmay” o‘z holicha jamiki tovlanishlari bilan gavdalandirgan, xarakterlar olamini, ruhiyatini o‘ziga xos ohanglar, bo‘yoqlar vositasida teran ifodalab bergan o‘xshashi yo‘q badiiy obidadir.<sup>3</sup>

“Mehrobdan chayon” romanining tili va uslubi ham betakror. Uni qayta-qayta o‘qigingiz keladi va albatta, har safargi mutolaa jarayonida yangi lisoniy va badiiy mahorat shohidi bo‘lasiz, adibning talanti, iste’dodiga tahsinlar aytasiz.

Romanda frazeologizmlardan ham mahorat bilan foydalanilgan. Asar tiliga frazeologik birliklar ko‘rk, joziba, xalqona ruh baxsh etgan. Masalan:

1. Anvarning **“chillasi chiroq ko‘rmagan”** bo‘lsa hech boki yo‘qdir, biroq yigirma kunlab beshikda ismsiz yotishi qiziqdir... (45-b.)

2. Ikkinchi tarafdin, Safarning **“ul bo‘lsa, madrasa ko‘rmasdan**

---

<sup>1</sup> Баҳодир Карим. Мувозанат – талқин таянчи // Қодирий кадри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 36.

<sup>2</sup> Мирзаев С. Ўзбек романчилиги. – Самарқанд, 1998. – Б.52.

<sup>3</sup> Жамоя. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 160.



*mirzolarning mirzosi bo'lmoqchi...*” jumlasini yana **dard ustiga chipqon**. (73-b.)

Bu gaplarda chillasi chiroq ko'rmagan, dard ustiga chipqon frazeologizmlari qo'llangan.

Ra'no tomonidan Solih maxdum haqida bitilgan hazil she'rda ham bir necha xalqona iboralar timsol xarakterini yorqin ifodalashga xizmat qilgan:

***Yog'lar to'kilsa yerga yotib yalar taqsirim,***

***Bo'lsa bozorda pastlik sotib olar taqsirim.***

*Menim uchun bir zirak, Ra'nobonug'a jevak,*

*Desa oyim – “Ne kerak?!” yumma talar taqsirim.*

*“Quloq teshish fazl emas, pulni toppish hazl emas,*

*Jevak taqish farz emas!” g'avg'o solar taqsirim. (24-b.)*

Frazeologizmlar adabiy tilning badiiy va so'zlashuv uslubida keng, ko'proq qo'llanadi va nutqni ta'sirchan, obrazli ifodalashga xizmat qiladi. N.M. Shanskiy, A. Bistrova, T. Aliqulovlar qayd etishicha, “agar tilning frazeologik iboralari bilan “buloq suvi”ga qiyoslash mumkin bo'lsa, iboralar qatnashmagan tilni distillyatsiya qilingan suvga tenglashtirish mumkin. Nutq jarayonida ibora qo'llanmasa, u “o'ta qoidali”, hatto “sun'iy” bo'lib ko'rinadi”.<sup>1</sup> Quyidagi yuksak mahorat bilan qo'llangan frazeologizmlar ham bu fikrlarni tasdiqlaydi:

Mubolag'a qilib, bo'rttirib yubormoq ma'nosidagi **“ignani tuyadek, xasni xaridek ko'rmoq”** iborasini qo'llagan:

– *Sizga bir so'zni aytib ham bo'lmaydi, – deb kuldi Sultonali, – ignani tuyadek, xasni xaridek ko'rasiz. (213-b.)*

Yozuvchi til lug'at tarkibidagi iboralardan foydalanibgina qolmay, yangi-yangi iboralar ham yaratadi.

Adib *“miyasi palag'da bo'lib qolmoq”, “miyasi achimoq”* kabi frazeologizmlar modelida **“miyasi suyuqlanmoq”** iborasini, *“doimo salbiy hatti-harakatlar istagida, ilinjida yurmoq”* ma'nosidagi shaytonni apichlab yurmoq iborasini yaratadi. Bu ibora orqali miyasi charchadi demoqchi:

<sup>1</sup> Шанский Н.М., Бистирова Е.А., Аликулов Т. Рус тилидаги 700 фразеологик ибора луғати. – Москва, 1981. – Б. 5.

*Mahdum ulamo, amaldor va g'ayrilardan shuning kabi siporishlarni to'rt-besh soatdan beri qabul qila-qila juda miyasi suyuqlan edi. (92-b.)*

– *O'zlaringizni aytishlaringizga qaraganda, musulmon kishi uchun kina saqlash bir ro'ymolni yuvib qurutqanchalik ekan, – dedi Safar bo'zchi, – bizlar bo'lsak to'rt kundan beri **shaytonni apichlab yuruyimiz...** (96-b.)*

*“Og'zidan bodi kirib shodi chiqadi”, “og'zining jilovi qochmoq”, “og'zining bog'ichini qochirmoq”, ya'ni o'zini bo'lar-bo'lmas gaplar aytishdan to'xtata olmaslik kabi salbiy ma'noli yangi ibora ham yasagan:*

– *Xo'sh, kinani tashlagan bo'lsangiz, – dedi yo'lakay imom, – nega boya ularning oldida **og'zingizga kelganini o'tlandingiz?** (97-b.)*

Adib qahramonining salbiy holatini ifodalar ekan, *“hech vaqosini qoldirmaslik” ma'nosida “enasining o'sma-surmasigacha qoldirmaydir” iborasini yaratadi: Xon kanizni haramdan haydaganidek, shoirni ham huzuriga chorlab, obdan og'iz-bo'g'ziga, **hatto o'sma-surmasigacha qoldirmaydir...** (102-b.)*

Yozuvchi shu o'rinda shoir haqidagi voqea-hodisalar tasvirini davom ettirar ekan, *boshqa narsalarga umid qilmaslik ma'nosidagi “bo'ynini boshhoqqa uzatmay” iborasini qo'llagan:*

– *Albatta. Shoirning esi bo'lsa **bo'ynini boshhoqqa uzatmay, saroydan haydalmaganiga ham shukur qilsa bo'lar edi. (102-b.)***

*Abdulla Qodiriy boshqa o'rinda “odamlar bilan gavjum” ma'nosida “xalq qaynashib turar” iborasini yaratadi: Domla Niyoz Muhammad aytgandek, gulshanning uch tarafi xiyobon, rastalar va bunda ertadan-kechgacha **xalq qaynashib turar edi. (119-b.)***

Odatda “qavarmoq” harakati qo'lga, oyoqqa xos: *qo'lim qavardi, oyog'im qavardi* kabi. Qo'l qavarganda, kaftda suvli pufakchalar paydo bo'ladi, so'ngra u qadoqqa aylanadi, buni har bir kishi biladi, shuning uchun “qavarmoq” so'zi eshutilishi bilan kishining ko'zi o'ngida darhol qo'lning xuddi shu aniq va og'riqli ko'rinishi keladi.<sup>1</sup> “Qavarmoq” ko'zga nisbatan berilganda esa bu holat endi obrazlilik, Ra'noning achinarli ruhiy holati ko'z oldingizga keladi.

<sup>1</sup> Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1989. – Б. 29-30.

*Ra'noning ko'zi qavarib ketdi. (272-b.)*

Asarda juda ko'plab bunday iboralar uchraydi.

Adib o'zbek tilidagi “gap qaytarmoq”, “so'z qaytarmoq”, “gap(i)ga gap qaytarmoq”, “so'z(i)ga so'z qaytarmoq” frazeologizmlariga sinonim tarzda “so'z ulashdirmoq” iborasini o'rinli qo'llagan: *Chorangiz so'z ulashdirishni yomon ko'radir, oyi xonim. (128-b.)*

Asarda qo'llangan “vafosizlik ko'rmoq”, “vafosizlik bo'ynini olmoq” iboralari orqali vafo ko'rmaslik nazarda tutilgan: *Bechora Ra'no hamisha yaxshilik, aqllilik ko'rib kelgan bir kishisidan ham oxirda dag'allik ko'rar, vafosizlik bo'ynini olar edi. (223-b.)*

Yozuvchi “yuragi suv bo'lib oqdi” iborasi orqali butun borlig'i bilan tushundi, tingladi, angladi demoqchi:

*Anvarning qarashidagi ma'noga tushungan Sultonlining yuragi suv bo'lib oqdi va hushsiz, hissiz, Anvar ko'zdan yo'qolg'uncha qarab qoldi... (279-b.)*

Yozuvchi bir nimaga ega bo'lish ilinjida yurmoq ma'nosidagi “toq kelib juft ketmoq” iborasini yaratgan: *Ey... man sandek tamma'ni to'yboshi qilib, telba bo'ldimmi? Uyidan toq kelib juft ketmakchida, bu tammo'. (153-b.)*

Asarning ko'p o'rinlarida aynan bir jumlada, bir voqea-hodisa tasvirida bir necha iboralarining qo'llanishi asosida yuksak badiiylilik va obrazlilikni ta'minlash kuzatiladi:

*Maxdum, mehmonxonadan yurib kelgan oyoq tovushini eshitib, yomonlagan otdek tipirchiladi. Eshon bo'lsa, hamon bulbul kabi sayrab borar edi... (151-b.)*

Bu o'rinda “bezovta bo'lmoq” ma'nosidagi “yomonlagan otdek tipirchilamoq”, “to'xtamay gapirish” ma'nosidagi “bulbul kabi sayrab bormoq” iboralari qo'llangan.

Abdulla Qodiriy frazeologizmlarning bir turi bo'lgan perifrazalardan ham unumli foydalangan va o'zi ham betakror tasviriy ifodalar yaratgan.

Parafraza – narsa, voqea-hodisani o'z nomi bilan emas, balki ularning xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul orqali ifodalash va shunday usul

jarayonida yuzaga kelgan birlik.<sup>1</sup> Ilmiy adabiyotlarda perifrazaning muqobili sifatida “**tasviriy ifoda**” termini ham qo‘llanadi.

Parafrazalar narsa, voqea-hodisalarning o‘z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo‘rttirib, izohlab va to‘ldirib ko‘rsatadi, nomni ta’sirchan va obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Ular asosan badiiy va publitsistik uslubda keng qo‘llanadi.

Parafrazalar ham frazeologizmlarning bir turi hisoblanadi. Narsa, voqea-hodisani o‘z nomi bilan atamay, boshqa narsa va hodisaga o‘xshatish orqali tasviriy ifodalovchi birlik perifraza hisoblanadi.

Parafrazalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomidir.

O‘zbek tilida “*chaqaloq*” so‘zi o‘rnida so‘zlashuv uslubida “*kichkina*”, “*kichkintoy*”, “*jajitoy*” kabi lug‘aviy birliklar qo‘llanadi. Adib bunday lug‘aviy birliklar sirasini “*ko‘krak bolasi*” parafrazasi bilan boyitadi:

*Nigor oyim hozirgina qizlarni ozod qo‘yub, ko‘krak bolasini bag‘riga olg‘an edi. (6-b.)*

Adib badiiy timsollarning milliy ruhiyati va xarakteriga mos perifrazalarni qo‘llash asosida asarda milliy koloritni, timsollarning o‘ziga xos xarakter-sajiyasini ifodalashga erishgan.

Safar bo‘zchi nutqida “*siz*” o‘rnida “*janobingiz*” qo‘llangan:

– *Xudoning berishi, taqsir, – dedi Safar, o‘ylab-netib turmay, – janobingiz Buxoroyi sharifda necha yil o‘qib nihoyati mahallaga imom bo‘ldingiz... (71-b.)*

Masjid o‘rnida “*Ka‘batullo*” tasviriy ifodasi ishlatilgan:

– *Ikkita bo‘zni ikki qo‘llab oborsang, – dedi Samad bo‘qoq, – qaysi ahmoq olmay qaytarar ekan? Yolg‘onni sal kishi ishonadigan qilib gapirish kerak, Safar!*

– *Azbaroyi Xudo, olmadi! – dedi Safar va asabiylanib o‘rnidan turib ketdi, – shu Ka‘batulloning ichida o‘tirib yolg‘on gapirgan odam musulmon emas, kishining qasamiga ishonmagan ham yetti mazhabda mo‘min emas! (70-b.)*

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, Abdulla Qodiriy frazeologizmlarni

<sup>1</sup> Қаранг. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1966. – С. 312; Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 67.

qo'llash va yaratish borasida ham yuksak mahorat sohibidir. O'ylaymizki, bu masala kelgusida monografik tadqiqotlarga mavzu bo'ladi, mukammal va chuqur tadqiq etiladi.

## ESKI O'ZBEK TILI VA IMLO TRANSFORMATSIYASI MASALASI

***Zohidov Rashid Fozilovich,***

*ToshDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya:** Arab xati Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, tarixida muhim o'rin tutadi. XI asrdan e'tiboran arab xatida yirik asarlar ham ko'chirila boshladi. Mazkur maqolada arab xatining o'ziga xos xususiyatlari, turkiy fonetikani ifodalash imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Tayanch ibora va tushunchalar:** turkiy tilga moslangan alifbo, arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarga nisbatan yozuv prinsipi, boshlang'ich darsliklar, "Adibi avval", "Chig'atoy gurungi", "Ishtirokiyun" gazetasi.

**Abstract:** The Arabic script occupies an important place in the culture and history of the peoples of Central Asia. From the eleventh century onward, major literary and scholarly works also began to be transcribed in the Arabic script. This article analyzes the distinctive features of the Arabic script and its capacity to represent Turkic phonetics.

**Keywords:** alphabet adapted to the Turkic language; orthographic principles applied to words borrowed from Arabic and Persian; elementary textbooks; *Adibi Avval*; *Chig'atoy Gurungi*; *Ishtirokiyun* newspaper.

Arab xatining O'rta va Markaziy Osiyoga yoyilish tarixi bu o'lkalarning musulmonlar tarafidan fatx qilinishi bilan bog'liq. O'rta Osiyoda arab xatida bitilgan eng qadimiy kitoblar IX asrga oid. Arab yozuvidagi turkiy yodgorliklar esa X asrdan boshlab ko'chirilgan. Turkiy xalqlar qoraxoniylar davridan e'tiboran uyg'ur xati bilan yonma-yon arab yozuvidan ham foydalana boshladi. Qoraxoniylar hukmdorlar zarb ettirgan tangalardagi yozuvlar, xonlarning ayrim yozmalari arab xatida ifodalangan. XI asrdan e'tiboran arab xatida yirik asarlar ham ko'chirila

boshladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari Namangan va Qohira qo‘lyozma nusxalari, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi turkiy matnlar, Adib Ahmad Yugnakiy “Hibatul haqoyiq” asarining qo‘lyozma nusxalari, shuningdek, “Turkiy tafsir” arab xatidagi ilk yirik turkiy yodgorliklardandir.

Turklar arab alifbosini o‘z tillariga moslab qabul qilgan. Shuning uchun ham asl arab alifbosi bilan turkiy tilga moslangan alifbo orasida biroz farq bor. **التحفة** الذكية في اللغة التركية (“Turkiy tillar haqida noyob tuhfa”)<sup>1</sup> asarida arab alifbosi negizidagi turkiy yozuvning imlo xususiyatlari ko‘rsatilgan. Unda aytilishicha, turkiy yozuvda cho‘ziq va qisqa tovushlarni aks ettirish muhim emas, bu yozuvda diakritik belgilarning turg‘un vazifasi yo‘q. Shuning uchun arabiy yo forsiy matnlardan farqli ravishda turkiy so‘zlarni yozishda unli harflarni matnda to‘liq berish qoidasi joriy etilgan. Masalan: **قالور، بولور، ديدى، سونماق، چيکماک** so‘zlarida qisqa va cho‘ziq unlilar yozuvda aks etgani kabi. Turkiy matnlarda arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlarga nisbatan yozuv prinsipi amal qilgan. Ya’ni, arab tilidan o‘zlashgan so‘zlardagi arab tiligagina xos bo‘lgan tovushlarni anglatuvchi harflar turkiy matnlarda ham o‘zgarishsiz yozilgan. Masalan: **ضابط، اثبات، ذکر، نظر،** so‘zlaridagi arab tiliga xos undoshlar yozuvda aks ettirilsa ham talaffuzda turkiy til talablariga bo‘ysunilgan. Ayrim qo‘lyozmalarda turkiy so‘zlar tarkibida ham o‘rni bilan arabchaga xos bo‘lgan harflar ishlatilgan. Masalan, “Hibatul haqoyiq” qo‘lyozmasida <ت> harfi o‘rniga <ط> qo‘llangan: **بولوت → بولوط (bulut)** ، **تون → طون (to‘n)**.

O‘zbek yozuvining XX asr tarixi to‘rt davrni o‘z ichiga oladi:

1. Arab grafikasiga asoslangan yillar (1900-1929).
2. Lotin grafikasiga asoslangan yillar (1929-1940).
3. Rus grafikasiga (kirillitsaga) asoslangan yillar (1940-1993).
4. Ikki yozuvlilikka (rus-o‘zbek va lotin-o‘zbek alifbolariga) asoslangan yillar (1993-yildan hozirgacha).

<sup>1</sup> التحفة الذكية في اللغة التركية (“Turkiy tillar haqida noyob tuhfa”) asari Misrda yozilgani taxmin qilinadi. Muallifi noma’lum. Qo‘lyozmaning yagona nusxasi hozir Istanbulda Validuddin afandi kutubxonasida saqlanadi.



H.Jamolxonov va Q.Sapayevlar o'zlarining "Imlo muammolari" o'quv qo'llanmasida bu masalani batafsil yoritganlar. Ularning kuzatishicha, birinchi davr oralig'ida, xususan, 1916-1917-yillargacha bo'lgan bosqichda yozuvni isloh qilishga qaratilgan jiddiy harakatlar sezilmaydi. Bu bosqichda asosiy e'tibor yangi usulda ta'lim berishga asoslangan maktablarni tashkil etishga va shu orqali ommaviy savodxonlikni tez va sifatli amalga oshirishga qaratilgan. Tabiiyki, bu jarayonni yangi mazmundagi o'quv-uslubiy qo'llanmalarsiz tasavvur kilib bo'lmay edi. Ayni ehtiyoj boshlang'ich ta'limda bir qator yangi kitoblar yuzaga kelishini tezlashtirdi. "Ustodi avval" (Saidrasul Saidazizov. Toshkent, 1900, 1902), "Adibi avval" (Munavvarqori Abdurashidxonov. Toshkent, 1907), "Adibi soniy" (Munavvarkori Abdurashidxonov. Toshkent, 1907), "Kitobul atfol" – "Bolalar uchun kitob" (Mahmudxo'ja Behbudiy. Samarqand, 1908, 1914), "Birinchi muallim" (Abdulla Avloniy. Toshkent, 1911), "Ikkinchi muallim" (Abdulla Avloniy. Toshkent, 1912), "Turkcha koida" (Faxriddinov Muhammadamin. Toshkent, 1913), "Savod" (Hevalik muallim Muxtor Bakr. Qozon, 1913), "Ta'limi avval" (Rustambek Yusuf o'g'li. Toshkent, 1912, 1914), "Turkiy alifbe" (Muhammadxon Abdulxoliq o'g'li. Qo'qon, 1916), "Rahbari soniy" (Abdullaxo'ja Saidmuhammadxo'jaev, 1916), "Birinchi yil" (Saidrizo Alizoda. Samarkand, 1917), "Rahbari avval" (Faxriddinov Muhammadamin. Toshkent, 1917) kabi kitoblar shular jumlasidandir.

Bu boshlang'ich darsliklarda yozuvni isloh qilish masalasiga maxsus to'xtalish maqsad qilinmagan bo'lsa-da, mazkur kitoblarni tayyorlash, ular asosida savod chiqarish, to'g'ri yozish va to'g'ri o'qish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida imlo qoidalarini mukammallashtirish, alifboni o'zbek tili xususiyatlariga moslashtirish, tinish belgilari tizimini va qoidalarini shakllantirish zarurati borligi sezila borgan, bunday zarurat yozuv islohotiga jiddiy zamin hozirlagan edi. Buni qo'qonlik ma'rifatchi Ashurali Zohiriyning quyidagi gaplari ham isbotlaydi. "... Bizning hozirgi (eski) imlomizda qoida degan narsa aslo rioya etilmag'onligidan har kim o'zicha qanday yozmoqni xohlasa, o'shanday yoza berg'on; bu adabiyotimizning kengayishiga sad bo'lib, yoshlarimizning



qiynalishidan boshqa ajnabiy millatlarning qoshida tilimizning masxara qildirib, madaniy tillarga baho qo‘yg‘onda, qimmatini hech bo‘lishiga sabab bo‘ldik. Shunga binoan bul «Imlo» risolasini yozdim. Eng zarur qoidalarni darj etdim... “*hoye rasmiya*”ni imlomizg‘a kirg‘izdim...” [Zohiriy 1916, 3].

1919-yilda Toshkentda Fitrat boshchiligidagi til – imlo va adabiyot masalalari bilan shug‘ullanuvchi “Chig‘atoy gurungi” jamiyati tashkil topadi. Bu haqda “Ishtirokiyun” gazetasi shunday yozgan edi: “Toshkentda yosh buxoroliklarning faol a‘zolaridan Fitrat afandi ila o‘zbek yoshlari tarafidan “Chig‘atoy gurungi” nom(li) yangi bir jamiyat tuzilgan... Bu jamiyatning maqsadi: Turkistondagi eski va yangi turkiy asarlarni jam qilib, turkiy tilini ihyo qiluv haqida materiyol hozirlamoq, lug‘at va adabiyot dunyosini boyitmoqdir” [Chig‘atoy gurungi 1919, 66].

“Chig‘atoy gurungi” jamiyati faoliyatida alifbo va imlo masalalari alohida o‘rin tutadi. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘lgan:

1) eski o‘zbek tilidagi 8-9, yangi o‘zbek tilidagi 6-7 unli fonema faqat 3 ta harf – و, ی, و bilan ifodalangan;

2) ayrim harflar polifonemali grafema tarzida qo‘llangan; و – «v» undoshini va «u», «o» unliharflarini (demak, uchta fonemani); ی – ham uchta fonemani - «i», «e», «ye» unliharflarini va «y» undoshini ifodalagan;

3) «t» undoshi uchun ikki harf – ط va ت; «s» undoshi uchun uchta harf – ث, س, ص; «z» undoshi uchun esa to‘rtta harf – ذ, ض, ظ, ز qo‘llangan;

4) har bir harfning to‘rt xil shakli – so‘z boshida, o‘rtasida, oxirida yoki yolg‘iz holda qo‘llanadigan allograflari bo‘lgan. Bunday holat maorif-ta’lim ishlarida va yozuv amaliyotida qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan, ravon o‘qish ko‘nikmalarining shakllantirilishiga xalaqit bergan. “Chig‘atoy gurungi” jamiyati ayni shu qiyinchiliklarni hisobga olib, alifbo va imlo muammolari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lgan. jamiyatning “Imlo to‘dasi” a‘zosi Elbek tomonidan “Bitik yo‘llari” [Elbek 1919] kitobchasi yaratiladi. Unda arab yozuvini o‘zbek tili tovushlari tizimiga moslashtirish lozimligi aytiladi, shu maqsadda alifboga ئو («u» unlisi uchun), ئۇ («o» unlisi uchun), ئ ( «o» unlisi uchun), ا («a»

unlisi uchun), ۞ («i» unlisi uchun), ۞ («e» unlisi uchun) harflarini kiritish tavsiya etiladi. «Chig‘atoy gurungi» imlo to‘dasining bu takliflariga munosabat ham har xil bo‘lgan. Masalan, qo‘qonlik o‘qituvchi Ashurali Zohiriy bu haqda shunday degan edi: “Imlo to‘dasi tomonidan ba’zi narsalar maydonga chiqarilar ekan, biz uni bir to‘daniki deb taniymiz... Shuning uchun undoz “to‘dalar” tarafidan chiqarilg‘on narsalar xususiy bir fikrgina bo‘lib, butun o‘lka uchun “Umumiy qoida” bo‘la olmaydi. O‘lka Maorif sho‘rosi Turkiston o‘lkasidagi atoqli muallim va imlo mutaxassislaridan tajribaliklarini chaqirib, Toshkentdak bir yerga yig‘sa, ular maslahatlashib, muhokamalashib bir ish ishlab chiqarsa, shundagina *umumiy qoida* bo‘ladi...“Imlo to‘dasi” «هم» ni «هه م», «هر» ni «هه ر», «شهر» ni «شاهر», «عرب» ni «عارب» nusxalarida yozgan. Holbuki, tilimizga oralashg‘on arabiy, forsiy kalimalar o‘z imlolarida yozilmog‘i lozim” [Zohiriy 1919].

1920-yilning 18-sentabrida Elbek (Mashriq Yunusov)ning “Imlo masalasi” nomli makolasi matbuotda e‘lon qilinadi [Elbek 1920, 192]. Maqolada imlo masalasi ko‘pdan buyon muhokama etilayotgan bo‘lishiga qaramay, hamon hal etilmay qolayotganligi aytiladi va shunday deyiladi: “Qaysi birlari chig‘atoy gurungi tomonidan yosolg‘on imloni qabul qilib, oning yo‘li bilan ketdilar, qaysi birlari esa ul imloning o‘zigada va chikaruvchilarigada qarshi ketib, o‘zlarining ilgarigi tutg‘on yo‘llarida qolaveradilar. Eng so‘ng ichki Russiyada bo‘lg‘on imlo o‘zgarishin ko‘rgach, olarning kaysilari sekin-sekin chig‘atoy imlosining to‘varagiga yig‘ildilar. Ham shul imloda yozaturg‘on bo‘ldilar. Belgili, ish buning bilan bitmas edi, zero zamon yuksalu zamoni, bu kungi ish ertaga eskirib, ishdan chiqib koladir. Ong‘a yetmoqni istovchilar uchun albatta yangilikning ketidan ketuvdan boshqa chora yo‘qdur... Eski imlo atag‘on imlomiz burun choqlardan beri bir yo‘sansiz, negizsiz yozilib kelmakda bo‘lg‘on bir imlodurkim, buning bilan bir narsani ochik onglov juda qiyindir. Chunki bir so‘zni bir necha turli o‘qimoq mumkin bo‘lg‘onlikdan kishi ko‘b yangilishadir... Demak, eski imlo yo‘lsizligi uchun tashlanmoqdan boshqa chora qolmaydir. Emdi chig‘atoy imlosi atalg‘on yangi imloga kelsaq, bu imlo eski imlodan oyrularli olti cho‘zgini kabul etuv, ularni qalin, ingichkalikka bo‘lub yozuvda ۞ o‘rnida ۞ ishlatuv bilandir. Har

holda bu imlo eski imlodan ko‘b yuqori tutilsada, buning kamchiliklarin va yanglishlarin ko‘rgach oningda tuzatilib yo‘lg‘a solinmog‘i lozim keladur...”

Shundan so‘ng muallif chig‘atoy gurungi imlosidagi ayrim holatlarga ham e’tiroz bildiradi: harflarning ikki guruhga – yot harflar (arabcha, forsha so‘zlarda ishlatiladigan: ذ ث ظ ط ص ض ع ح ڈ harflari va o‘zimizniki bo‘lgan: خ ح ث ج ت پ ب ئ harflariga ajratilishini ma’qullamaydi. Arab, fors va rus so‘zlarida birinchi guruh harflarini, qolgan holatlarda esa ikkinchi guruh harflarini qo‘llash haqidagi qoidalar kattalar uchun qiyin bo‘lganidek, yosh bolalar uchun ham juda qiyin bo‘lishini aytadi: “Go‘yo ularning tutqon qoidalarida yozmoq uchun yosh bolalarning ham turkcha, arabcha, forsha so‘zlarni oyraturg‘on bo‘lmoqlari kerak bo‘ladur. O‘zbek tilini yaxshi anglamagan yosh bolalar uchun bu yo‘lning kiyin ekanligi o‘z-o‘zidan anglashilib turadir. Shuning uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yot harf degan shul to‘qqiz harflarni butunlay oradan chiqarib, qo‘noqlarga ham turkcha kiyim kiyintiruv va olarg‘a turkcha odat (qiliq)larni tushuntiruv kerakdir. Bu choqda bizning imlodagi yo‘l bir daraja qulaylashqon bo‘ladur”, – deydi u o‘z maqolasida. Maqolada yozuv va imlo qoidalarining pedagogik hamda psixologik jihatlariga – ravon o‘qish ko‘nikmalarining shakllantirilishi uchun qoidalarining izchil bo‘lishiga hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga alohida e’tibor berilganligining guvohi bo‘lamiz. Bu hol Elbekning imlo masalasiga to‘g‘ri va jiddiy yondashganligidan dalolat beradi.

1921-yilning 27-yanvarida “Qizil bayroq” gazetida “Til va imlo qurultoyi” nomli maqola chop etiladi. Unda qurultoyning alifbo va imloga oid quyidagi qarori e’lon qilinadi:

1. O‘zbekistonda ishlatiladurgan harflarning soni 23 ta bo‘lib, shulardir: م د و ه ي ذ ب پ ت ج د ز ر س ش غ ق ك گ ل

2. Cho‘zgilarning soni 6 ta bo‘lib, ushbulardir:

ikki ust cho‘zgi: ا - ه

ikki ost cho‘zgi: ئ - ي

ikki o‘tru: و - ئ

Xulosa qilib aytganda, turkiy xalqlar tomonidan qabul qilingan arab yozuvi asrlar davomida tilning ichki xususiyatlariga moslashtirib kelingan. Yuqorida nomlari tilga olingan asarlar va qadimiy qo'lyozmalar bu yozuvning turkiy talaffuzga bo'ysundirilganini ko'rsatadi. Bu bir tomondan, eski o'zbek yozuviga asoslangan tilning mustaqil huquqiy maqomini ta'minlagan bo'lsa, boshqa jihatdan mazkur jarayon bugungi kundagi imlo muammolarini tushunish va hal etish uchun ham muhim tarixiy tajriba bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982.
2. Адабиётшунослик луғати (Д.Қуронов ва бошқа.). – Т.: Akademyashr, 2010. – 398 б.
3. Ашурали Зоҳирий. Имло. Қозон, “Умид” типо-литографияси. 1916.
4. Ашурали Зоҳирий. Иштирокиюн. 1919, 19 июнь.
5. Правила подготовки к изданию памятников литературы Востока. – М.: ИВЛ, 1959. – 28 с.
6. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Наука, М.: 1974. – С. 136-137.
7. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. – Т.: Маънавият, 2006. – 333 б.
8. Элбек. Битик йўллари. Тошкент, 1919.
9. Элбек. Имло масаласи. Иштирокиюн. 1920, 18 сентябрь. №192.
10. Чифатой гурунги. Иштирокиюн. 1919, 4 февраль, № 66.

### **RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI DIN ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEOLOGIZMLARNING DOLZARBLASHUVI: IJTIMOIY-MADANIY JIHAT**

***Sultonova Shoxista Muhammadjanovna,***  
*Renessans universiteti professori, filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada rus va o'zbek tillaridagi diniy asosga ega bo'lgan frazeologizmlarning dolzarblashuv xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Diniy frazeologiyaning shakllanish manbalari, uning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari hamda zamonaviy muloqotda qo'llanish o'ziga xosliklari tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil asosida ikki tildagi diniy frazeologizmlarning universal va milliy-madaniy xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari mazkur til birliklari xalqning madaniy xotirasini saqlash, jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini

aks ettirish hamda milliy identiklikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** diniy asosga ega bo'lgan frazeologizmlar, dolzarblashuv, ijtimoiy-madaniy jihat, lingvomadaniyatshunoslik, madaniy xotira, lisoniy manzara

**Abstract:** This article examines the actualization features of religiously based phraseological units in the Russian and Uzbek languages. It analyzes the sources of formation of religious phraseology, its semantic and linguocultural characteristics, as well as the specific features of its use in contemporary communication. Based on a comparative analysis, the study identifies both universal and national-cultural characteristics of religious phraseological units in the two languages. The findings demonstrate that these linguistic units play an important role in preserving the cultural memory of a people, reflecting the spiritual and moral values of society, and shaping national identity.

**Keywords:** religiously based phraseological units, actualization, socio-cultural aspect, linguocultural studies, cultural memory, linguistic worldview.

Zamonaviy tilshunoslikda til, madaniyat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish muhim o'rin tutadi. Ushbu munosabatlarning yorqin namoyon bo'lish shakllaridan biri diniy asosga ega bo'lgan frazeologizmlar bo'lib, ular xalqning tarixiy tajribasi, milliy dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlar tizimini o'zida mujassamlashtiradi.

Din madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'p asrlar davomida lisoniy manzaraning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelgan. Natijada tillarda muqaddas matnlar, diniy marosimlar va diniy tasavvurlar asosida shakllangan keng qamrovli frazeologik birliklar tizimi vujudga kelgan. Ularning aksariyati bugungi kunda ham faol qo'llanilmoqda, biroq ularning dastlabki muqaddas ma'nosi til sohiblari tomonidan har doim ham to'liq anglanmasligi mumkin.

V.N.Teliya ta'kidlaganidek, frazeologik fond xalqning madaniy xotirasi saqlanadigan muhim til qatlami hisoblanadi, chunki aynan frazeologizmlarda

jamiyatning tarixiy shakllangan qadriyatlari va tafakkur stereotiplari aks etadi [Teliya, 1996: 214]. Shu nuqtai nazardan diniy asosga ega bo'lgan frazeologizmlarning zamonaviy sharoitdagi dolzarblashuv mexanizmlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi milliy identiklik, madaniy xotira va madaniyatlararo muloqot masalalariga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligi bilan belgilanadi. Rus va o'zbek frazeologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'p bo'lishiga qaramay, diniy asosga ega bo'lgan frazeologizmlarning qiyosiy tahlili yetarlicha o'rganilmagan.

Shunday qilib, tadqiqotning maqsadi – rus va o'zbek tillaridagi diniy asosga ega bo'lgan frazeologizmlarning dolzarblashuv xususiyatlarini aniqlash hamda ularning zamonaviy jamiyatda madaniy qadriyatlarni saqlashdagi rolini belgilashdan iborat.

Frazeologiya nazariyasining ilmiy asoslari V.V.Vinogradov tomonidan yaratilgan bo'lib, olim frazeologik birliklarni ko'chma ma'noga ega bo'lgan barqaror til birliklari sifatida tavsiflaydi [Vinogradov, 1977:140]. Keyinchalik N.M.Shanskiy va A.V.Kunin tomonidan frazeologik birliklarning tasnifi va ularni tahlil qilish tamoyillari ishlab chiqildi.

Frazeologiyani lingvomadaniy nuqtai nazardan o'rganish V.N.Teliya ishlarida alohida o'rin tutadi. Uning fikricha, frazeologizmlar xalqning madaniy tajribasini o'zida saqlovchi va avloddan avlodga yetkazuvchi muhim til vositalaridir [Teliya, 1996:225].

V.A.Maslova frazeologik birliklarni milliy olam manzarasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi hamda ular orqali xalqning qadriyatlari va dunyoqarashi aks etishini ta'kidlaydi [Maslova, 2004:87].

Til va madaniyatning o'zaro munosabati V.I.Karasik tadqiqotlarida ham keng yoritilgan bo'lib, olim diniy konseptlarni insonning qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi muhim omillar qatoriga kiritadi [Karasik, 2002:121].

O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalalari Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, B.Yo'ldoshev va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ular

o'zbek tili frazeologiyasining tuzilishi, ma'nosi va milliy-madaniy xususiyatlarini chuqur tahlil qilganlar. Diniy frazeologizmlar transformatsiyasi masalasining o'zbek va rus tillari materialidagi semantik va lingvomadaniy aspekti muayyan darajada tadqiq qilindi [Sultonova, 2022].

Shu bilan birga, rus va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan diniy asosga ega bo'lgan frazeologik birliklarning zamonaviy sotsiomadaniy sharoitdagi dolzarblashuvini qiyosiy nuqtai nazardan tadqiq etish masalasi hozirgi kunga qadar yetarli darajada tizimli va chuqur ilmiy tahlil obyekti sifatida o'rganilmagani mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatdan dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Tadqiq etilayotgan frazeologik birliklar, o'z mohiyatiga ko'ra, muqaddas matnlar, diniy aqidalar, marosimiy amaliyotlar hamda xalqning tarixiy shakllangan diniy tasavvurlari va dunyoqarashi ta'sirida shakllangan bo'lib, ularning semantik strukturasida mazkur manbalar bilan bog'liq bo'lgan madaniy-ramziy qatlamlar muhim o'rin egallaydi.

Rus tilida diniy frazeologiyaning asosiy manbalari sifatida Injil matnlari, pravoslav diniy an'analari, cherkov-slavyan tili qatlami hamda agiografik, ya'ni avliyolar hayoti va ularning diniy faoliyatiga oid adabiyotlar e'tirof etiladi, chunki aynan ushbu manbalar rus xalqining diniy va madaniy tafakkur tizimida frazeologik qatlamning shakllanishiga asos bo'lgan.

O'zbek tilida esa diniy frazeologizmlarning shakllanishi va rivojlanishi, birinchi navbatda, Qur'oni karim ta'limotlari, hadislar mazmuni, islom axloqiy me'yorlari hamda xalqning an'anaviy diniy madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mazkur omillar frazeologik tizimning ma'naviy va semantik asosini tashkil etadi.

Har ikki til tizimida ham ushbu frazeologik birliklar, umumiy mazmun nuqtai nazaridan, insonning ma'naviy hayoti, taqdir va peshona haqidagi tasavvurlari, sabr-toqat va chidam konsepti, mehr-shafqat hamda shukronalik kabi universal axloqiy-falsafiy kategoriyalarni ifoda etishga xizmat qiladi.

Diniy frazeologizmlarni semantik xususiyatlariga ko'ra quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:



### 1. Imon va umidni ifodalovchi frazeologizmlar

Rus tilida: “Дай Бог”, “Бог даст”, “С Богом”.

O‘zbek tilida: “Xudo xohlasa”, “Inshoolloh”, “Bismilloh”.

Mazkur birliklar, asosan, muayyan harakat yoki voqelikning ijobiy natija bilan yakunlanishiga bo‘lgan umid, ishonch hamda ilohiy irodaga tayanish g‘oyasini ifodalaydi, shu bilan birga nutqda pragmatik jihatdan mulohazani yumshatish va muloqotni madaniylashtirish vazifasini ham bajaradi. Masalan, “Xudo xohlasa” birligi inson rejalari va istaklarining ilohiy iroda bilan bog‘liq ekanligini implitsit tarzda anglatadi.

### 2. Shukronalikni ifodalovchi frazeologizmlar

Rus tilida: “Слава Богу”, “Благодарение Богу”.

O‘zbek tilida: “Allohga shukr”, “Alhamdulillah”.

Bu frazeologik birliklar, asosan, ijobiy voqealar sodir bo‘lgan holatda minnatdorlik va rozilikni ifodalash, ya’ni insonning borliqqa nisbatan emotsional-baholovchi munosabatini verballashtirish vazifasini bajaradi.

### 3. Taqdir va peshona haqidagi frazeologizmlar

Rus tilida: “Так на роду написано”, “От судьбы не уйдешь”, “Судьба распорядилась”.

O‘zbek tilida: “Peshonasiga yozilgan”, “Taqdir ekan”, “Qismat”.

Ushbu birliklarda inson hayotining oldindan belgilanganligi, ya’ni deterministik dunyoqarash elementlari bilan bog‘liq falsafiy tasavvurlar til vositasida aks ettiriladi.

### 4. Sabr va sinovlarga oid frazeologizmlar

Rus tilida: “Нести свой крест”, “Бог терпел и нам велел”.

O‘zbek tilida: “Sabr qilmoq”, “Sabrning tagi sariq oltin”.

Mazkur frazeologizmlar sabr-toqatni axloqiy kategoriya sifatida anglash va uni inson hayotidagi sinovlar bilan bog‘lash an’anasini namoyon etadi.

Rus va o‘zbek tillaridagi diniy asosga ega bo‘lgan frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish ular o‘rtasidagi umumiy semantik maydon bilan bir qatorda milliy-mental xususiyatlarni ham aniqlash imkonini beradi.

Ikki til tizimida ham “imon”, “shukr”, “taqdir”, “sabr”, “umid” kabi bazaviy konseptlar markaziy kognitiv o‘rinni egallashi, inson tafakkurining universal xarakterga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, obrazli asos va madaniy kodlashuv shakllari nuqtai nazaridan jiddiy farqlar kuzatiladi, masalan, rus tilidagi “нести свой крест” birligi xristian dunyoqarashi va Iso Masih obrazi bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilidagi “sabr qilmoq” ifodasi islomiy axloq tizimidagi sabr konseptiga tayanadi. Demak, mazmunan yaqin bo‘lgan semantik maydonlar turli madaniy-diniy an‘analari orqali verbalizatsiya qilinishi natijasida, ularning obrazli-assotsiativ qatlamida milliy spetsifika yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hozirgi zamonaviy til amaliyotida diniy asosga ega bo‘lgan frazeologik birliklar faqat diniy muloqot doirasida emas, balki ommaviy kommunikatsiya, internet-diskurs hamda kundalik so‘zlashuv nutqida ham faol qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, “Слава Богу”, “Дай Бог”, “Inshoolloh”, “Allohga Shukr” kabi birliklar turli ijtimoiy qatlam va yosh guruhlar nutqida tez-tez uchrayib, ularning ishlatilishi ko‘p hollarda diniy itoat ma‘nosidan ko‘ra ko‘proq madaniy identifikatsiya, pragmatik munosabat bildirish va emotsional pozitsiyani ifoda etish vazifasini bajaradi.

Globallashuv jarayonlari ta‘sirida tildagi barqaror birliklarning qayta faollashuvi kuchayib borayotgani, milliy madaniyatni saqlash va uni zamonaviy kommunikatsiya sharoitida qayta ishlab chiqish ehtiyoji bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, diniy frazeologizmlarda qisman desakralizatsiya jarayoni kuzatilib, ularning shakliy strukturasi saqlangan holda semantik maydon kengayishi, ya‘ni yangi pragmatik va ekspressiv qatlamlarning paydo bo‘lishi aniqlanadi. Masalan, “манна небесная” birligi zamonaviy rus tilida ko‘proq kutilmagan yordam yoki oson yo‘l bilan olingan ne‘mat ma‘nosini ifoda etishga xizmat qiladi. Shu kabi semantik kengayish jarayonlari o‘zbek tilidagi diniy iboralarda ham kuzatiladi, bu esa ularning zamonaviy kommunikatsiya sharoitida faol qayta talqin qilinayotganini ko‘rsatadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, rus va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan diniy asosga ega bo'lgan frazeologik birliklar zamonaviy til tizimida faol ravishda dolzarblashib borayotgani bilan bir qatorda, ularning semantik, pragmatik hamda funksional imkoniyatlari ham sezilarli darajada kengayib bormoqda.

Mazkur jarayonni faqat til ichki evolyutsiyasining tabiiy natijasi sifatida talqin qilish yetarli emas, chunki uning ortida zamonaviy jamiyatning keng ko'lamli sotsiomadaniy transformatsiyalari, xususan, globallashuv sharoitida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga qayta e'tiborning kuchayishi, milliy va madaniy identiklikni saqlashga bo'lgan ehtiyojning ortishi hamda kommunikatsiya muhitida pragmatik strategiyalarning murakkablashuvi kabi omillar yotadi.

Ayniqsa, ommaviy kommunikatsiya vositalarining, shu jumladan internet-diskurs va ijtimoiy tarmoqlar nutqining tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida til birliklarining funksional yuklamasi kengayib, diniy frazeologizmlar faqatgina sakral mazmun ifodalovchi birliklar sifatida emas, balki baholash, munosabat bildirish, muloqotni yumshatish, pragmatik pozitsiyani belgilash hamda emotsional ta'sirni kuchaytirish kabi qo'shimcha kommunikativ vazifalarni ham bajara boshlagani kuzatiladi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida aniqlandiki, "Inshoolloh", "Xudo xohlasa", "Дай Бог", "Слава Бору" kabi diniy frazeologizmlar zamonaviy nutq amaliyotida semantik kengayishga uchrab, ularning ma'naviy strukturasida qo'shimcha pragmatik va emotsional semalar shakllanayotgani, bu esa o'z navbatida desakralizatsiya va semantik transformatsiya jarayonlarining parallel ravishda kechayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, diniy asosga ega bo'lgan frazeologizmlarning zamonaviy tilda dolzarblashuvi nafaqat lingvistik fenomen sifatida, balki jamiyatning madaniy xotirani saqlash, an'anaviy qadriyatlarni qayta tiklash va ularni yangi kommunikatsiya sharoitlariga moslashtirishga bo'lgan intilishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab sotsiomadaniy jarayon sifatida baholanishi lozim bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu frazeologik birliklar til tizimida barqaror madaniy kod tashuvchilari sifatida saqlanib qolar ekan, ularning semantik strukturasi ham dinamik ravishda o'zgarib, yangi pragmatik qatlamlar bilan boyib borishi tabiiy va qonuniyatli hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
2. Баско Н. В. Библийская фразеология в современном русском языке. – Москва: Флинта, 2010. – 176 с.
3. Виноградов В. В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 140–161.
4. Ёўлдошев Б. Ёзбек фразеологиясининг лингвوماданий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2015. – 220 б.
5. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
6. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – 381 с.
7. Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2004. – 208 с.
8. Никитина Т. Г. Религиозная лексика и фразеология русского языка. – Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2013. – 214 с.
9. Рахматуллаев Ш. Ёзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ёқитувчи, 1992. – 560 б.
10. Степанов Ю. С. Константы: словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2004. – 992 с.
11. Ш.М. Султонова. Диний фразеологизмлар трансформацияси: Монография. Тошкент: VNESHINVESTPROM, 2022. – 192 бет.
12. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
13. Хожиев А. Ёзбек тили фразеологияси. – Тошкент: Ёқитувчи, 1985. – 184 б.
14. Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка. – М.: Либроком, 2012. – 272 с.

### **O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MODALLIK KATEGORIYASINING NAZARIY ASOSLARI**

***Usmonova Huriniso Sharapovna,***  
*NamDU professori, filologiya fanlari doktori*  
***Nazaraliyeva Dilrabo Ne'matjon qizi,***  
*NamDU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi o'zbek tilshunosligi rivojlanish bosqichlari – empirik, nazariy va metanazariy davrlar – qiyosiy tarzda yoritilgan. Shuningdek, modallik kategoriyasining falsafiy, mantiqiy va tilshunoslik nuqtayi nazaridan

shakllanish tarixi hamda uning grammatik, semantik va pragmatik jihatdan tahlil etilishi zarurligi asoslab ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tilshunosligi, empirik bosqich, nazariy bosqich, metanazariy bosqich, modallik kategoriyasi, falsafiy tahlil, mantiqiy tahlil, grammatik kategoriya, semantik kategoriya, pragmatik kategoriya.

**Kirish.** Tilshunoslik fani o'z tarixiy taraqqiyotida bir necha muhim bosqichlarni – empirik bilish, nazariy bilish va nazariy mental bilish davrlarini – izchil bosib o'tdi. Zamonaviy jahon tilshunosligi hozirda nazariy mental bilish bosqichida faol taraqqiy etmoqda. Bu holat tilshunoslikning tabiiy va muqarrar ilmiy kamolot yo'lidan dalolat beradi.

Har qanday fan singari tilshunoslik ham bir joyda to'xtab qolmaydi – u doimo yangilanib, kengayib, chuqurlashib boradi. Shu jarayonda fan oldiga yangi savollar, yangi muammolar va yangi yechimlar kelib chiqadi. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning dastlabki bosqichi – empirik davr – til hodisalarini kuzatish, tasvirlash va to'plashdan iborat bo'lgan. Bu davrda olimlar tilning tashqi ko'rinishini o'rganib, uning qonuniyatlarini aniqlashga harakat qildilar. Keyingi – nazariy bosqichda esa to'plangan faktik materiallar umumlashtirildi, tizimga solindi va ilmiy nazariyalar shakllantirildi.

Bugungi kunda tilshunoslik yanada yuqori pog'onaga – nazariy mental bilish bosqichiga ko'tarildi. Bu bosqichda til hodisalari inson tafakkuri, ongi va idroki bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etiladi. Ya'ni tilni faqat o'z-o'zicha emas, balki uni yaratuvchi va undan foydalanuvchi inson omili bilan birlikda o'rganish ustuvor yo'nalishga aylandi. Antroposentrik paradigma deb ataluvchi bu yondashuv tilshunoslikning kognitiv, pragmatik va diskursiv sohalarini jadal rivojlantirishga zamin yaratdi.

O'zbek tilshunosligi ham ushbu umumjahon ilmiy jarayondan chetda qolmadi. Mustaqillik yillarida o'zbek tili o'z tabiati va ichki qonuniyatlariga asoslangan holda erkin tadqiq etila boshlandi. Metodologik plyuralizm tamoyili o'rnatilishi bilan turli ilmiy paradigmalar – sistema-struktura, funksional, kognitiv, pragmatik va konseptologik yondashuvlar – o'zbek tilshunosligi amaliyotiga keng

joriy etildi. Natijada o'zbek tili hodisalari, jumladan modallik kategoriyasi kabi murakkab til birliklarini yangicha nuqtai nazardan o'rganish imkoniyati yuzaga keldi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbek tilshunosligini rivojlanish xususiyatlariga ko'ra shartli ravishda uch bosqichga ajratish maqsadga muvofiqdir. Birinchi – empirik bosqich – qadimgi davrlardan to XX asrning 50-yillarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ushbu davrda Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, M.Qoshg'ariy, M.Zamaxshariy, A.Navoiy, Z.M.Bobur, A.Fitrat, Q.Ramazon, A.Zohiriy singari buyuk allomalar tomonidan yaratilgan ilmiy meros «o'zbek mumtoz tilshunosligi»ning poydevorini tashkil etadi. Bu meros tilning barcha sohalarini o'rganishda boy faktik material sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Ikkinchi – nazariy bosqich – XX asrning 60-yillaridan to asrning so'nggi o'n yilliklarigacha davom etdi. Bu davrda o'zbek tilining fonetika, leksikologiya, frazeologiya, dialektologiya, morfologiya va sintaksis sohaları ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etildi. O'zbek tili grammatikasini o'rganishda tizimli, struktural va funksional yondashuvlar tatbiq etila boshlandi. Shu tariqa o'zbek tilshunosligi mustaqil ilmiy intizom sifatida o'z qiyofasini shakllantirdi.

Uchinchi – metanazariy bosqich – asosan mustaqillik yillarini o'z ichiga oladi. Istiqloлга qadar sho'rolar mafkurasi ilmiy yangilanishlarga to'sqinlik qilgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng A.Hojiev, Sh.Rahmatullaev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, H.Ne'matov, R.Rasulov va boshqa olimlarning tadqiqotlari o'zbek tilshunosligini metodologik jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada o'zbek tilshunosligi monizm asarlaridan xalos bo'lib, metodologik plyuralizm tamoyili asosida erkin taraqqiy etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

«Modallik» atamasi (lot. modus – usul, yo'sin) ilmiy muomalaga Aristotel tomonidan kiritilgan bo'lib, u biror obyektning mavjudligi yoki hodisaning yuzaga kelish tarzini anglatgan. Aristotel o'zining «Metafizika» va «Analitika» asarlarida modallikni fe'l maylining ma'noviy asosi sifatida talqin qilib, «zaruriy», «imkonli», «imkonsiz» va «tasodif» kabi asosiy modal ma'nolarni ajratib ko'rsatgan[1].

G'arbiy Yevropa tilshunosligida modallik tushunchasini fanga birinchi bo'lib olib kirgan Sh.Balli uni so'zlovchining hissiy holati va nutqning kommunikativ maqsadi bilan bog'liq kategoria sifatida tavsifladi. Uning tasniflashicha, modallikning uch umumiy turi mavjud: intellektual fikrlash, affektiv (ijobiy va salbiy) baho hamda istak. V.V.Vinogradov esa bu kategoriyaning tilshunoslikdagi o'rnini teranroq tadqiq etib, har bir gap voqelikka bo'lgan munosabatni aks ettirishini ilmiy jihatdan isbotladi va modallikni grammatik hamda mantiqiy nuqtayi nazardan farqlab ko'rsatdi[2].

**Natijalar.** Modallik kategoriyasi asosan nutq jarayonida, muloqot vaziyatida o'z ifodasini topadi. Muloqot tasodifiy, tartibsiz emas, balki suhbatdoshlar tomonidan ularning ongli va yashirin motivlari va niyatlariga binoan qurilgan jarayondir. Shuning uchun bu jarayonni nutqiy akt nazariyasi asosida pragmatik tadqiq etish zarur. Chunki antik davridayoq ritorika ilmi paydo bo'ldiki, uning maqsadi nutq yordamida boshqa odamga ta'sir qilish vositalarini o'rganish edi. Modallik (lotincha *modus* - usul, yo'sin) tushunchasi Aristotel tomonidan fanga kiritilgan va qandaydir obyekt mavjudligi yoki biron bir hodisani amalga oshirish usuli sifatida talqin qilingan. Uning "Metafizika", "Analitika" kabi asarlarida modallik tushunchasi *mayl* ma'nosida qo'llandi va so'zlovchining o'z fikrini qanchalik darajada haqiqiy hisoblashiga moyilligi bilan bog'ladi. Aristotel "zaruriy" (*neobxodimo*), "imkonli" (*vozmojno*), "imkonsiz" (*nevozmojno*), "tasodif" (*sluchayno*) (tarjima bizniki) kabi modal ma'nolarni ajratdi. Keyinchalik Aristotelning ushbu fikri olimlar tomonidan tilshunoslikda fe'lining mayllarini belgilashda asos qilib olindi. Demak, lokutiv, illokutiv, perlokutiv kabi nutqiy aktlarning kommunikatsiyada nutqiy vaziyat strategiyasi talabi bilan yuzaga chiqishini modallik pragmatikasi tarzida boshqa lisoniy hodisalar bilan bogliq holda tadqiq etish zarur. Pragmalingvistikaning konseptologik tadqiqida oila konsepti verbalizatorlari modallik sistemasi uzvlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, konseptologik tadqiqotlarda kontsept – inson tafakkuriga tegishli bo'lib, tafakkur faoliyati birligi, bilishning kvant tuzilmasi sifatida izohlanadi. Bilamizki, inson tafakkuri verbal emas, u universal predmet kodlari orqali yuzaga chiqadi. Insonlar



shu kod – kontsept orqali tafakkur qiladi. Oila konseptida tahlil etilayotgan modallik kategoriyasi turli vositalar orqali anglashiladi. Ulardan fonetik-fonologik vositalarni lingvistik jihatdan unlilar, undoshlar, fonatsion turlarga, ekstralingvistik jihatdan vokalizmopragmatik, konsonantopragmatik, prosodik turlarga ajratishni tavsiya qilamiz. Ularning tadqiqida genderologik xususiyatlarini hisobga olish shart. Chunki ular ijtimoiy genderologik jihatdan farqlanadi. Ayniqsa, modallik markerlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, "Turmangiz" Otabekning Zaynabga murjaatidagi so'zda -ng, -ngiz ikkinchi shaxs, ko'plik shaxs-son qo'shimchasi ishlatilgan. Bu so'zda ikki marta sizlash yuzaga kelgan. Bu vositalar quyidagi pragmatik ma'nolarga ishora qiladi:

Otabekning odob-axloqda mustahkamligi, oiladagi madaniyat, bidiat urf-odatlariga munosabati, bu jarayonning yoshiga munosib emasligini his qilishi, Zaynabga bo'lgan munosabati kabilarni bildirish maqsadi.

**Xulosa.** Modallik kategoriyasi tilshunoslikda uzoq ilmiy tarix va boy tadqiqot an'alariga ega bo'lgan murakkab hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Ya.G.Testeletsning ta'kidlashicha, bu kategoriya so'zlovchi, tinglovchi va nutq jarayoni o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni qamrab oluvchi universal til hodisasidir[3]. Shu sababli modallikni faqat grammatik yoki semantik kategoriya doirasida emas, balki pragmatik aspektda ham tadqiq etish ilmiy zarurat bo'lib qolmoqda. Keyingi tadqiqotda ushbu masala yanada kengroq yoritiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бондарко А.В. Модальность. Вступительные замечания. – Л.: Наука, 1990. 15 с.
2. Виноградов В.В. О категории модальности и модальных словах в русском языке // Исследования по русской грамматике: избранные труды. – М., 1975. С. 53–87.
3. Тестелец Я. Г. Введение в общий синтаксис. – М., 2001. 736 с.

### **RUHIY HOLATNING KINETIK VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI**

***Rozikova Gulbahor Zaylobidinovna,***  
*FarDU professori, filologiya fanlari doktori*  
***Sharipova Maxliyoxon G'ayratovna,***  
*FDTU 2-son akademik litsey o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ruhiy holat ifodalovchi noverbal vositalar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Psixolingvistika, funksionallashish, paralingvistika, verbal vositalar, noverbal vositalar, kinetik vositalar.

Kinetik vositalar noverbal vositalar ichida eng koʻp qoʻllaniladigan vositalardan sanaladi. Kinetik vositalar tana aʼzolari: gavda, bosh, qoʻl, oyoq kabilarning harakatlari, yuz ifodalari, qosh, koʻz, lab kabilarning holati bilan bogʻliqdir. Kinetik vositalar kinetika yoki kinesika deb ataluvchi fan doirasida tadqiq qilinadi: “Kinesika imo-ishoralar haqidagi fandır. Kinetik vositalar vizual kanal sistemasiga taalluqli boʻlib, u soʻzlashuvchilar muloqotida vizuallik belgisiga ega boʻladi. Kinetik vositalarga ifodalilik, tana aʼzolari harakati – jestlar, yuz harakati bilan bogʻliq – mimika, kommunikantlar muloqotida roʻy beruvchi individual harakat (yurish-turishdagi oʻziga xoslik yoki xos harakatlar) kabilar mansubdir”<sup>1</sup>.

Kinetik vositalardan har kuni, har qanday muloqotda foydalanish mumkin. Biroq madaniyatlararo muloqotda kinetik vositalarni qoʻllashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Chunki kinetik vositalar madaniyatlarga koʻra farqlanadi. Bir madaniyatda ijobiy sanalgan kinetik vosita boshqasida salbiy maʼno anglatishi mumkin.

Shuningdek, kinetik vositalarni vaziyatga mos ravishda qoʻllash talab etiladi.

– *Yaxshimas, oʻrtoqlar... – dedi yupatuvchi ohangda...- Bunaqa dod-faryod qilish yaxshimas. – U bir zum jimib qoldi-da, boshidan chaqmoq telpagini oldi. – Nachora, bu – hayot-mamot jangi. Undan koʻra Shokirjon bilan Zokirjonning xotirasini...*

*Birdan Oqsoqolning koʻzida oʻt chaqnadi. Nazarimda moʻylovi ham dikkayib ketgandek boʻldi. Tokchadagi telefon tutqichini yulqib Zakunchiga oʻqtaldi. – Yoʻqol, xotira-potirang bilan! – dedi xirillab. – Yoʻqol! (Oʻtkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi”, 186-187-betlar)*

---

<sup>1</sup> Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. ...дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – Б.53.

Oqsoqolning Shokir va Zokir ismli o'g'illariga qoraxat kelganini bilgach, Umar zakunchi ularning oila a'zolarini yupatish va ta'ziya izhor qilish maqsadida boshidan telpagini oladi. Bu o'zbek madaniyatiga xos harakat emas, g'arb madaniyatiga xos kinetik vosita sanaladi. O'z dardi o'ziga yetib turgan, o'g'illarining o'lmaganiga ishonchi komil oqsoqolga Umar zakunchining so'zlari yoqmaydi. Telpagini boshidan olib harakat qilishi esa oqsoqolning battar jahlini chiqaradi va uni haydab yuboradi. Demak, kinetik vositalardan o'z o'rnida foydalana bilish ham muhim sanaladi.

Shuningdek, kinetik vositalar gender jihatidan ham farqlanadi. Ayollarga xos va erkaklarga xos xatti-harakatlar farqlanadi.

– *Voy, bole-em! Qo'shmozor bo'lgan bolam!*

*Fotima kelin tog'orani qorga uloqtirib ichkariga otildi. Ketidan Zuhra kelin, undan keyin men hovliga chopib kirdim. Ayvon tokchasida fonus xira yonib turardi. Xolposh xola sochlarini yoygancha, ayvonda oyog'ini uzatib o'tirar, tizzasiga mushtlab dodlar edi. – Qo'shmozor bo'lgan bol-e-em! (O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi", 184-bet)*

Tizzasiga urib, mushtlab faryod qilish ayollarga xos harakat hisoblanadi, erkaklar bunday harakat qilmaydilar.

– *Gap zakunchiliqdamas! – Oqsoqol ijirg'anib yuzini o'girdi. – "Qoraxat" kelgan kuni so'kkanimning alamini olyapti. – Voy ablah-ey! – Cholim do'stining yelkasiga qoqdi. – Qo'yaver, it akilladi qo'ydi-da... (O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi", 214-bet)*

Do'stining yelkasiga qoqish esa erkaklar qo'llaydigan harakat sanaladi. Ayollar ham ba'zan ko'rishish, maqtash niyatida o'zlaridan kichik erkaklarning yelkalarini qoqishlari mumkin, biroq dugonalarining, boshqa ayollarning yelkalariga qoqmaydilar. Shunga ko'ra aytish mumkinki, kinetik vositalar gender jihatidan ham farqlanadi.

Shuningdek, bir kinetik vosita bir necha xil ma'no anglatishi ham mumkin. Professor A.Nurmonov bir imo-ishora bir necha xil ma'no anglatishi mumkinligini

ta'kidlab, bosh chayqash harakatining hayron qolish, qoyil qolish, rohatlanish, afsuslanish ma'nolarini anglatishini keltirib o'tgan<sup>1</sup>.

Ruhiy holatlarni ifoda qilishda kinetik vositalar ahamiyatli sanaladi, badiiy asarlarda fiziologik holatlar va tana harakatlari qahramonlar ichki kechinmalarini tasvirlashda qo'llanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ichki his-tuyg'ularni ifodalash ko'proq bosh va undagi uzvlar (peshona, qosh, ko'z, quloq, burun, lab, og'iz, lunj, til, tomoq, tish) ishtirokida hosil qilinadigan til birliklariga to'g'ri keladi<sup>2</sup>.

Tadqiqotchilar tomonidan aniqlanishicha, o'zbek muloqotida tana a'zolarining muloqot jarayonidagi ishtirokida qo'l harakatlarining nisbati 20%, barmoqlar harakati esa 13% ni ko'rsatib, o'zbekona nutqda eng faol noverbal birlik ekanligi aniqlandi. Bosh harakatlari 10%, yelka harakati 7%, ko'z ifodasi 7%, tizza harakati 5%, lab harakati 5%ni tashkil etadi<sup>3</sup>. Bu har qanday vaziyatda qo'llanadigan barcha kinetik vositalarga nisbatan ko'rsatkich sanaladi. Biz esa noverbal vositalarning ruhiy holatlarni ifoda etishdagi o'rmini tahlilga tortamiz.

Gavdaning turli harakatlari turli ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Jumladan, *qulluq qilish* minnatdorchilik bildirish ma'nosida qo'llanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "qulluq qilmoq" harakati "qo'lini ko'ksiga qo'yib, minnatdorchilik izhor qilmoq, ta'zim qilmoq" ma'nosini anglatishi keltirilgan<sup>4</sup>.

*Ayol sekin-sekin nari ketayotgan edi, Oqsoqol qulluq qildi. – Ispasiba, marja! Go'st paydo'm. Ayol mungli kulimsirab qo'ydi. – Rahmat, – dedi o'zbekchalab, – rahmat, aksakal* (O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi", 112-bet).

Noverbal vositalar inson ichki hissiyotlarini aks ettirganda barcha uchun umumiy bo'lsa, aksincha, insonning tashqi muhitga munosabati, biror narsani ko'rsatishi, tushuntirishi, fikrini ifoda etishida madaniy farqlanadi. Shuningdek, inson ichki hissiyotini ifoda etuvchi noverbal vositalar tug'ma va universaldir

<sup>1</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 1 жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б.222.

<sup>2</sup> Курбанов М. Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилларида новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Андижон, 2021. – Б.20.

<sup>3</sup> Baratova M. O'zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – Б.22-23.

<sup>4</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. IV jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б.268.

hamda madaniy farqlangan imo-ishoralar inson xulqi va tarbiyasi bilan bog'liqdir, xususan, ularni shartli ravishda, tabiiy va ijtimoiy noverbal vositalar deb atasak, maqsadga muvofiq bo'lardi<sup>1</sup>. Demak, o'zbek muloqot xulqiga xos bo'lgan kinetik vositalar madaniy farqlanuvchi harakatlar sifatida, ichki hissiyot va ruhiyatni ifoda qiluvchi titrash, tananing harakatsiz qolishi kabi kinetik harakatlar universal noverbal harakatlar sanaladi.

*Bag'riga olmoq* "qattiq quchoqlamoq" ma'nosini anglatadi<sup>2</sup>. Bunda gavda va qo'l harakatlari birgalikda amalga oshiriladi. "Ikki eshik orasi" asarida bu birikma *bag'riga bosmoq* shaklida uchraydi:

– *"Qora amma!" Bizlar keldik!*

– *Voy amming aylansin! Voy amming o'rgilsin sendan! – U pildirab kelib meni bag'riga bosdi* (O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi", 24-bet).

Tananing titrashi fiziologik holat sanalib, beixtiyor yuzaga chiqadi. Qattiq qo'rquv, hayajon ta'sirida tana va uning a'zolari qaltiraydi, titraydi. Titrashning kuchlilik darajasi hissiy bosimning darajasiga mos ravishda bo'ladi, ya'ni kuchliroq hayajonda qattiqroq, pastroq darajadagi hayajonda yengil titrash kuzatiladi. Bu fiziologik holat ixtiyoriy ravishda amalga oshirilmaydi, beixtiyor yuzaga chiquvchi holat sanaladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *titramoq* fe'li quyidagicha izohlanadi: Titramoq 1. Sovuqdan, qo'rquvdan, hayajondan yoki darmonsizlikdan, kasallik va sh.k.lardan qaltiramoq<sup>3</sup>.

– *"Qora amma", dadamni uyg'oting, – dedim titrab – Ikkinchi qilmayman* (O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi", 33-bet).

Ushbu kontekstda Muzaffarning dadasidan qo'rqib titrashi ifodalangan bo'lsa, quyidagi misolda "Qora amma"ning alamdand, iztirobdan titragani keltirilgan:

*Kelinlar to'dasi yor-yor aytgancha eshikka yaqinlashdi. Hovlidagi fonuslarning nuri g'ira-shira yoritib turgan eshik oldida "Qora ammam"ni ko'rib*

<sup>1</sup> Хасанова Г. Диалогик нутқда новербал воситаларнинг ўрни ва уларнинг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)...дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – Б.16-17.

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б.332.

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. V jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б.301.

*qoldim. Qo'lida bog'ichi yechilgan qiyiqcha. Boshidan ro'moli sirg'alib yelkasiga tushgan. Negadir titraydi. Oppoq sochlari uchidagi so'lkavoy cho'lpilarining jiringlashi childirma shovqini, surnay ovozida eshitilmasa ham bir-biriga urilib ketayotganini sezdim* (O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi", 122-bet).

O'g'li urushda bedarak yo'qolgan "Qora amma" asrab olgan qizi, o'g'liga kelin qilmoqchi bo'lgan qiz – Robiyani o'zi ko'ndirib ukasiga turmushga beradi. "Qora amma" ichki hissiyotlarini bildirmaslikka harakat qiladi, lekin to'y kuni alamdən, iztirobdən, o'g'li kelməganidən azob chekkəni səbəb unda beixtiyor fiziologik holatlar yuzaga chiqadi: boshidan sirg'alib tushgan ro'molini his qilmaydi, titraydi, karaxt holga tushib qoladi. Chunki "Qora amma"ning Robiyani Shomurodga turmushga uzatishi o'g'li Kimsanning o'lganini tan olish, uning qaytib kelmasligiga ko'nishni anglatardi. "Qora amma" dardini, iztiroblarini hech kimgə ayta olmas edi, shu səbəbdən ham muəllif ayolning ruhiy holatini ifodalash uchun noverbal vositalarni tanlaydi.

Gavda, tana harakatining to'xtashi ham ma'lum hissiy-ruhiy holatlar səbəbli bo'lishi mumkin. Misol uchun, qo'rquvdən, hayratdən, əjablanishdən nima qilishni bilməy to'xtab qolish kuzatiladi:

*Endi inga qo'l cho'zgan edim, bir chumchuq ovozi boricha chirqillab shundoq tumshug'im oldidan uchib o'tdi. Yuzimga qanoti tegdiyam. Qo'rqqanimdən to'xtab qoldim* (O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi", 36-bet).

*Choyxonaga olib chiqadi. Xullas, choyxona – o'zimizning uy. Lekin hozir choy ichishga vaqtimiz yo'q. "Qora ammam"nikiga tezroq borish kerak. Ana, dadam tuproq yo'lda to'xtab, jahl bilan o'girildi. – Bo'lsang-chi! Hali-zamon kun yoyilib ketadi. Dalaga chiqishim kerak* (O'. Hoshimov, "Ikki eshik orasi", 21-bet).

Xulosa qilib aytganda, inson ruhiy holatini ifodalashda noverbal vositalar muhim o'rin tutadi.

## **SÖZCÜKSEL-ÜSLUP UNSURLARI** (Fikret Koca'nın ədəbi əsərlərində)

**Tovuz Teymurova**  
*Azərbaycan Dövlət Pedaqoji Universiteti professori*

**Annotation:** In literary works, the artistic function of words is most often manifested through their metaphorical meaning. Metaphorical meaning reveals the author's personal and stylistic skills. We can see the most perfect examples of metaphorical meaning in Fikret Goca's stories and poems. The lexical stylistic figures he uses in his works—metaphor, metonymy, synecdoche—are among the main elements shaping the author's language.

**Keywords:** Fikret Goca, metaphor, metonymy, synecdoche

**Annotatsiya:** Badiiy asarlarda soʻzlarning badiiy vazifasi asosan koʻchma maʼnoda namoyon boʻladi. Koʻchma maʼno muallifning individual uslubi va badiiy mahoratini yuzaga chiqaradi. Koʻchma maʼning eng mukammal namunalarini Fikrət Qoca ning badiiy asarlarida uchratish mumkin. Adib asarlarida qoʻllangan leksik-uslubiy vositalar — metafora, metonimiya va sinekdoxa muallif tilini shakllantiruvchi asosiy unsurlar hisoblanadi. Metaforalar esa muallif fikrlarini oʻquvchiga jonli, obrazli va taʼsirchan tarzda yetkazishda uning uslubining muhim xususiyatlaridan biri sifatida namoyon boʻladi.

**Kalit soʻzlar:** Fikrət Qoca, metafora, metonimiya, sinekdoxa.

Edebi eserlerde, kelimenin mecazi işlevi en sık metaforlarda kendini gösterir. Metafor, “bir kelimenin veya kelime kombinasyonunun anlamındaki bir değişikliktir ve bunun sonucunda içerik zenginleşir” [Фрейденберг, 1936: 25].

Metafor, eserlerin sanatsal kalitesini ve yazarın bireysel üslup becerisini ortaya koyar. Bu nedenle yazarların edebi eserlerdeki metaforları ayrı ayrı incelemek gerekir.

Edebi eserlerde, “bir kelimenin anlamını kaybetmesi ve başka bir anlam kazanması metaforlarla kendini gösterir” [Бегашвили, 1973: 7]. Okuyucuya fikri mecazi ve yoğun bir şekilde aktarma açısından, metafor Fikret Koca'nın üslubunun çok önemli bir özelliğidir. “Metafor kelimesi leksik bir unsur olarak, mecaz termiyle anlatılan ve anlatılmayan durumları ifade edebilecek geniş ve kapsamlı bir semantik değere sahiptir” [Demir, 2019: 1088] ki, bunun mükemmel örnekleri yazarın şiir ve düzyazı eserlerinde bulunur. Bu metaforları aşağıdaki şekilde gruplandırılabilir:



1.Dışsal ve içsel benzerliğe dayalı metaforlar. Bu tür metaforlar, yazarın nesneler ve olaylar arasındaki görsel (biçim) ve işlevsel bağlantıları sanatsal bir imgeye dönüştürme yeteneğini yansıtır.

Dışsal benzetmelerin aksine, yazarın edebi eserlerindeki içsel metaforlar karakter, duygu, psikolojik durum ve maneviyata dayanır. İnsan çevresini, toplumu ve içsel karmaşayı semboller aracılığıyla tanımlarken aşağıdaki yöntemler kullanılır:

a) Değerli metal ve taşların isimleri metaforlaşır. Bu metaforlar, renk, parlaklık, şeffaflık ve şekil (dışsal) benzerliğine ve varlığın taşıdığı manevi değerlere dayanır. Yazarın eserlerinde değerli metallerin ve değerli taşların isimlerinin kullanılması, onun eşsiz imzasını ve üslubunu yansıtır: *Dodağın hayat bağışlar, Dişleri inci, neyleyim?* [Qoca, 2014: 189]

“Neyleyim” şiirinden verilen örnekte, güzelin dişleri, dış görünüşü – beyazlık, parlaklık ve dizilimler – nedeniyle inciye, bir tür değerli taşa benzetilmiştir. Sevgili, zarafeti, güzelliği ve saf bakışı nedeniyle doğrudan “geyik” olarak adlandırılır. Sözlü halk edebiyatımızda ve Aşık şiirinde de kullanılan bu metafor aracılığıyla, şiirin diline milli bir renk katılırken, aynı zamanda sevgilinin samimiyeti ve dilinin duygusal tonu da artmaktadır. Başka bir şiirde: “*Gulum, Arzu adlı kızıl atım var, en ağır gün için zarafatım var*” [Qoca, 2014: 324].- diye düşüncelerini ifade eden yazar, altının paslanmazlık özelliğini insanın içsel saflığına aktarır. Değerli metallerin isimlerini felsefi ve psikolojik anlamlar taşıyan üslup araçları olarak kullanarak, onları manevi niteliklerin sembollerine dönüştürür.

b) Hayvan, kuş isimleri metaforlaşır. Yazarın şiir ve düzyazılarında bu isimler sadece betimleyici araçlar değil, derin sosyal ve felsefi anlamlar taşıyan metaforik imgelerdir. Bu imgeler aracılığıyla toplumdaki kusurlar ve ahlaki yozlaşma gözlerimizin önüne serilir.

İçsel benzerlik, yani karakter, davranış ve ahlaki özellikler temelinde oluşturulan metaforlar, öznenin iç dünyasını, sosyal konumunu veya karakterini tanımlamak için kullanılır. Bu metaforlar aracılığıyla, insan karakterindeki

yırtıcılık, kurnazlık, cesaret gibi nitelikler görselleştirilir. Bu tür metaforlar, imgeleri karakterize etmek ve ahlaki niteliklerini tanımlamak için yaygın olarak kullanılmıştır. "Ünvansız Mektup" eserinde, Che Guevara'nın yaşam yolunu anlatan yazar, ona hitaben kullanılan "kaplan" ismiyle içsel potansiyel ile mevcut durum arasındaki zıtlığı gösteren sembolik ve içsel aktarıma dayalı bir metafor yaratır. Yazar, özgürlüğü seven kahramanın boğucu bir ortamdaki durumunu metaforlarla ustaca görselleştirir: *Bu körpece pelengin(kaplanın) Amerika olmuştu havasız bir kafesi...* [Qoca, 2015: 49].

Yazarın eserlerinde "kurt", yırtıcı doğasıyla birlikte içsel gücün ve yalnızlığın sembolüdür; "Yaşlı kurt" ve "eski kurt" ifadelerinde, hayatın zorluklarının üstesinden gelmiş, deneyimli, bilge ve hoşgörülü bir kişiyi temsil eder; "kaplan" dizginsiz içsel gücü, iradeyi veya avcılık duygularını, "at" kişinin sadık yoldaşını, "yaban domuzu", "domuz", "kurbağa" kabalığı; "yılan", "akrep", "çakal" ise olumsuz özellikleri temsil eder. İnsan kusurları, bu hayvanların içsel özellikleriyle paralellik gösterir. Sonda ise insanlar ruhsal saflığa davet edilir. Yazar bu metaforları daha çok duygusal-ifade amaçlı, değerlendirci nitelikler olarak kullanır: Bu ifadelerin içeriğinden kaynaklanan olumlu ve olumsuz yönler, olayları ve imgeleri karakterize etmede yaygın olarak kullanılır.

ç) Bitki, meyve, ağaç isimleri metaforlaşır; Çınar ağacı, meşe, karaçalı, karanfil, gül, menekşe, çiçek, diken vb. Bu isimlerin yarattığı metaforlar, yazarın kaleminde sanatsal bir betimleme aracı olarak güzel örneklerin yaratılmasına yol açar: *Helbet ki, bağlar doludu reyhan, nergiz, süsen, başqasın sen* [Qoca, 2014: 312]

F.Koca, sanat eserlerinde isimlere felsefi bir anlam yükler ve aynı zamanda insan kaderinin farklı anlarını ifade eder. Yazarın üslubunda isimler sadece betimleme için değil, aynı zamanda ulusal maneviyatı ve dönemin felsefesini yansıtan metaforik ifadeler haline gelir. Ona göre, "çınar" ağacı, "meşe" kökleri toprağa bağlı bir insanı ve bir halkı simgeler. "Garatikan", hayatın acı yönlerinin metaforik bir ifadesidir; "menekşe" eğilmeyi, "lale" toprak için yapılan fedakarlığı, "karanfil" yas tutmayı, "gül" lirik kahramanın aşkını ve güzelliğini, "gülün dikenini"

aşkın getirdiği acı ve ıstırabı, “fesleğen”, “zambak”, “nergis” derin lirik duyguların, kadın güzelliğinin, zarafetin, “bahçe” ise dünyanın metaforik bir ifadesidir.

c) Gök cisimlerinin isimlerini metaforlaştır. Yazarın eserlerinde gök cisimlerinin isimleri sadece doğanın bir parçası değil, aynı zamanda insanın iç dünyasını, felsefi düşüncelerini ifade eden metaforik araçlardır. “Güneş” sadece bir gezegen değil, aynı zamanda gerçeğin, mücadelenin, berraklığın sembolüdür. “Yıldızlar” daha çok anıların, kayıpların, geçmişin metaforik bir ifadesidir; “Ay” ise olaylara tanıklık eden, insan yalnızlığının metaforik bir ifadesidir.

d) Yılın mevsimlerini belirten isimler metaforlaştır. Yazarın eserlerindeki mevsim isimleri, insan yaşamının aşamaları ifade eden metaforlardır. "Bahar" gençliği, coşkuyu, özgürlüğü; "yaz" mükemmelliği; "sonbahar" ayrılığı; "kış" ise yaşlılığı ve adaletsizliği temsil eder. *Qış dönüb lalezar olur, Buzlu çöllər bahar olur, Düşmen dönüb yar olur, Yadıma sen düşen zaman* [Qoca, 2015: 134].

2. Canlı varlıkların psikolojik özellikleri, hareket halini ifade eden fiillerin cansız nesnelere aktarılmasıyla oluşan birimler (tırmanmak, gülmek, bakmak, sağlamak, vb.), yazarın dilinin duygusallığını artıran başlıca metaforik yöntemlerden biri olarak işlev görür: *Garı külek bulud sağır, Bakışına yağış yağır. Güneş gülür, bic-bic bakır* [Qoca, 2014: 14]; *Zibilçilerin tütək sesine oyandı seher, Tinlerde baş-başa verib, Yatmıştı küçeler* [Qoca, 2015: 118]; *Göydeki ulduzlar da çekilibler çarmıha, göy cırılmış bir yaka... Yer də asılı kalıb, çapalayır fezada* [Qoca, 2014: 22]; *Ulduzlar da, sükut da, uzaqlıq da qaçıb saklandı, yok oldu* [Qoca, 2015: 288].

Verilen şiir örneklerinde yazar, "sağmak," "gülmek," "uyanmak," "kafa kafaya gelmek" ve "uyumak" gibi insan eylemlerini ifade eden fiilleri rüzgara, güneşe ve sabaha ait etmekle sanatsal açıdan eksiksiz betimlemeler ve canlı manzaralar yaratmaktadır. "Çarmıha gerilmek, ve "kaçıp saklanmak" eylemlerini yıldızlara ve dünyaya ait ederek, yarattığı metaforlarla Galaksi'nin daha güzel bir sanatsal betimlemesini oluşturmaktadır.

Cansız, soyut nesnelerin, doğal olayların “gülmek”, “sevinmek”, “konuşmak”, “düşünmek”, “hissetmek” gibi biyolojik süreçlere ait fiillerle temsil

edilmesi yüksek mecaz yaratır. Aynı zamanda, kavramları ifade eden isimler - "deniz", "ışık", "dünya", "şehir", "insan" - fikirlerin ve betimlemelerin görüntü düzeyinde sanat açısından daha ifadeli olmasını sağlar: *Üstüne çakib ulduzlu geceni, Unudub könlünden keçeni. Başını koyub kumlu sahile, büzüşüb olub bir gile, yadır deniz* [Qoca, 2014: 318].

Şiirde deniz sadece bir su kütlesi olarak değil, yorgun, düşünceli, duygusal bir insan olarak sunuluyor. Bu metaforlar sadece dış manzarayı değil, aynı zamanda içsel, psikolojik durumu da yansıtıyor. Yazar böylece kişiye yalnızlık, yorgunluk, huzur ve içsel hüznün duygularını aktarıyor. Bu tür bireysel-stilistik metaforlar, yazarın şiirsel dilinin en karakteristik özelliklerinden biridir. Yazar, soyut duyguları (zaman, aşk, atalet, ruh) varlık bir varlık olarak tanımlar ("zamanın yorgunluğu, soyunması gibi"). Yazarın eserinde renkler de kendi anlamlarının ötesine geçerek sembolik bir anlam kazanır (sessizliğin rengi, sükutun rengi).

3.Cansız nesnelerle ilgili süreçleri ifade eden fiilleri canlı varlıklara aktarmakla yaranan metaforlar. Yazar, "soyulma", "filizlenme" gibi cansız nesnelerle ilgili durumları ve eylemleri canlı varlıklara aktararak günlük dilden uzaklaşır. Fikirlerini okuyucuyu düşünmeye zorlayan entelektüel, felsefi bir üslupla sunar ve aynı kelimeleri tekrarlayarak yüksek bir ifade gücü elde eder; *Ruhundan etalet soyulacak kat-kat, lay-lay* [Qoca, 2014: 18-19]

Eserlerinde (şiirlerinde) özgün nitelikte ilginç üslup ve şiirsel metafor örnekleri yaratan yazar, aynı zamanda sanatsal ifadede de bir yenilik ortaya koymaktadır. Verilen örnekler, yazarın sadece üslubuyla değil, aynı zamanda derinlemesine düşünme yeteneğiyle de öne çıktığını doğrulamaktadır; bu yetenek, yazarın “konunun dışını değil içini, süslemeyi değil, özünü görme ve o derinliğe ulaşma” yeteneğinden kaynaklanmaktadır! [Qoca, 2015: 133].

Fikret Koca, düşünceyi sadece metaforlarla değil, metonimilerle de ifade etmede usta yazarlardandır. Bilindiği üzere, “metoniminin amacı bir nesneye, olaya, eyleme ifade gücü kazandırmaktır.” [Şireliyev, 1970: 134]. Eserlerinde metonimi, yalnızca yüksek ifade gücü, dinamizm ve duygusallık kazandıran

sanatsal bir ifade aracı olarak değil, aynı zamanda çeşitli şekillerde yaratılan bir unsur olarak da işlev görür ve farklı yönlerle yararır: a) Mekândan kaynaklanan metonimiler:

*Dalğalanır Afrika,süreti azalır ak gemilerin* [Qoca, 2015: 254].

Verilen örnekte, Afrika coğrafi bir alanın özel adıdır, ancak metonimik olarak bu coğrafi alanda yaşayan insanları, özgürlük savaşçıları ve toplumsal olayları ifade eder. "Beyaz gemiler" ifadesi sadece bir ulaşım aracı değil, yıllarca kıtayı sömüren ve zenginliğini taşıyan beyaz tenli sömürgecileri ifade eden bir metonimidir. Yazar, milyonlarca insanın direnişini ve tarihsel-politik süreci tek bir cümlede dinamik bir şekilde ifade eder. Burada metonimi sadece sanatsal bir betimleme değil, yazarın lirik-felsefi düşüncesini ve geniş dünyagörüşünü yansıtan temel ve önemli metonimik ikameler olarak işlev görmektedir.

b) Tanınmış kişilerin, tarihi ve edebi kahramanların isimlerinden üretilen metonimiler:

*Ruhum kalbimdeki sehrada Mecnundu, Leylim İbni Selamı da aldatdı, attı.* [Qoca, 2015: 7]; *Ben Kerem oğluyam, sen Esli kızı. Benden esirgeme azapı, nazı* [Qoca, 2015: 352].

Şiir örneğinde, Fuzuli geleneklerinden gelen ve herkes tarafından bilinen özel isimler tamamen farklı bir üslup düzleminden sunulmuştur. Bu özel isimler tarihi-efsanevi imgeler olarak değil, lirik kahramanın iç monologunda iç dünyasını ve duygularını ifade etmek için metonimik bir aktarım aracı olarak sunulmuştur. Yazar doğrudan "Çok yalnızım, seviyorum, acı çekiyorum" demez. "Mecnun" ve "çöl" isimleri, sonsuz yalnızlık ve manevi coşkunun ifadelerine metonimik olarak dönüştürülmüştür. Bu şekilde yazar, bir insanın içindeki duygusal savaşı dramatik ve özlü bir biçimde sunar.

Bazen yazar, metonimleri ifade ettiği fikrin içeriğiyle o kadar ustaca ilişkilendirir ki, leksik-üslupsal süreçler doğal seyrini izler ve bu

metonimilerin sanatsal üslubun "ebedi yoldaşları" olduğu sonucuna varılır [Qoca, 2014: 314].

*Hesretini satmak istedim –*

*...Nale kopardı uzak illər.*

*Nizaminin "Sensiz"i geldi,*

*Füzulinin sesi gəldi.* [Qoca, 2014: 219].

Yazar, kişisel acısını klasik mirasımızla sentezleyerek, metonimiye sadece üslupsal bir figür olarak değil, zaman ve mekan sınırlarını aşan çağrışımsal bir düşünce yapısı olarak sunar. Dünyasındaki öznel özlem, geçmişte ve şimdide yeniden canlanarak güçlü bir dram yaratır. Nizami'nin "Sensiz" ifadesi, büyük sanatçının bir gazelinin tamamına atıfta bulunur ve yalnızlığın, ayrılığın ve aşk acısının estetik bir ifadesi yerine metonimik olarak kullanılır. "Fuzuli'nin sesi geldi" ifadesindeki "ses" metonimisi, Fuzuli'nin yürek burkan şiirini, "Leyli ve Mecnun"daki çığlığı ifade eder. Bu şekilde yazar, kişisel kederini klişe ifadelerden kurtarır. Şiirdeki metonimilerin yarattığı güçlü akustik etki, yüksek bir duygusallık yaratır.

Metonimi biçimindeki imgenin somutlaştırılması, yazarın ifade tarzını yeniler: *Bu kesilen el yoludu, Hezret Abbasın koludu* [Qoca, 2015: 115].

Verilen örnekte, "yol" kelimesi coğrafi bir hareket yeri değil, geleceğe, halkın birliğine, özgürlüğe götüren manevi ve tarihi bir evrim çizgisi olarak metonimik bir şekilde kullanılmıştır. Burada metonimi, ulusal ve dini hafızamızdan ustaca yer almaktadır. Böylece, Kerbela savaşlarında su taşırken Hz.Abbas'ın kollarının kesilmesi tarihi bir gerçektir. Burada yazar, bir vücut parçasını ifade eden ismi, metonimik bir aktarım yoluyla adalet uğruna fedakarlık ve kahramanlık sembolüne dönüştürmektedir. Böylece, ideyalar için sonuna kadar savaşma duygusunu aşılacaktır.

F.Koca'nın eserinde, cümle biçimindeki ek metonimler bile güçlü bir sanatsal nitelik yaratmaktadır: *Demokratiya - çekisiz mefhuma terezi, Demokratiya - düşünce tarzı. Yaşayış terzi, ahlak tarzı* [Qoca, 2015: 181].

Yazarın edebi eserlerinde metonimi, imgenin özlü ve en mecazi ifadelerinden biridir. Metonimilerin şiirsel metne uyarlanması, üslup açısından diğer dil birimlerini de harekete geçirir.

Fikret Koca, hem düzyazıda hem de şiirde ironi ve eleştiri yaratmak için üslupsal bir figür olarak sinekdoku yoğun bir şekilde kullanır. Sinekdok temelde “bir şeyin niceliksel bir işarete dayanarak diğerinin üzerinden geçmesi sonucu” oluşur [Efendiyeve, 2011: 152].

Fikret Koca, iki durumda sinekdok kullanır: 1.Toplumun durumunu, kusurlarını göstermek için: *Eskiden Keçel Hamza bir idi, indi hara bakırsan, Keçel Hamzalar, Koroğlular, deli yigidler azalıb* [Qoca, 2015: 113].

Metindeki en büyük üslup hilesi, destan kahramanlarının özel isimleri olan “Koroğlu” (cesaret, dürüstlük sembolü), “Keçel Hamza” (kurnazlık sembolü) isimlerinin sinekdoka dönüştürülmesidir. Özel isimler aracılığıyla mevcut toplumun ahlaki, sosyo-psikolojik yönlerine değinen yazar, bu ahlaki niteliklerin sıradanlaştığını belirterek bu konudaki endişesini dile getirir. Ulusal destan, modern çağın toplumsal manzarasını tanımlarken düşüncelerimizden yararlanır ve eserlerine keskin bir özlülük ve satirik-ironik bir ton kazandırır.

Yazar, yalnızca özel isimlerle değil, genel isimlerle de sanatsal ve ifade açısından güçlü sinekdok örnekleri yaratıyor: *İndi o şəngülümlər məni yaxına qoymur* [Qoca, 2015: 18].

Örnekte, bir halk masalı karakterinin adını sinekdoka dönüştüren yazar, bu yolla yeni ahlaki ve etik yönleri keskin bir şekilde eleştiriyor. Aynı zamanda, sinekdok, metinde güçlü üslup nüanslarıyla ortaya çıkarak dilin estetik tezahürüne hizmet eder.

Yazar ayrıca, karmaşık sıfatların öz-durumlaştırılması sonucu yarattığı sinekdoklar aracılığıyla eserlerinin dilini zenginleştiriyor: *Səni görərəm sonra orda qırmızıdodaqlıların birinə ilişərsən ha...* [Qoca, 2014: 55].

Örnekte, üslup açısından sinekdok sadece dışsal etkiyi artırmak için değil, aynı zamanda lirik kahramanı yolundan saptırabilecek, onu büyüleyebilecek bir tehlikeyi de sembolize eder. “Kırmızı Dudak” sinekdoku, karşı tarafın çekiciliğini



ve aldatıcı, cazip yönünü doğrudan vurgular. Bu da ifadeye yüksek duygusallık ve ifade gücü kazandırır. Kelimenin üslup ruhunu hisseden Fikret Koca, onu ustaca sanatsal ruh haline yönlendirerek bu kelimelere farklı yollar ile yeni bir edebi hayat kazandırmayı başarır.

2.Olumlu ahlaki ve manevi niteliklerin tanıtımı sırasında: *Orda yeni Amilkarlar, partizanlar*. [Qoca, 2015: 271]; *Harada Vatan çağırırsa, ora Çingizler gider*[Qoca, 2015: 208].

Yazar, vatan sevgisini ve cesareti sembolize eden isimlerin yanı sıra kahramanların isimlerini ifade eden isimleri kullanarak unsurun güzel örneklerini yaratır. Bu, hem şiirin ifade gücünü artırır hem de gençlere olumlu yönler aşılar.

Başka bir yerde, zamirlerin isimleştirilmesiyle yaratılan örtmece, anlamlı mecazlar aracılığıyla Mama Zeyni örneğinde geçmişteki ahlaki ve etik değerlerin görsel bir tasvirini sunar ve esere tarihsel bir renk katar: *Ay dede, hamının gedeni geldi, seninkilerden gelen olmadı, ay dede. O, erini, oğlunu nezerde tuturdu. Amma atasının qebri yanında onların adını çekmekten utanırdı. Ele “seninkiler”deyib ağlayırdı* [Qoca, 2014: 168].

Yaratıcı süreçte metonimi ustaca kullanan yazar, sanat eserlerine hem duygusallık hem de yüksek özlü ve özlü bir üslup katıyor.

F.Koca'nın metafor, metonimi ve metonimi oluşturmadaki benzersiz üslubu, bireysel olarak kendini gösteriyor. Üslup figürlerinden yararlanan ifade özgünlüğü, yazarın kaleminde yüksek bir sanatsal betimleme seviyesine ulaşıyor ve bireysel üslup, şiirsel dilinin en karakteristik özelliklerinden biri olarak öne çıkıyor.

Metafor, metonimi ve metonimi, Fikret Koca'nın sanat eserlerine yeni bir soluk getiriyor. Yazar, bu üslup figürlerini kullanarak geleneksel deyimsel biçimlerden sapıyor, fikirlerine yeni anlam tonları ve üslup renkleri katıyor.

Kaynakça:

- 1.Бегашвили А.Ф. Философия и поэзия: Философские проблемы поэтической речи. Тбилиси: 1973. с. 79.
- 2.Celal Demir. Özge Karakaş Yıldırım. Türkçede Metaforlar ve Metaforik anlatımlar. Afyon Kocatepe Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, cilt 21, sayı 4. 2019, - 1085-1096 s.
- 3.Əfəndiyeva T. Azərbaycan dilinin leksik üslubiyyatı. Bakı: Elm və təhsil. 2011. 252 s.
- 4.Фрейдсберг О.М. Античные теории языка и стиля. Ленинград: 1936. с.185

- 5.Qoca Fikrət. Seçilmiş əsərləri. - Bakı: UniPrint, - 2014, - I cild, – 389 s.
- 6.Qoca Fikrət. Seçilmiş əsərləri. - Bakı: UniPrint, - 2014, - II cild, – 389 s.
- 7.Qoca Fikrət. Seçilmiş əsərləri. - Bakı: UniPrint, - 2015, - III cild, – 380 s
- 8.Qoca Fikrət. Seçilmiş əsərləri. - Bakı: UniPrint, - 2015, - IV cild, – 377 s.
- 9.Qoca Fikrət. Seçilmiş əsərləri. - Bakı: UniPrint, - 2015, - V cild, – 387 s.
- 10.Qoca Fikrət. Seçilmiş əsərləri. - Bakı: UniPrint, - 2015, - VI cild, – 367 s
- 11.Qoca Fikrət. Seçilmiş əsərləri. - Bakı: UniPrint, - 2015, - VIII cild, – 389 s.
- 12.Qoca Fikrət. Seçilmiş əsərləri. - Bakı: UniPrint, - 2015, - IX cild, – 397 s.
- 13.Şirəliyev M.Ş. Budaqova Z.İ. Azərbaycan bədii dilinin üslubiyyatı: oçerklər. Bakı, Elm, 1970. – 357 s.

## **DETEKTIV ROMANLARGA XOS BO‘LGAN LINGVOPRAGMATİK JIHATLAR TAHLILI**

***Bekova Nazora Jo‘rayevna,**  
BuxDUi professori, filologiya fanlari doktori  
**Soliyev Firuz Furqatovich,**  
BuxDUi mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Detektiv romanlar tahlili turli jihatlardan olib borilgan. Jumladan, asarlarning lingvistik tahlilida morfologiya, fonologiya, sintaksis, semantika va pragmatika kabi til tizimlari tadqiq qilingan. Mazkur maqola ham lingvistik tahlil yo‘nalishida bo‘lib, unda o‘quvchini chalg‘itish va adashtirish maqsadida detektiv romanlarda qo‘llaniladigan turli pragmatik hamda stilistik vositalar o‘rganiladi. Muammo shundaki, o‘quvchilar haqiqatni aniqlashga urinish chog‘ida qiyinchiliklarga duch keladi. Ijodkor haqiqatni yashirish va o‘quvchini chalg‘itish uchun maxsus usullardan foydalangani sababli, ular to‘g‘ri yechim topa olmasligi yoki xato xulosaga kelishi mumkin. Ushbu tadqiqot aynan shu usul va vositalarni, ya’ni bir tomondan pragmatik vosita sifatida Grays maksimlari va noaniqlikni, ikkinchi tomondan esa stilistik vosita sifatida ma’lumotni yashirish, orqa fonga o‘tkazish va fokalizatsiyani o‘rganishni maqsad qiladi.

**Kalit so‘zlar:** stilistika, fokalizatsiya, detektiv syujet, yashirin ma’no pragmatikasi, Grays maksimlari, ko‘pma’nolilik.

**Annotation:** The analysis of detective novels has been conducted from various perspectives. In particular, linguistic systems such as morphology, phonology, syntax, semantics, and pragmatics have been researched within the linguistic analysis of these works. This article also follows the direction of linguistic analysis, examining the various pragmatic and stylistic devices used in

detective novels to mislead and misdirect the reader. The problem is that readers face difficulties when trying to determine the truth. Because the author uses specific techniques to conceal the truth and mislead the reader, they may be unable to find the correct solution or may arrive at the wrong conclusion. This research aims to study these very methods and devices: namely, Grice's maxims and ambiguity as pragmatic devices on the one hand, and on the other, the concealment, backgrounding, and focalization of information as stylistic devices.

**Keywords:** stylistics, focalization, detective plot, concealment pragmatics, Grice's maxims, ambiguity.

Tilning kuch va qudratini hech kim inkor etolmaydi. Til – odamlarning ongi, tafakkuri va tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish orqali ularni manipulyatsiya qilish, aldash hamda nazorat ostida ushlab turish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan o‘ta xavfli va kuchli vositadir. Bu maqsadda turli usullardan foydalaniladi, biroq ularni ehtiyotkorlik bilan va zarurat tug‘ilgandagina qo‘llash lozim, aks holda tushunmovchilik, adashish va mavhumlikka olib kelishi mumkin.

Detektiv janri ma’lumotlarni qahramondan qahramonga, hikoyachidan o‘quvchiga va muallifdan kitobxonga mohirona yetkazishni talab qiladigan adabiy janrdir. Ayrim detektiv asarlar kuchliroq hayajon uyg‘otish yoki o‘quvchi taxminlarini chalg‘itish uchun an’anaviy til qoliplaridan chetga chiqadi. Barcha ma’lumotlar ham oshkor etilmaydi va aynan shu holat bunday asarlarni juda qiziqarli qiladi, chunki ular o‘quvchilar e’tiborini tortib, voqealar rivojini bilishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi [Dine, 1928: 22].

Detektiv – badiiy asarlarning shunday bir janriki, unda odatda izquvar (detektiv) bo‘lgan qahramon qandaydir jinoyat yoki sirni fosh etishga harakat qiladi. Bunday asarlarda detektiv bosh qahramon, qolganlar esa gumonlanuvchilar hisoblanadi. Har bir gumonlanuvchining jinoyatni sodir etish uchun o‘z sababi va imkoniyati bo‘ladi. Katta qiziqish va hayajonga boy bu kabi badiiy asarlar roman yoki hikoya shaklida bo‘lishi mumkin. Mualliflar ko‘pincha badiiy tasvir vositalari, voqealar rivojiga ishora qilish va o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydigan mantiqiy bo‘shliqlardan foydalanadilar. Ular dalillarni yashirishi yoki

o'quvchini chalg'itish uchun "aldamchi hiyla"larni qo'llashi mumkin [Niyazov, 2023: 117]

Skaggs (2005) fikricha, barcha detektiv romanlar ham ushbu janrning an'anaviy qolipiga mos kelavermaydi, biroq aksariyat detektiv romanlar rioya qiladigan muayyan bir tuzilma mavjud. Odatda qotillik, odam o'g'irlash yoki yirik o'g'rilik ko'rinishidagi jinoyat asar boshida yoki hech bo'lmaganda uning birinchi yarmida sodir bo'lishi kerak. Qolaversa, asar boshida qahramonlar va ularning tavsiflari ham tanishtiriladi. Jinoyat qismidan so'ng aybdorning kimligini va jinoyat qanday sodir etilganini aniqlash uchun politsiya xodimlari yoki detektivlar tomonidan olib boriladigan tergov boshlanadi. Ular gumonlanuvchilar bilan surishtiruv o'tkazib, ularga savollar beradi. Shuningdek, ular haqiqatni yuzaga chiqarishga yordam berishi mumkin bo'lgan dalillarni izlaydi. So'ngra voqealar rivojida kutilmagan yangi burilish yuz beradi yoki qahramonlari o'quvchilarni hayratga soladigan yangi bir dalil yoxud kashfiyot paydo bo'ladi. Shundan keyin detektiv sirni fosh etib, jinoyat qanday va kim tomonidan sodir etilganini tushuntirish orqali jumboqning barcha bo'laklarini joy-joyiga qo'yadi. Xulosa qilib aytganda, barcha sirli savollarga javob topiladi va aybdor qo'lga olinadi. [Scaggs, 2005: 10].

Detektiv janrda matnni hikoya qilishning ko'plab usullari mavjud. Hikoyachi shaxsi birinchi, uchinchi, hatto ikkinchi shaxs tilidan ham bo'lishi mumkin. Agar voqea uchinchi shaxs olmoshlari yordamida hikoya qilinsa - bu usul, shuningdek, tashqi rakurs, muallif ishtirokisiz bayon deb ham ataladi - muallifning nuqtai nazari aniq bo'lmaydi. U shunchaki voqealar va qahramonlarni tasvirlaydi. Bunda qahramonlarning o'y-fikrlari va his-tuyg'ulari ham to'liq ochib berilmaydi. Aksincha, ichki rakursda, ya'ni birinchi shaxs olmoshlari orqali bayon qilingan hikoyada, hikoyachining fikr va tuyg'ulari yaqqol ko'rinib turadi. Ikkinchi shaxs olmoshlari esa hikoyachi tinglovchilarga yoki o'quvchilarga murojaat qilganida qo'llanadi. [Simpson, 2004: 26]. Asosiy e'tibor detektiv romandagi jumboqni yechish uchun muhim bo'lgan ma'lumotning roman so'nggida yechim sifatida ochib berilguncha qanday yashirilishiga qaratiladi. Bundan maqsad -

kutilmaganlik va hayrat hissini uygʻotish orqali oʻquvchi qiziqishini asar soʻngigacha saqlab turadi. [Eco, 1983: 98].

Detektiv janri matnlarida Pol Graysning kommunikativ maksimlari (Gricean Maxims) buzilishi nafaqat lingvistik hodisa, balki syujetni harakatlantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Graysning hamkorlik tamoyili asosidagi 4 maksimlari detektiv romanda tez-tez qoʻpol ravishda ataylab buziladi. Bunga sabab janr uchun muhim sifatlarni avj nuqttagacha saqlab qolishdir. Ushbu tamoyil toʻrtta qoidani oʻz ichiga oladi. Detektiv janrining tabiati sirli va axborotning cheklanganligiga asoslanadi. Muallif kitobxon va tergovchini chalgʻitish uchun qahramonlar nutqida ataylab Graysning kommunikativ maqsadlarini buzadi. Bu esa matnda yashirin maʼno (implikatura) paydo boʻlishiga olib keladi. [Tasmasys, 2023: 182]. Miqdor maksimi (Maxim of Quantity) buzilishi. Bu Maksim kerakli miqdorda maʼlumot berishni talab qiladi. Detektiv asarlarda jinoyatchi yoki guvohlar ikki xil yoʻl bilan buni buzishadi: Maʼlumotni yashirish – qahramon juda qisqa javob beradi.

Misol: Tergovchi: "Oʻsha kecha qayerda edingiz?" – Gumonlanuvchi: "Uyda". (Aslida u uyda boʻlgan, lekin uyda kim bilan yoki nima ish qilganini aytmaydi). Ortiqcha maʼlumot berish: Chalgʻitish uchun keraksiz detallarni koʻpaytirib yuborish. Sifat maksimi (Maxim of Quality) buzilishi. Bu yerda soʻzlovchi faqat oʻzi rost deb bilgan maʼlumotni berishi kerak. Detektivda eng koʻp uchraydigan holat yolgʻon maʼlumot. Jinoyatchi ongli ravishda yolgʻon gapiradi. Biroq, lingvistik jihatdan bu yolgʻon matnda "sirli ishora" boʻlib xizmat qiladi. Jinoyatchi oʻz aybini tan olish oʻrniga majoziy tilda metafora va kinoya orqali gapirishi mumkin. (masalan, Omon Muxtorning "Moʻjiza" asaridagi falsafiy javoblar). Aloqa maksimining (Maxim of Relation) buzilishida soʻzlovchi berilgan savoldan qochib savolga aloqador boʻlmagan javobni beradi. Gumonlanuvchi oʻzi uchun xavfli savol berilganda, suhbatni mutlaqo boshqa yoʻnalishga burib yuboradi va mavzuni oʻzgartiradi. Misol: "Qurol haqida nima deya olasiz?" – "Bugun havo juda issiq, shunday emasmi?". Bu yerda aloqa maksimining buzilishi detektiv uchun "aybdorlik ishorasi" sifatida xizmat qiladi (Rzepka & Horsley, 2010, 200 p.). Usul (Manner) maksimi buzilishida fikrni aniq,

qisqa va tushunarli bayon qilinmaydi. Stiven Kingning “Mister Mercedes” asarida Bredining maktublari ko‘pincha mavhum va ikki ma’noli bo‘ladi. Bu tergovchining ongini chalg‘itish va uni qo‘rquvda ushlab turish uchun ishlatiladigan pragmatik strategiyadir.

Detektiv mazmunida Grays maksimlarini qasddan yoki bexosdan buziladi. Qasddan buzish usuli flouting deb ataladi. Maksimlarni qasddan buzishdan hazil qilish, javobdan qochish, yolg‘on gapirish, niqoblanish va chalg‘itish kabi ko‘plab maqsadlarda foydalaniladi. Grays maksimlarini buzish nuqtayi nazaridan chalg‘itish strategiyalari haqida kam yozilgan. Ammo eng so‘nggi tadqiqot Gupta va boshqalar (2013) tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ular chalg‘itish hodisasini Grays tamoyili va uning to‘rtta maksimlarni buzish asosida ko‘rib chiqqanlar. Gupta va boshqalarning fikricha (Dyner, 2018, 234-betda keltirilishicha), chalg‘itishning bir necha turlari mavjud bo‘lib, ular qaysi maksim buzilganiga qarab tasniflanadi.

Tadqiqot detektiv romanlarda til qo‘llanishini hamda detektiv asarlar mualliflari o‘z o‘quvchilarini chalg‘itish maqsadida muayyan pragmatik vositalardan qay tarzda foydalanishini tahlil qildi. Avvalo, muallif, hikoyachi yoki hatto qahramonlardan birining haqiqatni berkitish va jumboq yechimini parda ortida qoldirish uchun Graysning bir yoki bir necha maksimlarini buzish orqali hamkorlikdan qochishga moyilligi o‘rganiladi. Tadqiqot davomida Grays maksimasini buzish bilan bog‘liq 40 ta holat aniqlandi. Statistik natijalarga ko‘ra, detektivda eng ko‘p buziladigan maksimlar Miqdor va Sifat maksimlari bo‘lib, ular mos ravishda umumiy miqdorning 45% va 35% ni tashkil etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, detektiv romanlarning pragmatik va stilistik sathdagi tahlili ularning o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish hamda chalg‘itish uchun pragmatik va stilistik vositalarga va usullarga boyligini ko‘rsatadi (Safarik, 2010, 4 b). Mazkur tadqiqot natijalari bu kabi pragmatik va stilistik vositalarning ingliz detektiv romanlariga xos ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ular o‘quvchini ataylab chalg‘itish maqsadida qo‘llaniladi. O‘quvchilarning haqiqatni anglay olmasligiga sabab, mualliflarning to‘g‘ri xulosa chiqarish jarayoniga



to'siqlar qo'yib, ularning xulosa qilish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ushbu usul va vositalardan ongli ravishda foydalanishidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Niyazov R. (2023) Zamonaviy detektiv janr xususiyatlari va badiiy o'ziga xosligi talqini // Periodica: Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. T. 15. – fevral. – ISSN 2720-4030.– 116 -120 bb.
2. Dine V., Twenty rules for writing detective stories // America magazine, 1928.
3. Abdullayeva M., Tangirov A. A. (2025) Detective genre and philosophical approach in the works of Agatha Christie // International Multi Disciplinary Journal for Research & Development. Vol. 12, Issue 12. – B. 1120. – eISSN 2394-6334.
4. Scaggs, J. (2005). Crime Fiction: The New Critical Idiom. London: Routledge.
5. Кестхейи Т. (1989) Анатомия детектива. Следствие по делу о детективе //Т. Кестхейи. – Будапешт: Корвина, 261 с.
6. Tasmayys O. O. (2023) The development of a detective story in cultural and historic perspective // [Journal/collection title if known]. No. 13. – Art. 27. – DOI: <https://doi.org/10.32447/2663-340X-2023-13.27>
7. Eco U. (1983) Narrative Structures in Fleming //The Poetics of Murder: Detective Fiction and Literary Theory. San Diego, N. Y., London: Harcourt Brace Jovanich, P. 97.
8. Rzepka, C. J & Horsley, L (2010). A companion to crime fiction. Wiley-Blackwell Press
9. Muxtorov O., (2008) Mo'jiza, Davr press,. 256 b.
10. Safarik, N. (2010). The representation of detective and criminal and its moral relevance in select works of detective fiction (Master's thesis, Karl-Franzens-Universität Graz). <https://unipub.uni-graz.at/download/pdf/>
11. Rachel H. (2018) The Ethical Detective: Moral Philosophy and Detective Fiction. Lexington, 2018. 267 pp.

## **TARIXIY TERMIN TUSHUNCHASINING LINGVISTIK MOHIYATI**

***Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinovna,***  
*Qo'qon DU professori, filologiya fanlari doktori*  
***A'zamova Shahzodaxon Otaqo'zi qizi,***  
*Qo'qon DU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarixiy termin tushunchasining tarixiy shakllanishi, lingvistik ta'rifi va mohiyati, ilmiy jihatlari, zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni, boshqa terminlardan farqi hamda til tizimidagi vazifalari ketma-ket yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** termin, lingvistika, terminologiya, atama, istiloh, nominativ vazifa, ko'p ma'nolilik, inqilob, leksik-semantik birlik, tirik lingvistik materiya, amirlik, xonlik, buyuk depressiya.

**Annotation.** This article consistently examines the concept of the historical term, including its historical formation, linguistic definition and essence, scientific



aspects, its place in modern linguistics, its differences from other types of terms, and its functions within the language system.

**Keywords:** term, linguistics, terminology, appellation, expression, nominative function, polysemy, revolution, lexical-semantic unit, living linguistic material, emirate, khanate, Great Depression.

Dunyo tilshunosligida leksikologiya til haqidagi fanning rivoj topgan va takomilga erishgan sohasi hisoblanadi. Til lugʻat tarkibi makrosemantik va mikrosemantik maydonlarga, ular, oʻz navbatida, muayyan mavzuiy va leksik-semantik guruhlariga ajratish asosida tizimli tadqiq etilgan. Bugungi kunda ham miqdor, ham sifat jihatidan boyib, takomillashib borayotgan til lugʻat tarkibini, jumladan, kasb-hunar nomlarining leksik-semantik va derivatsion xususiyatlarini tarixiy va zamonaviy aspektlarda tadqiq etish kun tartibidagi zarur vazifalardan biriga aylandi.

Oʻzbek adabiyotida tarixiylikni badiiy tasvirlash anʼanasi qadimiy ildizlarga ega boʻlsa-da, zamonaviy nasrda tarixiy terminlarning lingvopoetik xususiyatlarini maxsus tadqiq etish masalasi hali yetarlicha yoritilmagan. Ayniqsa, taniqli yozuvchi Tohir Malik asarlarida tarixiy terminlarning tizimli qoʻllanilishi, ularning semantik va stilistik yuklamasi, badiiy-estetik vazifasi ilmiy jihatdan kompleks tahlilni talab etadi. Bugungi globallashuv va madaniy integratsiya jarayonlarida milliy tarixiy xotirani badiiy matn orqali saqlash va avlodlarga yetkazish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan boʻlsak, uni aynan innovatsion gʻoyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”<sup>1</sup>. Shu bois Tohir Malik asarlaridagi terminlarning lingvistik mohiyati madaniy-maʼrifiy ahamiyatga ham ega.

**Tarixiy termin** – bu tarix faniga oid maxsus tushunchani ifodalovchi soʻz yoki soʻz birikmasidir. Boshqacha aytganda, tarixiy terminlar – insoniyat tarixiga doir hodisa, davr, institut yoki boshqa konseptlarni nomlash uchun ishlatiladigan ilmiy atamalardir. Termin umumiy lugʻat tizimining bir qismi boʻlib, tilning

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2018. – B. 20.

maxsus leksik qatlami – terminologiyani shakllantiradi<sup>1</sup>. Terminlarga xos jihat shuki, ular maxsus ma’no doirasiga ega bo’lib, odatda bir ma’noli bo’lishga va hissiy neytrallikka intiladi<sup>2</sup>. Tarixiy terminlar ham shu xususiyatlarga ega, ammo ular o’ziga xos tarzda **tarixiy ijtimoiy mazmunni** ham ifoda etadi.

Tarixiy terminlarning shakllanishi, ilmiy-ta’rifiy izohi, zamonaviy tilshunoslikdagi o’rni, boshqa turdagi terminlardan farqi va til tizimidagi funksiyalari haqida chuqur ilmiy izohlar berish zarur. Bu masala XXI asr tilshunosligida dolzarb, chunki hozirgi paytda tarix fani va tilshunoslik orasidagi aloqadorlikka e’tibor ortib bormoqda. Tarixiy terminlarni chuqur o’rganish nafaqat ilmiy-nazariy ahamiyatga ega, balki tarixiy ma’lumotlarni to’g’ri talqin etish va madaniy merosni anglash uchun ham muhimdir. Quyida tarixiy termin tushunchasining tarixiy shakllanishi, lingvistik ta’rifi va mohiyati, ilmiy jihatlari, zamonaviy tilshunoslikdagi o’rni, boshqa terminlardan farqi hamda til tizimidagi vazifalari ketma-ket yoritiladi.

Tarixiy termin tushunchasining shakllanishi. “**Termin**” tushunchasi ilm-fan va tilshunoslikda nisbatan kech shakllangan. Ilk bor XIX asrda ayrim fan sohalarida atamalarga e’tibor qaratila boshlagan bo’lsa-da, faqat XX asr boshlaridagina terminlarga ilmiy yondashuv shakllana boshladi. Ma’lumki, hozirgi ma’nodagi terminologiya fani 1930-yillarda avstriyalik olim E. Vüster ishlariga asos solgan bo’lib, u zamonaviy terminologiya fanining asoschisi sifatida e’tirof etiladi<sup>3</sup>. Vüster va uning izdoshlari terminlarni aniq va bir ma’noli standartlash tarafdori bo’lib, bu yondashuv dastlab tabiiy-ilmiy va texnik sohalardagi atamalarni tartibga solishga qaratilgan edi. Natijada, **terminologiya** mustaqil tadqiqot sohasi sifatida shakllandi va terminlarni umumiy lug’atdan ajratib o’rganish, ularning muayyan sohadagi rolini belgilash nazariyasi yaratildi<sup>4</sup>.

Tarixiy sohaga oid atamalar – **tarixiy terminlar** – ham asta-sekin ilmiy tadqiq etila boshlandi. XIX asrgacha tarix fanida ishlatilgan terminlar alohida

---

<sup>1</sup> A.Bozorbekov. Logistika terminologiya tizimining xususiyatlari. 191-196 b. Сўз санъати халқаро журнал. 5-жилд 2-сон.

<sup>2</sup> O’zbekiston milliy ensiklopediyasi: “Termin” maqolasi

<sup>3</sup> O’zbekiston milliy ensiklopediyasi: “**Termin**” maqolasi

<sup>4</sup> O’zbekiston milliy ensiklopediyasi: “**Termin**” maqolasi

o'rganilmagan, tarixchilar asosan matn mazmuniga e'tibor qaratib kelganlar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tarix fani rivojlanib, tarixiy manbalarni tanqidiy o'rganish (manbashunoslik) paydo bo'lishi bilan, tarixiy matnlardagi **atamalarni tushunish muammosi** yuzaga keldi. Chunki qadimiy manbalar mualliflari o'z davrining maqsad va tafakkuriga mos atamalar tizimini yaratgan bo'lib, bu tizimni to'g'ri anglash zamonaviy tadqiqotchi uchun muayyan qiyinchilik tug'dirar edi. Shu sababli tarixiy terminlarga e'tibor kuchayib, ularning ma'nosini aniqlash va izohlashga ehtiyoj tug'ildi.

O'zbek tilshunosligida ham teminologiya masalalariga qiziqish XX asrda shakllandi. "Termin" so'zi o'zbek tiliga ilmiy muomalaga kirib kelganiga bir asrga yaqin vaqt bo'ldi. Bungacha "**atama**" va "**istiloh**" so'zlari qo'llanib, istiloh asosan tarixiy mavzudagi matnlarda termin ma'nosida ishlatilgan. Hozirgi paytda "termin", "atama" va "istiloh" so'zlari deyarli sinonim sifatida qo'llansa-da, "atama" kengroq ma'noda va toponimik nomlar uchun ham ishlatiladi, "istiloh" esa ayniqsa tarixga oid matnlarda **termin** o'rnida uchraydi. Bu lingvistik tafovut tarixiy termin tushunchasining shakllanishida tilimizdagi an'anaviy tushunchalarning ham ishtirok etganini ko'rsatadi.

XX asr o'rtalaridan boshlab tarixiy terminlar maxsus tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Soha tadqiqotchilari tarixiy terminlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga kirishdilar. Ayniqsa sobiq Ittifoq davrida va mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda tarixiy atamashunoslik bo'yicha ishlar olib borildi. Masalan, tarix fanining turli davrlariga oid **administrativ, siyosiy atamalarni** to'plash va ularning izohini berish yuzasidan lug'atlar yaratildi. Bugungi kunda tarixiy terminlar nafaqat tarixchilarning, balki tilshunoslarning ham qiziqish sohasiga kiradi – bu atamalar til tizimida qanday shakllangan, qanday ma'no o'zgarishlariga uchragan va bugungi kunda ilmiy tushunchalar sistemasida qanday o'rin tutishini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Tarixiy terminlar til tizimida alohida ahamiyatga ega qatlam bo'lib, ular bilimlarni nomlash va tasniflash, uzatish, saqlash kabi fundamental lingvistik

vazifalarni bajarib, tilning umumiy kommunikativ va kognitiv qudratini oshiradi. Tarixiy terminlarning funksiyalarini chuqur anglash – terminologiyani to‘g‘ri qo‘llash, tarixiy matnlarni to‘g‘ri talqin qilish va ilmiy tadqiqot samaradorligini ta’minlash uchun zarur.

Xulosa qilish mumkinki, **tarixiy termin** – bu tarix faniga oid tushunchani ifodalovchi ilmiy atama bo‘lib, u murakkab lingvistik hodisa sifatida alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Tarixiy termin tushunchasi o‘z taraqqiyoti davomida shakllandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 20.
2. Горбачев К. А. Особенности интерпретации исторического термина. .- в е с т н и к вятского государственного гуманитарного университета н а у ч н ы й ж у р н а л № 2 Киров 2015 109-113с
3. A.Bozorbekov. Logistika terminologiya tizimining xususiyatlari // Сўз санъати халқаро журналі. 5-жилд, 2-сон. – Б.191-196.

## **TÜRK MƏNŞƏLİ ONOMASTİK VAHIDLƏRİN LİNVOKULTUROLOJİ ASPEKTİ**

*Arzu İsmi qızı Ibrahimova,  
Azərbaycan Dövlət Pedaqoji Universiteti  
Filologiya fakültəsinin dekan müavini*

**Xülasə.** Məqalədə türk mənşəli onomastik vahidlər linqvokulturoloji aspektdən tədqiq edilir. Antroponim, toponim, etnonim və hidronimlərin türk xalqlarının milli təfəkkürü, etnik yaddaşı və mədəni dünyagörüşü ilə bağlılığı araşdırılır. Türk mənşəli adların semantik quruluşunda mifoloji təsəvvürlər, sakral inanclar, təbiət kultu və sosial-mədəni münasibətlərin əksi təhlil olunur. Tədqiqat nəticəsində müəyyən edilir ki, onomastik vahidlər yalnız nominativ funksiya daşımır, həm də xalqın tarixi, psixologiyası və mədəni kimliyini yaşadan linqvokulturoloji sistem kimi çıxış edir.

**Açar sözlər:** Onomastika, linqvokulturologiya, türk mənşəli adlar, antroponimlər, toponimlər, etnomədəni yaddaş, mədəni kod, semantika, mifoloji təfəkkür, türk dili.

**Summary.** The article studies onomastic units of Turkic origin from a linguocultural aspect. The connection of anthroponyms, toponyms, ethnonyms and

hydronyms with the national thinking, ethnic memory and cultural worldview of the Turkic peoples is investigated. The reflection of mythological concepts, sacred beliefs, nature cult and socio-cultural relations in the semantic structure of names of Turkic origin is analyzed. As a result of the study, it is determined that onomastic units do not only carry a nominative function, but also act as a linguocultural system that preserves the history, psychology and cultural identity of the people.

**Keywords:** Onomastics, linguoculturalology, names of Turkic origin, anthroponyms, toponyms, ethnocultural memory, cultural code, semantics, mythological thinking, Turkish language.

The problems of onomastics and linguoculturology have been widely studied in the Azerbaijani linguistic school. Agamusa Akhundov, studying the semantic features of proper names in the Azerbaijani language, particularly emphasized their connection with national thinking. In his opinion, onomastic units are one of the systems that preserve the most ancient layers of the language.

In the linguoculturological approach, proper names are considered as a “cultural code”. Each onomastic unit is a form of a certain historical event, mythological concept or socio-cultural reality encoded in the language. From this point of view, proper names act as a semiotic system that preserves the collective memory of the people (Alizadeh, 2017, p. 52). Afad Gurbanov, noting the importance of systematic study of Azerbaijani onomastics, introduced the analysis of proper names from a historical-etymological and structural perspective into scientific circulation. His research shows that anthroponyms and toponyms are closely related to national-cultural identity.

Nizami Jafarov, studying the relationship between language and the national system of thought within the framework of the linguoculturological approach, noted that proper names are one of the main means of reflecting the worldview of the people. In his opinion, language is a direct indicator of national thinking, and onomastic units constitute the most stable layer of this thinking.

Buludkhan Khalilov, studying the functional-semantic characteristics of onomastic units in the Azerbaijani language, showed that they actively function in the modern language system as well. He noted that proper names carry both historical and modern cultural information.

Maharram Gasimli studied the connection of proper names with folk creativity in the folklore and ethnocultural context, and showed that they were formed in close connection with mythological thought.

In the conditions of modern globalization, the preservation of proper names is considered an important issue in terms of maintaining national identity. In many cases, the change of historical toponyms or exposure to foreign influences affects the cultural memory of the people. Therefore, the study of proper names from a historical-etymological and cultural perspective is of particular relevance in linguoculturological studies. Onomastic units are one of the important language categories that reflect the national-cultural memory and worldview of each people. In modern linguoculturological studies, proper names are studied not only as a means of naming, but also as an indicator of the historical, mythological and ethnopsychological thinking model of the people (Lotman, 2000, p. 39). In this regard, onomastic units of Turkic origin are considered important carriers of ancient Turkic culture and ethnic thinking. In modern linguistics, linguoculturology is considered one of the important scientific directions that studies the mutual relations between language and culture. In this area, proper names — anthroponyms, toponyms, ethnonyms, hydronyms and other onomastic units — are of particular importance as the main linguistic facts reflecting the national thinking, ethnic memory and cultural identity of the people. According to the linguoculturological approach, proper names perform not only a nominative function, but also preserve the historical and cultural experience, worldview and moral values of a particular people (Lotman, 2000, p. 44). Proper names are one of the important components of the collective memory of the people. Each anthroponym or toponym arises in connection with a certain historical event, mythological concept or social relationship. From this point of view, proper names

are considered a “verbal code” of cultural information. For example, among the Turkic peoples, anthroponyms such as “Aykhan”, “Elkhan”, “Göytekın” reflect the ancient Turkic cosmogonic thought and the concept of power (Gökalp, 1976, p. 151).

Anthroponyms also have an important significance from a linguocultural point of view. Personal names reflect the aesthetic thinking of the people, their religious beliefs, heroic ideals and social values. In Turkic peoples, names given to children have often been associated with the concepts of strength, courage, holiness and happiness (Gumilev, 1993, p. 163). The tradition of naming in Turkic peoples has had a sacred character since ancient times. The concepts of courage, strength, nature and holiness have occupied a special place in anthroponyms. Traces of Turkish mythological and cultural thought are clearly visible in names such as “Aslan”, “Turan”, “Altay”, “Aybeniz”, “Elkhan”, “Göytekın” (Gökalp, 1976, p. 148). These names are not only a means of individual identification, but also an expression of national ideals and spiritual values.

Toponyms are considered one of the richest cultural sources among proper names. Geographical names reflect the historical settlement of the people, their relationship with nature and their socio-cultural life. For example, in toponyms of Turkic origin such as “Ağsu”, “Göyçe”, “Altay”, both color symbolism and nature cult are manifested (Baskakov, 1988, p. 224). These names are elements of cultural memory that carry the ancient worldview of the people to the modern era. Toponyms of Turkic origin reflect the geographical memory of the people and their worldview related to nature. In geographical names such as “Qaradağ”, “Göygöl”, “Tanrı dağı”, color symbolism, nature cult and mythological thought are manifested (Ögel, 1993, p. 112). In Turkish thought, “göy” acted as a symbol of holiness and exaltation, and “qara” as a symbol of power and greatness. In this regard, toponyms are considered an important source of ethnocultural information. Ethnonyms are also of particular importance in the linguistic and cultural aspect. Ethnonyms such as “Oguz”, “Kipchag”, “Uyghur”, “Qarluq” are not only tribal names, but also cultural units reflecting the stages of social and historical



development of the Turkic ethnos (Gumilev, 1993, p. 156). These names have continued to live throughout history, preserving the collective memory and ethnic affiliation of the people. Ancient beliefs and mythological thinking are also reflected in hydronyms of Turkic origin. Since water was considered sacred among the ancient Turks, sacral elements are often found in the names of rivers and lakes. Hydronyms such as “Araz”, “Kur”, “Yenisei” are not only geographical names, but also examples of historical and cultural memory (Baskakov, 1988, p. 219). Toponyms and anthroponyms act as the main carriers of national memory in the Azerbaijani linguo-cultural environment. Toponyms such as “Goygol”, “Agsu”, “Qarabagh”, “Shirvan” reflect historical-geographical memory, while anthroponyms such as “Elkhan”, “Aygün”, “Turan”, “Goytekin” express mythological and national-cultural thought (Akhundov, 2003, p. 118).

In the conditions of modern globalization, the preservation of proper names is of great importance in terms of maintaining national identity. Changing toponyms and anthroponyms or exposure to foreign influences can lead to the weakening of cultural memory. Therefore, the linguo-cultural study of proper names is developing as a relevant direction in Azerbaijani linguistics.

Linguoculturology evaluates proper names as a “verbal code” of national culture. From this point of view, onomastic units of Turkic origin are an important semiotic system reflecting the lifestyle, mythological thought, religious beliefs and social relations of the people. As Eliade noted, names are symbolic structures in which archaic thought and collective consciousness are preserved (Eliade, 2010, p. 83).

Color names, animal images and cosmic concepts occupy a wide place in Turkish onomastics. Traces of Turkic mythology and cosmogonic concepts are clearly visible in names such as “Bozgurd”, “Ağkhan”, “Göyalp”, “Aykhan”. These names express the model of thought of the Turkic ethnos about the universe, nature and human relations. According to linguoculturological theories, proper names play the role of a “linguistic passport” of the spiritual world of the people. According to Eliade, names ensure cultural continuity by preserving traces of mythological and sacred thought (Eliade, 2010, p. 88). In this regard, the study of

proper names is considered an important scientific resource not only for linguistics, but also for history, ethnography, culturology, and psychology.

As a result, onomastic units of Turkic origin not only have a nominative function, but are also an important linguo-culturological system that preserves the national-spiritual values of the people. These names preserve the historical memory, mythological thinking and cultural identity of the Turkic peoples, retaining their semantic and culturological significance even in the modern era. In modern linguo-culturological studies, proper names are evaluated as an important semiotic system reflecting the national-cultural memory, ethnic identity and historical thinking of the people. The study of onomastic units allows for a deeper study of the mutual relations between language and culture and plays an important role in the preservation of the national-spiritual heritage.

#### References:

1. Lev Gumilev – Qədim Türklər. Bakı: Azərnəşr, 1993.
2. Yuri Lotman – Semiotika və mədəniyyətin strukturu. Moskva, 2000.
3. Ziya Gökalp – Türk Mədəniyyətinin Əsasları. İstanbul: Varlıq nəşriyyatı, 1976.
4. Bahaeddin Ögel – Türk Mitologiyası. Ankara: Türk Tarix Qurumu, 1993.
5. Nikolay Baskakov – Türk Dillərinin Tarixi-Tipoloji Tədqiqi. Moskva: Nauka, 1988.
6. Mircea Eliade – Mif və Gerçəklik. Bakı: Qanun nəşriyyatı, 2010.
7. Vilhelm Tomsen – Orxon-Yenisey Abidələrinin Tədqiqi. Ankara: Türk Dil Qurumu, 1992.
8. Məhəmmədağa Zehtabi – İran Türklərinin Qədim Tarixi. Təbriz, 1998.
9. Türk Dil Qurumu – Türk Onomastikası və Linqvokulturologiya Problemləri. Ankara, 2017.
10. Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası – Müasir Dilçilikdə Linqvokulturoloji Tədqiqlər. Bakı, 2019.
11. Ağamusa Axundov – Ümumi dilçilik. Bakı: Maarif, 2003.
12. Afad Qurbanov – Azərbaycan onomastikası. Bakı: Elm, 1988.
13. Nizami Cəfərov – Azərbaycan dilində milli ideya və dil. Bakı: Elm, 2007.
14. Buludxan Xəlilov – M üasir Azərbaycan dili. Bakı: ADPU nəşriyyatı, 2011.
15. Məhərrəm Qasımlı – Azərbaycan folkloru və mifologiyası. Bakı: Nurlan, 2009.

### **TÜRK SIMVOLLARININ ƏRƏB DİLİNƏ VƏ DİGƏR DİLLƏRƏ İNTEQRASIYASI VƏ ONLARIN LİNGVOKULTUROLOJİ ASPEKTI**

**Zemfira İsaxan qızı Abbasova,**  
*Azərbaycan Dövlət Pedaqoji Universiteti,  
Filologiya üzrə fəlsəfə doktoru*

**Xülasə:** Məqalədə türk simvollarının ərəb dilinə və digər dillərə inteqrasiyası tarixi-lingvistik və semiotik aspektdən araşdırılmışdır. Türk

xalqlarının formalaşdırdığı simvolik sistemin – tamğaların, mifoloji obrazların və fonetik işarələrin – müxtəlif dillərə və mədəniyyətlərə təsiri təhlil edilmişdir. Türk dillərinin ərəb dili ilə qarşılıqlı əlaqəsi nəticəsində ərəb qrafikasında baş verən dəyişikliklər, xüsusilə türk dillərinə məxsus səsləri ifadə edən yeni işarələrin yaranması izah olunmuşdur. Eyni zamanda türk mənşəli simvolların və leksik vahidlərin digər xalqların dil və mədəniyyətində qazandığı yeni semantik mənə qatları şərh edilmişdir. Tədqiqat göstərir ki, türk simvollarının müxtəlif dillərə integrasiyası yalnız dil hadisəsi deyil, həm də mədəni yaddaşın və sivilizasiyalararası əlaqələrin mühüm göstəricisidir.

**Açar sözlər:** Türk simvolları, ərəb dili, semiotika, tamğa, mifoloji simvollar, dil integrasiyası, türk mədəniyyəti, linqvistik əlaqələr, yazı sistemi, mədəniyyətlərarası kommunikasiya.

**Summary:** The article examines the integration of Turkic symbols into Arabic and other languages from a historical-linguistic and semiotic perspective. The impact of the symbolic system formed by the Turkic peoples — tamghas, mythological images and phonetic signs — on various languages and cultures is analyzed. The changes that occurred in Arabic graphics as a result of the interaction of Turkic languages with Arabic, especially the emergence of new signs expressing sounds specific to Turkic languages, are explained. At the same time, the new semantic layers of meaning that symbols and lexical units of Turkic origin have acquired in the languages and cultures of other peoples are explained. The study shows that the integration of Turkic symbols into various languages is not only a linguistic phenomenon, but also an important indicator of cultural memory and inter-civilizational relations.

**Keywords:** Turkic symbols, Arabic language, semiotics, tamgha, mythological symbols, language integration, Turkic culture, linguistic relations, writing system, intercultural communication.

The integration of Turkic symbols into the Arabic language and other languages is mainly studied in the context of language, writing system, culture and

historical relations. This topic is very interesting both from the point of view of Turkology and comparative linguistics. Integration of Turkic symbols into the Arabic language After the adoption of Islam, the Turkic peoples began to widely use the Arabic alphabet. The issue of the integration of Turkic symbols into the Arabic language and other languages is evaluated not only within the framework of linguistic relations, but also as an important component of intercultural semiosis. The system of signs formed by the Turkic peoples over a wide geography for millennia — tamghas, mythological images, sacred signs and phonetic elements — has entered the structure of various languages and cultures, creating new semantic layers. From this point of view, Turkic symbolism is considered not only a carrier of ethnic memory, but also a model of inter-civilizational communication. After the adoption of Islam by the Turkic peoples, a process of intensive contact with the Arabic language began, and as a result, the Arabic script writing system was adapted to the phonetic characteristics of the Turkic languages.

Linguoculturology, as a scientific field that studies the interaction between language and culture, examines the worldview, national thinking and spiritual values of each people through language. From this perspective, Turkic symbols are considered not only semantic units, but also ethnocultural codes that keep alive the cultural memory of the ancient Turkic ethnos. The symbols, mythological images, color symbolism and sacred signs used by the Turkic peoples reflect the people's lifestyle, beliefs and collective thinking model (Lotman, 2000, p. 33). The issue of the integration of Turkic symbols into Arabic and other languages has been studied in the Azerbaijani linguistic school mainly in the historical-linguistic and linguo-cultural context. According to this approach, the interaction of Turkic languages with the Arabic graphic system is not only a change in writing technique, but also a transformation of the cultural model of thought (Akhundov, 2003).

According to Azerbaijani researchers, after the period of Islamization, Turkic languages, adapting to the Arabic writing system, gained new phonetic and graphic opportunities. As a result of this process, graphemes such as “پ”, “چ”, “ژ”, “گ” were formed and widely used to express sounds specific to Turkic languages.

This is evaluated as an adaptation of the writing system to local needs (Gurbanov, 1988).

Agamusa Akhundov, linking the development of symbol and sign systems in Turkic languages with the internal structural dynamics of the language, showed that the writing system changes in accordance with the phonetic needs of the language and that this change is a natural result of cultural integration. Afad Gurbanov, in his historical analysis of the Azerbaijani onomastic system, particularly emphasized the interaction of symbols of Turkic origin with the Arabic and Persian languages. In his opinion, onomastic units are one of the most stable and enduring elements of cultural influence.

The integration of Turkic symbols into other languages is also reflected in Azerbaijani folklore and mythological materials. Muharram Gasimli notes that in folklore texts, Turkic mythological symbols (for example, Bozkurt, mountain, water, light cult) acquire various semantic shades and these images are transformed in accordance with regional cultures.

At the same time, Nizami Jafarov, explaining the relations between language and culture from the prism of national thinking, shows that language is not only a means of communication, but also a carrier of national-cultural memory. From this point of view, the integration of Turkic symbols into other languages can be assessed as an expansion of cultural memory.

New signs were added to the Arabic alphabet to express sounds specific to Turkic languages: “گ” (g), “ڭ” (ng), “پ” (p), “چ” (ç), “ژ” (j). These symbols did not exist in classical Arabic, but entered the writing system under the influence of Turkish, Persian and other Eastern languages. Thus, signs such as “پ”, “چ”, “ژ”, “گ”, which did not exist in the classical Arabic alphabet, were formed under the influence of Turkish and Persian languages and later became widely used. The prominent Turkologist Wilhelm Thomsen noted that “the phonetic richness of Turkic languages has subjected the writing systems they use to constant transformation”. This idea shows that the Turkish language is not only an accepting but also a transforming language model. Ancient Turkic tamghas deserve

special attention and also have special semiotic significance. Tamgha is not only a symbol of lineage, power and belonging, but also an initial communicative sign system (Ögel, 1993, p.86). The concept of tamgha served as a symbol of lineage, authority, belonging, and holiness among ancient Turks. Academician Lev Gumilev wrote in his work "Ancient Turks": "The tamga was the visible memory of the Turkic ethnos; it constituted a sign model of the pre-writing thought system." According to researchers, these signs continued to exist as an aesthetic element in Islamic ornamentation and Eastern architecture in later periods (Lotman, 2000, p.41). Some of these symbols continued to exist as an aesthetic element in Islamic ornamentation, architectural patterns, and even Arabic calligraphy in later periods. One of the most important issues in the linguocultural essence of Turkic symbols is that they carry the function of collective memory. In ancient Turks, the tamga was not only a property and lineage mark, but also an indicator of spiritual identity. The unique tamga of each tribe expressed the historical and cultural identity of that society (Ögel, 1993, p. 94). These signs continued to exist in later periods in ornamental art, carpet motifs, and architectural patterns. The semantic transformation of Turkic mythological symbols in Arabic and other Eastern languages is also an interesting scientific direction. For example, the image of the "Bozgurd" acted as a savior and guiding archetype in ancient Turkic mythology, and in later periods it became a symbol of political and national identity (Gökalp, 1976, p. 132). In later periods, this symbol began to have a culturological meaning expressing the concept of national identity and spiritual unity. Mircea Eliade, explaining the essence of the symbol, stated that "mythological symbols, despite the passage of time, live in the archaic layers of collective consciousness and are reborn in different forms in new cultures" (Eliada, 2010, p. 64). The existence of Turkish symbols in other languages is precisely related to this culturological transformation. In the linguo-culturological aspect, color symbolism is also of particular importance. In Turkish culture, the color "blue" was associated with holiness, infinity and the concept of God. The color "gray" expressed the concept of tolerance, wisdom and freedom. The acceptance of

the “Gray Wolf” symbol as a holy savior in Turkish thought is an example of this (Gökalp, 1976, p. 141). This symbol is not only a mythological image, but also a culturological model expressing the ideal of freedom of the Turkish people.

The influence of Turkic languages on other languages is also evident at the lexical level. Words of Turkish origin such as “ordu”, “otak”, “yogurt”, “kaftan”, “kiosk” have passed into Arabic, Persian, Russian and European languages and have become part of international terminology. (Baskakov, 1988, p. 203). Linguist Nikolai Baskakov called this process “a natural result of historical-cultural contacts”. Especially during the Ottoman period, the Turkish language had a serious impact on the formation of administrative and military terminology in the Middle East (Zehtabi, 1998, p. 219). The survival of Turkish symbols through language is an important event from a linguo-cultural point of view. For example, words such as “ordu”, “toy”, “yurd”, “ocak” do not only carry lexical meaning, they express the Turkish way of life and the system of social relations. The concept of “yurd” in Turkish thought is not just a place, but also a cultural symbol that combines the concept of spiritual attachment and homeland (Baskakov, 1988, p. 212). According to the linguoculturological approach, language is the “archive of cultural memory” of the people. The preservation of Turkic symbols in linguistic units, folklore, proverbs and mythological texts indicates the historical and cultural continuity of the Turkic ethnos. For example, in expressions such as “may the hearth not be extinguished”, “take possession of your homeland”, the symbolic meaning is clearly visible. Here, “hearth” acts as a culturological symbol of family and lineage continuity, and “homeland” is a symbol of national belonging.

The integration of mythological symbols into other cultures is also noteworthy from a linguocultural point of view. Turkish mythological images have acquired new semantic shades by passing into Arab and Eastern culture. As Eliade noted, mythological symbols undergo transformation in different cultures, ensuring the continuity of collective consciousness (Eliade, 2010, p. 76). In this regard, the survival of Turkish symbols in other languages is assessed as a result of intercultural contacts.



In modern semiotic approaches, Turkish symbols are studied not only as a linguistic element, but also as a cultural code. Yuri Lotman wrote that “culture as a whole is a system of signs” and each symbol acts as a carrier of collective memory (Lotman, 2000, p.18). Based on this theory, the integration of Turkish symbols into other languages is explained as a process of intercultural meaning transfer. From this perspective, the integration of Turkish symbols into other languages is evaluated not only as a linguistic phenomenon, but also as a process of intercivilizational meaning transfer. Thus, Turkish symbolism has created a universal semantic space, transcending language boundaries.

As a result, the integration of Turkic symbols into Arabic and other languages is not only a process of phonetic and lexical adaptation, but also a manifestation of historical memory, ethnocultural identity and inter-civilizational relations. Turkic culture, in contact with various languages, has both adopted new elements and, having transferred its symbolic system to the culture of other peoples, has become an integral part of the world cultural heritage. The linguoculturological aspect of Turkic symbols shows that they are not only a linguistic element, but also a carrier of national and spiritual values. These symbols retain their relevance today as an important semiotic system that transmits the worldview, ethnic memory and cultural identity of the Turkic people from generation to generation.

#### References:

1. Lev Gumilev – Qədim Türklər. Bakı: Azərnəşr, 1993.
2. Vilhelm Tomsen – Orxon Yazıları və Qədim Türk Abidələri. Ankara: Türk Dil Qurumu nəşri, 1992.
3. Nikolay Baskakov – Türk Dillərinin Tarixi-Tipoloji Tədqiqi. Moskva, 1988.
4. Yuri Lotman – Semiotika və Mədəniyyət Tipologiyası. Sankt-Peterburq, 2000.
5. Mircea Eliade – Mif və Gerçəklik. Bakı: Qanun nəşriyyatı, 2010.
6. Ziya Gökalp – Türk Mədəniyyətinin Əsasları. İstanbul, 1976.
7. Bahaeddin Ögel – Türk Mitologiyası. Ankara: Türk Tarix Qurumu, 1993.
8. Əli bəy Hüseynzadə – Türkləşmək, İslamlaşmaq, Müasirləşmək. Bakı, 2005.
9. Məhəmmədağa Zehabi – İran Türklərinin Qədim Tarixi. Təbriz, 1998.
10. Türk Dil Qurumu – Türk Dünyası Dil və Simvol Araşdırmaları. Ankara, 2018.
11. Ağamusa Axundov – Ümumi dilçilik. Bakı: Maarif, 2003.
12. Afad Qurbanov – Azərbaycan onomastikası. Bakı: Elm, 1988.
13. Nizami Cəfərov – Azərbaycan dilində milli ideya. Bakı: Elm, 2007.
14. Məhərrəm Qasımlı – Azərbaycan folkloru və mifologiyası. Bakı: Nurlan, 2009.

# **“BADIY ADABIYOTDA TIBBIYOT” FANINI TIBBIY YO‘NALISHDAGI OTMLAR O‘QUV DASTURIGA KIRITILISHNING MUHIM AHAMIYATI**

***Turdiyeva Kavsar Sheraliyevna,***  
*Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti*  
*professori, filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya:** Maqolada Toshkent Tibbiyot Universitetida 2019-2024-yillar davomida 2-bosqich talabalari uchun muvaffaqiyatli o‘qitilgan tajriba-sinov xarakteridagi “Badiiy adabiyotda tibbiyot” moduli tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu modulning bo‘lajak shifokorlarda bemorlarga nisbatan empatiya, kommunikativ kompetensiya hamda kasbiy-etik ko‘nikmalarni shakllantirishdagi pedagogik va tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Kurs doirasida o‘rganilgan o‘zbek va jahon adabiyoti namoyandalarining tibbiy mavzudagi badiiy asarlari talabalarning inson ruhiyati, bemor kechinmalari va shifokor mas’uliyatini chuqurroq anglashi hamda kasbiy mahoratini rivojlantirishga xizmat qilgani asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Sohaviy adabiyot, hamdardlik, bo‘lajak tibbiyotchilar, tibbiy mavzu.

**Abstract:** This article analyzes the experimental and practice-oriented module “Medicine in Fiction,” which was successfully taught to second-year students at Tashkent Medical University from 2019 to 2024. The study highlights the pedagogical and educational significance of this module in developing empathy toward patients, communicative competence, and professional ethical skills among future physicians. It is argued that the medical-themed literary works of Uzbek and foreign writers and poets studied within the course contributed to students’ deeper understanding of human psychology, patients’ emotional experiences, and physicians’ professional responsibility, while also enhancing their professional competence.

**Keywords:** *Professional literature, empathy, future physicians, medical topics.*

Zamonaviy tibbiyot ta'limida bo'lajak shifokorlarning nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, balki ularda yuksak insoniy fazilatlar — mehr-shafqat, empatiya, kommunikativ madaniyat va kasbiy etikani rivojlantirish ham muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida tibbiyotning texnik jihatlari tobora takomillashib borayotgan bo'lsa-da, bemor ruhiyatini tushunish, insoniy munosabat va ma'naviy yondashuv masalasi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan badiiy adabiyot tibbiy ta'limning muhim gumanitar komponenti sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasida, xususan, AQSh va Yevropa tibbiyot universitetlarida “medical humanities” yo'nalishi doirasida badiiy asarlar orqali shifokor shaxsini shakllantirishga qaratilgan dasturlar keng joriy etilmoqda. [ И. В. Киричок, В. М. Серпухова и О. В. Озеркина, Медицина в зеркале мировой литературы, 2014: 12] Bunday yondashuv talabalarda bemor ruhiy holatini anglash, hamdardlik hissini kuchaytirish, murakkab axloqiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda kasbiy refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Toshkent Tibbiyot Universitetida 2019–2024-yillar davomida 2-bosqich talabalari uchun o'qitilgan “Badiiy adabiyotda tibbiyot” modulining pedagogik va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda modulning tashkil etilish sabablari, o'quv dasturining mazmuni, kurs davomida o'rganilgan o'zbek va jahon adabiyotidagi tibbiy mavzudagi asarlar hamda ularning talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri yoritiladi.

“Badiiy adabiyotda tibbiyot” fan moduli yurtimizdagi tibbiy muassasalar o'quv rejasi uchun notanish fan edi. Tibbiyot universitetida mazkur fan 2019-2024 yil davomida o'qitildi. Mazkur fan qayerdan kelib qoldi degan savol tug'ilishi tabiiy. Ushbu fanni dars jadvaliga qo'yishdan avval kafedra o'qituvchilari oldida bir savol turar edi: “Biz bo'lajak shifokorlarimizni qanday bo'lishini xohlaymiz?” Albatta bilimli, albatta mehrlil, albatta hamdard. Fikrimizcha, biz tavsiya qilayotgan dars davomida murojaat qilinayotgan sohaviy badiiy asarlar bo'lajak shifokorlarning aynan shunday bo'lishi yo'lidagi eng katta ko'makchi hisoblanadi.

Tabobat otasi bo'lmish Abu Ali ibn Sinoning buyuk tabibliigi bilan birgalikda shoir va adib bo'lganligi bunga isbot deb aytish mumkin.

Mazkur fan universitetimizda o'qitila boshlanganining asosiy sabablarini biz quyidagicha belgiladik: 1-sabab. Qo'limizga bir maqola tushib qoldi. Unga ko'ra Kaliforniya universitetida roman mutolaa qiluvchilar boshqalarning his-tuyg'ularini yaxshi tushunishadi, ammo bu ularni yaxshi fazilatlar egasiga aylantiradimi yoki yo'qmi, degan savolga javob topish uchun tajriba o'tkazilgan ekan. [I.Xodjiyev. Nima uchun kitob o'qiymiz, 2016]. Bunda tadqiqotchilar hammaga tanish usulni qo'llashgan. Bexosdan bir nechta ruchka va qalamlarni tushirib yuborgan kishi bo'lasiz, so'ng sizga yordamga kim kelishini kuzatasiz. Ushbu topshiriqda ishtirok etuvchilardan vazifani bajarishdan avval boshqalarga hamdardlik darajasini belgilovchi savollarga javob berishni iltimos qilishadi. Keyin qisqa hikoya o'qiladi va bu hikoya ularga qanday ta'sir qilganligi haqida bir qator savollar beriladi. Masalan, o'qigan roman qahramonini qanday tasavvur qiladi? Hikoyani o'qib tugatgach personajlar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish istagi bormi? Eksperiment tashkilotchilari boshqa xonadan nimadir olib kelishmoqchi bo'lishadi va shu onda 5–6 ta ruchkani bexosdan tushirib yuborishar edi. Natijada, hikoyadagi qahramonga hamdard bo'lib, hayajonga tushgan kitobxonlar yordamga shoshilishar edi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyot mutolaasi insonlarni yaxshi tomonga o'zgartiradi. [I.Xodjiyev. Nima uchun kitob o'qiymiz, 2016] Shuning uchun ba'zi OTM (oliy ta'lim muassasasi) ham buni hisobga olgan holda o'z dasturlariga gumanitar modullarni kiritishmoqda. Masalan, jahon tajribasi misolida ko'radigan bo'lsak, Kaliforniya universitetida badiiy adabiyot yaxshi shifokor bo'lishga yordam beradi deb hisoblab, tibbiyotchi-talabalar uchun gumanitar dastur ishlab chiqishadi. [И. В. Киричок, В. М. Серпухова и О. В. Озеркина, Медицина в зеркале мировой литературы, 2014: 21]; 2-sabab: Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan jamiyatimiz yoshlari istiqbolini, ularning keng dunyoqarashga ega bo'lishlarini ko'zlab chiqargan "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va

kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi [Mirziyoyev, 2017, PQ-3271] qarorini asos qilib oldik. Bu boradagi ishlar Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 5 tashabbuslarida ham o'z tadrijiy davomini topdi. Ya'ni 4-tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilishga yo'naltirishga qaratilgan. Biz ushbu qaror va tashabbuslarni o'quv jarayoniga tatbiq qilishning shu yo'lini tanladik; 3-sabab. Tibbiyot insonning tanasini davolaydi, adabiyot esa uning ruhiyatini davolaydi. Tan va ruhiyat davosi esa mukammallik hosil qiladi. [K.Sh.Turdiyeva, 2021: 36]; 4-sabab. Tibbiy mavzudagi badiiy asarlar professional ko'nikmalarni ham shakllantiradi [K.Sh.Turdiyeva, 2021: 52]; 5-sabab. Talabalarning kasbiy va ma'naviy-ahloqiy rivojlanishi tibbiyot institutlarida dolzarb masalaga aylanib, teng vazifalarni bajarmoqda.

Universitetimizga kiritilgan mazkur modul 30 soatdan iborat bo'lib, u 2-bosqich talabalari uchun tashkil qilingan edi. Unda mazkur tanlov fani dasturi quyidagicha bo'lgan: birinchi mavzu xalq og'zaki ijodiga bag'ishlangan bo'lib, unda xalqimizning asl durdonalari bo'lgan folklor janrlarida tibbiyotning taqdim etilganini ko'ramiz. [Традиционная медицина через призму русского народного фольклора, 2006: 41] Ular xalqimizning tibbiy-gigiyenik qarashlarini o'rganish uchun boy xazinadir.

Shuningdek mazkur kursda Abu Ali ibn Sino kabi buyuk alloma, tabib haqidagi rivoyatlar bilan tanishish esa tibbiyot ilmini o'rganayotgan talabalar uchun ibrat maktabi bo'lgan edi. Chunonchi, ularning har birida tabibning zukkoligi, bilimdonligi, ilm olishga ishtiyoqi, kamtarligi, kitobga mehri tarannum qilinadi.

Fan dasturimizdan atoqli adiblar bilan bir qatorda atoqli adib-shifokorlar, jumladan, A.P.Chexov, M.Bulgakov, shuningdek jarroh F.Uglov, J.Beknazar, neyrojarroh G.Marsh asarlari ham o'rin oladi. Talabalarimizga manzur bo'layotgan asarlardan biri M.Bulgakovning "Yosh vrach kundaligi" asaridir. [Bulgakov M. Yosh vrach kundaligi. 2022:128] Bu asarda kitobxon shifokorlikni tanlagan

tibbiyot oliygohini bitiruvchisining ish boshlash jarayoni bilan tanishadi. [И. В. Киричок, В. М. Серпухова и О. В. Озеркина, Медицина в зеркале мировой литературы, 2014: 64].

Shubhasiz, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovning tibbiyotga oid she'rlarini o'qib ham tibbiy, ham ma'naviy bilim, zavq olasiz. A.Kuprinning "Ajoyib shifokor"ini, F.Uglovning "Jarroh yuragi", Genri Marshning "Zarar keltirma", O'.Hoshimovning "Imon", J.Beknazarovning asarlarini o'qiganda shunday shifokorlarga havas qilasiz. Izzat Sultonovning "Imon" dramasida tibbiyot ilmidagi o'g'rilik, ko'chirmakashlikning ayanchli ahvolini ko'ramiz. N.Dumbadzening "Abadiyat qonuni" romani qahramoni esa shifoxonada o'tkazgan ancha muddat davomida shunday qonun yaratadi: *inson qalbi uning tanasidan 100 barobar og'irroq*. [И. В. Киричок, В. М. Серпухова и О. В. Озеркина, Медицина в зеркале мировой литературы, 2014: 97] "*Shunchalik og'ir-ki, uni ko'tarishga bir kishining quvvati yetmaydi... Shuning uchun biz insonlar to tirik ekanmiz bir-birimizga yurakni to'xtab qolishidan saqlashga yordam berishimiz zarur: siz-menikini, men-boshqanikini, u-uchinchinikini va hokazo chek-chegarasizlikkacha*" [Dumbadze,1983]

Bunday asarlar va ulardan bahramand bo'lgan tibbiyotchi talabalar yetuk insoniy fazilatlarga ega kadr bo'lib chiqishi tayin. Har bir fanni obrazlar, his-tuyg'ular orqali o'zlashtirish yanada yuqori natija beradi. [K.Sh.Turdiyeva, 2022: 92]

Bir guruhda "So'nggi yaproq" asarida muallif zotiljamni zolim qari cholga o'xshatganini o'qib, talabalarga savol berilgan edi: "Agar turli kasalliklarni hayvonlarga o'xshatish mumkin bo'lsa, qaysi kasallikni qaysi hayvonga o'xshatar edingiz?" Shunda bir talaba "Saraton kasalligini ilonga o'xshatar edim", – dedi. "Nima uchun? – degan savolga, –saraton o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, kuchli stress, siqilish, darmondorilarni, ovqatlarni noto'g'ri iste'moli bu kasallikni keltirib chiqaradi. Ilon ham tegmagan odamga tegmaydi", – deb javob qaytardi. Biz fanimizda so'z qudratining mo'jizalarini ko'ramiz. [K.Sh.Turdiyeva, 2021: 88]

O Genrining boshqa “Hamdardlik” hikoyasida bir xil dard dushmanlarni ham do‘stlarga aylantirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shukur Xolmirzayevning “Bodom qishda gulladi” asarida shifokor, hamshira palatadagilarning gapiga ishongan bemor yigitning avval tuzalish jarayonining tezlashishi, ammo keyinchalik buning hazilligini bilgach sog‘aygan bemorning kasali qaytalanishi aks etadi. Ushbu asar oddiy hazil inson salomatligida qanday shifo beruvchi va buzg‘unchi rol o‘ynashi mumkinligidan saboq bergan.

Stiven Kingning “Chekishni tashlang korporasiyasi” asari o‘quvchini asar so‘ngigacha o‘ylashga majbur qiladi. Ushbu chekishni tashlatish usuli qanchalik samarador? Insonni yoqtirgan, o‘rgangan zararli odatidan kechishi uchun nima qilish kerak?

A. Nesinning “Bizda vrach bo‘lish osonmi?” “Noyob mikroby”, “Dardi bedavo” asarlari esabugungi kunda ham gohi oramizda uchraydigan nobop shifokor va olimlarga parodiya.

“7-qavat” Dino Butsatining tibbiyot bilan bevosita bog‘liq hikoyasi bo‘lsa ham ammo u inson hayoti va umidlari haqida. Hikoya juda ko‘p fikrlar haqida mulohazaga chorlaydi.

Z. Mamajonovning “Gulxan atrofida o‘tirganlar” qissasi esa shifokor va hamshiralarning obrazlaridagi fazilat va illatlarni ochib beradi. Talabalar mustaqil ishlarida har bir badiiy asardagi obrazlarning trayektoriyasini kuzatishar ekan, ma’lumot yig‘ish, solishtirish, tizimlash va xulosalash kabi ilmiy uslublar bilan to‘qnash kelishadi. Bu esa ularda ilmiy faoliyatning ilk ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Rusiyazabon guruhlari kirganda “Vrach” so‘zi “vrat” so‘zidan olingan desak, aldash kerakmi, deb taajjublanishar edi. Yo‘q, aldash kerak emas, avrash degani. Demak, bemorni dardidan chalg‘itib, xayollarini tuzalish tomonga yo‘naltirishi zarur.

Biz yuqorida agar tibbiyot insonning tanasini davolasa, adabiyot ruhiyatiga shifo beradi, dedik. [K.Sh.Turdiyeva, 2021: 101] Tibbiyotchilarimiz katta bilim



zaxirasi bilan ruhiyatni davolovchi soʻz qudratiga ega boʻlsalar, bu davoning darajasi va ta'siri yanada oshishi tabiiy.

“Badiiy adabiyotda tibbiyot” darslari jarayonida talabalar shifokorlik bilimlarini boshqacha – badiiy soʻz orqali qabul qilishardi. Bu ularda kasbiy bilim bilan birga insoniylik, mehr-shafqat, hamdardlik kabi fazilatlarini shakllantiradi. Bir soʻz bilan aytganda qalb tarbiyasi bilan shugʻullanishardi. Bu fan barcha tibbiy oliy oʻquv yurtlari dars jadvalidan oʻrin olishi yetuk shifokorlarni yetishtirishda yana bir zaruriy qadam boʻlar edi.

Xulosa qilib aytganda, “Badiiy adabiyotda tibbiyot” moduli tibbiyot taʼlimida gumanitar yondashuvning muhim va samarali shakllaridan biri ekanligi amaliy tajriba asosida namoyon boʻldi. Mazkur kurs boʻlajak shifokorlarning nafaqat kasbiy bilimlarini boyitdi, balki ularda bemorga nisbatan hamdardlik, mehr-shafqat, ruhiy sezgirlik, kommunikativ madaniyat hamda kasbiy masʼuliyat kabi muhim insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qildi. [K.Sh.Turdiyeva, 2022: 203]

Tahlil qilingan badiiy asarlar talabalarga kasallik, bemor ruhiyati, shifokor burchi va tibbiy axloq masalalarini oddiy nazariy bilimdan farqli ravishda obrazlar, kechinmalar va hayotiy voqealar orqali chuqurroq anglash imkonini berdi. Natijada talabalar badiiy tafakkur orqali tibbiyotning insonparvarlik mohiyatini his eta boshladilar. Ayniqsa, adib-shifokorlar ijodi va tibbiy mavzudagi asarlar yosh tibbiyotchilarning kasbiy identifikatsiyasi hamda ichki motivatsiyasini mustahkamlashda muhim vosita boʻlib xizmat qildi. Shuningdek, modul doirasidagi tahliliy va mustaqil ishlanmalar talabalarni kuzatish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi ilmiy-tadqiqot koʻnikmalariga yoʻnaltirdi. Bu esa ularda kelgusidagi ilmiy faoliyat uchun dastlabki metodologik tayyorgarlikni shakllantirdi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, tibbiyot oliy taʼlimida badiiy adabiyotdan foydalanish boʻlajak shifokorlarni har tomonlama yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalashda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Shu sababli “Badiiy adabiyotda tibbiyot” kabi gumanitar modullarni boshqa tibbiyot

oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga ham bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 y. 13 sentyabr PQ-3271 son qarori. Halq so'zi 2017 y. 14 sentyabr. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida.
2. K.Sh.Turdiyeva. Badiiy adabiyotda tibbiyot. O'quv qo'llanma. – Toshkent: ToshPTI nashriyot bo'limi, 2022.
3. K.Sh.Turdiyeva. Tibbiy ta'limda kitobxonlikni soha bilan bog'lab o'rganishning samaradorligi. Monografiya. – Toshkent: EFFECT-D, 2021.
4. Традиционная медицина через призму русского народного фольклора // Вестник волгоградского медицинского института, 2006: № 2.
5. И. Ходжиев. I.Xodjiyev. Nima uchun kitob o'qiymiz. <https://www.facebook.com/share/p/18uv12L2nx/>
6. И. В. Киричок, В. М. Серпухова и О. В. Озеркина. Медицина в зеркале мировой литературы. Аннотированный библиографический указатель Харьков, 2014.
7. Bulgakov M. Yosh vrach kundaligi. (Tarjimonlar: B. Tojiboeva, A. Murodov, R. Boymirzaev). – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2022. – 128 b.
8. Dumbadze, N. Abadiyat qonuni [Matn] : Roman / N. Dumbadze ; tarj. N. Komilov. – Toshkent : G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 280 b.
9. <https://radiovan.fm/station/article/10988>

### **SOF O'ZBEK LAHJASI VA MATNSHUNOSLIK**

***Lafasov Urak Pazilovich,***

*O'zDJTU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Ushbu (“Sof o'zbek lahjasi va matnshunoslik”) maqolada Turonning markazidagi Ikki daryo oralig'ining yerli aholisi bo'lgan o'kuzbeklarning qo'nimjoylari, tiliga asos bo'lgan og'zaki manbalar, etnik va milliy xususiyatlari izohlangan. Shuningdek ularning tilini mukammal o'rganib, til ilmiga oid asarlar yozgan mashhur tilshunos Yevgeniy Dimitriyevich Polivanov to'g'risida qaydlar keltirilgan. Hozirgi o'zbek adabiy tiliga har jihatdan asos bo'lgan “sof o'zbek” lahjasi bilan bog'liq izohlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** *Turon, turlar, O'kuziya, o'kuzbeklar, sof o'zbek lahjasi, adabiy til.*

**Annotation.** This article (“Pure Uzbek dialect and textual criticism”) fully covers the settlements of the Uzbeks, the indigenous population of the Two Rivers Interfluvium in central Turan. In addition, the oral sources, ethnic and national

characteristics that formed the basis of the Uzbek language are explained. Notes are given about the famous linguist Yevgeny Dimitrievich Polivanov, who thoroughly studied their language and wrote works on linguistics. Explanations are given about the “pure Uzbek” dialect, which is the basis of the modern Uzbek literary language in all respects.

**Keywords:** *Turan, O‘kuzbeks, pure o‘zbek dialect, literary language.*

Tur//Yofas ibn Nuh [Mirzo Ulug‘bek, 1994:33] zuruyotlarining mulk//davlati bo‘lgan Turonning markazi ikki daryo oraliq‘idir. O‘kuz//Amudaryo hamda Inju O‘kuz//Sirdaryo Kaspiy dengiziga quyilgan va ushbu hudud Elkun dengizi bilan chegaralangan. El(joy)+kun(quyosh) Quyoshli joy o‘n ming yillik tarixga ega hudud aslida O‘kuziya deb nomlangan. Uch ming yil oldin Xavari azm//Xorazm shaklida fors tiliga tarjima qilingan. O‘kuziyada yashagan aholi ***o‘kuzbeklar*** [Lafasov, 2024:293] (*qutji, nayman, qo‘ng‘irot, qiyot*), ya‘ni asl o‘zbeklar atalgan. O‘kuzbeklarning azaliy qo‘nimjoylari hozirgacha ham aniq saqlangan va ular yer egalari hisoblanadi. *Qutchilar* Urganj, Kesh vohasida, *qiyotlar* qadim Qiyotkent//Katkentda, *qo‘ngrat* (*qo‘ng‘irot*)lar Boysun, Farg‘ona vohasida, *naymanlar* Semizkent//Samarqand, Axsikentda istiqomat qilishgan. Turkiylarning asosiy qismi azal-azaldan ayrim so‘zlarning boshiga portlovchi “j” tovushini (*qozoq va qirgizlar esa so‘z boshiga sirg‘aluvchi “j” tovushini*) qo‘shib so‘zlashgan. O‘kuzbeklar o‘zbek millatiga asos bo‘lgan, shuningdek qardosh turkiy ellarni ham boshqargan va ularning tarkibiga qo‘shilgan ellardir. Hozir ham turkiylarning tarkibidagi aslzoda qatlami o‘kuzbeklar tashkil qiladi. Shu sababli “*Alpomish*”, “*Go‘ro‘g‘li*” dostonlari barcha turkiy xalqlarning og‘zaki manbasi hisoblanadi. Ushbu dostonlarning hammasida bosh qahramon sifatida o‘kuzbeklar ta‘riflangan. Yuzlab xalq dostonlari turkiy xalqlarning bir ota-onadan tarqagan elatlar va ularning aslzoda qatlami bitta ekanligini tasdiqlovchi o‘g‘zaki manbalar hisoblanadi. Turkiy xalqlarning og‘zaki manbalarini chuqur o‘rganib tahlil qilgan hamda ***o‘kuzbek***(o‘zbek)larning kimligini, ular so‘zlashgan tilni yaxshi tushungan mashhur olimlardan biri **Yevgeniy Dimitriyevich Polivanov** (1891-1938)dir.

Mashhur tilshunos Ye.D.Polivanov 1920-30-yillarda O'zbekistonda yashagan. Toshkenda esa Abdulla Qodiriyning uyida istiqomat qilgan. Olim O'zbekistonning Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati (Ohangaron, Chirchiq tumanlari), Qoraqalpog'iston muxtor respublikasi (Qo'ng'iro't), Xorazm viloyati (Shovot), Samarqand viloyati, Qashqadaryo viloyati (Shahrisabz) va boshqa ko'rgina joylarga uyushtirilgan ilmiy safarlarda shaxsan o'zi qatnashgan. O'sha joylardagi o'zbek shevalarini o'rgangandan so'ng *“O'zbek tilini o'rganishga kirishish”* (1925), *“O'zbek tilining qisqacha grammatikasi”* (1-2-qismlar, 1926), *“O'zbeklarning etnografik xarakteristikasi”* (1926), *“Qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at”* (1926), *“O'zbek xrestomatiyasi”* (1927), *“O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili”* (1933), *“O'zbek tili grammatikasidan materiallar”* (1935) kabi bir qancha asarlari yozgan. Tilshunos olim turkiy til ixtisosligi bo'yicha V.V.Reshetov, K.K.Yudaxin singari shogirdlarini tayyorlagan. Ye.D.Polivanov tarixiy haqiqatlarni adolatli mezonlar asosida yoritib bergani uchun sho'rolarning qahriga uchragan va qatag'on qurboni bo'lgan. Taniqli olim Ye.D.Polivanov o'z asarida sho'rolar qipchoq lahjasi sifatida urg'u bergan dialektni ***“sof o'zbek lahjasi”*** deb atagan [Поливанов, 1933: 23]. Asl o'zbeklar Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent vohasi, Buxoro, Shimoliy Xorazm, Qoraqalpog'iston, Ohangaron, Farg'ona [Турсунов, 1968:8] vodiysi (Andijon, Shahrixon, Asaka, Toshloq, Baliqchi, Yangiqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Uychi, Za(r)daryo, Qo'qon tumanlari [Дониёров, 1979:11], Janubiy Tojikiston, Janubiy Qirg'iziston va Qozog'izistonda ko'p istiqomat qilishadi.

“O'zbek” etnonimi hozirgi o'zbek millati uchun umumiy nom sifatida tanlangach, ba'zi olimlar, jumladan akademiklar A.N.Samoylovich, V.M.Jirmunskiy, A.N.Kononov, professorlar E.I.Najip, N.A.Baskakov, V.V.Reshetov, M.Sh.Sheraliyev, F.A.Abdullayev [Абдуллаев, 1957:8], Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar ilgari ***“sof o'zbek”*** nomi bilan atalib kelgan aholining shevalarini ***“qipchoq”*** deb atay boshlaganlar [Дониёров, 1979:5]. Ko'rinib turibdikki, sho'ro davrida ***“qipchoq”*** [Дониёров, 1976:12] (asl termin kuman) termini boshqa millat olimlari va o'zbek urug'larini tushunmaydigan

qurama el vakili bo'lgan mahalliy olimlar tomonidan iste'molga kiritilgan. Bu bilan "j"lovchi lahjada so'zlashuvchi aholi asl o'zbeklar emas, degan sho'roning asossiz nazriyasini qo'llab-quvvatlashgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida yaratilgan yuzlab dostonlarning sakson foizi portlovchi "j" bilan so'zlashadigan aholi ichida saqlanganligiga ko'z yumishgan. Hech qanday tayanadigan og'zaki manbasi, ya'ni dostonlari yo'q, lug'aviy birliklarining deyarli barchasi o'zlashma bo'lgan qurama *qarluq lahjasini* hozirgi o'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan [Lafasov, 2021:44], degan soxta nazariyani yoqlashgan va amaliyotga joriy etishgan.

Sof o'zbek(qipchoq) lahgasini hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Ushbu lahja adabiy tilning yuzaga kelishi hamda undagi ayrim lisoniy hodisalarning barqarorlashuvida faol ishtirok etgan. Mazkur lahja qisman o'rganilgan, ya'ni sof o'zbek lahjasining asosiy qismi Qshqadaryo, Surxondaryo, Janubiy Tojikiston, Janubiy Qirg'iziston qipchoq shevalari butunlay o'rganilmagan [Дониёров, 1979:12]. Ana shu shevalardagi lug'aviy birliklar qadimgi adabiy turkiy til va chig'atoy (eski o'zbek) adabiy tili hamda usmonli davridagi tilning leksik birliklariga to'la mos kelishi bilan ham ajralib turadi. Sof o'zbek lahjasida so'zlashuvchilar O'zbekistonning barcha qishloq va shaharlarida, qisqasi hamma joyida istiqomat qilishadi. Mazkur lahjaning muhim fonetik, morfologik, leksik belgilari quyidagilar:

1. **Fonetik belgilar:** 1) *djo' l – yo' l, djo' q – yo' q, djur – yur; djigit – yigit*; 2) *to'v – tog'(toq), sov – sog'(soq)*; 3) *sari... – sariq, kichi... – kichik*.

2. **Morfologik belgilar:** 1) *alpdek, gulday, o'qiyapti, bormoqda, borayotir, oqivotir, o'quv, yozuv, o'qish, yozish, bordi*.

3. **Leksik belgilari:** 1) **turkiy so'zlar:** *adaq (tugash), bo'sag'a (ostona), checha (kelinoyi), saman (sariq ot), chag'ir (ko'k ko'zli ot), to'riq (och yoki to'q qizg'ish ot), bo'z(oq ot), shapaq (boshining old qismi burnigacha oq ot), qashqa (peshonasida oq dog'i bor ot), egachi (opa), kuyunchi (singil), og'a (aka-uka), el (xalq), elbegi (hokim), alqindi (mayda), bek (aslzoda, grajdanin), beksak (Turuk//Turk va ukasi Munsakning bolalari), semiz (boy, толстый), Semizkent//Samarqand (boy shahar), alp (pahlavon), ko'ngul (qalb), qo'nmoq*

(joylashmoq), **o'tinmoq** (yalinmoq), **kuchli** (quvvatli), **otliq** (ot mingan), **Kunbotish** (G'arb), **Kunchiqish** (Sharq), **tashqa** (toshga), **yukunmoq** (mulozamat qilmoq), **suluv** (chiroyli), **balbal** (bayroq), **manglay** (peshana), **mengzamoq** (o'xshatmoq), **meng** (katta xol), **xol** (kichkina xol), **qichimoq** (bezovta qilmoq), **qashimoq** (qichigan joyni tirnash), **elanmoq** (yalinmoq), **o'trik** (yolg'on), **ulgu** (namuna);

2) farqlanuvchi so'zlar: **jo'pkarchi** (g'iybatchi), **poycha** (oyoqning tizzadan pastki qismi), **jelak** (kelin va ayollar boshiga yopadigan uzun kashtali yopinchiq, ikki uzun cho'ntagi bo'ladi), **toshtavoq** (katta tosh kosa); **julxurs/julqurs** (ustiga pat chiqarib to'qilgan jo'n to'shak), **kigiz** (jo'nni qattiq bosib tayyorlanadigan to'shak), **momo** (buvi), **bova** (bobo), **ena** (ona), **xusharay** (xushro'y), **teshik** (kichik teshik), **tuynuk** (katta teshik), **o'ymoq** (katta yoriq ochmoq), **o'yi** (yoriq), **abjir** (chaqqon), **kay+sar//qaysar** (o'jar, asl qutchilarning laqabi), **javlik** (butun), **jappa** (barcha), **kelbat** (gavda), **ushaqmol** (qo'y-echki), **qoramol** (sigir-buzoq), **iymanmak** (tortinmoq), **tuv** (tug'), **quroq** (matolarni ulab gul yasash), **suruv** (ushoqmol to'dasi), **uyur** (otlar to'dasi), **bordi-keldi** (doimiy aloqa), **keldi-ketti** (mehmondorchilik), **qur** (insonlar to'dasi), **uyutmoq** (sutga oqliq solsa qatiq bo'ladi), **uy+g'ur** (metis, ikki begona xalqning qo'shilishi), **uy+qur** (uyning anjomlarini tayyorlaydigan o'zbek ustalar), **uy+chi** (uyning anjomlarini tayyorlaydigan o'zbek ustalar), **oq+uy** (oq rangli kigiz yopilgan uy, boshliqlar o'tiradigan joy), **qora+uy** (oddiy kishilarning uyi, o'tovga o'xshash), **po'stak** (teri ko'rpcha), **quvurmach** (qovurilgan bug'doy), **umach** (xamirni tariq donasiday dumaloq qilib tayyorlanadigan ovqat), **g'ilmind** (xamirning ichiga atala solib tayyorlanadigan ovqat), **bo'la** (opa-singilning bolalari), **boldiz** (opa-singilning qiz bolalari bir-biriga boldiz bo'ladi), **po'panak** (ayollarning bezakli bosh kiyimi), **to'l** (qo'zilash davri), **irin** (labning o'rtasi), **ezuv** (labning chekkasi), **o'trik** (yolg'on), **o'shak** (g'iybat), **ulav** (transport), **irt** (lunj), **sin** (chiroy), **sinli** (chiroyli), **Kunchiqar** (Sharq), **Kunbotar** (G'arb), **chuvoq** (quyosh tushadigan joy), **ko'k** (osmon), **o'kinmoq** (pushaymon qilmoq), **yitmoq** (o'lmoq), **ko'k** (yashil), **ko'k(a)lam** (bahor), **ko'klamoq** (o'tlarning o'sishi), **Yilboshi** (Navro'z);



3) **turkiy ismlar:** *El+tarash* (*Eltarish*), *El+aman*//*El+omon*=*Elmon*, *El+at*=*Elat*, *El+bek*=*Elbek*, *Eli+boy*=*Elboy*, *El+nur*=*Elnur*, *O'ra+(v)q+boy* (*himoyalangan*), *Oltiboy*, *Bekbola*, *Eshboy*, *Barchinoy*, *Balqiganoy*//*Balqanoy*, *Enaqiz*.

Taniqli tilshunos Xudoyberdi Doniyorov “*Qipchoq dialektlarining leksikasi*” monografiyasini 1979-yilda yozgan. Olim o‘z asarida Qshqadaryo, Surxondaryo, Janubiy Tojikiston, Janubiy Qirg‘iziston qipchoq shevalari butunlay o‘rganilmaganligini qayd etgan. Shu bois ham adabiy tilga Farg‘ona qipchoq lahjalaridan adabiy tilga olingan ko‘pgina so‘zlarni ayrim olimlar qarluq lahjasidan olindi, deb ko‘rsatishgan. Shu jumladan, sof o‘zbek//qipchoq lahjasidan *chorvachilik terminlarining* barchasi, hozirgi o‘zbek adabiy tilimizdagi *so‘z zaxirasining sakson foizi*, *g‘allachilik va paxtachilik atamalari* to‘liq, *olitita kelishik shakli*, *egalik shakllari*, *tabu va evfemizmlar*, *-dek*, *-day*, *-u(v)*, *i(sh)*, *-yapti*, *-moqda*, *-yotir*, *-di* qo‘shimchalari; *ochiq so‘zining ma’nolari*, *ota*, *ona* va boshqa juda ko‘p xalq og‘zaki ijodimizdagi so‘z va ifodalar adabiy tilga olingan. Tilimizning asosiy so‘zlar manbasi bo‘lgan dostonlarimizning sakson foizi mazkur lahjada ijod qilingan va shu lahjada yetib kelgan. Dostonlardagi ifodalar juda keng ma’noli, jozibali va sajning noyob namunalaridan iboratdir. Bu bebaho lug‘at boyligining barchasi adabiy tilimizga o‘z o‘rniga qarab asta-sekin olinishi kerak. Ammo ushbu masala hanuz e’tibordan chetda qolmoqdadir.

Sho‘ro davrida hozirgi o‘zbek adabiy tiliga haqiqiy sof o‘zbek lahjasidagi turkiy so‘zlar emas, balki forsiy va arabiydan o‘zlashgan so‘zlar olingan. Yana sho‘rolar yozuvni almashtirish [Lafasov, 2021:5] bilan savodsizlikka yo‘l ochishni maqsad qilganlar. Ammo ular o‘z maqsadlariga erisha olmadilar, chunki aslzoda, qoni toza o‘zbeklar baribir savod masalasida ulardan ancha ilgarilab ketishgan edi. Shuning uchun o‘zbeklarning orasidan har soha bo‘yicha yetuk olimlar chiqa boshladilar. Istiqlool sharofati bilan xalqimiz o‘z erkini qo‘lga kiritib mustaqil bo‘ldi. Ona tilimizni har tomonlama chuqur o‘rganish, til nazariyasini [Lafasov, 2023:5] takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ona tilimizni rivojlantirish borasida ko‘pgina



farmonlarni imzoladilar. O'zlari shaxsiy o'rnak ko'rsatib, BMTdagi chiqishlarini o'zbek tilida bayon qildilar. Xudo xohlasa, Prezidentimiz sa'y-harakatlari bilan Uchunchi renessans//yuksalish davrida o'zbek tili yettinchi jahon tili bo'lishiga imonimiz komildir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hozirgi adabiy tilimizga ko'p jihatdan sof o'zbek//qipchoq lahjasi asos bo'lganligini matnlar ham tasdiqlaydi. Mazkur ilmiy nazariya bir qancha olimlar (Yevgeniy Polivanov, Abdurauf Fitrat, Xudoyberdi Doniyorov, Bosim To'ychiboyev) tomonidan ilgari surilgan va isbotlab berilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 352 б.
2. Lafasov U.P. Okuzbeks, Their Language, Place in Society and Culture. Imgelem | Sayı: Özbekistan Özel Sayısı | Eylül 2024 | 293-310 Doi: 10.53791/imgelem.1470929 Derleme Makale/Review Article.
3. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: УЗГОСИЗДАТ, 1933. 45 б.
4. Турсунов Т. “Ғарбий Фарғона ўзбек шевалари” номли номзодлик диссертацияси автореферати. – Тошкент. 1968. – 25 б.
5. Абдуллаев Фатхулла. “Ўзбек тилининг қипчоқ шевалари” номли номзодлик диссертацияси автореферати. – Тошкент, 1957. – 27 б.
6. Lafasov U.P. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: TDSHU. 2021. – 220 б.
7. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. –160 б.
8. Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. – Тошкент, ТДПИ, 1976. – 178 б.
9. Lafasov U.P. Turkiy yozuvlar tarixi. – Toshkent: TDSHU, 2021. – 124 б.
10. Lafasov U.P. Til nazariyasi (Tilshunoslik). – Toshkent: TDSHU, 2023. – 210 б.

#### **MATN USLUBIY TURLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

***Babaxanova Dilarom Axmatxanovna,***  
*NamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya:** Maqolada so'zlashuv, rasmiy-idoraviy, ilmiy, publitsistik va badiiy nutq uslublariga xos matnlarning o'xshash va farqi jihatlari yoritilgan, nutq uslublariga xos leksik-semantik va boshqa xususiyatlar tahlil qilingan. Kishilarning o'zaro aloqa-munosabat jarayonida tilning fonetik, leksik, frazeologik va grammatik vositalaridan tanlab foydalanishi korsatilgan. Nutq uslublarining har biri tilning bir butun yaxlit tizim doirasida ish ko'rishi va ifoda maqsadiga ko'ra til vositalarining uyushishi, takrorlanishi bilan xarakterlanishi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq uslublari, badiiy so'z, til, nutq, umumxalq tili, til vositalari, nutqqa munosabat, uslubiyat, nutqning barcha faoliyati, so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub, ekspressiya.

**Annotation:** In this article, the similarities and difference of the styles of conversation, official, scientific, publicist and arty speech aspects and other characteristics are analyzed. The styles of speech of each language within its own entirely holistic system are discussed, and for the purpose of expression, language's characterization based on the organization and repetition openly discussed. The coloring of the styles of speech based on the words, grammatical shape and grammatical structure are strongly highlighted.

**Key words:** the styles of speech, arty word, language, speech, national language, language tools, attention to speech, methodology, all activities of speech, conversational style, official style, scientific style, publicist style, arty style, expression.

Ma'lum bir sohaning ish yuritishida bir xil takroriylik, muntazamlik bilan ajralib turishi va manashu o'ziga xoslik stil (uslub) nomi bilan yuritiladi. «Stil» so'zi barcha sohada ishlatiladi. Masalan, Sharq uslubidagi bino, Sharq uslubidagi muzika, Yevropa uslubidagi kiyim va boshqalar.

«Nutq uslubi» tushunchasi ham ma'lum bir shaklning fikr almashuv jarayonida ko'p yoki oz ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xoslikka aloqador.

Kishilar o'zaro aloqa-munosabat jarayonida tilning fonetik, leksik, frazeologik va grammatik vositalaridan tanlab foydalanadilar. «... Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi». [1:199] Umumxalq tili vositalarining bunday tanlab ishlatilishi nutqning turlicha ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladiki, bu «nutq uslublari» deb yuritiladi.

Nutq uslublari leksik-grammatik jihatdan farqlanib turadi. Masalan, so'zlashuv uslubida odatdagi tartib turlicha o'zgarib tursa, terminlar, murakkab

Nutq uslublarning har biri tilning bir butun yaxlit tizimi doirasida ish ko'radi va ifoda maqsadiga ko'ra til vositalarining uyushishi, takrorlanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, ot, kelishik, egalik, sifat, asliy, nisbiy, ega, kesim, ikkinchi darajali bo'lak va hokazo terminlarning tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda qo'llanishi, uyushishi va takrorlanishi ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Nutq uslublarni belgilashda so'z, grammatik shakl va grammatik qurilishning uslubiy bo'yog'i jiddiy hisobga olinadi. Masalan, kichraytirish-erkalash jilosini beruvchi grammatik kategoriyalar, shamol, kuldi, aytdi, gapirdi kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa; tabassum qildi, so'zladi, sabo, boda kabilar badiiy nutqqa xos. Shuningdek, jilmaydi kabi so'zlar ijobiy; tirjaydi, ishshaydi kabilar salbiy munosabat bildiradiki, nutq jarayonida bu xususiyatlar hisobga olinadi.

Albatta, so'zning ijobiy yoki salbiy munosabat ifoda etishi hamisha nutq uslubini belgilashga asos bo'la olmaydi. Biroq sinonimik qatorni hosil qiluvchi bunday so'zlarning ko'pchiligi so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatilishi, rasmiy-idoraviy va ilmiy uslubda esa sanoqli hollardagina saylab olinishi mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Nutq uslublari qaysi shaklda va qaysi sohada bo'lmasin, milliy adabiy tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi.

Ma'lumki, adabiy tilning so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub funksional uslublari farqlanadi.

So'zlashuv uslubi deganda kishilarning kundalik faoliyatida o'zaro aloqasini ta'minlovchi og'zaki nutq tushuniladi. [2:9] Bu uslubda sheva elementlari, passiv lug'atga xos so'z va iboralar, boshqacha aytganda, adabiy til normalariga mos kelmaydigan fonetik, leksik, morfologik va sintaktik hodisalar erkin ishlatila beradi.

So'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, u fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik jihatdan boshqa nutq uslublariidan ajralib turadi: fonetik jihatdan tovush o'rni almashadi: yog'mir (yomg'ir), turpoq (tuproq); tovush tushadi: tasha (tashla), ke (kel), yudi (yuvdi); tovush ortadi: chechmoq

(yechmoq), yilon (ilon), istakan (stakan); tovush almashadi: minan (bilan), sammi (senmi), mo'nchoq (munchoq); o'zak-affiks o'zgarishi ro'y beradi: opke (olib kel), qo'yvor (qo'yib yubor) kabi.

Leksik-frazeologik jihatdan kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan osh, non, tuz, yer, osmon, quyosh, bola, xotin, o'rtoq, ko'z, qo'l, oyoq, men, sen, u, biz, siz, bir, besh, olti, o'n, ishladi, o'qidi, yetdi, keldi, ketdi, tez, sekin, kabi, shuningdek, san'at, adabiyot, siyosatga doir so'zlardan tashqari, so'zlashuv uslubida farzand, jujuq, churvaqa, zormanda, arzanda, pismiqliq, shalparpishiqliq, xomkalla, akillamoq, bobillamoq, to'ng'illamoq, po'ng'illamoq kabi uslubiy bo'yoqli so'zlar ko'proq ishlatiladi.

So'zlashuv uslubiga xos yana bir xususiyat so'zni qisqartirish va ko'chma ma'noda qo'llashdir. Masalan, kilo (kilogramm), foto (fotografiya), metro (metropoliten), avtomat (avtomat telefon), tushlik (tushlik ovqat), futbolga bormoq (futbol o'yinini ko'rishga bormoq), ovqatga o'tiring (ovqat yegani o'tiring), paxtani bajardik (paxta rejasini bajardik) kabi. Iskovich, tosh, (odam), chayon (gap bilan kishini xafa qiladigan), beliga tepmoq (xalaqit bermoq), loyini chiqarmoq (sirini fosh qilmoq, ishni chigallashtirmoq) kabilar ham, asosan, so'zlashuv uslubiga xosdir.

So'zlashuv uslubi, asosan, dialogik xarakterda bo'lganidan, imo-ishoralar, qo'shimcha izohlar, takrorlar (so'zda), qaytariqlardan; (gapda), qo'l, bosh va gavda harakatlaridan fikr ifodalashda qo'shimcha vosita sifatida foydalaniladi.

Bu nutqning dialog xarakterda bo'lishi nutq vaziyatiga ko'ra ko'proq to'liqsiz gaplardan foydalanishni taqazo etadi. Bundan tashqari, so'zlashuv uslubida inversiya, sodda gaplar ko'chirma gapning avtor gapi o'rtasida kelgan formalari, qo'shma gapning «u aytdiki, bunday dedi» tipi ham ko'proq kuzatiladi.

Huquqiy va diplomatik hujjatlar, davlat qonunlari, idora-tashkilotlarning qaror, buyruqlari, ahdnoma, shartnomalar va kishilarning turli tashkilotlar bilan yozishmalaridagi o'ziga xos so'z tanlash usul va fikr ifodalash vositalarida rasmiy-idoraviyuslubining xususiyatlari aks etadi. Rasmiy-idoraviy uslubi juda keng va xilma-xil bo'lsa-da, so'z saylash va ifoda vositalarining yaxlitligi bilan umumiy

tizimga birlashadi. Ushbu uslub keng ma'noda barcha yozishmalarni o'z ichiga oladi [3:5]. Rasmiy-idoraviy uslubi uchun shtamp holiga kelib qolgan ibora-ifodalar xarakterlidir. Masalan, qaror, buyruq va farmonlarda gapning kesimi ko'pincha majhul nisbatdagi buyruq fe'li formasida bo'ladi. Bu uslubda har bir sohaning o'z terminlari bo'ladi. Umumxalq tilida shlatiladigan ayrim so'zlar rasmiy-idoraviy uslubida terminga, faqatgina bir ma'no anglatuvchi (monosemantik) so'zga aylanishi mumkin. Masalan mehnat qilish, dam olish, o'qish kabi umumxalq tilida so'zlashuv uslubida qo'llanadigan so'zlar "O'zbekiston fuqarolari mehnat qilish, o'qish, dam olish huquqiga egadirlar". O'zbekiston Konstitusiyasi, modda, deganda "jamiyat manfaatlari yo'lida halol mehnat qilish, o'qib ilmi bo'lish va 10-11 oy ishlagandan so'ng pul bilan ta'minlangan dam olish (mehnat ta'tili)" degan yagona tushunchani aks ettiradi.

Ilmiy uslubda obyektiv olam voqea-hodisalarining ichki-tashqi xususiyatlarini ochib, biror xulosaga kelish va buni ta'riflash xarakterli. Ilmiy uslub uchun xos forma masalaning qo'yilishi, ahamiyati, ilmiy izlanishlar, uning natijalari va tegishli xulosa chiqarishdir. Har qanday ilmiy ish ana shu mushtaraklikni aks ettiradi.

Ilmiy uslubda badiiy tasvir vositalari, tantanali leksika kabilardan, deyarli, foydalanilmaydi. Biroq ilmiy-ommabop asarlar ham mavjudki, bunda so'zlovchi (yozuvchi) sof ilmiy bayondan chekinadi, o'z fikr-mulohazalarini, ilmiy xulosalarining tushunarli bo'lishi uchun badiiy-publitsistik, shuningdek, so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan so'z, ibora va gaplardan foydalanishga harakat qiladi. Ilmiy-ommabop asarlar bunga yorqin misol bo'la oladi. Ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritgan barcha asarlar publitsistik asarlar jumlasiga kiradi[5:11]. Bu janr o'zbek adabiy tili sistemasida XX asr boshlarida paydo bo'ldi. "Turkiston viloyatining gazetasi" chiqa boshlashi, so'ng matbuot va nashriyot ishlarining kengayishi, Furqat, Ayniy, Sattorxon kabi demokrat shoirlarning ijodida targ'ibotning o'rin olishi publitsistikaning shakllanishiga turtki bo'ldi.

Badiiy uslub inson amaliy faoliyatining barcha sohasini qamrab olishi, umumga qaratilganligi, barcha kasbkor egasi uchun mo'ljallaganligi bilan boshqa

nutq uslublaridan farqlanib turadi[6:10]. Badiiy uslubda hayot voqealari va kishilar to'g'risida oddiy axborotlar berilmaydi, aksincha, ular o'quvchi ko'z o'ngida, jonli tarzda, so'z bo'yoqlari yordamida barcha detal va xarakter-xususiyatlari xayol pardasi ortida gavdalanitirilib, o'quvchida estetik zavq uyg'otiladi, salbiy yoki ijobiy shaxs, hodisalarga nisbatan jiddiy qarash, kurash tuyg'usi hosil etiladi, shuningdek, o'quvchi voqelik ichiga tortiladi va natijada yuksak badiiy zavq oladi. Demak, badiiy uslubning vazifasi estetik zavq va voqelikka biror yo'sinda munosabat uyg'otishdir.

Badiiy uslub boshqa uslublar kabi o'z ichki bo'linishlariga (podstillariga) ega. Masalan, poetik uslub, masal uslubi, ertak uslubi kabilarga bo'linadiki, ularning har biri o'ziga xos tasvir vositalariga ega.

Badiiy uslubning vositasi ham tildir. Lekin bunda til aloqa vazifasini obraz, xarakter va nafis manzaralar yaratish orqali bajaradi, shu yo'l bilan uning ta'sir etish, harakatga keltirish vazifasi namoyon bo'ladi.

Badiiy uslubda so'z, ibora va gaplar sayqal topadi, yangi-yangi ottenka va mazmun kashf etadi. Masalan “Quyosh g'uborsiz ko'kda taltayib porlaydi” (O.) gapida “taltayib”, “porlaydi”, “g'uborsiz” so'zlari alohida sayqal topgan, alohida jilo, alohida joziba kashf etgan. Gap esa bir butun holda aloqa vazifasi (Quyosh osmonga ko'tarilgan)dan tashqari estetik zavq, badiiy taassurot, ko'tarinki ruhiyat baxsh etishga xizmat qilgan. Bunday misollar yuksak mahorat bilan yaratilgan har qanday asardan ham istagancha topiladi.

Ma'lumki, obrazlilik har qanday san'at asarining bosh mezonidir. Badiiy obrazlilik so'z (ibora, gap) ishlatish san'ati va mahorati demakdir. Adabiyot shu xususiyati bilan san'atning boshqa turlaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham «bo'sh asar», «sayoz asar» deyilganda, birinchi navbatda, yozuvchining voqelikni so'z bo'yoqlari orqali o'z holicha, ya'ni, biqiq holda tasvirley olmaganligi nazarda tutiladi.

Har bir yozuvchining o'ziga xos so'z tanlash va ishlatish usuli bo'ladi. A. Qahhor ijodi uchun xarakterli xususiyat so'zni tejab-tergab ishlatishdir. Yozuvchi har bir so'zga alohida vazifa yuklaydi.

Uyg'un ijodiga xos xususiyat: “o'nlab misollar bir xil so'zlar bilan boshlanadi va tugaydi” va hokazo.

Badiiy uslubga xos bo'lgan eng muhim xususiyat unda tantanali-emotsional so'zlarning ko'p ishlatilishidir. Sabo, yel, chehra, tabassum, takalluf, muhabbat, muyassar, alvon, moviy, silsila kabilar shular jumlasidandir. Badiiy asar turli mavzularda bo'lishi va turli davrning xilma-xil faoliyatini aks ettirishi mumkin. Shunga ko'ra, badiiy uslubda tilning leksik qatlamiga oid barcha so'z, ibora va frazeologik birikmalardan erkin foydalaniladi. Masalan: tarixiy mavzuda yaratilgan asarlarda arxaizm, istorizmlar va o'sha davr tiliga xos grammatik formalardan erkin foydalaniladi. Zamonaviy mavzuga oid asarlarda ular qo'llanmaydi, aksincha, bugungi til leksik qatlamidan, shu jumladan, o'rniga ko'ra, dialektizm, jargon, argo va boshqalardan foydalaniladi. Bu bilan obraz yaratishda bevosita ifodaga-obrazning qaysi sheva yoki kasb-hunar vakili ekanini qo'shimcha izohsiz tasvirlashga erishiladi [7:55].

Badiiy uslubda yozuvchining individual tasviri va ifoda vositalari sezilib turadi. Masalan, H. Olimjon asarlaridagi sho'x va o'ynoqi ohang, G'.G'ulom ijodida masalaga tarixiy-falsafiy yondoshish, M. Shayxzoda ijodida ham falsafiy mushohada, Uyg'un ijodida peyzaj bilan bog'liqlik, A.Qahhor ijodida siqqlik, A. Qodiriy ijodida batafsil tafsilot, Erkin Vohidov ijodida mantiqiy-qiyosiy tasvir sezilib turadi.

Badiiy uslubda grammatik shakllardan ham obraz yaratish va kolorit berish maqsadlarida foydalaniladi. Masalan, Oybekning «Navoiy», P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlarida –ur, -erdi, andoq, shulkim kabi formalar ishlatilganini kuzatish mumkin. Nutqning so'zlashuv, rasmiy-idoraviy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslublari mavjud bo'lib, ular o'xshash va farqi jihatlarga ega, bu xususiyatlar matnda reallashadi. Nutqning vazifaviy uslublari, umumxalq tili materiallari zaminida ajratiladi va shu nuqtai nazardan talqin qilinadi. Jamiyatdagi yangiliklar uslublarning rivojlanishiga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. –Toshkent: Fan, 1984. –B.4.



2. Abdusaidov A. Gazeta janrining til xususiyatlari. DDA, – Toshkent, 2005. –B. 11.
3. Doniyorov A. Badiiy nutq stilistikasidan materiallar. – Guliston, 1988. –B.10.
4. Enazarov T. O'zbek nutqi madaniyati. –Toshkent, 2018. – B.55.
5. Nozima Kozakova. Main Concepts in Pragma Linguistic Analysis of Literary Text (In the Examples of Gafur Gulyam's Works) International Journal of Science and Research (IJSR) ISSN: 2319-7064 ResearchGate Impact Factor (2018): 0.28 | SJIF (2018): 426 <https://www.ijsr.net/archive/v8i5/ ART20197904.pdf>
6. Badiiy matn pragmatikasi (G'afur G'ulom nasriy asarlari misolida) / Monografiya [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=LxG3sGAAAAAJ&citation\\_for\\_view=LxG3sGAAAAAJ:IjCSPb-OGe4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LxG3sGAAAAAJ&citation_for_view=LxG3sGAAAAAJ:IjCSPb-OGe4C)

## ОСНОВНЫЕ СЕМАНТИЧЕСКИЕ ПОЛЯ ИРОНИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

*Тошбекова Дилором Исмоиловна,*  
доцент СамГУ, кандидат филологических наук

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные семантические поля иронических фразеологизмов. Анализируются их оценочные и экспрессивные характеристики, коммуникативные функции, а также особенности функционирования в русском и узбекском языках. Сопоставительный подход позволяет выявить универсальные и национально-специфические черты, отражающие связь языка, культуры и социальных норм, а также их роль в формировании и интерпретации иронии.

**Ключевые слова:** иронические фразеологизмы, семантическое поле, оценочность, экспрессивность, сопоставительный анализ, русский язык, узбекский язык.

**Annotation:** This article analyzes the main semantic fields of ironic phraseological units. Their evaluative and expressive features, social functions, and usage patterns in Russian and Uzbek are examined comparatively. The study reveals the close relationship between language, culture, and social evaluation, highlighting both theoretical significance and practical implications for linguistic research and teaching.

**Keywords:** ironic phraseological units, semantic field, evaluative meaning, comparative analysis, Russian language, Uzbek language, pragmatics.

Как известно, любая языковая единица полностью реализует свои семантические свойства в рамках семантического поля. Соответственно, семантическое поле (или лексическое поле) – это языковые единицы лексического уровня, связанных значением, понятием или темой, которая помогает языку организовывать идеи и создавать специфическую среду в текстах. Эти слова, лексемы или фраземы обычно связаны общей темой, что позволяет исследователям глубже изучать нюансы этой идеи, используя соответствующую лексику [Jackson, 2000: 14]. По мнению Т.И.Вендиной, семантическое поле должно иметь по крайней мере три условия: иметь свои составные элементы - лексические единицы, наличие семантической связи между элементами, которые связаны или отличаются друг от друга и имеют определенную логическую основу; существуют взаимосвязи между семантическими полями [Вендина, 2001: 154]. Другой исследователь вопроса С.М. Тиллоева подчеркивает, что имеются отдельные типы языковых полей – семантических, лексико-грамматических, ассоциативных, метафорических, синтаксических и др.), так и полевой характер языка в целом [Тиллоева, 2021]. В современном языкознании под семантическим полем понимается совокупность лексем или фразеологизмов, связанных общим значением и охватывающих определённый фрагмент действительности. Эти единицы находятся между собой в отношениях семантической парадигматики – синонимии, антонимии, гипонимии и т.д.

Поскольку иронические фразеологические единицы представляют собой устойчивые сочетания, значение которых противоположно их буквальному значению, и часто используются для насмешки или сарказма, семантическое поле, в котором находятся иронические фразеологические единицы, имеет большое значение для реализации их смысла и нюансов.

Ирония представляет собой сложное лингвистическое и прагматическое явление, органично встроенное в систему фразеологизмов любого языка. В этом контексте особое место занимают иронические фразеологизмы - устойчивые выражения, в которых смысл не совпадает с буквальным значением, и в которых заложен потенциал оценки, скрытой насмешки, критики, сарказма. Они активно функционируют в речи как средства коммуникативного воздействия, экспрессивности, языковой игры и маркирования социальных отношений. Именно поэтому изучение иронических фразеологизмов невозможно без выявления и анализа их семантических полей [Ермакова, 2022: 45–46]. Анализ ФЕ на семантическом поле позволяет упорядочить фразеологический материал, сгруппировав единицы по общему смысловому признаку, в пределах определённой концептуальной сферы. Это способствует как более глубокой систематизации, так и выявлению специфики национального языкового сознания в выражении иронии. Следовательно, в данной части работы будут исследованы основные семантические поля, в которых иронические фразеологизмы наиболее продуктивны, и проследить, как данные поля реализуются в русском и узбекском языках. Анализ проводится на основе сравнительно-сопоставительного метода с привлечением элементов семантического анализа, компонентного анализа и прагмалингвистики.

Фразеологические единицы, особенно иронические, часто представляют собой вторичные номинации, формирующиеся на базе образных представлений, оценок и стереотипов. Они охотно группируются по смыслу, выявляя типичные поля лексики т.н. «отрицательной оценки человека»: *«глупость»*, *«лень»*, *«лицемерие»*, *«самодовольство»*, *«хитрость»*, *«насилие»*, *«неудача»*, *«низкий интеллект»* и др. Такие фразеологизмы активно функционируют в разговорной, публицистической, художественной речи, являясь важной частью культурной картины мира.

Семантические поля иронических фразеологизмов можно также рассматривать как проявление коллективной языковой и ментальной оценки

поведенческих и социальных моделей. Они иллюстрируют, как язык «осмеивает» определённые черты и поступки, устанавливая нормы и отклонения в социальной жизни [Толстой, 2013: 131].

**Создание «негативных» семантических полей.** Язык - это система фильтров. Насмешка служит процессом социальной «санитаризации»: она делает девиантное поведение смешным, а, следовательно, непривлекательным и лишенным авторитета. Следовательно, язык функционирует как инструмент социального контроля, используя иронию, сарказм и идиомы для проведения границы между «нормой» и «отклонением». Насмешка в языке – это не просто юмор, а механизм поддержания коллективных ценностей путем указания на то, что считается неприемлемым или смешным.

Ироничный язык служит «социальным клеем». Язык группирует слова вокруг качеств, которые общество считает нежелательными. Само существование огромного количества синонимов глупости, лени или жадности указывает на то, какие поведенческие черты общество отслеживает наиболее пристально. Высмеивая определенные черты (например, бюрократию - «*офисный работник*» или скупость – «*дрожит из-за каждой копейки*»), носители языка подтверждают свои общие моральные ориентиры. Те, кто понимает иронию, принадлежат к «своим», в то время как те, кто ее не понимает или является ее объектом, исключаются из круга «нормальных».

Язык своеобразная система фильтров. Насмешка служит процессом социальной «санитаризации»: она делает девиантное поведение смешным, а, следовательно, непривлекательным и лишенным авторитета [Jasim, 2024: 151–160].

Проведённый анализ показал, что иронические фразеологические единицы представляют собой важный и многоаспектный компонент языковой системы, обладающий значительным семантическим и прагматическим потенциалом. Их функционирование не может быть адекватно понято вне рамок семантического поля, поскольку именно полевая

организация лексики и фразеологии позволяет выявить внутренние связи между единицами, определить их место в системе языка и раскрыть особенности их употребления в речи.

В ходе исследования было установлено, что иронические фразеологизмы преимущественно концентрируются в рамках так называемых «оценочных» семантических полей, среди которых особую продуктивность демонстрируют поля с отрицательной коннотацией: «глупость», «лень», «лицемерие», «самодовольство», «хитрость», «неудача», «агрессия» и др. Это свидетельствует о том, что ирония в языке тесно связана с механизмами социальной оценки и критики, направленными на осмысление и регулирование поведенческих норм. Таким образом, иронические фразеологизмы выступают не только как выразительные средства, но и как инструмент социокультурной рефлексии.

Сопоставительный анализ русского и узбекского языков позволил выявить как универсальные, так и специфические черты в организации семантических полей иронических фразеологизмов. К универсальным можно отнести общую направленность иронии на высмеивание негативных качеств личности, наличие сходных тематических групп и использование образных, метафорических средств для создания иронического эффекта. В то же время национально-культурная специфика проявляется в выборе образов, источниках фразеологизации, а также в степени экспрессивности и частотности употребления тех или иных единиц. Это подтверждает, что фразеологическая система языка отражает особенности менталитета, ценностных установок и культурных традиций народа.

Особое значение в рамках исследования приобретает понимание иронических фразеологизмов как вторичных номинаций, формирующихся на основе когнитивных и ассоциативных механизмов. Они опираются на коллективный опыт, стереотипы и культурные коды, что делает их важным средством репрезентации языковой картины мира. Их семантическая неоднозначность, расхождение между буквальным и переносным значением,

а также зависимость от контекста обуславливают необходимость комплексного анализа, включающего элементы семантики, прагматики и когнитивной лингвистики.

Важным выводом является также то, что семантические поля иронических фразеологизмов выполняют функцию своеобразного «социального фильтра». Через систему насмешки, сарказма и иронии язык не только отражает, но и формирует общественные нормы, закрепляя представления о допустимом и недопустимом поведении. Высмеивая отклонения от нормы, язык способствует их маргинализации, тем самым выполняя регулирующую и воспитательную функцию. Ирония, таким образом, выступает как средство символического контроля, интеграции и дифференциации внутри языкового коллектива.

Кроме того, иронические фразеологизмы играют значительную роль в коммуникативной практике. Они усиливают выразительность речи, способствуют созданию эмоционально-оценочного фона, обеспечивают экономию языковых средств за счёт высокой степени семантической насыщенности. Их использование требует от участников коммуникации определённого уровня языковой и культурной компетенции, так как адекватное понимание иронии возможно лишь при наличии общего фонда знаний и способности интерпретировать скрытые смыслы.

Таким образом, исследование семантических полей иронических фразеологизмов позволяет глубже понять механизмы функционирования фразеологии в целом, выявить закономерности организации языкового материала и раскрыть роль языка в формировании и отражении социальной реальности. Полученные результаты могут быть использованы в дальнейших исследованиях в области фразеологии, прагмалингвистики, сопоставительного языкознания, а также в практике преподавания русского языка как иностранного, где особое внимание уделяется освоению экспрессивных и культурно маркированных единиц.

В перспективе представляется целесообразным расширить анализ за счёт привлечения большего объёма эмпирического материала, включая

данные современных медийных текстов и интернет-коммуникации, а также углубить изучение прагматических и когнитивных аспектов иронии в разных языках. Это позволит не только уточнить структуру семантических полей, но и выявить динамику их развития в условиях изменяющейся языковой и культурной среды.

#### Список литературы:

1. Вендина Т. И. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 2001. – 154 с.
2. Ермакова О. П. Ирония и ее роль в жизни языка: учебное пособие. – 4-е изд., стер. – М.: ФЛИНТА, 2022. – 202 с.
3. Jackson H., Amvela E. Z. Words, Meaning and Vocabulary: An Introduction to Modern English Lexicology. – London: Continuum, 2000. – 14 p.
4. Jasim W., Marwa V. Violating Norms: How Satire Shapes Societal Discourse // Comparative Linguistics Translation and Literary Studies. – 2024. – Т. 1, № 2. – С. 151–160.
5. Тиллоева С. М. Понятийный аспект структуры семантического поля (на материале персидского и русского языков): монография. – Екатеринбург, 2021. – URL: <https://elar.uspu.ru/bitstream/ru-uspu/47905/1/mon00141.pdf>
6. Толстой Н. И., Толстая С. М. Славянская этнолингвистика: вопросы теории. – М.: Институт славяноведения РАН, 2013. – 240 с.

### **GURUHLARARO VA GURUH ICHIDAGI MULOQOTNING IJTIMOIIY-KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI: ROLLAR, ME'YORLAR VA YETAKCHILIK OMILLARI**

*Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li,  
Renessans universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada guruh tushunchasining ijtimoiy-kommunikativ mohiyati, guruhlarning shakllanish omillari va ularning kommunikativ xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda oilaviy, norasmiy va rasmiy guruhlarning o'ziga xos jihatlari, guruh a'zolarini birlashtiruvchi umumiy manfaatlar hamda kommunikativ aloqalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, guruh ichidagi muloqotning asosiy tarkibiy elementlari bo'lgan rollar, me'yorlar va yetakchilik mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tavsiflangan. Guruh a'zolarining funksional va disfunktsional rollari, kommunikativ xatti-harakatlar modellari hamda boshqaruvning avtokratik, demokratik, kollektivistik va laissez-faire shakllarining muloqot jarayoniga ta'siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalari guruhlar faoliyatida samarali kommunikatsiyani tashkil etish, ijtimoiy hamkorlikni



mustahkamlash va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim omillarini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit soʻzlar:** guruh, guruhlararo muloqot, guruh ichidagi muloqot, kommunikativ xulq-atvor, ijtimoiy guruh, rasmiy guruh, norasmiy guruh, oilaviy guruh, kommunikativ rol, yetakchilik, kommunikativ meʼyor, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy munosabatlar, kommunikativ strategiya, guruh dinamikasi, boshqaruv modeli.

**Abstract:** this article analyzes the socio-communicative essence of the concept of a group, the factors of group formation and their communicative characteristics. The study highlights the specific features of family, informal and formal groups, the common interests that unite group members, and the importance of communicative ties. Also, the roles, norms and leadership mechanisms, which are the main structural elements of intra-group communication, are scientifically and theoretically described. The functional and dysfunctional roles of group members, models of communicative behavior, and the influence of autocratic, democratic, collectivist and laissez-faire forms of management on the communication process are revealed. The results of the study serve to identify important factors for organizing effective communication in group activities, strengthening social cooperation and developing communicative competence.

**Keywords:** group, intergroup communication, intragroup communication, communicative behavior, social group, formal group, informal group, family group, communicative role, leadership, communicative norm, communicative competence, social relations, communicative strategy, group dynamics, management model.

Inson tabiiy nuqtayi nazardan qaralganda boshqa mavjudodlar kabi yer yuzida yaratilgan jonzot hisoblanadi. Ijtimoiy-sentrik instinkt shaxsni oʻziga xos manfaatlar bilan turli guruhlarda birlashishga undaydi. Ushbu guruhlarining baʼzilari ancha barqaror va uzoq vaqt davomida mavjud (oila), baʼzilari qisqa vaqt uchun maʼlum bir maqsad yoʻlida birlashgan, yaratilgan (biznes loyihasi ishtirokchilari).

Ma'lum bir manfaatlar asosida shakllantirilgan guruhning ikkita asosiy tarkibiy xususiyatlari mavjud:

- guruh a'zolarining umumiy manfaatlari;
- a'zolar o'rtasidagi aloqa [Zaripov, 2025: 83].

Ta'kidlash joizki, a'zolar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va fikr almashishsiz guruh shakllanmaydi.

Guruhlarning asosiy turlari: oilaviy, norasmiy va rasmiy.

Oilaviy guruh: bu beixtiyor (ota-onalar tanlanmagan), turli xil umumiy manfaatlarga ega bo'lgan uzoq muddatli guruh. Oilaviy guruhning asosiy maqsadi inson tilini va boshqa muloqot vositalarini o'zlashtirish, omon qolish va o'zini tutishni o'rganishdir.

Norasmiy guruh: bu do'stona guruh, ixtiyoriy, uzoq muddat mavjud bo'lishi shart bo'lmagan jamoa.

Rasmiy guruh: bu ham ixtiyoriy va majburiy. Rasmiy guruhlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalardan tashqari qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Guruhlar xususiyatlari:

- a'zolar o'rtasidagi munosabatlar va muloqot;
- a'zolar uchun umume'tirof etilgan qadriyatlar va xulq-atvor normalari tizimi;
- muayyan vaziyatda guruh a'zolari tomonidan ishlab chiqilgan xulq-atvor rollari va kommunikativ xatti-harakatlar modellari to'plami. Bu rollar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin;
- guruh ichidagi muayyan rollarni taqsimlash va qabul qilish;
- guruh har bir a'zosining roli va o'ziga xosligi og'zaki va og'zaki bo'lmagan belgilar bilan qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlanishi mumkin [Кашкин В.Б., 2007].

Guruh ichidagi muloqot grammatikasining uchta asosiy omili mavjud: rollar, me'yorlar, yetakchilik.

Inson hayotda turli xil rollarni o‘ynaydi. Shu jihatdan kelib chiqib rollarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- yosh (bola, o‘smir, yosh yigit/qiz, kattalar, qariya);
- jins (ayol, erkak);
- sinf (yuqori, o‘rta va quyi) [Zaripov, 2025: 84].

Inson shaxsining ko‘p qirraliligi, o‘ziga xoslikning asosiy o‘zagini saqlab qolgan holda muhitda turli rollarni bajarishi so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari va polisemiyasini eslatadi. Inson polisemantik so‘z vazifasini bajaradi. Guruh ichida u funksional rollarni va disfunktsional rollarni o‘ynashi mumkin.

Guruh ichidagi muloqot grammatikasining normalari yoki qoidalari qabul qilingan xulq-atvor namunalarini, maqbul kommunikativ taktikani o‘z ichiga oladi.

Boshqaruv jihatidan quyidagi guruh turlari farqlanadi:

- avtokratiya (bir kishi boshqalarni bo‘ysundiradi: ma’lum turdagi oila, diktatura, monarxiya, bir qator partiyalar);
- laissez-faire (fransuzcha iboradan, so‘zma-so‘z “qilaylik” degan ma’noni anglatadi);
- demokratiya (bu kichik tur ichida o‘z taqdirida “xalq ishtiroki” ning turli darajalari mavjud);
- kollektivizm (rasmiy tenglik, lekin funktsional jihatdan guruh a‘zolari teng bo‘lmaydi);

Har qanday jamiyatda bu turlarning barchasi mavjud. Ulardan biri odatda jamiyat institutlariga xos bo‘ladi.

Guruhlarda muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan muloqot qobiliyatlari shaxslarda bo‘ladi [Dimbleby R., Burton G., 1998], ammo guruhni va uning maqomini saqlashga qaratilgan ko‘nikmalar ham mavjud:

- guruhdagi kommunikativ xatti-harakatlar qoidalari;
- aloqa ishtirokchilarining kommunikant va guruh a‘zolari maqomini o‘zaro tan olishi;
- boshqalarning yutuqlarini omma oldida baholash;
- vaziyatni o‘z vaqtida bartaraf eta olish;

- guruh g‘oyalari, harakatlari va qarorlari bilan kelishilganlik;
- guruhga to‘g‘ri ma’lumot va g‘oyalarni taklif qila olish [Zaripov, 2025: 86].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, guruh insonning ijtimoiylashuvi va kommunikativ faoliyatini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy birlik hisoblanadi. Har qanday guruhning mavjudligi umumiy manfaatlar va a’zolar o‘rtasidagi uzluksiz kommunikativ aloqalarga tayanadi. Aynan muloqot jarayoni guruhning shakllanishi, rivojlanishi va barqaror faoliyat yuritishining asosiy sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari guruh ichidagi kommunikativ munosabatlar rollar, me’yorlar va yetakchilik omillari asosida tashkil topishini ko‘rsatdi. Guruh a’zolarining funksional rollarni samarali bajarishi, umumiy qadriyatlar va xulq-atvor normalariga amal qilishi hamda o‘zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi guruh faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Shu bilan birga, boshqaruvning demokratik, avtokratik, kollektivistik va laissez-faire shakllari guruh ichidagi kommunikativ jarayonlarning xarakteri va samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dimpleby R., Burton G. More Than Words. An Introduction to Communication. – L.N.Y.: Routledge, 1998. <https://ndl.ethernet.edu.et/bitstream/123456789/17620/1/54.pdf.pdf>
2. Zaripov R. Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – B. 145.
3. Кашкин В.Б. Основы теории коммуникации. – М., 2007, электронная версия // <http://kachkine.narod.ru/CommTheory/Contents/Contents.htm>

## **СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СРЕДСТВ ВЫРАЖЕНИЯ ЭПИСТЕМИЧЕСКОЙ МОДАЛЬНОСТИ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**Усманова Салиха Юлдашевна,**  
*доцент СамГУ, кандидат филологических наук*

**Аннотация:** В статье рассматриваются средства выражения эпистемической модальности в русском и узбекском языках в сопоставительном аспекте. Анализируются лексические, синтаксические и

прагматические способы передачи значений достоверности, предположения и сомнения. Выявляются универсальные и национально-специфические особенности, обусловленные типологией языков и культурными нормами речевого поведения.

**Ключевые слова:** эпистемическая модальность, сопоставительный анализ, русский язык, узбекский язык, модальные средства, достоверность, прагматика.

**Annotation:** The article examines the means of expressing epistemic modality in Russian and Uzbek from a comparative perspective. It analyzes lexical, syntactic, and pragmatic devices used to convey meanings of certainty, probability, and doubt. The study reveals universal and language-specific features shaped by typological and cultural factors.

**Keywords:** epistemic modality, comparative analysis, Russian language, Uzbek language, modal devices, certainty, pragmatics.

Эпистемическая модальность занимает центральное место в системе субъективной модальности и отражает отношение говорящего к степени достоверности, вероятности и обоснованности передаваемой информации. В функциональном и семантическом аспектах эпистемическая модальность охватывает широкий спектр значений - от полной уверенности и категоричности до предположения, сомнения и неуверенности [Игнатова, 2025]. Сравнительное исследование средств выражения эпистемической модальности в русском и узбекском языках выявляет как универсальные механизмы представления лингвистических знаний, так и типологически обусловленные различия.

В русском языке эпистемическая модальность характеризуется высокой степенью формального объяснения и реализуется посредством сложной системы лексических, синтаксических и интонационных средств. Значительную роль играют вводные модальные слова и конструкции типа «конечно», «несомненно», «очевидно», «вероятно», «возможно» и

«кажется», позволяющие говорящему точно указать степень уверенности и направлять интерпретацию высказывания получателем [Вендина, 2001: 154]. Эти средства характеризуются относительной синтаксической автономией и четкой модальной специализацией.

Помимо вводных модальных слов, эпистемическая модальность в русском языке выражается через модальные глаголы и предикативные конструкции (*может быть, следует быть, может оказаться*), а также через синтаксические модели с модально-оценочным значением. Однако вводные модальные единицы занимают особое место в этой системе, поскольку они позволяют объяснить субъективную оценку достоверности, не вмешиваясь в пропозициональную структуру высказывания.

Русский язык характеризуется развитой градацией эпистемической модальности, выражаемой посредством набора специализированных средств. Носители языка могут точно различать оттенки уверенности, от категоричных утверждений до осторожных предположений. Такая дифференциация особенно необходима в научном и публицистическом стилях и журналистском дискурсе, который требует четкого разграничения фактов, гипотез и интерпретаций.

В узбекском языке эпистемическая модальность также является важной составляющей субъективной модальной плоскости высказывания, но способы ее выражения значительно различаются. Учитывая агглютинативную структуру языка и его разнообразную синтаксическую организацию, субъективные оценки достоверности часто реализуются не через отдельные вводные слова, а через систему лексических средств, аналитических конструкций и контекстуально-интонационных маркеров [Тиллоева, 2021]. Наиболее распространенными средствами выражения эпистемической модальности являются слова и выражения *albatta*, *shubhasiz*, *ehtimol*, *balki*, *chamasi*, *ko'rinadiki*, а также конструкции с глаголами восприятия и мышления.

В сопоставлении с русским языком, привлекает к себя внимание тот факт, что в узбекском языке эпистемические средства чаще сохраняют формальную связь с синтаксической структурой предложения. Их модальный статус в значительной степени определяется контекстом и интонацией, а не формальной изоляцией. Это приводит к большей степени имплицитности эпистемической модальности, типологической особенности узбекского языка.

В обоих языках важную роль в выражении эпистемической модальности играют средства указания на источник информации. В русском языке это вводные конструкции типа *по-моему, как известно, говорят*, которые позволяют говорящему распределять коммуникативную ответственность за сообщаемую информацию [Ермакова, 2022: 45–46]. В узбекском языке аналогичную функцию выполняют выражения *menimcha, aytishlaricha, eshitishimcha*, однако они чаще включены в синтаксическую ткань высказывания и обладают повышенной прагматической нагрузкой.

Сопоставительный анализ показывает, что в русском языке эпистемическая модальность ориентирована преимущественно на эксплицитное выражение субъективной позиции говорящего, тогда как в узбекском языке она нередко реализуется через стратегию косвенного выражения. Это связано с национально-культурными нормами речевого поведения, предполагающими избегание излишней категоричности и прямого навязывания оценки.

Сопоставительный анализ показывает, что в русском языке эпистемическая модальность тесно связана с индивидуальной авторской позицией, тогда как в узбекском языке она чаще приобретает **социально ориентированный характер**. Это проявляется в активном использовании конструкций, апеллирующих к общему знанию, традиции или мнению окружающих. Данное различие имеет важное значение для интерпретации

Таким образом, расширенный анализ средств выражения эпистемической модальности в русском и узбекском языках показывает, что, несмотря на функциональное сходство, эти средства демонстрируют



существенные различия в методах их языкового представления. Русский язык характеризуется высокой степенью формальной эксплицитности и специализированными эпистемическими маркерами, в то время как узбекский язык реализует аналогичные значения посредством более контекстуально и прагматически ориентированных стратегий. Эти различия обусловлены типологическими особенностями языков, а также национальными и культурными нормами устной коммуникации.

В то же время, средства выражения эпистемической модальности в русском и узбекском языках демонстрируют функциональное сходство, несмотря на существенные структурные различия. Русский язык характеризуется высокой степенью формальной эксплицитности и специализированными эпистемическими вводно-модальными единицами, в то время как узбекский язык реализует аналогичные значения посредством более контекстуально обусловленных и прагматически ориентированных средств. Выявленные особенности обеспечивают необходимую основу для дальнейшего анализа оценочной, эмоциональной и деонтической модальности, который будет представлен в последующих разделах этой главы. Учет этих факторов позволяет рассматривать эпистемическую модальность как динамичную и многоуровневую категорию, играющую ключевую роль в организации высказывания и дискурса. Полученные результаты обеспечивают необходимую теоретическую и методологическую основу для дальнейшего анализа оценочной и эмоциональной модальности, а также модальности необходимости и возможности.

Проведённое исследование средств выражения эпистемической модальности в русском и узбекском языках позволило выявить как универсальные закономерности функционирования данной категории, так и типологически обусловленные различия, отражающие специфику языкового строя и коммуникативной культуры каждого из рассматриваемых языков. Эпистемическая модальность, являясь важнейшим компонентом субъективной модальности, обеспечивает репрезентацию отношения говорящего к достоверности сообщаемой информации, степени уверенности

и источнику знания, тем самым играя ключевую роль в организации высказывания и дискурса в целом.

В ходе анализа было установлено, что в русском языке эпистемическая модальность отличается высокой степенью формальной эксплицитности и системной организованности. Она реализуется посредством разветвлённой системы специализированных языковых средств, включающих вводные модальные слова, модальные глаголы, предикативные конструкции и синтаксические модели с модально-оценочным значением. Особое место занимают вводные единицы, обладающие относительной синтаксической автономией и способные точно маркировать степень уверенности говорящего. Это обеспечивает возможность тонкой дифференциации эпистемических значений — от категорической уверенности до предположительности и сомнения, что особенно значимо для научного, публицистического и аналитического дискурсов.

В узбекском языке, напротив, эпистемическая модальность характеризуется большей степенью контекстуальной обусловленности и прагматической гибкости. Средства её выражения, включая лексические единицы, аналитические конструкции и глагольные формы, как правило, сохраняют тесную связь с синтаксической структурой предложения. Их модальное значение в значительной степени определяется интонацией, коммуникативной ситуацией и контекстом. Это обуславливает более имплицитный характер выражения субъективной оценки, что является важной типологической особенностью узбекского языка как агглютинативной системы.

Сопоставительный анализ показал, что различия между рассматриваемыми языками проявляются не только на уровне языковых средств, но и на уровне коммуникативных стратегий. В русском языке преобладает тенденция к эксплицитному выражению авторской позиции, что связано с установкой на точность, логическую определённость и аргументированность высказывания. В узбекском языке, напротив, широко

используется стратегия косвенного выражения оценки, что отражает культурно обусловленное стремление к коммуникативной вежливости, избеганию категоричности и сохранению гармонии в межличностном взаимодействии.

Особое внимание в работе было уделено средствам указания на источник информации, которые являются важным компонентом эпистемической модальности. В обоих языках данные средства выполняют функцию распределения ответственности за достоверность высказывания, однако реализуются различными способами. В русском языке они чаще представлены в виде вводных конструкций, обладающих высокой степенью формальной независимости, тогда как в узбекском языке аналогичные значения выражаются средствами, интегрированными в синтаксическую структуру и обладающими повышенной прагматической нагрузкой.

Таким образом, результаты исследования подтверждают, что при функциональном сходстве эпистемической модальности в русском и узбекском языках наблюдаются существенные различия в способах её языковой реализации. Эти различия обусловлены как структурно-типологическими особенностями языков, так и национально-культурными нормами речевого поведения. Русский язык демонстрирует тенденцию к формализации и эксплицитности модальных значений, тогда как узбекский язык характеризуется большей зависимостью от контекста и прагматических факторов.

В теоретическом плане полученные результаты способствуют углублению представлений о модальности как многоуровневой категории, включающей семантический, синтаксический и прагматический компоненты. В практическом аспекте они могут быть использованы в преподавании русского языка как иностранного, в частности при формировании навыков интерпретации модальных значений и адекватного использования средств выражения субъективной оценки. Кроме того, результаты исследования

представляют интерес для сопоставительного языкознания, прагмалингвистики и теории дискурса.

Перспективы дальнейших исследований связаны с расширением анализа на другие типы модальности — оценочную, эмоциональную и деонтическую, а также с изучением функционирования эпистемических средств в различных типах дискурса, включая медийный и цифровой. Это позволит более полно раскрыть динамику модальных значений и их роль в современном коммуникативном пространстве.

#### Список литературы:

1. Игнатова В. А. Сравнительный анализ средств выражения эпистемической модальности в русском и китайском языках // Наука в мегаполисе. 2025. № 2 (70). Перспективы синологии. XXI век. Лингвистика и междисциплинарные исследования языка и речи. URL: <https://mgpu-media.ru/issues/issue-70/lingvistika-i-mezhdistsiplinarnye-issledovaniya-yazyka-i-rechi/sravnitelnyj-analiz-sredstv-vyrazheniya-epistemicheskoi-modalnosti-v-russkom-i-kitajskom-yazykakh.html> (дата обращения: декабрь 2025).
2. Вендина Т. И. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 2001. – 154 с.
3. Ермакова О. П. Ирония и ее роль в жизни языка: учебное пособие. – М.: ФЛИНТА, 2022. – 202 с.
4. Jackson H., Amvela E. Z. Words, Meaning and Vocabulary: An Introduction to Modern English Lexicology. – London: Continuum, 2000. – 14 p.
5. Толстой Н. И., Толстая С. М. Славянская этнолингвистика: вопросы теории. – М.: Институт славяноведения РАН, 2013. – 240 с.
6. Тиллоева С. М. Понятийный аспект структуры семантического поля (на материале персидского и русского языков): монография. – Екатеринбург, 2021. – URL: <https://elar.uspu.ru/bitstream/ru-uspu/47905/1/mon00141.pdf> (дата обращения: декабрь 2025).

## BADIIY MATNDAGI UYUSHIQ BO‘LAKLAR VA UNDALMALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

*Saidova Muhabbat Shukrullayevna,  
NamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi  
Babaxanova Dilarom Axmatxanovna,  
NamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya:** Ishda o‘zbek tilidagi uyushiq bo‘laklar va undalmalarning uslubiy xususiyatlari yoritilgan. Uyushiq bo‘lakli tuzilmalarda ba‘zan umumlashtiruvchi so‘zlarning qo‘llanishi barcha nutq uslublarida uchrashi, umumlashtiruvchi so‘zlar uyushiq bo‘laklar mazmunini lo‘nda ifodalishi, ba‘zan

esa kuchaytirishi, qisqalikka xizmat qilishi misollar asosida bayon qilingan. Undalmalar so‘zlashuv uslubigagina xos bo‘lib, boshqa nutq uslublarida shu uslubning in’ikosi sifatida ishlatilishi aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, uyushiq bo‘laklar, undalmalar, uslubiyat, uslubiy xususiyatlar, tasviriy-emotsional xususiyat, uslubiy-ekspressiv xususiyat, so‘zlashuv, badiiy va publitsistik uslublar, ichki nutq.

**Annotation:** the work highlights the stylistic features of homogeneous members of the proposal and appeals. The examples show that the use of generalizing words with homogeneous members is found in all styles of speech, that generalizing words make the meaning of homogeneous members laconic, and can enhance their content. Appeals are often used in a conversational style, in other styles they are used as ...

**Key words:** Uzbek language, homogeneous members, addresses, stylistics, stylistic features, pictorial and emotional peculiarity, stylistic-expressive peculiarity, colloquial, artistic and journalistic styles, inner speech.

Necha asrlar mobaynida goh yuksak rivoju shuhrat topgan, gohida nopisandlik, turtkilash va kamsitishlardan ko‘ngli singan, ammo yorug‘ kunlarga yetmoq umidi so‘nmagan ona tilimiz chinakam munavvar kunlarga salomat yetib keldi. (Aminov, 2017:3). Uning uslubiyat sohasi ham ancha yutuqlarga erishdi. Sintaktik uslubiyatda muhim o‘rin egallaydigan uyushiq bo‘laklar va undalmalar masalasiga doir xususiyatlarni aniqlash bugungi kunda doimgiday dolzarbdir.

Uyushiq bo‘laklar gapga nutqiy ixchamlik, nutqiy ravonlik, ta’sirlilik, musiqiylik bag‘ishlaydi. Badiiy-tasviriy vositalardan biri hisoblanadi: Bu ayniqsa, poetik asarlarda ko‘rinadi.

*Namangan, Andijon, Qo‘qon, Marg‘ilon-*

*O‘zbekning chamani, bog‘i-bo‘stoni. (G‘.G‘.)*

Sifatlovchilarning tasviriy vositaligi ularning semantikasidan kelib chiqadi. Lekin uyushib kelganda, ularning tasviriy-emotsional xususiyati yanada ortadi.

Kishiga zavq-shavq baxsh etadi. Tasvirlanayotgan voqea-hodisalarni to'raligicha gavdalantirishga yordam beradi.

Uyushish har qanday nutq uslubida uchraydi va so'zlovchining modal munosabatlari uyushuvchilarning turlicha formalarida zuhur etadi.

Uyushiq bo'lak ikkita bo'lganda, ko'pincha biriktiruvchi bog'lovchi orqali birikadi: Ayol va bolalar chuvalashib qolishdi. Hasan va Samandar yetib keldi. Agar «va» qo'llansa sanaluvchilar tugaganligi ifoda etiladi. Biroq bunday gaplarda qat'iylik ottenkasi bo'lib, tushuncha chegaralanadi: Aniq va sodda so'zlar lol etadi. Yo'lda ba'zan **oq, pushti, sariq** va **qizil** gullar uchraydi.

Ikki uyushgan bo'lak «bilan» ko'makchisi orqali birikkanda birgalik ottenkasi aks etib, chegaralanganlik nisbatan aniqroq bo'ladi: **Turg'un bilan Aqida** keldi. Manavi pulga **kitob bilan daftar** olib kel (Og'z.so'zl.).

Uyushiq bo'laklarning grammatik forma olishidagi holatlar so'zlovchining nutq jarayonida nimalarga e'tibor berishiga bog'liq:

a) so'zlovchi sanaluvchilarni bitta gruppada sifatida tasvirlashni nazarda tutib, taalluqlilikning umumiylikni ifodalamoqchi bo'lganda, grammatik forma ko'makchini uyushuvchilarning so'ngisiga qo'shib ishlatadi. Men dalada **Salima, Nazira, Nigora** va **Nargizani** uchratdim (Jonli nutq). Bu xususiyat uyushiq bo'laklar o'z aniqlovchi-izohlovchilari bilan kengayib kelganda ham mavjud bo'ladi.

Izoh: 1) «**bilan**» ko'makchisi (bog'lovchi emas) uyushiq bo'lakning oxirgisidan so'ng qo'llanganda, sanaluvchilarning tugallanganligini ko'rsatadi.

2) «**ham**» ikki uyushiq bo'lak o'rtasida kelganda, bog'lovchi vazifasida bo'ladi va tugallanganlikni ko'rsatadi: o'qidi, yozib ham oldi kabi formada tugallanganlikni qat'iy ko'rsatmaydi, uni davom ettirishi mumkin: ...o'qidi, yozib **ham** oldi, tushunib **ham** yetdi kabi.

b) so'zlovchi sanaluvchilarning har biriga alohida ahamiyat berganda, uni maxsus ta'kidlamoqchi bo'lganda, grammatik forma (larni) uyushuvchilarning har biriga qo'shib ishlatiladi: Bunda ko'pincha uyushuvchilar bog'lovchisiz qo'llanadi: **Olmalarni**, asl **nashvatilarni**, luchchak **shaftolilarni**, **anjirlarni** qarang-a! (Jonli nutq).

Ko'plik ko'rsatkichi **-lar** ning qo'llanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Agar uyushuvchilar barchasi ko'plikda bo'lsa, uni ko'plik formada qo'llamoq lozim va bunda alohida ta'kidlanganlik ottenkasi susayadi: **-lar** ni uyushgan bo'laklarning oxirgisiga qo'shish fikriy noaniqlik holatiga olib keladi: Masalan: Ular ichida **tarixchi, arxeolog, tuproqshunos, tabiatshunos** va **ishchilar** bor gapida **-lar** barcha uyushiq bo'lakka xos deb ham, xos emas deb ham hukm chiqarish mumkin.

Til kishilarning fikr va muloxazalarini ifodalaydi, ular uchun muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. (Mamatov, 2014:5). Uyushiq bo'laklarning ayiruvchi va inkor bog'lovchilari yordamida birikishi maxsus uslubiy-ekspressiv xususiyat kasb etmaydi. Ular, asosan, obyektiv olam voqea-hodisalari yuzasidan axborot berish vazifasini bajaradi. Biroq ularning yakka holda qo'llanishi ayrim o'ziga xoslikka ega: **-yo (yoki)** takror qo'llanganda ikki voqea-hodisaning biri ro'y berishi qat'iy bo'ladi, yakka qo'llanganda esa ehtimol tutilganlik ottenkasi ifoda etiladi. Qiyoslang: **Yo o'qiysan, yo ketasan** (ikkidan biri) – **o'qiysan yo ketasan** (har ikkisi bo'lishi ham mumkin). Bu ma'nolar nutq vaziyati va ohang bilan qat'iy bog'liq. Shunga ko'ra takror qo'llanganda ehtimollik, yakka qo'llanganda qat'iylik aks etishi ham mumkin.

-«**ham**» yuklamasi takror qo'llansa uyushuvchilardan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Bunda «**ham**» ni uyushuvchilardan oldin qo'llash imkoniyati ham mavjud bo'lib, «**ham**» nisbiy bog'lovchi vazifasida keladi. «Ham so'zi takrorlanib kelganda ikki xil ma'no anglatadi: ham so'zi o'zi aloqador so'zdan keyin kelsa, ayirib ko'rsatish, ta'kidlash, oldin kelsa, faqat ta'kidlash ma'nolari anglashiladi» [Shomaqsudov, 1980:183).

Uyushiq bo'laklar **-u (-yu), -da** yuklamalari, shuningdek, «**balki**» so'zlari bilan birikib kelishi mumkin. Bu vositalar gapda maxsus ottenka ifodalab, nisbiy bog'lovchi vazifasida keladi:

a) **-u (-yu), -da** yuklamalari har qanday holatda ham o'zining asl ma'nosini saqlaydi va o'sha ma'nosi bilan bog'lovchi vazifasini bajaradi: haqiqat egiladi-yu sinmaydi. Bu gapda **-yu** yuklamasi, asosan, ta'kidlash vazifasidadir, zidlik ma'nosi esa uyushgan leksemalar semantikasidan kelib chiqadi. Yuklama leksema



tarkibidagi zidlikni kuchaytiradi. Bu zidlik ikkilamchi kuchaytirilganda, uyushiq bo‘lak orasida yuklamadan tashqari **lekin, biroq, ammo** bog‘lovchilari ishlatiladi. Leksemalar semantikasida zidlik bo‘lmaganda, **-u(yu)** mutlaqo zidlik emas, faqat ta’kid, kuchaytiruv ottenkasini ifodalaydi. Bu ma’no uchun **–da** yuklamasi ham ishlatiladi;

b) so‘zlovchi o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan voqea-hodisaning birini qat’iy inkor etganda (zid qo‘ymaydi) **«balki»** so‘zidan foydalanadi. Bunda **«balki»** so‘zi **«aksincha»** so‘ziga sinonim bo‘ladi. Oy isitmaydi, balki yoritadi (Gaz.).

Inkor munosabati **«emas»** orqali ham ifodalanadi. Bunda nisbiy uyushish ro‘y beradi. **«Emas»** nisbiy bog‘lovchilik rolini bajaradi. Bunda ham qat’iy inkor ottenkasi mavjud: ...o‘ylash **emas**, ishlash kerak kabi.

Uyushiq bo‘lakli tuzilmalarda ba’zan umumlashtiruvchi so‘zlarning qo‘llanishi barcha nutq uslublarida uchraydi. Umumlashtiruvchi so‘zlar uyushiq bo‘laklar mazmunini lo‘nda ifodalashga, ba’zan esa kuchaytirishga, qisqalikka xizmat qiladi.

Agar umumlashtiruvchi so‘zlar uyushiq bo‘laklardan oldin kelsa, so‘zlovchi asosiy diqqatni narsa-hodisaning yirik, umumiy tomoniga qaratadi, keyin uyushiq bo‘laklar orqali uni detallashtiradi: **Qudratning ikki o‘rtog‘i:** Karim va Rustam chiqib keldi (K.N) Uni **barcha:** Odil, Halima, Naziralar ko‘rib chiqdi. (P.M.)

Agar umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklardan keyin qo‘llansa, so‘zlovchi sanaluvchilar turi yana mavjudligini nazarda tutadi, «gapni qisqa qiladi», shu qisqalikda o‘sha turning barchasi mavjudligini ifoda etadi: Qo‘rboshilar, boylar, savdogarlar – **barchasi** xalqni taladi.

Undalmalar so‘zlashuv uslubigagina xos bo‘lib, boshqa nutq uslublarida shu uslubning in’ikosi sifatida ishlatiladi. Buning sababi shundaki, undalma ishtirok etgan gapda, albatta, tinglovchi bo‘lishi shartdir. Bu esa undalmalarning til hodisasi emas, sof nutq hodisasi ekanini ko‘rsatadi. Tilshunoslikda uning gapdan ajratilishi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Lekin undalmani uchinchi darajali bo‘lak (R.Saydullayev) deganda, uning ana shu xususiyati hisobga olinmaydi. Undalma nutq bo‘lagidir, nutqning reallashtiruvchi faol, birinchi darajali bo‘lagidir. Gap esa bir butun holda nutq bo‘lagidir.

Nutq til boyligidan foydalanish jarayoni va shunda jarayonning hosilasi. (Xolmonova, 2010:67). Ichki nutqda ham tinglovchi bo'lishi shartligi inkor etilmaydi. Bunda so'zlovchi o'zini yoki boshqa birovni xayolan ko'z o'ngida gavdalantirib, unga murojaat etadi va shu yo'l bilan ichki his-tuyg'ularini, modal munosabatlarini ifoda etadi.

Undalmalar ko'proq so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslubda ishlatiladi, ilmiy, rasmiy ish uslubida juda kam uchraydi. Inkor va chaqiriqlarda esa juda ko'p qo'llanadi.

Undalmalar, asosan, shaxs otlari yoki shaxs bildiruvchi so'z formalari orqali ifodalanib, nutqning kimga tegishli ekanini ko'rsatishga, tinglovchilar ko'p bo'lganda, ulardan birini ajratishga, yakka bo'lganda, uning diqqatini jalb etishga, gapning shu shaxs uchun muhimligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, undalma hurmat va madaniy, muloyim muomala uchun ham xizmat qiladi. Nima dori ichaman, **doktor** gapida undalma hurmat, muloyimlik o'ttenkasini ham ifoda etadi.

Undalmaning o'rni so'zlovchi fikr bayonida qaysi bo'lak (bo'laklar)ga e'tiborni tortishi bilan bog'liq:

a) so'zlovchi fikrning to'laligicha muhimligini nazarda tutganda, undalmani gap boshida qo'llaydi: **Opa**, menga Omonimni qo'y. (H.O.) **Omon**, menga o'zingni anglat (H.O.) **Qulmat**, aravani qo'sh! (A.Q.);

b) so'zlovchi tema /berilgan/ni birinchi o'ringa qo'yib temani alohida ta'kidlamochi bo'lganda, undalmani gap ichida qo'llaydi: Menga, **opa**, Omonimni qo'y (bunda gapning tema va rema tuzilishi o'zgaradi.) Biz, **o'rtoqlar** ishlarimizni qayta qurib olishimiz kerak (Gaz.) So'zla, so'zla, **ko'zgujon**, haqiqatni et bayon! (Ertak);

v) so'zlovchi fikrning kimga taalluqli ekanini eslatmoqchi, umuman ta'kidlamochi bo'lganda, undalmani gap oxirida qo'llaydi: Bugun menga qarashib yuborsang, **Otabek** (A.Q.) Samovarni qo'yib yubor, **o'g'lim**! Senga bir mehrimni berdim, lolazorimsan, **Vatan**! (U.)

Undalmalarning uslubiy bo'yog'i undalma bo'lib kelgan leksema semantikasi bilan bog'liq. Shaxs bildirmaydigan undalmalarning uslubiy bo'yog'i badiiylik bilan izohlanadi va, asosan, badiiy adabiyotda, goho-goho so'zlashuv uslubida uchraydi. O'zbek tilida uyushiq bo'laklar va undalmalar turli nutq uslublarida turlicha uslubiy xususiyatlarga ega bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.E. Mamatov, Tilning eng muhim 100 ta funksiyasi. – Toshkent: Bayoz, 2014. – B.5.
2. A.Shomaqsudov, I,Rasulov, R.Qo'ng'urov, H,Rustamov, O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B.183.
3. M.Aminov, A,Madvaliyev, N,Mahkamov, N.Mahmudov. Ish yuritish. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B.3.
4. Z.T.Xolmonova, Tilshunoslik nazariyasi – Toshkent: TDPU, 2010. – B. 67.
5. Абдурахмонов Ф. Теория текста. (Доклад на ИИИ Всесоюзной тюркологической конференции.) // Советская тюркология, 1981. – №1. – С. 93.
6. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
7. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент: Низомий номли педагогика институти нашриёти, 1989.
8. Боймирзаева С. Матнда киноя мазмунининг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. – № 4. – Б.111-118.
9. Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодаланишининг усул ҳамда воситалари: филол. Фан. номз. дисс.– Фарғона, 2001.
10. Ҳақимов М. Ўзбек прагматингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013.
11. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. ДД. – Тошкент, 2001.
12. Babakhanova, D. (2023). THE USE OF VERB FORMS IN SPEECH STYLES. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(5), 707-713. Retrieved from: [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation\\_for\\_view=dXYpKnsAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation_for_view=dXYpKnsAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC)
13. Babaxanova, D. A. (2021). PROPOSITIVE NOMINATION AND DENOTATION STRUCTURE IN UZBEK. Theoretical & Applied Science, (6), 380-383. Retrieved from: [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation\\_for\\_view=dXYpKnsAAAAJ:9yKSN-GCB0IC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation_for_view=dXYpKnsAAAAJ:9yKSN-GCB0IC)

### **MADANIYATLARARO MULOQOT VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA**

***Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li,***

*Renessans universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada nutq va muloqot madaniyatining shaxs rivojlanishidagi o'rni, madaniyatlararo muloqotning mohiyati, turlari, shakllari hamda kommunikativ vositalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda og'zaki, og'zaki bo'lmagan va paraverbal muloqotning kommunikativ jarayondagi

ahamiyati yoritilib, madaniyatlararo kompetensiyaning kognitiv, affektiv va protsessual tarkibiy qismlari tavsiflangan. Shuningdek, madaniy qadriyatlar, kommunikativ me'yorlar va milliy xususiyatlarning o'zaro tushunish hamda samarali hamkorlikni ta'minlashdagi roli ochib berilgan. Maqolada zamonaviy globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning nazariy va amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** madaniyatlararo muloqot, kommunikativ kompetensiya, nutq madaniyati, kommunikativ faoliyat, og'zaki muloqot, og'zaki bo'lmagan muloqot, paraverbal vositalar, kommunikativ xulq, madaniy qadriyatlar, milliy mentalitet, kommunikativ strategiya, madaniy identiklik, empatiya, bag'rikenglik.

**Abstract:** this article scientifically and theoretically analyzes the role of speech and communication culture in the development of the individual, the essence, types, forms and means of communication of intercultural communication. The study highlights the importance of verbal, non-verbal and paraverbal communication in the communicative process, describes the cognitive, affective and procedural components of intercultural competence. It also reveals the role of cultural values, communicative norms and national characteristics in ensuring mutual understanding and effective cooperation. The article substantiates the theoretical and practical importance of developing intercultural communication in the conditions of modern globalization.

**Keywords:** intercultural communication, communicative competence, speech culture, communicative activity, verbal communication, non-verbal communication, paraverbal means, communicative behavior, cultural values, national mentality, communicative strategy, cultural identity, empathy, tolerance.

Shaxslar nutqini kuzatsak, ular orasidagi yuqori muloqot qobiliyatlarini alohida ajiralib turadi. Ushbu turdagi odamlar boshqa odamlar bilan osongina aloqa o'rnatishlari va tanishlar orttirishlari mumkin, ular har qanday kompaniyada o'zlarini qulay his qilishadi. Psixologlarning kuzatishlariga ko'ra bunday odamlar ongli yoki ongsiz ravishda ma'lum bir jalb qilish usullaridan, ya'ni suhbatdoshni

o'ziga jalb qilish qobiliyatidan foydalanadilar [Shoyimova Sh., 2017]. Xorijiy olimlarning maxsus tadqiqotlari shuni aniqladiki, muloqotning tabiati, shakli va uslubi ko'p jihatdan muloqotning birinchi daqiqalariga, ba'zan esa soniyalarga bog'liq. Deyarli har qanday vaziyatda muloqotning boshlang'ich bosqichini osonlashtirishga imkon beradigan juda ko'p oddiy usullar mavjud, bu esa ushbu jarayonning butun keyingi yo'nalishini belgilaydi. Bu usullar tabassum, suhbatdoshga ism-sharif bilan murojaat qilish, iltifot va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Muloqotda muloqotning turli usullari va uslublarining kombinatsiyasiga qarab, madaniyatlararo muloqotning uchta asosiy turini ajratish mumkin: og'zaki, og'zaki bo'lmagan va paraverbal.

Mutaxassislarning fikricha, odamlarning kommunikativ o'zaro ta'sirining to'rtidan uch qismi og'zaki (nutq) muloqotdan iborat. Muloqot jarayonida odamlar bir-biriga ta'sir qiladilar, turli g'oyalar, qiziqishlar, kayfiyatlar, his-tuyg'ular va boshqalarni almashadilar. Buning uchun har bir madaniyat o'z til tizimini yaratgan, uning yordamida uning tashuvchilari muloqot qilish va o'zaro ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Fanda lingvistik aloqaning turli shakllari og'zaki aloqa vositalari deb ataladi. Og'zaki muloqot deganda suhbatdoshlarning fikrlari, ma'lumotlari, hissiy tajribalarini nutqiy voqelantiradigan, lingvistik birliklarni jamlagan muloqot shakli tushuniladi [Dimbleby, Burton, 1998].

Muloqot jarayonini o'rganish shuni ko'rsatadiki, og'zaki muloqot inson muloqotining asosiy turidir, lekin u nutq matnini tushunishga yordam beradigan turli xil og'zaki bo'lmagan harakatlar bilan birga keladi. Har qanday aloqaning samaradorligi nafaqat suhbatdoshga so'zlar yoki og'zaki muloqotning boshqa elementlari qanchalik tushunarli bo'lishi bilan, balki yuz ifodalari, imo-ishoralar, tana harakatlari, tempi va tezligi bilan uzatiladigan vizual ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish qobiliyati bilan ham belgilanadi [5]. Til insonlar bilan muloqot qilishning eng samarali vositasi bo'lsa-da, u yagona muloqot vositasi emas. Og'zaki muloqot orqali faqat faktik bilimlarni yetkazish mumkin. Ammo ular odamning his-tuyg'ularini yetkazish uchun yetarli emas. Og'zaki ifodaga mos

kelmaydigan turli xil his-tuyg'ular, tajribalar va kayfiyatlar og'zaki bo'lmagan vositalar orqali uzatiladi. Og'zaki bo'lmagan aloqa sohasi inson tomonidan yuborilgan va kommunikativ ahamiyatga ega bo'lgan barcha verbal bo'lmagan signallardan iborat. Ushbu vositalar nafaqat yuz ifodalari, imo-ishoralar, tana holati, ovoz temбри, balki turli xil muhit, kiyim-kechak, dizayn va boshqa elementlarini o'z ichiga olgan keng ko'lamli hodisalarni birlashtiradi.

Og'zaki bo'lmagan muloqot deyilganda fanda muloqot jarayonida axborot va xabarlarni yetkazish uchun foydalaniladigan nolingvistik vositalar, simvollar va belgilar majmui tushuniladi [Zaripov, 2025: 96].

Muloqot jarayonida og'zaki so'z hech qachon neytral bo'lmaydi va ko'pincha u xabarning mazmunidan ham muhimroqdir. Gapning ma'nosi uni yetkazish uchun qanday intonatsiya, ritm, tembr, fraza va mantiqiy urg'u ishlatilganiga qarab o'zgarishi mumkin. Axborot uzatishning barcha bu tovush elementlari paralingvistik vositalar deb ataladi. Tadqiqotchilar nutq tovushlariga hamrohlik qiluvchi, to'ldiruvchi va o'rni bosuvchi quyidagi akustik vositalarni aniqlaydilar: temp, balandlik, tovush balandligi, tezlik, tembr, ritm, pauzalar, intonatsiya, xo'rsinish, nola, yo'tal va boshqalar.

Madaniyatlararo muloqotning quyidagi asosiy shakllari mavjud:

- bevosita aloqa: ma'lumot jo'natuvchi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri qabul qiluvchiga yuboriladi va og'zaki va yozma ravishda amalga oshirilishi mumkin;
- bilvosita aloqa: bir tomonlama xarakterga ega bo'lgan axborot manbalari adabiyot va san'at asarlari, radio xabarlar, teleko'rsatuvlar, gazeta va jurnallardagi nashrlar va boshqalardir;

Bilvosita va bevosita aloqa shakllari sheriklar o'rtasida vositachi vazifasini bajaradigan oraliq bo'g'inning mavjudligi yoki yo'qligi bilan farqlanadi. Shaxs yoki texnik vosita vositachi bo'lishi mumkin.

Madaniyatlararo muloqotda muloqotning ichki va tashqi kontekstini ajratib ko'rsatish odatiy holdir [Usmanova, Rixsiyeva, 2017].

Ichki kontekst bular: asosiy bilimlar, qadriyatlarga bo'lgan munosabat, madaniy o'ziga xoslik va shaxsning individual xususiyatlarining yig'indisidir. Bu

kontekst kommunikantning muloqotga kirishayotgan va muloqotning psixologik muhitini tashkil etuvchi kayfiyatni o'z ichiga oladi.

Tashqi kontekst aloqa muloqotning vaqti, sohasi va shartlari. Madaniyatlararo muloqot uchun muhim shart – bu kommunikativ jarayonning fonini belgilaydigan aloqa joyi. Shunday qilib, o'z hududida bo'lgan muloqotchi o'zini qulayroq his qiladi va chet ellikdan ko'ra o'z madaniyati makonida yaxshiroq yo'naltirilgan. Ish joyida va uyda muloqotning tabiati kundalik madaniyatning chuqurlashishi darajasi va shaxsiy omillarning ta'sirida farqlanadi.

Vaqtinchalik kontekst kommunikativ vaziyat sodir bo'lgan xronologik davrdir. Turli davrlarda muloqot ishtirokchilari (sheriklari) o'rtasidagi munosabatlar turli yo'llar bilan rivojlanadi.

Bu yerda muhim rol o'ynaydigan “madaniyatlararo kompetentsiya” tushunchasi, kommunikativ kompetentsiya tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, shakllangan shaxslararo tajriba darajasi bilan belgilanadi,

Madaniyatlararo kompetensiyaning tarkibiy elementlari quyidagilardir:

- effektiv – empatiya va bag'rikenglik, ular boshqa madaniyatga ishonchli munosabatlar doirasi bilan cheklanmaydi, balki samarali madaniyatlararo o'zaro ta'sir uchun asos bo'ladi;

- kognitiv – boshqa madaniyat vakillarining kommunikativ xulq-atvorini adekvat talqin qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan, tushunmovchiliklarning oldini olish va interfaol jarayonda o'z kommunikativ xatti-harakatlarini o'zgartirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan madaniy o'ziga xos bilim;

- protsessual – madaniyatlararo aloqalar sharoitida maxsus qo'llaniladigan strategiyalar.

Tanlangan elementlar guruhlarida asosida madaniyatlararo kompetentsiyani shakllantirish usullarini aniqlash mumkin:

- dastlab begona madaniyatning namoyon bo'lishiga xayrixoh munosabatda bo'lishga tayyorlaydigan o'z va boshqa madaniyat haqida fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirish;



– o‘z madaniyati va boshqa birovning madaniyati o‘rtasidagi diaxronik va sinxron aloqalarni chuqur tushunish uchun tegishli madaniyat haqidagi bilimlarni to‘ldirish;

– o‘z va chet el madaniyatida sotsializatsiya va inkulturatsiya shartlari, har ikkala madaniyatda qabul qilingan ijtimoiy tabaqalanish, o‘zaro ta‘sirning ijtimoiy-madaniy shakllari haqida bilimlarni egallash.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yuqori madaniyatlararo kompetentsiyaga erishishning eng muvaffaqiyatli strategiyasi integratsiya – boshqa xalqlar madaniyatini o‘zlashtirgan holda o‘z madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolishdir.

“Madaniyatlararo muloqot” tushunchasi “madaniyat” va “muloqot” tushunchalaridan kelib chiqqan.

“Madaniyat” atamasi eng noaniq tushunchalardan biri bo‘lib, bu madaniyatning o‘zi inson mavjudligining barcha tomonlarini ifodalovchi nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali hodisa ekanligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham uni ko‘plab fanlar o‘rganadi, ularning har biri madaniyat haqidagi o‘ziga xos tushuncha va ta‘rifni shakllantirish bilan birga o‘zining o‘rganish predmeti sifatida ma‘lum bir jihatini ajratib ko‘rsatadi.

“Madaniyatlararo muloqot” ta‘rifini shakllantirish yo‘lidagi navbatdagi mantiqiy qadam “muloqot” tushunchasining ta‘rifidir. Gumanitar fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida aloqa ta‘rifi haqidagi fikrlar har xil. Masalan, aloqani shaxslararo va ommaviy aloqa kontekstida turli xil kanallar orqali ma‘lumotlarni uzatish va idrok etishning ijtimoiy shartli jarayoni sifatida tadqiq etish mumkin. Yoki qisqaroq aytganda, ijtimoiy o‘zaro ta‘sirning semantik jihati sifatida, yanada torroq va funksional ma‘noda odamlarning o‘z munosabatlarini qurish va saqlab qolish vositasi sifatida tushunish mumkin. Agar biz yuqoridagilarni birlashtirib, o‘rganilayotgan mavzuga e‘tibor qaratgan holda ushbu tushunchani mustaqil ravishda shakllantirishga harakat qilsak, unda quyidagi ta‘rif shakllanishi mumkin: Muloqot – shaxslar va ular guruhleri o‘rtasida ma‘lumot almashish jarayoni, kommunikatsiyaning semantik tomoni.

Madaniyatlararo muloqot turli madaniyat vakillari uchrashganda, ularning har biri o'ziga xos madaniy me'yorlarga muvofiq harakat qilishi bilan tavsiflanadi.

Madaniyatlararo muloqot deganda turli milliy madaniyatlarga mansub kommunikativ aktning ikki ishtirokchisining adekvat o'zaro tushunishi anglashiladi.

Madaniyatlararo muloqot muammosi faqat til muammosi bilan cheklanib qolmaydi. Boshqa madaniyat sohibining tilini bilish zarur, ammo kommunikativ harakat ishtirokchilarining o'zaro bir-birlarini tushunishi uchun bu yetarli emas. Bundan tashqari, madaniyatlararo muloqot nafaqat ikki xil til o'rtasidagi farqlar, balki bir tildan foydalanishda ham farqlar mavjudligini nazarda tutadi.

Madaniy normalar odamlarning turmush tarzi va munosabatlarini belgilaydi. Ular inson tafakkuri va xulq-atvorining keng sohalarini tartibga soladi va idrok etish, baholash va shaxslararo munosabatlarning tabiatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim va tarbiya, an'ana va urf-odatlar, jamiyat tomonidan belgilangan qoidalar, odamlar muloqot qiladigan tilning o'ziga xos xususiyatlari – bu kundalik muammolarni hal qilishga yordam beradigan yo'nalish tizimini ishlab chiqadigan omillarning kombinatsiyasi.

Muayyan madaniyatda umumiy qabul qilingan fikrlash va xulq-atvor me'yorlaridan ko'ra umumiyroq jihatlar mavjud. Agar bunday jihatlar maqbul chegaralarda o'zgarsa, ular ma'lum bir madaniyatda birga yashaydilar.

Inson dunyoni ma'lum bir madaniy doirada ko'radi. Biroq bu madaniyatlar, shaxs tomonidan tan olinmaydi, chunki ular ko'pincha unga shunchalik xosdirki, ular uning shaxsiyatining bir qismini tashkil qiladi. Xulq-atvor va o'z madaniyatining tafakkur me'yorlaridan xabardor bo'lish faqat o'z xulq-atvorida boshqa madaniy me'yorlarga amal qiladigan odamlar bilan aloqalar mavjud bo'lganda mumkin. Odamlar u yoki bu darajada madaniy ufqlari chegaralarini kengaytiradi, boshqa mamlakatlarga tashrif buyuradi, chet tillarini o'rganadi, chet el adabiyotini o'qiydi, chet elliklar bilan muloqot qiladi.

Madaniyatlararo muloqot turli madaniyat vakillari o'rtasida o'zaro tushunish, hamkorlik va ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi muhim kommunikativ

jarayon hisoblanadi. Uning samaradorligi til vositalaridan foydalanish bilan bir qatorda, madaniy me'yorlar, qadriyatlar, kommunikativ xulq-atvor va milliy mentalitet xususiyatlarini anglash darajasiga ham bog'liq. Madaniyatlararo kompetensiyaning shakllanishi shaxsning kommunikativ salohiyatini rivojlantiradi, turli madaniy muhitlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatini kengaytiradi hamda bag'rikenglik va empatiya kabi ijtimoiy fazilatlarni mustahkamlaydi. Shu bois ta'lim jarayonida madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, global axborot makonida samarali kommunikatsiyani ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dimbleby R., Burton G. More Than Words. An Introduction to Communication. – L.N.Y.: Routledge, 1998. <https://ndl.ethernet.edu.et/bitstream/123456789/17620/1/54.pdf.pdf>
2. Shoyimova Sh. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017.
3. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017.
4. Zaripov R. Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – B. 145.
5. Кашкин В.Б. Основы теории коммуникации. – М., 2007, электронная версия // <http://kachkine.narod.ru/CommTheory/Contents/Contents.htm>

#### **BADIIY MATN KO'P ASPEKTLI TIZIM SIFATIDA**

***Babaxanova Dilorom Axmatxanovna,***  
*NamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

***Saidova Muhabbat Shukrullayevna,***  
*NamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya:** Jahon tilshunosligida XX asrning 70-yillaridan pragmalingsvistika alohida soha sifatida rivojlana boshladi. Semantika tarkibidan pragmatikaning ajralib chiqishi til birliklarining nutqiy muloqot jarayonidagi ta'sir va samaradorligi, matn semantikasiga qo'shimcha ravishda ifodalanadigan ma'no qirralarini o'rganishga ilmiy ehtiyoj borligini ko'rsatdi. Buning natijasida matnning kommunikativ xususiyatlarini tahlil qilish, tilning boyligi, ifoda imkoniyatlarining kengligini o'zida mujassam etuvchi badiiy matn va uni idrok etish jarayoniga pragmalingsvistik yondashish dolzarb masalaga aylandi. Dunyo

tilshunosligida bugungi kunda antropotsentrik tilshunoslik yo'nalishlaridan biri deb e'tirof etilayotgan pragmalingvistika keng qamrovli soha sifatida rivojlanmoqda. Muloqot jarayoni va uning nutqiy vaziyat, shaxs omillari bilan bog'liqligi, nutqiy akt nazariyasiga oid tadqiqotlar maydonga keldi. Matn implikaturasi, presuppozitsiya va tagma'no masalalari, modallik, baho kategoriyalariga oid izlanishlarga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Pragmalingvistikada muloqot jarayoni va matnga tizimli tarzda yondashilib, uning fonopragmatika, leksopragmatika, pragmasintaksis, pragmasemantika kabi qator tarmoqlari rivojlanmoqda. Pragmalingvistika sohasining eng muhim masalalaridan biri bu ifodadagi implitsit ma'no masalasidir. Implitsit ma'noning eng muhim turlaridan biri bu tagma'nodir. Mazkur maqolada badiiy matnda tagma'no ifodalanishining lingvistik asoslari tahlil qilinadi. Tagma'noning piching, kesatq, istehzo kabi turlarining muhim jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tagma'no, matn, nutqiy vaziyat, so'zlovchi, tinglovchi, nutqiy jarayon, ironiya, diskurs, kesatq.

Matn – mazmunan bog'langan belgi birliklari (знаковых yedinit) ning ketma-ketligi bo'lib, uning asosiy xususiyatlari mantiqiy va mazmuniy aloqadorlik, to'liqlik, yakunlanganlik, intonatsion yaxlitlikdan iboratdir. Fanda matnni tushunishga doir turlicha qarashlar mavjud. Ular, eng avvalo, bu tushunchaning semiotik va tilshunoslik yondashuvlari orqali talqin etilishi bilan bog'liq bo'ladi. Semiotika nuqtai nazaridan matn bu mazmuniy ketma-ketlikdagi har qanday belgilardir (bu so'zlarda ifoda etilgan asar ham, musiqiy asar ham, rassomchilik namunasi ham, me'moriy obida ham bo'lishi ham mumkin); tilshunoslikda esa matn bu verbal belgilar ketma-ketligi sanaladi va sohaning markaziy tushunchalaridan sifatida ushbu fanning har qanday aspektida lisoniy birliklarning turli qirralarini yoritishda, muayyan tilning ifoda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda, aloqa-aralashuv jarayonida eng muhim manbadir.

A.Mamajonovning “Tekst lingvistikasi” qo'llanmasida o'zbek tilshunosligida ilk marta matn nazariyasi bo'yicha ma'lumotlar berildi. Olim

mazkur qo‘llanmada matnga bir necha xil sistemalar kompleksidan iborat bo‘lgan sintaktik hodisa sifatida yondashadi. Uni o‘zaro aloqador bo‘lgan morfologik birliklar yig‘indisidan iborat bo‘lgan murakkab struktura deb ham atash mumkinligini ta’kidlagan holda morfologik sistema sifatida tushunilishini, o‘zida bir necha leksik birliklarni mujassamlashtirgan eng yirik nutq birligi sifatida esa bir butun leksik sistemani shakllantirishini, shuningdek, matn bir vaqtning o‘zida sintaktik sistema, semantik sistema hamda stilistik usullar sistemasi hisoblanishi ham mumkinligini, shu jihatdan olganda matn sistem tilshunoslikning eng murakkab, ko‘p qirrali tekshiruv ob’ekti hisoblanishini aytadi. Prof. A.Mamajonov matn tilshunosligi borasidagi izlanishlarini rivojlantirib, M.Abdupattoyev bilan hamkorlikda “Matn nazariyasi” qo‘llanmasini ham nashr ettirdi. Mazkur qo‘llanmada o‘zbek matn tilshunosligida qo‘lga kiritilgan yutuqlar, bu sohada yosh tadqiqotchilar oldiga qo‘yilayotgan dolzarb vazifalar, matn birliklari va ularning sintaktik, semantik va uslubiy jihatlari ilmiy asosda yoritib berilgan [Мамажонов, Абдупаттоев, 2016: 112]. J.Lapasov esa matnga vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlik, murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo‘lgan og‘zaki va yozma ijod namunasi sifatida qarab, uning tuzilishi, turlari, o‘ziga xos belgilari masalasini yoritadi [Лapasов, 1995: 88 ].

Muloqot tizimini jarayon sifatida antropotsentrik nuqtai nazardan tahlil etish dolzarb sanalayotgan hozirgi tilshunoslikda matnning lingvistik maqomi qanday?

So‘nggi yillardagi tilshunoslikka oid ilmiy izlanishlarni kuzatish shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy dunyo tilshunosligida kommunikativ faoliyat nazariyasi va uning birliklari tadqiqiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Zamonaviy tilshunoslik sohalaridan sanaluvchi pragmalingvistika matn va uning turlariga, ichki mazmuniy tuzilishiga qaysi metodlar asosida yondashadi? Albatta, matn tilshunos uchun asosiy tadqiq obyektidir. Pragmatik lingvistika bo‘yicha yirik mutaxassis A.Maslova tilshunoslikdagi mavjud matn haqidagi fikr va qarashlarni umumlashtirib, matn – bu verbal belgilarning ketma-ketligi, u ma’lum bir til turiga oid uslubiy me’yorlarga asosan til ijodkorligi jarayonida aniq bir asar shaklida qayd etilgan hodisa; o‘z sarlavhasiga ega, shu sarlavha ma’nosi bilan uzviy

bog'langan, o'zaro bog'liq qismlardan iborat bo'lgan, shuningdek, bir maqsadga yo'naltirilgan hamda pragmatik qurilmaga ega asarlar ekanligini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, tilshunoslikda eng ko'p tarqalgan uch yondashuvni qayd etadi. Unga ko'ra matn bu til tizimining eng yuqori darajasi sanaladi; matn bu nutq birligi, nutq faoliyati natijasi hisoblanadi; matn bu muloqot birligi sifatida nisbiy ma'noviy tugallikka ega bo'ladi[Маслова, 2017: 25]. Bu ta'riflarga qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, matnda nafaqat verbal vositalar, balki noverbal vositalar ifodasi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki nutqiy faoliyatda noverbal vositalar fikrni to'ldirish, so'zlovchiga xos milliy va gender belgilarni aks ettirish kabi bir qator vazifalarni bajaradi.

Professor Sh.Safarov ham matn mavzusiga to'xtalib, uni diskursiv faoliyat mahsuli sifatida izohlaydi. Demak, matn termini bugungi kunda kognitiv-diskursiv faoliyat natijasi bo'lgan, og'zaki yoki yozma tarzda voqelanadigan, tugallangan, shakliy va mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan, o'zida grammatik, semantik, stilistik, pragmatik, kommunikativ, sotsial, madaniy xususiyatlarni jamlagan yirik nutqiy birlikni ifoda etmoqda.

Inson faoliyatining asosiy katta qismi kommunikativ munosabatlardan iborat ekan va insonlarning yashash tarzini belgilab berar ekan, aloqa-aralashuvni shakllantiruvchi vosita vazifasini bajaruvchi asosiy qurol matn sanaladi. Kommunikatsiya va matn o'zaro bog'langan, ularning biri ikkinchisini taqozo etadi. Qolaversa, matn nafaqat nutqiy aloqa birligi, balki, umuman, kommunikativ munosabatlarning ham birligidir. Agar biz ma'lum shaxsning nutqiy matnini tahlil etsak, u eng avvalo, adresant tomonidan og'zaki yoki yozma shaklda yaratilgani, hamda adresatga yetkazilganini e'tirof etamiz. Uzatilayotgan axborot tilning muayyan qonun-qoidalari asosida shakllangani (intralingvistika) uning matn talablariga javob berishini bildiradi, axborotning adresant tomonidan adresatga uzatilishida kommunikantrlarning o'zaro munosabatlari (ekstralingvistika) katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Matn murakkab, ko'p aspektli tizim bo'lganligi uchun matn yaratish jarayoni va uning tahlili bilan bir qator soha vakillari: tilshunoslar,

mantiqshunoslar, psixolingvistlar, kibernetiklar, pedagoglar shug'ullanadi. Badiiy matnni tahlil qilishning o'ziga xos metodologik tamoyillari mavjud. Bu jarayonda shakl va mazmun birligi, tarixiylik, umumiylik va xususiylikning uyg'unligi, voqelikni estetik o'zlashtirish shakli ekanligi, sharhlovchining faolligi tamoyillarini hisobga olish lozim. Hozirgi kunda matn tilshunoslikda an'anaviy grammatik, semantik, uslubiy tahlillarga qo'shimcha tarzda lingvopoetik, psixolingvistik, sotsiolingvistik, kognitiv, lingvokulturologik, diskursiv, pragmalingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinmoqda. Kompyuter lingvistikasi, avtomatik tarjima yo'nalishlarida ham matn asosiy ob'ekt sanalmoqda. Bu albatta, fanlar integratsiyasining natijasi, shu bilan birga, shuni aytish mumkinki, matn tahliliga tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va tamoyillari asosida yondashuv lingvistik tadqiqotlar hududini har tomonlama kengaytirib, til birliklarining nutqiy imkoniyatlarini, ijtimoiy, madaniy mohiyatini, intellektual-kognitiv, ruhiy, etnik xususiyatlarini yoritishga xizmat qilmoqda.

Tagma'no masalasi lingvistik nuqtai nazardan I.V.Arnold, I.R.Galperin, G.V.Kolshanskiy, K.A.Dolinin kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Aslida SHarqda, xususan, o'zbek xalqida muayyan fikrni nutqiy vaziyatdan, shaxslararo munosabatdan kelib chiqib qo'llash yoki nutqiy jarayonda turli ishoraviy tagma'nolar va hazillardan foydalanish keng kuzatiladigan holatdir. Salbiy munosabat yoki salbiy fikrni, tanqidni silliqashtirish, ijobiy fikrni, munosabatni ham siyqalashtirmay oxorli holatda bildirish xalqimizning milliy mentalitetiga xos xususiyat sanaladi. Badiiy asarlarda matn implikaturasi, ya'ni yashirin ma'no, yana ham aniqrog'i, tagma'no turli qirralarini namoyon qiladi.

Nutq obyektiga xos gina, kinoya, piching, kesatiq mazmuni boshlanishining o'zi matnda tagma'no mavjudligiga ishora deb qaralishidan darak beradi.[3:104] Demak, tagma'noning asosiy qismi kinoya (ironiya) orqali ifodalanadi. Tagma'nodan ko'zlangan asosiy maqsad fikrni mo'ljalga etkazish, tinglovchining ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish, fikrning o'tkirligini oshirishdan iborat bo'ladi. Tadqiqotchi E.Ibragimova o'z nomzodlik dissertatsiyasida kinoyani ironiya termini ostida uslubiy aspektida tahlil qiladi. Dissertatsiyada ta'kidlanishicha, ironiya orqali



badiiy asarda zaharxandalik va hatto alamli his-tuyg'ular ma'lum qobiqqa o'ralgan holda ifoda etiladi. U so'zlovchi va tinglovchining umumiy bilimlari asosida belgilanadi[Ибрагимова, 2001: .26].

Tagma'no nutqiy vaziyat, so'zlovchi va tinglovchi mavqei, munosabatlariga bog'liq tarzda yuzaga keladi va tagma'noning yuzaga kelishida ham umumiy bilish fondining ahamiyati bor. Chunki yashirin ifodalangan fikrni eshitgan har qanday inson uni tushunishda o'zining fon bilimlariga asoslanadi. Masalan: *Bir nafas tersayishib o'tirdik:*

*—... Men ham bugun “ziyofat” eyaverib juda ham sassiq kekirdak bo'lib ketdim. Rostini aytsam, xo'jayinga “mirzalik” qilishdan ham bo'larim bo'ldi (“SHum bola”). Keltirilgan misolda “ziyofat eyish” va “mirzalik qilish” Omon va SHum bolaning o'zaro bir-birini chuv tushirganlariga ishora qilgan holda “sening menga qilgan “hazil” ing ham menikidan kam bo'lmadi, xo'jayinning ziqnaligi va tinimsiz to'nka kovlashdan ta'zirimni edim” mazmunidagi kinoyaviy tagma'no ham ifodalanmoqda. Ifodalangan tagma'no, albatta, matndagi lisoniy vositalar orqali bildirilgan propozitsiya, kitobxonga avvaldan ma'lum bo'lgan matnni tushunishga yordam beradigan fon (umumiy, avvaldan mavjud bo'lgan) bilim, kitobxonga berilgan yangi axborotdan tashkil topadi. Tagma'noning yuzaga kelishi nutqiy vaziyat, nutq ishtirokchilari munosabati, so'zlovchining fikrlash darajasi va so'zlash uslubi, psixologiyasi kabi omillarga ham bog'liq.*

Tagma'noning yuzaga kelishida diskurs va nutqiy vaziyatning ahamiyati katta. Quyidagi diskursda ham tagma'no keskin nutqiy vaziyatda reallashadi:

*Eng oxirida zardasi qaynab ketdi:*

*—Senday og'aynidan menga harom o'lgan sigirning elini yaxshi edi, nima qilsa ham sovungar pul to'lab olar edi-ku. Xayr, sovuq diydoringni qiyomatda ham ko'rmay...*

*Orqasidan qichqirdim;*

*— Mulla Omonboy, shahardagi qo'shchi-qo'lonchi, sayis, miroxo'r, boy-u boyonlar, oshna-og'aynilaringizga xat-patingiz yo'qmi. Orifxo'ja eshon,*

Maqsudxon duma, G'ulomjon qozilarga nomingizdan salom aytib qo'yaymi  
(“Shum bola”).

Keltirilgan diskursda propozitsiya va presuppozitsiyaga so'zlovchi maqsadi teskari proporsional. Propozitsiya va presuppozitsiya tasvirlanayotgan davrda obro'li hisoblangan boyu boyonlar haqida axborot bersa, tagma'no so'zlovchining asosiy maqsadi – piching, kinoya, achitish, tinglovchining o'rinsiz kalondimog'ligi ustidan kulish kabilarni birinchi planga chiqaradi. *Mulla* so'zi esa semantik jihatdan o'qimishli, madrasa ta'limini ko'rgan, din arbobi kabi komponentlarni birlashtirsa, kinoyaviy tagma'nosi – savodsiz. Omonning ochiq darg'azablik bilan aytilgan so'zlaridan ko'ra Shum bolaning yumorga asoslangan kinoyasida ta'sirchanlik kuchli ifodalangan.

Tagma'noning yuzaga kelishida so'zlovchining so'zamolligi ham alohida ahamiyatga ega. “Shum bola” qissasida Omon nutqida tagma'no deyarli kuzatilmaydi. Uning nutqida oshkora ifoda etakchilik qiladi. SHum bola nutqida esa kinoyaviy tagma'no ko'p kuzatiladi. Omonning fe'li torligi, qo'liga ozgina pul tushsa, o'zgarib qolishi SHumbolaning g'ashiga tegadi. *Sen yo'liqmaganingda hov anov pulga to'qli olgan bo'lardim haligacha to'qli qo'y, qo'yim biya, biyam tuya bo'lardi*, deb nolishlariga kinoya bilan javob beradi va bu bilan uning “asosiy nuqtalari”ni mo'ljalga oladi:

– *Buning maslahati hali ham oson, - dedim. – Dorbozga shogird tushsang, duxobadan shim qilib beradi. Hammomga o't qalovchi – go'laxlikni o'rgansang, ertayu kech o't oldidan jilmaysan. Guppi bilan chaqmoqi telpakning ham keragi bo'lmasdi. Qo'y, biya, tuya, bu gaplar endi ortiqcha ziynat, bekorchi tashvish. Em-xashakni qaerdan topasan. Uning ustiga hovling kichik. Bu hayvonlar uchun katta saroy qurishing kerak. Hali ham bu mashmashalarni xayolingdan chiqarda, har shanba bilan chorshanba molbozorga bor. Ximimatingni baland tut. Bozorni o'z og'ilxonang deb o'yla. Butun shu hayvonlar o'zinniki deb dilingdan o'tkaz. Bularga ham qanoat qilmay, ko'ngling istab qolguday bo'lsa, YUpatovning ot o'yinxonasi qochib ketgani yo'q. Bilet olib ko'rishga albatta senda naqd aqcha bo'lmaydi. O'zingni ehtiyot qilib tashqaridan taxta tirqishidan o'sha atrofdagi*

*biror bir daraxtga chiqib ko'rishing mumkin. Ammo hali aytganday qorovulning ilonqamchisidan ehtiyot bo'l. Qani yur, uzun gapga fursat yo'q. shaharga tushib seni kutib yotgan buncha dov-dastgoh, izzat davlatlarni tomosha qil, dedim* ("Shum bola").

Shaklan maslahat mazmuniga ega bo'lgan kontekst qatida achchiq istehzo mavjud. Buning tagma'nosi bitta: "ko'p ham noliyverma, ko'rpangga qarab oyoq uzat" mazmuni bilan namoyon bo'ladi.

E.Ibragimova o'zbek tilida ironik mazmun ifodalash usullarini salbiy munosabatning qay darajada yuzaga chiqishiga qarab kesatiq, piching, qochirim, zaharxandalik, kinoya, kulish, masxaralash, uchuruq, istehzo, ermak, kalaka, shama, luqma, mayna, ta'riz, tajohuli orifona, ilmoq turlarini qayd etadi. [Ибрагимова , 2001:47] G'afur G'ulom nasriy asarlarida qahramonlar nutqida kesatiq, piching, shama qilish orqali tagma'no ifodalash turlari kuzatiladi. Masalan:

**Kesatiq.** Badiiy matnda pragmatik mazmunning shakllanishida metafora orqali shakllangan tagma'noning o'z o'rnini bor. Kontekstda muayyan so'z o'rniga vaziyat bilan bog'liq tarzda piching, kesatiqqa o'ralgan salbiy munosabat va bahoni bo'rttirib ifodalovchi metaforik birlikni qo'llash keng kuzatiladi. Masalan:

*Qarasa yo'lakda, bo'ynida bo'yincha, o'g'ilcha yig'lab o'tiradi.*

– *Bahay, o'g'il?*

*Ostonaqul butun bo'lgan voqeani so'zladi. SHoshqol domlaning ko'zi qinidan chiqib keta yozdi. Tutdi – so'kdi, tutdi – so'kdi. Bo'yinchani qo'lga olib:*

– *Keltirgan bo'yinchang hech bo'lmasa otniki ham emas, eshak bo'yincha, kichikligini qara, xo'tik, – deb g'azab qildi* ("Farzandi solih"). Xo'tik metaforasi kesatiq mazmunini anglatib, keskin norozilikni ifodalamoqda. Aslida hayvon nomlarini metaforik qo'llab, salbiy munosabat va kinoya ifodalash nutqda keng kuzatiladi. YUqoridagi pragmatik kontekstda o'g'ilchaning bo'yinchani bo'yniga solib o'tirishi tasviri, SHashqol domlaning "bo'yinchang hech bo'lmasa otniki ham emas, eshak bo'yincha" jumlasini qo'llashi xo'tik so'ziga qo'shimcha ta'sir yuklaydi.

**Piching.** Birovning g‘ashini keltirish maqsadida aytiladigan ilmoqli gap: *Bu suratni olgan kishi bir nusxa olgan ekan-da, bizga ham yuborsangiz, o‘zingizdan ham yaxshiroq qilib saqlar edik. Arzimabmiz-da.* (“Yodgor”).

**Istehzo.** Badiiy asarda qahramonlar nutqida ularning sajiyasi va saviyasidan kelib chiqib, muallif turli vositalarni qo‘llaydi. Qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlar, ziddiyatlar, ularning dunyoqarashi, maqsadini ochib berish uchun dialoglarda pragmatik omillarni e‘tiborga olgan holda o‘tkir ta’sirga ega til birliklaridan, ifodaning oshkora va yashirin shakllaridan, shu jumladan, kinoya va tagma’nodan foydalaniladi. Jumladagi har qanday tagma’no va kinoya uning pragmatik xususiyatiga asoslanadi. Kinoyaning qanday mazmun va maqsadda ifodalanishi nutq sub’ekti qaysi ijtimoiy guruhga va qanday madaniyat sohibi bo‘lishiga ham bog‘liq. Kinoya sub’ekti nutqiy muloqot vaziyatida asosan yuqoriroq mavqeda turadi, nutqiy faoliyat davomida uning intellektual va emotsional ustunligi namoyon bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida kinoya sub’ekti muloqot va etik qoidalarga rioya qilayotgan holda til tizimining ifoda vositalaridan foydalana olish qobiliyatida o‘z ifodasini topadi. Bu omillar, so‘zsiz, kinoyaning “sifat”iga ta’sir o‘tkazadi. Subyekt – kinoya obyekti nisbatan munosabatini oddiygina izhor qilib qolmasdan, balki ushbu munosabatni tinglovchiga yoki matn bilan tanishayotgan o‘quvchilarga ham singdirishga intiladi. Ko‘zlangan maqsadga nisbatan lisoniy vositalar tanlanadi [Caфapов, 2008:111]. Masalan:

*Pushaymon ohangi bilan:*

– *Esiz, esiz yigitlik. Zap odamidan xolis xizmat so‘ragan ekanman-ku; bo‘ldi-ey, esizgina sirlarim. Keling, hali ham bo‘lsa paranjini to‘nga ayirbosh qilamiz,* – dedi.

*Bu gapdan keyin men ancha po‘k bo‘lib qoldim. Oldin bergan va‘damdan aynishni yigitlik nomiga or deb bildim. Meni u haqiqatan enggan edi* (“Yodgor”). Mazkur kontekst qissa bosh qahramoni Jo‘ra va Mehrixonning asar voqealari rivojida muhim o‘rin tutuvchi dialogidan olingan bo‘lib, *“Paranjini to‘nga ayirbosh qilamiz”* kinoyasi bu o‘rinda asosiy ta’sir qiluvchi jumla hisoblanadi hamda Mehrixon nutqi natijaviyligini ta’minlaydi. Aslida, yuzaki olib qaraganda,

semantik jihatdan bu jumlada hech qanday murakkablik yo‘q. Lekin chuqurroq yondashsak, ifodaning ta’sirliligi pragmatik omillar bilan bog‘liqligi, jumlaning mazmuni pragmatik qiymatga ega ekanligini ko‘ramiz. CHunki paranji ayollarga xos bosh kiyim, to‘n erkaklar ust kiyimi. Ma’lumki, SHarqda yigitlarning martabasi, erkaklarning mardligi, tantiligi, bir so‘zliligi ulug‘lanadi. Yigit kishi uchun hamiyatga qattiq tegadigan narsa bu ularga ayollarga xos xususiyatlarni, narsa-predmetlarni “yopishtirish” sanaladi. Bu pragmatik omildan so‘zlovchi (qahramon nutqida yozuvchi) mo‘ljalga aniq tegadigan tarzda foydalanadi. YOki:

*So‘z navbati menga kelib qoldi:*

– *Oshni o‘zim qoyil qilaman-da, lekin shunda ham birov o‘t yoqib berib tursa.*

– *Oh, bolam, – dedi kampir, – to‘rt yildan beri masalluqli tayyor oshni pishira olmaysan-ku?..*

*Bu gapdan Saodat uyalib erga qaradi. Men ichimda: “Obbo, kampir tushkur, eski zukkolikdan bittasini ishlatding-a”, deb qo‘ydim. (“Yodgor”).*

Tagma’no faqat salbiy ma’noni emas, ijobiy ma’noni yashirin ifodalash, muayyan voqelikka ishora qilish maqsadida ham qo‘llanadi. Jumladan, ishoraviy tagma’no orqali o‘tgan yoki bo‘lishi kutilayotgan voqelikni yashirin tarzda eslatish kuzatiladi. Bu hodisa tilshunoslikda retrospeksiya va prospeksiya terminlari bilan yuritiladi. Deyktik birliklar, maqol va matallar, frazemalar, takror bu turdagi tagma’noda lingvistik signal vazifasini bajaradi. Masalan: *Saodat o‘rnidan yarim qo‘zg‘alib:*

– *Ovora bo‘lmang, xola, choyni men quya qolay, – dedi.*

*Kampir mehribonlik bilan:*

– *Qo‘yaver, xolang aylansin, o‘zim quyib beraman. Sen hozir mehmonsan, bolam! Omon bo‘lsang, hali quyarsan, – dedi (“Yodgor”).*

*Kampirning bu soddagina gapidan ora-sira ivir-shivir bir sir o‘tganday bo‘ldi. Saodat er ostidan qiya qilib menga qarab qo‘ydi. Men ham xuddi shunday qilib qaradim. Har ikkovimizning ko‘z qarashimiz yarim sekund ichi dasturxondagi*

*novvot ustida to‘qnashib oldi. Bilinar-bilinmas iljayishib qo‘ydik. Saodat erga qaradi (“Yodgor”).*

Tagma’no ham verbal yoki noverbal vositalar orqali ifodalanishi mumkin: *Saodat yana kinoya bilan menga qarab qo‘ydi.*

– *Har bir gapni boshqa yoqqa buraverar ekansiz-da. Leningradliklar muomalaga usta bo‘ladi, deb eshitar edik. Sizni ham ancha o‘rgatib qo‘yishibdi.*

*Javob o‘rniga men cho‘ntagimdan Saodatning o‘zi tikib yuborgan shohi ro‘molchani olib, ko‘zimni artmoqchi bo‘ldim, bu bilan go‘yo. “Hali ham yonimda saqlab yuribman”, degan ishoratni bildirmoqchi edim. Saodat ro‘molchani tanisa ham, o‘zini bilmaslikka soldi (“Yodgor”).*

Demak, tagma’no badiiy uslubda turli lingvistik va ekstralingvistik omillar hamkorligida ifodalanadi. Tagma’no voqelanishida kinoya asosiy usullardan sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981.
2. Купина И.А. Лингвистический анализ художественного текста. – Москва, 1980.
3. Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста. – Ленинград, 1990. Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва, 1981.
4. Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. – Москва: ЛКИ, 2007.
5. Абдурахмонов Ф. Теория текста. (Доклад на ИИИ Всесоюзной тюркологической конференции.) // Советская тюркология, 1981. – №1. – С. 93.
6. Гуломов А., Аскарлова М. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
7. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент: Низомий номли педагогика институти нашриёти, 1989.
8. Боймирзаева С. Матнда киноя мазмунининг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. – № 4. – Б.111-118.
9. Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодаланишининг усул хамда воситалари: филол. Фан. номз. дисс.– Фарғона, 2001.
10. Ҳакимов М. Ўзбек прагматикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013.
11. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. ДД. – Тошкент, 2001.
12. Babakhanova, D. (2023). THE USE OF VERB FORMS IN SPEECH STYLES. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(5), 707-713. Retrieved from: [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation\\_for\\_view=dXYpKnsAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation_for_view=dXYpKnsAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC)

# O'ZBEK TILI GEORTONIMLARINING ETNOLINGVISTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

**Solixo'jayeva Havasxon,**

*NamDU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tili geortonimlarining etnolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari yoritilgan. Unda 20 dan ortiq bayram nomi tahlili asosida milliy geortonimik tizimni qadimgi turkiy, arab-islomiy va zamonaviy milliy qatlamlarga ajratish orqali lisoniy birliklarning semantik transformatsiyalari hamda ularda milliy-etnik o'ziga xoslikning aks etish tamoyillari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** geortonim, etnolingvistika, lingvokulturologiya, bayram nomlari, o'zbek tili, lisoniy qatlam, marosim, milliy mentalitet, semantik o'zlashish.

**Abstract.** The article reveals the ethnolinguistic and linguacultural characteristics of geortonims in the Uzbek language. Based on the analysis of more than 20 holiday names, the national geortonimic system is divided into ancient Turkic, Arabic-Islamic, and modern national layers. Furthermore, the semantic transformations of these linguistic units, as well as the principles of reflecting national-ethnic identity in them, are highlighted.

**Keywords:** geortonim, ethnolinguistics, linguaculturology, holiday names, Uzbek language, linguistic layer, ritual, national mentality, semantic borrowing.

Dunyo tilshunosligida til va madaniyat munosabatini, xalqning ma'naviy olami hamda dunyoqarashining tilda aks etishini o'rganish yetakchi yo'nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi natijasida til birliklarini inson omili, milliy madaniyat, urf-odat va qadriyatlar bilan uzviy bog'liqlikda tadqiq etishga e'tibor kuchaymoqda. Chunki xalqning qadriyatlari, e'tiqodi va madaniy hayotini aks ettiruvchi bayramlar, festivallar hamda tarixiy xotira kunlarining atoqli nomlarini ifodalovchi geortonimlar shunchaki taqvimiy belgi bo'lib qolmay, balki millatning ma'naviy xotirasi, etnografiyasi va lisoniy tafakkurini o'zida jamlagan muhim lisoniy birliklardir.



O‘zbek tili onomastik maydonida geortonimlar millatning tarixiy xotirasi va lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi mikrotizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda ma’naviy merosni asrash va til birliklarining lingvokulturologik tabiatini yoritish ehtiyoji ushbu qatlamni tizimli tahlil qilishni talab etmoqda.

Onomastikaga oid terminologik manbalarda har qanday bayram, festival, xotira kuni hamda marosimlarning atoqli otlari geortonim (yun. heorte – bayram + onoma – atoqli ot) deb yuritiladi. Geortonimlar sirasiga nafaqat sof bayram nomlari, balki ma’lum bir tantanavor xarakterga ega siyosiy, madaniy va sport tadbirlarining nomlari ham kiritiladi. Mazkur birliklarning etnolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish ulardagi milliy-etnik qatlamlarning ustuvorligini ko‘rsatishi bilan muhim ilmiy qimmatga ega.

Etnolingvistik va lingvokulturologik paradigma nuqtai nazaridan har bir geortonim yaxlit semantik strukturaga ega bo‘lib, o‘zida lisoniy asos (denotatsiya), madaniy konnotatsiya (marosim va e’tiqod) hamda etnik kodni (milliy dunyoqarash) mujassam etadi. O‘zbek tili geortonimik tizimi xronologik va lingvokulturologik xususiyatlariga ko‘ra uchta asosiy tarkibiy qatlamga ajratiladi: qadimgi turkiy, arab-islomiy va zamonaviy milliy qatlamlar. Etnolingvistik evolyutsiya natijasida shakllangan mazkur tizimning xronologik chegaralari, yetakchi namunalari va etnik-madaniy xususiyatlari quyidagi jadvalda tizimlashtirilgan.

*O‘zbek tili geortonimik tizimining tarkibiy qatlamlari xronologiyasi va etnik-madaniy tabiati*

| Lisoniy-madaniy qatlam       | Tarixiy xronologiyasi                          | Etalon geortonimlar                                                                                                      | Etnik-madaniy xususiyatlari                                                                         |
|------------------------------|------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Qadimgi o‘zbek-turkiy</b> | Islomgacha bo‘lgan davr (VII–VIII asrlargacha) | Navro‘z, Hosil bayrami, Sumalak sayli, Lola sayli, Boychechak sayli, Mehrjon, Hashar, Gap-gashtak, Saylgoh, Angom hayiti | Tabiat sirkulyatsiyasi (sikllari), agrar xo‘ajalik an‘analalari, jamoaviy birdamlik va hamjihatlik. |

| Lisoniy-<br>madaniy<br>qatlam      | Tarixiy<br>xronologiyasi                          | Etalon geortonimlar                                                                                                                                 | Etnik-madaniy<br>xususiyatlari                                          |
|------------------------------------|---------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|
| <b>Arab-islomiy<br/>qatlam</b>     | VIII–IX<br>asrlardan –<br>XX asr<br>boshlarigacha | Ramazon hayiti (Iyd-<br>al-Fitr), Qurbon hayiti<br>(Iyd-al-Adha), Mav'lid<br>an-Nabiy,<br>Laylatulqadr, Ashuro,<br>Juma bayrami                     | Diniy e'tiqod,<br>umma birligi,<br>ma'naviy poklanish                   |
| <b>Zamonaviy<br/>milliy qatlam</b> | 1991-yildan –<br>hozirgi<br>davgacha              | Mustaqillik kuni, Ona<br>tili bayrami, Xotira va<br>qadrlash kuni, Navro'z<br>milliy bayrami,<br>Konstitutsiya kuni,<br>Vatan himoyachilari<br>kuni | Milliy o'zlik,<br>davlat mustaqilligi,<br>tarixiy xotira va<br>qadrlash |

Qadimgi turkiy qatlamga mansub geortonimlar, asosan, dehqonchilik turmush tarzi, tabiat fasllarining almashishi va islomgacha bo'lgan e'tiqodiy tasavvurlar bilan bog'liq. Bu qatlamning yetakchi lisoniy namunasi bo'lgan *Navro'z* geortonimi, etimologik jihatdan forscha “nav” (yangi) va “ro'z” (kun) so'zlaridan tashkil topsa-da, qadimgi turkiy xalqlarning quyosh taqvimiga asoslangan yilboshi tushunchasini ifodalaydi. Mazkur geortonimning etnolingvistik tabiati shundaki, ushbu birlik o'zbek tili sohiblari ongida tabiatning qayta uyg'onishi, yangilanish va jamoaviy mehnat qarashlarini uyg'otadi. Xuddi shunday, *Hosil bayrami*, *Sumalak sayli*, *Lola sayli*, *Boychechak sayli* kabi nomlar qadimiy dehqonchilik madaniyatining tildagi qadimiy izlari hisoblanadi. Xususan, *sumalak* so'zi dastlab bug'doy unib chiqqanda tayyorlanadigan taom nomini ifodalagan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan butun bir bahoriy marosimni belgilovchi geortonimga aylangan. Mazkur so'zda o'zbek dehqonining tabiatga bo'lgan munosabati, mehnatga ehtirom va jamoaviy birdamlik qarashlari ma'naviy jihatdan muhrlangan. Saylgoh va gap-gashtak kabi birliklar esa an'anaviy jamoaviy hayot tartibining lisoniy aksidir.

Movarounnahrning islomlashishi natijasida arab tilidan o'zlashgan konseptual tushunchalar o'zbek tili geortonimik tizimida chuqur iz qoldirdi.

*Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Mavlid an-Nabiy, Laylatulqadr va Ashuro kuni* kabi nomlar tilda nafaqat diniy, balki o'ziga xos milliy-madaniy ma'no kasb etgan. Mazkur qatlamdagi eng muhim hodisa – arabcha diniy atamalarining o'zbek xalqi turmush tarzida yangi, kengaytirilgan ma'no qatlamlariga ega bo'lishidir. Masalan, etimologik jihatdan arabcha “*iyd*” (shodlik, bayram) so'zidan kelib chiqqan “*hayit*” leksemasi hozirgi o'zbek tilida musulmonlarning diniy bayramini ifodalaydi. Biroq etnolingvistik nuqtai nazardan ushbu so'z o'zbek xalqi hayotida qo'ni-qo'shnichilik ziyorati, kattalarga ehtirom ko'rsatish, bolalarga bayramlik ulashish va jamoaviy ehson dasturxonlari kabi o'zbekona urf-odatlar hisobiga semantik jihatdan kengaygan. Shuningdek, arabcha “*qurba*” (Allohga yaqinlashish) tushunchasidan olingan “*qurbon*” so'zi o'zbek tilida qurbonlik qilish marosimi, xayr-sadaqa va muhtojlarga ko'mak berish kabi aniq amaliy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bunday ma'naviy siljish yuksak diniy-ma'naviy tushunchaning o'zbek xalqining milliy qarashlari va an'analari bilan uyg'unlashib, hayotiy qadriyat darajasida namoyon bo'lganini ko'rsatadi.

Mustaqillik davrida shakllangan zamonaviy o'zbek geortonimlarida ikki yetakchi tamoyil ko'zga tashlanadi. Birinchisi – milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklash xususiyatidir. Bunday nomlar o'zbek etnik tafakkuridagi milliy qadriyatlarga qaytish jarayonini ifodalaydi. Masalan, nutqiy muomalada *Navro'z* bayramiga nisbatan “*milliy*” sifatining faol qo'llanishi ushbu sananing shunchaki taqvimiy marosim emas, balki madaniy o'zlik timsoliga aylanganini ko'rsatadi. Ushbu qatlamda *O'zbek tili bayrami kuni* geortonimi muhim lisoniy-madaniy qimmatga ega. Mazkur nom tarkibidagi “*ona tili*” konsepti *ona* va *bola* o'rtasidagi tabiiy-ma'naviy rishtani til bilan bog'lovchi etnik dunyoqarash mahsulidir. Ikkinchisi – ma'naviy qadriyatlarni e'zozlashdir. Xususan, *Xotira va qadrlash kuni* geortonimi tarkibidagi “*qadrlash*” so'zi arabcha “*qadr*” asosidan o'zbekcha -*lash* affiksi vositasida yasalgan bo'lib, *insonni e'zozlash, uning o'tmishi va xizmatlarini hurmat qilish ma'nosini ifodalaydi*. Boshqa ko'plab tillarda to'g'ridan-to'g'ri muqobili bo'lmagan ushbu tushuncha bir so'z doirasida *hurmat, ehtirom va*

*xotirlash* ma'nolarini tizimli birlashtirishi bilan o'zbek xalqi ma'naviy olamining o'ziga xos lisoniy ifodasidir.

O'zbek tili geortonimlarining etnolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari ularning xalq tarixiy xotirasi hamda dunyoqarashini tilda saqlab keluvchi yaxlit tizim ekanligini ko'rsatadi. Zero, ushbu geortonimik ko'lam dehqonchilik turmush tarzini ifodalovchi qadimgi turkiy, yuksak diniy-ma'naviy tushunchalarning milliy an'analar bilan uyg'unligini aks ettiruvchi arab-islomiy hamda milliy o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash tamoyillariga asoslangan zamonaviy milliy qatlamlarni qamrab oluvchi lingvomadaniy manba bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan: NamDU, 2006. – B. 24.
2. Bobojonov H. O'zbek xalqining madaniy va ma'naviy merosi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – 216 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 448.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 2-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 344.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 3-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 112.
6. Salixodjayeva H.Z. O'zbek tili xrononim va geortonimlarining lisoniy tadqiqi: Filol. fan. falsafa doktori (PhD) diss. avtorefi: 10.00.01. – Farg'ona: FarDU, 2020. – 48 b.
7. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986. – 192 b.

### **AYRIM O'ZBEK GEMERONIMLARINING NOMINATSION-MOTIVATSION TAHLILI**

***Yuldashev Otabek Toshpo'lat o'g'li,***

*NamDU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tilidagi ayrim gemeronimlar (gazeta va jurnal nomlarining) nominatsion-motivatsion jihatdan tahlil qilingan. Masalan, "*Mushtum*", "*Guliston*", "*Gulxan*", "*Yoshlik*", "*G'uncha*", "*Tadbirkor*", "*Hidoyat*", "*Saodat*", "*Ma'rifat*", "*Darakchi*", "*To'maris*" kabi gemeronimlarning lug'aviy asosi, nominatsion motivi va tarixiy-metaforik ma'nolari tahlil qilingan. Kichik tadqiqotimizda gemeronimlarning lug'aviy ma'nolari va ko'chma ma'nolari, jamiyatsdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, yoshlar va bolalar

tarbiyasi, diniy-ma'naviy qadriyatlar hamda tarixiy shaxslar bilan bog'liq motivlar asosida nomlangani aniqlangan. Shuningdek, nomlarning vaqt o'tishi bilan eskirish, yangilanish va takomillashish jarayonlari ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** gemeronim, lug'aviy asos, matbuot nashrlari, gazeta, jurnal, nominatsiya, motivatsiya.

O'zbek tili gemeronimlari o'z tarixi, nominatsion-motivatsion, lug'aviy asosiga ega bo'lib, turli davrlar davomida tilning eskirish, yangilanish va sayqallanish tamoyillari asosida ma'noviy va shakliy jihatdan takomillashib boradi. Bu jarayon o'zbek tili gemeronimlarining nominatsion-motivatsion tahlilida yorqin ko'rinadi.

“*Mushtum*” – oylik hajviy jurnal. “*Mushtum*” jurnalining tashkil etilishi bevosita Abdulla Qodiriy va G'ozii Yunus (Yunusov G'ozii Olim) faoliyati bilan uzviy bog'lanadi. Bu haqida Qodiriy quyidagilarni yozadi: “23 yilning fevral oyida, shekilli, “*Turkiston*” gazetasiga o'rtoq Abdulhay Toji muharrir belgilandi va shu o'rtoq bir kulki jurnali chiqaringiz, deb men bilan G'ozini chaqirdi. Biz ikkovimiz ishga kirishdikda, natijada sakkiz soncha “*Mushtum*” chiqdi [Қосимов, 2004: 403].

Jurnalning 1-soni 1923-yil 18-fevralda “*Turkiston gazetisi*”ga ilova, 1924-yildan “Qizil O'zbekiston” gazetasining ilovasi sifatida chop etilgan. Jurnalning 1-sonida uning tashkilotchilaridan Abdulla Qodiriyning “*Mushtum ta'rifida*” nomli bosh maqolasi berilgan. Mazkur maqolada “*Mushtum*” jurnalining yo'nalishi belgilangan: “*Bu “Mushtum” zo'rlik mushtumi emas, haqlik mushtumidir, bu “Mushtum” zolimlar mushtumi emas, mazlumlar mushtumidir. Shuning uchun buning ma'nosi ham boshqachadir...*”

Tanqidiy maqolalar, felyetonlar jamiyatni turli illatlardan tozalashda “*Mushtum*”ning asosiy quroli bo'lgan. Halol va oshkora tanqid jamiyat va odamlar uchun haqiqiy malham bo'lishiga erishish jurnalning bosh mezonini bo'lgan [Ўз. МИЛ. ЭНЦ., 2005:171].

Gemeronimga lugʻaviy asos boʻlgan *mushtum* soʻzi hozirgi oʻzbek adabiy tilida aynan *musht* maʼnosini anglatadi.

“*Mushtum*” gemeronimiga soʻzning koʻchma maʼnosi lugʻaviy asos boʻlgan. Jurnal jamiyatdagi salbiy illatlar hajviy ruhda yoritiladigan nashr boʻlganligi bois “*Mushtum*” deb nomlangan. Demak, jurnal yumoristik va hajviy materiallarning yoritilishi motivatsiyasi asosida nomlangan.

“*Guliston*” – ijtimoiy-siyosiy va badiiy-bezakli jurnal. Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi muassisligida Toshkent shahrida nashr etiladi. Dastlab “*Yer yuzi*” (1925 – 1931), “*Oʻzbekiston qurilishda*” (1932), “*Mashʼala*” (1934) nomlari bilan jami 202 ta soni chiqqan, 1935-yildan “*Guliston*” nomi bilan nashr etilgan, biroq 1941 – 1967-yillarda vaqtincha toʻxtatilgan. Jurnal majoziy maʼnoda gullab-yashnab, rivojlanib, taraqqiy etib borayotgan mamlakat ijtimoiy-siyosiy va adabiy, madaniy hayotiga doir nashr boʻlgani bois “*Guliston*” deb atalgan.

“*Gulxan*” – adabiy-badiiy, bezakli bolalar jurnali. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat matbuot qoʻmitasi, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi muassisligida nashr etiladi. Dastlab “*Yosh kuch*” (1929 – 1941) nomi bilan chiqqan. 1941 – 1945-yillarda urush sababli jurnalni chop etish toʻxtatilgan. Soʻngra “*Pioner*” (1952 – 1957) nomi bilan nashr etilgan. Koʻrinadiki, dastlab davr, yaʼni sobiq shoʻro hukumati siyosatiga mutanosib tarzda nomlangan. 1957-yildan hozirgi nomda nashr etila boshlangan.

Jurnal nomiga lugʻaviy asos boʻlgan *gulxan* soʻzi forsha boʻlib, “*otashdon*” degan maʼnoni anglatib, hozirgi oʻzbek adabiy tilida *isinish yoki boshqa biror maqsadda oʻtin qalab, ataylab yondirilgan oʻt, alanga* maʼnolarida qoʻllaniladi: *Oʻtirishibdi ikki doʻst, oʻrtoq, Otamlashib gulxan yonida.* (H.Poʻlat) Jurnal sahifalarida Oʻzbekiston bolalari hayoti, ularning orzu-intilishlari, shuningdek, badiiy adabiyot, sanʼat, xalq ogʻzaki ijodi, turli sport oʻyinlari muntazam yoritib boriladi [Ўз. мил. энц., 2002:121]. Anglashiladiki, jurnal yoshlarni ezgu ishlar, yutuq va gʻalabalar hamda zafarlarga chorlashga xizmat qilishi bois “*Gulxan*” deb atalgan.

“Yoshlik” – yoshlarning ijtimoiy-adabiy jurnali. Muassisilari O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Respublikasi yoshlar ittifoqi. Dastlab 1982-yilda tashkil etilgan, 1991-yilda hozirgi nom bilan qayta tiklangan. Jurnal sahifalarida yangi badiiy asrlar bilan bir qatorda bugungi yoshlarning orzu-umidlari, o‘y-tashvishlari, ma’naviyati, dunyoqarashlari haqida bahs yurituvchi maqolalar va suhbatlar muntazam berib boriladi [Ўз. мил. энц., 2002: 500].

Gemeronimning lug‘aviy asosi *yoshlik* apellyativi ko‘p ma’noli bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi:

1.Yosh ekanlik; yosh bo‘lgan payt, davr: *Ahmad olti yoshligida otasidan judo bo‘ldi.* (F.Musajonov)

2.O‘smirlik, navqironlik: *Yoshlik chog‘lari.*

3.Yoshlarga xos xatti-harakat, xususiyat: *Yoshlik g‘ururi.*

“Yoshlik” gemeronimiga mazkur so‘zning *yosh bo‘lgan payt, davr; o‘smirlik va navqironlik* ma’nolari lug‘aviy asos bo‘lgan. Jurnal navqiron yoshlar va o‘smirlarga oid va yosh ijodkorlar, ya’ni shoir va adiblarning ijod namunalari, asarlari bosiladigan adabiy nashr bo‘lganligi bois shunday atalgan. Demak, jurnal mualliflar va o‘quvchilarning yosh xususiyati motivatsiyasi asosida majoziy nomlangan.

“G‘uncha” – boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan jurnal nomi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi, yoshlar ittifoqi muassisligida 1958-yildan beri nashr etiladi.

G‘uncha lug‘aviy birligi tarixiy-etimologik manbasiga ko‘ra forscha bo‘lib, *kurtak, shona; lab, dudoq* degan ma’nolarni anglatib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi:

1.Hali ochilmagan, gulbarglari hali yozilmagan gul; o‘simlikning gul kurtagi: *Kechqurun (bulbul) gul g‘unchasini ko‘radi-yu, ishqida oshig‘u shaydo bo‘lib sayray beradi.* (P.Tursun)

2.ko‘chma. Biror hodisaning endigina boshlanayotgan payti, boshlanishi: *Shubha ichida qizargan muhabbat g‘unchasi visol xabari bilan ochilayozgandek... edi.* (A.Qodiriy, “Mehrobdan chayon”)



Gameronimga soʻzning *hali ochilmagan, gulbarglari hali yozilmagan gul; gul kurtagi* maʼnolari lugʻaviy asos qilib olingan. Gʻafur Gʻulom tashabbusi bilan “Gʻuncha” deb atalgan. Jurnal sahifalarida bolalar ijodi, talantli va taniqli yoshlar hamda kichkintoy sportchilar hayotidan hikoyalar, jahon bolalar yozuvchilari ijodidan namunalar, oʻzbek shoir va adiblarining kichkintoylarga atalgan asarlari bosilishi [Ўз. мил. энци., 2005: 245], boshlangʻich sinf oʻquvchilariga moʻljallanganligi motivatsiyasi asosida shunday atalgan.

“*Tadbirkor*” – “*Namangan haqiqati*” gazetasining ilova nashri. Gameronimning lugʻaviy asosi arabcha va forsha (tadbir +kor) birliklardan tarkib topgan, asli *tadbir qiluvchi, tadbir izlovchi* maʼnolarini anglatuvchi *tadbirkor* soʻzi hozirgi oʻzbek adabiy tilida quyidagi maʼnolarda qoʻllanadi:

1.ayn. Tadbirli: *Omon mustaqil fikrli, choʻrtkesar, uzoqni koʻra oladigan, tadbirkor, yaxshi doʻst edi.* (S.Koramatov, “Oltin qum”)

2.Ishlab chiqarishni yoki boshqa faoliyatni tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi shaxs, mulkdor.

*Tadbirkor, tadbirkorlik* tushunchasi XVIII asrda paydo boʻlgan va koʻpincha *mulkdor* iborasi bilan bir maʼnoda qoʻllanilgan [Ўз. мил. энци., 2005: 224].

“*Tadbirkor*” gemeronimiga soʻzning ikkinchi maʼnosi lugʻaviy asos boʻlgan. Gazeta ishlab chiqarish yoki boshqa turli faoliyatlarni tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi shaxs, mulkdorlar nashri boʻlgani bois “*Tadbirkor*” deb atalgan. Demak, nashr kasbiy, sohaviy xoslanganligiga koʻra nomlangan.

“*Hidoyat*” – oylik diniy-ijtimoiy, ilmiy adabiy jurnal. Oʻzbekiston musulmonlari idorasi muassisligida nashr etiladi. Avval “Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston musulmonlari” (1946 – 1968), “Sovet Sharqi musulmonlari” (1968 – 1991), “Movarounnahr musulmonlari” (1991 – 1968), “Oʻzbekiston musulmonlari” (1995 – 1999) nomlari bilan nashr etilgan. Jurnalda Qurʼon oyatlarining tafsirlari, hadisi sharif sharhlari, ibodat va kundalik turmushga oid turli masalalar, ilm egallash, oila va farzandlar tarbiyasi, masjid va madrasalar hayoti, maʼnaviy meros

va tarixiy qadriyatlarni o'rganishga oid mavzular, dunyo musulmonlari hayotidagi yangiliklar, xabarlar yoritiladi [Ўз. мил. энц., 2005: 326].

“*Hidoyat*” jurnali nomi arabcha *hidoyat* apellyativining konversiyasi – hech qanday grammatik vositalarsiz atoqli otga o'tishi asosida hosil bo'lgan. So'z asli *boshlab borish; yetaklash, to'g'ri yo'lga boshlash, boshqarish* ma'nolarini anglatadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida mazkur so'z quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1. Foydali yo'nalish, to'g'ri yo'l boshlash: *Hidoyat qilmoq*.

2. din. Xudo tomonidan belgilangan to'g'ri yo'l; haqiqiy e'tiqod yo'lidan yurish; zid. Zalolat.

3. *Hidoyat* (erkaklar va xotin-qizlar ismi).

“*Hidoyat*” gemeronimiga so'zning birinchi va ikkinchi ma'nolari umumlashmasidan iborat *Xudo tomonidan belgilangan to'g'ri yo'l; haqiqiy e'tiqod yo'lidan yurishga; ya'ni to'g'ri yo'l boshlash* ma'nosi lug'aviy asos bo'lgan. Jurnal diniy-ijtimoiy maqsadi va mazmun-mohiyati motivatsiyasi asosida nomlangan.

“*Saodat*” – O'zbekiston xotin-qizlarining ommabop, ijtimoiy-siyosiy, badiiy-bezakli jurnali. Toshkent shahrida 1 yilda 8-marta nashr qilinadi. Dastlab “*Yangi yo'l*” (1925 – 1934), “*Yorqin hayot*” (1936 – 1950), “*O'zbekiston xotin-qizlari*” (1950-1965) nomlari bilan chop etilgan. Muayyan sabablar va urush tufayli jurnal 1934-yil apreldan 1936-yil iyulgacha, 1941-yil iyuldan 1950-yil oktyabrgacha nashr etilmagan. 1966-yildan hozirgi nomda nashr etiladi.

Jurnal nomiga lug'aviy asos bo'lgan *saodat* apellyativi tarixiy-etimologik jihatdan arabcha bo'lib, *baxt, omad, muvaffaqiyat, xotirjamlik* ma'nolarini ifodalaydi [Ўз. тил. из. луғ., 2005: 443].

Istiqlol yillarida “*Saodat*” ayol qalbining minbari, milliy qadriyatlarning targ'ibotchisi, xotin-qizlarni keng ijtimoiy faoliyatga chorlovchi ommabop jurnal sifatida tiklanayotgan ayollarning o'zini ozod inson sifatida qayta kashf etish, imkoniyatlarini namoyon qilishga ruhiy madadkor vazifasini bajarmoqda [Ўз. мил. энц., 2005: 504]. Demak, jurnal ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'rifiy-ma'naviy vazifasi, mavzu-mundariyasi motivatsiyasi asosida, ya'ni xotin-qizlarning *baxti*,

*omadi va muvaffaqiyatlarini* yorituvchi nashr bo‘lganligi bois hamda gendrologik tabiatiga ko‘ra “Saodat” deb nomlangan.

“*Ma’rifat*” – xalq ziyolilarining gazetasi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston ta’lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi muassisligida nashr etiladi.

Dastlab 1931-yil 4-iyulda “*Madaniy inqilob*” nomi bilan nashr etilib, 1938-yil 25-yanvaridan “*O‘qituvchilar gazetasi*” nomi bilan, 1991-yildan esa hozirgi nomda chiqa boshladi. 1941-yil 1-iyuldan 1946-yil 9-martgacha gazeta o‘z faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan [Ўз. мил. энц., 2005: 336]. Gazeta asosan ta’lim-tarbiyaga oid barcha masalalarni jamiyat, davlat, el-yurt manfaati nuqtayi nazaridan o‘rganish, sohaga oid muammolarning ilmiy, amaliy yechimlarini topishda ko‘maklashish hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlarda ko‘zda tutilgan barcha masalalar bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, yosh avlod ongida milliy istiqloq g‘oyasini shakllantirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilib kelmoqda.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *ma’rifat* so‘zi – arabcha *bilim, fan, ma’lumot, tanishish* kabi ma’nolarni ifodalab, ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g‘oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat [Ўз. тил. из. луғ., 2005: 567] turini anglatadi. Bundan tashqari, *ma’rifat ilmu urfon* ma’nosida ham ishlatiladi. *Ma’rifat* tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq. Ma’rifat – bilim va madaniyatning qo‘shma mazmuni bo‘lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma’rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Tasavvufda *ma’rifat* so‘fiylarning ruhiy kamolotga erishuvining asosiy bosqichlaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Gemeronimga *ma’rifat* so‘zining asl *bilim, fan va ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g‘oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat turi* ma’nolari lug‘aviy asos bo‘lgan. Jurnal mazmun-mundariyasi motivatsiyasi asosida, ya’ni ta’lim-tarbiya, fan, bilim va

uning metodikasiga doir nashr bo'lganligi bois "*Ma'rifat*" deb nomlangan.

"*Darakchi*" – o'zbek va rus tillarida chiqadigan haftalik axborot gazeta. Ilk soni 1999-yil mart oyida Samarqand shahrida chop etilgan. "Darakchi" qisqa muddatda ommalashib, mamlakatda eng ko'p nusxali gazetaga aylandi. Unda yoshlar mavzusi, ularning dunyoqarashi, o'y-fikrlarini, xalqaro miqyosdagi voqealarni, sport xabarlarini yoritishga katta o'rin beriladi [Ўз. мил. энц., 2002: 196].

Gemeronimga lug'aviy asos bo'lgan *darakchi* apellyativi hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1. Darak, xabar olib keluvchi yoki yetkazuvchi; ogoh etuvchi: *Qaldirg'och bahor darakchisi*.

2. tar. Ayg'oqchi, josus; agent: *Darakchining aytishicha, Iskandar askarlarining bir qismini So'g'diyada qoldirib, o'zi qishlash uchun Zariaspga (Balx yaqinidagi shahar) jo'nab ketibdi*. (M.Osim, "Ajdodlarimiz qissasi")

Demak, matbuot nashri ijtimoiy-siyosiy, madaniy, sport sohalariga doir tezkor axborotlar, xabarlar beruvchi nashr ekanligi bois shunday atalgan. Bu jarayonda shaxs tushunchasini anglatuvchi apellyativ narsa-buyum ma'nosini ifodalashga o'tgan.

"*To'maris*" – xotin-qizlarning ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy nashri, jurnal nomi. Gemeronimga tarixiy shaxs ismi – *To'maris* antroponimi lug'aviy asos bo'lgan.

*To'maris* – miloddan avvalgi VI asrda Turkiyada yashagan massagetlar malikasi, axomoniylar bosqiniga qarshi kurashga rahbarlik qilgan jasur sarkarda, axomaniylar davlati asoschisi Kir II ning qo'shinini mag'lub qilgan ayol.

Antroponim o'zbek baddiyy nutqida quyidagi vazifalarda qo'llanadi:

1. *To'maris* antroponimi baddiyy matnda allyuziv nom sifatida qo'llanib, *To'maris*ning tarixiy jasoratiga oid fikrlarga ishora qiladi.

2. *To'maris* antroponimi Alpomish, Jaloliddin kabi nomlar bilan birga qo'llanib, *elning mard va vatanparvar farzandlari* ma'nosini beruvchi onomastik metaforani hosil qiladi [Худойбергано́ва Д., Андания́зова Д., 2005: 96-97].

Jurnal o'zbek xotin-qizlariga mo'ljallanganligi va ularni To'marisdek jasoratli, mard va vatanparvar qilib tarbiyalashga xizmat qilishi niyati bilan shunday atalgan. Demak, kishi nomi bilan atalganligiga ko'ra antropogemeronom.

Tahlillardan ko'rinadiki, matbuot nashrlarining nomlari o'ziga xos motivga, lug'aviy asosga ega. Bunday nomlar ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy omillar ta'sirida sayqallanib, takomillashib boradi.

Ayrim gemeronimlarining nominatsion-motivatsion tahlillari shuni ko'rsatadiki, tildagi har bir gemeronim holatidagi birlik o'z tarixi, nominatsion-motivatsion, lug'aviy asosiga ega bo'ladi. Bunday til birliklari davrlar o'tib tilning eskirish, yangilanish va sayqallanish tamoyillari asosida ma'noviy va shakliy jihatdan yanada boyib, takomillashib boradi. Bu o'z o'rnida o'zbek tili gemeronimiyasi uchun ham xos bo'lgan lingvistik jarayonlardan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 403.
2. Худойберганова Д., Анданиязова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – Б. 96-97.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 7-ж. – Б. 504.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 3-ж. – Б. 121-122.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 6-ж. – Б. 171.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 11-ж. – Б. 245.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 8-ж. – Б. 224.

### **TELEGRAM O'ZBEK SEGMENTIDAGI MATNLARNING JANR VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI**

*Umarova Nuriniso Raximovna,  
Alfraganus University dotsent v/b., PhD*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Telegramning o'zbek segmenti internet lingvistikasi hamda raqamli kommunikatsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Undagi yangilik, tahliliy, ta'limiy, reklama va mem-diskurs janrlarining lingvistik-pragmatik xususiyatlari yoritildi. Shuningdek, Telegram diskursining multimodal tabiati zamonaviy o'zbek tilshunosligi doirasida baholandi.

**Kalit soʻzlar:** Telegram diskursi, internet lingvistikasi, raqamli kommunikatsiya, medialingvistika, multimodal matn, virtual kommunikatsiya, internet tili.

**Abstract:** This article analyzes the Uzbek segment of Telegram from the perspective of Internet linguistics and digital communication. The linguistic and pragmatic features of news, analytical, educational, advertising, and meme discourses are examined. The study also evaluates the multimodal nature of Telegram discourse.

**Keywords:** Telegram discourse, Internet linguistics, digital communication, media linguistics, multimodal text, virtual communication, Internet language.

Internet tilshunosligi (Internet linguistics) zamonaviy kommunikatsiyaning eng kuchli oʻzgarishlarini ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kontent, gibrid ogʻzaki-yozma diskursni oʻrganuvchi mustaqil ilmiy yoʻnalishga aylanib bormoqda. Xususan, David Crystal internet tilini anʼanaviy yozma hamda ogʻzaki nutqning oddiy aralashmasi emas, balki oʻziga xos umumlashmasi, yangi kommunikativ zaxiraga ega boʻlgan oʻziga xos diskurs maydoni sifatida talqin qilib, uning gibrid, multimodal xususiyatlarini qayd etadi. Email, chat, blog, ijtimoiy tarmoqlar nutqning gibrid, dinamik tuzilishini shakllantiradi, shuningdek, “tilning oʻzgarish va oʻsish manbasi” sifatida koʻrinadigan kommunikatsiya oʻzgarishini keltirib chiqaradi [Crystal, 2006: 21].

Mazkur gʻoyani oʻzbek tilida keng ommalashgan elektron kommunikatsiya maydoni — Telegram ijtimoiy tarmogʻi doirasida tahlilga tortsak, oʻzbek tilida shakllanayotgan gibrid nutq shakllari: qisqa suhbat shakllari, qisqartmalar, emoji-tinish konstruksiyalari, kod almashinuvi (inglizcha-oʻzbekcha lingvistik aralashuv), lingvokreativ neologizmlar hamda yangi janr-kompozitsion tuzilmalar (yangilik-xabar, tahlil-analiz, yumor-memlar, edukativ-taʼlim, reklama-brend-kontent, shaxsiy blog postlar) lingvistik tadqiqotning oʻziga xos amaliy-nazariy ahamiyatini namoyon etadi. Bu yerda oʻzbek tilining gibrid nutq tuzilishi oʻziga xos raqamli leksik-grammatik, stilistik hamda pragmatik parametrlarga ega boʻlib,

an'anaviy yozma va og'zaki nutq uslublaridan farq qiluvchi ijtimoiy tarmoqlarning o'ziga xos lingvistik uslubini shakllantiradi.

Amerikalik olim S. Herring internet nutqini o'rganuvchi tadqiqotchilardan biri sifatida, "computer-mediated communication (CMC)" kategoriyasini chuqur tahlil qilgan. Uning fikrlariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar tilida qisqartmalar, emotikonlar, hashtaglar, speystashlash, CAPS LOCK kabi lingvovizual vositalar o'ziga xos "onlayn me'yor" tizimini shakllantiradi [Herring, 2004: 13].

Amerikalik tilshunos Naomi Baron o'z tadqiqotlarida raqamli kommunikatsiya muhitini nafaqat yangi texnologik platforma, balki o'ziga xos kommunikativ va diskursiv psixologiyani shakllantiruvchi ijtimoiy-lingvistik makon sifatida talqin qiladi. Olimaning ta'kidlashicha, raqamli muhitda muloqotning tezkorligi, interaktivligi hamda vizual-kommunikativ vositalarning faollashuvi natijasida foydalanuvchilar nutqida qisqartmalar, soddalashtirilgan sintaktik konstruksiyalar, grafik-ekspressiv birliklar va emotsional markerlarning qo'llanishi kuchayadi [Baron, 2008: 47].

Rus tilshunosligida internet kommunikatsiyasi va raqamli diskurs masalalari V. Karasik, T.V.Kaledina, M.V.Mixalchuk kabi olimlar tomonidan pragmal lingvistik hamda sotsiolingvistik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar tilida uchraydigan noan'anaviy leksik birliklar, internet slengi, grafik-ekspressiv vositalar, virtual kommunikativ muhit hamda raqamli diskursning emotsional-pragmatik xususiyatlari alohida ilmiy fenomen sifatida talqin qilinadi. Xususan, Telegram, VKontakte, Instagram va WhatsApp kabi platformalarda shakllanayotgan virtual kommunikativ madaniyat zamonaviy internet lingvistikasining muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida baholanadi [Karasik, 2018: 89].

Telegram platformasining o'zbek segmenti zamonaviy raqamli kommunikatsiyaning faol diskursiv maydonlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, unda turli janr va kommunikativ formatlar parallel ravishda faoliyat yuritadi. Zamonaviy internet lingvistikasi hamda media diskurs nazariyalariga tayangan holda telegramdagi o'zbek tilidagi kontentni funksional-pragmatik xususiyatlariga



ko'ra quyidagi asosiy janrlarga ajratish mumkin: yangilik va axborot diskursi; analitik-tahliliy kontent; ta'limiy va ma'rifiy kanallar; mem-diskurs va yumoristik kommunikatsiya; marketing va reklama diskursi; blog-formatdagi individual diskurs. Mazkur janrlarning har biri o'ziga xos leksik, stilistik, sintaktik hamda pragmatik xususiyatlarga ega bo'lib, ular raqamli kommunikatsiyaning multimodal tabiatini namoyon etadi.

**Yangilik va axborot diskursi.** David Crystal hamda Susan Herring internet kommunikatsiyasidagi axborot matnlarini ixcham, tez qabul qilinuvchi va yuqori kommunikativ samaradorlikka yo'naltirilgan raqamli matn shakli sifatida tavsiflaydilar. Ularning fikricha, ijtimoiy tarmoqlardagi yangilik matnlari an'anaviy publitsistik uslubdan farqli ravishda soddalashtirilgan sintaktik qurilish, tezkor axborot uzatish va grafik-ekspressiv vositalarning faolligi bilan xarakterlanadi [Crystal, 2011: 34]. O'zbek telegram segmentidagi yangilik kanallarida ham ushbu holatlar kuzatiladi. Xususan, sarlavhalarining ixchamligi, qisqa gap konstruktsiyalari, hashtaglar, emoji, CAPS LOCK, qisqartmalar hamda vizual markerlarning qo'llanilishi axborotning tez qabul qilinishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, matn va vizual elementlarning integratsiyasi raqamli diskursning multimodal xususiyatini yuzaga chiqaradi.

**Ta'limiy va ma'rifiy kanallar.** Ta'limiy telegram kanallarida ilmiy-ommabop uslub, izohlovchi sintaktik qurilmalar, terminologik birliklar hamda interaktiv kommunikativ strategiyalar faol qo'llanadi. Bunday kanallar til, adabiyot, tarix va media savodxonlik kabi yo'nalishlarda virtual ta'lim makonini shakllantiradi. Ta'limiy telegram kanallarida dialogik muloqot shakli, qisqa formatdagi darslar, testlar, vizual materiallar va interaktiv kommunikativ strategiyalar faol qo'llanadi. Zamonaviy media lingvistikasida bunday formatlar mikroo'quv (microlearning) modeli bilan bog'lanadi [Seargeant, 2017: 62]. Ushbu janr o'zbek tilining ommabop-ilmiy va didaktik uslubini raqamli muhitga moslashtirishga xizmat qiladi.

**Mem-diskurs va yumoristik kommunikatsiya.** Internet lingvistikasida memlar zamonaviy raqamli folklorning bir ko'rinishi sifatida baholanadi. Naomi

Baron hamda boshqa internet lingvistlari raqamli yumor diskursida emotsional-ekspressiv birliklar, ironik konstruksiyalar, qisqartmalar va lingvokreativ neologizmlarning faollashishini qayd etadilar [Baron, 2008: 83]. O'zbek telegram segmentidagi mem-kanallarda kod almashinuvi, fonetik yozuv, internet slengi, emoji va vizual birliklarning integratsiyasi pragmatik ta'sirchanlikni kuchaytiradi. Ushbu janr o'zbek internet leksikasini boyitishda muhim o'rin tutadi.

**Tahliliy-analitik diskurs.** Telegramdagi mustaqil tahliliy kanallar rasmiy ommaviy axborot vositalaridan tashqari muqobil muloqot maydonini shakllantiradi. Ushbu janrda dalillarga asoslangan sintaktik qurilish, sohaga oid ilmiy terminlar, statistik ma'lumotlar, fikrning munosabatini ifodalovchi birliklar va shaxsiy munosabatlarning faolligi kuzatiladi. Internet diskursida virtual muloqot jamoalari va ijtimoiy identifikatsiyaning muhim o'rin tutishi ko'zga tashlanadi [Kaledina, 2025: 15]. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek telegram segmentidagi tahliliy kanallar ijtimoiy fikr shakllanishiga ta'sir etuvchi raqamli diskurs maydoni sifatida namoyon bo'ladi.

**Marketing va reklama diskursi.** Telegramdagi reklama matnlari ixcham va ta'sirchan kommunikativ strategiyalarga asoslanadi. Mazkur diskursda kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi til birliklari, ta'kid mazmunidagi sintaktik qurilmalar, vizual-ko'rsatkich elementlar, emoji va grafik ajratish vositalari, shuningdek, auditoriyani muayyan harakatga undovchi muloqot birliklari faol qo'llanadi. David Crystal internet reklama matnlarining ixchamlik, tezkor ta'sirchanlik va multimodal integratsiya bilan xarakterlanishini ta'kidlaydi [Crystal, 2006: 78].

**Blog-formatdagi individual diskurs.** Yozuvchi, jurnalist, o'qituvchi, shifokor va bloggerlarning Telegram kanallarida individual uslub, subyektiv baholash, dialogik murojaat va auditoriya bilan interaktiv yaqinlik kuchli namoyon bo'ladi. Susan Herring internet diskursida subyektivlik, interaktivlik va emotsional yaqinlikning muhim kommunikativ omil ekanligini qayd etadi [Herring, 2004: 27]. Shu sababli yozuvchi, jurnalist va o'qituvchilarning Telegram kanallarida dialogik murojaat, mualliflik pozitsiyasi va lingvokreativ usullar faol namoyon bo'ladi.

Bunday diskurs shakllari raqamli identifikatsiya va virtual kommunikativ shaxs konsepsiyasini yuzaga chiqaradi.

Telegramning o'zbek segmenti zamonaviy raqamli muloqotning murakkab va ko'p qirrali kommunikativ makoni sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu muhitda shakllanayotgan janrlar o'zbek tilining bugungi taraqqiyoti, internet kommunikatsiyasi pragmatikasi, multimodal matn tuzilishi hamda virtual madaniyatni o'rganishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi. Shu sababli, Telegram diskursini tadqiq etish zamonaviy o'zbek tilshunosligi, media lingvistikasi va raqamli kommunikatsiya yo'nalishlarining dolzarb hamda istiqbolli tadqiqot obyektlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baron N. S. Always On: Language in an Online and Mobile World. – Oxford University Press, 2008. – 296 b.
2. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge University Press, 2006. – 295 b.
3. Crystal D. Internet Linguistics: A Student Guide. – Routledge, 2011. – 179 b.
4. Herring S. C. Computer-Mediated Communication and the Study of Language // Journal of Computer-Mediated Communication. – 2004. – №1. – B. 1-29.
5. Kaledina T. V. Internet tilining lingvistik-emotsional tuzilishi // Linguaspectrum jurnali. – 2025. – №3. – B. 10-22.
6. Karasik V. V. Lingvopoetika internet-diskursa: uchebno-metodicheskoe posobie. – Moskva, 2018. – 214 b.
7. Seargeant P. The Language of Social Media and the Internet. – Cambridge Scholars Publishing, 2017. – 224 b.

### **ЗАМАНБАП БИЛИМ БЕРҮҮ СИСТЕМАСЫНДА МУГАЛИМДИН РОЛУ**

*Исманова Нурийла Каныбековна*

*Кетирекеева Анара Сайдиллаевна*

*Рсалиева Айчүрөк Алманбековна,*

*К. III. Токтомаматов атындагы Эл аралык  
Университети, Кыргыз Республикасы*

**Аннотация:** Билим берүү системасы коомдун өнүгүшүнүн негизги факторлорунун бири болуп саналат. Бул XXI кылымда технологиянын тездик

менен өнүгүшү, маалыматтын көбөйүшү жана глобалдашуу процесси билим берүү тармагына да олуттуу өзгөрүүлөрдү алып келгени маалым. Мындай шартта мугалимдин ролу мурдагыдан да маанилүү болуп калды. Мурда мугалим негизинен маалымат берүүчү болсо, бүгүнкү күндө ал окуучунун өнүгүүсүнө багыт берген насаатчы, уюштуруучу жана мотиватор катары иш алып барып калды. Бул макаланын максаты - заманбап билим берүү системасында мугалимдин ролун ар тараптуу талдоо жана анын коомдогу ордун аныктоо.

**Негизги түйүндүү сөздөр:** заманбап билим берүү, насаатчы(ментор), компетенттүүлүк, инклюзивдик билим берүү, 4К компетенциясы, өмүр бою билим алуу, эмпатия жана психологиялык колдоо.

**Аннотация:** Система образования является одним из ключевых факторов развития общества. Известно, что в XXI веке стремительное развитие технологий, рост объема информации и процессы глобализации привели к значительным изменениям в сфере образования. В этих условиях роль учителя стала еще более важной, чем прежде. Если раньше учитель в основном выступал в роли источника информации, то сегодня он стал наставником, организатором и мотиватором, направляющим развитие ученика. Цель данной статьи-всесторонний анализ роли учителя в современной системе образования и определение его места в обществе.

**Ключевые слова:** современное образование, наставник (ментор), компетентность, инклюзивное образование, компетенции 4К, непрерывное обучение (образование через всю жизнь), эмпатия и психологическая поддержка.

Бүгүнкү күндө маалыматка жетүү оңой. Интернет жана санарип технологиялар окуучуларга кеңири мүмкүнчүлүк берет. Ошондуктан мугалимдин милдети маалыматты берүү эмес, аны туура пайдаланууга үйрөтүү болуп калды. Мугалим окуучуларды изденүүгө, талдоого жана сынчыл ой жүгүртүүгө багыттайт.

Билим берүү менен катар тарбия берүү да мугалимдин негизги милдеттеринин бири. Заманбап коомдо адеп-ахлактык баалуулуктарды, патриоттук сезимди, жоопкерчиликти жана адамгерчиликти калыптандыруу өтө маанилүү. Мугалим өзүнүн жүрүм-туруму, маданияты жана кесипкөйлүгү аркылуу окуучуларга үлгү болот. Санариптик технологиялар билим берүү процессинин ажырагыс бөлүгүнө айландыктан, интерактивдүү такталар, онлайн платформалар, презентациялар жана мультимедиялык каражаттар сабактын сапатын жогорулатууга жардам берет. Заманбап мугалим жаңы технологияларды өздөштүрүп, аларды натыйжалуу колдонууга тийиш. Билим берүү дайыма өзгөрүп турат. Ошондуктан мугалим өзүнүн кесиптик чеберчилигин дайыма өркүндөтүп туруусу зарыл. Семинарларга, тренингдерге катышуу, жаңы методикаларды өздөштүрүү - заманбап мугалимдин негизги өзгөчөлүгү.

Заманбап билим берүү системасын бир катар өзгөчөлүктөр менен мүнөздөсөк болот:

- Инсанга багытталган окутуу;
- Компетенттүүлүккө негизделген мамиле;
- Санарип технологияларды колдонуу;
- Инклюзивдик билим берүү;
- Өмүр бою билим алуу концепциясы.

Инсанга багытталган окутууда ар бир окуучунун жеке өзгөчөлүгү, кызыгуусу жана мүмкүнчүлүгү эске алынат. Бул ыкма окуучунун активдүүлүгүн арттырып, өз алдынча ой жүгүртүүсүн өнүктүрүүгө шарт түзөт. Компетенттүүлүккө негизделген билим берүүдө окуучунун теориялык билимине гана эмес, алган билимин турмушта колдоно билүү жөндөмүнө басым жасалат. Мындай шартта мугалимдин ролу өтө чоң, анткени ал окуучуну практикалык иш-аракетке багыттайт.

Заманбап мугалим окуу процессин натыйжалуу уюштуруучу болуп саналат. Ал сабактын максатын так аныктап, мазмунун туура тандап, ылайыктуу окутуу ыкмаларын колдонот. Окуу процессин уюштурууда

мугалим сабакты пландаштыруу, окутуунун интерактивдүү ыкмаларын колдонуу, окуучулардын активдүүлүгүн камсыз кылуу, топтук жана жекече иштөөнү уюштуруу, натыйжаларды баалоо сыяктуу функцияларды аткарат:

Интерактивдүү ыкмалар (дебат, мээ чабуулу, долбоордук иш, ролдук оюндар) окуучулардын сабакка болгон кызыгуусун арттырып, билимди терең өздөштүрүүгө жардам берет. Мугалим мындай ыкмаларды туура колдонуу аркылуу окуучунун чыгармачылыгын жана логикалык ой жүгүртүүсүн өнүктүрөт. Маалымат доорунда окуучулар ар кандай маалымат булактарына эркин жетише алышат. Бирок маалыматтын көптүгү ар дайым сапаттуулукту билдирбейт. Ошондуктан мугалимдин милдети - окуучуну маалыматты талдоого, салыштырууга жана туура жыйынтык чыгарууга үйрөтүү.

Заманбап мугалим авторитардык башкаруудан алыстап, демократиялык жана кызматташтык мамилелерди карманат. Ал окуучу менен диалог түзүп, анын пикирин урматтайт жана өз оюн эркин билдирүүгө шарт түзөт. Билим берүү тарбия менен тыгыз байланышта. Мектеп - билим берүүчү гана эмес, тарбия берүүчү институт. Окуучунун инсан катары калыптанышында мугалимдин ролу абдан чоң.

Мугалим бала менен болгон байланышта баланы урмат-сый жана толеранттуулук, адамгерчилик, эл-жерин сүйүү, жоопкерчиликтүүлүк, эмгекчилдик сыяктуу сапаттарды калыптандырууга аракет кылат. Мугалим өзүнүн жүрүм-туруму, сүйлөө маданияты, адептүүлүгү менен окуучуларга үлгү болот. Балдар көбүнчө мугалимдин жүрүм-турумун кайталашат. Ошондуктан мугалимдин кесиптик этикасы жогорку деңгээлде болушу зарыл.

Мурда мугалим негизги маалымат булагы болсо, бүгүнкү күндө окуучулар маалыматты интернет аркылуу бат таба алышат. Ошондуктан азыркы мугалимдер балдарга маалыматты талдоону, сынчыл ой жүгүртүүнү, туура булакты тандай билүүнү үйрөтөт жана ар кандай онлайн платформаларды (Google Classroom - тапшырмаларды берүү жана текшерүү үчүн, Zoom - аралыктан окутуу үчүн, Kahoot! - оюн форматындагы баалоо

үчүн ж.б.) интерактивдүү такталарды, видео-сабактарды жана тесттик системаларды колдонуу менен сабагын таасирдүү, жугумдуу деңгээлде өтө алат.

Бүгүнкү күндө технология тез өзгөргөндүктөн, мугалим да дайыма жаңы ыкмаларды үйрөнүп турушу зарыл экендиги талашсыз. Онлайн курстар, вебинарлар жана тренингдер мугалимдин кесиптик өнүгүүсүнө жардам берет.

Санариптик чөйрөдө окуучулар көп убакытын экран алдында өткөргөндүктөн мугалим окуучуларга коопсуз интернет маданиятын, киберкоопсуздукту, онлайн этиканы үйрөтүп, бул чөйрөнүн күнгөй жана тескейин байма-бай айтып турушу кажет.

Мугалим өмүр бою кесиби боюнча изденип, билим алууга тийиш. Билим берүү системасы өзгөрүп турган бүгүнкү шартта мугалим өзүнүн билим деңгээлин дайыма жогорулатып туруусу керек. Өзүн-өзү -өнүктүрүүнүн негизги жолдору деп семинарлар жана тренингдер, квалификацияны жогорулатуу курстары, илимий-методикалык иштер, тажрыйба алмашуу жана өз алдынча изилдөө жүргүзүүлөрдү атасак болот. Мугалимдин үзгүлтүксүз өнүгүүсү билим сапатынын жогорулашына түздөн-түз таасир этет.

Мугалим - жашоодогу эң жоопкерчиликтүү кесип ээлеринин бири. Ал биздин келечек муундун тарбиясын колго алып, мамлекеттин интеллектуалдык потенциалын түзөт. Коом дагы мугалимдин эмгегин баалап, анын социалдык абалын жогорулатууга көңүл бурушу керек. Мугалимге болгон урмат-сый - билимге болгон сыйдын көрсөткүчү. Өнүккөн коомдо мугалим кесиби жогорку кадыр-баркка ээ.

Жалпысынан алганда, заманбап билим берүү системасында мугалимдин ролу абдан кең жана көп кырдуу. Ал билим берүүчү гана эмес, уюштуруучу, багыт берүүчү, тарбиячы, психолог жана инновацияны колдонгон адис болуп саналат.



Технология канчалык өнүкпөсүн, адам фактору билим берүүдө негизги орунда калат. Мугалим - окуучунун интеллектуалдык жана руханий дүйнөсүн калыптандыруучу негизги фигура. Ошондуктан мугалимдин кесиптик даярдыгын күчөтүү, анын социалдык абалын жакшыртуу жана эмгегин баалоо - билим берүү системасын өнүктүрүүнүн негизги багыттарынын бири болуп эсептелет. Коомдун келечеги бүгүнкү окуучуларыбызга байланыштуу болсо, алардын келечеги мугалимдин сапаттуу эмгегине көз каранды.

Маалыматтын жана технологиянын кылымында жашап жаткандан кийин мындай шартта билим берүү системасы таанылгыс болуп өзгөрүп, ага жараша мугалимге коюлган талаптар да жаңыланууда. Эгер мурда мугалим билимдин жалгыз булагы болсо, бүгүн ал окуучуга жол көрсөтүүчү, мотиватор жана насаатчы катары каралат. Заманбап мугалимдин негизги ролу-**фасилитаторлук** (англ. facilitate-жеңилдетүү, көмөктөшүү). Бул термин окуучунун өз алдынча билим алуу процессин жеңилдетүү жана багыттоо дегенди билдирет. Интернет желесинен каалаган маалыматтар жеткиликтүү болгон заманда, мугалимдин милдети-ошол маалыматтын ичинен керектүүсүн тандап, аны турмушта колдоно билүүгө үйрөтүү. Бүгүнкү күндө мугалим жөн гана бор жана доска менен чектелбеши керек.

Билим берүүнүн жаңы стандартында предметтик билимден сырткары, окуучунун инсандык сапаттарына өзгөчө көңүл бурулат. Мугалим окуучуда төмөнкү 4К компетенциясын калыптандыруучу негизги адам:

1. **Критикалык ой жүгүртүү:** Маалыматты талдоо жана күмөн саноо.
2. **Креативдүүлүк:** Маселелерди чечүүнүн өзгөчө жолдорун табуу.
3. **Коммуникация:** Башкалар менен тил табышуу жана өз оюн так айтуу.
4. **Кооперация:** Командада иштөө маданияты.

Технология канчалык өнүкпөсүн, акылдуу интеллект мугалимдин эмпатиясын жана жылуулугун өзүнө ала албайт. Заманбап мугалим-бул психолог. Ал ар бир окуучунун индивидуалдык өзгөчөлүгүн түшүнүп, анын

потенциалын ачууга көмөктөшөт. Окуучунун ийгилигине ишенүү жана ага дем берүү-билим берүүнүн эң башкы кыймылдаткыч күчү.

**Корутунду:** Заманбап мугалим-бул тынымсыз изденүүдөгү, өзүнүн билимин жаңы деңгээлде тереңдетип, өзүн өнүктүрүүнүн үстүндө инсан. Ал өзүнүн окуучуларына "эмнени окушум керек?" деп эмес, "кантип окушум керек?" деген суроого жооп табууга жардам берет. Мугалимдин ролу жөн гана сабак өтүү эмес, келечектин билимдүү эркин жана жоопкерчиликтүү жаранын калыптандыруу болуп саналат.

### **Пайдаланылган адабияттар:**

1. Ян Амос Коменский. Улуу дидактика. - Москва: Педагогика, 1982.
2. Константин Дмитриевич Ушинский. Адам тарбия предмети катары. - Москва: Просвещение, 1988.
3. Василий Александрович Сухомлинский. Жүрөгүмдү балдарга берем. - Москва: Педагогика, 1977.
4. К. Акматов, Д. Бабаев, К. Кимсанов. Педагогика. – Ош, 2023.
5. А. С. Кожогелдиев, К. М. Кожогелдиева. Педагогикалык психология. – Бишкек, 2011.
6. Б. Апыш, Д. Бабаев, Т Жоробеков. Педагогика. – Ош, 2002.

## **ТЕКСТ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ**

***Хайитова Мияссар Кадировна,***

*преподаватель академического лицея Ургенчского  
государственного университета*

**Аннотация:** В статье рассматривается роль текста в формировании лингвистической компетентности обучающихся при преподавании русского языка как иностранного. Особое внимание уделяется лингвотекстологическому подходу, позволяющему изучать языковые единицы не изолированно, а в условиях их реального функционирования. Обосновывается, что работа с художественными, научными, публицистическими и учебными текстами способствует развитию лексических, грамматических, синтаксических и стилистических навыков студентов.

**Ключевые слова:** лингвистическая компетентность, текст, лингвотекстологический подход, методика преподавания, анализ текста, языковая личность.

**Annotation:** The article examines the role of text in the formation of students' linguistic competence in teaching Russian as a foreign language. Special attention is paid to the linguotextological approach, which makes it possible to study language units not in isolation, but in the context of their actual functioning. The article substantiates that working with literary, scientific, journalistic, and educational texts contributes to the development of students' lexical, grammatical, syntactic, and stylistic skills.

**Keywords:** linguistic competence, text, linguotextological approach, teaching methodology, text analysis, linguistic personality.

В современной методике преподавания русского языка как иностранного особую актуальность приобретает проблема формирования лингвистической компетентности обучающихся. Владение языком предполагает не только знание отдельных слов, грамматических правил и речевых моделей, но и умение использовать языковые единицы в конкретной коммуникативной ситуации. Именно поэтому в процессе обучения русскому языку как иностранному важное место занимает работа с текстом.

«Текст – это не просто продукт речевой деятельности, но и сам процесс создания продукта. Он не существует вне нашего сознания, вне процессов порождения и восприятия. Это и результат нашей речевой деятельности, и в то же время сама деятельность» [Мурзин, 1991:3]. «Один из существенных признаков текста – его завершенность» [Гальперин, 1981:4]. В нём отражаются лексические, грамматические, синтаксические, стилистические и культурные особенности языка. Через текст обучающиеся знакомятся с системой русского языка, особенностями его функционирования, нормами речевого употребления и культурными смыслами. Поэтому текст можно

рассматривать не только как учебный материал, но и как эффективное средство формирования лингвистической компетентности.

Проблема формирования лингвистической компетентности через текст тесно связана с текстоведением и источниковедением. Текстоведение помогает изучать структуру текста, его смысловую организацию, композицию, связность, жанровые и стилистические особенности. Источниковедение, в свою очередь, обращает внимание на происхождение текста, его авторство, исторический контекст, достоверность и культурную ценность.

При обучении русскому языку как иностранному эти направления могут быть использованы в методических целях. Например, работа с русскоязычными литературными текстами позволяет не только изучать язык, но и знакомиться с культурным наследием. Анализ научных и публицистических текстов помогает студентам развивать навыки критического чтения. Работа с первоисточниками формирует исследовательские умения и академическую культуру. Таким образом, текст становится не только средством обучения языку, но и объектом научного познания.

Текстоведческий подход позволяет анализировать текст как целостную языковую и смысловую структуру, а источниковедческий подход помогает рассматривать текст как носитель культурной, исторической и научной информации. В условиях преподавания русского языка как иностранного эти подходы приобретают особое значение, поскольку способствуют глубокому и осознанному усвоению языка.

Лингвистическая компетентность представляет собой систему знаний о языке и умений использовать эти знания в речевой практике. Она включает владение фонетическими, лексическими, словообразовательными, морфологическими, синтаксическими и стилистическими нормами языка. Для иностранных обучающихся формирование данной компетентности является основой успешного овладения русской речью.

При обучении русскому языку как иностранному лингвистическая компетентность формируется постепенно. На начальном этапе обучающиеся усваивают основные грамматические конструкции, базовую лексику и простые речевые модели. На среднем и продвинутом этапах возрастает роль текста, так как именно текст позволяет увидеть, как языковые средства взаимодействуют между собой и служат выражению определённого смысла.

Важно отметить, что лингвистическая компетентность не ограничивается знанием правил. Студент должен понимать, почему та или иная форма используется в конкретном контексте, как изменяется значение слова в зависимости от ситуации, какую функцию выполняет определённая грамматическая конструкция в тексте. Следовательно, работа с текстом способствует не механическому, а осознанному усвоению языка.

В методике преподавания русского языка как иностранного текст выполняет несколько важных функций. **Во-первых**, он является источником языкового материала. **Во-вторых**, текст служит образцом правильной речи. **В-третьих**, он создаёт условия для развития навыков чтения, говорения, письма и аудирования. **В-четвёртых**, текст знакомит обучающихся с культурой, историей и системой ценностей народа, говорящего на данном языке.

При обучении русскому языку как иностранному целесообразно использовать разные типы текстов: *учебные, художественные, научно-популярные, публицистические тексты, диалоги и речевые ситуации, тексты официально-делового стиля, адаптированные и неадаптированные тексты.*

Каждый тип текста имеет свои методические возможности. Например, художественный текст помогает развивать чувство языка, понимание образности, эмоционально-экспрессивной лексики и стилистических средств. Научный текст способствует формированию терминологической культуры и логики высказывания. Публицистический текст развивает умение понимать актуальную информацию, аргументировать мнение и анализировать позицию автора. Официально-деловой текст формирует навыки практического

использования языка в профессиональной сфере. Таким образом, текст является универсальным средством формирования лингвистической компетентности, поскольку объединяет в себе разные уровни языка и виды речевой деятельности.

«Вводимые лексические единицы должны изучаться в отношении произношения, грамматики, словообразования, словоупотребления» [Петрова, 2021: 8]. Одним из наиболее эффективных приёмов является *лингвистический анализ текста*. Он предполагает выделение и объяснение языковых единиц, которые участвуют в создании смысла текста. Обучающиеся могут анализировать лексику, грамматические формы, синтаксические конструкции, средства связи предложений, стилистические особенности и композицию текста. Такой анализ помогает понять, что язык функционирует не отдельно от текста, а внутри него.

Важным приёмом является *комментированное чтение*. При чтении русскоязычного текста преподаватель обращает внимание студентов на трудные слова, грамматические формы, устойчивые выражения, культурные реалии и стилистические особенности. Комментарий помогает иностранным обучающимся глубже понять содержание текста и правильно интерпретировать языковые явления.

Эффективным методом является также *лингвистическое наблюдение*. Преподаватель предлагает студентам самостоятельно найти в тексте определённые языковые явления: падежные формы, глаголы движения, причастные и деепричастные обороты, вводные слова, синонимы, антонимы, средства связи предложений. После этого обучающиеся делают вывод о функции данных единиц в тексте. Такой приём развивает самостоятельность и аналитическое мышление.

Особое значение имеет *сопоставительный анализ*. При обучении русскому языку как иностранному студенты часто переносят нормы родного языка на русский язык, что приводит к ошибкам. Сопоставление языковых явлений родного и русского языков помогает предупредить интерференцию.

Например, можно сопоставлять порядок слов, употребление падежей, способы выражения времени, виды глагола, синтаксические модели предложений.

Полезным приёмом является *текстовая реконструкция*. Студентам можно предложить восстановить пропущенные слова, расставить предложения в правильной последовательности, подобрать заголовок, восстановить пунктуацию, определить начало и конец абзацев. Данный приём формирует понимание структуры текста, логики высказывания и грамматических связей.

Не менее важным является *составление лингвистического комментария*. Обучающиеся объясняют значение слов, грамматических форм и выражений, встречающихся в тексте. Такой приём особенно полезен при работе с художественными и научными текстами, где часто встречаются сложные языковые единицы.

Лексическая сторона языка является одной из центральных в процессе формирования лингвистической компетентности. Работа с текстом позволяет изучать слова не изолированно, а в контексте. Это особенно важно при обучении русскому языку как иностранному, поскольку значение слова часто зависит от ситуации, сочетаемости и стилистической окраски.

При работе с текстом студенты могут выполнять следующие задания:

1. Найти ключевые слова текста.
2. Определить значение новых слов по контексту.
3. Подобрать синонимы и антонимы.
4. Составить словосочетания с новыми словами.
5. Определить прямое и переносное значение слова.
6. Выявить эмоционально окрашенную лексику.
7. Составить собственные предложения с изученными словами.

Такая работа помогает расширить словарный запас обучающихся, развивает навыки правильного употребления слов и формирует умение понимать смысл текста через лексические связи.



Работа с текстом способствует также формированию стилистической компетентности. Иностранные обучающиеся должны понимать, что выбор языковых средств зависит от стиля речи, цели общения и адресата. Например, научный текст требует точности, логичности и терминологической строгости; публицистический текст характеризуется выразительностью и убедительностью; разговорная речь допускает эмоциональность и неполные конструкции; официально-деловой стиль требует стандартных формул и строгой структуры.

Сравнение текстов разных стилей помогает студентам осознать особенности употребления языковых средств. Например, одно и то же содержание можно выразить в разговорной, научной или официальной форме. Такая работа развивает умение выбирать адекватные речевые средства и формирует культуру речи.

Лингвотекстологический подход предполагает организацию обучения вокруг текста как основной учебной единицы. В отличие от традиционного подхода, при котором сначала изучаются отдельные правила, а затем приводятся примеры, позволяет идти от живого речевого материала к языковому анализу.

Преимущество данного подхода заключается в том, что он объединяет обучение языку и речи. Студенты одновременно читают, анализируют, пересказывают, обсуждают, пишут и делают выводы. Это способствует развитию всех видов речевой деятельности и формирует целостное представление о языке.

Кроме того, лингвотекстологический подход соответствует задачам современной филологии, где текст рассматривается как основная единица исследования. Поэтому использование текста в обучении русскому языку как иностранному имеет не только методическое, но и научное значение.

Использование текста при обучении русскому языку как иностранному заключается в том, что текст создаёт реальные условия для применения языковых знаний. На основе текста можно организовать разные виды заданий. Например: чтение и понимание содержания, выделение основной

мысли, составление плана, пересказ текста, лексико-грамматический анализ, определение стиля и жанра, написание краткого содержания, составление вопросов, проведение дискуссии, написание собственного текста по образцу.

Такие задания позволяют развивать не только лингвистическую компетентность, но и коммуникативную, социокультурную и учебно-познавательную компетенции.

Особенно важно, чтобы тексты соответствовали уровню подготовки обучающихся. На начальном этапе целесообразно использовать короткие адаптированные тексты с понятной лексикой и простой грамматической структурой. На среднем этапе можно включать более сложные тексты с элементами рассуждения и описания. На продвинутом этапе следует использовать оригинальные художественные, научные и публицистические тексты.

**В заключение,** работа с русскоязычными текстами способствует осознанному усвоению языка, поскольку обучающиеся видят связь между языковой формой и содержанием. Текст становится не только источником языкового материала, но и средством развития языковой личности. Использование лингвотекстологического подхода в преподавании русского языка как иностранного позволяет соединить методику обучения с филологическим анализом, что особенно важно для совершенствования современной системы языкового образования. Следовательно, совершенствование методики преподавания русского языка как иностранного должно опираться на системную, последовательную и методически обоснованную работу с русскоязычными текстами. Именно через текст формируется глубокое понимание языка, его структуры, функций и культурного содержания.

#### **Список литературы:**

1. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. –М.: Наука, 1981.
2. Мурзин Л.Н. Текст и его восприятие. – Свердловск: изд. Уральского ун-та, 1991. – 172 с
3. Петрова Н.Е. Русский язык как иностранный: обучаем студентов технических специальностей // Народная асвета. – 2021. № 12. – С. 7– 10.

# ONA TILI KONSEPTINING ILMIY, LISONIY VA MADANIY TALQINLARI

***Musaboyeva Zulxumor Baxtiyorovna,***

*Namangan davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “ona tili” konseptining ilmiy, lingvistik lisoniy hamda madaniy mohiyati tahlil qilinadi. Ona tilining milliy tafakkur, madaniyat, identitet va kommunikativ jarayonlardagi o‘rni yoritilib, konsept tushunchasining zamonaviy tilshunoslikdagi talqinlari asosida uning semantik va pragmatik xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida “ona tili” tushunchasining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-falsafiy mazmuni hamda lingvokulturologik jihatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** *ona tili, konsept, lingvokulturologiya, milliy identitet, til va tafakkur, madaniyat, konseptual tahlil, kommunikatsiya, milliy qadriyat.*

**Annotation.** This article analyzes the scientific, linguistic, and cultural essence of the concept of “mother tongue.” It highlights the role of the mother tongue in national thinking, culture, identity, and communicative processes, and, based on modern linguistic interpretations of the concept, reveals its semantic and pragmatic features. In addition, the historical development of the concept of “mother tongue” in Uzbek linguistics, its socio-philosophical meaning, and its linguocultural aspects are examined on the basis of scholarly sources.

**Keywords:** mother tongue, concept, linguoculturology, national identity, language and thought, culture, conceptual analysis, communication, national values.

Globalashuv sharoitida milliy tillarning maqomi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va madaniy identitetni shakllantirishdagi ahamiyati tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Til inson tafakkurining asosiy vositasi bo‘lish bilan birga, xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va milliy qadriyatlarini saqlovchi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, “ona tili” tushunchasi nafaqat lingvistik birlik, balki keng madaniy, psixologik va ijtimoiy mazmunga ega konsept sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda konsept masalasi kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya kabi yo‘nalishlarning markaziy tadqiqot obyektiga aylangan. “Ona tili” konsepti ham milliy tafakkur va lisoniy ongning muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Ushbu konsept insonning milliy mansubligi, ijtimoiy xotirasi, ma’naviy dunyosi va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Mazkur kichik tadqiqotda “ona tili” konseptining ilmiy va lisoniy-madaniy talqinlarini o‘rganish, uning semantik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Maqolada quyidagi masalalarga konsept tushunchasining nazariy asoslarini yoritish, “ona tili” konseptining ilmiy talqinlarini tahlil qilish; mazkur konseptning lisoniy-madaniy xususiyatlarini ochib berish; o‘zbek tilshunosligida “ona tili” tushunchasining qo‘llanishini tahlil etish; ona tilining milliy identitet va madaniyatdagi o‘rnini ko‘rsatish kabi bir necha vazifalarga e’tibor qaratildi.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy hamda konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tilshunoslikda “konsept” termini XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol qo‘llanila boshladi. Ayniqsa, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya rivojlanishi natijasida konsept inson tafakkurining asosiy birligi sifatida e’tirof etildi. Konsept – bu inson ongida shakllangan va til orqali ifodalanuvchi murakkab mental birlikdir.

Rus tilshunosi Y.S.Stepanov konseptni “madaniyatning inson ongidagi ko‘rinishi” sifatida izohlaydi. Olimning fikriga ko‘ra, konsept til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro integratsiyasi natijasida shakllanadi [Степанов, 2004: 45]. V.A. Maslova esa konseptni milliy ong va madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p qatlamli mental birlik deb hisoblaydi [Маслова, 2001: 27].

Kognitiv tilshunoslikda konseptning quyidagi asosiy xususiyatlari ajratiladi:

1. Mental xarakterga egaligi.
2. Til orqali ifodalanishi.
3. Milliy-madaniy mazmunni aks ettirishi.

#### 4. Dinamik tizim sifatida rivojlanishi.

Konsept tarkibida odatda obrazli, tushunchaviy va qadriy komponentlar mavjud bo‘ladi. Shu jihatdan “ona tili” konsepti ham faqat til vositasi emas, balki milliy ruhiyat, qadriyat va tarixiy xotira bilan bog‘liq murakkab semantik tizimdir.

Lingvokulturologiyada konseptlar milliy dunyoqarashni aks ettiruvchi asosiy birlik sifatida qaraladi. Har bir xalq o‘z madaniy tajribasini til orqali konseptual shaklda ifodalaydi. “Ona tili” konsepti esa ko‘plab xalqlarda milliy birlik va ma’naviy qadriyatning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

“Ona tili” termini tilshunoslik, pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarida keng qo‘llaniladi. Ushbu tushuncha odatda inson bolalik davrida tabiiy ravishda egallaydigan birinchi tilni anglatadi. Biroq zamonaviy ilmiy qarashlarda “ona tili” faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki milliy identitet va madaniy xotiraning muhim unsuri sifatida talqin qilinmoqda.

Tilshunoslikda ona tili insonning tabiiy nutq muhiti orqali shakllangan birlamchi til tizimi hisoblanadi. Psixolingvistika nuqtayi nazaridan esa ona tili inson tafakkurining dastlabki modeli bo‘lib xizmat qiladi. Insonning dunyoni idrok etishi, hissiyoti va tafakkuri ko‘p jihatdan ona tili bilan bog‘liq.

Pedagogik adabiyotlarda ona tili shaxs tarbiyasi va ma’naviy shakllanishining asosiy vositasi sifatida talqin qilinadi. Chunki bolada milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy me’yorlar aynan ona tili orqali shakllanadi.

Sotsiologik yondashuvlarda esa ona tili milliy birlik va ijtimoiy identifikatsiyaning muhim belgisi sifatida qaraladi. Ayniqsa, mustaqillik davrida ona tiliga bo‘lgan e’tibor ko‘plab davlatlarda milliy siyosatning muhim yo‘nalishiga aylandi.

O‘zbek tilshunosligida ham “ona tili” tushunchasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. O‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti, davlat tili maqomi va milliy qadriyatlarni saqlash masalalari ushbu konsept bilan chambarchas bog‘liq.

Akademik A.Nurmonov tilni milliy tafakkurning shakllanishida asosiy vosita sifatida baholaydi [Nurmonov, 2002: 56]. Olimning fikricha, til millatning tarixiy xotirasini saqlaydi va avlodlararo ma’naviy uzviylikni ta’minlaydi.

Lingvokulturologik yondashuvda “ona tili” konsepti madaniyat va tilning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi muhim birliklardan biri hisoblanadi. Mazkur konsept xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti, ma’naviy qadriyatlari va milliy o‘zligini aks ettiradi.

“Ona tili” birikmasidagi “ona” komponenti alohida semantik va madaniy mazmunga ega. Ko‘plab xalqlarda ona obrazi mehr, tarbiya, himoya va muqaddaslik timsoli sifatida talqin qilinadi. Shu sababli “ona tili” tushunchasi ham inson uchun eng yaqin, tabiiy va qadrlanadigan til sifatida qabul qilinadi.

O‘zbek xalq maqollari va badiiy matnlarida ona tiliga yuksak qadriyat sifatida munosabat bildiriladi. Masalan, *“Til – millat ko‘zgusi”*, *“Ona tilini bilmagan odam o‘zligini bilmaydi”* kabi iboralar tilning milliy identitetdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan “ona tili” konsepti quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- milliy xotira;
- madaniy meros;
- ma’naviy qadriyat;
- kommunikativ identitet;
- ijtimoiy birlik.

Mazkur konseptning emotsional-ekspressiv xususiyati ham kuchli hisoblanadi. Chunki inson o‘z ona tiliga nafaqat aloqa vositasi, balki ma’naviy qadriyat sifatida munosabat bildiradi.

Kognitiv tilshunoslikda “ona tili” konsepti freym va assotsiativ birliklar orqali tahlil qilinadi. Ushbu konsept bilan bog‘liq assotsiatsiyalar orasida “millat”, “vatan”, “madaniyat”, “tarbiya”, “xalq”, “qadriyat” kabi tushunchalar faol qo‘llanadi.

O‘zbek tilshunosligida ona tilining maqomi va ijtimoiy funksiyasi mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko‘tarildi. Davlat tiliga oid qonunlar, til siyosati va ma’naviy islohotlar ona tilining jamiyatdagi nufuzini mustahkamladi.

1989-yilda “Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi o‘zbek tilining ijtimoiy mavqegini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu jarayon natijasida ona tiliga bo‘lgan ilmiy va ijtimoiy qiziqish yanada kuchaydi.

O‘zbek adabiyotida ona tiliga muhabbat va ehtirom g‘oyasi alohida o‘rin egallaydi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida turkiy tilning imkoniyatlarini keng namoyish etgan va ona tilining qadri haqida muhim fikrlar bildirgan. Jadid ma’rifatparvarlari ham milliy uyg‘onishning asosiy omili sifatida ona tiliga alohida e’tibor qaratganlar.

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida “ona tili” konsepti quyidagi yo‘nalishlarda tadqiq qilinmoqda:

- lingvokulturologik tadqiqotlar;
- kognitiv tilshunoslik;
- diskurs tahlili;
- sotsiolingvistika;
- pragmalingvistika.

Bugungi kunda internet va raqamli kommunikatsiya rivojlanishi natijasida ona tilining yangi kommunikativ shakllari yuzaga kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, elektron matnlar va ommaviy kommunikatsiya vositalari til taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq globallashtirish jarayonida ayrim xorijiy tillarning dominant mavqei milliy tillarga ma’lum darajada ta’sir qilmoqda. Shu sababli ona tilini asrash, uning ilmiy va texnologik imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Milliy identitetning shakllanishida tilning o‘rni beqiyosdir. Inson o‘z milliy mansubligini ko‘pincha til orqali namoyon qiladi. Shu jihatdan ona tili milliy o‘zlikni anglashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Sotsiologik tadqiqotlarda til milliy birlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Til orqali xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va qadriyatlari avloddan avlodga uzatiladi.

Ona tilining zaiflashuvi ko‘pincha milliy identitetning susayishiga olib keladi. Shu sababli ko‘plab davlatlarda milliy tilni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qoraladi.



O'zbekistonda ham ona tilining maqomini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'lim tizimida o'zbek tilining mavqeyini oshirish, ilmiy terminologiyani boyitish va raqamli texnologiyalarda til imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Milliy identitet va ona tili o'rtasidagi munosabatni quyidagi jihatlar orqali izohlash mumkin:

1. Til milliy xotirani saqlaydi.
2. Til madaniy qadriyatlarni uzatadi.
3. Til ijtimoiy birlikni mustahkamlaydi.
4. Til shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantiradi.

Demak, ona tili konsepti nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-falsafiy mazmunga ham ega.

Zamonaviy tilshunoslikda konseptual tahlil usullari yordamida ona tili tushunchasining turli qatlamlari o'rganilmoqda. Kognitiv lingvistika konseptlarning inson ongidagi tuzilishini aniqlashga xizmat qiladi.

Diskurs tahlilida "ona tili" konsepti siyosiy, ijtimoiy va madaniy matnlarda qanday ifodalanishi o'rganiladi. Masalan, rasmiy nutqlarda ona tili milliy birlik va taraqqiyot ramzi sifatida tasvirlanadi.

Pragmalingvistika nuqtayi nazaridan ona tilining kommunikativ samaradorligi muhim ahamiyatga ega. Inson o'z fikrini ona tilida erkinroq va emotsionalroq ifoda eta oladi.

Lingvokulturologiyada esa ona tili madaniy kod sifatida qaraladi. Har bir til o'zida xalqning dunyoqarashi va madaniy tajribasini mujassamlashtiradi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt va kompyuter lingvistikasi rivojlanishi natijasida milliy tillarning elektron korpuslarini yaratish, avtomatik tarjima va nutq texnologiyalarini rivojlantirish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. O'zbek tilining raqamli makondagi imkoniyatlarini kengaytirish ham ona tilining zamonaviy taraqqiyotidagi muhim yo'nalishlardan biridir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Ona tili" konsepti murakkab lingvistik va madaniy hodisa bo'lib, inson tafakkuri, milliy identiteti va ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu konsept nafaqat kommunikativ vosita, balki xalqning

tarixiy xotirasi, madaniy merosi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim mental birlik hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida milliy tillarni asrash va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli ona tilining ilmiy, texnologik va madaniy imkoniyatlarini kengaytirish zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – Москва: Академический проект, 2004. – С. 45.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – С. 27.
3. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – B. 56.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006. – B. 81.
5. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград, 2002. – С. 119.
6. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – B. 27.
7. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – С. 54.
8. To'xtasinova X. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
9. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни. – Тошкент, 1989. 3-7 моддалар.

### **NUTQIY ETIKET BIRLIKLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI**

***Saparova Surayyoxon,***

*UrDU O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada nutqiy etiket birliklarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlarning dars jarayonidagi samaradorlikni oshirishdagi o'rni, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Nutqiy etiket birliklarini o'zlashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati misollar asosida ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** nutqiy etiket, interfaol metodlar, kommunikativ kompetensiya, pedagogik texnologiya, dialogik nutq, lingvokulturologiya.

**Annotation.** This article highlights the theoretical and practical foundations of using interactive methods in teaching speech etiquette units. It also scientifically analyzes the role of interactive methods in increasing the effectiveness of the

educational process and their impact on the development of students' communicative competence. The significance of modern pedagogical technologies in mastering speech etiquette units is demonstrated through examples.

**Keywords:** speech etiquette, interactive methods, communicative competence, pedagogical technology, dialogic speech, linguoculturology.

Bugungi globallashuv sharoitida til o'rgatish jarayonida faqat grammatik bilimlarni berish bilan kifoyalanish yetarli emas, balki o'quvchilarda to'g'ri va o'rinli nutqiy muomala madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqiy etiket birliklari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy vositalardan biri bo'lib, ular orqali insonlar o'zaro hurmat, ehtiromlarini ifodalaydi, ijtimoiy masofani saqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy etiket birliklarini dars jarayonlarida atroflicha o'rgatish muhimdir. Bu nafaqat ta'lim, balki tarbiya borasida ham alohida o'rin kasb etadi. Nutqiy etiket birliklarini o'qitishda an'anaviy metodlardan tashqari interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Chunki nutqiy etiket birliklarining mazmunini to'la anglash uchun uni vaziyat bilan birga his qilib ko'rish, bevosita kuzatish lozim.

Ma'lumki, nutqiy etiket birliklari muayyan ijtimoiy vaziyatlarda qo'llaniladigan standartlashgan nutqiy formulalar majmuyi bo'lib, ular salomlashish, xayrlashish, tabriklash, uzr so'rash, minnatdorlik bildirish kabi kommunikativ vazifalarni bajaradi. Salomlashuv: *assalomu alaykum, salom*; minnatdorchilik: *rahmat, katta rahmat*; uzr so'rash: *kechirasiz, uzr so'rayman*. Ushbu birliklar lingvokulturologik jihatdan ham muhim bo'lib, xalqning madaniyati, mentaliteti va qadriyatlarini aks ettiradi.

Nutqiy etiket birliklarini o'qitishda interfaol metodlarni qo'llashning ahamiyati shundaki, bu dars jarayonini qiziqarli tashkil etishga yordam beradi va ko'zlangan maqsadga erishishda samarali hissa qo'shadi.

Bilamizki, interfaol metodlar o'quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan, ularning mustaqil fikrlashini, muloqotga kirishishini va muammoli vaziyatlarni hal

qilish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi o'qitish usullaridir. Nutqiy etiket birliklarini o'qitishda zarur hisoblangan asosiy interfaol metodlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: "Aqliy hujum", "Rol o'ynash", "Klaster" metodi, "Insert" metodi, "Bahs-munozara"

Yuqorida ta'kidlangan metodlar nutqiy etiket birliklarini o'qitishda talabalarda bir qator ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Birinchidan, talabalarda kommunikativ faollikni oshiradi. Interfaol metodlar o'quvchilarni nafaol tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Masalan, "Rol o'ynash" metodida o'quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda nutqiy etiket birliklarini qo'llashni mashq qiladilar. Ikkinchidan, real hayotda turli mehmon kutish, telefon orqali suhbat, rasmiy jarayonlarda uchrashuv kabi vaziyatlarda o'zini tutish odobini shakllantiradi. O'z navbatida, nutqiy etiket birliklarini tabiiy ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Uchinchidan, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. "Aqliy hujum" metodida o'quvchilar turli vaziyatlar uchun mos nutqiy etiket birliklarini mustaqil ravishda ishlab chiqadilar. Bu jarayon ularning kreativ fikrlashini rivojlantiradi. To'rtinchidan, lingvokulturologik kompetensiyani shakllantiradi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilar nafaqat til birliklarini, balki ularning ortidagi madaniy ma'nolarni ham anglay boshlaydilar. Masalan, o'zbek tilidagi hurmat shakllari va ularning qo'llanish o'rinlari muhokama qilinadi.

Dars jarayonida qo'llash uchun amaliy topshiriqlar

1. Rol o'ynash metodi orqali darsni tashkil etish. Bunda talabalarga "Mehmonni kutib olish" vaziyatini sahnalashtirish vazifasi beriladi. Talabalar salomlashish, taklif qilish, minnatdorchilik bildirish kabi etiket birliklarini qo'llaydilar. Qo'llangan birliklar guruh a'zolari tomonidan qayd qilib boriladi. Agar topshiriq guruh bo'lib amalga oshirilsa, har bir guruh qo'llagan birliklar solishtirib boriladi. O'xshash va farqlar aniqlanadi.

2. Bahs-munozara metodi. Bunda rasmiy va norasmiy nutqiy etiket farqlarini aniqlash bo'yicha amaliy ish olib borishadi. Bu jarayon orqali o'quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarga mos nutqiy birliklarni tanlashni o'rganishadi. Bu metod guruh

bo‘lib amalga oshirilsa, yaxshiroq samara beradi. Bir guruh norasmiy, ikkinchi guruh rasmiy vaziyatlar bo‘yicha qidiruvni amalga oshiradi.

3. Klaster metodida “Uzr so‘rash” vaziyatiga oid nutqiy birliklarni guruhlash topshirig‘i beriladi. Guruhlarni yosh va ijtimoiy toifa, jins omillari asosida farqlab ajratishadi. Bu orqali kommunikantlar imkoniyatini baholashni ham o‘rganishadi. Nutqiy etiket birliklarini bu kabi interfaol metodlar orqali o‘rgatishda ta’lim jarayonida nazariy bilimlar yanada tizimlashtiriladi va amaliy ko‘nikmalar mustahkamlana boradi. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning nutqiy faolligi 2-3 barobar oshadi, nutqiy etiket birliklarini to‘g‘ri qo‘llash darajasi yaxshilanadi, darsga qiziqish orta boradi. Natijada o‘qituvchi maqsadi ham samarali tashkil etiladi.

Nutqiy etiket birliklarini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Ushbu metodlar o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etadi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va real hayotga mos kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu bois, zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlarni keng joriy etish nutqiy etiket birliklarini o‘rgatishda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
2. Omonov H.T. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahorat. – Toshkent, 2009. – 240 bet.
3. Turdiyeva H. Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi. PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020.
4. Turdieva Kh. “Linguapragmatic analyze of greetings in persian and uzbek languages”. Bulletin of Science and Practice, – Toshkent, 2019.
5. Turdieva Kh. “Lingua-Pragmatic Analyze of Politeness in Persian and Uzbek Languages”. English Language Teaching International Conference (ELTIC) Proceedings, – UK.: 2020.
6. Turdieva Kh. Lingua-Pragmatic Analyze Of Politeness In Persian And Uzbek languages. Journal of Foreign languages teaching and applied linguistics, – UK.: 2019.
7. Йўлдошев Ж.Ғ. Педагогик технология асослари. – Тошкент, 2004. – 104 б.

#### **BADIIY MATNDAGI MODAL SO‘ZLAR INVERSIYASINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

*To‘xtasinova Yoqutxon Baxromjon qizi,  
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada modal soʻzlarning badiiy matnda inversiya hodisasiga uchrashi va uning poetik-estetik xususiyatlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, modal soʻzlarning qoʻshma kesim komponenti tarkibida kelishi va ularning badiiy matndagi soʻzlar bilan qofiyadoshlikka uchrashi lingvopoetik jihatdan tahlil qilindi.

**Kalit soʻzlar.** poetik vazifa, estetik boʻyoq, “darkor”, “lozim”, inversiya, qoʻshma kesim komponenti.

**Annotation.** This article analyzes the occurrence of modal words in inversion within literary texts and examines their poetic and aesthetic features. It also investigates the use of modal words within compound predicate components and their interaction with rhyme in artistic discourse from a linguo-poetic perspective.

**Keywords:** poetic function, aesthetic coloring, *darkor*, *lozim*, inversion, compound predicate component.

Badiiy adabiyot - shunchaki voqea-hodisalar bayoni emas, balki inson ruhiyati, tuygʻulari va olamga boʻlgan subʻektiv munosabatning murakkab lisonini inʻikosidir. Har qanday badiiy matn zamirida muallifning “Men”i va qahramonning ichki dunyosi yotadi. Bu ichki dunyoni, his-hayajon va munosabatni ifodalashda esa modal soʻzlar eng nozik va taʼsirchan poetik instrument vazifasini oʻtaydi. Tilshunosligimizda modal soʻzlar gapning mazmuniga soʻzlovchining munosabatini bildiruvchi yordamchi vositalar sifatida talqin qilinishini yuqoridagi boblarda tahlil qilib oʻtdik. Biroq badiiy matn doirasida ularning funksiyasi grammatik chegaralardan chiqib, poetik-estetik miqyos kasb etadi. M. Akbarova oʻzining ilmiy tadqiqod ishlarida olmon tilshunosi G. fon der Gabelensning quyidagi fikrlarini keltirib oʻtadi: “Til fikrning boʻlaklarga boʻlingan holdagi ifodasi, fikr esa tushunchalarning bogʻlanishidir. Lekin inson tili faqat bogʻlanayotgan tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarinigina emas, balki soʻzlovchining oʻz fikriga munosabatini ham ifodalashni istaydi; men faqat

nimanidir aytishnigina emas, balki o'zimni ham ifodalashni xohlayman va shu tarzda mantiqiy omilga uni har jihatdan to'yintirgan holda psixologik omil qo'shiladi"[1]. Tilshunoslik sohasining ilmiy yangiliklarini o'zida aks ettiradigan zamonaviy manbalarda tilning asosiy o'rinda to'rt-besh vazifasi e'tirof etiladi, ya'ni ekspressivlik, poetiklik, badiiylik, stilistik, ritorik hamda estetik vazifasi. Rus-amerika tilshunosi R.Yakobson birinchilardan bo'lib tilning "poetik vazifa"si terminini qo'llagan va uni "badiiy adabiyotda nimani ifodalash emas, balki qanday ifodalash muhim"[2] tarzida xulosalaydi. Bu fikr ancha o'zini oqlaydigan, mantiqiylik yuki yuqori bo'lgan fikr sifatida bizda ham xayrixohlik tug'diradi. Ta'kidlashimiz joizki, jahon tilshunosligida ham ayrim olimlar tildagi estetiklikni quyidagicha ta'riflaydi: "Italyan siyosat arbobi va faylasufi Benedetto Croce "Эстетика как наука о выражении и как общая лингвистика" deb nomlangan kitobida tilshunoslik va estetikani bir nuqtada tenglashtiradi. Nemis filologi Karl Fossler uning bu g'oyasini davom ettirgan holda so'z va gap estetik bo'yoqning betakrorligi, aynan mana shu bo'yoq asosiy vazifa bajarish uchun tilda yetakchilik qilishiga ishonch bildirgan" [3]

"Abdulla Oripov badiiy-estetik tafakkurining o'ziga xosligi shundaki, u muayyan hodisaga yoki ma'lum bir mavzuga kutilmagan tomondan yondashadi. Jumladan, xalq og'zaki ijodiga xos obrazlar talqinida ham hech bir ijodkorni takrorlamaydi. Hech kimning hayoliga kelmagan ohorli tashbehlaru istioralarni qo'llaydi"[4]. "Hikmatli gaplar" (1979) she'rining tahlili ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Hikmatli gaplarga quloq solmoq darkor.*

*Quloq solmoq darkor xalqning so'ziga,*

*Lekin odamlarning bir odati bor,*

*Maqol to'qiydilar moslab o'ziga.*

Misralarda qo'llanilgan "darkor" modal so'zi qat'iy zaruriyat, da'vat va ehtiyoj ma'nolarini ifodalashiga ko'ra "kerak" yoki "lozim" so'zlariga nisbatan didaktik xarakterga ega so'z deb hisoblaymiz. Shuning uchun "quloq solmoq darkor" jumlasini misralarga falsafiy va o'g'itnomo ruh bag'ishlagan. Shoir



kitobxonni o'ylashga, xulosa chiqarishga undaydi. Birinchi satrning oxirida kelgan modal so'z, ikkinchi satrning o'rtasiga ko'chadi va misralarda inversiya hodisasi kuzatiladi. Bu usul she'riy nutqning musiqiyliги ritmini ta'minlaydi. Shuningdek, "darkor" so'zining takrorlanishi keyingi misralardagi lirik paradoks uchun ko'prik vazifasini bajargan. Ya'ni shoir avval hamma tan olgan haqiqatni "quloq solmoq darkor" qat'iy qilib aytadi va ikkinchi misrada ham takroran aytib, o'quvchi-kitobxonni uchinchi misradagi zidlov burilishi uchun tayyorlaydi. Sintaktik vazifasiga ko'ra "Quloq solmoq"- harakat nomi bilan birgalikda "darkor" modal so'zining qo'shma kesim tarkibida qo'llanilishi she'rga badiiy estetik tus bergan. Bu sintaktik bog'liqlik she'rda mantiqiy zanjir yaratib, jumlaning ta'sir quvvatini ikki barobar kuchaytirgan. Modal so'zning inversiya xodisasiga uchrashi, sintaktik urg'uni ifodalagan. Birinchi satrda ritmni yakunlab kelgan bo'lsa, ikkinchi satrda u markazga chiqadi va o'quvchining diqqatini kelayotgan antitezaga tayyorlaydi.

Abdulla Oripovning qalamiga mansub, "Yoshlarga" she'riy parchasidagi "koshki" modal so'zining lingvopoetik tahlil qilsak:

*Sen yoshsan, ertangi kuningga boqay,  
Daryo kech, sahro kez, dovonlar oshki,  
Qarab yurar edim ortimga tokay,  
Sening kamolingni ko'rsaydim, koshki.  
Afsus, ravon emas bu mubham yo'llar,  
Har bir qadamingda shunchalar toshki.  
Topdab tashlangandir o'ng bilan so'llar,  
Sening kamolingni ko'rsaydim, koshki.*

Yuqorida tahlil qilingan misralardagi "koshki" modal so'zining semantik ma'nosidan farqli ravishda, ushbu misralarda yozuvchi ijobiy uslubiy bo'yoq bag'ishlagan. "Sening kamolingni ko'rsaydim, koshki" satri har bir band oxirida takrorlanib, kekxa avlodning yosh avlod kamolini ko'rishga bo'lgan pokiza orzusi, umidi, intizorligi va otalarcha mehr-muhabbati aks etgan. "Koshki" modal so'zi she'rda qofiya tizimini ta'minlashda faol ishtirok etgan, masalan, "oshki", "toshki"

so'zlari bilan ohangdoshlik hosil qilib, she'rning musiqiyligi va ta'sirchanligini oshirgan. Odatda "koshki" modal so'zi gapning boshida kelganda butun gapga subyektiv munosabat ifodalaydi, lekin ushbu misralarda inversiya hodisasiga uchrab, modal so'z gap oxiriga ko'chirilgan. Bu esa ritorik ta'sirni va emotsionallikni yanada kuchaytirgan. Agar yozuvchi "Sening kamolingni ko'rsaydim" tarzida aytsa, gapning ma'nosi tugallanmay qoladi, "koshki modal so'zi esa qo'shma kesim komponenti bo'lib emas, balki modal-semantik jihatdan shart mayli orqali ifodalangan gapning ma'nosini tugallaydi. Gap grammatik kesim hisobiga emas, modal ma'no yuki bilan tugallangan ohanga ega bo'ladi. Shuningdek, "koshki" modal so'zi vergul bilan ajratilishi sintaktik qoida talabi bilan birgalikda she'rga ritmik-melodik pauzani ta'minlash, kitobxonni to'xtatish va "koshki" so'ziga alohida urg'u berish uchun ham xizmat qilgan.

Quyidagi misralarda ham "darkor" modal so'zi inversiya holatiga uchrab, poetik-estetik yukini tahlil qilsak:

*Paxta jononamas, gul ham emas ul.*

*U peshona teri,*

*mashaqqat,*

*ozor,*

*Yelkadagi yuk u - bizlarga meros.*

*Asalari uchun "balli" na darkor,*

*Bizlar ishlayapmiz,*

*Bu mehnat holos.*

*(E. Vohidov. "Bizlar ishlayapmiz" Tirik sayyoralar kitobidan -b.16 tosh. 1978)*

Misralarda "na darkor" modal so'zi inkor yuklamasi bilan birgalikda kelib qo'shma kesim tarkibida inversiya hodisasiga uchragan. Modal so'z hamda inkor yuklamasining birgalikda qo'llanilishi natijasida zaruriyatni inkor etuvchi modal ma'no ya'ni "kerak emas, zarur emas" ma'nolarini ifodalab kelmoqda. Misralarda inversiya hodisasi yaqqol kuzatilib, gapning me'yoriy tartibi quyidagicha: "Asalari uchun "balli" darkor emas" tarzida tuzilishi kerak edi. Lekin shoir inversiya hodisasi orqali "na darkor" birikmasini misra oxiriga ko'chiradi va quyidagi

poetik-uslubiy vazifalarni ta'minlashga erishadi: "na darkor" modal birikmasi intonatsion jihatdan alohida ta'kidlanadi va misraning markaziy nuqtasini tashkil etadi; misra oxirida kelib "*meros*", va "*holos*", so'zlarining o'rtasida kelib qofiyadoshlikni mustahkamlagan; inversiya lirik qahramonning ichki qat'iyatini ifodalab, maqtovg'a muhtoj emasligini poetik jihatdan kuchaytirib berishga xizmat qilgan.

Shuningdek, shoirning "*Majlis qiling*" she'rida ham modal so'zning inversiya hodisasiga uchrashi orqali badiiy ifodaning muhim vositalardan biri ekanligi isbotlangan va she'rga kuchli satirik-poetik ma'noni yuklagan. Quyida she'rdan parcha keltiramiz:

*Gar mobodo majlisingiz*

*Ertaroq bo'lsa tamom,*

*Sizga lozimdir yig'inni*

*Uyda ettirmoq davom* (E.V., "*Saylanma*")

Ma'lum bo'ladiki, misrada kelgan "lozimdir" modal so'zi tasdiq yuklamasi "dir" bilan birga qo'llanilishi natijasida zaruriyatni kuchaytiruvchi modal ma'no yuzaga kelgan. She'rda inversiya hodisasi mavjud bo'lib, aslida gapning me'yoriy tartibi quyidagicha bo'lar edi: "*yig'inni uyda davom ettirmoq sizga lozimdir*". Bu sintaktik o'zgarish orqali bir nechta uslubiy-poetik vazifalarni bajarganini tahlil qilamiz: "sizga" olmoshi misraning boshiga ko'chirilishi orqali tanqid muayyan bir guruhga yoki "majlisbozlarga" aniq va shaxsiy tarzida qaratilganligi kuzatiladi. Bu esa lirik qahramonning tanqidiy pozitsiyasini kuchaytirib bergan. "Lozimdir" kesimining gapning o'rtasiga ko'chirilishi natijasida, modal so'zning majburiyat ma'nosi poetik jihatdan ta'kidlanadi va o'quvchi-kitobxon zaruriyat ma'nosining bo'rttirib ko'rsatilayotganligini darrov anglab oladi. Chunki "lozimdir" shaklidagi modal so'z+yuklama birgalikda qo'llanilganda asosan rasmiy-idoraviy uslubga xosligi ma'lum, uning badiiy asar tiliga ko'chirilishi orqali majlisbozlik illatiga nisbatan satirik ma'no yuzalanadi. O'quvchi-kitobxon rasmiy so'zning bunday uslubda qo'llanilganligini ko'rib, undan anglashilgan ma'noni tanqidiy fikrlash orqali anglab oladi. "davom" so'zining misra oxiriga ko'chishi esa "*majlisning*

*tugamasligi, uzoq davom etaverishi*”ni kinoyali tarzda ta’kidlab, she’rning umumiy satirik g’oyasini ochib berishga xizmat qilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдурахмонов, Х., & Махмудов, Н. (1981). *Сўз эстетикаси*. Тошкент: Фан.
2. Akbarova, M. Sh. (2024). *Badiiy matndagi g‘ayriodatiy birikmalarning lingvopoetik xususiyatlari* (Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi). Toshkent.
3. Budagov, R. A. (1988). *Portrety yazykovedov XIX–XX vv. Iz istorii lingvisticheskikh ucheniy*. Moskva: Nauka.
4. Абдулҳакимова, О. (2022). *Абдулла Орипов адабий-эстетик қараишлари*. Тошкент: Fan va ta’lim.

### **AHMAD TABIBIY SHE’RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI**

**Raximova Saboxat Raxmonqulovna,**

*O‘zMU mustaqil tadqiqotchisi*

*E-mail: [saboxatraximova1975@gmail.com](mailto:saboxatraximova1975@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xiva adabiy muhitining yirik namoyandasi Ahmad Tabibiy ijodiy merosini lingvopoetik va matnshunoslik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada shoir g‘azal va ruboiylaridagi leksik qatlamlar, Xorazm shevasiga xos arxaik elementlar hamda Qur‘on oyatlari zaminida yaratilgan talmih san‘atining struktur-sintaktik xususiyatlari tahlil qilingan. Shoirning zullisonaynlik mahorati, irfoniy timsollari va forsiy o‘zlashmalarning kelib chiqishi “Dehxudo” lug‘ati metodologiyasi asosida ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Tabibiy Alisher Navoiy, Munis va Ogahiy an‘analarining munosib vorisi hamda o‘z davri mumtoz adabiy tili me‘yorlarini belgilagan mustaqil ijodkor ekanini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Ahmad Tabibiy, Xiva adabiy muhiti, dilingvizm, leksik tahlil, Qur‘on talmihlari, lingvopoetika, Dehxudo lug‘ati, XIX asr o‘zbek adabiyoti.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr ibtidosi Turkiston xonliklari tarixida o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy o‘zgarishlar davri hisoblanadi. Xususan, Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi davrida Xiva xonligi o‘zining madaniy yuksalishining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Ushbu davr adabiy muhiti o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmagan, balki Alisher Navoiy asos solgan Hirot adabiy

maktabining mantiqiy hamda lisoniy davomi sifatida Xorazm vohasida qayta jonlangan o'ziga xos davr edi. Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiy kabi mutafakkirlar tomonidan tamal toshi qo'yilgan tarjima maktabi va tarixnavislik an'anasi tez orada butun bir she'riyat maktabini o'z atrofida jipslashtirdi. Bu muhitning eng o'ziga xos xususiyati shunda ediki, u o'zida turkiy (chag'atoy) adabiy tili me'yorlarini qat'iy saqlagan holda, fors-tojik tilining bebaho leksik imkoniyatlarini ham erkin qo'llay oladigan "zullisonayn" (ikki tilli) ijodkorlar silsilasini shakllantirdi. Bu davr matnlarining til xususiyatlarini o'rganish tarixiy leksikologiya va matnshunoslik fani oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Xiva adabiy muhitining markaziy qutbi, shubhasiz, ma'rifatparvar hukmdor va hassos shoir Muhammad Rahimxon Feruz shaxsi bilan chambarchas bog'liqdir. Uning saroyida yuzdan ortiq shoirlar, xattotlar, tarjimonlar va musiqashunoslar faoliyat yuritgan. O'rta Osiyoda ilk bor toshbosma (litografiya) uskunasi aynan Xivaga olib kelinib, yuzlab mumtoz matnlarning ko'paytirilishi bu davrda lisoniy takomilni yozma-akademik darajaga ko'tardi. Feruz asos solgan ushbu madaniy renessansda Ahmad Tabibiy shaxsi favqulodda yorqin namoyon bo'ladi. Ahmad Tabibiy, o'zining taxallusidan ham ko'rinib turibdiki, saroyning bosh tabibi bo'lish bilan birga, mumtoz she'riyatning barcha janrlarida qalam tebratgan yetuk mutafakkir edi. Tabibiyning saroydagi o'rni faqatgina shoirlik bilangina belgilanmaydi, u Feruzning bevosita topshirig'iga ko'ra Xiva shoirlari haqida ma'lumot beruvchi yirik tazkiralalar — "Majmuat ush-shuaro", "Majmuai qavoidi Feruzshohiy" kabi manbalarni tuzgan yetakchi musannif hamdir. Tabibiy o'z devonlarida asosan, an'anaviy ishq, tasavvuf va axloq mavzularini yoritish bilan birga, Feruzning ijtimoiy va adabiy faoliyatini madh etuvchi ko'plab qasidalar, g'azal va muxammaslar ham yaratgan.

Mumtoz matnlarni zamonaviy adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish doimo dolzarb bo'lib kelgan. Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi akademik V. Abdullayev, professor N. Jumaxo'ja, shuningdek, M. Yunusov, H. Abdullayev kabi olimlar tomonidan tarixiy-adabiy yo'nalishda maxsus o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida Tabibiy tazkiranavisligi va uning Xiva adabiy

muhitidagi o'rni keng yoritilgan. Biroq, muammoning o'rganilish darajasiga chuqur nazar tashlasak, Tabibiyning boy poetik merosi, xususan, uning turkiy va fors-tojik tillaridagi ruboiy va g'azallarining sof lisoniy, leksik-semantik, dialektologik hamda lingvopoetik tadqiqoti hali o'z yechimini topmaganini ko'ramiz. Shoir she'riyatida turkiy qatlam bilan o'zlashma (arabiy-forsiy) qatlamning foiz miqdori, ularning gap qurilishidagi vazifalari qanday mutanosiblikka ega? Diniy-irfoniy istilohlarning, xususan, Qur'oni Karim oyatlarining she'r matniga sintaktik uyg'unligi qanday namoyon bo'lgan? "Dehxudo" lug'ati kabi fundamental etimologik manbalar asosida Tabibiy qo'llagan fors-tojik leksemalarini qiyosiy tahlil qilish bugungi mumtoz matnshunosligimiz uchun mislsiz ahamiyatga ega. Aynan shu bo'shliq ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Ushbu maqolada Ahmad Tabibiyning turkiy va fors-tojik tillarida bitilgan boy she'riy merosini chuqur lisoniy, poetik va semantik tahlilga tortish maqsadida an'anaviy mumtoz matnshunoslik hamda zamonaviy tilshunoslikning bir qator kompleks, o'zaro integrallashgan metodlaridan foydalanildi. Tabibiy devonlari matnini asosli baholash uchun faqatgina adabiyotshunoslik yondashuvlari yetarli bo'lmaydi; shu sababli tadqiqot doirasida qat'iy lingvistik me'yorlar ham ishga solindi.

Mumtoz she'riyat, xususan, Xiva adabiy muhiti matnlari o'zining ko'p qatlamli ma'no xususiyatlari bilan ajralib turadi. Kontekstual tahlil metodi Tabibiy poetik lug'atidagi zohiriy (to'g'ridan-to'g'ri) va botiniy (tasavvufiy, ko'chma, irfoniy) ma'nolarni ajratish uchun qo'llanildi. Masalan, shoir she'riyatida takrorlanuvchi "jomu falak", "soqiy", "ajal may" kabi tasavvufiy istilohlarning matndagi ahamiyatini aniqlash orqali, ularning maishiy ichkilik emas, balki ilohiy ishq va foniylar dunyoning o'tkinchiligi ramzi sifatidagi ma'nolari ochib berildi. Ushbu metod yordamida har bir she'riy bayt o'zi joylashgan butun bir g'azal yoki ruboiyning umumiy semantik maydonida turib baholandi.

Shuningdek, qiyosiy-tarixiy va etimologik metodi fors-tojik tilidagi ruboiylarning, shuningdek, turkiy g'azallardagi forsiy o'zlashmalarning tarixiy

ildizlarini aniqlashda asosiy qurol bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot obyekti hisoblangan leksik birliklarning kelib chiqishi fundamental qomusiy manba — Ali Akbar Dehxudoning “Lug‘atnomayi Dehxudo” asari tamoyillariga ko‘ra qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, “zoli jahon” , “bodano‘shi” , “jomi sarshor” kabi leksik qurilmalarning yasaliş tarixi, ularning klassik fors adabiyotidan (Hofiz, Sa‘diy, Bedil) to XIX asr Xorazm muhitigacha bosib o‘tgan semantik tadriji kuzatildi. Etimologik tahlil shoirning so‘z tanlashdagi nozik didini va leksikografik bilimlarining kengligini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Lison va badiiyatning tutashuv nuqtalarini o‘rganuvchi lingvopoetika metodi Tabibiy matnlarining estetik va ritmik-ohangdorlik funksiyalarini tadqiq etishga yo‘naltirildi. Bu metod orqali shoirning fonetik vositalar –alliteratsiya, assonans hamda aruz vazni qonuniyatlaridan qanday unumli foydalangani o‘rganildi. Jumladan, “Mozog‘” (Najm surasi) , “Yuhyl izom” (Yosin surasi) va “Saniya isnayni fil g‘ori izhumo” (Tavba surasi) kabi og‘ir arabiy sintagmalarning turkiy aruz bahriga qanday qilib mutanosib ravishda, she‘rning ritmini buzmasdan singdirib yuborilganligi matnshunoslik qoidalari asosida isbotlandi. Bu usul Tabibiyning shunchaki shoir emas, balki qofiya, radif va vazn qoidalariini mukammal o‘zlashtirgan me‘mor ekanligini tasdiqlash uchun xizmat qildi.

Ahmad Tabibiyning zullisonaynlik mahorati, eng avvalo, fors-tojik tilidagi ruboiylarida namoyon bo‘ladi. Shoir yaratgan quyidagi fors-tojik ruboiysiga e‘tibor qaratsak, chuqur falsafiy mushohadani ko‘ramiz:

*Jahon jomu, falak-soqiy, ajal-may*

*Xaloyiq-bodano ‘shi suhbatı vay*

*Bo ‘vad zoli jahon on nav’ makkor*

Mazkur ruboiy bandida Tabibiy dunyoning foniy va aldamchi ekanligini ifodalash uchun tasavvufiy she‘riyatning uchta eng kuchli metaforik asosidan foydalangan. Birinchi misradagi “Jahon jomu, falak soqiy, ajal may” strukturasi borliq uch o‘lchovli ramzlarga bo‘linadi.

“Jahon jomu” (Jahon - qadah): Makon simvoli. Inson yashab turgan dunyo may ichiladigan qadahga o‘xshatiladi.



“Falak soqiy” (Osmon - may quyuvchi): Zamon va taqdir simvoli. Falak insonlarning peshonasiga qismatni bituvchi soqiy obrazida kelmoqda.

“Ajal may” (O‘lim - sharob): Qismatning yakuni. Barcha tirik jonzot albatta shu qadahdan o‘lim sharobini tatib ko‘rishi shart (“Xaloyiq bodano‘shi suhbatı vay”). Uchinchi misradagi “zoli jahon” iborasi alohida etimologik e‘tiborga molik. “Dehxudo” lug‘atiga ko‘ra, “zol” (زال) so‘zi “qari kampir”, shuningdek, “sochlari oqargan makkor shaxs” ma’nolarini anglatadi. Tabibiy “zoli jahon” (qari, makkor dunyo) birikmasi orqali, garchi dunyo o‘zini jozibador qilib ko‘rsatsa-da, aslida u odamlarni halokatga eltuvchi makkor yalmog‘iz ekanligini ta’kidlaydi (“Bo‘vad zoli jahon on nav’ makkor” ).

Bu ogohlantirish shoirning keyingi ruboiylarida yanada qat’iy tus oladi.

*Mano‘sh andar majolis bahri ishrat*

*Dihad soqiy tu ro gar jomi sarshor.*

Shoir insonni dunyo majlislaridagi ishrat daryosidan (yoki ishrat sababidan) may ichmaslikka (“Mano‘sh” - ichma ) chaqiradi. “Jomi sarshor” - lab-lunjigacha to‘la, toshib turgan qadah demakdir. Morfologik jihatdan “sar” (bosh) va “shor” (toshmoq, to‘kilmoq) so‘zlaridan yasalgan bu so‘z dunyoviy hirslarning haddan ziyodligi va insonni tezda o‘z domiga tortuvchi jozibasini bildiradi. Soqiy (falak) har qancha jozibali qadah tutmasin, u o‘tkinchidir, degan g‘oya ilgari suriladi.

Tabibiyning o‘zbek tilida bitilgan g‘azal va ruboiylarida eski o‘zbek adabiy tili qoidalari qat’iy saqlangani holda, Xorazm shevasiga xos jonli xalq tili elementlari nihoyatda ustalik bilan qo‘llangan.

*Alqissa, qilib javr-u jaho behaddi son,*

*Ishq ichra mani qonima qolding, ey sho‘x.*

Ushbu baytda “javr-u jaho” kabi arabiy-forsiy leksik juftliklar qatorida sof turkiy “qoniga qolmoq” frazeologizmining qo‘llanishi ko‘zga tashlanadi. Qadimiy turkiy tilda (va bugungi Xorazm shevasida) bir insonning jabri tufayli ikkinchi insonning qattiq jabr ko‘rishi, ruhiy o‘lim topishi “qoniga qolish” deyiladi. Fe‘l negiziga qo‘shilgan “-ding” (qolding) o‘tgan zamon qo‘shimchasi shevaga xos qat’iylilikni bildirib, ochiq bo‘g‘in bilan tugagan.

Yana bir chuqur ruhiy holat tasvirida shoir noyob arxaizmlarga murojaat etadi:

*G'am bitkali olsam qo'lima gar kog'az,  
Ko'z yoshim oqib bo'lg'usidur tar kog'az,  
Emdi oni jon safhasig'a yorg'utadur,  
Kim loyiq emas oning uchun har kog'az.*

Ruboiydagi eng asosiy og'irlik uchinchi misradagi “yorg'utadur” fe'liga tushadi. Oshiq qog'ozga o'z g'amini yozmoqchi bo'ladi (G'am bitkali olsam qo'lima gar ko'az), ammo tinimsiz oqayotgan ko'z yoshlari qog'ozni ho'l qilib yuboradi (Ko'z yoshim oqib bo'lg'usidur tar kog'az). Shunda oshiq oddiy qog'oz bu muqaddas g'amni ko'tarishga loyiq emasligini anglab (Kim loyiq emas oning uchun har kog'az), o'z g'amini “jon safhasiga” (ruhiga, jon qog'oziga) yozishga qaror qiladi. “Yorg'utmoq” so'zi etimologik jihatdan “yoritmoq”, “ravshan qilmoq” ma'nolaridan tashqari, Xorazm dialektida “o'yib yozmoq”, “mustahkam o'rnatmoq”, “singdirmoq” ma'nolarini ham ifodalaydi. Oshiq o'z dardini joniga o'yib yozmoqda.

Shuningdek, oshiqning dardi uni yuksaltiruvchi jarayon ekanligini shoir quyidagi betakror qiyos orqali beradi:

*Mehnatni bilur rind ahli andoq rohat,  
Kim tiftl toshin bilgusi devona laziz.*

“Tiftl” (yosh bola) va “devona” (Majnun) qiyosi mumtoz adabiyotdagi an'anaviy timsoldir. Aqlini yo'qotgan devonaga ko'cha bolalari (“tiftl”) tosh otsa, u buni og'riq deya qabul qilmaydi, balki ma'shuqasining e'tibori, shirin bir iltifot sifatida biladi (Kim tiftl toshin bilgusi devona laziz). Xuddi shunday, “rind ahli” (haqiqiy irfon ahlari, ilohiy oshiqlar) ham bu dunyoning mehnati va balosini azob deb emas, balki Haqning sinovi, “rohat” deya bilishadi (“Mehnatni bilur rind ahli andoq rohat”). “Tiftl toshi” birikmasi bu o'rinda “dunyo kishilarining ta'nasi” ma'nosidagi metaforadir.

Tabibiyning matn tuzishdagi eng murakkab uslubiy qirrası shundaki, u arab tilidagi butun boshli Qur'on oyatlarini yoki ularning ma'no tashuvchi sintagmatik parchalarini turkiy g'azal tarkibiga singdirib yubora olgan.

Shuningdek, Tabibiy forsiy she'rlarida arabiy oborotlardan, ibora va so'zlardan unumli foydalangan. Masalan:

*On sho'x bo nozu ado gar meravad bo har taraf,*

*Sabru qaroru toqatu husham shavad yaksar talaf.*

Baytdagi "talaf" – talofat topmoq, yo'q bo'lmoq fe'li shoir tomonidan zo'r mahorat bilan qo'llangan. Yoki:

*Ey dil, takabbur xalqro dar dahr xoriy medihad,*

*Gar nazmi tu gavhar buvad ahqar kun uro hazaf*

baytida to'liq arabiy va forsiy istilohlar hamda so'z birikmalari qo'llangan bo'lib, quyidagicha sharhlanadi:

Arabcha o'zslashmalar:

*Takabbur* (kibrlanish, manmanlik) – baytning bosh g'oyasini ochib beruvchi tushuncha.

*Xalq* (odamlar, omma) – bu yerda jamiyat ma'nosida.

*Dahr* (dunyo, zamona, falak) – falsafiy, poetik obraz.

*Nazm* (she'r, tartib).

*Ahqar* (eng haqir, arabcha "haqir" so'zining orttirma darajasi)

*Hazaf* (sopol parchasi, mayda tosh, keraksiz narsa).

va forscha:

*Dil* (yurak, ko'ngil) – mumtoz she'riyatda eng ko'p murojaat qilinadigan so'z;

*Xoriy* (xorlik, tubanlik, kamsitilish).

*Gavhar* (qimmatbaho tosh, marvarid).

*Buvad* (bo'lsa, bo'ladi – "budan" fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli).

Ayniqsa, shoir muxammaslarida arabiy iboralardan ko'p foydalanish, Qur'on va hadislardan iqtibos keltirish hollari ko'p uchraydi:  
*Sozand base xizmati tu ko'yi maloyik,*

*Shoyoni qudrati xil'ati "Lav lok, laa amruk"*

*Darboni darat Yuvsha'u, Zulkiflu Masiho...*

Payg'ambar alayhissalom hadislaridan birida: "man salama min yadayhi va lisanihi, huval-muslim" – Kimniki qo'lidan va tilidan birovga ozor yetmasa, u haqiqiy musulmondur, deganlar. Buni Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"da chiroyli o'xshatish bilan tasvirlaydi. Tabibiy yozadi:

*Yak xub nukta guyam, ey sarvi gulbadan,*

*K-o' behtar ast dar sharaf az gavhari Adan,*

*Xohiy zi dast boshad, xohiki az suxan,*

*Behuda sang bar dili ozurdagon mazan.*

Tabibiyning arab tilidan xabardor, Qur'oni karim va hadis bilimdoni bo'lgani uning she'rlarida ko'zga tashlanadi.

Yoki: *Ko'zlaringni surmayi "Mozog'" o'lub ziynatkori,*

*Husninga "Vash-shams..." tafsiri kelib sun'atnamo.*

misrasida Qur'oni Karimning Najm surasi 17-oyati: *"Ma zog'al basaru va ma tog'o"* (Nigoh kuzatishdan og'madi va haddidan oshmadi ham) jumlasidagi "Mozog'" (og'madi, chalg'imadi) so'zi ma'noviy markaz vazifasini o'tamoqda. Tabibiy ma'shuqa ko'zining qat'iyligi, boshqaga qiyo boqmasligi va jozibasini aynan shu ilohiy "og'maslik"ka o'xshatadi. "Mozog'" so'zi ko'zga tortiluvchi "surma" detali sifatida moddiylashtirilgan. Ikkinchi misradagi "Vash-shams" iborasi Shams surasining muqaddimasi bo'lib, yuzning oftobdek nurafshon ekanligini ifodalash uchun olingan. Quyosh surasi ma'shuqa husniga bitilgan "tafsir" deya e'tirof etilmoqda.

Iso (a.s.)ning mo'jizasi va Allohning qudratiga ishora qiluvchi yana bir:

*Jonfizo qildi labingni sharbat "Yuhyl izom..."*,

misrasi Yosin surasining 78-oyatiga borib taqaladi ("...yuhyihal laziy ansha'aha" – ularni (chirigan suyaklarni) ilk marta yaratgan Zot tiriltirur). "Yuhyl" (tiriltirmoq) va "izom" (suyaklar) leksemalaridan tuzilgan ushbu ma'no orqali Tabibiy go'zalning labidan tomgan sharbat chirigan suyakka ham jon baxsh etishga ("jonfizo qildi") qodir ekanini mubolag'a orqali ifodalaydi. Oyatning bu

qadar lirik matnga organik birikishi shoirning diniy istilohlarni inson ruhiyatiga uzviy bog'lay olish mahoratini ko'rsatadi.

Ahmad Tabibiyning leksik va poetik merosini ayricha hodisa sifatida baholash xato. Olingan tahliliy natijalar shuni qat'iy isbotlaydiki, shoir poetikasi Alisher Navoiy tomonidan murattab qilingan eski o'zbek adabiy tilining uzviy hamda tadrijiy davomchisidir. Qiyosiy yondashuv asnosida qaralganda, Tabibiy matnlarida Navoiy an'analarga xos bo'lgan frazeologik butunlik va lisoniy pafos saqlanib qolganini ko'rish mumkin.

Tabibiy uslubida Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqiyn" asariga xos bo'lgan irfoniy falsafa yaqqol seziladi. Tasavvufiy atamalarning (masalan, "jomi sarshor", "zoli jahon") moddiy borliqni inkor etuvchi ko'chim sifatida qo'llanilishi Ogahiy lisoniy maktabining Tabibiy ongidagi o'ziga xos in'ikosidir. Boshqa tomondan, shoir Muhammad Rahimxon II Feruz saroyining yetakchi amaldori va musannifi bo'lganligi sababli, uning she'rlarida Feruz poetikasiga xos bo'lgan musiqiylik, ritmik muvozanat va aruzning o'ynoqi bahrlariga murojaat qilish ustuvorlik kasb etgan. Feruz adabiy maktabining asosiy talabi – she'rning nafaqat o'qilishi, balki maqom yo'llarida kuylanishiga mos bo'lishi kerakligi Tabibiy g'azallarining ohanglar kompozitsiyasini belgilab bergan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida zullisonaynlik shunchaki ikki tilda yoza olish qobiliyatigina emas, balki yuqori intellektual elita vakillariga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy maqom ko'rsatkichi edi. Ahmad Tabibiyning ikkitilliligi o'zining xos tabiati bilan ajralib turadi. U fors-tojik tilidagi leksik birliklarni turkiy matnga sun'iy ravishda "tiqishtirmaydi", balki ularni morfologik va sintaktik jihatdan to'liq moslashtiradi.

Muhimi shundaki, Tabibiy chag'atoy tili normalarini faqatgina fors-tojik qatlami hisobiga emas, balki jonli Xorazm shevasining qadimiy (arxaik) qatlami hisobiga ham boyitgan. Matnshunoslikda qabul qilingan umumnazariy qarashlarga ko'ra, dialektizmlar odatda adabiy til me'yorlarini buzuvchi omil sifatida ko'riladi. Biroq, Tabibiy ijodida "yorg'utadur" (singdirmoq, o'yib yozmoq), "bitkali" kabi dialektal xarakterga ega, aslida orxun-enasoy bitiklarigacha borib taqaluvchi sof

turkiy o‘zaklar yuqori lirik va fojaviy pafosni ifodalash uchun muvaffaqiyatli xizmat qilgan.

Tabibiy til vositalarini tanlashda ma’noni qurbon qilib ohangni asramagan, aksincha, ma’no teranligini fonetik mukammallik bilan uyg‘unlashtira olgan kamyob so‘z me’moridir.

Ahmad Tabibiy g‘azal va ruboiylarining leksik, semantik hamda lingvopoetik tahlili asosida yozilgan ushbu maqoladan quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar yuzaga chiqadi:

Birinchidan, Ahmad Tabibiyning poetik lug‘ati uchta ulkan sarchashmadan: qadimgi turkiy (chag‘atoy), fors-tojik va arab tillaridan oziqlangan bo‘lib, bu leksik qatlamlar matn ichida o‘zaro raqobatlashmaydi, balki bir-birining uslubiy va semantik vazifalarini to‘ldiradi.

Ikkinchidan, shoir o‘z ijodida fors-tojik ruboiynavislik an‘analarini Xiva adabiy muhitida muvaffaqiyatli davom ettirgan. “Dehxudo” lug‘ati tamoyillari asosida o‘tkazilgan etimologik tahlillar Tabibiy qo‘llagan “zoli jahon”, “jomi sarshor” kabi istilohlarning yuzaki emas, balki chuqur tasavvufiy hamda mushtarak ma’no qatlamlariga ega ekanligini isbotladi.

Uchinchidan, Tabibiy ijodida Xorazm hududiy-dialektal elementlarining klassik adabiy til me’yorlariga kiritilishi jonli xalq tili va kitobiy til o‘rtasidagi masofani qisqartirgan. Sof turkiy ibora va leksemalarning poetik unsurlar qatoridan joy olishi chag‘atoy tilining leksik fondini sezilarli darajada kengaytirgan.

To‘rtinchidan va eng muhimi, shoirning talmih san’atidan foydalanish mahorati o‘ziga xosligi ajralib turadi. Qur’oni Karimning Najm, Shams, Yosin va Tavba suralaridagi murakkab arabiy iboralarning hech bir fonetik yo‘qotishlarsiz, aynan original holida turkiy aruz bahrlari bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirilishi Tabibiyning she’riy texnika borasida naqadar yetuk usta ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Ahmad Tabibiy shunchaki Feruz saroyining tarixchisi yoki tabibi emas, balki XIX asr oxiri – XX asr boshlari o‘zbek mumtoz lisoniy madaniyati tadrijida o‘z o‘rniga ega, Navoiy va Ogahiy maktablari o‘rtasida

mustahkam vorisiylik ko'prigini yarata olgan yirik tilshunos-mutafakkir hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Fathulla G'anixo'jayev. (1978). "Ahmad Tabibiy" monografiyasi, Toshkent: Fan.
2. Alisher Navoiy. (1987-2003). Mukammal asarlar to'plami (20 jildlik). Toshkent: Fan.
3. Vohid Abdullayev. (1980). Xorazm adabiy muhiti va Ahmad Tabibiy. Toshkent: Fan.
4. Ibrohim Xudoyor (2005). "G'aribahoyi oshno" Milliy tadqiqotlar instituti.
5. Tabibiy (2020). Devon (G'azallar va ruboiylar). (Qo'lyozma asosida nashrga tayyorlovchilar). Xiva: Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyoti.
6. Ali Akbar Dehxudo, (1990). Lug'atnomayi Dehxudo (Tehron universiteti nashri, etimologik lug'atlar asosi).
7. Yo. Is'hoqov (2001). So'z san'ati sirlari. Toshkent: O'zbekiston.
8. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. (2001). (Tarjimon va tafsirchi: Shayx Abdulaziz Mansur). Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti.
9. Dilnavoz Yusupova, (2018). O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Akademnashr.
10. N. Shodmonov (2010). O'zbek mumtoz adabiyotida tazkiranavislik tarixi (Tabibiy tazkiralari misolida). Buxoro: BuxDU nashriyoti.
11. Najmiddin Komilov. (1999). Tasavvuf (Tarix va taraqqiyot). Toshkent: Yozuvchi.
12. H. Boltaboyev (2008). Mumtoz so'z qadri. Toshkent: Muharrir.

## **ОСНОВНЫЕ КОМПОНЕНТЫ МЕНТАЛЬНОГО ЛЕКСИКОНА И ИХ РОЛЬ В ПРОЦЕССАХ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

***Жумаева Камила Бобировна***

*Кокандский государственный университет,*

*самостоятельный соискатель*

*E-mail: [zumaevakamila41@gmail.com](mailto:zumaevakamila41@gmail.com)*

**Аннотация:** в статье рассматриваются три основных компонента ментального лексикона: лексический словарь, фразовые единицы и грамматические правила. Подчеркивается их ключевая роль в организации и функционировании процессов речевой деятельности. Анализируется взаимосвязь между компонентами и их участие в восприятии, понимании и порождении речи. Отмечается, что именно согласованное функционирование лексического словаря, фразовых единиц и грамматических правил обеспечивает когнитивную целостность ментального лексикона и эффективность языковой коммуникации.



**Ключевые слова:** ментальный лексикон, лексический словарь, фразовые единицы, грамматические правила, речевая деятельность.

Ментальный лексикон занимает одно из центральных мест в психолингвистике, поскольку именно через него объясняется, каким образом человек хранит, узнаёт, выбирает и использует языковые единицы в речи. В самом общем виде ментальный лексикон можно понимать как внутренний словарь личности, но такое определение будет слишком узким. В отличие от печатного словаря, где слова расположены по алфавиту и описаны в статичном виде, ментальный лексикон работает как живая система связей. В ней слово связано не только со значением, но и со звучанием, написанием, грамматическими формами, типичными сочетаниями, эмоциональной окраской, личным опытом и ситуациями употребления.

А. А. Залевская подчёркивала, что слово в сознании человека существует не как изолированная единица, а как часть индивидуального знания, включённого в процессы понимания и порождения речи [А. А. Залевская, 2007:95]. Данная позиция особенно важна для темы статьи, потому что ментальный лексикон нельзя рассматривать как склад готовых слов. Он скорее напоминает сеть, где каждая единица получает смысл через связи с другими единицами. Например, слово *школа* связано не только с понятием *учебного заведения*, но и с образами *класса, урока, учителя, оценок, расписания, школьного возраста, личных воспоминаний*. При восприятии слова активируется не одна точка, а целый комплекс смыслов.

В зарубежной психолингвистике близкая идея представлена в работах Дж. Эйчисон. Автор рассматривает ментальный лексикон как внутреннее хранилище слов, которое отличается сложной организацией и позволяет человеку быстро находить нужную языковую единицу среди огромного количества возможных вариантов [Дж. Эйчисон, 2012:140]. Такая скорость особенно заметна в обычной устной речи. Человек редко останавливается перед каждым словом и сознательно выбирает его форму. Большая часть

операций происходит автоматически, хотя за этой автоматичностью стоит сложная работа памяти, внимания и языкового опыта.

Речевая деятельность включает несколько взаимосвязанных процессов. При восприятии речи человек должен распознать звуковую или графическую форму слова. При понимании он соотносит её со значением и контекстом. При порождении речи происходит обратное движение, поскольку говорящий сначала формирует замысел, затем подбирает языковые средства и выстраивает высказывание. В. Левелт описывал речевое порождение как многоэтапный процесс, где важную роль играют концептуализация, формулирование и артикуляция [В. Левелт, 1989:96]. Ментальный лексикон включается в этот процесс на разных этапах. Он помогает подобрать слово, согласовать его с грамматической структурой и встроить в целое высказывание.

Для раскрытия темы особенно важно выделить три компонента ментального лексикона: лексический словарь, фразовые единицы и грамматические правила.

*Лексический словарь* является основой ментального лексикона и представляет собой совокупность слов, их значений и форм, хранимых в долговременной памяти индивида. Лексический словарь включает как общее, так и специализированное знание о словах: их фонологических, морфологических и семантических характеристиках. Он позволяет воспринимать и воспроизводить отдельные слова в их различных формах, что критически важно для эффективного общения. Благодаря лексическому словарю человек может быстро находить нужные слова в процессе речи, а также интерпретировать их значения в контексте. Таким образом, лексический словарь обеспечивает основу для когнитивной обработки информации и является важным инструментом в формировании смысловых связей.

*Фразовые единицы* – это более сложные структуры, чем отдельные слова, включающие устойчивые сочетания слов, фразеологизмы, идиомы и

коллокации, которые также хранятся в ментальном лексиконе. Эти единицы играют ключевую роль в языке, поскольку они обрабатываются как целостные единицы, а не как сумма отдельных слов. Фразовые единицы важны для понимания и производства речи, поскольку они отражают особенности языка, присущие определенным культурам или социальным группам, и часто обладают значениями, которые не могут быть выведены из значений отдельных слов. Использование фразовых единиц способствует более естественному и беглому общению, а также ускоряет процесс мышления, поскольку позволяет обращаться к заранее зафиксированным комбинациям слов и выражений, которые легко и быстро воспринимаются.

*Грамматические правила* – третий компонент ментального лексикона, который регулирует организацию слов и фраз в языке. Эти правила включают синтаксические, морфологические и другие формальные аспекты, которые обеспечивают правильную структуру предложений и связность высказываний. Грамматические правила позволяют не только правильно строить предложения, но и понимать их в контексте общения. Они являются необходимыми для того, чтобы человек мог конструктивно взаимодействовать с другими, создавая логические и когерентные высказывания, которые легко воспринимаются слушателями. С помощью грамматических правил происходит структурирование информации, что способствует более точному и выразительному выражению мыслей.

Следовательно, ментальный лексикон представляет собой сложную и многокомпонентную систему, в которой лексический словарь, фразовые единицы и грамматические правила взаимодействуют для обеспечения как вербального, так и когнитивного процесса. Лексический словарь предоставляет основу для восприятия и использования отдельных слов, фразовые единицы ускоряют процесс коммуникации и придают речи особую выразительность, а грамматические правила структурируют и упорядочивают информацию, что делает общение и мышление более эффективными. В совокупности эти три компонента формируют структуру,

которая необходима для поддержания плавности и гибкости языка в процессе общения и мышления.

Таким образом, мы можем сделать вывод о том, что компоненты ментального лексикона играют центральную роль в мышлении и в общении. Богатство лексического словаря, способность интерпретировать фразовые единицы и знание грамматических правил помогают не только формировать когнитивные структуры, но и влиять на восприятие мира, социальное взаимодействие и идентичность личности.

Три компонента ментального лексикона позволяют объяснить и явление переключения кодов. В билингвальной речи человек может переходить с одного языка на другой внутри диалога, фразы или даже отдельной конструкции. Такое переключение не всегда говорит о недостатке владения языком. В некоторых ситуациях оно выполняет смысловую, эмоциональную или социальную функцию. Лексический компонент даёт доступ к словам обоих языков, фразовый компонент предлагает привычные выражения, а грамматический компонент задаёт границы допустимого соединения элементов. В контексте билингвизма становится особенно заметно, что ментальный лексикон связан с идентичностью личности. Разные языки могут активировать разные культурные ассоциации, речевые привычки и способы выражения эмоций. Одно и то же понятие в двух языках может иметь разные оттенки. Например, формы обращения, выражения вежливости, эмоциональные клише и устойчивые метафоры часто не совпадают полностью. Поэтому билингвальный ментальный лексикон отражает не только языковую компетенцию, но и опыт жизни между двумя системами смыслов.

Практическое значение рассмотренных компонентов проявляется в обучении языку. Если внимание уделяется только запоминанию слов, речевая деятельность развивается ограниченно. Учащийся может понимать отдельные единицы, но испытывать трудности при построении высказывания. Если акцент делается только на грамматике, речь может стать

правильной, но бедной и неестественной. Если же добавляются фразовые единицы, типичные коллокации и реальные речевые модели, формируется более полноценная языковая компетенция. Такой подход особенно полезен при обучении второму языку.

Для понимания речевой деятельности важно учитывать, что ментальный лексикон постоянно изменяется. Новые слова входят в память через чтение, общение, обучение, профессиональный опыт и цифровую среду. Некоторые единицы становятся активными, другие остаются пассивными. Устойчивые выражения закрепляются через повторение. Грамматические модели автоматизируются в практике. У билингвов этот процесс усложняется, потому что развитие одного языка может усиливать, изменять или временно вытеснять элементы другого.

В итоге ментальный лексикон можно представить как многослойную систему, обеспечивающую речевую деятельность на разных уровнях. Лексический словарь отвечает за хранение и выбор слов. Фразовые единицы обеспечивают естественность, беглость и культурную выразительность речи. Грамматические правила структурируют высказывание и делают его понятным. Совместная работа этих компонентов позволяет человеку воспринимать чужую речь, строить собственные высказывания, читать, писать, переводить и адаптировать речь к ситуации.

Особую ценность такая модель имеет при обращении к билингвизму. Два языка в сознании человека не существуют как два полностью закрытых механизма. Они взаимодействуют через слова, устойчивые сочетания, грамматические модели и общую концептуальную систему. Поэтому изучение лексического словаря, фразовых единиц и грамматических правил помогает глубже понять, как билингв воспринимает речь, выбирает язык, переводит, переключает коды и сохраняет коммуникативную гибкость. Именно согласованная работа этих трёх компонентов делает ментальный лексикон не пассивным хранилищем слов, а активной основой речевой деятельности.

## ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Залевская А. А. Введение в психолингвистику. Москва: РГГУ, 2007. 560 с.
2. Aitchison J. Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon. 4th ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2012. 352 p.
3. Levelt W. J. M. Speaking: From Intention to Articulation. Cambridge, MA: MIT Press, 1989. 497 p.

## ARAB TILIDA SIFATLARNING MA'NO TURIGA KO'RA FARQLANISHI

**Nizomjon Qodirqulov,**  
*Toshkent Oriental universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Arab tilida sifat soʻz turkumi juda koʻplab olimlar tomonidan oʻrganilgan va tadqiq etilgan. Predmetning belgisini bildiruvchi bu soʻz turkumi arab tilida asosan uch undosh oʻzakli soʻzlardan iborat boʻladi. Sifatlar ham otlar kabi muzakkar va muannas jinslarga, birlik, ikkilik, koʻplik sonlarga egadir. Sifatdagi birlik, ikkilik sonlarning hosil boʻlish usuli otlardan farq qilmaydi. Sifatning koʻplik shakli odatda u odamlarning belgisini bildirib kelganida ishlatiladi. Ushbu maqolada arab tilidagi sifatlar vazni va mazmuniga, ularning nomlanishi va turlariga diqqat qaratilgan.

**Kalit soʻzlar:** arab tili, sifatlar, vaznlar, mazmunlar, turkumlar.

**Abstract:** The adjective word class in Arabic has been studied and researched by many scholars. This word class, which denotes the sign of an object, consists mainly of three-consonant root words in Arabic. Adjectives, like nouns, have neuter and accusative genders, singular, dual, and plural. The method of forming the singular and dual numbers in adjectives does not differ from nouns. The plural form of an adjective is usually used when it denotes the sign of people. This article focuses on the meaning and content of adjectives in Arabic, their naming and types.

**Keywords:** Arabic language, adjectives, weights, meanings, categories.

Nahv olimlarining nazdida sifatlarning xos xususiyati: qadimgi nahv olimlari sifatning xususiyatlari haqida toʻxtalib, uni ismning turkumiga kirishini aytishgan. “Ular gapning qismlarini ism, feʼl va harfga ajratib, mana shu uch

qismdan biriga kiradigan far'iy qismini sharhlashga kirishishgan. Sifatni ismning turlaridan bir turi deb qarashgan.”<sup>1</sup> Ibni Ya'ish va shuningdek, Zamashariyning zikr qilshicha: “sifat ismlarning turlaridan bir turdir, jinslarning ismlarining turlari haqida so‘z yuritilganda ular sifatni a‘yon ismlarga ya‘ni sifatlarga bo‘lishgan, ma‘nolarning ismlari sifatlardir.”<sup>2</sup>

Zamaxshariy jins ismlarining ta‘rifida shunday deydi: “u har bir o‘ziga va o‘ziga o‘xshagan narsaga taalluqli bo‘lgan narsadir va uni o‘z ismiga, ya‘ni ayni holati va ma‘no ismiga bo‘lgan deb taqsimlaydi. Ularning so‘zlari ismga sifatdan tashqari ismni taqsimlab, bu ismda bu sifatda deyishadi. Sifat *minuvchi*, *o‘tiruvchi*, *vijdonli*, *tushunarli* kabi bo‘ladi.”<sup>3</sup>

Zamaxshariyning matnlaridan aniq bo‘ladiki, sifatning ismlari mavjud. Savol tug‘iladi: ichki va tashqi xususiyatlariga ko‘ra sifatlarning tabiati qanday bo‘ladi? <sup>4</sup>

Jumhur ulamolari dalillarga asoslanib aytishadiki: sifat xususiyatlari shundayki, sifat ismning alomatlarini qabul qiladi masalan, tanvin, izofa aniqlik shakllarini oladi va quyidagi misollarda ko‘ringani kabi:

- أ. طاوليل/ الطاوليل 1)
- ب. رجل طويل القائمة
- ج. يا حسن وجه/ يا ضارب رجل

Birinchi misolning “a” qismidan anglashiladiki, sifat aniqlikni qabul qilyapti. Birinchi misolning “b” qismida izofani qabul qilyapti. Birinchi misolning “j” qismida esa nidoning yuklamalarini qabul qiladi. Ibni Ya'ish aytadiki, sifat ba‘zida ism bo‘lishi mumkin, ba‘zida undan boshqa jumla yoki zarf (o‘rin-payt ravishi) bo‘lishi mumkin. Quyidagi misollar kabi:

- أ. هذا الرجل قبيح 2)

<sup>1</sup> Nahv olimlari fikricha, o‘tning bo‘laklari quyidagilardir: sifatdoshlar, tegishli otlar, ko‘rsatish olmoshlari, nisbat olmoshlari va boshqalar.

<sup>2</sup> Nahv olimlarining fikriga ko‘ra, "odam", "ot" kabi jismoniy ob'ektlarning otlari ko‘rish orqali idrok etiladigan otlardir. Ya‘ni, boshqacha aytganda, ma‘no otlari kamroq idrok etiladigan otlardir. Shuning uchun grammatikachilar jismoniy predmetlarning otlari ostidagi “chavandoz”, “o‘tirgan” kabi sifatlarni va ma‘no otlari ostida kiruvchi boshqa sifatlarni, jumladan: yashirin, yashirin kabilarni aniqladilar. Bu sifatlarni sezish fe‘llaridan yasaladi.

<sup>3</sup> شرح ادلفصل، ج. 1 - ص. 91.

<sup>4</sup> في هذا لاطار، يقصد بلاسماء الصفات، يحسب النحاة، هي الاسماء التي تدل على ذات وصفة. وقد ميزو بين أنواع من أسماء الصفات: أسماء صفات تشتق من أفعال مثل اسم الفاعل، و اسم المفعول. و صفات الحالية ك: أحمر، أصفر، أسود. و صفات النسبة ك مغريب، و بصري. فهذه لأخيرة صفات، لهذا أضيفت لي معنى الفاعل



ب. هذه فتاة ثيابها ممزق

ج. مررت برجل من الكرام

“Ikkinchi misolni “a” qismida sifat birlik ism bo‘lib kelyapti.<sup>1</sup> “B” misolda esa xabariy jumla (ega va kesimdan iborat gap) bo‘lib kelyapti. “J” misolda esa shibhiy jumla (predlog va o‘rin-payt ravishlaridan iborat gap) bo‘lib kelyapti. Nahv olimlari ismlarning marfu’ (bosh kelishikdagi so‘zlar), majrur (qaratqich kelishigidagi so‘zlar), mansub (tushum kelishigidagi so‘zlar) holatlari uchun boblarni xosladi. Chunki ism ularning nazdida agar marfu’ (bosh kelishikdagi so‘zlar) ismga ergashib kelayotgan bo‘lsa, marfu’ (bosh kelishikdagi so‘zlar) bo‘ladi. Agar mansub (tushum kelishigidagi so‘zlar) ismga ergashib kelayotgan bo‘lsa, mansub (tushum kelishigidagi so‘zlar) bo‘ladi. Agar majrur (qaratqich kelishigidagi so‘zlar) ismga ergashib kelsa, majrur (qaratqich kelishigidagi so‘zlar) bo‘ladi. Tobe’lar besh turlidir. Ularning ichida sifat faqat o‘zidan oldingi so‘zga tobe’ bo‘lib kelgandagina erob oladi (kelishikda turlanadi).” Shuning uchun nahvga oid adabiyotlarda uchramizki: “Na’t ya’ni sifat o‘zidan oldingi ismga to’la tobe’ bo‘ladi.”<sup>2</sup> Quyidagi misollarda bayon qilingani kabi:

أ. جاء التلميذ المجتهدُ 3)

ب. جاء الرجلُ المجتهدُ غلامُهُ

3 “a” misolida *sifat* “*mujtahid*” (tirishqoq) so‘zi bo‘lib, uning *aniqlanmishi* “*at-tilmiyzu*” (*o‘quvchi*) so‘zi bo‘lib kelyapti. “B” misolda esa *mavsuf* (sifatlanmish) ning holi emas, balki unga taaluqli bo‘lgan “*g‘ulom*” ning holi bayon qilinyapti. Ma’lum bo‘ladiki, sifat nahv olimlari nazdida ziyoda bo‘ladi, ismdan keyin ergashib keladi. Chunki uning vazifasi *mavsuf* bo‘lgan *ismni* yoki *unga taaluqli bo‘lgan bo‘lakni* holini bayon qilib keladi.

*Sifatlarning qismlari.* Nahv olimlari zikr qilib aytishadiki, *sifat* ham *na’t* ham bir xil narsa. “*Sifat*” *Basraliklarning* istilohi, “*na’t*” esa *Kufaliklarning* istilohi. Nahvchi olimlar sifatni ikki qismga bo‘lishadi:

1. *Haqiqiy sifat.*

<sup>1</sup>الصفة اسم لأن لها نفس سلوك الاسم من حيث التعريف والتكثير والاسناد والاضافة. و صفة قبيح في (2) خبر عند النحاة.  
<sup>2</sup>شرح الأشموني، ج. 4 - ص. 297.

## 2. Sababiy sifat.

*Haqiqiy sifat sababiy sifatga nisbatan mustaqil bo'ladi va ismga erob (kelishik) da va muvofiqlikda ergashadi.*

*Sababiy sifat esa ismdagi sifat bo'lib, unda sifatlanayotgan ism bilan uni bog'liqligi bo'ladi. U birlikda bo'ladi.*

*Haqiqiy sifat. Sifat bilan sifatlanmish o'rtasidagi muvofiqlikning belgilari.* Ibni Ya'ish rohimahulloh ishora qilib aytadilarki, sifatning muvofiqligining belgilari 10 ta holatda ko'rinadi. Va bu nas hisoblanib: "Aytadilarki sifat sifatlanmishga holatda, bosh kelishikda, tushum kelishikda, qaratqich kelishigida, birlikda, ikkilikda, ko'plikda, aniqlikda, noaniqlikda, muzakkarlikda, muannaslikda bir biriga mos keladi. Albatta, sifatlanayotgan ism bosh kelishikda bo'lsa, uning sifati ham bosh kelishikda bo'ladi. Agar tushum kelishigida bo'lsa, tushum kelishigida bo'ladi. Agar qaratqich kelishigida bo'lsa, qaratqich kelishigida bo'ladi. Va boshqa holatlar ham shunga o'xshaydi."<sup>1</sup>

Sifat sifatlanmishi bilan erob (kelishik)da, sonda, jinsda, aniqlikda va noaniqlikda mos keladi.

U quyidagi tarkibiy tuzilmalarda ko'rinadi:

- 4) أ. هذا رجل عاقل
- ب. رأيتُ رجلاً طويلاً.
- ج. رأيتُ امرأةً طويلةً.
- 5) \* هذا رجلٌ الظريفُ.

4 a, b, j, misollarda sifat sifatlanayotgan ism bilan barcha sifatlarda muvofiq bo'ldi. Oqil sifati sifatlanayotgan mavsuf bilan jinsda, noaniqlikda muvofiq bo'ldi. 5-jumlada esa "zarif" (qiziqchi) sifati sifatlanayotgan ism bilan erobda, kelishikda, sonda, jinsda muvofiq bo'lgani yo'q. Buni nahvchi olimlar to'g'ri tuzilish emas deb e'tirof etishadi. Biz endi sifat va sifatlanmish o'rtasidagi muvofiqlikning alomatlarini quyidagicha tartiblab olishimiz kerak:

JINS > SON > KELISHIK.

Shu bilan birga bu yerda yana quyidagicha jumlar ham uchray turishi mumkin. Buni to'g'ri deb bo'lmaydi:

5) مررت بالرجال العاقلات

Ko'rishimiz mumkinki sifatlanmish bu yerda رجال<sup>ya</sup>'ni erkaklar uning jinsdagi alomati muzakkar, sondagi alomati esa ko'plik, ammo so'zi sifat bo'lib, uning jinsdagi alomati muzakkar bo'lishi kerak, sondagi esa ko'plik bo'lishi kerak. Ammo tuzilishiga qaraydigan bo'lsak so'zi ko'plikdaligi to'g'ri, ammo muannas bo'lganligi uchun mavsuf bilan jins kategoriyasida moslashmaydi. Bu xato jumla xato tuzilma ekanligini ko'rsatib turibdi.

*Yoyilma alomatlar.* Qadimgi arab nahvshunoslari shuni dalil qilib keltirishadiki, sifat sifatlanmishdan keyin keladi asl binoga ko'ra. Va har bir holatda unga, ya'ni sifatlanmishga tobe'(ergashuvchi) bo'ladi va undan keyin keladi. Va na'tga ya'ni sifatga sifatlanmishga tobe'(ergashuvchi) bo'lish vojib bo'ladi. Avval sifat va sifatlanmish bir narsa kabi.<sup>1</sup> Sifat va sifatlanmish xosroq tur hisoblanib, sifat sifatlanmishdan ko'ra xosroqdir. Quyidagi misollarda bayon qilingani kabi:

أ. رأيتُ رجلاً طويلاً.

ب. رأيتُ امرأةً طويلةً

7) رأيتُ طويلةً امرأةً \*

6 "a" va "b" misollarida biz ko'rishimiz mumkinki sifat sifatlanmishdan keyin keldi, lekin 7- misolda esa sifat sifatlanmishdan oldin keldi. Bu endi asliy holatni buzilganligini ko'rsatadi nahvchilarning matniga ko'ra. Agar sifat sifatlanmish bilan moslashayotganda barcha alomatlar zohir bo'lib, tartibi ham shunga muvofiq bo'lishi kerak. Sifat sifatlanmishga ergashadi va bu sifat nahvchilarning nazdida haqiqiy sifat bo'ladi.

*Sababiy sifat.* Qadimgi nahv olimlari sababiy sifat deganda ismdagi ma'noga va sifatga dalolat qiladigan ya'ni sifatni sifatlanmish bilan aloqasi bor bo'lgan ismdagi ma'noga, ismdagi sifatga sababiy sifat deyishgan. Sababiy sifat mufrad bo'ladi, quyidagi misolda bayon qilingani kabi:

## 8) جاء الرجل الكريم أبوه

Bu jumlada *كريم* sifatini kelgan kishini bayon qilayotgani yo‘q. Shuningdek, mana bu sifatdan qasad qilingan ma’no kelayotgan odam emas, balki kelayotgan odamga aloqasi bo‘lgan otaning sifati bo‘lib, uning otasining sifati hisoblanadi. Shuning uchun, bu mansub ilayhi ya’ni bunga mansubdir, ya’ni sifat otaning sifati hisoblanadi.

Nahv ilmida na’tning ifodalanishi. Na’t – o‘z matbu’i (ergashtirib keluvchi) ning biror sifat va belgisini anglatuvchi tobe’dir. U ikki xil bo‘ladi:

1) Haqiqiy na’t matbu’i (ergashtirib keluvchisi) ning ayni o‘zida mavjud bo‘lgan sifatini bildiradi. Masalan: *عَدُوٌّ عَاقِلٌ خَيْرٌ مِنْصَدِيقٍ جَاحِلٍ* kabi;

2) Sababiy na’t matbu’i (ergashtirib keluvchisi)ni unga aloqali bo‘lgan narsadagi bir belgi orqali sifatlaydi. Masalan: *رَبَّنَا أَخْرِجْنَا مِنْ هَذِهِ الْقَرْيَةِ الظَّالِمِ أَهْلُهَا* – “Parvardigoro, bizni egalari zolim bo‘lgan bu shahardan ozod qil”.<sup>1</sup>

3) – Arab tilida sifatlar ikki qismga bo‘linadi:

4) 1. *Haqiqiy sifat*.

5) 2. *Sababiy sifat*.

6) *Haqiqiy sifat sababiy sifatga* nisbatan mustaqil bo‘ladi va *ismga erob* (kelishik) da va *muvofiglikda* ergashadi.

7) *Sababiy sifat esa ismdagi* sifat bo‘lib, unda *sifatlanayotgan ism* bilan uni bog‘liqligi bo‘ladi. U birlikda bo‘ladi.

8) *Haqiqiy sifat*. sifatning muvofigligining belgilari 10 ta holatda ko‘rinadi. Va bu nas hisoblanib sifat sifatlanmishga holatda, bosh kelishikda, tushum kelishikda, qaratqich kelishigida, birlikda, ikkilikda, ko‘plikda, aniqlikda, noaniqlikda, muzakkarlikda, muannaslikda bir biriga mos keladi. Albatta, sifatlanayotgan ism bosh kelishikda bo‘lsa, uning sifati ham bosh kelishikda bo‘ladi. Agar tushum kelishigida bo‘lsa, tushum kelishigida bo‘ladi. Agar qaratqich kelishigida bo‘lsa, qaratqich kelishigida bo‘ladi. Va boshqa holatlar ham shunga o‘xshaydi.

---

<sup>1</sup> Niso surasi 75-oyat.

9) *Sababiy sifat*. Qadimgi nahv olimlari sababiy sifat deganda ismdagi ma'noga va sifatga dalolat qiladigan ya'ni sifatni sifatlanmish bilan aloqasi bor bo'lgan ismdagi ma'noga, ismdagi sifatga sababiy sifat deyishgan. Sababiy sifat mufrad bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт- матбаа ижодий уйи, 2004. – Б 43.
2. Ahmad ibn Foris bin Zakariyo Abul-Husayn. Mo'jam ul-muqoyis ul-lugat. J.6 11-s.
3. Ibn Manzur al-Ansoriy. Lison ul-arab. J. 2. 100 -s.
4. Rahmatulloh Rasuljon o'g'li. Janoh ut-tolib. – Toshkent, 2004. – B 58.
5. Al-Ma'a al-Dhavomi' fi Sharh Majma' al-Javomi' (1998), s. 117. Sharh al-Kofiya, Ibn al-Hojib, b. 967.
6. Ibn Manzur al-Ansoriy, Lisan al-Arab, jild. 2, b. 100
7. Ibn Yaish, Muvaffaqad-Din Abu al-Baqo' Yaish ibn Ali Sharh al-Fasl, jild. 1, b. 91

**BADIIY MATNDA SARLAVHALAR USLUBIYATI**

*Teshaboyeva Sevinch Islomjon qizi,*  
*NamDU magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy matnlarda sarlavhalarining uslubi, ularning funksional va estetik ahamiyati, o'quvchi e'tiborini jalb qilishdagi roli batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, sarlavhalarining semantik, struktur va lingvopoetik jihatlari o'zbek badiiy adabiyoti namunalari asosida yoritiladi. Tadqiqot nazariy va amaliy jihatlarni o'z ichiga oladi, sarlavhalarining badiiy matn tuzilishidagi o'rni va zamonaviy o'zgarishlarni muhokama qiladi. Maqola natijalari o'quvchilar va adabiyotshunoslar uchun amaliy tavsiyalar beradi.

**Kalit so'zlar:** badiiy matn, sarlavha, uslubiyat, kommunikativ funksiya, o'quvchi diqqatini jalb qilish, estetik ta'sir.

Badiiy matn murakkab kommunikativ va estetik hodisa bo'lib, unda til birliklari muayyan g'oyaviy-badiiy maqsad asosida qo'llanadi. Bunday matnning mazmunini ochishda sarlavha alohida ahamiyat kasb etadi. Sarlavha asarning birinchi semantik belgisi sifatida o'quvchini matnga tayyorlaydi, unda muayyan assotsiatsiyalarni uyg'otadi va muallif niyatini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois sarlavha nafaqat nominativ birlik, balki muhim uslubiy vosita sifatida ham baholanadi.

Tilshunoslikda matn lingvistikasi, pragmalingvistika va lingvopoetika yo'nalishlarining rivojlanishi sarlavhalarning funksional-uslubiy imkoniyatlarini chuqur o'rganishga ehtiyoj tug'dirdi. Ayniqsa, o'zbek badiiy matnlaridagi sarlavhalarning estetik va pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Badiiy matn o'quvchiga nafaqat ma'lumot yetkazadi, balki estetik zavq ham beradi. Shu bois badiiy matnda sarlavha muhim o'rin tutadi, chunki u matn mazmunini umumlashtiradi va o'quvchi diqqatini birinchi bo'lib jalb qiladi. Sarlavha orqali muallif matnning mazmuniy markazini belgilaydi, hissiy va estetik intonatsiyani yaratadi. Badiiy matnda sarlavhalar uslubini o'rganish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: nazariy asoslarni tahlil qilish, turli sarlavha turlarini aniqlash va ularni uslubiy jihatdan tasniflash, o'quvchi ongiga sarlavhaning ta'sirini aniqlash.

Maqolaning maqsadi – badiiy matnda sarlavhalarning uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish va ularning kommunikativ, estetik hamda tarkibiy funksiyalarini aniqlashdir.

**Sarlavha tushunchasi va badiiy matndagi funksiyasi.** Sarlavha – badiiy matnning eng qisqa, lekin mazmunan eng boy qismi hisoblanadi. Adabiyotshunos Olimjon Qodirov fikricha, sarlavha matnning yuzaki ma'nosini emas, balki uning ruhini ifodalaydi (Qodirov, 2018).

Kommunikativ funksiya. Sarlavha o'quvchiga matnning asosiy mazmunini qisqacha yetkazadi. Masalan, Abdulla Oripovning she'riy to'plamlarida sarlavhalar har bir she'riy asarning ruhini birinchi satrda ochib beradi.

Estetik funksiya. Sarlavha matnga estetik rang berish bilan birga, o'quvchi hissiyotini uyg'otadi. Misol uchun, Erkin Vohidovning sarlavhalari qisqa, lekin kuchli metaforik ohangga ega bo'lib, o'quvchi diqqatini jalb qiladi.

Tuzilish funksiyasi. Sarlavha matnning mantiqiy tuzilishini belgilaydi. Sarlavha orqali o'quvchi matnning asosiy mavzusini va ichki tuzilishini tushunadi.

**Badiiy matnda sarlavhalar turlari.** Sarlavhalar turlicha bo'lishi mumkin va ular matnga turli funktsiyalarni qo'shadi. Informatsion sarlavhalar matn

mazmunini aniq va qisqacha ifodalaydi. Masalan, Abdulla Qodiriy romanlaridagi sarlavhalar voqeani yoritadi va o'quvchi diqqatini jalb qiladi. Emotsional sarlavhalar o'quvchida hissiy reaksiya uyg'otadi. Muhammad Yusufning she'riy to'plamlaridagi sarlavhalar o'quvchiga darhol ruhiy kayfiyat beradi. Savol shaklidagi sarlavhalar o'quvchi qiziqishini oshiradi va matnga faol munosabat uyg'otadi. Masalan, Said Ahmadning ba'zi hikoyalaridagi sarlavhalar o'quvchini matnni izohlashga undaydi. Iborali yoki metaforik sarlavhalar. Metaforik sarlavhalar matnga chuqurlik va badiiy rang beradi. Rauf Parfi va Erkin Vohidovning sarlavhalari ko'pincha obrazli va iborali bo'lib, o'quvchida tasavvur uyg'otadi.

**Sarlavhalarning uslubiy xususiyatlari.** Badiiy matnda sarlavhalar yaratishda muallif quyidagi uslubiy vositalardan foydalanadi:

Metafora va aforizmlar sarlavhani badiiy boy qiladi. Masalan, Erkin Vohidovning "Ko'kda parvoz" sarlavhasi matnga ramziy ma'no qo'shadi.

Qisqa va kuchli leksik birliklar. Qisqa, ammo ma'nosi boy so'zlar sarlavhani kuchli qiladi. Abdulla Oripov she'riyatida bunday sarlavhalar tez-tez uchraydi.

Ritmik va tovushiy vositalar. Alliteratsiya, assonans va ritmik vositalar sarlavhani esda qolarli qiladi. Rauf Parfi she'riyatida bunday uslubiy xususiyatlar keng qo'llanadi.

Sarlavhalarda modernizm va zamonaviy tendensiyalar. So'nggi yillarda o'zbek badiiy matnida sarlavhalar qisqa, lo'nda va texnologik ohangga ega bo'lmoqda. Bu yosh adabiyotshunoslar va yozuvchilar tomonidan qo'llanilmoqda.

**Sarlavhalarning o'quvchi ongidagi roli.** Sarlavha o'quvchi ongida matn haqidagi birinchi taassurotni yaratadi. U matn mazmunini anglashni osonlashtiradi va o'quvchida qiziqish uyg'otadi. Mazmunan qiziqarli sarlavha o'quvchi diqqatini matnga jalb qiladi va uni o'qishga rag'batlantiradi. Tushunishni tizimlashtirish: sarlavha matnni mavzular bo'yicha tartiblaydi va o'quvchiga mazmunni tizimli anglash imkonini beradi. Badiiy ta'sir: estetik va metaforik sarlavhalar o'quvchi hissiyotini uyg'otadi, matnning ohangini belgilaydi. Sarlavhalarni tahlil qilish bo'yicha amaliy misollar:



Abdulla Qodoiriyning “O‘tkan kunlar” romani sarlavhalari voqealar rivojini ochib beradi va o‘quvchi diqqatini jamlaydi.

Erkin Vohidov she’riyatida sarlavhalar: metaforik va ritmik uslubda, hissiy ta’sir kuchli.

Muhammad Yusuf “Bahor” to‘plami: emotsional sarlavhalar o‘quvchi ruhiyatini shakllantiradi. Bu misollar badiiy matnda sarlavhalarning turli uslubiy jihatlarini ko‘rsatadi.

Badiiy matnda sarlavha matnning mazmuniy va uslubiy yaxlitligini ta’minlovchi muhim birlikdir. U nominativ vazifa bilan birga pragmatik, estetik va ekspressiv funksiyalarni ham bajaradi. Sarlavhalar kitobxon tafakkuriga ta’sir ko‘rsatish, matn mazmuniga yo‘naltirish hamda muallifning estetik niyatini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijasida badiiy sarlavhalarning obrazlilik, semantik zichlik, ramziylik va pragmatik yo‘naltirilganlik kabi xususiyatlari aniqlandi. Shuningdek, sarlavha matnning lingvopoetik markazi sifatida asar mazmunini ochishda muhim vosita ekanligi dalillandi. Kelgusida sarlavhalarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini hamda zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi transformatsion shakllarini chuqurroq tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov, X. Badiiy matn nazariyasi. — Toshkent: Sharq, 2015.
2. Qodirov, O. Sarlavha va uning uslubi. — Toshkent: Fan va Texnologiya, 2018.
3. Mirzaev, T. O‘zbek badiiy adabiyotida sarlavhalar. — Toshkent: Akademnashr, 2020.
4. Oripov, A. She’riyat va sarlavha. — Toshkent: Movarounnahr, 2016.
5. Vohidov, E. Badiiy obraz va sarlavha funksiyasi. — Toshkent: Yangi Asr, 2019.
6. Yusuf, M. She’riyatda sarlavhaning roli. — Toshkent: Adabiyot, 2017.
7. Ahmad, S. Hikoya va sarlavha. — Toshkent: Fan va Ma’rifat, 2015.
8. Parfi, R. Metafora va sarlavha. — Toshkent: Sharq, 2018.
9. Qodirov, O. va Mirzaev, T. O‘zbek badiiy matnida uslubiy vositalar. — Toshkent: Akademnashr, 2021.
10. Oripov, A. Roman va hikoyada sarlavha. — Toshkent: Movarounnahr, 2014.

## **АНАЛИЗ ЯЗЫКОВЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ**

**Муродхонова Шахноза Саидхон кизи,**  
*студентка магистратуры НамГУ*  
**Ахмаджанов Олимжон Комилжонович,**  
*доцент НамГУ, PhD*

**Аннотация.** В данной статье исследуются языковые особенности рекламных текстов с точки зрения современной лингвистики, прагматики и теории дискурса. Рассматриваются лексические, морфологические, синтаксические и стилистические средства, обеспечивающие воздействующую функцию рекламы. Особое внимание уделяется прагматическим стратегиям, манипулятивному потенциалу языка рекламы, а также роли эмоционально-экспрессивной лексики и слоганов в формировании потребительского поведения. В статье анализируются примеры рекламных текстов и раскрываются их функционально-коммуникативные особенности.

**Ключевые слова:** рекламный дискурс, рекламный текст, прагматика, языковое воздействие, экспрессивная лексика, слоган, манипуляция, стилистика.

**Abstract.** This article examines the linguistic features of advertising texts from the perspectives of modern linguistics, pragmatics, and discourse theory. The study analyzes lexical, morphological, syntactic, and stylistic means that ensure the persuasive function of advertising. Special attention is paid to pragmatic strategies, manipulative potential of advertising language, and the role of emotionally expressive vocabulary and slogans in shaping consumer behavior. Examples of advertising texts are analyzed to reveal their communicative and functional characteristics.

**Keywords:** advertising discourse, advertising text, pragmatics, language influence, expressive vocabulary, slogan, manipulation, stylistics.

**Введение (Introduction).** Современная реклама представляет собой не только средство передачи информации о товаре или услуге, но и мощный инструмент коммуникативного воздействия. В условиях глобализации и цифровизации общества рекламный дискурс становится важнейшей частью массовой коммуникации. Именно поэтому язык рекламы привлекает

внимание исследователей в области лингвистики, прагматики, психолингвистики и медиакоммуникации.

– **Анализ литературы по теме (Literature review).** С точки зрения теории дискурса, рекламный текст является разновидностью институционального дискурса, ориентированного на достижение конкретной прагматической цели — убеждение адресата и стимулирование потребительской активности. По мнению В.И. Карасика, институциональный дискурс характеризуется социально обусловленной коммуникативной направленностью и использованием определённых языковых стратегий. Реклама, как форма институционального дискурса, обладает высокой степенью прагматической организованности [2].

Согласно концепции Р. Якобсона, рекламный текст сочетает несколько коммуникативных функций языка:

- информативную;
- экспрессивную;
- аппеллятивную;
- эстетическую.

Однако доминирующей функцией является именно аппеллятивная функция, направленная на воздействие на адресата.

– **Методология исследования (Research Methodology).** Теоретические основы исследования рекламного текста показывают, что в современной лингвистике рекламный текст рассматривается как особый тип креолизованного текста, сочетающего вербальные и невербальные компоненты. По мнению Е.Е. Анисимовой, взаимодействие языковых и визуальных элементов усиливает прагматическое воздействие рекламы [1].

Теория речевого воздействия рассматривает рекламу как средство манипуляции сознанием. А.А. Леонтьев отмечал, что речевое воздействие основывается на психологических механизмах внушения, убеждения и эмоционального влияния. Рекламный текст не просто информирует потребителя, а формирует у него определённые ассоциации и модели поведения [3].

С позиций прагмалингвистики реклама ориентирована на достижение перлокутивного эффекта, то есть на изменение поведения адресата после восприятия текста. Именно поэтому в рекламных сообщениях активно используются:

- императивные конструкции;
- эмоционально окрашенная лексика;
- оценочные прилагательные;
- риторические вопросы;
- метафоры и гиперболы.

### **Лексические особенности рекламных текстов**

Лексика рекламы характеризуется высокой степенью экспрессивности и оценочности. В рекламных текстах преобладают слова с положительной семантикой:

- инновационный;
- натуральный;
- эксклюзивный;
- совершенный;
- эффективный;
- идеальный.

### **Пример:**

«Новый уровень совершенства»

Лексема «совершенство» формирует у потребителя представление о высоком качестве продукта. Прилагательное «новый» актуализирует категорию новизны, которая является важным фактором маркетингового воздействия.

С точки зрения когнитивной лингвистики подобные слова активизируют в сознании адресата положительные концепты и эмоциональные сценарии.

**Анализ и результаты (Analysis and results).** В современной рекламе активно используются заимствования из английского языка т.е англицизмы:

- premium;
- smart;
- online;
- sale;
- delivery.

Использование иностранных слов связано с процессами глобализации и стремлением придать рекламе современный и престижный характер.

### **Морфологические особенности:**

Одной из характерных черт рекламного текста является преобладание глаголов повелительного наклонения.

### **Пример:**

«Попробуй лучшее уже сегодня!»

Глагол «попробуй» выполняет побудительную функцию и формирует прямое обращение к адресату.

Частотными являются:

- местоимения второго лица;
- краткие прилагательные;
- сравнительная и превосходная степени.

### **Пример:**

«Быстрее. Удобнее. Надёжнее.»

Использование сравнительной степени усиливает конкурентное преимущество рекламируемого товара.

### **Синтаксические особенности рекламных текстов:**

Синтаксис рекламы отличается лаконичностью и динамичностью. Краткие предложения легче воспринимаются и быстрее запоминаются.

Наиболее распространёнными синтаксическими конструкциями являются:

- эллиптические предложения;
- парцелляция;
- риторические вопросы;

– восклицательные конструкции.

### **Пример:**

«Устали ждать? Действуйте сейчас!»

Риторический вопрос выполняет функцию привлечения внимания, а императив усиливает прагматическое воздействие.

Парцелляция создаёт ритмический эффект:

«Качество. Стиль. Комфорт.»

Подобная структура способствует лучшему запоминанию рекламного сообщения[4].

### **Стилистические средства в рекламе:**

Для рекламы характерно активное использование тропов и фигур речи.

#### **Метафора**

«Red Bull окрыляет»

Метафора «окрыляет» создаёт ассоциативную связь между напитком и ощущением энергии и свободы.

С точки зрения когнитивной лингвистики метафора является способом концептуализации реальности через перенос значений.

#### **Гипербола**

«Лучший кофе в мире»

Гипербола усиливает эмоциональный эффект и формирует преувеличенно положительный образ продукта.

#### **Повтор**

«Качество, которому доверяют. Качество, которое выбирают.»

Лексический повтор повышает запоминаемость текста и усиливает его воздействующий потенциал[5].

### **Прагматические и манипулятивные особенности рекламы:**

Основной целью рекламного текста является формирование потребительской мотивации. Для этого используются различные прагматические стратегии:

1. стратегия эмоционального воздействия;

2. стратегия авторитетности;
3. стратегия идентификации;
4. стратегия внушения.

Реклама апеллирует не только к рациональному мышлению, но и к эмоциональной сфере человека. По мнению Дж. Лича, язык рекламы строится на принципе максимального психологического воздействия при минимальном объёме текста.

#### **Анализ рекламного текста:**

Рассмотрим слоган:

«Just do it»

Данный текст характеризуется:

- лаконичностью;
- универсальностью;
- высокой прагматической направленностью.

Императивная конструкция мотивирует адресата к действию, а краткость обеспечивает лёгкость восприятия.

#### **Другой пример:**

«Because you're worth it»

В данном слогане используется стратегия психологического воздействия через повышение самооценки адресата. Лексема «worth» формирует у потребителя ощущение собственной значимости[6].

**Выводы и предложения (Conclusion/Recommendations).** Таким образом, рекламный текст представляет собой сложное коммуникативное и прагматическое явление, сочетающее информативную и воздействующую функции. Его эффективность обеспечивается использованием разнообразных языковых средств: эмоционально окрашенной лексики, императивных конструкций, метафор, гипербола, повторов и риторических вопросов[4].

С теоретической точки зрения язык рекламы является объектом исследования прагмалингвистики, когнитивной лингвистики, психолингвистики и теории дискурса. Изучение языковых особенностей



рекламных текстов позволяет глубже понять механизмы речевого воздействия и способы формирования потребительского поведения в современном обществе.

#### **Использованные литературы:**

1. Анисимова Е.Е. Лингвистика текста и межкультурная коммуникация. – Москва: Академия, 2003.
2. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.
3. Леонтьев А.А. Психология общения. – Москва: Смысл, 2005.
4. Олянич А.В. Презентационная теория дискурса. – Волгоград: Парадигма, 2004.
5. Чернявская В.Е. Дискурс рекламы и PR-коммуникации. – Москва: ЛЕНАНД, 2015.
6. Cook G. The Discourse of Advertising. – London: Routledge, 2001.

### **BADIIY MATNDA MORFOLOGIK VOSITALARNING STILISTIK FUNKSIYASI**

*Yusupova Iroda Odiljon qizi,  
NamDU magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy matnda morfologik vositalarning stilistik funksiyasi tahlil qilinadi. Soʻz turkumlariga xos grammatik shakllarning badiiy tasvir yaratishdagi oʻrni, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirishdagi vazifasi hamda pragmatik ahamiyati oʻzbek badiiy asarlaridan olingan misollar asosida yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** badiiy matn, morfologik vosita, stilistik funksiya, pragmatika, grammatik shakl, ekspressivlik, feʼl, ot, sifat, olmosh.

Badiiy matn tilning estetik imkoniyatlari namoyon boʻladigan muhim nutq shaklidir. Bunda morfologik vositalar muallifning uslubiy maqsadini amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Grammatik shakllar nafaqat grammatik maʼno ifodalab, balki qahramon ruhiyati, muallif munosabati va badiiy tasvir taʼsirchanligini ham yuzaga chiqaradi.

Morfologik vositalarning badiiy matndagi vazifasi tilshunoslikda stilistika va pragmatika bilan chambarchas bogʻliq holda oʻrganiladi. Chunki har bir grammatik shakl muayyan kommunikativ va emotsional yukni tashiydi. Morfologik vositalar – tilshunoslikning muhim boʻlimlaridan biri hisoblangan lingvopoetikaning badiiy

ahamiyati va tadqiq obyektidir. Shu bilan birga, lingvopoetika “til birliklari yordamida badiiy matnning estetik tuzilishini o‘rganadi”. Estetik vositalar orqali muallif o‘zining hissiy-ekspressiv holatini ifoda etishi mumkin. Bundan tashqari, nasriy va she’riy asarlarda turli morfologik vositalar yordamida ham estetik holat aks ettiriladi. Jumladan, fe’l zamoni shakllari, shaxs-son kategoriyalarining noodatiy qo‘llanishi, mayl va nisbat shakllari, tasdiq hamda inkorning qarama-qarshi ifodalanishi, sifat va ravish turkumiga mansub birliklarning ko‘p yoki takror ishlatilishi, undov hamda kirish so‘zlarning faol qo‘llanilishi, “muallif so‘zlari”ning (A.Oripovdagi larzakor, Ikrom Otamuroddagi kangul kabi) ishlatilishi, sintaktik jihatdan so‘z birikmalari va gaplarning o‘ziga xos shaklda ifodalanishi, gap tarkibida qo‘shirnoq ichida ayrim so‘z va iboralar, termin hamda atamalarning faol ishlatilishi va ularning sharhlanishi orqali o‘quvchi ruhiyatiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan emotsional-ekspressiv holatlar yuzaga keladi.

Bir so‘zning asar davomida qayta-qayta qo‘llanishi va unda morfologik vositalarning turlicha namoyon bo‘lishi badiiy asarning ham lingvistik, ham poetik qimmatiga ta’sir etadi. Odatda, asarda so‘zlardan foydalanish muallifning individual uslubi va so‘z tanlash mahorati bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, takrori kamaytirish maqsadida bir so‘zning turli sinonimik variantlari yoki ekspressivlikni yuzaga chiqaruvchi vositalar, troplar hamda sintaktik figuralardan foydalanish mumkin. Biroq muallif o‘z uslubi va niyatiga ko‘ra ayrim so‘zlarni asar davomida bir necha marotaba takror tarzida ham ishlatishi mumkin. Asar ijodkori morfologik vositalardan foydalanishda ko‘proq mazmun mukammalligiga e’tibor qaratadi, grammatik jihatlar esa ikkinchi planda qolishi mumkin. Lingvistik tahlil jarayonida esa morfologik vositalarning o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llanganligi asarning mukammalligini yanada yaqqol namoyon qiladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil etishda so‘z turkumlarining o‘rni nihoyatda katta. Chunki ular yordamida muallif asar syujeti va mazmunini to‘laqonli ochib bera oladi. Tahlil davomida biror so‘z turkumini e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas, ya’ni ayrimlarini juda muhim, boshqalarini esa kamroq ahamiyatli deb baholab bo‘lmaydi. Bu holat,

avvalo, muallifning uslubi va soʻz qoʻllash mahoratiga bogʻliqdir. Asarlarning lisoniy tahlilida soʻzlarning statistik jihatdan oʻrganilishi ham muhim oʻrin tutadi va aynan shu jarayonda soʻz turkumlarining qoʻllanish xususiyatlari yanada aniqroq namoyon boʻladi.”

Feʼl shakllarining stilistik funksiyasi. Badiiy asarlarda feʼl zamonlari voqealarni jonli tasvirlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, hozirgi zamon shaklining oʻtgan voqealarni ifodalash uchun qoʻllanishi tasvirning taʼsirchanligini oshiradi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanida: *“Yusufbek hoji kulimsiraydi, Otabek esa sukut saqlaydi.”*<sup>1</sup>Bu yerda feʼllarning hozirgi zamonda qoʻllanishi voqeani oʻquvchi koʻz oʻngida sodir boʻlayotgandek tasvirlaydi. Natijada matnning dinamikligi kuchayadi. Shuningdek, buyruq-istak mayli shakllari qahramon ruhiy kechinmalarini ifodalashda muhim vosita boʻladi. Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida: *“Bor, bolam, baxtingni top!”* gapidagi “bor”, “top” shakllari ona tilagingning samimiy va taʼsirchan ifodasini beradi.

Feʼl nisbatlari badiiy tasvirning psixologik taʼsirchanligini oshiradi. Ayniqsa, oʻzlik va majhul nisbat shakllari qahramon ruhiyatini yoritishda muhim vosita boʻladi.

Choʻlponning *“Kecha va kunduz”* romanida: *“U asta oʻylandi, soʻng chuqur xoʻrsindi.”* misolida oʻzlik nisbat shakli ichki kechinmani ifodalashga xizmat qilgan.

Majhul nisbat esa voqeaning mavhumligini kuchaytiradi: *“Eshik sekin ochildi.”* Bu yerda harakat bajaruvchisining nomaʼlumligi dramatik taʼsir hosil qilgan.

Ravishdosh shakllari ketma-ket harakatlarni ifodalash orqali matnning dinamikligini oshiradi. Masalan: *“Yigʻlab-yigʻlab uxlab qoldi.”*

Takroriy ravishdosh qahramonning kuchli ruhiy holatini ifodalagan.

Sifatdosh shakllari esa obrazlilikni kuchaytiradi: *“Koʻngli singan odam jim turardi.”* Bu yerda “singan” sifatdoshi koʻchma maʼnoda qoʻllanib, ruhiy iztirobni tasvirlagan.

---

<sup>1</sup> Qodiriy A. Oʻtkan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.

Ot va egalik shakllarining uslubiy vazifasi. Ot turkumiga oid grammatik shakllar ham badiiy matnda kuchli stilistik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, egalik qo'shimchalari mehr, yaqinlik yoki achinish ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, Said Ahmadning "Ufq" romanida: *"Bolaginam, ko'zlaringga qarab to'ymayman"*<sup>1</sup> ushbu gapdagi "-ginam" shakli mehr va samimiylik ma'nosini kuchaytirgan. Oddiy "bola" so'ziga nisbatan "bolaginam" shakli yuqori ekspressivlikka ega. Kichraytirish shakllarining pragmatik imkoniyatlari. Kichraytirish qo'shimchalari mehr, samimiylik yoki achinish ma'nolarini ifodalaydi.

O'tkir Hoshimov asarlarida: *"Qizalog'im, dardingni menga ayt"* misolida "-loq" va "-im" qo'shimchalari mehr-muhabbatni ifodalab turibdi.

Ba'zan kichraytirish shakllari kinoyaviy ma'noda ham qo'llanadi: *Masalam, "Shoirchamiz yana yangi she'r yozibdilar."* Kelishik qo'shimchalari ham uslubiy ma'no ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Masalan: *"Vatan uchun jon berishga tayyor edi."* Bu jumlada "uchun" ko'makchisi va jo'nalish ma'nosi qahramonning fidoyiligini ta'kidlab bergan.

Sifatlarning obraz yaratishdagi o'rni. Sifatlar badiiy matnda tasviriylilikni kuchaytiruvchi muhim vositalardan biridir. Ayniqsa, sifat darajalari qahramon holatini yoki predmet belgisini bo'rttirib ifodalashga xizmat qiladi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida: *"Uning ko'zlari yanada mungliroq edi."* misolida "mungliroq" shakli qahramon ruhiyatidagi iztirobni kuchaytirib tasvirlagan.

Ba'zan takroriy sifatlar ham emotsional-ekspressiv ma'no hosil qiladi: *"Oppoq-oppoq qor yog'ardi."* Bu shakl tasvirning obrazlilikini oshirib, o'quvchida kuchli tasavvur uyg'otadi.

Olmoshlarning pragmatik xususiyatlari. Olmoshlar badiiy matnda qahramonlar o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi muhim vositalardan biridir. Xususan, "men", "sen", "biz" kabi kishilik olmoshlari orqali psixologik yaqinlik yoki qarama-qarshilik yuzaga keladi.

---

<sup>1</sup> Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

Erkin Vohidov she'rlarida: *"Men nechun sevaman O'zbekistonni?"* misrasidagi "men" olmoshi lirik qahramonning ichki kechinmasini kuchli ta'kidlagan.

Shuningdek, "sen" olmoshining qo'llanishi murojaat va hissiylikni oshiradi: *"Sen yetim emassan."*

(*O'tkir Hoshimov, "Sen yetim emassan"*) Bu gapdagi "sen" olmoshi ruhiy yaqinlik va tasalli ma'nosini ifodalab turibdi.

Olmoshlarning emotsional-ekspressiv vazifasi. Olmoshlar dialog va monologlarning ta'sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, kishilik olmoshlari qahramon ruhiyatini ochishda muhim vosita hisoblanadi.

Erkin Vohidov she'rida: *"Men insonman, men yashashim kerak"* takror qo'llangan "men" olmoshi qat'iyat va ichki kechinmani kuchaytirgan.

"Biz" olmoshi esa birlik va umumlashma ma'nosini hosil qiladi: *"Biz bu Vatanni sevamiz."* Bu misolda jamoaviy ruh va birdamlik hissi ifodalangan.

Har bir yozuvchi morfologik vositalardan individual tarzda foydalanadi. Shu sababli grammatik shakllar muallif uslubining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Masalan, Abdulla Qodiriy tarixiy ruhni yaratish uchun eski grammatik shakllardan foydalangan bo'lsa, O'tkir Hoshimov xalqona va sodda grammatik birliklar orqali samimiy uslub yaratgan. Demak, morfologik vositalar yozuvchi uslubini shakllantiruvchi asosiy birliklardan biridir.

Pragmatik jihatdan morfologik vositalar o'quvchiga emotsional ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, kichraytirish-erkalash qo'shimchalari matnda samimiylik va mehr tuyg'ularini kuchaytiradi. Masalan: *"Qizalog'im, kel yonimga."* Bu yerda "-loq", "-im" qo'shimchalari mehr va yaqinlik ma'nosini hosil qilgan.

Ba'zi hollarda morfologik shakllar kinoya yoki istehzo ma'nosini ham beradi. Masalan: *"Janoblari yana kech qolibdilar."* Bu gapdagi ko'plik va hurmat shakli aslida kinoyaviy ma'noda qo'llangan. Demak, morfologik vositalar badiiy matnda nafaqat grammatik, balki stilistik va pragmatik vazifani ham bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda morfologik vositalar muhim stilistik funksiyaga ega. Soʻz turkumlariga oid grammatik shakllar matnning ekspressivligini oshiradi, qahramon ruhiyatini ochib beradi hamda oʻquvchiga emotsional taʼsir koʻrsatadi. Ayniqsa, feʼl zamonlari, egalik shakllari, sifat darajalari va olmoshlarning uslubiy qoʻllanilishi badiiy tasvirning taʼsirchanligini kuchaytiradi. Shu bois morfologik vositalarni stilistik-pragmatik jihatdan oʻrganish badiiy matn lingvistikasi uchun muhim ilmiy yoʻnalish hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodiriy A. Oʻtkan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
2. Choʻlpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Sharq, 2016.
3. Hoshimov Oʻ. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 2018.
4. Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.
5. Shomaqsudov A. Oʻzbek tili stilistikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1983.
6. Yoʻldoshev B. Badiiy matn lingvistikasi. – Toshkent, 2008.
7. Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent: Fan, 201

### **JIYDAKAPA QISHLOQ SHEVASIDAGI AYRIM SOʻZLARNING MORFOLOGIK, LEKSIK TAHLILI**

*Abdullayeva Odina Shavkatbek qizi*

*NamDU talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Uychi tumani Jiydakapa qishloq shevasiga xos boʻlgan ayrim soʻzlar morfologik, leksik, semantik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur shevada uchraydigan mahalliy birliklarning shakllanishi, qoʻllanish doirasi hamda adabiy til bilan oʻxshash va farqli jihatlari yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** sheva, dialekt, Jiydakapa qishlogʻi shevasi, leksika, morfologiya, semantika, mahalliy birliklar, adabiy til, til xususiyatlari.

**Annotation.** This article analyzes the morphological, lexical, and semantic features of certain words specific to the dialect of the village of Jiydakapa in Uychi district. It also highlights the formation, usage scope, and similarities and differences of these local linguistic units in comparison with the literary language.

**Keywords:** dialect, vernacular, the dialect of Jiydakapa village, lexicon, morphology, semantics, local linguistic units, literary language, dialectology, language features.

**Kirish.** O'zbek shevalari leksikasi o'zbek tili lug'at boyligining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, o'zbek xalqi o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida juda ko'p xalqlar bilan madaniy-lisoniy aloqada bo'lgan. Bu esa o'zbek tili va uning shevalarida sezilarli darajada iz qoldirgan [Murodova, 2019:72]. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyat hisoblanadi. Aslida ona tili deganda, shevalarni tushunish haqiqatga yaqindir, shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur [Ashirboyev, 2016:1].

O'zbek tili ko'p shevali til hisoblanadi. Ayniqsa, Namangan shevasi boshqa o'zbek shevalaridan ayrim fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Namangan shevasi bo'yicha bir qator dialektolog olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, G'.O.Yunusov kabi olimlar Namangan shahar shevasining lingvistik xususiyatlarini o'rganib, tasnif va tahlil qildilar. Namangan shahar shevasi va uning fonetik hamda morfologik xususiyatlari tilshunos olimlar S.Otamirzayeva va S.Tulyakovlar tomonidan, Uychi shevasi A.Y.Aliyev tomonidan o'rganildi. A.Y.Aliyev o'zining doktorlik dissertatsiyasida Namangan viloyati shevalarining fonetik, va morfologik jihatlariga umumiy tavsif bergan holda, Namangan shahar hududi va unga yaqin joylarda yashovchi aholi shevalarini batafsil yoritishga harakat qilgan. H.Sharipov nomzodlik ishining ayrim o'rinlarida Qirg'iziston janubiga qo'shni bo'lgan Yangiqo'rg'on tumanining ba'zi qishloq shevalari haqida qisman ma'lumotlar mavjud [O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv, 2022:37].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot doirasida Uychi tumani Jiydakapa qishloq shevasidagi ayrim so'zlarning morfologik, leksik-semantik xususiyatlari tavsifiy, tasviri, qiyosiy metodlar asosida tahlil qilindi, o'rganildi.

**Tahlil va natijalar.** Jiydakapa qishlog'i Namangan viloyati Uychi tumani tarkibida bo'lib, bu yerga ushbu nomning berilishi bejiz emas. Xalq orasidagi ma'lumotlarga ko'ra Norin daryosi bo'yidan o'tib ketayotgan yo'lovchilar daryo bo'yida o'sgan jiydalardan kapa yasab hordiq chiqarishgan. Shundan so'ng xalq orasida Jiydali kapa, keyinchalik Jiydakapa nomi bilan atalgan.



Jiydakapa aholisining shevasida ham Namangan shahar shevasidagi singari -*lar* qo'shimchasining hurmat ma'nosida qo'llanishi kuzatiladi. Og'zaki nutqda -*la* shaklida talaffuz qilinadi. Masalan, "*Abamla keldila*". Bu qo'shimcha 2-shaxsga qarata aytilganda -*na* shaklida keladi. Misol uchun, "*Biznikiga keliyna*". Ushbu qo'shimchadagi hurmat ma'nosini ko'plik ma'nosidan farqlash uchun xuddi adabiy tildagi singari shaxs-son shakliga qaraladi. Agar -*lar* qo'shimchasi shaxs-son shaklidan oldin kelsa ko'plik, keyin kelsa hurmat ma'nosini ifodalaydi. Sheva vakillarining ayrimlari, asosan, qo'shni tuman, qishloqlar yoki shahardan kelin bo'lib kelganlari tilida -*yap* qo'shimchasining -*utti* shaklidagi varianti uchraydi. Bu qo'shimchaning bo'lishsiz shakli sifatida adabiy tildagi -*ma* shakli o'rnida -*mutti* varianti ishlatiladi. Yana adabiy tildagi -*sin* qo'shimchasi -*sun* shaklida, -*dik* qo'shimchasi duk, -*tuk* shaklida uchraydi.

Qishloq aholisining shevasida uchraydigan ayrim so'zlarning leksik tahlili yuzasidan quyida so'z boradi. Qon-qarindoshlikni ifodalovchi ayrim so'zlar shevada farqlanadi. Masalan, "*opodda*" so'zi kata yoshli bobolarga nisbatan qo'llanadi. Buvilarga "*acha*", "*ena*", "*anna*" kabi so'zlar ishlatiladi. Otaga "*deda*", onaga "*aba*" deb murojaat qilinadi. "*Tog'a*" so'zi amakiga ham, tog'aga ham, o'rta yoshli erkaklarga murojaat shaklida ham qo'llanadi. Umuman ayol-qizlarga nisbatan "*oya*", o'rta yoshli ayollarga nisbatan "*kenchabi*" so'zlari faol hisoblanadi. Chaqaloqqa nisbatan "*buvak*", "*chichi*", kuyovga nisbatan "*kiyop*" so'zlaridan foydalaniladi.

Ayrim taomlar nomlanishida ham shevada o'ziga xosliklar kuzatiladi. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin. Xamirni yupqa qilib yoyib, yog'da pishirilganini "*o'yma*", ichiga qiyma solib pishirilganini esa "*ho'l somsa*" yoki "*qozon somsa*" deyiladi. Sutga guruch solib tayyorlanadigan taom "*surgurunch*", qurutni maydalab qaynoq suv qo'shib tayyorlanadigan taom "*qurtob*" kabi nomlar bilan ataladi. Bundan tashqari, yana bir ovqat borki, u ko'p joylarda tayyorlanmaydi. Bu "*mushmush*" nomli ovqat bo'lib, u – oqshoqni qovurib tayyorlanadigan taom.

Jiydakapa shevasida sabzavot, mevalar borasida ham farqli nomlar uchraydi. Jumladan, *“pomidor”* – *“patinjon”*, *“uzum”* – *“tok”*, *“malina”* – *“maymunjon”*, *“olcha”* – *“alvali”*, *“sarimsoqpiyoz”* – *“samsaq”*, *“loviya”* – *“lo‘la”*, *“garmdori”* – *“achchiq”* kabi. Yana hasharot nomlaridan *“kaltakesak”* – *“kalpista”*, *“qurt”* – *“qut”*, *“chumoli”* – *“chumaliq”*, *“chivin”* – *“pashsha”* kabilar uchraydi. Fe’llardan *“qiynalmoq”* – *“muqamoq”*, *“jim bo‘lmoq”* – *“hap bo‘lmoq”*, *“qorni ochmoq”* – *“ochqamoq”*, *“yara bo‘lmoq”* – *“chaqa bo‘lmoq”* singari variantlari qo‘llaniladi.

Qishloq aholisi ko‘k choyni *“oq choy”*, qora choyni *“pamil choy”* deb ham ishlatishadi. Bundan tashqari, ichi chuqur idish *“jom”*, *“yakandoz”* – *“ko‘rpacha”*, *“xokandoz”* – *“olopkurak”*, *“supurgi”* – *“shpirgi”*, gilamdan yupqaroq buyum *“shalcha”*, *“yupqa”* – *“parash”*, *“ostona”* – *“paygak”*, *“zirak”* – *“baldoq”* so‘zlari keng qo‘llanadi. Ko‘p ma’nosini ifodalovchi *“bir chaxsa”*, *“choooch”*, *“naval”* so‘zlari, shekilli so‘zi *“shkil”*, keyin so‘zi esa *“ina”* tarzida quloqqa chalinadi. Vulgarizmlardan *“bitliqi”*, ya’ni *“bit bosgan”* so‘zi qo‘llanadi. Ayrim so‘zlarda bir tovush boshqa bir tovushga almashib qolishi kuzatiladi: *“tufli”* – *“to‘pli”*, *“eplamoq”* – *“evlamoq”* kabi.

**Xulosa.** Ushbu maqolada Jiydakapa qishloq shevasiga xos ayrim so‘zlarning morfologik, leksik va semantik xususiyatlari o‘rganildi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bu hudud shevasida qo‘llaniladigan ko‘plab so‘zlar kundalik muloqot jarayonida faol ishlatiladi va ular mahalliy turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tahlil jarayonida ayrim so‘zlarning adabiy tildagi shaklidan farqli ravishda qisqargan, fonetik jihatdan o‘zgargan yoki ma’no kengayishi kuzatilgan holatlar aniqlandi. Shuningdek, ba’zi birliklar faqat shu hududga xos bo‘lib, boshqa shevalarda kam uchrayishi yoki umuman uchramasligi bilan ajralib turadi. Bu holat Jiydakapa shevasining leksik boyligi va o‘ziga xos tizimga ega ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, sheva birliklari tilning tabiiy rivojlanishi va hududiy rang-barangligini aks ettiradi. Shu jihatdan, mazkur shevani o‘rganish o‘zbek dialektologiyasi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, Jiydakapa shevasi tilning jonli shakli sifatida uning tarixiy rivojlanishini, hududiy tafovutlarini va xalq nutqidagi tabiiy ifoda imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016.
2. Murodova N. – Toshkent, 2019.
3. Saidov Y. O'zbek dialektologiyasi. – Buxoro: Durdona, 2021.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

I–V jildlar.

5. O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022.

## IMLO LUG'ATLARI

*Tursunboyeva Nafisa Xusniddin qizi*

*Namangan davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek leksikografiyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan orfografik lug'atlarning tildagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada imlo lug'atlarining vazifalari, ularning savodxonlikni oshirishdagi roli hamda o'zbek tili imlo lug'atlarining shakllanish tarixi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy imlo qoidalarining lug'atlarda aks etishi va elektron lug'atlarning afzalliklari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Orfografiya, leksikografiya, imlo lug'ati, adabiy me'yor, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, lotin alifbosi, standartlashtirish.

**Abstract.** This article discusses the role and significance of spelling dictionaries in the language, which are one of the important areas of Uzbek lexicography. The article analyzes the tasks of spelling dictionaries, their role in improving literacy, and the history of the formation of Uzbek spelling dictionaries. It also discusses the reflection of modern spelling rules in dictionaries and the advantages of electronic dictionaries.

**Keywords.** *Orthography, lexicography, spelling dictionary, literary norm, phonetic principle, morphological principle, latin alphabet, standardization.*

**Kirish.** Til – millatning ma'naviy xazinasidir, uning madaniyati va tarixini o'zida mujassam etgan jonli muloqot vositasidir. Jamiyat rivojlanib borar ekan, yozma nutqning aniqligi va savodxonlik darajasi davlat ahamiyatiga molik masalaga aylanadi. Bu borada orfografik lug'atlar til me'yorlarini tartibga soluvchi, so'zlarning imlo jihatidan to'g'ri yozilishini ta'minlovchi asosiy manba

hisoblanadi. Orfografik lugʻatlar shunchaki soʻzlar toʻplami emas, balki tilning yozma qonuniyatlarini mustahkamlovchi leksikografik asardir. Ular jamiyat aʼzolarining savodxonlik madaniyatini yuksaltirishga, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va taʼlim jarayonida bir xillikni (unifikatsiyani) saqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, oʻzbek tili imlosidagi oʻzgarishlar va yangi qoidalarining joriy etilishi davrida, orfografik lugʻatlarning roli har qachongidan ham yuqori boʻlib, ular tilimizning sof va tushunarli holda kelajak avlodga yetib borishini kafolatlaydi.

Tahlil va natijalar. Orfografiya (*grekcha. Orthos - "toʻgʻri" + grapho - "yozaman"*) yozuv sistemasining grafikadan keyingi ikkinchi komponenti boʻlib, u toʻgʻri yozish meʼyorlarini belgilaydigan qoidalar tizimidan tarkib topadi. Bunday qoidalar tizimini oʻrganadigan fan ( tilshunoslikning bir boʻlimi ) ham orfografiya deb nomlanadi<sup>1</sup>.

Orfografik lugʻatlarning prinsiplari – orfografiya qoidalarining tuzilishiga asos boʻlgan tamoyillar. Ularning quyidagi turlari mavjud:

1. Fonetik prinsip. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga koʻra soʻz yoki soʻz shakllari talaffuzdagi koʻrinishiga mos ravishda yoziladi.<sup>2</sup> Masalan, tojik tilidagi *tanur* soʻzining oʻzbek tilida *tandir* deb, ruscha *shchetka* (*уѐмка*) soʻzining esa *choʻtka* deb yozilishi shu soʻzlarning oʻzbek tilidagi talaffuz meʼyorlariga asoslanadi. Shuningdek, *ek+gan*, *ek+guncha* kabi soʻz shakllari ham oʻzbek yozuvi imlo qoidalariga koʻra *ekkan*, *ekkuncha* deb yoziladi.

2. Fonematik prinsip. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga koʻra harflar (yoki grafemalar) soʻz tarkibidagi fonemalarga moslab tanlanadi.<sup>3</sup> Masalan, kitob, omad soʻzlarining oxiridagi "b" va "d" fonemalari jarangsiz "p" (*kitop*) va jarangsiz "t" (*omat*) tarzida talaffuz qilinsa-da, fonemaning asosiy ottenkalariga mos ravishda "b" (*kitob*) va "d" (*omad*) harflari bilan yoziladi.

3. Morfologik prinsip yoki analogiya prinsipi. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalari soʻzning maʼnoli qismlarini ( oʻzak va affiks morfemalarini), ular qanday talaffuz qilinishidan qatʼi nazar, asliga (tipik shakliga) mos ravishda

<sup>1</sup> Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi", 2013, 170-bet.

<sup>2</sup> Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013, 172-bet.

<sup>3</sup> Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi", 2013, 173-bet.

yoʻzishni talab qiladi. Masalan, "g" bilan boshlangan "-ga", "-gan", "-gani", "-guncha" qoʻshimchalari "sh", "t", "p", "s" kabi jarangsiz undoshlar bilan tugagan oʻzaklarga qoʻshilganda "-ka", "-kan", "-kani", "-kuncha" shakllarida talaffuz qilinsa-da, morfemalarning asl shakllariga mos ravishda "-ga", "-gan", "-gani", "-guncha" yoziladi: <sup>1</sup>ishga(yozuvda) – ishka( talaffuzda), ketgan( yozuvda) – ketkan(talaffuzda), aytgani(yozuvda) – aytgani(talaffuzda), ketguncha(yozuvda) – ketkuncha( talaffuzda) kabi.

4. Grafik prinsip. Bu prinsip, aslida, orfografiya qoidalarini emas, grafika qoidalarini belgilaydi – grafemalarning grafikada kodlashtirilgan fonemalarini ifodalashga asoslanadi, shunga koʻra u, baʼzan, fonemografik prinsip deb ham nomlanadi. Masalan, sirgʻaluvchi "j" bilan qorishiq "j" (dj) ning yozuvda bitta j grafemasi orqali ifodalanishi, "ŋ" fonemasining esa ng digrafi bilan ifodalanishi grafikada kodlashtirilgan:<sup>2</sup> jumper (sirgʻaluvchi "j" ), jang (qorishiq "dj" va til orqa "ŋ" ) kabi.

5. Tarixiy-anʼanaviy prinsip. Bu prinsipga asoslangan imlo qoidalari soʻzlarning yoki soʻz shakllarining qadimdan odat boʻlib qolgan formada yoki anʼanaga mos shaklda yozilishini hozirgi imlo uchun meʼyor tarzida belgilaydi.<sup>3</sup>

Orfografik lugʻatlar jamiyatda yozma muloqotning bir xilligini taʼminlaydi. Agar har kim oʻzi xohlagandek yozsa, tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Lugʻatlar soʻzlarning yozilishini meʼyorga solish orqali odamlarning bir-birini aniq va tez tushunishiga yordam beradi. Lugʻatdan muntazam foydalanish jamiyat aʼzolarining savodxonligini oshiradi. Orfografik lugʻatlar oʻquvchilar va mutaxassislardagi tipik orfografik xatolarni aniqlash va tuzatishda asosiy manba boʻlib xizmat qiladi. Inson oʻz yozganlarini lugʻat orqali tekshirish orqali mustaqil oʻrganish koʻnikmasini shakllantiradi. Taʼlim jarayonida lugʻatlar oʻquvchilarda "orfografik xotira" va "orfografik hushyorlik"ni shakllantiradi. Oʻquvchilar yangi soʻzlarni toʻgʻri yoʻzishni oʻrganishi bilan birga, ularning maʼnosini ham tezroq oʻzlashtiradilar. Orfografik lugʻat diktantlari va mashqlar orqali bolalarning soʻz boyligi va

<sup>1</sup> Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Darslik, 2010. 109-bet.

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006, 449-bet.

<sup>3</sup> Muhiddinova X. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2006, 31-bet.

mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. Davlat idoralari, huquqiy hujjatlar va nashriyot sohasida orfografik lug‘at bexato ish yuritishning kafolatidir. Xatosiz yozilgan hujjat yoki kitob muallifning va muassasaning mas‘uliyatli ekanini anglatadi.

Orfografik lug‘atlar (imlo lug‘atlari) o‘zbek tilshunosligida turli shakl va hajmlarda mavjud bo‘lib, ular asosan so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

O‘zbek tilining imlo lug‘atining 1976-yildagi nashri Sh. Shoabdurahmonov tahriri ostida chop etilgan bo‘lib, 65 000 dan ortiq so‘zni o‘z ichiga olgan. Lug‘at alifbo tartibida tuzilgan, o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibiga kirgan, barcha nutq stillarida qo‘llanadigan va turli adabiy janrlarda, shu jumladan, klassik adabiyotda uchraydigan so‘zlar kiritilgan. So‘zlarning talaffuz, yasalishi yoki leksik variantlari quyidagi tartibda berilgan: *baloday va balodek, kaptar va kabutar kabilar, adab va odob, arava va aroba, barobar va baravar* kabi.<sup>1</sup>

2021-yildagi nashri N.M.Mahmudov tahriri ostida chop etilgan bo‘lib, 25 000 dan ortiq so‘z dan iborat. Ushbu lug‘at ham alifbo tartibida joylashtirilgan bo‘lib, bunga quyidagi so‘zlar kiritilgan:

- o‘zbek tilida keng iste’molda bo‘lgan so‘zlar;
- o‘zbek tilining ilmiy uslubiga xos fan-texnika va axborot-kommunikatsiya terminlari;
- xalq hunarmandchiligi sohasida faol qo‘llanuvchi kasb-hunar atamaları (professional leksika);
- etnonimlar, tarixiy unvon va mansab nomlari;
- o‘zbek mumtoz adabiyotiga doir matnlarda uchraydigan ba’zi so‘zlar;
- hozirgi o‘zbek tilida uchraydigan qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar;
- hozirgi o‘zbek imlosi amaliyotida ikki xil talaffuz qilinayotgan va yozilayotgan ba’zi imloviy variantlarning barqarorlashgan shakli kabilar. Masalan, *adab va odob, odob va adab*.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1976, 6-bet.

<sup>2</sup> Mahmudov N. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: Kafolat print company, 2023, 6-bet.

2023 – yildagi nashri N.M.Mahmudov tahriri ostida chop etilgan bo‘lib, 27 000 dan ortiq so‘zni o‘z ichiga oladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, orfografik lug‘atlar shunchaki so‘zlar ro‘yxati emas, balki tilning yozma madaniyatini tartibga soluvchi asosiy qonuniyatlar majmuidir. Ular jamiyatda yozuvning bir xilligini ta‘minlaydi, bu esa odamlarning bir-birini tushunishini osonlashtiradi. O‘zbek orfografik lug‘atchiligi alifbo islohotlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Har bir davrning o‘ziga xos imlo talablari bo‘lgan. Til doimiy rivojlanib, yangi so‘zlar kirib kelgani sababli, orfografik lug‘atlar ham muntazam yangilanib borishi zarur. Bugungi kunda qog‘oz nashrlar bilan birga imlo.uz kabi onlayn platformalar savodxonlikni oshirishda eng tezkor va qulay vositaga aylandi. Muxtasar aytganda, orfografik lug‘at – har bir o‘quvchi, talaba va ziyoli insonning ish stolida bo‘lishi lozim bo‘lgan eng muhim ma‘naviy quroldir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013, 170-172-173-betlar.
2. Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent, 2010, 109-bet.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006, 449-bet.
4. Muhiddinova X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006, 32-bet.
5. Shoabdurahmonov Sh va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980, 6-bet.
6. Mahmudov N. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: Kafolat print company, 2023, 6-bet.

### **XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDAGI AYRIM BIBLIONIMLARNING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI**

*Tolibjonova Shohida Ulug‘bek qizi*  
*Namangan davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sehrli qovunlar mamlakati”, “Sehrgarlar jangi” hamda “Sariq devni minib” asarlarida uchraydigan ayrim biblionimlarning semantik, uslubiy va poetik xususiyatlari tahlil qilingan. Tahlil jarayonida biblionimlarning asar mazmunini ochish, badiiy obrazlar xarakterini yoritish hamda fantastik tasvir muhitini yaratishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, yozuvchi tomonidan qo‘llangan nomlarning milliy



tafakkur, bolalar dunyoqarashi va adib individual uslubi bilan bog‘liqligi ilmiy-estetik jihatdan asoslangan. Tahlillar natijasida bibliionimlar asarning badiiy ta’sirchanligini kuchaytiruvchi hamda matn poetikasini shakllantiruvchi muhim unsur ekanligi xulosalangan.

**Kalit so‘zlar:** bibliionim, poetika, bolalar adabiyoti, fantastik nasr, badiiy nom, lingvopoetika, semantik tahlil, individual uslub, obraz, fantastik tasvir, badiiy-estetik funksiya.

**Annotation:** This article analyzes the semantic, stylistic, and poetic features of certain biblionyms found in Xudoyberdi To‘xtaboyev’s works “*The Land of Magical Melons*,” “*The Battle of Wizards*,” and “*Riding the Yellow Giant*.” The study highlights the role of biblionyms in revealing the content of the works, characterizing literary images, and creating a fantastic narrative atmosphere. It also theoretically and aesthetically substantiates the connection between the writer’s use of names, national mentality, children’s worldview, and the author’s individual style. The analysis concludes that biblionyms serve as an important element that enhances the artistic expressiveness of the works and shapes their textual poetics.

**Keywords:** biblionym, poetics, children’s literature, fantasy prose, literary naming, linguopoetics, semantic analysis, individual style, image, fantastic depiction, aesthetic function.

O‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida badiiy nomlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Har qanday badiiy asarning nomi kitobxonni asar mazmuniga olib kiruvchi dastlabki estetik kalit vazifasini bajaradi. Ayniqsa, bolalar adabiyotida nomlarning qiziqarli, sirli, obrazli va ta’sirchan bo‘lishi asarning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki bolalar avvalo asar nomiga e’tibor qaratadi, aynan shu nom orqali asar haqida dastlabki tasavvur hosil qiladi.

Fantastik va sarguzasht ruhidagi asarlarda bibliionimlarning poetik imkoniyatlari yanada kengroq namoyon bo‘ladi. Bunday nomlar nafaqat nominativ birlik, balki badiiy-estetik mazmun tashuvchi muhim poetik vosita sifatida ham xizmat qiladi. Xususan, o‘zbek bolalar adabiyotining yirik namoyandasi

Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodida biblionimlardan foydalanishning o‘ziga xos usullari kuzatiladi. Adibning “Sariq devni minib”, “Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrGARlar jangi”, “SehrlI qalpoqcha”, “Mungli ko‘zlar”, “Jannati odamlar” kabi asarlari nomidayoq fantastik ruh, sarguzasht, kulgi va ramziylik mujassamlashgan.

Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlaridagi biblionimlar bolalar tafakkuriga yaqinligi, xalqona ruh bilan sug‘orilganligi va milliy obrazlilikni mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Adib qo‘llagan nomlarda xalq og‘zaki ijodi an‘analari, mifologik qarashlar, yumoristik tafakkur va bolalarcha tasavvur uyg‘unlashadi. Natijada biblionimlar asar poetikasining ajralmas qismiga aylanadi.

Mazkur maqolada yozuvchi asarlaridagi ayrim biblionimlarning semantik, lingvopoetik va badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Onomastika tilshunoslikning atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lishi, taraqqiyoti, ma’no xususiyatlari va qo‘llanish doirasini o‘rganadigan bo‘limidir. “Onomastika” termini qadimgi yunoncha “onomastike” so‘zidan olingan bo‘lib, “nomlash san’ati” degan ma’noni bildiradi [Yo‘ldoshev, 2012: 29].

Onomastikaning shakllanish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Dastlab nomlarning kelib chiqishi tarix, geografiya va folklor bilan bog‘liq holda o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik u mustaqil lingvistik yo‘nalish sifatida shakllandi. Bugungi kunda onomastika tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Onomastikaning bir nechta tarkibiy tarmoqlari mavjud:

1. Antroponimiya – inson ismlari, familiyalari, taxalluslari va laqablarini o‘rganadi.

2. Toponimiya – geografik obyektlar nomlarini tadqiq qiladi.

3. Zoonimiya – hayvonlarga berilgan nomlarni tahlil qiladi.

4. Kosmonimiya va astronomiya – samoviy jismlar nomlarini o‘rganadi.

5. Teonimiya – diniy va mifologik obrazlar nomlarini tadqiq etadi.

6. Xrematonimiya – moddiy madaniyat buyumlari nomlarini o‘rganadi.

7. Biblionimiya – kitoblar, badiiy asarlar, gazeta-jurnallar va boshqa matbuot nashrlari nomlarini o‘rganadigan yo‘nalishdir [Begmatov, 2013: 44].

Biblionimlar tilshunoslikda muhim tadqiqot obyektlaridan biri sanaladi. Chunki asar nomi matnning semantik markazi sifatida xizmat qiladi. Nom orqali muallif asarning asosiy g'oyasi, ruhiyati, syujet yo'nalishi yoki poetik konsepsiyasini ifodalashi mumkin.

Bolalar adabiyotida esa biblionimlarning ahamiyati yanada kuchliroq seziladi. Sababi bolalar asarni avvalo nomi orqali qabul qiladi. Shu bois bolalar adabiyotidagi nomlar obrazli, emotsional va qiziqarli bo'lishi talab etiladi.

Xudoyberdi To'xtaboyev o'zbek bolalar adabiyotida fantastik-sarguzasht yo'nalishini yangi bosqichga olib chiqqan yozuvchilardan biridir. Adib asarlarida bolalar ruhiyati, orzu-havaslari, qiziqishlari va sarguzashtlarga moyilligi yorqin tasvirlangan.

Yozuvchi tomonidan tanlangan biblionimlar ham aynan bolalar dunyoqarashiga mos tarzda shakllantirilgan. Ularda xalqona yumor, fantastik tafakkur, ramziylik va milliy kolorit uyg'unlashadi. Masalan, "Sehrli qalpoqcha", "Sariq devni minib", "Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarlar jangi" kabi nomlardayoq g'ayrioddiy voqealar, ertaknamo ruh va fantastik olam sezilib turadi. Bunday nomlar kitobxonni voqealar olamiga tayyorlaydi va unda qiziqish uyg'otadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev biblionimlarni tanlashda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor beradi:

- bolalar tasavvuriga yaqinlik;
- sarguzasht va qiziqish uyg'otish;
- fantastik ruh yaratish;
- milliy obrazlilikni saqlash;
- yumor va kinoyani ifodalash;
- ramziy ma'no yuklash [Rasulov, 2012:19]

Natijada yozuvchi qo'llagan nomlar oddiy sarlavha emas, balki mustaqil poetik birlik darajasiga ko'tariladi.

Xudoyberdi To'xtaboyev ijodidagi eng mashhur biblionimlardan biri "Sariq devni minib" asari nomidir. Ushbu nom o'zining g'ayrioddiyligi, fantastikligi va

obrazlilik bilan ajralib turadi. Mazkur bibliyonim ikki asosiy komponentdan tashkil topgan: “sariq dev”, “minib”.

“Dev” obrazi o‘zbek xalq og‘zaki ijodida qadimdan uchraydigan mifologik timsol hisoblanadi. Ertaklarda dev ko‘pincha ulkan kuch, qo‘rquv yoki g‘ayritabiiy hodisalar bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Xudoyberdi To‘xtaboyev esa bu obrazni zamonaviy bolalar tafakkuriga mos ravishda qayta talqin qiladi.

Adib asarda “dev” obrazini qo‘rqinchli emas, aksincha kulgili va sarguzasht ruhida poetik vosita sifatida qo‘llaydi. Aynan shu holat bibliyonimning original va ta’sirchan chiqishiga sabab bo‘lgan.

“Minib” fe’li esa harakat dinamikasini ifodalaydi. Bu fe’l orqali kitobxon ongida voqealar rivoji, sarguzasht va harakat hissi uyg‘onadi. Natijada nomning o‘zidayoq voqeabandlik ruhi seziladi.

Asar qahramoni Hoshimjonning yolg‘on, maqtancholik va xayolparastlik oqibatida turli vaziyatlarga tushib qolishi “dev” timsoli orqali yanada kuchaytiriladi. Shu jihatdan “Sariq dev” obrazini bolaning ichki qo‘rquvlari, orzu-havaslari va hayotiy sinovlarining ramziy ifodasi sifatida talqin qilish mumkin.

Bibliyonimning yana bir muhim jihati – undagi rang komponentidir. “Sariq” sifati obrazni yanada jonlantirib, kitobxon xotirasida mustahkam saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Rang tasviri orqali nomda emotsional-ekspressivlik kuchayadi. Demak, “Sariq devni minib” bibliyonimi:

- fantastik muhit yaratadi;
- bolalar tasavvurini faollashtiradi;
- syujet dinamikasini ifodalaydi;
- ramziy-estetik ma’no kasb etadi;
- kitobxon diqqatini jalb qiladi.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning yana bir mashhur asari “Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrugarlar jangi” nomi bilan ataladi. Ushbu bibliyonim murakkab tuzilishga ega bo‘lib, unda bir necha poetik qatlam mujassamlashgan. Nom tarkibidagi “qovun” obrazi o‘zbek milliy hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Qovun xalqimizning turmush tarzi, dehqonchilik madaniyati va milliy qadriyatlarini

ifodalovchi timsollardan biridir. Adib ushbu milliy detalni fantastik kontekstda qo‘llab, o‘ziga xos poetik muhit yaratadi.

“Shirin qovunlar mamlakatida” birikmasi ertaknamo va fantastik ruhni yuzaga chiqaradi. Kitobxon tasavvurida g‘ayrioddiy mamlakat obrazi shakllanadi.

Nomning ikkinchi qismi – “sehrgarlar jangi” esa konflikt va dramatismni ifodalaydi. “Jang” leksemasi keskin voqealar rivojini anglatadi. “Sehrgarlar” obrazi esa fantastik olam tasvirini kuchaytiradi.

Asarda Akromjonning Shirin qovunlar mamlakatini turli illatlardan qutqarish yo‘lidagi kurashi tasvirlanadi. Unga Dar Daraja va Sehrli qalpoqcha yordam beradi. Ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi qarama-qarshilik syujetning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini tashkil qiladi.

Nomdagi “yoki” bog‘lovchisi ham uslubiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bu vosita asarning ikki qirrali mazmunini ko‘rsatadi:

- ertaknamo fantastik olam;
- dramatik kurash va konflikt.

Shu bois ushbu biblionim asarning poetik konsepsiyasini to‘liq ifodalovchi semantik markaz vazifasini bajaradi.

“Sehrli qalpoqcha” nomidayoq mo‘jiza va fantastik ruh mujassam. “Sehrli” sifati predmetga g‘ayritabiiy xususiyat yuklaydi. “Qalpoqcha” esa bolalar dunyosiga yaqin bo‘lgan oddiy predmetdir. Yozuvchi oddiy predmetni fantastiklashtirish orqali bolalar tasavvurini boyitadi. Natijada oddiy buyum poetik timsolga aylanadi.

Asarda Sehrli qalpoqcha voqealar rivojiga faol ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli biblionim asarning markaziy poetik unsuriga aylanadi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev qo‘llagan biblionimlar quyidagi lingvopoetik xususiyatlari bilan ajralib turadi:

**1.Obrazlilik.** Nomlarda yorqin tasviriylik mavjud: “Sariq dev”; “Sehrli qalpoqcha”; “Shirin qovunlar mamlakatida”. Bunday birliklar kitobxon tasavvurida jonli obraz hosil qiladi.

**2. Ramziylik.** Nomlar ko‘pincha ramziy ma’no kasb etadi. Masalan: “dev” – qo‘rquv va sarguzasht timsoli; “sehr” – mo‘jiza va fantastika belgisi; “jang” – konflikt va kurash ifodasi.

**3. Milliylik.** Adib nomlarda xalqona ruhni saqlaydi. “Qovun”, “qalpoqcha” kabi birliklar milliy koloritni kuchaytiradi.

**4. Yumor va kinoya.** Yozuvchi nomlarda yumoristik ruhdan unumli foydalanadi. Bu hol bolalar adabiyoti uchun ayniqsa muhimdir.

**5. Emotsional-ekspressivlik.** Nomlar bolalarda hayrat, qiziqish va emotsional ta’sir uyg‘otadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlaridagi biblionimlar yozuvchining individual uslubini namoyon etuvchi muhim poetik vositalardan biridir. Adib tomonidan qo‘llangan nomlar fantastik tasvirni kuchaytirish, qahramon xarakterini ochish va kitobxon diqqatini jalb qilishda muhim estetik funksiyani bajaradi.

Yozuvchi biblionimlar orqali bolalar tafakkuriga xos obrazlilik, xalqona ruh va fantastik tasavvurlarni uyg‘unlashtira olgan. Natijada nomlar asarning mazmun-mohiyatini ifodalovchi semantik markazga aylangan. Demak, Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodida biblionimlar matn poetikasini shakllantiruvchi hamda badiiy-estetik ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi muhim lingvopoetik vosita hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Begmatov E.A . O‘zbek tili antroponomikasi. – Toshkent : Fan, 2013.
2. Hamidova M. Xudoyberdi To‘xtaboev-bolalar yozuvchisi: monografiya. – Namangan: Usmon Nosir nedia, 2019. –164 b.
3. Жумабоев М Болалар адабиёти. – Тошкент: Ўқитувчи, 2011.– Б. 260.
4. Матжон Сафо. Китоб ўқишни биласизми? – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 144 б.
5. Расулов А. Ғаройиб салтанат: Адабий портрет. – Тошкент: Адиб, 2012. – 80 б.
6. Тўхтабоев Х. Янги оҳангда куйлаётган вилоят: очерklar ва ҳикоялар. – Тошкент: Янги аср авлоди. – Тошкент, 2014. – 152 б.
7. Yo‘ldoshev B. O‘zbek onomastika masalalari. – Samarqand, 2012.

## **ЗАИМСТВОВАННЫЕ СЛОВА И ЭКЗОТИЗМЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ**

*Мухаммаджонова Мадинабону,  
студентка магистратуры  
Наманганского государственного университета  
Ахмаджонов Олимжон Комилжонович,*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются заимствованные слова и экзотизмы в русском языке, их происхождение, особенности употребления роль в развитии лексической системы. Анализируются причины языковых заимствований, среди которых выделяются культурные, социальные и научно-технические факторы, а также стремление языка к более точному и специализированному обозначению понятий. Особое внимание уделяется классификации заимствованной лексики по источнику происхождения, степени освоения и характеру заимствования. В работе раскрываются особенности словообразовательных и семантических калек, приводятся примеры их функционирования в русском языке. Отдельно исследуются экзотизмы как разновидность заимствованной лексики, отражающая национально-культурные реалии других народов. Описываются их основные признаки, функции и сферы употребления. Делается вывод о том, что заимствования и экзотизмы являются важной частью современного русского языка и выполняют номинативную и стилистическую функции, способствуя расширению словарного состава языка и созданию национального калорита.

**Ключевые слова:** экзотизмы, иностранные слова, словообразовательные калки, заимствованные лексемы.

**Abstract:** The article examines borrowed words and exoticisms in the Russian language, their origin, usage features, and role in the development of the lexical system. The reasons for linguistic borrowings are analyzed, including cultural, social, scientific, and technological factors, as well as the tendency of the language toward more precise and specialized designation of concepts. Particular attention is paid to the classification of borrowed vocabulary according to the source of origin, degree of assimilation, and nature of borrowing. The paper reveals the characteristics of word-formation and semantic calques and provides examples of their functioning in the Russian language. Exoticisms are studied separately as a type of borrowed vocabulary reflecting the national and cultural



realities of other peoples. Their main features, functions, and spheres of usage are described. The study concludes that borrowings and exoticisms constitute an important part of the modern Russian language and perform nominative and stylistic functions, contributing to the expansion of the vocabulary and creation of national color.

**Keywords:** exoticisms, foreign words, word formation patterns, borrowed lexemes.

Заимствованием называют процесс перемещения различных элементов из одного языка в другой. Под элементами понимаются единицы различных уровней структуры языка- фонологии, морфологии, синтаксиса, лексики, семантики.

К неязыковым причинам процесса заимствования относятся разнообразные виды связей русского народа с другими народами, а также социальное развитие общества, прогресс науки и техники и т.д. Этот процесс наиболее характерен для ранних стадий развития русского языка.

К языковым причинам относится стремление носителей языка пополнить, углубить и расширить представление о предмете, детализировать понятие признака посредством разграничения смысловых и функциональных оттенков. Таким путем среди исконных синонимичных и антонимичных средств возникают заимствованные слова, которые имеют дополнительные оттенки значения или больше подходят к иной сфере употребления (ср. функционально-семантическое различие древнерусского *порты*, *протки* - первонач. «платье, одежда и холщовое нижнее мужское белье»; *штаны* из *стони*, встречающееся в памятниках с XV в. с первоначальным значением «короткое нижнее платье с чулками и башмаками» и голл. *broek* - *брюки*, пришедшие в начале XVIII в. со значение «матросское платье», «матросские штаны»).

К языковым причинам современные исследователи относят также тенденции замены расчлененного наименования нерасчлененным, ср.

современны: *автотрасса* вместо «автомобильная дорога», *мотель* - вместо «гостиница для автотуристов», *круиз* - вместо «путешествие на пароходе или теплоходе» и т.д.

Л.П. Крысин в своей статье «Иноязычное слово в контексте современной общественной жизни» выделяет ряд причин заимствований:

1) потребность в наименовании новой вещи, нового явления и т.п.: ср. слова типа *кино, радио, такси, магнитофон, транзистор* и под.

2) необходимость разграничить содержательно близкие, но все же различающиеся понятия; например, пары слов *уют - комфорт, страх - паника, обслуживание - сервис, сообщение - информация* и под.

3) необходимость специализации понятий в той или иной сфере для тех или иных целей; ср. например, пары типа *предупредительный - превентивный, вывоз - экспорт, преобразователь - трансформатор*; эвфемистические замены в области анатомии, физиологии и медицины.

4) тенденция, заключающаяся в том, что цельный, нерасчлененный на отдельные составляющие объект и обозначается должен «цельно», нерасчлененно, одним словом, а не сочетанием слов; так появились в русском языке слова типа *снайпер* (ср. русс: *меткий стрелок*), *стайер* (*бегун на длинные дистанции*), *спринтер* (*бегун на короткие дистанции*).

**Типы иноязычных слов.** Заимствованная лексика может классифицироваться по разным основаниям: по источнику, по распространенности определенных заимствований, по характеру заимствования, по степени освоения иноязычных слов.

По источнику заимствованная лексика делится на два типа:

- 1) заимствования из славянских языков (т.е. родственные);
- 2) из неславянских языков.

К первому типу относятся заимствования из старославянского языка, а также из других славянских языков (например, украинского, белорусского, польского, болгарского, чешского и т.д.).

Ко второму типу принадлежат заимствования из греческого, латинского, тюркские, иранские, скандинавские, западноевропейские (романские, германские и др.), а также многочисленные заимствования из языков народов бывших союзных республик.

По распространенности определенных заимствований в различных языках среди заимствованной лексики исследователями выделяется интернациональная лексика - слова, представленные в различных, причем не близкородственных языках - многие из таких слов восходят к древним языкам - древнегреческому и латинскому. Среди них такие слова, как *ассоциация, бюрократия, гуманный, интеллектуальный, объект, пассивный, принцип*.

По характеру заимствования выделяются заимствованные лексемы и кальки. Кальками являются заимствования, осуществленные путем буквального перевода на русский язык того или иного иноязычного слова. В лексикологии принято отличать друг от друга кальки словообразовательные и кальки лексические (семантические).

Словообразовательные кальки - это слова, полученные в результате перевода иноязычного слова по его составным морфологическим частям. В результате словообразовательных калек осуществляется как бы перевод на русский язык каждой морфемы иноязычного слова, например: *pro-nomen* (латин.) - место-имение (русс.), *subdivision* (франц.) - под-раздел-ение (русс.).

Семантические кальки - это такие исконно русские слова, с помощью которых осуществляется перевод семантики иноязычного слова в целом. В результате семантического калькирования сохраняются звуковой состав исконно русского слова, его словообразовательная структура и система присущих ему значений, одно из которых формируется в результате перевода слова иноязычного происхождения. Семантическое калькирование увеличивает в лексической системе русского языка количество многозначных слов в связи с возникновением у существующих ранее слов

новых значений в результате иноязычного лексического воздействия. Так, понятие “прикасаться” выражается во франц. языке глаголом *toucher*, а в русском - трогать. Однако франц. слово имеет и другое переносное значение - “вызывать сочувствие”. Под его воздействие у глагола трогать формируется аналогичное переносное значение: Ничто его не трогало.

Экзотизмы в научной литературе традиционно рассматриваются как разновидность заимствованной лексики, обозначающей явления культуры другого народа и находящиеся на периферии словарного состава, и различающиеся по степени употребительности и сфере использования.

Например: *Чачван* (тюрк.) – сетка из конского волоса, которая прикрывает лицо при ношении паранджи. *Хурма* (тур.) – южное дерево сем. эбеновых со сладкими оранжево-красными плодами, а также сами эти плоды. *Асиенда* (исп.) – во многих странах Латинской Америки крупное поместье. *Вендетта* (ит.) – обычай кровной мести (мести за битого родственника), распространенной на островах Сардинии и Корсики. *Боливиано* (исп.)- денежная единица Боливии, равная 100 сентаво.

Среди признаков экзотизмов выделяются следующие:

1) Экзотизмы обычно не переводятся, так как обозначаемые ими реалии специфичны и присущи только тому народу, о котором рассказывается. Ср.: *раджа* (санскр.) – княжеский титул в Индии, а также человек, носящий этот титул; *афгани* (пушт.) – денежная единица Афганистана, равная 100 *пулам* (разменная монета Афганистана, равная одной сотой афгани); *рахат-лукум* (тюрк. из араб.)- восточная сладость, приготавливаемая из смеси муки, сахара, крахмала, орехов, миндаля, фруктовых соков.

2) Сохраняют в своем большинстве национальные языковые черты (кроме графического и отчасти фонетического облика). Ср.: *араукария* (от назв. чилийской провинции Арауко) – высокое хвойное дерево, распространенное в Юж. Америке и Австралии; *грефье* (фр.) – во Франции и Бельгии- должностное лицо при парламенте или суде, составляющее

официальные отчеты, редактирующее документы; агрежо (фр.) – ученая степень во Франции, дающая право преподавать в лицеях и в университетах.

3) Имеют четко закрепленную принадлежность к определенной стране, республике, области и национальности. Ср.: *нанду* (исп.) – американские страусы - отряд бескилевых птиц, с развитыми, но непригодными для полета крыльями; распространены в Юж. Америке; *кимоно* (яп.) – традиционная японская одежда - прямой халат с цельнокроеными рукавами и широким поясом; *сари* (хинди)- женская одежда в Индии в виде куска ткани (длиной в 5-9 м), обертываемой вокруг тела и переброшенной через плечо.

4) Могут быть малоизвестны носителям того языка, в котором употребляется. Ср.: *йодль* (нем.)- жанр народных песен альпийских горцев, а также манера, в которой песни этого жанра исполняются – фальцет с использованием очень высоких регистров звука; *сунна* (ар.) – священное мусульманское предание, содержащие рассказы о Мухаммеде, а также его высказывания; считается дополнение к Корану; *тараф* (рум.) – румынский и молдавский народный оркестр, обычно состоящий из скрипки, кобзы, цимбая, на и бубна.

Главным выводом нашей работы является следующее: варваризмы и экзотизмы занимают совершенно определенное место в системе заимствований русского языка и выполняют определенные же номинативные и стилистические функции, используя при описании чужеземных обычаев, быта, нравов, для создания местного колорита.

#### Использованные литературы:

1. Вейдле В. Пушкин и Европа // Русская речь. – М., 2000. - №3.
2. Колосова Н.А. Французский язык в идейно-стилевой системе пушкинских произведений. – Самара: Изд-во СГУ, 2003.
3. Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М, 2001
4. Лотман Ю.М. Беседы о русской культуре. – СПб.: Искусство, 2002.
5. Лотман Ю.М. Роман А.С. Пушкина "Евгений Онегин". - Л, 2000.
6. Новиков Л.А. О семантическом переоформлении заимствованных слов в русском языке. – Русский язык в школе, 2004, № 3.
7. Пушкин А.С. Полное собрание сочинений. –2005.

# MUNDARIJA

## O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MUAMMOLARI

| №   | Ismi va sharifi                | Maqola nomi                                                                                             | Sahifa |
|-----|--------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|
| 1.  | Jabborov N.                    | Is’hoqxon Ibrat asarlari matnini o‘rganishning dolzarb masalalari.....                                  | 6      |
| 2.  | To‘xliyev B.                   | Matn va tahlil muammolari.....                                                                          | 16     |
| 3.  | Jo‘rayev H.                    | G‘urbat motivlarining badiiy talqinlari.....                                                            | 21     |
| 4.  | Hayitov Sh.                    | Qo‘lyozmada tarix sadosi.....                                                                           | 28     |
| 5.  | Yusupova D.                    | “Tarixi muluki ajam” asari tarjimasining matn xususiyatlari.....                                        | 32     |
| 6.  | Soatova N.                     | So‘fiy Allohyor talqinida nafs va inson ma’naviyati masalasi.....                                       | 44     |
| 7.  | G‘ayipov D.                    | Komil Xorazmiy va Feruzning ustoz-shogirdlik munosabatlari xususida.....                                | 51     |
| 8.  | Karimova F.                    | Komyob devoni debochasining o‘ziga xos jihatlari.....                                                   | 60     |
| 9.  | Amonova Z.<br>Boqiyev A.       | Saif Zafar Buxoriyning “Durrul majolisi turkiy” toshbosmasining mavzulari va manbalari.....             | 65     |
| 10. | Hamroyeva O.                   | Maxmur hayoti va ijodi manbalari.....                                                                   | 71     |
| 11. | Davlatov O.                    | Alisher Navoiy asarlarida Amir Temur siymosi.....                                                       | 82     |
| 12. | Amonov Sh.                     | Hamza Hakimzoda Niyoziy she’riyati tadqiqi haqida .....                                                 | 93     |
| 13. | Mahmudov J.                    | Maxlas Namangoniyning «Tuhfat ul-obidiyn va anisul-oshiqiyn» asari xususida..                           | 102    |
| 14. | Abdullayev K.                  | Buyuk shoirlar shaxsidagi mushtarak insoniy fazilatlarining badiiy talqini.....                         | 109    |
| 15. | Eshonqulova S.                 | Nodira lirikasida “ko‘ngul” obrazining matniy-badiiy talqini.....                                       | 120    |
| 16. | To‘xsanov Q.,<br>To‘rayeva U.  | O‘zbek jadid adabiyoti va uning manbalariga doir izlanishlar .....                                      | 126    |
| 17. | Bekova N.,<br>Ibroimova M.     | Alisher Navoiyning “Nasim ul-xuld” qasidasi poetikasi.....                                              | 132    |
| 18. | Hayitov Sh.,<br>Barotova X.    | XX asrda qo‘lyozma manbalarini o‘rganish va tadqiq qilishning yangi yo‘nalishlari.....                  | 139    |
| 19. | Sulaymonov M.,<br>Xoldorova G. | Alisher Navoiy asarlariga munosabat: Britannica.com., Hamid Dabashi, Paul Smith qarashlari asosida..... | 150    |
| 20. | Abdullaev M.                   | Arab adabiyotida ilmi balog‘atning o‘rni....                                                            | 156    |

|     |                             |                                                                                                           |     |
|-----|-----------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 21. | Umarova S.                  | Xorazmda devonchilik an'anasi.....                                                                        | 161 |
| 22. | Tojiboyeva O.               | Mumtoz matnni tushunishda germeneytik metodning ahamiyati.....                                            | 168 |
| 23. | Jumayeva D.                 | Mirzo Olim Devonaning "Ravzai asror" asarining nusxalari.....                                             | 174 |
| 24. | Cəbrailova A.               | Əfqanistanda nəvaişünasliq mənbələrinin tədqiqi problemləri.....                                          | 179 |
| 25. | Xolbutayev G'.              | Komik folklor janrlarining tadqiq etilish tarixi va nazariy qarashlar.....                                | 184 |
| 26. | Sulaymonova X.              | Qo'lyozmalardagi tamalluk (mulkchilik) qaydlari xususida .....                                            | 191 |
| 27. | Mahmudov C.,<br>Yusupova N. | Ahmed Mahmud Hâzînî ve Hâfiz Şîrazî.....                                                                  | 196 |
| 28. | Sayidolimov J.              | Sharq adabiy tafakkurining rivojlanishida Qur'oni karimning ahamiyati.....                                | 206 |
| 29. | Abdualililova D.            | "Hayrat ul-abror" va "Gulshan ul-anvor" dostonlaridagi hamd va munojotlarning matn xususiyatlari.....     | 210 |
| 30. | Temirova A.                 | Alisher Navoiy ijodi Natan Mallayev talqinida.....                                                        | 220 |
| 31. | Sodaliyeva S.               | Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy g'azallaridagi poetik mushtaraklik.....                                  | 225 |
| 32. | Muhammadrajabov F.          | Badr Chochiy devonining Pokistonda saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari.....                                 | 234 |
| 33. | Nishonova X.                | Boborahim Mashrab badiiyatida "Mabdayi nur" poetik konsepsiyasi.....                                      | 255 |
| 34. | Xoshimova G.                | Navoiy g'azaliyotida o'xshatishga asoslangan she'riy san'atlar xususida.....                              | 260 |
| 35. | Sheraliyeva R.              | Hamidjon Homidiy – navoiyshunos.....                                                                      | 265 |
| 36. | Esanova D.                  | Ahmad al-Muammoiyning "Risolayi muammo" asarida muammo janrinning mantiqiy va semiotik xususiyatlari..... | 274 |
| 37. | Jo'rayeva H.                | Husayniy she'riyatining mavzu mundariyasi.....                                                            | 278 |
| 38. | Latipova S.                 | "Turkiy me'rojnoma" toshbosmasida me'roj voqeasining matniy tadqiqi.....                                  | 285 |
| 39. | Tolibova F.                 | Ibrohim Haqqulov tadqiqotlarida Boborahim Mashrab ijodiga munosabat.....                                  | 296 |
| 40. | Mamayusupov M.              | Ahmad Tabibiy va uning "Vomiy va Azro" dostoni.....                                                       | 302 |
| 41. | Bobomurodova M.             | Lutfiy turkiy devonining qo'lyozma nusxalari aro matn tahriri.....                                        | 308 |
| 42. | Elbekova Sh.                | Ahmad Tabibiy chistonlarining qo'lyozma                                                                   |     |



|     |                                               |                                                                                                                          |     |
|-----|-----------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|     |                                               | variantlari va matn muammolari.....                                                                                      | 314 |
| 43. | Shermamatova Sh.                              | Bobur g'azali matniy tadqiqi.....                                                                                        | 321 |
| 44. | Siddiqova U.                                  | Navoiy ijodiga temuriylar madaniyatining ta'siri.....                                                                    | 326 |
| 45. | Züleyha Gümüşler                              | Bâbü rnâme Eserindeki Dağ İmgesi.....                                                                                    | 335 |
| 46. | Mahmudova N.                                  | Bobur ijodida diniy-ma'rifiy qarashlar ifodasi.....                                                                      | 342 |
| 47. | Yusufaliyeva M.                               | “Tazkirayi Qayyumiy”da ayol ijodkorlar zikri.....                                                                        | 347 |
|     | <b>MATN VA MANBALARNING TIL XUSUSIYATLARI</b> |                                                                                                                          |     |
| 48. | Uluqov N.                                     | “Mehrobdan chayon” romanida qo'llangan frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari va uslubiy jilolari.....        | 354 |
| 49. | Zohidov R.                                    | Eski o'zbek tili va imlo transformatsiyasi masalasi.....                                                                 | 359 |
| 50. | Sultonova Sh.                                 | Rus va o'zbek tillaridagi din asosida shakllangan frazeologizmlarning dolzarblashuvi: ijtimoiy-madaniy jihat.....        | 365 |
| 51. | Usmonova H.,<br>Nazarova D.                   | O'zbek tilshunosligida modallik kategoriyasining nazariy asoslari.....                                                   | 372 |
| 52. | Rozikova G.,<br>Sharipova M.                  | Ruhiy holatning kinetik vositalar orqali ifodalanishi.....                                                               | 376 |
| 53. | Tovuz Teymurova                               | Sözcüksel-üslup unsurlari (Fıkret Koca'nın edebî eserlerinde).....                                                       | 381 |
| 54. | Bekova N.,<br>Soliyev F.                      | Detektiv romanlarga xos bo'lgan lingvopragmatik jihatlar tahlili.....                                                    | 391 |
| 55. | Jamoliddinova D.,<br>A'zamova Sh.             | Tarixiy termin tushunchasining lingvistik mohiyati.....                                                                  | 396 |
| 56. | Ibrahimova A.                                 | Türk mənşəli onomastik vahidlərin linqvokulturoloji aspekti.....                                                         | 400 |
| 57. | Abbasova Z.                                   | Türk simvollarının ərəb dilinə və digər dillərə integrasiyası və onların linqvokulturoloji aspekti.....                  | 405 |
| 58. | Turdiyeva K.                                  | “Badiiy adabiyotda tibbiyot” fanini tibbiy yo'nalishdagi oliygohlar o'quv dasturiga kiritilishining muhim ahamiyati..... | 412 |
| 59. | Lafasov U.                                    | Sof o'zbek lahjasi va matnshunoslik.....                                                                                 | 419 |
| 60. | Babaxanova D.                                 | Matn uslubiy turlarining pragmatik xususiyatlari.....                                                                    | 425 |

|     |                                          |                                                                                                                               |     |
|-----|------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 61. | Тошбекова Д.                             | Основные семантические поля иронических фразеологизмов.....                                                                   | 432 |
| 62. | Zaripov R.                               | Guruhlararo va guruh ichidagi muloqotning ijtimoiy-kommunikativ xususiyatlari: rollar, me'yorlar va yetakchilik omillari..... | 438 |
| 63. | Усманова С.                              | Сопоставительный анализ средств выражения эпистемической модальности в русском и узбекском языках.....                        | 442 |
| 64. | Saidova M., Babaxanova D.                | Badiiy matndagi uyushiq bo'laklar va undalmalarning uslubiy xususiyatlari.....                                                | 449 |
| 65. | Zaripov R.                               | Madaniyatlararo muloqot va kommunikativ kompetensiya.....                                                                     | 455 |
| 66. | Babaxanova D., Saidova M.                | Badiiy matn ko'p aspektli tizim sifatida.....                                                                                 | 462 |
| 67. | Solixo'jayeva H.                         | O'zbek tili geontonimlarining etnolingvistik va lingvokulturologik tahlili.....                                               | 473 |
| 68. | Yuldashev O.                             | Ayrim o'zbek gemeronimlarining nominatsion-motivatsion tahlili.....                                                           | 477 |
| 69. | Umarova N.                               | Telegram o'zbek segmentidagi matnlarning janr va kommunikativ xususiyatlari.....                                              | 485 |
| 70. | Исманова Н., Кетирекеева А., Рсалиева А. | Заманбап билим берүү системасында мугалимдин ролу.....                                                                        | 490 |
| 71. | Хайитова М.                              | Текст как средство формирования лингвистической компетентности при обучении русскому языку как иностранному.....              | 495 |
| 72. | Musaboyeva Z.                            | Ona tili konseptining ilmiy, lisoniy va madaniy talqinlari.....                                                               | 504 |
| 73. | Saparova S.                              | Nutqiy etiket birliklarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning dars samaradorligini oshirishdagi roli.....       | 510 |
| 74. | To'xtasinova Y.                          | Badiiy matndagi modal so'zlar inversiyasining lingvopoetik xususiyatlari...                                                   | 515 |
| 75. | Rahimova S.                              | Ahmad Tabibiy she'riyatining til xususiyatlari.....                                                                           | 519 |
| 76. | Жумаева К.                               | Основные компоненты ментального лексикона и их роль в процессах речевой деятельности.....                                     | 529 |
| 77. | Qodirqulov N.                            | Arab tilida sifatlarning ma'no turiga ko'ra farqlanishi.....                                                                  | 535 |
| 78. | Teshaboyeva S.                           | Badiiy matnda sarlavhalar uslubiyati.....                                                                                     | 541 |
| 79. | Муродхонова Ш.                           | Анализ языковых особенностей рекламных текстов.....                                                                           | 544 |

|     |                                    |                                                                                              |     |
|-----|------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 80. | Yusupova I.                        | Badiiy matnda morfologik vositalarning stilistik funksiyasi.....                             | 551 |
| 81. | Abdullayeva O.                     | Jiydakapa qishloq shevasidagi ayrim soʻzlarning morfologik, leksik tahlili.....              | 556 |
| 82. | Tursunboyeva N.                    | Imlo lugʻatlari .....                                                                        | 560 |
| 83. | Tolibjonova Sh.                    | Xudoyberdi Toʻxtaboyev asarlaridagi ayrim biblionimlarning badiiy-estetik xususiyatlari..... | 564 |
| 84. | Мухаммаджонова М.<br>Axmadjonov O. | Займствованные слова и экзотизмы в русском языке.....                                        | 570 |